

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI  
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

OCHIL ROZIQOV, MELS MAHMUDOV  
BAHTIYOR ADIZOV, ALIJON HAMROYEV

# ONA TILI DIDAKTIKASI

*Oliy va o'rta maxsus ta'lum vazirligi tomonidan (Boshlang'ich ta'lum va sport tarbiyaviy ish (5141600), filologiya (5220100), pedagogika institutlarining ona tili va adabiyoti (5141300) — bakalavriat tal'um yo'naliishi talabalari uchun darslik sifatida tavsiya etilgan*

Toshkent  
«Yangi asr avlodи»  
2005

*Ushbu darslikda ona tili didaktikasining tamoyillari xususida fikr yuritiladi. Bundan tashqari, ona tili ta'limi metodlari, ona tili ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, lingvistik mashq va ularning tiplari, ona tilidan dars tiplari, ta'lim texnologiyasi, ta'limni optimallashtirish, shuningdek, ona tilini ta'lim etalonini vositasida loyihalash kabi masalalari o'z ifodasini topgan.*

*Mazkur darslik talabalar, magistrant, aspirant va tadqiqotchilar uchun mo'ljallangan.*


**Mas'ul muharrir:**

O.T.SAFAROV, filologiya fanlari doktori, professor

**Taqrizchilar:**

H.G'.NE'MATOV, filologiya fanlari doktori, professor

SH.R.BAROTOV, psixologiya fanlari doktori



ISBN 5-633-01820-6

© O.R.Roziqov, M.H.Mahmudov; B.R. Adizov, A.R.Hamroyev  
«Ona tili didaktikasi» «Yangi asr avlodii», 2005 yil.

*Mustaqillik tufayli o'zbekni olam tanidi.  
Istiqlolning ilk shabadasi  
ufura boshlagan ayyom —  
Mustaqillik kuniga bag'ishlaymiz.*

## **SO'ZBOSHI**

*Hurmatli kitobxon! Fikrlashni o'zaro egizak ikki atamani muqoyosa qilishdan boshlaymiz: ona tili metodikasi va ona tili didaktikasi. Ona tili metodikasi pedagogik fan bo'lib, uning maqsad, vazifalarini oliy o'quv yurtlarida o'qib yurgan talabalik yillarida o'rgangansiz. Binobarin, «ona tili metodikasi» atamasi ham, shu atama asosida idrok va tasavvur qilinadigan o'quv kursi ham sizga tanish. Shu bilan birga yaxshi bilasizki, maktablarda o'rganiladigan har bir o'quv predmetining o'z metodikasi mavjud. Matematikani o'qitish masalalarini matematika metodikasi o'rgansa, fizika ta'lmini tashkil etish muammolari bilan fizika metodikasi shug'ullanadi. Barcha metodik fanlarga o'xshab, ona tili metodikasi ham ona tili o'qitishning mazmuni, maqsadi, tamoyillari, metodlari, tashkiliy shakllarini o'rganadi; ona tili didaktikasi ham maktablarda ona tili o'qitishning mazmuni, maqsadi, vositalari, tashkiliy shakllari kabi hodisalarini o'rganadi. Shunday bo'lgach, «ona tili metodikasi» bilan yonma-yon «ona tili didaktikasi» atamasini ishlatishga, shu atama bo'yicha tasavvur qilinadigan fanga ehtiyoj bormi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Savolga javobni ona tili metodikasi fanining o'zidan izlaymiz.*

*Ona tili metodikasi to'lig'icha XX asr mobaynida shakllanib, rivojlangan fandir. Uning rivojlanib, fan shaklini olishida rus tili metodikasining ta'siri katta bo'ldi. Natijada, rus milliy maktablarida rus tili o'qitish metodikasiga o'xshatish yo'li bilan asoslangan ona tili metodikasi fani hozirgi shakl-shamoyilini oldi. Rus tili metodikasi bo'yicha o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlarga o'xshatish yo'li bilan ona tili metodikasi sohusida ilmiy izlanishlar olib borildi. Bularning natijasi o'laroq, rus tili va ona tili metodikasi sohalarida dublet ko'rinishdagi ilmiy ishlar ko'payib ketdi. Bir nechta misol keltiramiz: «Словарная работа учащихся на уроках русского языка» ва «Ona tili darslarida lug'at ustida ishlash»; «Самостоятельная работа учащихся на уроках русского языка» ва «Ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari»; «Развитие речи учащихся при изучении имени «Существительного» в начальных классах» ва «Boshlang'ich sinflarda «Ot» so'z turkumini o'qitishda o'quvchilarning nutqini o'stirish» ва sh.k. Rus va ona tili metodikasi sohasida aynan olingan mavzularda ketma-ket yozilgan ilmiy tadqiqot ishlari shunchalik ko'PKI, ular kishini ona tili metodikasini o'zbek maktabi dalillari bilan boyitilgan rus tili metodikasining tarjimasi sifatida qarash fikriga olib keladi. Bunday fikrlash uchun qat'iy asoslarimiz bor: o'zbek tilshunosligining rus tilshunosligi izidan borishiga o'xshab, ona tili metodikasi zimmasiga ham rus tili metodikasida muhokama qilinayotgan muammolar doirasidan chiqmaslik majburiyati yuklatilgan edi. Bu oxir-oqibatda, ona tili metodikasining tarjima darajasida qolib ketishiga sabab bo'ldi, bu birinchidan. Ikkinchidan, o'igan asrning 20-villardan boshlab ona tili metodikasi o'z tarixiy o'zanidan tashqarida rivojiana boshladi. Maktab, masjidlarda domulla va imomlar dars berishgan bo'lsa, qiz bolalarning o'qish va tarbiyasi bilan otinbibi (Toshkentda), bibixalifa (Buxoroda), eltabibi (Xivada)lar mashg'ul bo'lishgan. Biroq bunday pedagogik tajriba «o'limga» mahkum etildi. Shu va boshqa*

*sabablarga ko'ra, ona tili metodikasi o'z asosidan ajraldi. Buyuk o'zbek mutafakkiri Abu Rayhon Beruniyning fikricha, «Asosi bo'limgan fandan voz kechsa ham bo'ladi»<sup>1</sup>.*

*Maktab ona tili ta'limini o'z tarixiy o'zanida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish, til ta'limining samaradorligini mo'ljallab tamoman yangi yo'l — ona tili didaktikasini asoslashni ko'zladik. Siz, hurmatli kitobxon, ona tili metodikasi fanini, uning tadqiqot predmeti, vazifalari, ta'limni tashkil etish shakllarini yaxshi bilasiz. Biz sizga ona tili metodikasi bilan yonma-yon, parallel o'rganiladigan ona tili didaktikasi fanini taklif qilyapmiz. Ona tili didaktikasi qator afzalliklari bilan ona tili metodikasidan farq qiladi. Bu tafovutlar quyidagilar:*

*— maktablarda ona tili o'qitish tajribasini pedagogik, psixologik umumlashmalar darajasiga ko'tarish;*

*— til o'qitish tajribasining pragmatik yo'nalishini — amaliy muammolarni tanlash va bajarish jarayonida o'quvchining o'z intilishlari, xatti-harakatlari ustuvorligini ta'minlash;*

*— bolalarning o'quv-biluv faoliyatini ta'lim jarayoni subyekti sifatida sharhlash;*

*— ona tilidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarni tilni o'zlashtirishning tabiiy laboratoriysi sifatida qarashni asoslashdan iborat.*

*Ushbu kitobda ona tili didaktikasi xususida fikr yuritildi. Unda mактабда ona tili o'qitishning qator muammolariga yangicha yondashildi. Ona tili didaktikasiga oid asosiy kategoriyalar tavsifi, o'zbek tilshunosligi fani maktab ona tili predmeti va ona tili darsliklari, ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmuni, ona tilini o'zlashtirish qonuniyatlari va tamoyillari, maktablarda lingvistik mashqlarning mohiyati, qurilishi, tiplari, ta'lim etalonini vositasida ona tili ta'limini loyihalash kabilar shu xildagi muammolar sirasiga kiradi.*

<sup>1</sup> Beruniy Abu Rayhon. Hikmatlar. —T.: «Yosh gvardiya», 1973. 20-bet.

*Ona tili didaktikasidan ilk tayyorlangan darslikni o'qib, uning yutuq va kamchiliklarini ko'rsatishni Siz hurmatli kitobxonlarga havola qilamiz. Kitobni qayta nashrga tayyorlashda tanqidiy fikrlaringizni inobatga olish niyatidamiz.*

*Ushbu darslikning 1-bobini O.Roziqov, B.Adizov, A.Hamroyev, 2-bobini M.Mahmudov, O.Roziqov, A.Hamroyev, 3-bobini O.Roziqov, A.Hamroyev, 4-bobini O.Roziqov, 5-bobini B.Adizov, A.Hamroyev, 6-bobini O.Roziqov, 7-bobini B.Adizov, A.Hamroyev, 8-9-boblarni O.Roziqov, 10-bobini O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, 11-bobini O.Roziqov, 12-bobini M.Mahmudov yozdi.*

## I BOB

### **ONA TILI DIDAKTIKASI, UNING TADQIQOT PREDMETI, ASOSIY KATEGORIYALARI TIZIMI**

Ona tili didaktikasi metodik izlanishlarni umumlash-tiruvchi pedagogik fandir. U tilshunoslik, umumiylididaktika, bolalar psixologiyasi, metodika kabi qator fanlarning yutuqlariga tayanib, o‘z tadqiqot predmeti, vazifalari, tushunchalar tizimini belgilaydi. Ona tili didaktikasi boshqa fanlarga nisbatan amaliy fanmi? Agar ona tili didaktikasi amaliy fan bo‘lsa, uning nazariy asoslari mavjudmi? Maktabda ona tili o‘qitish amaliyotini ona tili metodikasi ham o‘rganadi. Ona tili didaktikasi til o‘qitish tajribasini qaysi jihatlariga ko‘ra, tadqiq qiladi? Bu savollarga ona tili didaktikasi tadqiqot predmeti, uning vazifalarini aniq chegaralash yo‘li bilan javob izlash mumkin.

#### **1-fasl. Ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti**

Umumiylididaktika ijtimoiy tajribani yoshlarga o‘rgatish muammolarini tadqiq qiluvchi fandir. Ona tili didaktikasi esa yoshlarda ijtimoiy tajribaning alohida xususiyati — fikrni til vositasida shakllantirish va uni ro‘yobga chiqarish tajribasini rivojlantirishdan iborat. Til yashagan, yashayotgan va bundan keyin yashaydigan avlodlar o‘rtasidagi vorislikni ta’minlay-digan asosiy vosita bo‘lib, uni maktabda o‘quv predmeti sifatida o‘qitish tilning ta’lim-tarbiyaviy qimmatini yanada oshiradi. Shunday ekan, ona tili didaktikasining tadqiqot predmetini qanday tushunmoq kerak?

Adabiyotlarda til o‘qitish metodikasining tadqiqot predmetini ajratishga urinishlar istagancha topiladi. L.P. Fedorenko «ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatları va til bilimlerini bolalarga o‘rgatish vositalarını» bu fanning tadqiqot predmeti sifatida ajratgan. L.P. Fedorenkoning ta’rifida ikki

xil hodisa metodikaning tadqiqot predmeti sifatida qayd etilgan. Tilni o'zlashtirish qonuniyatları keng hodisa bo'lib, u ona tili metodikasi fani doirasidan chiqishga olib keladi. Birinchidan, ona tili o'quv predmeti sifatida ta'lim jarayonida o'qitiladi. Tilni o'zlashtirish qonuniyatları, avvalo, tilning o'z tabiatiga, urf- od़at, an'analar, jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqot, fiziologik va psixologik hodisalarga daxldor. Ko'p qirrali, rang-barang jarayonlarga mansub hodisani ona tili metodikasining tadqiqot predmeti sifatida ajratish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi. Ikkinchidan, til bilimlarini bolalarga o'rgatish vositalarini metodikaning tadqiqot predmeti shaklida tan olish, bu fanning harakat doirasini toraytirishga sabab bo'ladi. Aslida esa, ona tili metodikasi va uning qobig'ida shakllanayotgan ona tili didaktikasi didaktika o'rganadigan hodisalarni xususiy holatlarda — ona tili o'qitish nuqtai nazaridan o'rganadi. Binobarin, ona tili didaktikasi umumiy didaktikaga o'xshab, ta'lim jarayoni, ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmuni, ta'lim turlari, metodlari, tashkiliy shakllari, vositalari kabi muammolarining barchasi bilan aloqadordir.

Barcha o'quv predmetlariga o'xshab ona tili ham maktabda ta'lim jarayonida o'rganiladi. Ta'lim jarayoni esa bola uchun tilni o'zlashtirishning yangi shart-sharoiti bo'lib, u makon va zamonda yuz beradi. Til ta'limining ma'lum sharoitida — ta'lim jarayonida amal qilishi, uni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga oid hodisalarni ma'lum darajada osonlashtiradi, o'quvtarbiya jarayonida uchraydigan stoxastlikni<sup>2</sup> (kutilgan va kutilmagan, rejalahtirilgan va rejalahtirilmagan, muqarrar va tasodifiy hodisalar mavjudligi) chegaralash imkoniyatini beradi.

Ona tilidan qanday mashg'ulot bo'lmasin, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri ma'lum o'quv materialiga yo'nalgan. O'qituvchi faoliyati (o'qitish), o'quvchilar faoliyati (o'qish), bolalarning real o'quv imkoniyatlariga mos o'quv materiali tilni ta'lim sharoitida o'zlashtirishning barqaror

<sup>2</sup> Stoxastik — grekcha «stochatikos» so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha «tasodifiy», «kutilmagan», «to'satdan» so'zlarining ma'nolariga to'g'ri keladi.

uzvlari sanaladi. Ulardan birontasi qatnashmasa, ta'lim zuhur etmaydi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzu doirasida o'z bilimlarini tushuntirish yo'li bilan bolalarga ta'sir qilsa, o'quvchilar o'qituvchi tushuntirishini tinglash, savollarga javob izlash, topshiriqlarni bajarish yo'llari bilan unga ta'sir qiladi. Ikki xil ta'sirning amal qilish natijasi o'laroq, ta'lim ijtimoiy institutining alohida turi sifatida amal qiladi. O'quv materiallariga ko'ra, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti hisoblanadi.

## **2-fasl. Ona tili didaktikasining maqsad hamda vazifalari**

**Ona tili didaktikasining maqsadi.** O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Fan yutuqlari, urf-odat, an'analar davlat tili vositasida e'zozlanadi, asraladi, avloddan-avlodga meros qilib qoldiriladi. Hayotning barcha sohasida to'plangan ijtimoiy tajriba ona tili orqali o'zlashtiriladi, ona tili vositasida o'rgatiladi. Shu tufayli ona tili birinchi muallim sanaladi. Maktabda ona tilini o'quv predmeti sifatida o'qitish uning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini yanada oshiradi.

Bola o'zining ilk tasavvurlarini, ichki kechinmalarini til vositasida yuzaga chiqaradi. U o'zini va o'zgalarni, atrofdagi narsa-hodisalarini til yordamida taniydi, bilib oladi. Maktabda til o'qitish — uni o'zlashtirishning tabiiy davomi bo'lib, u bolalarning maktabga kelguncha hosil qilgan nutq tajribasi asosida tashkil etiladi.

Ona tili predmeti o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning fikrini yuzaga chiqarish shakllari (og'zaki va yozma nutq), vositalari (tovush, harf, so'z, gap, matn), usullarini (aytish va eshitish, gapirish va tinglash, o'qish va yozish) egallashlari bilan qo'shib olib borishning yetakchi omildir.

Ona tili didaktikasining maqsadi o'quvchilarda fikrlash mahsulini adabiy til me'yorlari hamda nutq maqsadiga

muvofig, og‘zaki va yozma shaklda ongli, to‘g‘ri, ravon, ta’sirchan bayon qilish qobiliyatlarini rivojlantirish qonuniyatlar, tamoyillari, vositalarini tadqiq qilishdan iborat.

**Ona tili didaktikasining vazifalari.** Ona tili didaktikasi pedagogik fanlar sirasiga kirib, mакtabda ona tili o‘qitishning mazmuni, mundarijasi, yo‘nalishlari, tamoyillari, vositalari, tashkiliy shakllarini o‘rganadi. U mакtabda ona tili o‘qitish muammolarini tadqiq qilar ekan, qator savollarga javob izlaydi.

Nima uchun o‘qitiladi? Shu savol asosida mакtabda ona tili o‘qitishning maqsadi qayd etiladi. Mакtabda ona tili ta’limining asosiy maqsadi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashdir. Nutq madaniyati tarkiban bilim, ko‘nikmalaka, ijodiy faoliyat tajribasi va tilga oid munosabatlar tizimidan iborat.

Nega shunday o‘qitiladi? Bu savol ona tilini o‘zlashtirish jarayonida rioya qilinadigan qonuniyatlar, til o‘qitishning o‘zigagina xos me’yoriy talablar — xususiy didaktik umda (prinsip)lar bilan daxldordir. Qonuniyatlar ona tili materiallarini o‘zlashtirish jarayonida takrorlanib turadigan universal bog‘lanishlardir. Bunday qonuniyatlar jumlasiga shakl va mazmun, og‘zaki va yozma nutq, til va nutq, nazariya va amaliyotning o‘zaro aloqadorligi kiradi. Qonuniyatlarga ko‘ra, til o‘qitish prinsiplari me’yoriy talablar shaklida ishlab chiqiladi.

Nima o‘qitiladi? Ona tilidan ma’lumot va ta’lim mazmuni shu savolga ko‘ra aniqlanadi. Ma’lumot va ta’lim mazmunida tilning fonetikasi, leksikasi va grammatikasiga oid nazariy bilimlar hamda shu bilimlarga mos orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik<sup>3</sup> malakalar ko‘zda tutiladi.

<sup>3</sup> Prosodik — grekcha «prosodia» so‘zidan olingan bo‘lib, nutqning tembri, kuchi, ovoz balandligi, ton, urg‘u, urg‘u tushgan bo‘g‘inlarni baland ovoz bilan aytishni anglatadi.

Qanday o‘qitiladi? Ona tilidan ta’lim metodlari, usullari, vositalari shu savol bo‘yicha o‘rganiladi.

Ona tili ta’limi qanday tashkiliy shakllar asosida amalga oshiriladi? Ona tili didaktikasi shu savol bo‘yicha ta’limning tashkiliy shakllari (dars, uy ishi), turlarini (izohliko‘rgazmali, differensial, muammoli va sh.k.) yakka (individual), guruh, jamoa asosida tashkil etish muammolarini tahlil etadi.

Yuqoridagi savollardan ko‘rinadiki, ona tili didaktikasi didaktika o‘rganadigan muammolarning barchasiga xususiylik nuqtai nazaridan yondashadi. Tadqiq qilinadigan muammolarga ko‘ra, ona tili didaktikasi keng qamrovli fan bo‘lib, u mакtabda tilning fonetik, leksik, grammatic tomонлари bo‘yicha nazariy ma’lumotlarni o‘zlashtirish, nazariy bilimlar asosida bolalarda nutq malakalarini shakllantirish masalalari bilan shug‘ullanadi.

**Ona tili didaktikasining nazariy muaminolari.** Ona tili didaktikasi ona tili metodikasi fani qobig‘ida shakllanayotgan fan bo‘lib, u metodika yutuqlaridan, dalillardan o‘z tadqiqot predmetini aniqlashda foydalanadi. Shu bilan birga, u metodika erishgan natijalarni umumlashtirib, nazariya darajasiga olib chiqadi. Ona tili metodikasining hozirgi taraqqiyot darajasida quyidagi muammolarni nazariya darajasiga ko‘tarish imkoniyatlari mavjud:

- mакtabda ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatları, prinsiplari;
- ona tilidan ma’lumot va ta’lim mazmuni hamda ularni moddiylashtirish masalalari;
- ona tili mashg‘ulotlarida lingvistik tushunchalar ustida ishslash muammolari;
- ona tilidagi ta’lim metodlari;
- lingvistik mashqlar, ularning qurilishi, tiplari;
- ona tilidagi dars tipologiyasi, tiplari hamda ularni tashkil etish texnologiyasi;
- ona tilidan nutq o‘stirish tizimi.

### **3-fasl. Məktəbdə ona tili o'qitishning umumiy asoslari**

Tilning jamiyatda tutgan o'rni, til va tafakkur hamda til va nutqning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi g'oyalar məktəbdə ona tili ta'limining nazariy asoslari sanaladi. Binobarin, ona tili didaktikasi davlatimizning til to'g'risidagi siyosatini amalga oshirish yo'llari, vositalari, tashkiliy shakllarini ishlab chiqish, ularni məktəb o'qituvchilari faoliyatiga tatbiq etishda til va jamiyat, til va tafakkur, til va nutqning o'zaro daxldorligi, aloqadorligi xususidagi qarashlar hamda tamoyillarga asoslanadi.

**Til va jamiyat.** Til — ijtimoiy hodisa. U kishilarning eng muhim aloqalashuv va fikrlashuv qurolidir. Til jamiyat a'zolarining tabiiy-biologik tuzilishlari, ijtimoiy kelib chiqishlaridan qat'i nazar, ularning barchasi uchun teppa-teng xizmat qiladi. Jamiyat rivojlangan sari, til ham rivojlanib, takomillashib boradi. Til kishilik jamiyat bilan bir paytda paydo bo'lган. Tilsiz jamiyat, jamiyatsiz til bo'lmaydi. Til bo'lmaganda, jamiyat a'zolari o'rtasida o'zaro aloqa bo'lmash edi. Kishilar o'rtasida o'zaro aloqa bo'lmaganda, jamiyat a'zolari uchun yetarli miqdorda moddiy ne'matlar ishlab chiqara olmasdi. Til inson faoliyatini jamiyatning moddiy negizini yaratish vositasini — ishlab chiqarish qurollari bilan uyg'unlashtiradi.

Inson — ijtimoiy mavjudot. Jamiyat til vositasida boshqariladi. Inson o'z maqsad va orzularini tabiatdagi narsa-hodisalarga nisbatan belgilaydi. Shu maqsadni amalga oshirishda, ishlab chiqarish qurollaridan foydalananadi. Ishlab chiqarishni boshqarishga oid tajriba bir avloddan ikkinchi avlodga til vositasida meros bo'lib qoladi. Bilim, tajriba til tufayli keyingi avlodning mulkiga aylanadi. Til jamiyatni rivojlantirish qurolidir.

Til insonning har qanday faoliyati bilan bevosita bog'langan. U shunday zaruriy aloqa qurolidirki, bu qurolni puxta egallamasdan turib, ijtimoiy hayot va jamiyat

to‘g‘risida to‘la tasavvur hosil qilib bo‘lmaydi. Shunday ekan, til yoshlarni ijtimoiy hayotning faol ishtirokchisi, jamiyatning ongli fuqarosi qilib tarbiyalash vositasidir.

Maktabda ona tilini o‘quv predmeti sifatida o‘rgatish — uning tarbiyaviy rolini oshirish, uni tarbiya quroliga aylantirish demakdir. Tilning ijtimoiy vazifalari va tarbiyaviy ahamiyatini faqat o‘qituvchigina emas, balki o‘quvchi ham sezsin, his qilsin. Kishining o‘zi uchun gapirib, o‘zi uchun yozmasligini, aksincha, kishilar uchun gapirib, kishilar uchun yozishni o‘quvchilar ijtimoiy zaruriyat deb anglamoqlari shart.

Maktabda til o‘qitilar ekan, til va jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi quyidagi xulosalarga tayaniladi.

1. Til — kishilarning eng muhim aloqalashuv vositasи. Tilning aloqalashuv va fikr almashuv vazifasi uni puxta o‘zlashtirish zaminida yanada o‘tkirlashadi.

2. Kishilik jamiyatni va til o‘zaro dialektik bog‘liqdir. Tilni mukammal egallash orqali o‘quvchilar jamiyatdagi o‘zgarishlarni qiyalmasdan tushunib oladilar.

3. Til — jamiyatni boshqarish va rivojlantirish quroli. Tilni atroflicha bilish tufayli o‘quvchilar jamiyat a‘zolarining ishlab chiqarish qurollarini boshqarishga oid tajribalarini, moddiy ne‘matlarni ishlab chiqarish usullarini atroflicha bilib oladilar.

4. Til insonning faoliyati bilan uzviy bog‘langan. Tilni o‘rganish vositasida o‘quvchilar moddiy va ma’naviy hayotning faol ishtirokchilari bo‘lib yetishadilar.

5. Til — jamiyat a‘zolarini tarbiyalash vositasi. Uning qonuniyatlari va grammatik qurilishini anglash bolalarda nutq qobiliyati va nutq madaniyatini shakllantirishda, estetik did va fahm-farosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Til va tafakkur.** Til va tafakkurning o‘zaro munosabati masalasi fanda uzoq tarixga ega. Bu muammo yuzasidan o‘tkazilgan munozaralarda doimo quyidagi savollar o‘rtaga tashlangan:

— til va tafakkur bir narsami yoki ular o'zaro bog'langan, boshqa-boshqa narsalarmi?

— til va tafakkur doimo o'zaro bog'langanmi yoki tafakkur tilsiz, til tafakkursiz zuhur etadimi?

— agar til va tafakkur alohida-alohida hodisalar bo'lib, ular o'zaro bog'langan bo'lsa, fikrlash jarayonida tilning, so'zlash jarayonida tafakkurning roli qanday?

Qadim zamonlardan toki hozirgi kunlarga qadar olimlar shu savollar ustida bosh qotiradilar. Antik faylasuflar o'zlarining logos-koinot to'g'risidagi ta'limotlarida «so'z va fikr borliqni birgalikda ifodalaydi» degan xulosani chiqarishgan edi. Yunon faylasufi Aristotel «til va tafakkur o'zaro aloqador ikki narsa» deb talqin qiladi. So'z narsalarni tasavvur etish ramzi, yozuvni so'zlarning ramzi shaklida qayd etadi. Ammo u tafakkur qonda paydo bo'ladi deb, tafakkurning fiziologik zaminini noto'g'ri tushuntiradi. Gippokrat tafakkurni bosh miya bilan bog'laydi, o'zaro so'zlashuv jarayonida nafas olishni e'tiborga olib, «fikr kishi ongiga havo orqali kiradi», deb yozadi.

Rus olimi A.A.Potebnya so'z va tafakkurning o'zaro munosabatini tahlil qilib, shunday xulosa chiqaradi: til tayyor fikrlarni ifodalash vositasigina emas, balki u fikrni tug'diruvchi hamdir. A.A.Potebnya fikrlash jarayonida so'zning rolini juda to'g'ri ko'rsatadi. Inson so'z vositasida fikrlaydi. Fikr so'z vositasida olg'a siljiydi.

Til tafakkur bilan bevosita bog'langan. Tilni tafakkursiz, tafakkurni tilsiz rivojlantirib bo'lmaydi. Binobarin, ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning nutqini o'stirish uchun. qilingan har bir ish bolalarning tafakkurini o'stirish omili ham sanaladi. Shu tufayli, ona tili ta'limida o'quvchilarning nutqini o'stirish ona tili didaktikasining dolzarb muammosi hisoblanadi.

Ong borliqning inson miyasidagi in'ikosidir. Ko'rish, eshitish, sezish, ta'm bilish organlari vositasida tashqi olamdagisi narsalar kishi ongida aks etadi. Inson tafakkur

vositasida tabiat va jamiyatdagi narsa-hodisalarining o'xshash va farqli tomonlarini ajratadi, ularni taqqoslaydi, tahlil va sintez qiladi. Bular til vositasida moddiylashadi, kishilar uchun tushunarli bo'ladi.

Fikrlash jarayonida abstraksiyalash va umumlashtirishning roli katta. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan nutq insonning haqiqatni eng yuksak darajada in'ikos etishini ta'minlaydi. Abstraksiyalash va umumlashtirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan ikkinchi signallar tizimi moddiy borliqni in'ikos etishning eng yuksak darajasi bo'lishi bilan birga, insonning nerv faoliyatini, uning butun xatti-harakatini boshqarishning ham eng yuksak regulyatoridir.

Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ta'limotga tayanib, quyidagicha pedagogik xulosalar chiqariladi.

1. Til va tafakkur o'zaro dialektik bog'liq. Qurilayotgan binoning devorlari g'ishtlar yordamida bunyod etilganidek, fikrlashning har bir bosqichi so'z — gaplar vositasida mustahkamlanadi. Demak, o'quvchilarning so'z boyligini o'stirish mifikta ta'limining asosiy vazifasidir.

2. Tilga oid bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchilar so'z, so'z birikmasi va gapni to'g'ri ishlatalish sirlarini bilib oladi. Bu o'quvchi nutqining, shuningdek, ular tafakkurining ham barkamolligini ko'rsatadi.

3. U yoki bu mavzu doirasida hosil qilingan bilimlarning yaroqliligi o'quvchining shu bilimlarini o'z so'zlarini bilan aytib bera olish darajasiga ko'ra belgilanadi. Shu tufayli mashg'ulotlarda o'quvchilarga ko'proq yozdiriladi, o'qitiladi, gapirtiriladi.

**Til va nutq.** XX asrning I choragida tilshunoslik fani erishgan ulkan muvaffaqiyatlardan biri — til hodisalarini o'rganishga sistem-struktur yondashish metodologiyasining kirib kelishi bo'ldi. Til hodisalariga sistem-struktur yondashish metodologiyasi shveytsar tilshunosi Ferdinand

de Sossyurning 1916-yilda nashr qilingan «Umumiy tilshunoslik kursi» nomli asarida asoslangan edi. U tilshunoslik fani tarixida birinchilardan bo‘lib, til va nutq masalalariga alohida-alohida qarashni, til hodisalari tarixiy taraqqiyotini diaxroniya<sup>4</sup>, uning hozirgi ahvoli sinxroniya<sup>5</sup> to‘qnashuvida tahlil etishni asosladi. Hozir qator o‘zbek tilshunos olimlari o‘zbek tilshunosligi masalalarini sistem-struktur lingvistika nuqtai nazaridan o‘rganayotgan bo‘lsalar-da, maktab o‘qituvchilari, hatto tilshunos olimlar orasida ham til va nutq hodisalarini o‘zaro ajratmaslikka moyillik uchrab turadi.

Ona tili didaktikasining asosiy vazifalaridan biri, tilshunoslik fani erishgan yutuqlarga tayanib, til va nutqning dialektik bog‘liqligi hamda ularning farqlarini ajratishga yo‘nalgan o‘qitish tizimini asoslashdan iborat. Tilni o‘quv predmeti sifatida o‘qitishning hozirgi-amaldagi tajribasida tildan, til haqidagi tasavvurlardan, ta’rif va qoidalardan nutq amaliyotiga qarab borish yetakchi g‘oya sanaladi. Til hodisalariga sistem-struktur yondashish metodologiyasiga asoslangan o‘qitish tizimida nutqdan tilga qarab borishga moyillikning ustuvorligi tan olinadi. Bunda til va nutqning o‘zaro dialektik aloqasiga, ularning farqlariga rioya qilinadi.

Til ijtimoiy-psixologik hodisa bo‘lib, quyidagi xususiyatlarga ega: uning elementlari: tovush, bo‘g‘in, so‘z, so‘z birikmasi, gap modellari tayyor holda inson ongida mavjuddir; til elementlari shu tilda so‘zlovchilarining barchasi uchun umumiy hisoblanadi. Bu kishilarning bir-birlarini tushunishlarini ta’minlaydi; ona tili elementlari barcha uchun majburiy. Shu tilda so‘zlovchilarining hammasi adabiy til me’yorlariga rioya qilib so‘zlashlari

<sup>4</sup> Diaxroniya — o‘rganilayotgan til hodisasining tarixiy taraqqiyoti jihatidan.

<sup>5</sup> Sinxroniya — hozirgi zamon tilshunosligi nuqtai nazaridan.

lozim. Binobarin, «Til fikrni shakllantirish va ifodalashga xizmat qiladigan ma'lum jamiyatning barcha a'zolari uchun tayyor, umumiylar bo'lgan elementlar va ularning o'zaro bog'lanish qonuniyatlari haqidagi tasavvurlar yig'indisidir» (H.Ne'matov).

Nutq tilning turli (yozma, og'zaki, imo-ishora, yorug'lik, elektromagnit to'lqinlari, turli shartli belgilar-yozuv, kelishib olingan belgilar-rasm, formula va shu xildagi) shakllarda ro'yobga chiqish, fikrni paydo qilish, shakllantirish, ifodalash jarayonlaridir.

Til va nutqning o'zaro aloqadorligi va farqlariga asoslangan didaktik tizim quyidagi qoidalar asosida ish ko'radi.

1. Bolalarni nutq hodisalarini kuzatish va ulardan xulosalar chiqara olishga o'rgatish.
2. Nutqdan tilga, til dalillaridan qoidalarga qarab borish tamoyili asosida ona tili mashg'ulotlarini tashkil etish.
3. Berilgan tayyor va tuzilgan matnlar ustida o'quvchilar faoliyatini tashkil etish.
4. Ona tilini o'qitishda qoidabozlikni kamaytirish, nutq amaliyoti ustuvorligini ta'minlash.

**Til va faoliyat.** Maktabda ona tili ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda nutq madaniyatini tarkib toptirishdir. Madaniy nutq milliy tilning o'ziga xosligi, ma'no jihatidan aniqligi, so'zlarning rang-barang, turli-tumanligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og'zaki shakli adabiy tilning orfoepik me'yorlariga, yozma shakli orfografiya, uslub va shu kabi me'yorlariga mos bo'lishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari ustida o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e'tirof etilgan, shu tilda so'zlovchilarning barchasi rioya qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar adabiy til me'yorlari hisoblanadi. Adabiy til me'yorlariga ma'lum tilda mavjud so'zlar, so'zlarning

у-6323|2

qurilishi, so‘z yasash va so‘z o‘zgartirish modellari, so‘z birikmasi, gapni nutqda to‘g‘ri qo‘llash qoidalari kiradi.

Tilning mohiyati uning inson faoliyati ekanligida. Nutq faoliyati bir individning o‘z mulohazalari, istak va talablarini ikkinchi individga uzatishi, ikkinchi individ esa birinchisining fikrlarini tushunib olishi, uning talablariga tasdiq yoki inkor shaklida javob qaytarishi bilan xarakterlanadi. Demak, nutq faoliyatida ikki shaxs: xabar uzatuvchi-gapiruvchi va qabul qiluvchi-tinglovchi ishtirok etadi.

Nutq faoliyati jarayonida so‘zlovchi ham, tinglovchi ham so‘z, so‘z birikmasi va gapga tayanadi. So‘z, so‘z birikmasi va gapning «aytilish» xususiyati so‘zlovchiga, «eshitilish» xususiyati tinglovchiga xizmat qiladi. «Aytilish» va «eshitilish» ma’noli jarangdorlik bo‘lib, u tilning birinchi shakli-jonli nutqdir. So‘zning ko‘riladigan (yozuv) va o‘qiladigan xususiyati tilning ikkinchi shakli-yozma nutqdir.

Ta’limda og‘zaki va yozma nutqning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularning o‘zaro aloqadorligiga rioya qilish nihoyatda zarur. Grammatika mashg‘ulotlarida nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash yo‘llarini o‘quvchilarga o‘rgatish, so‘zlarning ma’nolarini ochish orqali bolalar to‘g‘ri nutq tuzish sirlarini egallab boradilar. O‘quvchi nutq maqsadiga muvofiq so‘zlarni qancha tez tanlay olsa, nutq faoliyatida shuncha faol qatnashadi. Maktab grammatisini izchil o‘rganish natijasida o‘quvchilarning nutq jarayonida faol qatnashishlarini ta’minlaydigan nutq qobiliyatları tarkib topadi. Nutq qobiliyati nima?

Hozirgi zamon psixologiyasi o‘rganayotgan muammo-lardan biri shaxs qobiliyati masalasıdir. Shaxs psixologiyasi ko‘ra, qobiliyat inson faoliyati talablariga javob bera oladigan shaxsiy individual xususiyatlarning ansambl yoki sintezidir. Nutq qobiliyati inson qobiliyatining bir ko‘rinishi sanaladi. Tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun zaruriy qobiliyatlarni o‘rganib chiqish va shu qobiliyatlar taraqqiyotiga bevosita ta’sir etadigan o‘qitish tizimini

yaratish ona tili didaktikasi sohasida eng dolzarb muammo hisoblanadi.

Metodikada, aniqrog'i, rus tili o'qitish metodikasi tarixida, o'quvchilarda nutq qobiliyatini o'stirish masalasi allaqachon qo'yilgan masaladir. K.D.Ushinskiy til o'qitishning asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarda «so'z chechanligini» taraqqiy ettirishdan iborat, deb o'qituvchilarga maslahat bergen edi. U «Xalq tili bolaning tabiatida shunday bir qobiliyatni o'stiradiki, bu qobiliyat kishida nutq yaratadi», — deb yozadi.

F.I.Buslayev maktabda til o'qitish xususida gapirib, yozadi: «...ona tili bolalarning ...til sezgirligini istiqbolli taraqqiy ettirishga asoslangan bo'lishi lozim...». A.V.Tekuchev nutq qobiliyatini «nutqiy intuitsiya» termini bilan izohlaydi.

So'z va gapni aytish, eshitish psixofiziologik jarayondir. «Bola, — deb yozadi N.I.Jinkin, — kattalarning «Bu it. Natasha keldi» tipidagi hukmlarini «ochko'zlik» bilan qabul qiladi. Bu so'z yordamida borliqni bilib oladi. Idrok etish jarayonida o'zlashtirilganida, kishi uni to'g'ri tanlash va to'g'ri qo'llashni o'rganadi».

Fikr nutq maqsadiga muvofiq so'z tanlash, tanlangan so'zlarga fikrdagi turli bog'lanishlarni ifodalaydigan yordamchi vositalarni (yordamchi so'z va qo'shimchalarni) qo'shish orqali yuzaga chiqadi. Maqsadga muvofiq so'z tanlash, ularni grammatik jihatdan uyg'unlashtirib nutq tuza olish so'zlovchining qobiliyatini ham ko'rsatadi. Kishi o'zi ishlatadigan so'zlarining ma'nosini tushunsa, uni to'g'ri tanlaydi, uni to'g'ri tanlay olsa, nutqini maqsadga muvofiq tuza oladi. So'zni aytish va eshitish psixofiziologik jarayon ekanligini hisobga olib, S.F.Ianova «psixololingistik qobiliyat» terminini ishlatgan. So'zning ma'nosini borliqdagi narsa-hodisalarini, ularning belgisi, harakati, miqdori va shu kabilarni ifodalash bilan bog'langan. «Har qanday narsa umuman boshqa biror narsani eslatganidek, so'z ham o'z

ma’nosi ustida kishini o‘ylashga majbur qiladi,» — deb yozgan edi mashhur rus olimi L.S.Vigotskiy. «Aniq narsa, voqeal-hodisa inson ongidan o‘tib, tilda o‘z ifodasini topgach, uning ana shu ifodasi tilning ham obyektiga aylanadi. Masalan, «O‘simliklar qovjiradi» gapida qovjirab qolgan narsa — o‘simlik biolog uchun o‘rganish obyekti. Biolog obyekt sifatida o‘rganadigan o‘simlik (narsa)ni, uning tildagi ifodasini — «o‘simlikni» tilshunos subyekt deb talqin qiladi. Inson ongi lingvistik kategoriyalar — so‘z, gap vositasida obyektiv borliqni bilishning faol omiliga aylanadi.

So‘zni nutqda qo‘llash ikki xil omil bilan xarakterlanadi; nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash, tanlangan so‘zlarni grammatik jihatdan uyg‘unlashtirib gap tuzish. Shunday qilib, nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash, so‘z va gaplarni to‘g‘ri aytish hamda to‘g‘ri eshitish psixolingvistik qobiliyat komponentlari hisoblanadi.

Adabiyotlarda til o‘qitishda ikki narsa: nazariy bilimlar, nazariy bilimlarga oid hosil qilinadigan malakalar hisobga olinadi. Ammo bolada kishilar bilan aloqa qilish vositasida yoshligidan shakllana boshlagan, mакtabda taraqqiy ettirilishi lozim bo‘lgan uchinchi narsa — nutq qobiliyati e’tibordan chetda qoladi. Shunday o‘qitish tizimini yaratish kerakki, tildan beriladigan nazariy bilim, hosil qilinadigan malakalar, bir tomondan, bolalarda mavjud bo‘lgan nutq qobiliyatlariga mos bo‘lsin, ikkinchi tomondan o‘quvchilarda mavjud bo‘lgan qobiliyatlar taraqqiyotiga samarali ta’sir etsin.

#### **4-fasl. Ona tili didaktikasi va uning asosiy kategoriyalari**

Ona tili didaktikasi umumiy didaktika bo‘yicha o‘rganiqlan bilimlarni, masalan, ta’lim prinsiplari, ma’lumot va ta’lim mazmuni bo‘yicha hosil qilingan tasavvurlarni inkor etmaydi. Aksincha, ona tili didaktikasi bo‘yicha o‘rganiqladigan bilimlar umumiy didaktikada hosil qilingan

tushunchalarni to'ldirishga, ularni yanada oydinlashtirishga xizmat qiladi. O'z navbatida umumiy didaktika sohasida to'plangan bilimlar xususiy didaktika muammolarini atroficha chuqur o'zlashtirish imkoniyatlarini yaratadi.

Umumiylig va xususiylikning o'zaro munosabati shaklida amal qiladigan umumiy didaktika va ona tili didaktikasi bir-biri bilan uzviy bog'liq fanlardir.

Ona tili didaktikasining umumiy didaktika bilan aloqadorligini yanada oydinlashtirish maqsadida ta'lim prinsiplari bilan xususiy didaktik umda (prinsip)larni chog'ishtiraylik. Maktabda ona tili o'qitish jarayonida **ilmiylik**, **tushunarlilik**, **onglilik**, **ko'rsatmalilik** kabi umda (prinsip)larga rioya qilib, tilni o'zlashtirish tashkil qilinadi, boshqariladi, nazorat qilinadi. Shu bilan birga, maktabda ona tili ta'limining o'ziga xos prinsiplari ham mavjud. Til hodisalarini ajratishga o'rgatish, nutq organlarini yetarli mashq qildirish, nutqdan tilga qarab borish, yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish xususiy didaktik umda (prinsip)lar hisoblanadi. Demak, har bir o'quv predmetini o'rgatishda ta'limning umumiy umda (prinsip)lari bilan bir qatorda, aynan olingan o'quv predmetining o'z mohiyatidan kelib chiqadigan umda (prinsip)larga ham ryoja qilib, o'quv tarbiya ishlari o'tkaziladi.

Umumiylididaktika o'z tadqiqot predmetini o'rganish, asoslash va bayon etishda xususiy didaktika yutuqlaridan foydalanadi. Ona tili didaktikasi, o'z navbatida, umumiy didaktika yutuqlariga ham tayanib, o'z tadqiqot predmetini aniqlaydi, kategoriyalar tizimini belgilaydi. Ana shunga ko'ra, ona tili didaktikasi ham umumiy didaktik kategoriylar, ham o'ziga xos xususiy didaktik kategoriylardan foydalanadi.

Ona tili didaktikasi sohasida qo'llanadigan kategoriyalar va ularni chegaralashda qo'llanadigan atamalar qator vazifalarni bajaradi: fanning tadqiqot sohasi, predmeti, maqsadi, vazifalari, vositalarini o'rganish va asoslash; fan

sohasida fikrlashuvni ta'minlash; fan hodisalarini tasvirlash.

Umumiy didaktika va ona tili didaktikasining o'zaro aloqadorligi asosida xususiy didaktika sohasida qo'llanadigan kategoriyalar ikki guruhga ajraladi: **umumiy didaktik kategoriyalar; xususiy didaktik kategoriyalar.**

Umumiy didaktik kategoriyalar sirasiga **ma'lumot mazmuni, ta'lim mazmuni, ta'lim jarayoni, prinsiplari, metodlari, tashkiliy shakllari** kabilar kiradi. Umumiy didaktik kategoriyalar hamkorlik asosida yaratilgan qo'llanmada bat afsil bayon etilgan.<sup>6</sup>

Xususiy didaktik kategoriyalar u yoki bu o'quv predmetining ayni holatda ona tili predmeti, o'z mohiyatiga ko'ra ajratiladigan hodisalardir. «Grammatik tushuncha», «grammatik mashq» shunday kategoriyalar jumlasiga kiradi.

Grammatik tushuncha — lingvistik fikrlash shakli, grammatik mashq esa ona tilidan o'r ganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'li.

Ona tili didaktikasida umumiy va xususiy didaktik kategoriyalarga asoslanib, pedagogik hodisalarning mohiyati ochiladi. Maktablarda ona tilini o'qitish jarayoni bilan daxldor hodisalarni tavsiflashda qo'llanadigan kategoriyalar tizimi ona tili didaktikasi logikasi sanaladi.

---

<sup>6</sup> Qarang: Didaktika. — T.: «Fan», 1997. 14-20-bet.

## II BOB

### MAKTABDA ONA TILI PREDMETI VA UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH DARAJALARI

**Muammo.** Ona tili didaktikasining asosiy vazifalaridan biri maktab ona tili predmetining xususiyatlari, tarkibiy qismlarini tavsiflash, uning mazmunini moddiylashtirish darajalarini asoslashdan iborat. Maktab ona tili predmeti tilshunoslik fanining umumiy asoslarini yoshlarga o'rgatishga mo'ljallangan. Shunday ekan, o'zbek tilshunosligi va ona tili predmetining o'xhash hamda farqli tomonlari nimalardan iborat? Ona tilining umumiy asoslarini qanday tushunmoq kerak? Hali ham maktab o'qituvchilari, mutaxassis-metodistlar faoliyatida ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmunlarini farqlamaslik hodisasi uchrab turadi. Agar ona tilidan ma'lumot va ta'lim mazmuni o'zaro daxldor ikki xil hodisa bo'lsa, ularning har birini moddiylashtirish darajalari mavjudmi? Ona tili predmeti va ona tili darsliklari bir narsami yoki ularni bir-biridan farqlash zaruriyati bormi? Bu savollarga javob izlash makteblarda ona tili o'qitishning nazariy va amaliy xususiyatlarini tavsiflashga imkoniyat yaratadi.

#### 1-fasl. Ona tili predmetining mazmuni

Ona tili didaktikasi sohasidagi eng dolzarb muammlardan biri ona tilidan ma'lumot mazmunini turli ijtimoiy institutlarga — maktabgacha ta'lim muassasalari, boshlang'ich ta'lim, umumiy o'rta ta'lim makteblari, kollej, litsey hamda oliy o'quv yurtlariga moslab tanlashdan iborat. Ona tilidan ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish va uni bolalarning bilish imkoniyatlariga moslashtirish yo'li bilan turli ijtimoiy institutlar o'rtasida vorislik o'rnatiladi.

Ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish masalalari bilan mutaxassis olimlar, muassasa vakillari shyg'yllanadi. Shu jihatdan qaraganda, ona tilidan ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish ijtimoiy institutning alohida turi sanaladi. Ma'lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish jarayoni ishtirokchilari o'z sohalarini bekamu ko'st bilishsa, o'quvchilarning yoshi, bilish imkoniyatlari, tayyorgarlik darajalari, psixofiziologik xususiyatlarini to'liq tasavvur etishsa, tayyorlanadigan loyihamalar shuncha samarador bo'ladi.

### **Ona tilidan ma'lumot mazmuni**

**Ona tilidan ma'lumot berish yo'nalishlari.** Barcha o'quv predmetlariga o'xshab ona tilidan ma'lumot berish ham uch yo'nalishda tashkil etiladi: hozirgi o'zbek tilshunosligining umumiylashtirishidan ma'lumot berish va shu orqali bolalarni fikrlashga, nutqni tuzish va ijro eta olishga o'rgatish; o'quvchilarning aqli, zehni, tafakkurini rivojlantirish; bolalarda o'z nutqi, o'zgalar nutqi, tilga munosabatni tarbiyalash.

Hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining umumiylashtirishidan ma'lumot berish va shu orqali bolalarni fikrlashga, nutqni tuzish va ijro eta olishga o'rgatish; o'quvchilarning aqli, zehni, tafakkurini rivojlantirish; bolalarda o'z nutqi, o'zgalar nutqi, tilga munosabatni tarbiyalash.

Kishilarning o'zaro aloqalashuvi, o'z fikr va mulohazalarini nutq sharoitiga mos shakllarda bayon qilish uchun zaruriy bilimlar tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasi to'g'risidagi tasavvurlardan tanlab olinadi. Garchand, muktabda fonema, leksema, sintagma, morfema kabi

qator tushunchalarni o'rgatish ko'zda tutilmagan bo'lsa-da, nutq tovushi va uning yozuvdagi belgisi — harf, nutq tovushlarining ma'no ajratish xususiyatlari, ularning artikulyatsiyasi, nutq tovushlarining turlari (unli va undosh, jarangli va jarangsiz), bo'g'in, uning turlari( ochiq va yopiq va sh.k.), urg'u va uni nutqda to'g'ri qo'llash, so'z ma'nolari (o'z va ko'chma ma'no, yaqin ma'no, qarama-qarshi ma'no), so'z yasovchi, so'z o'zgartuvchi, tuslovchi, turlovchi qo'shimchalar, so'z turkumlari, turli sintaktik qurilma (konstruksiya)lar (so'z birikmasi, gap, sodda va qo'shma gap) kabilalar ona tili ta'limining asosini tashkil etadi.

**Ona tilidan ma'lumot mazmuni tarkibi.** Ona tilidan ma'lumot mazmuni tarkiban to'rt xil birlikdan iborat: bilimlar — til hodisalarini tahlil qilish, ularning asosiy va ikkilamchi belgilarini ajratish yo'llari bilan chiqarilgan ta'riflar, aniqliklar, qoidalardir. Ta'rif, aniqliklar o'ziga oid dalillarning barchasi uchun umumiyyidir. Masalan, «belgining yoki harakatning belgisini bildirgan so'zlarga ravish deyiladi» ta'rifi ravishga oid so'zlarning barchasi uchun umumiyyidir. Demak, lingvistik bilimlar til hodisalarining modeli bo'lib, ularni o'rganish, faoliyatda ishlatish mumkin; ko'nikma-malakalar bilimlarga rioxqa qilib faoliyat ko'rsatish yo'li bilan shakllanadi. Nutqning ravonligi, to'g'riliqi, mazmundorligi, ifodaliligi, emotsi-nalligi, tushunarligi malakalararning taraqqiyotiga bog'liq; ijodiy faoliyat tajribasi ma'lumot mazmunining yana bitta birligi bo'lib, ularni shakllantirish mutlaqo o'qitish usuliyotiga bog'liq. Olimlar til hodisalarini ijodiy o'rganganlaridek, maktab ta'limi ham ijodiy tashkil etilganda bolalarda ijodiy faoliyat tajribasi shakllanadi; munosabatlar tizimi — tilga, o'z va o'zgalar nutqiga munosabatdan iborat. Ona tili predmetiga oid bilimlar munosabat shaklini olgan sari ona tili ta'limi tarbiya darajasiga ko'tariladi. Ona tilidan ma'lumot mazmuni

yoshlarning ma'lumoti, taraqqiyoti, tarbiyasini mo'ljallab, hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining umumiy asoslariga pedagogik ishlov berish yo'li bilan tanlangan bilimlar, nutq malakalari, ijodiy faoliyat tajribasi, tilga va nutqqa oid munosabatlardir.

### **Ona tilidan ta'lim mazmuni**

**Ta'lim mazmuni to'g'risida tushuncha.** Ona tilidan ta'lim mazmuni ma'lumot mazmunidan tanlanadi. Shu jihatdan qaraganda, ma'lumot mazmuni umumiylit, ta'lim mazmuni xususiylikni ifodalaydi. Ta'lim mazmuni ma'lumot mazmunining dinamikasi-harakati bo'lib, uni o'zlashtirish yo'li bilan ma'lumot mazmunini amalga oshirishga, binobarin, yoshlarni bilimli qilish, rivojlantirish, tarbiyalashga qarab boriladi.

Ona tilidan ta'lim mazmuni-yoshlarni ona tilidan ma'lumotli qilish, rivojlantirish, tarbiyalash maqsadida ma'lumot mazmunidan tanlanib, ta'lim jarayoniga olib kirilgan bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, til hodisalarini baholashga oid munosabatlardir.

Shunday o'quv materiali darsga olib kirildi, deb tasavvur qiling: shakli bir xil, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlarga omonimlar deyiladi: o't-o't.

Bu mavzu tarkiban bilimlar (shakli bir xil bo'lgan so'zlar, ma'nolari har xil bo'lgan so'zlar, turli so'z turkumlariga mansublik, turli so'roqlarni olish va sh.k.), ko'nikma-malakalar (omonimlarni boshqa so'zlardan, masalan, sinonimlardan farqlash, ular ishtirokida nutq-tuza olish va sh.k.), ijodiy faoliyat tajribasi (omonimlarni yangi-yangi matnlar tarkibida taniy olish, ular haqidagi bilimlarni turli o'quv va hayotiy sharoitlarga tatbiq eta bilish va sh.k.), omonimlarning nutqdagi ahamiyatini baholay olishdan iborat. «**Ma'lumot mazmuni**» keng tushuncha bo'lib, **ta'lim mazmuni ma'lumot mazmuni matnida ifodalanadi**. Bir tomchi suvda quyosh aks etganidek, ma'lumot mazmunini

tashkil etgan tarkibiy qismlar (bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) ta'lim mazmunining ham elementlari sanaladi.

**O'zbek tilshunosligi fani va ona tili predmeti.** Ona tilidan ma'lumot mazmuni ona tili predmetida mujassamlangan bo'lib, u kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlarni izchil bayon qilishga mo'ljallangan. Binobarin, ona tili predmeti hozirgi o'zbek tilshunosligi fanining ilmiy yutuqlari, tilning hozirgi taraqqiyoti xususidagi tasavvurlar, tilni sinxronik o'rganish natijalari negizida tuzildi. Ammo bu «hozirgi o'zbek tilshunosligi» va «ona tili predmeti» bir xil, o'zaro teng degan xulosaga olib kelmasligi kerak. Maktablarda o'qitiladigan ona tili predmeti o'zbek tilshunosligi fanidan quyidagicha farq qiladi.

**Fan va o'quv predmeti.** Fan va o'quv predmetining vazifalari turlichadir. O'zbek tilshunosligida kishilar tomonidan kashf etilgan bilimlarning barchasi mujassamlangan bo'lib, uning vazifasi ona tilini bundan keyin taraqqiy ettirishdir. Ona tili predmeti yoshlarni ijtimoiy hayotga, ishlab chiqarishga tayyorlash maqsadida kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zarur bilimlar bilan qurollantiradi. Binobarin, o'zbek tilshunosligi fani va ona tili predmeti jamiyatda bajaradigan vazifasiga binoan o'zaro farq qiladi. O'zbek tilshunosligi fani nihoyatda murakkab bo'lib, unda grammatik bilim va tushunchalarini, til hodisalarini ajratish uchun ishlatilgan terminlarning barchasi o'z aksini topgan. Ona tili predmeti esa o'quvchilarning bilish imkoniyatlari, tayyorgarlik darajasi, yoshiga mo'ljallab tuzilgan. Demak, ona tili predmetida ta'limning lingvovidaktik, psixologik, fiziologik tomonlari hisobga olinadi.

Fan mazmun va hajm jihatidan o'quv predmetiga nisbatan keng. Unda kishilarning o'zaro aloqalashuvi uchun zaruriy bilimlar ham, til taraqqiyotini belgilab beruvchi omillar ham

o‘z aksini topadi. Shu jihatdan qaraganda, fan ijtimoiy institut sanaladi. U fanning barcha sohalarini, shu sohalar bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib boruvchi olimlar faoliyatini ham o‘ziga qamrab oladi.

O‘zbek tilshunosligi fanining umumiy asoslariiga pedagogik ishlov berish yo‘li bilan ma’lumot mazmuni shakllantiriladi. Ona tilidan ma’lumot mazmunini bolalarbop holatga olib kelish uchun mutaxassis olimlar faoliyat ko‘rsatishadi. Ma’lumot mazmunini maktab o‘quvchilariga yetkazish borasida o‘qituvchilar xizmat qiladi. Bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quvchilarning o‘zlarini ham faol ishtirok etishadi. Metodist olimlar, maktab o‘quvchilari, o‘quvchilar jamoalari ishtiroki nuqtai nazaridan mакtabda ona tili o‘qitish ham o‘ziga xos ijtimoiy institut hisoblanadi.

**Ona tili predmetining ta’rifi.** Ona tili predmeti to‘g‘risida gapirib, A.V.Tekuchev bunday deb yozgan edi: «Grammatika fonetika bilan, orfografiya, punktuatsiya, orfoepiya, leksika (garchand bularning har biri o‘ziga xos ichki tuzilishi, mazmuni, maqsadi, vazifasi, metodlari bo‘lsada) yaxlit bitta o‘quv predmetini tashkil etadi».

Ta’lim sharoitida til va nutqni o‘rgatish (o‘qituvchi) hamda o‘rganish (o‘quvchi) obyekti sifatida ishtirok etadigan sohalari majmui ona tili predmeti sanaladi. Tilning fonetikasi, leksikasi, grammatiskasiga doir nazariy bilimlar, ularga oid nutq ko‘nikmalari, bolalarda shakllantiriladigan ijodiy faoliyat tajribasi, til va nutqqa munosabat ona tili predmeti matnida qaraladi.

Ta’lim maqsadining tarkibiy qismlari — nutq o‘stirish talabiga muvofiq o‘zaro bog‘langan, ona tilining grammatic qurilishi to‘g‘risida izchil bilim berishga mo‘ljallangan. I-IX sinflarda o‘rganiladigan, o‘quvchilarda nutq malakalarini (orfoepik, grafik, orfografik, prosodik, uslubiy, punktuatsion) rivojlantirishga qaratilgan o‘quv kursiga ona tili predmeti deyiladi.

## Ona tili predmetining tarkibi

**Ona tili predmetining vazifalari.** O'quv predmeti sifatida ona tilining oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

— bolalarda nutq tovushi, bo'g'in, urg'u, so'z, so'z birikmasi, so'zning tarkibi, so'z turkumi, gap haqidagi tasavvurlarni rivojlantirish, ularni ijro etish, o'qish, yozish, eshitishga oid malakalarini shakllantirish;

— o'quvchilar nutqini turli so'z, ibora va qurilmalar bilan boyitish yo'llari bilan ularni nutq tuzishga o'rgatish;

— o'quvchilarda aqliy, estetik va etik tasavvurlarni, nutqqa munosabatni tarkib toptirish, ularda ilmiy dunyoqarashni tarbiyalash;

— bitiruvchi o'quvchilarni o'qish-o'rganishni bundan so'ng davom ettira olishga tayyorlash.

**Maktab ona tili predmetining tarkibi.** Yuqoridaqgi vazifalar tilning fonetik, leksik, grammatic tomonlarini o'zlashtirish zaminida amalga oshiriladi. Maktabda tilning har bir tomonini o'zlashtirishda ikki narsa: a) maktab dasturlari chegarasida nazariy bilim berish; b) o'rganilgan nazariy bilimlar doirasida nutq malakalarini shakllantirish turadi.

Ona tilidan bajariladigan ishlarning barchasi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashga bo'ysundiriladi.

Tilshunoslikdagi barcha lingvistik kategoriylar mavhum (abstrakt) tushunchalardir. «Ot», «sifat», «gap», «ergash gapli qo'shma gap» kabi terminlar ostida o'rganiladigan bilimlar abstrakt tafakkur mahsuli sanaladi. Kishilar til dalillarini o'rganish, ular ustida abstraksiyalash, til dalillariga xos juz'iy va umumiy xususiyatlarni ajratish natijasida «ot», «gap» kabi lingvistik kategoriyalarni yaratganlar.

**Ona tili predmetining fonetik tomoni.** Tilning fonetikasi uning birdan-bir aniq tomoni hisoblanadi. Masalan, «a» tovushi faqat va faqat «a» tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo'g'in, urg'u kabi lingvistik kategoriylar abstrakt

tafakkur mahsuli bo'lsa-da, nutq tovushi (b), so'zning bir qismi (bo-bo), so'z bo'g'inlaridan bittasining kuchli aytilishi (xiz-mat-chi-man) bizning ongimizga bog'liq bo'lмаган hodisalardir.

Fonetikani o'zlashtirish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan bevosita bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. Natijada o'quvchi so'zning fizik tomoni hisoblangan nutq tovushlarini so'z tarkibida farqlash ko'nikmalarini hosil qiladi. Ma'lum nutq tovushiga binoan so'z ma'nolarining o'zgarishi ustida mashq qilish (o'n-en-in-un; il-ich-iz-in-ish), so'zlarni tovush va bo'g'inlar jihatidan tahlil qilish, berilgan harf va bo'g'inlar yordamida so'z, so'zlar ishtirokida gap tuzish o'quvchilarda analitik-sintetik faoliyatni tarbiyalaydi.

Nutq tovushlari, ularning o'zaro farqlari ustida mashq qilish natijasida o'quvchilarda, bir tomondan, lingvistik tushuncha shakllansa, ikkinchi tomondan, fonematik eshitish (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri anglash, fahmlash, eshitish) taraqqiy etadi. Lingvistik tushunchalar haqida to'g'ri tasavvur hosil qilish, fonematik eshitishni taraqqiy ettirish o'quvchilarning til sezgirligini rivojlantiradi. Shunday qilib, fonetikaga oid nazariy bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik va shu kabi malakalar hosil qilinadi.

**Ona tili predmetining leksik tomoni.** Maktab ona tili kursida leksika materiallarini ikki bosqichda o'rgatish ko'zda tutilgan: birinchi bosqich (boshlang'ich sinf)da so'zning ma'nosi, ko'p ma'noli so'zlar, yaqin ma'noli so'zlar, qarama-qarshi ma'noli so'zlar, uyadosh so'zlar, ularning uslubiy imkoniyatlari; ikkinchi bosqich (yuqori sinf)da so'z va termin, lug'at boyligi, lug'atning boyish manbalari va shu kabi mavzularni o'rgatish rejalashtirilgan.

Maktabda tilning leksik tomonini o'rgatish dasturlarda ko'rsatilgan qisqa vaqt bilan chegaralanmaydi. O'quvchi

har bir sinfda yangi-yangi o‘quv predmetlarini o‘rganadi. Fan o‘qituvchilari o‘quv predmetlariga oid terminlarni tushuntirib beradi. Morfologiya mashg‘ulotlarida har bir so‘z turkumiga oid so‘zlarning ma’nolari ustida ham mashq qilinadi. Nutq o‘stirish nuqtai nazaridan qaraganda, tilning leksik tomonini o‘rganish birinchi sinfdan o‘n birinchi sinfni bitirgunga qadar davom etadi.

Leksika materiallariga bog‘langan holda o‘quvchilarda har bir so‘zni nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari ham hosil qilinadi. Nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash, har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish ustida mashq qilish yo‘li bilan o‘quvchilarda uslubiy malakalar hosil qilinadi, ularga bog‘li nutq tuzish yo‘llari o‘rgatiladi. Shunday qilib, leksikaga oid nazariy materiallarni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarda uslubiy malakalar hosil bo‘ladi.


**Ona tili predmetining grammatik tomoni.** Maktab ona tili predmetining grammatik tomonini morfologiya va sintaksisdan o‘rganiladigan ilmiy bilimlar va shu bilimlar asosida hosil qilinadigan nutq malakałari tashkil etadi. Maktab morfologiyasi o‘zaro aloqador ikki qismdan iborat: a) so‘z tarkibi va so‘z yasash; b) so‘z turkumlari. Birinchi bo‘limni o‘rganish natijasida o‘quvchilar so‘zning tarkibi, so‘z yasash qonuniyatları haqida tushuncha hosil qiladi. So‘z tarkibi o‘rgatilgach, so‘z turkumlariga oid materiallar o‘zlashtiriladi. So‘z turkumlariga oid so‘zlarning ma’nosini, sinonimikasini o‘rganish orqali o‘quvchilar shu so‘zlarni aytish va yozishni, grammatik kategoriylar (kelishik, egalik, ko‘plik, shaxs-son)ni o‘rganish orqali gapda so‘zlarning o‘zgarishi va bog‘lanishini bilib olishadi. Shunday qilib, morfologiya materiallarini o‘zlashtirish jarayonida o‘quvchilarda orfoepik, orfografik, uslubiy malakalar va bog‘li nutq tuzish iqtidori yanada rivojlantiriladi.

O‘quvchilar boshlang‘ich sinfda sintaksis elementlarini o‘rganishadi. Ular so‘z birikmasi, gap, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, bosh bo‘laklar (ega va kesim),

ikkinchi darajali bo‘laklar kabi lingvistik hodisalar bilan tanishadi. Yuqori sinflarda esa sintaksisning izchil kursi o‘zlashtiriladi. Sodda va qo‘shma gap sintaksisiga oid nazariy bilimlarni o‘zlashtirish bilan bir qatorda, o‘quvchilar gapni to‘g‘ri tuzish, to‘g‘ri talaffuz etish, gap tarkibida tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatish qoidalarini egallab olishadi. Demak, sintaksisga doir nazariy bilimlarni o‘zlashtirishga bog‘langan holda o‘quvchilarda uslubiy, punktuatsion malakalar shakllanadi.

Ona tili tarkibi jihatidan murakkab o‘quv predmeti bo‘lib, u ikki qavat (yarus)dan iborat: uning **ustki qavatini** tilning fonetikasi, leksikasi, grammatikasiga oid nazariy bilimlar, ikkinchi qavatini nazariy bilimlar asosida shakllantiriladigan nutq ko‘nikmalari-orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik **malakalar tashkil etadi**. Tildan o‘zlashtiriladigan nazariy bilimlar, hosil qilinadigan nutq malakalari bolalar nutqini rivojlantirish maqsadiga xizmat qiladi. Ona tilining predmeti tarkibiy qismlari va ularning o‘zaro bog‘liqligi 1-chizmada berildi.

### Ona tili predmeti tarkibi



Chizmadan ko‘rinadiki, ona tili predmeti nihoyatda murakkab bo‘lib, uning asosini til haqidagi bilimlar tashkil etadi. Bolalarning tilni ongli o‘zlashtirishlarini ta’minlash maqsadida fonetika, leksika va grammatikaga doir nazariy bilimlar o‘rgatiladi. Bular zamirida bolalarda og‘zaki va yozma nutq malakalari shakllantiriladi. Tildan o‘zlashtiriladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalarning barchasi o‘quvchilarda nutq va nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi.

**Ona tiliga oid malakalar.** L.P.Fedorenko tilni o‘zlashtirish jarayonida hosil qilinadigan malakalarni ikki guruhga ajratadi: **jismoniy malaka**. Nutq organlari, qo‘l muskullari harakatiga oid malakalar jismoniy malaka sifatida qaraladi. Bular, o‘z navbatida, yana ikki guruhga bo‘linadi: a) og‘zaki nutqqa doir malakalar; b) yozma nutqqa doir malakalar — yozish malakalari; d) intellektual malakalar. Bular, o‘z navbatida, uch guruhga bo‘linadi: a) **tushunishga oid malakalar** — leksik va grammatik ma’nolarni anglash malakalari; b) **til uzvlarining fikr anglatish va emotsiyal funksiyalarni baholay olish malakalari**; d) **xotirlay olishga, esga tushirishga doir malakalar** — til dalillarini ishlatishning an'anaga aylanib qolgan xususiyatlariga rioya qilish malakalari.

**Bog‘li nutq.** Nutq o‘stirishning eng keyingi maqsadi o‘quvchilarda bog‘li nutq tuza olish malakalarini shakllantirishdir. Kishi ko‘pincha o‘z fikrlari, qarashlari, mulohazalarini bog‘li nutq shaklida beradi. Chunki biror voqeа, hodisa, narsa to‘g‘risida xabar berish, ularni izohlashda gapning doirasi torlik qiladi. Shu sababli, ko‘proq bog‘li (monolog xarakteridagi) nutqdan foydalaniladi.

**Mantiqan o‘zaro bog‘langan, bir-birini to‘ldiradigan, izohlaydigan, biri ikkinchisini taqozo qiladigan abzatslarga bo‘linadigan, monolog xarakteridagi yozma nutqqa — matnga bog‘li nutq deyiladi.**

O'quvchilarning yozma ishi ham grammatik tomondan (yozma ishning lug'at tarkibi, sinonimikasi, sintaktik oborotlar va shu kabilar), ham mantiqiy tomondan (mavzuning mazmunini bayon qilish, tahlil qilish, fikrni mantiqiy izchillikda bayon qilish va sh. k.) hisobga olinadi. Nutq maqsadga muvofiq so'z tanlash, tanlangan so'zlar yordamida tahlil qilinayotgan sohaning turli belgilarini ifodalaydigan gaplar tuzish, gaplarni mantiqan bog'lash, gap va abzatslardan yaxlit matn hosil qilish monologik nutqning tarkibiy qismlari sanaladi.

Joylarda o'qituvchilarning ish tajribasini o'rganish, o'quvchilarning yozma ishlarini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, maktab o'quvchilari gap tuzishda ancha qiynaladilar, o'z fikrlarini mantiqiy izchillikda bayon qila olmaydilar. Gap ustida ishlash qandaydir chegaralangan ma'lum vaqt dagina emas, balki butun o'quv yillari davomida o'tkaziladigan izchil mashqdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari sintaksis elementlari bilan ta'limning ilk kunlaridanoq tanisha boshlaydilar. Bolalar dastlab nutq birligi — gap to'g'risida, gapning bosh harf bilan boshlanib, uning oxiriga nuqta qo'yilishi haqida ma'lumot oladilar. Keyinroq esa gapning mazmuniga ko'ra turlari, ularning intonatsiyasi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari bilan tanishadilar. Bularning hammasi gapning mazmuni, uning tuzilishini mustahkam egallashga qaratiladi.

Gap mavzusi yuzasidan o'tkaziladigan mashg'ulotlarda o'quvchilar gapning so'zlardan tuzilishini, uning kim yoki nima haqida ekanini, gapni tashkil etgan so'zlarning o'zaro bog'langanligi va bu bog'lanishni so'roqlar yordamida aniqlash mumkinligini o'zlashtiradilar. O'quvchi o'z fikrini gap vositasida ro'yogga chiqarish yo'li bilan tilning grammatik qurilishini amaliy o'rganadi. U gap tuza olish malakasini o'rgangan sari bog'li nutq tuzish sirlarini ham egallay boradi.

Boshlang‘ich sinflarda ham, yuqori sinflarda ham nutq ustida ishlash usullari to‘rt guruhga bo‘linadi: a) lug‘at ustida ishlash; b) gap tuzishga o‘rgatish; d) bog‘li nutq tuzishga o‘rgatish; e) talaffuz ustida ishlash. Quyi sinflarda gap ustida ishlashni sodda yig‘iq gapdan boshlagan ma’qul. Bunda jonli va jonsiz narsalarga, ularning harakat va holatiga asoslanib ish qilinadi. Sodda yig‘iq gap tuzishni o‘rgatishda o‘quvchilarga fikr obyektini farqlash malakasi singdiriladi. Masalan, samolyot, traktor, ishchi so‘zlar ishtirokida tuzilgan gaplarni olaylik. O‘quvchi «Samolyot uchdi», «Traktor yurdi», «Ishchi ishladi» gaplarida narsalar va ularning harakatini bildirgan so‘zlar gap tuzish uchun asos ekanligini ongli his qilsin. «Ishchi ishladi» gapini tuzish orqali bolalar fikr ketayotgan obyektni kim? shu obyektning harakatini anglatgan so‘zni nima qildi? so‘roqlari bilan ajratadi. Shu yo‘l bilan ega va kesim terminsiz o‘zlashtiriladi.

O‘quvchilar sodda yig‘iq gap tuzish malakasini hosil qilgach, ularga sodda yig‘iq gapni ikkinchi darajali bo‘laklar bilan kengaytirishni o‘rgatishga o‘tiladi. Bu sodda yoyiq gaplar ustida ma’lum vaqtgacha ishlanmas ekan, degan fikr emas. O‘quvchilar sodda yoyiq gaplarni ham o‘z nutqlarida ishlataveradilar. Bu yerda fikr nutq o‘sirish darslari va bu darslarda qilinadigan ishlar tizimi xususida ketmoqda.

Birinchi sinfdan boshlab, keyingi sinflargacha o‘quvchilarga gapni tahlil qilish, gap tarkibidagi so‘zlarning so‘roqlarini aniqlash, o‘qituvchi savollariga javob qaytarish malakasi singdiriladi. Sen qachon uyg‘onding? O‘quvchilar nima terdi? Arra bilan nima qilinadi? Bu so‘roq gaplarga birinchi sinf o‘quvchisi shunday darak gaplar bilan javob qaytaradi: *Men ertalab uyg‘ondim. O‘quvchilar olma terdi. Arra bilan arralanadi.*

O‘quvchilar savollariga javob qaytarish jarayonida fikr obyektlari va ularga mos so‘zlar (men, o‘quvchilar — ega)

hamda ular to‘g‘risida aytilgan hukmlar (uyg‘onmoq, termoq) bilan chegaralanib qolmasdan, balki harakat yuz bergen payt (ertalab), harakatning yuz berishidagi vosita (arra bilan) to‘g‘risida ham tasavvur hosil qiladilar.

Demak, bunday ishning ahamiyati o‘quvchilarni gap tuza olishga, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarini (termsiz) amaliy farqlashga, narsa va hodisalar o‘rtasidagi makon, zamon hamda sababiy bog‘lanishlarni anglashga o‘rgatishdan va nihoyat, o‘quvchilar nutqidagi so‘zlarni faollashtirishdan iborat.

Bog‘li nutq o‘stirishning ham o‘ziga xos usullari mavjud. Bog‘li nutqni o‘stirish uchun grammatik vazifali hikoyalari, bayon va insholar yozdiriladi, ish qog‘ozlari ustida mashq qilinadi. Matnni abzatslarga, abzatslarni gaplarga ajratish, shuningdek, ajratilgan matnlar ustida ishslash (mantiqan bog‘langan gaplarni topib, yaxlit holga keltirib yozish) yuqori sinflarda davom ettiriladi.

## **2-fasl. Ona tilidan ma’lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari**

**Ona tilidan ma’lumot mazmuni.** Ma’lumot mazmunini moddiylashtirish — bu bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarni yozuv (shartli belgilari, texnik qurilmalar) vositasida shakllantirish jarayonidir. Moddiylashtirish yo‘li bilan ma’lumot mazmunini kishilar tushunadigan, qabul qiladigan, o‘rganadigan shaklga olib kelinadi. Ma’lumot mazmunini moddiylashtirish jarayonida o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi, psixofiziologik xususiyatlari inobatga olinib, o‘quv predmeti mazmuniga pedagogik ishlov beriladi. Ma’lumot mazmuniga pedagogik ishlov berish o‘ziga xos konstruktiv jarayon bo‘lib, ona tili predmetining hajmi, ko‘lami, bolalarga mosligi aniqlanadi.

**Ona tilidan ma’lumot mazmunining hajmi, ko‘lamining o‘quvchilarga mosligi.** Ma’lumot mazmunining hajmi — bu

ona tili predmetining bo‘limlari, mavzulari, tushuncha va terminlari, shuningdek, ta’rif, aniqlik, qoidalar miqdoridir.

Ma’lumot mazmunining ko‘lam — bu ona tilidan o‘rganiladigan bilimlarning chuqurligi, ularning bolalar uchun tushunarligidir. Ma’lumot mazmuni ko‘lamiga ko‘ra boshlang‘ich va yuqori sinflarda o‘rganiladigan bilimlar o‘zaro farqlanadi. Boshqacha aytganda, ma’lumot mazmuni ko‘lamiga asoslanib, boshlang‘ich sinflarda o‘rganiladigan bilimlar ommabop, yuqori sinflarda esa yanada ilmiyroq shaklga olib kelinadi.

Ona tilidan ma’lumot mazmunining hajmi uning miqdori, ko‘lam esa sifat ko‘rsatkichidir. Hajm va ko‘lam tushunchalariga rioya qilinib, ona tilidan o‘rganiladigan bilimlar turli ijtimoiy institutlarga — maktabgacha ta’lim muassasalari, boshlang‘ich va yuqori sinf, kollej yoki litsey o‘quvchilariga moslashtiriladi. Ma’lumot mazmuniga bosqichma -bosqich ishlov berish yo‘li bilan turli loyihalar — o‘quv rejalar, dasturlari va darsliklar yaratiladi. Loyihalarning (mas., o‘quv rejasi) bir turidan ikkinchisiga (mas., o‘quv dasturi), undan navbatdagisiga (mas., o‘quv darsligi ) o‘tgan sari ma’lumot mazmuni konkretlashib, o‘qitish uchun sinfga olib kiriladigan holatga olib kelinadi. Binobarin, o‘quv rejalar, dasturlari, darsliklari ona tilidan ma’lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari sanaladi.

**O‘quv rejalar.** O‘quv rejalarini tuzishning ikki ko‘rinishi mavjud: a) o‘quv predmetlariga ko‘ra tuzilgan o‘quv rejalar, b) kompleks asosida tuzilgan rejalar. Respublikamizda o‘quv rejalarini o‘quv predmetlari bo‘yicha tuzish an‘anaga aylangan. Bunda ona tili predmeti o‘quv rejasining bir elementi — birligi hisoblanadi. Bu prinsipga ko‘ra, materiya va ong shakllari alohida-alohida, izchil o‘zlashtirishga erishiladi. Bolalar jonli va jonsiz tabiatni, jamiyat va tafakkur hodisalarini analistik yo‘l bilan-nisbatan bir-biridan (masalan, boshlang‘ich sinflarda o‘qish va ona tili, yuqori

sinflarda adabiyot va ona tili) ajratilgan holda o'rganiladi. Hozirgi an'anaviy o'quv rejalarining zaif tomoni ham ana shundadir.

Bu kamchiliklarni bartaraf etish uchun imkoniyatlar nihoyatda ko'p: 1) **predmetlararo aloqa o'rnatish**. Masalan, ona tili mashg'ulotlarida adabiyotdan o'rganilgan bilimlardan foydalanish; 2) **bir obyektni bir paytning o'zida ikki o'quv predmeti — ona tili va adabiyot nuqtai nazaridan parallel tahlil qilish**. Masalan, ma'lum hikoyani oldin til jihatidan, keyin esa badiiy vositalar yuzasidan o'rganish; 3) **o'quv predmeti ichida tushunchalararo aloqa o'rnatish**. Masalan, antonim va sinonimlarni bir-biriga bog'langan holda o'rgatish; bir sinonimik qatorni (uyani) tashkil etgan so'zlar (katta, ulkan, bahaybat va shu kabilalar)ning ziddi (kichik, mitti, mayda va shu kabilalar) — antonimik qatorni tashkil etadi. Binobarin, sinonim va antonimlarni o'zaro qarama-qarshi qo'yib o'rgatish imkoniyatlari mavjud; 4) **bir usuldan ikki o'quv predmeti doirasida foydalanish**. Masalan, u yoki bu matnni oldin til jihatidan kuzatish, so'ngra badiiy vositalari, timsollari bo'yicha kuzatish va hokazolar.

**O'quv dasturlari.** O'quv rejalariga o'xshab o'quv dasturlari ham mакtabning asosiy hujjati sanaladi. Ularni ikki xil yo'l bilan tuzish mumkin: **deduktiv va induktiv**.

**Deduktiv dasturlarda** til hodisalaridan nutq hodisalariga qarab borish tamoyiliga rioya qilingan. Ularda tilning turli sohalariga — fonetika, leksika, grammatikasiga oid bilimlardan nutqda qo'llanishga, binobarin, mashq qilishga qarab boriladi.

**Induktiv dasturlar** nutqdan til hodisalariga — ta'rif, aniqlik, qoidalariga qarab borish tamoyili asosida tuziladi. O'quv materiallariga oid dalillarni tahlil qilish, berilgan va tuzilgan matnlar ustida ishslash, kuzatilgan, tahlil qilingan dalillardan xulosalar chiqarish ona tilini o'qitishning yetakchi usuliga aylanadi.

O'quv dasturlari tarkiban tushuntirish xati, dastur mazmunidan iborat.

Dasturlarning tushuntirish xati qismida maktablarda ona tili o'qitishning maqsadi, vazifalari, yo'naliishlari aniqlanadi.

Maktablarda ona tili o'qitishning o'ziga xos yo'naliishlari mavjud bo'lib, ular muayyan vazifalarni hal etishni taqozo qiladi.

**Birinchi yo'naliish** — bolalarda nutq va tilga oid tasavvurlarni shakllantirish. Bu yo'naliish bo'yicha quyidagi vazifalar ajratiladi:

— tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlari, nutq malakalariga oid bilimlarini o'zlashtirish;

— til va nutqqa oid intellektual hamda amaliy malakalarni shakllantirish.

**Ikkinci yo'naliish** — o'quvchilarda ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish. Til hodisalarini kuzatish, kuzatilgan dalillar asosida mustaqil xulosalar chiqarish, berilgan o'quv va hayotiy holatlarga muvofiq nutq tuzish yo'llari bilan bolalarda ijodiy qobiliyatlar takomillashadi.

**Uchinchi yo'naliish** — ona tili materiallari asosida o'quvchilarda Vatanni ardoqlash, boshqa xalqlar, tillarga hurmat hissini tarbiyalash. Buning uchun quyidagi vazifalar belgilanadi:

— tilga va elga e'tiborini tarbiyalash;

— atrof-muhitni himoya qilishga o'rgatish;

— so'z va faoliyat birligiga rioya qilishga odatlantirish;

— nutqni tinglay olish, o'zi va boshqalarning nutqini baholay bilish ko'nikmalarini tarkib toptirish.

Dasturlarning ikkinchi qismida ona tilidan o'r ganiladigan bilimlar ularning o'quv yillari osha hajm va ko'lam jihatdan rivojlanib borishi, o'quv predmeti bo'limlari, mavzulariga ajratilgan o'quv soatlari ko'rsatiladi, har bir o'quv yilda shakllantiriladigan malakalar tizimi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarini takomillashtirish vositalari rejalashtiriladi. O'quv rejalarini va dasturlari ona

tilidan darslik tuzish, ma'lumot mazmunini darsliklarda moddiylashtirish ishlarini osonlashtiradi.

**Ona tili predmeti.** Ona tili predmeti bola o'qish va yozishni o'rgangandan boshlab, toki o'rta umumiylar ma'lumot olgunga qadar davom etadi. Ona tili predmeti, uning mohiyati, mazmunida ko'zda tutilgan muammolar, ularning hajm va ko'lam jihatdan takomillashib borishi nazarda tutilib, ona tili darsliklari tuziladi. Binobarin, ona tili predmeti to'g'risidagi ilmiy tasavvurlar darslik tuzish uchun asos hisoblanadi.

Ona tili o'zbek tilshunosligi fanining umumiy asoslariiga pedagogik ishlov berish yo'li bilan loyihalanadigan, tilning fonetika, leksika, grammatikasidan nazariy bilimlarni o'zlashtirishga mo'ljallangan, bolalarda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalarini rivojlantirish orqali nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga yo'nalgan o'quv predmetidir.

Ona tili o'quv predmeti sifatida ham nazariy, ham amaliy asosga ega: fonetika, leksika va grammatikadan maktab dasturlarida ko'zda tutilgan bilimlar uning nazariy asoslari hisoblanadi: nazariy bilimlarga rioya qilib nutq malakalari va nutq madaniyatini rivojlantirish uning amaliy asoslari sanaladi.

Ona tili predmeti to'g'risidagi tasavvurlarga ko'ra, ona tili darsliklari tuziladi. Boshqacha aytganda, darslikni tuzishga kirishilgunga qadar, muallif ona tili predmeti to'g'risidagi tasavvurlarga rioya qiladi. Turli sinflarga mo'ljallangan ona tili darsliklari tuzilganda sinf o'quvchilarining tayyorgarligi, fiziologik, psixologik xususiyatlari inobatga olinadi. «Ona tili predmeti» tushunchasi mohiyatga, «Ona tili darsligi» tushunchasi voqelikka doir kategoriyalardir. Zotan, ona tili predmeti ona tili darsligi vositasida o'rganish va o'zlashtirish hodisasiga aylanadi.

**Ona tili darsliklari.** Darsliklarda sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, ularning psixofiziologik xususiyatlari

hisobga olinadi. Har bir darslik aynan olingen sinf (masalan, 3-sinf yoki 7-sinf) o‘quvchilarining real o‘quv imkoniyatlariiga mo‘ljallab yoziladi. Bunda ona tili o‘qitishning vorislik prinsipiga qat’iy rioya qilinadi.

Ona tili darsliklari<sup>7</sup> tarkiban darslik matnlari va matndan tashqari kiritmalardan iborat.

Ona tili darsliklarida berilgan matnlar mohiyati, mazmuni, bajaradigan ishi jihatidan uch turli bo‘ladi; **asosiy matn, qo‘sishma matn, izoh matn**.

Ona tili darsliklarining yadrosi asosiy matnlardan iborat.

Asosiy matn — darslik muallifi yoki mualliflar jamoasi tomonidan darslikda u yoki bu (masalan, 3-yoki 5-sinf) sinf o‘quvchilarining bilish imkoniyatlari asosida shakllantirilgan bilimlardir. Shakl jihatidan asosiy matnlar lingvistik ta’rif, lingvistik aniqlik, lingvistik qoida ko‘rinishida bo‘ladi. Asosiy matnlarni o‘zlashtirish yo‘li bilan bolalarda lingvistik tushunchalar shakllantiriladi, til hodisalarini bir-biridan farqlay olish qobiliyatları taraqqiy ettiriladi, tilga va nutqqa munosabat tarbiyalanadi. Asosiy matnlar darslikning har bir bo‘limi, har bir mavzusi tarkibida yetakchi qism sanaladi. Asosiy matnlarning o‘zi ham ikki turli bo‘ladi: nazariy matnlar — tilning fonetika, leksika, grammatikasiga oid ta’riflar, aniqliklar. Ularni o‘zlashtirish yo‘li bilan bolalarda til hodisalarini farqlashga oid intellektual malakalar rivojlantiriladi. Nazariy matnlar tarkiban lingvistik tushunchalar, terminlar hamda shu tushuncha, terminlarga

<sup>7</sup> Taniqli usulshunos olim Y.A. Abdullayevning yozishicha, ona tili ta’limini darsliklar asosida tashkil etish tajribasi uzoq tarixga ega. Bu tajriba, ayniqsa, XX asrning boshkarida yanada rivojlandi. S.Saidazizovning «Ustodi avval», P.A.Badanovning «Sullami avval», A.A.Kalininning «Muallimi soniy», A.Avloniy, H.H.Niyoziy, A.Zohiriy tuzgan muktab darsliklari pedagogik fikrlash taraqqiyotiga qo‘shilgan hissadir. Bu asarlarni qiyosiy o‘rganish, xulosalar chiqarish imkoniyati har qachongidan ham oshdi. Qarang: Я.А.Абдуллаев. Очерки по методике обучения грамоте в узбекской школе. — Т.: «Укитувчи», 1966. стр. 94-134.

oid dalillar — til materiallari misol va matnlardan iborat: amaliy matnlar — nutq ko‘nikmalariga doir qoidalar, mashqlardir. Amaliy matnlarning bosh vazifasi o‘quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalarini rivojlantirishdan iborat.

**Qo‘srimcha matnlar darslikka dasturdan tashqari kiritilgan, bolalarni qiziqtiradigan, u yoki bu sohada o‘quvchilar bilimini kengaytirishga mo‘ljallangan materiallardir.** Darsliklarga muallif yoki mualliflar jamoasi kiritgan qo‘srimcha matnlar (bunday matnlar asosan, yuqori sinf uchun tayyorlangan ona tili darsliklariga kiritilishi mumkinligini ham unutmaslik kerak) o‘quvchilarni ilmiy izlanishga jalb qilib, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish, darslikning emotsional ta’sirini kuchaytirish maqsadida tuziladi. Masalan, leksika materiallari o‘tilganda Mahmud Qoshg‘ariyning «Devoni lug‘otit turk» asaridan ko‘chirmalar tanlash mumkin. Hujjatlar (masalan, davlat tili haqidagi Qonun), ona tili taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan tilshunos olimlar biografiyasi, ilmiy-ommabop va badiiy asarlaridan olingan qisqa matnlar, ma’lumotlar (masalan, dunyoda necha million kishi o‘zbek tilida so‘zlashadi) darsliklarga qo‘srimcha matnlar sifatida kiritiladi.

**Izoh matnlar — asosiy va qo‘srimcha matnlarni o‘rganish uchun yordam beradigan vositalardir.** Ta’lim sharoitida ona tilini o‘rganishda izoh matnlarning ahamiyati nihoyatda katta. Ular darslik ustida o‘quvchilarning mustaqil ishlarini tashkil etish (masalan, mashqda berilgan yulduzcha, uni mustaqil bajarishni bolalarga eslatib turadi), bir hodisani ikkinchisidan ajratishga oid eslatmalar (masalan, tire defisga nisbatan uzunroq chiziqcha bilan ko‘rsatiladi) o‘quvchilar diqqatini ma’lum hodisaga to‘playdi. Izoh matnlar sirasiga eslatmalar, darslikka ilova qilingan lug‘at, alfavit, rasm, chizma va ularga berilgan izoh, turli shakllar (masalan, ega va kesimning tagini chizish

belgilari), qisqartmalar kiradi. Bulardan ko‘rinadiki, «izoh matn» iborasining o‘zi ham shartli bo‘lib, ular matn, chizma, shartli belgi shakllarida ishlatiladi.

Matndan tashqari kiritmalar darslik matnlarini to‘liq o‘zlashtirishni tashkil etish, darslikni bezash, bolalar faoliyatini yo‘naltirish maqsadiga xizmat qiladi. Bajara-digan ishiga qarab kiritmalarni uch guruhga ajratamiz: a) Darslik mazmunini to‘liq o‘zlashtirishni tashkil etishga oid kiritmalar — savollar, topshiriqlar, umumlashtiruvchi chizmalar; b) Darslikni bezashga oid kiritmalar — kursiv, katta shriftlar bilan yozilgan so‘zlar, rasm — polotnolar; d) O‘quvchilar faoliyatini yo‘naltirishga oid kiritmalar — sarlavhalar, shartli belgilar, mavzu ko‘rsatkichi, mundarija.

Ona tili darsliklari o‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma, o‘quvchilar uchun bilim manbai sanaladi.

Axborot berish vazifasi bu darsliklarning o‘quvchilarni tilning turli sohalariga oid bilimlar bilan tanishtirishda bajaradigan ishidir.

O‘quvchilarning bilim o‘rganish, izlanishga qiziqishlarini oshirish vazifasi — darslikning bolada ona tilini o‘rganishga oid motivlarni uyg‘otish, rag‘batlantirishga oid bajaradigan ishi.

Ona tili darsliklarining yana bir vazifasi o‘quvchilarda tilga munosabatni tarbiyalash bilan izohlanadi. Ular bolalarda ona tiliga, uning qonun-qoidalariga, o‘zining va o‘zgalarning nutqiga munosabatlarni tarbiyalaydi.

### **3-fasl. Ona tilidan ta’lim mazmunini moddiylashtirish darajalari**

Ona tilidan ta’lim mazmuni turli shakllarga ega: ta’rif, qoida, aniqlik, mashq, savol, kartochka, o‘quv topshirig‘i, ko‘rgazma qurol va shu kabilar. Shuningdek, ta’limga olib kiriladigan misollar, matnlar, o‘qituvchi doskaga yozadigan bitiklar, tayanch so‘zlar, so‘z birikmali, bolalarning o‘zları

o‘ylab topgan dalillar, ular tuzgan matnlar ham ta’lim mazmuni matnida qaraladi. Demak, ta’lim mazmuni deganda, ma’lumot mazmunidan tanlanib, dars jarayonida o‘rganish uchun sinfga olib kiriladigan materiallarni tushunamiz.

**Lingvistik ta’riflar.** Mohiyati jihatidan ona tili bo‘yicha o‘rganiladigan ta’riflarni uch guruhgaga bo‘lamiz: a) **fonetik ta’riflar** — unli va undosh, jarangli va jarangsiz undosh tovushlarga berilgan ta’rif, urg‘u, bo‘g‘in, ochiq va yopiq bo‘g‘inlar ta’rifi; b) **leksik ta’riflar** — so‘zning ma’nosi, lug‘at boyligi, antonim, sinonim, omonimlarning ta’rifi; d) **grammatik ta’riflar** — gap, uning mazmuni va qurilishiga ko‘ra turlari xususidagi, gap bo‘laklari, so‘z turkumlari to‘g‘risidagi bilimlar lingvistik ta’riflarga misol bo‘ladi. Ona tilidan o‘zlashtiriladigan bilimlarning katta qismini grammatik ta’riflar tashkil etadi.

Mantiqan lingvistik ta’riflar ikki qismdan iborat: **ta’rifning chap qismi** — aniqlanadigan til hodisasi, **ta’rifning o‘ng qismi** — til hodisasi xususida aytilgan fikr. Uning chap va o‘ng qismi birgalikda xulosa va ta’rif sanaladi. Masalan, shunday xulosani olaylik: so‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqasiga nisbatan kuchli aytishiga urg‘u deyiladi.

Ta’rifning chap qismida (so‘z bo‘g‘inlaridan birining boshqasiga nisbatan kuchli aytishi) shu hodisaning asosiy belgisi, o‘ng qismida (urg‘u deyiladi) asosiy belgi haqida aytilgan fikr umumlashgan holda aks etadi.

Lingvistik ta’riflar o‘ta murakkab, qiyin, abstrakt xususiyatga ega. Hozir maktablarda aksariyat o‘qituvchilar tajribasida oldin ta’riflarni o‘rgatish, so‘ngra shu ta’riflar bo‘yicha mashq qilish odatga aylangan. Buni lingvistik ta’riflarni o‘zlashtirishning samarali yo‘li deb bo‘lmaydi. Ta’rifni o‘quvchining o‘zi mustaqil chiqargan paydagina u samarali o‘zlashtiriladi. Bunga nutqdan o‘rganilayotgan hodisaning nutqda qo‘llaniladigan namunasidan ta’rifga qarab borish yo‘li ‘bilan erishiladi.

**Lingvistik aniqliklar.** Agar lingvistik ta’riflar til hodisasining asosiy belgisi va shu belgi haqidagi hukmdan iborat bo’lsa, lingvistik aniqliklar nuqul hukmdan tashkil topadi. Misol keltiramiz: 1) **fonetikadan** — ochiq bo‘g‘inlar unli bilan tugaydi; yopiq bo‘g‘inlar undosh bilan tugaydi; 2) **leksikadan** — bir sinonimik qatorni (uyani) tashkil etgan sinonimlar bir so‘z turkumiga oid bo‘ladi: yuz, aft, bashara, turq; 3) **morfologiyadan** — otlar kim? yoki nima? so‘rog‘ini oladi; 4) **sintaksisdan** — sifatlovchi aniqlovchi, ko‘pincha, sifat bilan ifodalanadi, darak gapning oxirida ovoz pasayadi va shu kabilar.

Darsliklarda, shuningdek, o‘quv materiallarini bayon etishda lingvistik aniqliklardan lingvistik ta’rifga qarab borish ma’qul yo’ldir. Chunki har bir lingvistik aniqlikda o‘rganilayotgan til hodisasining xususiyatlari aks etadi. Masalan, ot narsalarni bildiradi, kim? yoki nima? so‘rog‘ini oladi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari vazifasida kela oladi, turdosh otlar bir turdag'i (masalan, o‘simliklar) narsalarning nomini bildiradi va shu kabilar. Shu sanalganlarni mohiyat jihatdan ikki guruhga ajratish mumkin: otning asosiy belgisi — narsalarning nomini bildirish, qolgan xususiyatlari uning ikkinchi darajali belgilaridir.

**Lingvistik qoidalar.** Agar ta’rif, aniqliklar o‘rganilayotgan til hodisalari tabiatidan chiqarilgan umumlashgan bilimlar bo‘lsa, qoidalar, shartlilik asosida qabul qilingan bilimlardir. Binobarin, qoidalarda shartlilik ustun bo‘ladi. Ular bevosita nutq faoliyati bilan daxldor. Qoidalarni o‘rganish yo‘li bilan orfografik, grafik, orfoepik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar rivojlantiriladi. Lingvistik qoidalar ona tili predmetining ikkinchi qavat (yarusi) bilan bog‘langan holda o‘rganiladi. Yuqoridaq nutq malakalari turlarini hisobga oladigan bo‘lsak, lingvistik qoidalarning quyidagicha turlarini ajratish mumkin; orfografik qoidalar, grafik qoidalar (harfni qabul qilingan shaklda, bosh va

kichik harf shakllarida yozish), orfoepik qoidalar, punktuatsion qoidalar, uslubiy qoidalar, prosedemalar<sup>8</sup> xususidagi qoidalar.

**O'rganilayotgan mavzuga oid dalil (misollar).** Har bir mavzuga oid ta'rif, aniqlik, qoidalarni tushuntirish jarayonini osonlashtirish, hodisalarni konkretlashtirish maqsadida darsliklarga o'rganilayotgan hodisaga doir dalil — misollar ham kiritiladi. Mavzu doirasida qo'llanadigan misollar o'quv-tarbiya jarayonida qator vazifalarni bajaradi: lingistik hodisalarni kuzatish; ta'rif, aniqlik, qoidalarni konkretlashtirish; mavzu yuzasidan o'quv yumushlari (misollarni o'qish, o'xshash misollar topish va hokazolar) va aqliy faoliyat usullarini (tahlil va sintez, taqqoslash, guruhlarga ajratish, xulosa chiqarish, tasnif etish va hokazolar) ishga solish; o'z mulohazalarini asoslash; bilimlarini turli sharoitlarga tadbiq qilish.

Ona tilidan ta'lim mazmuni murakkab va qiyin hodisa bo'lib, dars berishdan avval pedagogik ishlovdan o'tkaziladi. Ta'lim mazmunining murakkabligi obyektiv hodisa sanaladi. O'rgatiladigan ta'lim mazmunining ko'p elementliliği tufayli, ularni murakkab hodisa deb qaraymiz. Ta'lim mazmunining qiyinligi subyektiv hodisa hisoblanadi. Ta'lim mazmunining qiyinligi ularning abstraktligi, tushunish jarayonidagi qiyinchiliklar, aqliy faoliyat usullari ishtiroki bilan o'lchanadi.

**Ona tilidan ta'lim mazmunini moddiylashtirish shakllari.** Ta'lim mazmuni murakkab hodisa bo'lganligi uchun ta'lim jarayoniga olib kirdunga qadar ularga pedagogik ishlov beriladi. Avvalo, darslik mualliflari ta'lim mazmuniga ishlov berib, uni o'quv materiali shakliga olib kelishadi: ta'rif, aniqlik, qoidalarni bolalarning yoshi, tayyorgarligi, bilish imkoniyatlariga moslashtirishadi, dalillarni tanlashadi. Məktəb o'qituvchilari esa, o'zlari dars beradigan sinf

---

<sup>8</sup> Prosedemalar — urg'uning ta'rifi.

o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlarini hisobga olib, ko'rgazma qurollar, tarqatma materiallarni tanlashadi, topshiriqlar tizimini aniqlaydi, dars o'tish metodlarini belgilashadi, mashg'ulotlarni konspektlashtirishadi. Bularning barchasi ona tilidan ta'lim mazmunini moddiylashtirish shakllari sanaladi.

**O'quv materiali.** O'quv materiali ma'lumot mazmunini moddiylashtirishning eng oxirgi darajasidir. U ta'lim boshlanguncha me'yoriy loyiha — darslik tarkibida tayyor holda bo'ladi. O'quv tarbiya jarayonida ta'lim o'quv materialini o'rganishdan boshlanadi. Unda ta'limning mazmuniy va jarayoni xususiyatlari o'z aksini topadi. O'quv materialining ta'lim boshlangunga qadar tayyor ekanligi va o'qish-o'rganish jarayoni undan boshlanganligini hisobga olib, uni ma'lumot va ta'lim mazmuni o'rtaсидаги оралиқ звено сифатда qaraymiz.

O'quv materiali ma'lumot mazmuniga darslik mualliflari pedagogik ishlov berishlarining eng oxirgi darajasi, ta'lim mazmunini o'zlashtirishning boshlang'ich nuqtasidir. Unga bundan keyin pedagogik ishlov berish o'qituvchiga, uning xohish-istagiga, intilishlariga bog'liq. O'qituvchi o'zi dars beradigan sinf o'quvchilarining real o'quv imkoniyatlarini hisobga olib, o'quv materialiga qo'shimchalar kiritadi, ortiqcha, ikkinchi darajali hodisalarни chiqarib tashlaydi.

O'qituvchining o'quv materialiga pedagogik ishlov berishi ijodiy jarayon bo'lib, shu yo'l bilan ta'limning eng mahsuldor varianti tanlanadi. Ta'limning eng mahsuldor, optimal variantini tanlashda o'rganiladigan material o'quv elementlariga ajratiladi, ta'lim metodlari, vositalari tanlanadi, u yoki bu mashg'ulotdan ko'zlangan natijaga erishish me'yoriyani aniqlanadi. Demak, o'quv materialiga pedagogik ishlov berish yo'li bilan mashg'ulotni tashkil etishning rejasi ishlab chiqiladi.

**O'quv elementi.** O'quv materiallari tarkiban o'quv elementlaridan iborat. O'quv elementi — o'quv materia-

lining pedagogik ishlov berilgan eng kichik birligidir. O'quv elementlari miqdoriga ko'ra, sodda va murakkab o'quv materiallari farqlanadi. Agar o'quv materiali tarkibida bitta o'quv elementi ajratilsa, u sodda mavzu sanaladi. Tarkiban ikki yoki undan ortiq o'quv elementlaridan iborat mavzu murakkab o'quv materiali hisoblanadi. Masalan, atoqli otlar imlosiga oid o'quv materiali quyidagi o'quv elementlaridan iborat: kishilarning ism-familiyalari, taxallus va laqablar (1); shahar, qishloq, ko'chalar, korxonalarning nomi (2); hayvonlarga atab qo'yilgan nomlar (3); ro'znama, oynoma, asarlarning nomi (4). O'quv elementlari miqdoriga ko'ra, atoqli otlar imlosiga oid o'quv materiali murakkab mavzudir.

U yoki bu o'quv materiali tarkibida o'quv elementlari ajratilganda qator pedagogik talablarga rioya qilinadi.

Adekvatlik — o'quv elementining makondagi xususiyati bo'lib, u o'quv elementining o'quv materialiga mosligini taqozo etadi. Har bir o'quv materiali tarkibida faqat va faqat unga oid o'quv elementi ajratilishi zarur.

Bir-biriga bog'liqlik — o'quv elementining informatik xususiyati bo'lib, u bir o'quv elementi to'liq o'zlashtirilgach, ikkinchisiga o'tish zarurligini taqozo qiladi.

Bir-birini to'ldirish — o'quv elementining xususiyati bo'lib, u keyingi o'quv elementini o'rganish bilan oldingi o'quv elementini o'zlashtirish o'rtasida vaqtli interval bo'lishini talab etadi.

O'quv elementining qiyinligi — uning funksional xususiyati bo'lib, u o'zlashtirish jarayonida bola faoliyatining intensivligini (aqlga zo'r berib ishlashni) belgilash o'lchovidir.

Optimallik — o'quv elementining miqdoriy xususiyati bo'lib, unga ko'ra o'rganilayotgan axborotning ko'lami-kengligi aniqlanadi. Optimallik talabiga ko'ra, boshlang'ich va yuqori sinflarda o'rganiladigan qoidalar, aniqliklar, ta'riflarning soddaligi yoki murakkabligi belgilanadi.

**O'quv savoli.** Ona tili mashg'ulotlarida bolalarga beriladigan savollar o'rganilgan yoki endi o'rganiladigan mavzular mazmunidan kelib chiqib aniqlanadi. Binobarin, o'quv savoli — bu javobi ta'lim mazmunida berilgan so'roqdir. O'quv savollari ko'zlangan maqsad, ta'linda bajaradigan ishiga ko'ra tasnif etiladi.

O'quv-tarbiya jarayonida qo'llanish maqsadiga ko'ra, o'quv savollarining quyidagi turlari farqlanadi: o'tganlarni takrorlashga oid savol. Bu xil savollar o'rganilgan va o'rganiladigan o'quv materiallari o'rtaida vorislik, mantiqiy aloqadorlik o'rnatish maqsadida tashkil etiladi. Masalan, qaratqich aniqlovchini o'tishdan oldin sifatlovchiga oid bilimlarni takrorlash zarur. Shu maqsadda bolalarga qator savollarni berish mumkin: qanday gap bo'lagiga sifatlovchi deyiladi? Kim misollar vositasida sifatlovchining xususiyatlarini tushuntira oladi? va hokazo; sinov savollari vositasida bolalarning bilim, malakalari tekshiriladi; yangi o'quv materialini o'rganishdan oldin tayyorlovchi o'quv savoldan foydalанилади; yangi mavzuni tushuntirish jarayonida qo'yiladigan savollar «hamroh» so'roq hisobланади; umumlashtiruvchi savollar ikki yoki undan ortiq mavzular doirasida beriladi. Masalan, aniqlovchilarning barcha turlari (sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi) uchun umumiyl xususiyatni kim aytib beradi?

Ta'lim jarayonida bajaradigan vazifasiga ko'ra ham o'quv savollari ikki guruhg'a bo'linadi: a) **asosiy savol** (aniqlovchining barcha turlari uchun umumiyl xususiyatini kim aytib beradi?); b) **yetaklovchi savol**. Bolalar asosiy savolga javob qaytara olmaganda, yetaklovchi savol beriladi (sifatlovchining umumiyl xususiyatini kim aytadi? Qaratqich aniqlovchining umumiyl xususiyati nimadan iborat? Nimaga asosan izohlovchini aniqlovchining bitta turi sifatida o'rgangan edik?). Yetaklovchi savol asosiy savol uchun tayyorgarlik vositasini o'taydi.

**O‘quv kartochkalari.** O‘quv kartochkalari ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilar faoliyatini individuallashtirish vositasi hisoblanadi. Ulardan ona tili darslarining turli bosqichlarida foydalaniladi. O‘quv kartochkalari ona tilidan ta’lim mazmunini moddiylashtirishning boshqa vositalaridan quyidagicha farq qiladi: darslik materiallariga qo‘sishimcha sanaladi; harakatchan bo‘ladi; o‘qituvchidan o‘quvchiga, o‘quvchidan o‘qituvchiga siljiydi; darsning barcha bosqichlarida ishlataladi; o‘quvchilar faoliyatini individuallashtiradi; kartochkadagi topshiriqni bajarish jamoada muhokama qilinadi. Binobarin, kartochkani bajarish natijasi o‘quvchilar jamoasiga mo‘ljallangan.

**O‘quv topshiriqlari.** O‘quv topshiriqlari murakkab hodisa bo‘lib, ularning mohiyati, o‘quv-tarbiya jarayonida bajaradigan ishi boshqa pedagogik hodisalar bilan taqqoslab o‘rganilgandagina aniqlanadi. Ana shunday kategoriyalardan biri o‘quv materialidir.

Misol tariqasida «Darak gap» mavzusini olaylik. Bu o‘quv materiali tarkiban quyidagi birliklardan iborat: bilim — xabar anglash, uning (darak gapning) oxirida ovozning pasayishi, nuqta qo‘yish bilan yakunlanishi; malaka — darak gapni gapning boshqa turlari (masalan, so‘roq gap)dan farqlash, darak gapni ijro etish, darak gaplarning oxiriga nuqta qo‘ya bilish; ijodiy faoliyat tajribasi — darak gaplarni matndan topa olish, undan nutqda foydalanish; metod — fikrni darak gap shaklida bayon qila olish.

Darak gap mavzusida o‘quv topshiriqlari tuzilganda, o‘quv materiali yangicha shaklga keltiriladi. Masalan, bahor haqida o‘zaro bog‘langan darak gaplar tuzing; matndan darak gaplarni topib o‘qing; «sabr — qanoat» so‘zlar ishtirokida bitta darak gap tuzing va hokazolar.

O‘quv-tarbiya jarayonida o‘quv materiali o‘zgartirilib topshiriq shakliga olib kelinadi. Yanada soddarоq qilib aytganda, o‘quv materiali ta’limning aynan olingan maqsadidan kelib chiqib o‘zgartiriladi. O‘quv materialini

o'zgartirish yo'li bilan u bolalarning real o'quv imkoniyatlariga moslashtiriladi. O'quv topshirig'i — ona tilidan ta'limgazmuni o'rgatish (o'qituvchi faoliyati) va o'rganish (o'quvchi faoliyati) ehtiyojiga ko'ra, o'quv materialining ma'lum shart asosida o'zgartirilgan shaklidir.

O'quv materialining o'quv topshirig'i shaklida o'zgarib turishi qancha rang-barang bo'lsa, ta'limgazmuni shuncha puxta o'zlashtiriladi. Shu bilan birga, o'quv topshirig'i bilimlarni tanish va yangi sharoitlarga ko'chish, ularni amaliyotga tatbiq etishning asosiy vositasidir. Ona tiliga oid topshiriqlarni bajarish yo'li bilan larda nutq faoliyati takomillashadi, nutq ko'nikmalari rivojlanadi. Binobarin, o'quv topshirig'i o'quvchida ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan faoliyatini o'stirish va tarbiyalashning bosh omillaridan hisoblanadi.

Ona tilidan o'quv topshiriqlarini bajarish jarayonida qator talablarga rioya qilinadi: topshiriqni bajarish uchun zaruriy bilimni o'quvchi o'z shaxsiy bilimlari orasidan izlaydi yoki o'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usulini tanish sharoitga tatbiq etadi yoxud bilim va faoliyat usullarini notanish — yangi sharoitga tatbiq etadi, yangi bilim va yangicha faoliyat usullarini egallab oladi. O'quv topshirig'ini bajarish jarayonida rioya qilinadigan normativ talablariga ko'ra, ularning quyidagi tiplari ajratiladi.

Mashq qilishga oid o'quv topshiriqlari — o'rganilgan bilim, o'zlashtirilgan usulni tanish sharoitiga tatbiq etishga oid o'quv vazifasidir. Ularni bajarishda zaruriy bilimlar, usullar esga tushirilib faoliyat ko'rsatiladi. Yanada ommaboproq qilib aytganda, topshiriqni bajaruvchi o'z tezaurusini<sup>9</sup> qayta qurib, kerakli axborotni — bilimni ajratadi, shu ajratilgan bilimga rioya qilib, faoliyat ko'rsatadi.

<sup>9</sup> Tezaurus — insoning shaxsiy faoliyatida mavjud bo'lgan bilim, faoliyat usullari tizimi ma'nosida.

Shunday topshiriq berilgan bo‘lsin: otlarni o‘qib, ikki guruhga ajratib yozish (daftar, o‘quvchi, xaskash, piyoz, bola, o‘qituvchi, albom, ishchi).

Topshiriqni otlarning so‘roqlarini bilgan o‘quvchigina bajara oladi. O‘quvchi o‘z bilimlari orasidan otlarning so‘roqlariga oid bilimlarini ajratadi, esga tushiradi, so‘ngra esga tushirilgan bilimni berilgan o‘quv holatiga tatbiq etadi. Shu tipdagи o‘quv topshiriqlarini bajarish yo‘llari bilan bolalarda so‘roqlar yordamida otlarni ikki guruhga ajratish malakasi shakllantiriladi.

Bilishga oid o‘quv topshiriqlari — yangi bilimlarni mustaqil o‘rganishga oid o‘quv vazifasidir. Ot so‘z turkumiga oid so‘roqlarni o‘rgatishdan oldin bolalarga shunday o‘quv topshirig‘ini berish mumkin: O‘qing. Daftar, o‘quvchi, xaskash, piyoz, bola, o‘qituvchi, albom, ishchi. Shu so‘zlarni qanday qilib ikki guruhga ajratish mumkin.

Topshiriqni otlarning so‘roqlarini qo‘llay olgan o‘quvchigina bajara oladi: bolalar kishini anglatgan so‘zlar (o‘quvchi, bola, o‘qituvchi, ishchi), kishidan boshqa narsalarni anglatgan so‘zlarni (daftar, xaskash, piyoz, albom) ikkita guruhga ajratishadi. Guruhlarga ajratilgan so‘zlar qayta tahlil etilib, xulosa chiqariladi: kishini bildirgan so‘zlar kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi; kishidan boshqa narsalarni bildirgan so‘zlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi. Topshiriqni bajarish, bajarilgan ishni qayta tahlil etish yo‘li bilan chiqarilgan xulosa o‘quvchi uchun yangi bilim, mustaqil faoliyat natijasi sanaladi.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, bir o‘quv topshiriq‘idan turli maqsadlarda foydalanish mumkin. Agar o‘quv topshirig‘i oldin o‘rganilgan bilimlarga oid bo‘lsa, mashq qilish vositasi, agar o‘quv topshirig‘i mustaqil xulosa chiqarishga mo‘ljallangan bo‘lsa, ijod qilish vositasi sanaladi. O‘quv topshiriqlarining bu xususiyatlariga — mashq qilish, ijodkorlik, ta’limni individuallashtirish va tabaqa lashtirishga doir ishlar keyingi boblarda muhokama qilinadi.

### III BOB

## TA'LIM SHAROITIDA ONA TILINI O'ZLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA PRINSIPLARI

Ona tili ta'liming murakkabligi, bir tomondan, o'quvchilarga tilimizning grammatic qurilishini o'rgatish, ularda lingvistik bilim, tushunchalarni shakllantirish bilan, ikkinchi tomondan, til bilimlari asosida bolalarda nutq ko'nikmalarini (orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, punktuatsion, prosodik) hosil qilish bilan izohlanadi. Til bilimlari va ularga oid nutq ko'nikmalari ta'lim sharoitida o'zlashtiriladi.

Ona tilidan bilimlar darslik, ko'rgazma qurol, bosma asosli didaktik material, shuningdek, o'qituvchida o'z ixtisosligiga oid hosil qilingan bilimlar sifatida shakllangan. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish natijasida o'quvchi o'z tajribasidan tashqariga chiqadi. U kishilar tajribasidan o'tgan, o'zgalar tomonidan kashf etilgan bilimlarni egallaydi. Binobarin, dastur va darsliklar asosida o'zgalar kashf etgan bilimlarni o'zlashtirish ta'lim sharoitida til materiallarini o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyati bo'lib, tilni tabiiy o'zlashtirishdan o'z maqsadi, vazifasi, vositalari jihatidan farq qiladi.

Ta'lim sharoitida tilni o'zlashtirish masalalari an'anaviy metodikada o'qituvchiga, uning faoliyatiga, o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish usullariga ko'ra bayon etilgan. Bu, o'z navbatida, metodikaning shakllanishiga olib kelgan bo'lsa-da, usuliy g'oyalarning nazariya darajasiga ko'tarilishiga monelik qilmoqda. Tilni ta'lim sharoitida o'zlashtirish masalalariga bolalarning o'quv-biluv faoliyati, til materiallarining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish

yo‘li bilan ham erishsa bo‘ladi. Fikrimizcha, shunday yo‘l tutilganda, tilni ta’lim sharoitida o‘zlashtirish qonuniyatlarini va prinsiplarini asoslash uchun mustahkam zamin yaratiladi.

### **1-fasl. Ta’lim sharoitida ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatlarini**

Qonuniyat tilni o‘zlashtirish jarayonida eng ko‘p takrorlanib turadigan universal bog‘lanishlardir. Tilda shakl va mazmunning, til va nutqning, nazariya va amaliyotning, og‘zaki va yozma nutqning o‘zaro bog‘liqligi har bir mashg‘ulotda uchrab turadigan hodisalardir. Shunga ko‘ra, ularni ta’lim sharoitida tilni o‘zlashtirish qonuniyatlarini deb belgilash asoslidir. Bu qonuniyatlarining mohiyatini to‘g‘ri tushunish uchun tildan o‘zlashtiriladigan o‘quv materialllarning umumiy xususiyatlarini, bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini tahlil etish zarur.

**Ona tili materialining umumiy xususiyati.** Ta’limda ona tili ikki xil vazifa bajaradi: a) barcha o‘quv predmetlariga oid bilimlarni bolalarga o‘rgatish vositasi; b) o‘quv predmeti. O‘quv predmeti sifatida tilning fonetika, leksika va grammatikasidan nazariy bilimlar, bu bilimlar asosida esa nutq ko‘nikmalari shakllantiriladi. Ona tilidan o‘zlashtiriladigan o‘quv materialllari quyidagi umumiy xususiyatlarga ega.

1. Tildan o‘rganiladigan har bir hodisaning ma’nosи va shu ma’noga xos jarangdorlik — fizik tomoni. Masalan, ravishdoshga oid so‘zlarining holatini anglatish ularning ma’no tomoni sanalsa, «-b, -ib, -a, -y, -gali, -gani, -gach» kabi qo‘sishchalarining o‘ziga xos jarangdorligi ularning fizik tomoni hisoblanadi.

2. Tildan o‘rganiladigan har bir hodisa ma’lum tushunchani anglatadi. Bu tushuncha, o‘z navbatida, hajm jihatidan kengroq ikkinchi bir tushuncha matnida

qaraladi. Ravishdosh fe'l tushunchasi, fe'l so'z turkumi tushunchasi, so'z turkumi morfologiya tushunchasi doirasida o'rganiladi.

3. O'rganiladigan hodisa til tizimiga kirganligi, bu tizimning ma'lum tomonini ifodalagani uchun u til va nutqqa doir juda ko'p omillar bilan daxldor, ular bilan aloqador bo'ladi: ravishdoshga oid so'zlar gapdag'i vazifasi jihatidan sintaksis, «-gach, -kach, -qach, -guncha, -kuncha, -quncha» qo'shimchalarning imlosi yuzasidan orfografiya, ularning ko'p variantligiga ko'ra fonetika, nutqda qo'llanish xususiyatlariga ko'ra uslubiyat bilan bog'liq bo'ladi. Demak, bu hodisaning og'zaki va yozma nutqda tutgan o'rnini bolalarga yetkazish o'qituvchining asosiy vazifasi hisoblanadi. «Ravishdosh» mavzusi o'tilganda: qo'rqib, titrab, xavfsirab; nolib, o'kinib, o'pkalab; kulib, iljayib, jilmayib; gaplashib, so'zlashib, suhbatlashib; bahslashib, tortishib, talashib; anglab, tushunib, uqib; maqtab, ulug'lab, hurmatlab; sharaflab, olqishlab; pichirlab, shivirlab; quvonib, zavqlanib, shodlanib; qarab, tikilib, termulib; bukilib, egilib, engashib; tezlab, jadallab, oshiqib, shoshilib; bo'shashib, imillab; kerilib, gerdaiyib, kekkayib kabi juda ko'p sinonimlarning qo'llanishi tahlil qilinadi.

Demak, ravishdoshlarning ma'nosi, ularning fe'llik va ravishlik xususiyatlari, ravishdoshning boshqa morfologik bilimlar bilan bog'liqligi, ularning uslubiy imkoniyatlari kabilar shu o'quv materiali tuzilishining o'ziga xos, shu bilan birga umumiy xususiyati sanaladi. Bu mavzuni induksiya asosida quyidagi reja orqali o'tish mumkin.

1. Mavzuga oid dalil to'plash va ularni tahlil qilish: Salim sirkda ko'rganlarini kula-kula ayta boshladi. Quyosh yarqirab ko'rindi. Biz quvnay-quvnay olma terdik.

2. Gaplarni tahlil qilish yo'li bilan juz'iy xulosalar chiqarish: ravishdoshlar fe'lga o'xshab holatni anglatadi. Gaplar tarkibidagi ravishdoshlarning sintaktik vazifasi tekshiriladi: ravishga o'xshab gapda hol vazifasida keladi.

3. Chiqarilgan juz'iy xulosalar birlashtiriladi: ravishdosh fe'lga o'xshab holat ma'nosini anglatadi, zamonni ko'rsatadi, gapda hol vazifasida keladi.

4. Ravishdoshning nutqda qo'llanishi o'rganiladi.

**Ta'lim sharoitida bolalarning o'quv-biluv faoliyati.**

Maktab o'quvchilarining o'quv-biluv faoliyati turli shakllarda bo'ladi: kuzatish va tajribalar vositasida o'rganish; o'yinlar vositasida yangi so'z, iboralarni bilib olish; katta kishilarning ostensiv<sup>10</sup> tushuntirishidan ona tilini o'rganish; ijtimoiy va ma'naviy hayotda faol qatnashish jarayonida tilni o'zlashtirish; ta'lim sharoitida tilni egallash.

Tilni o'zlashtirishning turli shakllari o'zaro aloqador bo'lsa-da, ular bir-biriga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bolalardagi maktabga kelguncha hosil qilingan nutq malakalari: nutq tovushlarini fahmlash, ularni ayta olish, bolalar nutqida turli-tuman so'zlarning qo'llanishi, so'z ma'nolarini ajrata bilish, gap, nutq tuza olish, fikrni o'zgalarga yetkaza bilish tajribasi ona tili ta'limi uchun baza hisoblanadi. Maktab ona tili ta'limi bolalarning maktab-gacha hosil qilgan nutq tayyorgarligi asosida tashkil etiladi. O'quvchilar maktabga kelguncha ba'zi bir nutq tovushlarini, ayrim so'zlarning ma'nosini noto'g'ri o'zlashtirib olgan bo'lishlari tabiiy. Bola nutqida juda ko'p sheva elementlari ham uchrab turadi. Bular ona tili ta'limiga salbiy ta'sir etadi. Ularni bartaraf etish yo'li bilan ona tili ta'limining samaradorligi oshiriladi. Ona tili ta'limi sharoitida bolalarning o'quv-biluv faoliyatini kuzatish shu xulosaga olib keldiki, ma'lum mavzuga oid bilimlar o'rganilganda, shu bilimlarga rioya qilib turli intellektual (aqliy) va amaliy topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar xatoga yo'l qo'yishlari ham mumkin. Bu o'quvchilarning bilimni yomon o'rganish-gani natijasi emas, balki o'zlashtirilgan bilim bilan uni nutq faoliyatida qo'llash o'rtasida mustahkam aloqadorlikning

<sup>10</sup> Ostensiv — sharqona tushuntirish ma'nosida.

yoqligidir. Bilim va uning nutq faoliyatida qo'llanishi o'rtasidagi bog'liqlik mashq qilish orqali o'rnatiladi. Mashq qilish yo'li bilan bolalarning nutq faoliyatidagi nuqsonlar tugatiladi.

An'anaviy metodikaga ko'ra, ona tilidan o'quv materiallarini o'zlashtirishda o'quvchilar qator bosqichlarni bosib o'tishadi:

a) mavzu doirasida ma'lum ta'rif, qoidalarni o'rganish. Bu bosqichda o'rganilgan bilimlarni isbotlash, sharplash uchun dalillar yetishmaydi, bolalar o'rganilgan ta'rif, qoidalarga oid misollar keltirishda qiyinalishadi;

b) bilimlarga oid dalil to'plash. Bu bosqichda o'rganilgan qoidalar, tushunchalarga riosa qilib turli topshiriqlar bajariladi. Endi o'quvchilar ta'rif, qoidalarni sharplash uchun yetarli miqdorda misollar keltira olishsa-da, shu bilimlarni yangi sharoitlarga ko'chirish paytida qiyinalishadi. Binobarin, mavzu bo'yicha mashq o'tkazishga tabiiy ehtiyoj tug'iladi;

d) o'rganilgan bilimni turli o'quv sharoitlariga tatbiq eta bilish malakasini hosil qilish. Bu bosqichda o'rganilgan mavzuga oid dalillar turli matnlardan izlanadi, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra berilgan misollar (so'z, so'z birikmasi va shu kabilalar)dan matn yaratiladi;

e) o'rganilgan ta'rif, qoida, tushunchalar o'quv predmetining keyingi bo'limlarini o'zlashtirish jarayonida yanada mustahkamlanadi, kengaytiriladi.

Bolalarning o'quv-biluv faoliyatini tahlil qilish, nutqdan tilga qarab borish tamoyiliga riosa qilish yo'li bilan yuqoridaqgi bosqichlarni kamaytirish, u yoki bu o'quv materialini o'zlashtirishda o'quvchilar faoliyatining optimal — tezkor va eng maqbul kechishini ham ta'minlash mumkin. Shunday yo'llardan biri, ona tilini o'qitishda induksiyaning ustuvorligini ta'minlashdir.

Tilshunoslik o'z mohiyatiga ko'ra induktiv fandir. Uning umumiy asoslarini o'qitishga mo'ljallangan ona tili

predmetini ham induktiv yo'l bilan o'rgatish eng ma'qul yo'l sanaladi. Bunda o'rganilayotgan mavzularga oid dalillarni kuzatish, tahlil etish orqali xulosa chiqariladi. Shu yo'l bilan til o'qitish tajribasida cheklanmagan mavqega ega bo'lgan «akademizm» — tilga oid qonun qoidalarni yodlatish ma'lum darajada chegaralanadi.

Falsafiy nuqtai nazardan bilish — bu tabiat, jamiyat, tafakkur hodisalarining inson ongida in'ikos etishidir. Narsa-hodisalar inson ongida sezgi va timsollar, belgi va simvollar, juz'iy va umumlashgan, aniq (konkret) va mavhum (abstrakt) shakllarda aks etadi. Shuningdek, tarixiy evolyutsion taraqqiyot natijasida insonda ham o'zgalar, ham o'zining tajribasidan o'tgan narsa-hodisalarini xotirada saqlab qolish, zaruriyat tug'ilganda foydalanish qobiliyati shakllangan.

Ta'lim sharoitida bolalarni ona tilini o'rgatishga oid faoliyatini tahlil qilish maqsadida ushbu o'quv holatini ko'zdan kechiraylik: so'zlarni o'qib, ochiq bo'g'inxilarini topib ko'rsating.

O'quvchi topshiriqni bajara turib, o'z faoliyatini «oxiri unli bilan tugagan bo'g'inxilarga ochiq bo'g'in deb aytildi» qoidasi asosida boshqaradi. Topshiriqni bajarishda rioya qilinadigan bilim (ochiq bo'g'inxilar ta'rifi) olimlar, darslik mualliflari, til-adabiyot o'qituvchisi, shuningdek, o'quvchining o'z faoliyatidan bir necha bor o'tgan. O'zgalar va o'zining tajribasidan o'tgan bilimlarni bir-biriga qo'shib amal qilish-faoliyat ko'rsatish bashariyatining o'ziga xos hodisadir. Topshiriqda qo'yilgan talab (ochiq bo'g'inxilarini ko'rsatish) o'quvchida turli hissiyot, qiziqish, hayajonlarini ishga tushiradi. Hayajon va qiziqishlarsiz insonning bilishi mumkin emas. Ular tafakkur hodisalari — tahlil va sintez taqqoslash, konkretlashtirish va abstraksiyalash kabilarning ta'limda faol ishtirokini ta'minlaydi. Ta'lim sharoitida ona tilini o'rganishda so'zni bo'g'in, tovushlarga ajratish, so'zning o'zagi, so'z yasovchi, so'z o'zgartiruvchi

qo'shimchalarni ma'nolariga ko'ra guruhash, so'z va turli sintaktik qurilma (konstruksiya)larning ma'no va shakllariga ko'ra farqlarini ko'rsatish, til materiallarini ma'lum belgi asosida umumlashtirish, berilgan, tahlil qilingan dalillarga ko'ra xulosalar chiqarish kabi lingvistik usullar ham ishtirot etadi. Bola u yoki bu topshiriqni bajarishda lingvistik usullarni qancha ongli his qilsa, anglasa, muammo shuncha samarali hal qilinadi. Binobarin, ona tilidan o'quv materiallariga bog'langan holda o'quvchilarga til dalillarini «guruhlarga ajratish», «tasnif qilish» kabi lingvistik usullarni ham terminlar asosida o'rgatmoq nihoyatda zarur.

Ta'lim sharoitida bolalarning o'quv-biluv faoliyati o'ta murakkab, yaxlit tizim bo'lib, tarkiban hissiyot va emotsiyalar, xotira, tafakkur, mantiqiy va lingvistik usul kabilardan tarkib topgan. Uning markazida bilish hodisalari, bilim yotadi. O'quvchi bilishi — umuminsoniy bilishning alohida shakli. Uning o'ziga xos hissiy va ratsional tomonlari mavjud. Bolalarning o'quv-biluv faoliyatining boshlanishi, davomi va yakuniy nuqtalari bo'lib, ma'lum bilim vositasida boshqariladi, o'ziga xos vositalar yordamida amalga oshadi, ma'lum natija bilan yakunlanadi. Demak, o'quv-biluv faoliyati anglangan, maqsadga yo'nalgan, natija bilan yakunlanadigan faoliyatdir.

Ona tili didaktikasining vazifasi o'quv materialarining umumiyl xususiyatlari, bolalarning o'quv-biluv faoliyati mohiyatiga tayanib, hozirgi amaliyotda qo'llanilayotgan ona tili o'qitish tajribasi bilan yonma-yon yangi tajribani asoslashdan ham iborat. Endigina shakllanib, ilg'or o'qituvchilar tajribasida qo'llanayotgan yangi amaliyotning markazini «dalillardan xulosalarga o'tish» tamoyili tashkil etadi va u «nutqdan tilga qarab borish» normativ talabiga ko'ra boshqariladi. Yangi tajribada bolalar faoliyati quyidagi bosqichlarda amal qiladi: berilgan va tuzilgan matnlar asosida o'rganilayotgan mavzularga oid dalillarni kuzatish, tahlil qilish; kuzatilgan va tahlil qilingan dalillardan

xulosalar chiqarish; chiqarilgan xulosalarni turli o‘quv sharoitlarida sinab ko‘rish, ishlatalish.

## **2-fasl. Til ta’limi prinsiplari**

Til ta’limi prinsiplari, avvalo, tilning o‘z tabiatiga bog‘liqdir. Til ta’limi bo‘yicha o‘rganiladigan bilimlarning manbai o‘zbek tilshunosligi fani hisoblanadi. Zotan, tildan beriladigan bilimlarning nazariy asoslari, ularning o‘ziga xos xususiyatlari tilshunoslik fanida batafsil bayon etilgan. Ammo tilshunoslik fanida tilni qanday o‘qitish kerak, tildan o‘zlashtiriladigan bilimlarning hajmi va mundarijasi qanday bo‘ladi degan masalalar o‘rganilmagan. Bular tilshunoslik fanining vazifasi ham emas. Bu savollar bilan ona tili didaktikasi shug‘ullanadi. Til ta’limi prinsiplari, avvalo, ona tilining o‘z xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ona tili o‘qitishda umumdidaktik prinsiplar bilan birga, til ta’limi prinsiplariga to‘liq rioxha qilish mashg‘ulotlarning samaradorligini oshiradi.

**Nutqdan tilga qarab borish prinsipi.** Bola o‘zini va o‘zgalarni, narsa va hodisalarni til vositasida taniydi, bilib oladi. Ular to‘g‘risidagi o‘z hissiyot, kechinmalar, fikrini nutq vositasida yuzaga chiqaradi. Til va nutqning o‘zaro munosabati bolalar uchun ham, kattalar uchun ham umumiylilik va xususiylik, imkoniyat va reallik o‘rtasidagi munosabatlardan bog‘lanishlar shaklida amal qiladi.

Til umumiyligidir. Uning elementlari ongda to‘planadi, asraladi va yashaydi. Nutq xususiylikdir. U odamlarning o‘zaro munosabat, muloqot, bahslashuvlarida yuzaga chiqadi. Hozirgi maktablar tajribasida ona tili o‘qitishni «tildan nutqqa» qarab borish qolipida tashkil etish an‘anaga aylangan. Shu qolipga ko‘ra oldin qoida, ta’riflar tushuntiriladi, so‘ngra esa ularni mustahkamlash, nutqda qo‘llash ustida ishlashga o‘tiladi. Bu ma’lum darajada o‘quv-tarbiya jarayonida bolalarning ijodkorligiga monelik qiladi.

Til va nutq hodisalari o'rtasidagi munosabatlarga asoslanib, ona tili o'qitishni «nutqdan tilga» qarab borish shaklida ham tashkil etish mumkin. Nutqdan tilga qarab borish shakli ilg'or, ijodkor o'qituvchilar faoliyatida uchraydi. Bu toifadagi o'qituvchilar oldin o'rganilayotgan mavzuga oid dalillar ustida bolalar faoliyatini tashkil etishadi. Ular o'quvchilar faoliyatini olimlarning ijodiy izlanishlariga o'xshatib ishlashga o'rgatishadi. Buning uchun turli-tuman matnlarda til elementlari — nutq tovushlari, so'z, so'z birikmalari, obrazli iboralar, turli sintaktik qurilma (konstruksiya)lar ajratiladi, ular bilan o'quvchilarning ongi, binobarin, nutqi boyitiladi. Bu, o'z navbatida, o'quvchilar ijodkorligini ta'minlaydi.

Til va nutqning o'zaro munosabatiga asoslanib, maktablarda ona tili o'qitishning usuliyatini ham o'zgartirish mumkin. Til induktiv fan bo'lgani uchun uni o'qitishda induktiv metodlar (suhbat, dialog, muammo, o'quv topshiriqlari)ga ko'proq imtiyoz berish zarur.

Til ta'limalda tayyor matnlar ustida ishslash va matnni shakllantirish (tuzish) ona tili o'qitishning yetakchi usuli bo'lmog'i shart. Bobomiz Alisher Navoiy o'zining «Lisonut tayr» dostonida ta'kidlab o'tganidek, «Istabon tashxisi xotir ustod, Nazm o'qiturkim ravon bo'lsun savod». Xotiraning tashxisi, ya'ni jonlanishi, savodning ravonligi-yu barkamolligi, til chechanligi nazmiy va nasriy matnlar ustida ishslashga mutlaqo bog'liq. Matnlar ustida ishslash, ularni tahlil etish yo'llari bilan yangi-yangi so'zlarni, til qaymog'i sanalmish obrazli iboralarni, turli sintaktik qurilma (konstruksiya)-larning modellari bilan ongni, binobarin, tilni boyitish mumkin.

Nutqdan tilga qarab borish prinsipi quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

1. O'rganilayotgan til hodisasiga oid dalillarni tayyor matnlardan izlab topish, ularga sharh tayyorlash, xulosalar chiqarish.

2. Berilgan dalillar asosida matn tayyorlash, tayyorlangan matnni o'rganilayotgan hodisa nuqtai nazaridan tahlil qilish, mustaqil xulosalar chiqarish.

3. Til hodisalariga rioya qilib situativ nutq (qariyalarning yoshlarga murojaati, ishchilar bilan suhbat, sotuvchi va xaridor dialogi, tabiat hodisalari tasviri va shu kabilar) tayyorlash, tayyorlangan nutq-matnni ikki yoki undan ortiq til hodisalariga ko'ra tahlil qilish.

4. Bir-biridan ajratilgan abzatslarning mazmuniga ko'ra o'zaro bog'lab yaxlit matn shakliga keltirish.

**Tilni o'qitishda tabiiylikka rioya qilish prinsipi.** Birinchi sinfga o'qishga kelgan bolalarning deyarli hammasi tilimizda mavjud bo'lgan nutq tovushlarini anglaydi, birini ikkinchisidan farqlaydi, ularni talaffuz qila oladi. Bolalar nutqida ot (odam, qush, kapalak), sifat (yaxshi, shirin, achchiq) va boshqa so'z turkumlariga oid so'zlar faol ishlatiladi. Bolalar juda ko'p morfologik formantlarni (-cha: bolacha; -choq: o'yinchoq, toychoq; -di: keldi, bordi; -ga: senga, menga) nutqda ishlatish yo'llarini maktabga kelguncha egallab oladilar. Katta kishilar bilan aloqada bo'lish, atrofdagi kishilarning nutqini tinglash orqali bolalar darak (otam keldi), so'roq (otam keldimi?), buyruq (Ma, ol. menga ber) mazmunidagi turli-tuman sintaktik konstruksiyalarni ishlata olishni o'zlashtirgan bo'ladi. Bolaning tilni o'zlashtirishda kattalarning ostensiv tushuntirishi (olmani berib tur deyish orqali boladan «olmani olish», «It hurdi» gapini aytib turib, itni ko'rsatish) asosiy rol o'ynaydi. Qisqasi, bola maktabga kelguncha tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini amaliy yo'l bilan o'rganib oladi. Maktabda til o'qitish maktabgacha tilni o'zlashtirish jarayonining tabiiy davomi bo'lishi lozim. Tilni o'qitishda tabiiylikka rioya qilish prinsipi quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi.

1. Boshlang'ich sinflarda til hodisalarini izohlashda o'quvchilar nutqidagi so'zlar va sintaktik qurilma

(konstruksiya)larni hisobga olish; ona tili ta'limini bolalarning matabga kelguncha hosil qilgan til tayyorgarligi ustiga qurish.

2. Umumiy o'rta ta'lim maktablarda til hodisalarini o'rgatishda o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda hosil qilingan bilimlarini hisobga olish, quyi va yuqori sinflarda o'rganilayotgan bilimlar o'rtasidagi izchillik, vorislik va aloqadorlikka qat'iy rioya qilish.

3. Til materillarini jonli nutq tarkibida o'rgatish. O'quvchi nutq tovushi, so'z va sintaktik konstruksiyalarini ko'rgazma quroq yordamida qancha to'g'ri, ongli tushunsa, uni nutq tarkibida ham shuncha to'g'ri, ongli tushunadi. Inson nutqi o'ziga xos «obrazli ko'rgazma» bo'lib, u tabiat va jamiyatda obyektiv mavjud bo'lgan narsalarning ongimizdag'i in'ikosini reallashtirish, o'zgalarga tushunarli bo'lishini ta'minlash uchun xizmat qiladi. Til hodisalari jonli nutq tarkibida izohlansa, bolalar uni ongli o'zlashtiradi.

**Til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsiplari.** Til o'qitishning oldingi ruknida tavsiflangan prinsipga binoan, o'quvchi matabga kelguncha, tilning fonetik, leksik, grammatik tomonlarini amaliy yo'l bilan o'zlashtirib olgan, u til bilimlarini o'rganishga tayyor bo'ladi. Matab ta'limida ham tilning bu uch tomoni til o'rgatish uchun asos hisoblanadi. Tilning fonetika, leksika, grammatikasiga bog'lab, bolalarda orfoepik, grafik, orfografik, uslubiy, prosodik, punktuatsion malakalar hosil qilinadi.

Tilning fonetikasini o'zlashtirish o'quvchilarining tafakkurini o'stirish bilan uzviy bog'langan holda olib boriladi. Nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. Nutq tovushini so'z tarkibida o'rgatish bolalarning fonematik eshitishni (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri eshitish, aytish, ajratish, anglash — fonematik eshitish komponentlaridir) taraqqiy ettiradi. Fonetika mashg'ulotlarida nutq tovushlariga ko'ra so'z ma'nolari ustida ishslash (qoch, soch;

bordi, burdi, berdi), so‘zlarni tovush va bo‘g‘inlariga ko‘ra tahlil qilish, berilgan harf, bo‘g‘inlar yordamida so‘z, so‘zlar ishtirokida gap tuzish bolalarning analitik-sintetik faoliyatini taraqqiy ettiradi.

Nutq tovushlari jihatidan so‘z ma’nolarini chog‘ishtirish orqali bolalar juda ko‘p imlosi qiyin so‘zlarning yozilishini o‘zlashtirib oladi. Misollar, xush (yaxshi) — hush (aql-hush), xol (yuzdag‘i xol) — hol (ahvol), xurma (idish) — hurma (itning hurishi), shox (daraxtning shoxi) — shoh (podshoh), xatlab (xatga olingan) — hatlab (sakrab), xam (bukilgan) — ham (bog‘lovchi) va shu kabilar. Ko‘rinadiki, tilning fonetikasi o‘rgatilganda nutq tovushlarini to‘g‘ri talaffuz etishga o‘rgatish, o‘quvchilarining fonematik eshitishlarini taraqqiy ettirish, bolalarda orfografik malakalarini shakllantirish fonetikani o‘zlashtirishning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi.

Maktab o‘quvchilari so‘z turkumlarini ajratishda ancha qynalishadi. Ba’zi o‘quvchilar barmoq va bormoq, sarg‘ish va ishslash so‘zları tarkibidagi «-moq, -ish, -sh» qo‘srimchaligiga qarab, ularni bir xil so‘z turkumi deb tasavvur etishadi. Aksariyat o‘quvchilar kelishik bilan egalik, turlanish bilan tuslanish, so‘z turkumi bilan gap bo‘lagi kabi grammatik kategoriyalarni aralashtirib yuboradi. Bu turli morfologik, sintaktik hodisalarining o‘ziga xos xususiyatlari yeterli ahamiyat bermaslik, qisqasi, til hodisalarini ajratishni bolalarga o‘rgatmaslik oqibatidandir. Bu prinsipni amalga oshirish yo‘llarini leksika materiallari asosida batafsilroq ko‘rib chiqaylik.

So‘z fikrni reallashtirish vositasi bo‘lmish gapning qurilish materialidir. Moddiy dunyo, ijtimoiy ishlab chiqarish, tevarak-attrofimizdagi narsalar hamda ular o‘rtasidagi turli bog‘lanishlar to‘g‘risidagi fikrlarimiz gap orqali yuzaga chiqadi. Nutq tuzish va fikrni o‘zgalarga yetkazish uchun qurilish materiali bo‘lish so‘zning asosiy xususiyatidir.

So'z ikki yoki undan ortiq fonemaning birikuvidan tuziladi. Fonema (nutq tovushi) jonli nutqda turli so'z va morfemalarni farq qilish hamda ajratishning eng kichik birligidir. So'z tarkibidagi bironta fonema o'zgarishi bilan shu so'zning ma'nosini o'zgaradi yoki shu so'z ma'no bildirmaydigan tovushlar kompleksidan iborat bo'lib qoladi. So'zni tashkil etgan har bir fonema shu so'zning «atom»lari bo'lib, ularning birontasini tushirib qoldirish yoki o'rinalarini almashtirish fikriy noaniqlikka olib keladi. Ma'lum izchillikdagi nutq tovushlaridan tarkib topish so'zning navbatdagi xususiyatidir.

So'zning yana bir belgisi qandaydir ma'no bildirishdir. So'z juz'iy emas, balki umumlashgan ma'no bildiradi. Masalan, paxta deganda, umuman paxtani, ekiladigan urug' — chigitni, ko'karib turgan g'o'zani — o'simlikni, chigitni ajratilmagan xomashyoni, tolani — chigitdan ajratilgan momiqni tushuniladi. Leksika materiallarini o'rgatishda, o'qituvchi quyidagi yo'naliishlarga qat'iy rioya qilib, darslarni tashkil etadi.

**1. So'z va uning ma'nolari ustida ishslash.** So'zlovchi obyekt, obyektning harakati, belgisi, miqdori, belgi yoki harakatning belgisi to'g'risidagi o'z fikrlarini tilning leksik qatlamida mavjud bo'lgan so'zlar yordamida ifodalaydi. So'zlash jarayonida bironta so'z unutilsa, darhol uning ma'nodoshini-sinonimini eslashga harakat qilinadi. Unutilgan shakl o'rniga esga tushirilgan shaklni ishlatishga to'g'ri keladi. Tilning lug'at tarkibida sinonim, antonim, o'zakdosh so'zlarining mavjudligi so'zlashni, shuningdek, til o'rgatishni yengillashtiradigan asosiy omillardandir.

O'quvchi so'z va uning ma'nolarini puxta o'zlashtirib olsa, u o'zi so'zlayotgan soha haqida (maktab hayoti, badiiy adabiyot, jismoniy tarbiya va sport) to'g'ri, aniq mulohaza qiladi. Negaki, so'z tayyor fikrni ifodalash vositasigina emas, balki u fikrning tug'diruvchisi hamdir. Qumloq joydan tunel o'tkazilganda, uning har bir qarichi g'ishtlar bilan

mustahkamlanib borilganidek, fikrlashning har bir qadami so‘zlar bilan mustahkamlanadi.

Maktabda so‘zning umumiy ma’nosini uning matndagi konkret ma’nosiga chog‘ishtirib o‘rgatiladi. Masalan, «yaratmoq» fe’lini turli gaplar tarkibida olib ko‘raylik. Quruvchilar yangi shahar yaratdi-bunyod etmoq ma’nosida. Rassom ishchi portretini yaratdi-chizmoq ma’nosida. Abdulla Qodiriy Kumush obrazini yaratdi-yozmoq ma’nosida. Bu gaplarda kesim vazifasida kelgan «yaratmoq» fe’li quyidagi ma’nolarni ifodalamoqda: jismoniy mehnat qilib, qurilish materiallaridan yangi shahar barpo etmoq; turli bo‘yoqlar yordamida tasviriy san’at asarini chizmoq; so‘z va badiiy vositalar yordamida ayol, xotin-qizlar obraziga sayqal bermoq.

Yuqoridagi gaplarda kesimni ifodalagan «nom» bir xil bo‘lsa-da, ma’nolari turlichadir. So‘z matnda aniq ma’no bildirsa, matndan ajratilganda, umumiy ma’no bildiradi.

«Yaratmoq» fe’li zaminida yotgan umumiy ma’no fe’ldan anglashgan harakatni umumiy ifodalashdir. So‘z ma’nolarini gap-nutq tarkibida o‘rganish orqali bolalar uni nutqda to‘g‘ri qo‘llash yo’llarini ham o‘zlashtirib oladi.

**2. Uslubiy malakalar hosil qilish.** Uslubiyotda leksika bo‘limi asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. Maktabda leksik materiallarni o‘rgatish o‘quvchilarda adabiy nutq me’yorlarini shakllantirishga xizmat qiladi. So‘z va so‘z birikmasini to‘g‘ri qo‘llash, gapni to‘g‘ri qurishga o‘rgatish leksikologiya materiallarini o‘rganish jarayonida ham davom ettiriladi. Masalan, «zax» so‘zini yerga nisbatan (zax uy, zax yer) ishlatish mumkin, ammo bu so‘zni kiyim-boshlarga nisbatan ishlatish mumkin emas, aksincha, ho‘l so‘zini kiyim-boshlarga nisbatan «ho‘l ko‘ylak, ho‘l ro‘mol» tarzida ishlatish mumkin. Ammo bu so‘zni yerga nisbatan ishlatish uslubiy jihatdan noto‘g‘ri bo‘ladi. Leksika materiallari so‘zlarning uslubiy bo‘yog‘ini (yuz, bet, aft, bashara)

o‘quvchilarga o‘rgatish uchun katta imkoniyatlarga ega. Tilda antonim, sinonimlarning mavjudligi, so‘zlarning ko‘p ma’noliligi o‘quvchilarda uslubiy malakalar hosil qilish uchun juda ham qo‘l keladi. So‘zlarning ma’nolarini tushuntirish paytida ularning uslubiy imkoniyatlarini izohlab ketish nihoyatda zarur. Chunki har bir kishi o‘rta matabni tamomlab chiqqach, undan til bilan maxsus shug‘ullanish talab qilinmaydi. Ammo har bir kishidan o‘z fikrini og‘zaki va yozma shaklda to‘g‘ri, uslub jihatidan mukammal bayon qilish talab etiladi.

**3. Leksika bilan morfologiyaning aloqadorligini ochish.** So‘zning leksik tomonini hisobga olmasdan, grammatic qurilishini, leksik va grammatic ma’noning o‘zaro aloqadorligiga rioya qilmasdan, grammaticani o‘rganib bo‘lmaydi. So‘zning nimanidir bildirishi, sifat, miqdor, harakat va holatni atashi uning leksik mohiyatidir. Masalan, «**ter-im -chi-larimiz**» so‘zini tarkibiga ko‘ra tahlil qilsak, uch xil leksik ma’no borligi ko‘zga tashlanadi: **ter** — harakatga undash, **terim** — ish nomi, **terimchi** — ter o‘zagidan anglanadigan harakatni bajaruvchi shaxs. So‘zning leksik ma’nosini ifodalovchi qismlari (ter, terim, terimchi) turli tushunchalarni ifodalaydi. Binobarin, ular ongda nutqgacha tayyor holda mavjud. So‘zning grammatic ma’nosini bildiradigan qismi fikrlashuv jarayonida ishga tushadi. **Yuqorida**gi so‘zning (terimchilarimiz) ikkinchi qismi (larimiz) ot so‘z turkumiga oid istalgan so‘zga qo‘shila-veradi: o‘rtoqlarimiz, o‘quvchilarimiz, kitoblarimiz, sevgilarimiz. So‘zning grammatic ma’nosini bildiradigan qismlari «universal» xarakterga ega. Ular vositasida fikrdagi turli bog‘lanishlar (zamon, makon, sabab, oqibat) yuzaga chiqadi. So‘zning grammatic ma’no tashuvchi qismlari leksik qism ustiga qo‘shiladi. Leksik va grammatic ma’noning o‘zaro uzviy aloqadorligini ochish matab ta’limi uchun nihoyatda zarur. Leksik va grammatic ma’noning o‘zaro aloqadorligini anglash orqali bolalar

morfologiyani o'rganishga tayyorlanadi. Shunday qilib, so'z va uning ma'nolari ustida ishlash o'quvchilarda uslubiy malakalar hosil qilish, leksika bilan morfologiyaning o'zaro aloqadorligini anglash, maktab ona tili predmetining bu bo'limini o'tishda rioya qilinadigan yo'nalishlar hisoblanadi. Demak, til hodisalarini ajratishga o'rgatish prinsipi har bir mavzu, har bir bo'limni o'tish paytida amalga oshiriladi. Bunda har bir o'quv materialining o'z xususiyatlari hisobga olinadi.

**Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish prinsipi.** Og'zaki va yozma nutqni o'zaro chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarning imlo savodxonligini oshiradi, ular orfoepik va orfografik qoidalarning farqlarini ongli ajratadigan bo'ladi. Til o'qitishda o'quvchilarning qanday eshitishlari, gapirishlariga, ya'ni ularning og'zaki nutqni qanday egallaganliklariga e'tibor berilmaydi. Aslida, yozma nutqni ongli o'zlashtirishning dastlabki sharti og'zaki nutqni puxta egallahdir.

Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish o'quvchilarda nutq madaniyatini shakllantiradi. Madaniy nutq milliy tilning o'ziga xosligi, ma'no tomonidan aniqligi, tarkibidagi so'zlarning maqsadga muvofiqligi, badiiy ifodaliligi bilan ajralib turadi. Madaniy nutqning og'zaki shakli adabiy tilning orfoepik me'yorlariga, yozma shakli orfografiya va punktuatsiya me'yorlariga mos bo'lishi lozim.

Nutq madaniyati adabiy til me'yorlari ustida o'quvchilarning aqliy va amaliy faoliyatini tashkil etish natijasida shakllanadi. Hamma tomonidan e'tirof etilgan, shu tilda so'zlovchilarning barchasi rioya qilishi lozim bo'lgan qonun-qoidalar adabiy til me'yorlari hisoblanadi. Adabiy til me'yorlari ma'lum tilda obyektiv mavjud bo'lgan so'z, so'zning qurilishi, so'z yasash va so'z o'zgartirish modellari, so'z birikmasi hamda gapni nutqda to'g'ri qo'llash qoidalaridir.

Ta'limda og'zaki va yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ularni o'zaro chog'ishtirib o'rgatish nihoyatda zarur. Yozma nutqni og'zaki nutqqa chog'ishtirib o'rgatish prinsipi ushbu yo'llar bilan amalga oshiriladi: **harfni tovush bilan chog'ishtirish; orfogram-malarни ularning talaffuzi bilan chog'ishtirish; punktua-tsiyani ohang bilan chog'ishtirish; og'zaki mashqdan yozma mashqqa qarab borish.**

**O'quvchilar nutqining ifodaliligi va emotSIONalligini oshirib borish prinsipi.** Fonetika, leksika, grammatika materiallarini o'rGANISH jarayonida o'quvchilar tilning ifodaliligi va ta'sirchanligini ta'minlaydigan vositalarini ham o'zlashtirib oladi. So'z urg'usi, mantiqiy urg'u, turli uzunlikdagi pauza, tovushning pasayishi va ko'tarilishi, ya'ni un kuyi (ton melodikasi), ovoz tembri, nutq tempi, so'zlarni ko'chma ma'noda qo'llash, matn tarkibidagi ko'chma ma'noli so'zlarni tushunish, obrazli iboralarni nutqda qo'llash, tovush, bo'g'in, so'z va gaplarni burro-burro aytish, ya'ni diksiya, gapni mazmuniga qarab darak, so'roq, buyruq, undosh ohangi bilan o'qiy olish va boshqalar ifodali va ta'sirchan nutq elementlari hisoblanadi. Ifodali va emotSIONAL nutq elementlari ustida uzlucksiz mashq o'tkazish orqali bu prinsip amalga oshiriladi. Buni «urg'u» misolida ko'ramiz.

O'zbek tilining urg'usi havo oqimining kuchi bilan ifodalanadigan dinamik urg'udir. Tilimizda urg'u ko'pincha so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. So'zlarga qo'shimcha qo'shilgan sari urg'u keyingi bo'g'inga siljiydi.

O'quvchilar urg'u tushunchasi bilan boshlang'ich sinflardayoq tanishadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini urg'uning ta'rifi, urg'u so'zning oxirgi bo'g'iniga tushishini o'zlashtirib oladi. Keyinchalik yuqori sinflarda urg'u yanada chuqrurroq o'rGANILADI. Yuqori sinf o'quvchilarini urg'uli va urg'usiz bo'g'in, so'zlarga qo'shimcha qo'shilishi bilan urg'uning ko'cha borishi, birinchi va ikkinchi bo'g'iniga

urg‘u tushadigan so‘zlar (kimdir, hamma, albatta), shuningdek, turli bo‘g‘inlariga urg‘u tushadigan ruschabaynalminal so‘zlar hamda urg‘usiz bo‘g‘inlarning talaffuzi va imlosi (direktor, traktor) ga doir mashqlarni bajarishadi. Maktablarda aksariyat til o‘qituvchilari dasturlarda ko‘rsatilgan vaqtdan tashqari urg‘u ustida mashq o‘tkazishmaydi. Ammo ona tili mashg‘ulotlarida urg‘uni chuqurroq o‘rgatish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

1. Leksika materiallarini o‘tganda urg‘uning ma’no ajratish vazifasi ustida ishslash: olma (fe'l) — olma (meva), mexanik (ot) — mexanik (sifat), akademik(ot) — akademik (sifat).

2. So‘z tarkibi o‘tilganda, urg‘u olmaydigan qo‘sishimchalar ustida ishslash: -cha — bolacha; -dek — bayramda gidek, har kungidek; -ta — ikkita.

3. Ot so‘z turkumi o‘tilganda, urg‘u tushmaydigan bo‘g‘inlarni tushuntirish; -vo — Salimov; -ka — studentka.

4. Olmosh so‘z turkumi o‘tilganda, birinchi bo‘g‘inga urg‘u tushadigan olmoshlar ustida ishslash: kimdir, hamma, bari, barcha, har bir, allakim, hech kim.

5. Fe'l mavzusi o‘tilganda, kesimlik qo‘sishchasi -dir va shaxs-son qo‘sishimchalarining urg‘u olmasligini tushuntirish.

6. Ravish so‘z turkumi o‘tilganda, birinchi bo‘g‘iniga urg‘u tushadigan so‘zlar ustida ishslash: aslo, hozir, doim, hamisha.

7. Yuklamalar o‘tilganda -mi, -chi, -yu, -ku, -da, -gina qo‘sishimchalari va bilan ko‘makchisining qisqargan shakli «-la» kabilarga urg‘u tushmasligini izohlash.

8. Sintaksis materiallari o‘tilganda, mantiqiy (logik) urg‘u ustida ishslash.

O‘quvchilar nutqining ifodaliligi va emotSIONalligini oshira borish prinsipi quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi: til darslari bilan adabiyot darslari o‘rtasida aloqadorlik o‘rnatish; badiiy adabiyotdan olingan parchalarning o‘qilishini tahlil qilish: darslarda magnitofon

va boshqa texnik vositalardan foydalanib, so‘z ustalarining nutqlarini tinglash; she’r va boshqa badiiy parchalarni yodlatish, yodlangan parchalarni o‘qituvchiga taqlid qilib ayttirish.

**Nutq organlari va qo‘l muskullarini yetarli mashq ettirish prinsipi.** Ona tili darslarida o‘quvchilar turli-tuman intellektual topshiriqlarni bajarishadi. Topshiriqlar o‘rganilayotgan o‘quv materiali mazmuniga ko‘ra belgilanadi. Odam fiziologiyasiga binoan, turli qo‘zg‘atgichlar bosh miya faoliyatini — qo‘zg‘aluvchanlikni oshiradi, miyada turli bog‘lanishlarning hosil bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Ta’lim paytida o‘quvchilarning ko‘rvu, eshituv, muskul harakati uquvlarining ishtiroki topshiriqlarning ham turlicha bo‘lishini taqozo etadi. Ko‘rvu uquviga asoslangan ishlar u yoki bu morfologik shaklni, sintaktik qurilma (konstruksiya)ni, har xil orfogramma va punktogrammani kuzatishga undasa, eshituv uquvi ularni ongli, to‘g‘ri eshitishni talab etadi, muskul harakati uquvlari esa u yoki bu grammatik hodisaga oid ishlarni yozma bajarish jarayonida ishtirok etadi. Shunday qilib, turli orfografik, punktuatsion qoidalarni, grammatik ta’riflarni o‘zlash-tirish bolalardan aqliy ishlar bilan birga nutq organlarining (o‘pka, bo‘g‘iz, til, yuz mushaklari, qo‘l harakatlari, lablar) talaffuz paytidagi, shuningdek, qo‘l muskullarining yozuv paytidagi ishtiroki kabi jismoniy harakatni ham taqozo etadi. Ta’lim jarayonida o‘quvchilarning barcha sezgi a‘zolarini ishga solishning foydasi haqida gapirib, K.D.Ushinskiy yozgan edi: «... bolaning esida biror narsaning mahkam o‘rnashib qolishini xohlovchi pedagog bola sezgi organlarining mumkin qadar ko‘prog‘ini — ko‘zi, qulog‘i, tovush organi, muskul sezgisi va hatto, agar iloji bo‘lsa, hidlash va ta’m bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak. O‘rgimchak juda ham nozik ipni bir oyog‘i bilan emas,

balki ko‘p oyog‘i bilan ushlab olib, uning ustida hayron qolarli darajada epchillik bilan to‘g‘ri yuradi: bir oyog‘i tiyg‘anib ketsa, ipni ikkinchi oyog‘i bilan ushlab qoladi.... So‘zlarni ko‘zimiz bilan ko‘rib, tovush organlarimiz orqali baland ovoz chiqarib o‘qisak, bu so‘zlarni ... boshqalarning qanday talaffuz qilishiga qulqoq solsak va shu bilan birga, ularni doskaga yoki daftarga yozsak, biz ularni tezroq va puxtarloq bilib olamiz».

Bu prinsip quyidagi yo‘llar bilan amalga oshiriladi:

1) o‘rganilayotgan fonema, morfema, so‘z va turli sintaktik konstruksiyalarning og‘zaki talaffuzini o‘zlash-tirish uchun yetarli mashq o‘tkazish;

2) orfogramma va punktogrammalarni tez-tez yozdirib turish;

3) so‘z, so‘z birikmalari ishtirokida gap, bog‘li nutq tuzdirish.

**Til ta’limida tarixiylik.** Maktab ta’limi hozirgi ona tili zaminida (sinxroniya) qurilgan. Hozirgi ona tilida amal qilinayotgan qonuniyatlar qisqa bir davrning mahsuli emas, aksincha, ular tilning uzoq tarixiy taraqqiyoti natijasidir. Tilning hozirgi taraqqiyotini to‘g‘ri tushunish uning tarixini (dioxroniya) o‘rganishni taqozo etadi. Adabiyot o‘qitishda tarixiylik prinsipiiga atroflicha amal qilinadi desak, mubolag‘a bo‘lmas. Ammo ona tilini o‘qitishda tarixiylik prinsipini amalga oshirish borasida ko‘zga ko‘rinarli ish qilinganicha yo‘q. Hozirgi paytda maktablarda bu prinsipni amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud: ona tili tarixiga oid qimmatli asarlar nashr etilgan; universitetlarni bitirib chiqayotgan o‘qituvchilar ona tili tarixidan atroflicha bilim olishadi. Lekin til tarixidan o‘rganilgan bilimlar o‘qituvchilarning «o‘zlarida» qolib ketmoqda.

Ona tili ta’limida tarixiylik prinsipi, asosan, uch xil yo‘l bilan amalga oshiriladi: fakultativ kurslar orqali; sinfdan tashqari ishlar paytida; dastur materiallarini o‘rganish jarayonida.

Dastur materiallarini o'rganish jarayonida til tarixiga oid dalillardan foydalanish tarixiylik prinsipini amalgalashirishning asosiy yo'lidir. Ona tili predmetining fonetika bo'limi o'tilayotganda, *oyoq so'zining adog'*, *ezgulik so'zining edgulik*, *tutqun so'zining tutg'un* shaklida aytildiganini tushuntirish o'quvchilarning ona tiliga qiziqishlarini oshiradi. «Y» harfli so'zlar imlosi o'rgani- layotganda, *ip so'zi yip*, *iliq so'zi yilig'*, *jiyda so'zi yigda*, *ilon so'zi yilon* deb yozilganligini, shuningdek, hozirgi ona tilidagi *yiroq*, *yirik*, *yigirmoq* so'zлari tarixan *iroq*, *irik*, *igirmoq* shaklida qo'llanganligini hamda tovush almashish hodisasiga ko'ra, *yog'mir*, *kunjut* so'zлari hozirgi paytda *yomg'ir*, *kunjit* shakliga ega bo'lganligini izohlash, bu so'zlarning ma'nosini tahlil qilish o'quvchilarga tilning tarixiy taraqqiyotini ongli tushunish imkoniyatini yaratadi. Ma'lumki, ona tili dasturlarida leksikologiyaga anchagina o'rinn berilgan. Leksikologiya materiallari tarixiylik prinsipini amalgalashirish uchun boy imkoniyatlariga ega. Masalan, «So'zning ma'nosi», «Bir ma'noli va ko'p ma'noli so'zlar» mavzulari o'tilganda quyidagi materiallardan foydalanish mumkin: echki eski ona tilida kiyikka, otning bir turiga nisbatan qo'llangan; tuz ovqatga solinadigan tuz, chang-to'zon (ot), tuzmoq (fe'l) ma'nolarida; oyoq so'zi o'mida put, but so'zлari ham ishlatalgan; qosh — bu so'z uch ma'noda; odamning qoshi, uzukning qoshi, yaqin ma'nolarida; baliq so'zi qo'rg'on, shahar ma'nolarida qo'llangan. Ona tili leksikasining boyishiga arab, fors, rus tillarining ta'siri haqida gapira turib, Markaziy Osiyo xalqlari tilidan rus tiliga kirgan so'zлarni aytib o'tish ancha foydali bo'ladi (ayva, tovar, karandash, utyug, kirpich, baran, kibit (kibitka).

«So'z tarkibi» boshlang'ich va yuqori sinflarda o'rganiladi. O'quvchilar o'zak, qo'shimcha va uning turlari to'g'risida ancha keng ma'lumot olishadi. Bu mavzuni o'tishda, tojik tilidan kirgan qo'shimchalar asli ancha

qo'shimchalarga chog'ishtiriladi: bahavo-havoli, bexatoxatosiz. Metodist olim Y.Abdullayevning uqtirishicha, mактабда таркibi тahlil qilinadigan so'zlarga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Qadimgi ona tilida ma'noli qismlarga bo'lingan, hozirgi ona tilida bir o'zak tarzida qo'llanilayotgan so'zlarning (kunduz-kun-duz, ovoza -ovoz-a, ko'kat — ko'k-at, tashqari-tash-qari, kechqurun-kech-qurun) tarkibi tahlil qilinmaydi.

2. Aslida ikki va undan ortiq so'zdan tuzilib, ona tilida bir so'z tarzida ishlataladigan so'zlar (sepoya-se-poya, korjoma- kor-joma, sarpo-sar-po, samovar — sam-o-var, pulemyot-pul -e-met) sodda so'zlar deb o'rgatiladi.

3. Boshqa tillardan o'tgan so'zlarning o'zagi o'zbek tilida mustaqil qo'llansa, bunday so'zlar tarkibiga ko'ra tahlil qilinadi (fotomuxbir, fotograf; telestudiya, kinostudiya, fotostudiya).

Ona tili predmetining fonetika, leksika, so'z tarkibi, so'z yasash, so'z turkumlari, sintaksis bo'limlari o'tilganda, tarixiylik prinsipini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Ammo tarixiylik prinsipiiga rioya qilinar ekan, o'qituvchi maktabning ona tili predmeti hozirgi o'zbek tili zaminida qurilganligini aslo unutmasligi lozim.

Yuqorida ona tili o'qitishning o'ziga xos prinsiplari to'g'risida fikr yuritildi. Bu prinsiplar ona tili darslariga qo'yiladigan pedagogik talablar sifatida talqin etildi. Bu prinsiplarni atroflicha o'rganish, ularni ona tilini o'qitish jarayoniga olib kirish xususiy didaktika fanining vazifalaridan biri hisoblanadi.

## IV BOB

### MAKTABDA LINGVISTIK BILIM VA TUSHUNCHALARNI O'ZLASHTIRISH

**Maktabda lingvistik tushunchalarni o'rganish nuqtai nazarlari.** Tilshunoslik fanida ishlataladigan barcha lingvistik kategoriyalar mavhum tushunchalardir. Tilshunoslikdagi «fonetika», «urg'u», «ot», «sifat», «gap», «qo'shma gap» kabi istilohlar ostida to'plangan bilimlar abstrakt tafakkur mahsuli sanaladi. Kishilar til dalillarini o'rganish, ularni abstraksiyalash, shu dalillarga xos juz'iy va umumiy xususiyatlarni ajratish natijasida, «ot», «gap» kabi terminlarni shartli ravishda qabul qilishgan.

Tilning fonetikasi uning birdan-bir konkret tomonidir. Masalan, «a» tovushi faqat va faqat «a» tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo'g'in, urg'u kabi lingvistik kategoriyalar abstrakt tafakkur mahsuli bo'lsa-da, nutq tovushi (a), so'zning bir qismi (al-la), so'z bo'g'inlaridan bittasining kuchli aytishi (urg'u) ongimizga bog'liq bo'limgan holda mavjuddir.

Maktabda fonetikani o'qitish o'quvchilarning tafakkurini o'stirish bilan bevosita bog'langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so'z tarkibida o'rgatiladi. Nutq tovushini so'z tarkibida o'rgatish natijasida bolalar nutq tovushlarini farqlaydigan bo'ladilar. Ma'lum nutq tovushiga ko'ra so'z ma'nolarining o'zgarishi ustida mashq qilinadi: o'n-in-un-il-ich-ez-iz. So'zlarni tovush va bo'g'inlarga ko'ra tahsil qilish, bo'g'inlardan so'zlar tuzish bolalarda analitik-sintetik faoliyatni tarbiyalaydi.

Nutq tovushlari, ularning farqlari ustida mashq qilish natijasida bolalarda, birinchidan, lingvistik tushuncha shakllansa, ikkinchi tomondan, fonematik eshitish (nutq tovushini so'z tarkibida to'g'ri anglash, fahmlash,

eshitish) taraqqiy etadi. Lingvistik tushunchalarni egallash, fonematik eshitishni o'stirish bolalarda til sezgirlingini tarbiyalaydi. Shunday qilib, fonetikaga oid nazariy bilimlarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik kabi qator nutq malakalari hosil bo'ladi.

Maktabda leksika materiallari ikki bosqichda o'tiladi: **birinchi bosqich** — boshlang'ich sinflarda so'zning ma'nosi, ko'p ma'noli so'zlar, yaqin va qarama-qarshi ma'noli so'zlar; **ikkinchi bosqich** — yuqori sinflarda so'z va termin, tilning lug'at boyligi, lug'atning boyish manbalari, shuningdek, sinonim, antonim, omonim kabi mavzularni o'rganishadi.

Leksikani o'rganish dasturlarda ko'rsatilgan materiallarni o'zlashtirish bilan chegaralanmaydi. Ta'lim jarayonida fan o'qituvchilari o'z predmetlariga oid terminlarini tushuntirib borishadi. Nutq o'stirish nuqtai nazaridan tilning leksik tomonini o'rganish birinchi sinfdan maktabni tugatgunga qadar davom etadi. Leksika materiallariga bog'langan holda o'quvchilarda har bir so'zni nutqda to'g'ri qo'llash malakalari hosil qilinadi. Nutq maqsadiga muvofiq so'z tanlash, berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzish yo'li bilan bolalarda uslubiy malakalar shakllanadi.

Maktabda grammatikani o'rganish birinchi sinfdanoq boshlanadi. So'z tarkibi mavzusini o'tish natijasida o'quvchilar so'zning qurilishi, so'z yasash qonuniyatlarini o'zlashtirishadi. Har bir so'z turkumiga oid so'zning ma'nosi ustida ishlash, so'zlarning talaffuzi va imlosini o'rganish orqali o'quvchilar shu so'zlarni aytish va yozishni, grammatik kategoriyalarni (kelishik, egalik, ko'plik, shaxs-son, tuslanish) o'rganish orqali gapda so'zlarning o'zgarishi hamda bog'lanishini bilib olishadi. Shunday qilib, morfologiya materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda

orfoepik, orfografik, uslubiy malakalar va bog'li nutq tuzish iqtidori shakllantiriladi.

O'quvchilar sintaktik hodisalar bilan boshlang'ich sinfdayoq tanishishadi. Yuqori sinflarda esa sintaksisga oid bilimlar tizimli tarzda o'rganiladi. Sodda va qo'shma gap sintaksisini o'rganish natijasida bolalar gapni to'g'ri tuzish, to'g'ri o'qish, gapda tinish belgilarni ishlatish qoidalarini o'zlashtirishadi. Demak, sintaksidan o'rganiladigan bilimlarga bog'lab o'quvchilarda uslubiy, punktuatsion, intonatsion malakalar hosil qilinadi. Yuqoridagilardan ko'rindiki, matabda lingvistik tushuncha fonetika, leksika, grammatika nuqtai nazaridan o'rganiladi. Grammatik tushunchalarni o'zlashtirish jarayonida bolalarda nutq ko'nikmalarini hosil qilinadi. Grammatik bilim va unga oid tushunchalar mohiyatini puxta anglagan o'qituvchi ta'lim jarayoni samaradorligini oshira oladi. Ona tili didaktikasining asosiy vazifalaridan biri lingvistik tushunchalarni o'zlashtirish jarayonini atroflicha tahlil qilishdan iborat.

Matabda ona tili predmetini o'qitish jarayonida lingvistik bilimlar, tushunchalar o'zlashtiriladi. Bular o'quvchilarda nutqdan amaliyotda foydalana olish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Xo'p, shunday ekan, lingvistik bilim va lingvistik tushuncha bir narsami? Ular o'zaro qanday farq qiladi? Lingvistik tushunchalarni shakllantirishda lingvistik bilimlar ishtiroki nimadan iborat?

## 1-fasl. Lingvistik bilim va lingvistik tushuncha

**Lingvistik bilim va tushunchalarni o'zlashtirishning o'ziga xos xususiyatlari.** Ona tili predmetini o'rganish natijasida o'quvchilar lingvistik hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtirib olishadi. O'rganilgan bilimlar, kategoriyalar fikrlash jarayonlarini faollashtiradi. Fikrlash jarayoni qancha faollashtirilsa, o'quvchi fikrdagi bog'lanishlar — sabab, oqibat, maqsad, shart, istak kabilarni ongli

his etadi. Fikrlash jarayonidagi bog‘lanishlarni anglash o‘quvchiga nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash, tanlangan so‘zlar ishtirokida fikr maqsadiga mos keladigan turli qurilma (konstruksiya)larni tuzish uchun asos bo‘ladi. Shunday qilib, til ta’limida ikkinchisi birinchisining hosilasi, birinchisi ikkinchisining asosi sifatida ishtirok etadigan ikki narsa: lingvistik bilim va lingvistik tushuncha doimo amal qiladi.

Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish natijasida o‘quvchilarda lingvistik tushuncha hosil bo‘ladi. Hosil qilingan lingvistik tushuncha bundan keyin o‘rganiladigan bilimlarni o‘zlashtirish uchun, o‘zlashtirilgan lingvistik bilim yangi tushunchalar hosil qilish uchun baza bo‘ladi. Lingvistik tushuncha — harakatdagi bilim, o‘zlashtirilgan bilim - lingvistik tushuncha.

Barcha o‘quv predmetlariga doir nazariy bilimlar asosida tushuncha hosil qilish ma’lum mushtarak qonunlar asosida boshqariladi. Ammo lingvistik tushunchalarni o‘zlashtirish tushunchaning boshqa turlarini o‘zlashtirishga nisbatan murakkab jarayon sanaladi. Masalan, tabiatda suvning aylanib yurishi bilan shu hodisani ifodalaydigan «Suv tabiatda aylanib yuradi» gapini o‘zaro taqqoslaylik. Suv tabiatda uch holatda uchraydi: suyuq, bug‘langan, muz. Uning bu holatlarini sun’iy yo‘l bilan yaratishimiz ham mumkin. Suvning bu holatlarini sezgi a’zolari yordamida his qilinadi. Sezish yuqoridagi holatni-hodisani bilishning dastlabki bosqichi, ya’ni hissiy bilishdir. Sezgi, idrok, tasavvurlarimizga ko‘ra, suvning yuqoridagi holatlari ongimizda aks etadi. Ongda aks etgan tasavvurlarga ko‘ra, «Suv tabiatda aylanib yuradi» degan hukmga kelinadi. Bu bilishning ikkinchi bosqichi, ya’ni ratsional bilishdir. Ana shularga ko‘ra suvning fizik xossasi — tabiatda aylanib yurish to‘g‘risida tushuncha hosil bo‘ladi. Tabiiy fan nuqtai nazaridan «Suv tabiatda aylanib yuradi» degan hukm

bilimdir. Chunki unda tabiatda amal qiladigan real qonuniyat aks etgan.

Lingvistik tushunchalarini o'zlashtirish jarayonida til hodisalarining umumiy, farqli tomonlari his etiladi, tasavvur qilinadi. Bu hodisalar farqli va umumiy tomonlariga tayanib mavhumlashtiriladi, umumlashtiriladi. Lingvistik bilimlarni o'rganish paytida hissiy (aytish, eshitish, yozish orqali til hodisalarini sezamiz) va mantiqiy bilish bosqichlari bosib o'tiladi. Lingvistik nuqtai nazardan «Suv tabiatda aylanib yuradi» degan yozuv bilim emas, balki gapdir; aksincha, «Gap tugallangan fikrni bildiradi» degan hukm lingvistik bilimdir. Chunki bu hukmda gapning asosiy belgilaridan biri ifodalangan. Bu yerda nima uchun bir xil narsaga ikki xil yorliq yopishtirildi, degan savol tug'ilishi tabiiy. Yuqoridaq abzatsda qo'shtirnoq ichida berilgan ikkala yozuv: «Suv tabiatda aylanib yuradi», «Gap tugallangan fikrni bildiradi» — shakl va mazmun jihatidan o'xshash gaplardir. Ikkala gapda ham xabar mazmuni ifodalangan, bu gaplarning tarkibida to'rttadan so'z bor. Birinchi gapda uchta gap bo'lagi, ikkinchi gapda to'rtta gap bo'lagi mavjud. Sanalganlar shu gaplarning ikkalasi uchun umumiy tomonlardir. Ammo bu gaplarning o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Birinchi hukm tabiatdagi real hodisa to'g'risida aytilgan bo'lib, u faqat shu hodisaga muvofiq bo'ladi. Ikkinci gap tilning o'ziga xos xususiyatlardan biri haqida aytilgan bo'lib, uni ham o'ziga, ham birinchi gapga nisbatan qo'llash mumkin. Chunki unda ifodalangan mazmun uning o'ziga va ikkinchi gapga o'xshagan sanoqsiz gaplarga daxldordir. Aytilganlar asosida grammatik bilimlarning ikkita belgisi ajratiladi:  
a) **lingvistik bilim gap shaklida ifodalangan bo'lib, uni o'ziga, shu tipdag'i til dalillarining barchasiga tatbiq etiladi;**  
b) **grammatik bilim ma'lum til hodisasiga oid dalillarning umumiy tomonini ifodalaydi.**

Yuqoridagi gaplarning birinchisi bo'yicha fikrlashni davom ettiramiz. Bu gapda tabiatdagi bir qonuniyatning amal qilishi aks etgan. Fikr — suv xususida. Fikrning yuzaga chiqishi uchun so'zlar grammatik qonuniyatlar (suv aylanib yuradi — moslashuv, tabiatda aylanib yuradi — boshqaruv) asosida aloqaga kirishgan. Bu gapni grammatika nuqtai nazaridan tekshirganda, obyektiv reallikdan uzoqlashamiz. Demak, lingvistik bilimning yana bir belgisi real narsalardan, hodisalardan uzoqlashib, ularning tildagi ifodasi (so'z, gap) to'g'risida ma'lumot berishidadir.

Lingvistik bilim obyektiv reallik to'g'risida emas, balki ongimizda aks etgan reallikning yuzaga chiqish usullari, fikrning o'zgalarga tushunarli bo'lishini ta'minlaydigan vositalar xususida bahs etadi. So'z, gap inson ongida in'ikos etgan narsa-hodisalar hamda ular o'rtasidagi turli bog'lanishlarning tildagi ifodasi, abstraksiyalash va umumlashtirishning mahsuli sanaladi. Agar tildagi so'z va gaplar hissiy tasavvur etilgan narsa-hodisalarning abstraksiyasi, umumlashmasi bo'lsa, tilning grammatik kategoriyalari (so'z, so'z turkumi, kelishik, egalik; shaxs-son) hamda ularga muvofiq tushunchalar so'z va gapning umumlashgan ma'nolari ustiga quriladigan abstraksiyaning yana ham murakkab ko'rinishi, o'ziga xos ikkinchi qavatidir.

Real voqealar to'g'risida til yordamida gapirishga qaraganda, til haqida til vositasida gapirish qancha qiyin bo'lganidek, tushunchaning boshqa turlarini (tematik, biologik va shu kabilar) o'zlashtirishga nisbatan lingvistik tushunchani o'rganish shuncha qiyin bo'ladi. Lingvistik bilimlar darslikda umumlashgan ta'rif va qoida shaklida beriladi. Ta'rif va qoidalar til hodisalariga oid dalillarning umumlashgan nazariy xarakteristikasidir. Har bir ta'rif, qoida tarkibida bir yoki bir necha termin ishlataladi. Masalan, «Fe'lning shaxs-son qo'shimchalari bilan o'zgarishi tuslanish deb ataladi» degan ta'rifda fe'l, shaxs-

son, tuslanish terminlari ishlatilgan. Tilda mavjud bo‘lgan qonuniyatlarni lingvistik bilim sifatida shakllantirishda istilohlarning roli nihoyatda katta.

Lingvistik istiloh lingvistik tushuncha belgilarining tildagi atamasi bo‘lib, u grammatik tushuncha chegarasini ko‘rsatadi. Masalan, sifat, sifat darajalari kabi istilohlar tilimizdagi narsa belgisini bildirgan so‘zlarga nisbatan ishlatilgan. Shu terminlardan: sifat tilning lug‘at fondidagi rang-tusni (qora, oq), sifat-xususiyatini (yaxshi, aqli), shakl-hajm va fazoviy o‘rnini (katta, kichik, dumaloq; uzoq, olis, uzun, baland, past) va holat-xarakterni (qari, yosh, kamtar, sho‘x), vaqt va o‘ringa munosabatni (tonggi, kechki, devoriy) bildiradigan barcha so‘zlarni, ularning grammatik xususiyatlarini boshqa so‘zlardan ajratish uchun ishlatilgan bo‘lsa, oddiy nisbat, ortirma nisbat, chog‘ishtirma nisbat kabi istilohlar shu morfologik turkumga doir so‘zlarning belgi bildirish darajasini chegaralash uchun ishlatilgan.

Lingvistik istilohlar vositasida o‘quvchilar so‘z turkumlari, gap bo‘laklari, turli grammatik kategoriyalarni o‘zaro farq qilishni o‘rganadi. Ma’lum mavzu yuzasidan o‘rganilgan bilimlarni qayta bayon qilish jarayonida lingvistik istilohlar ishlatiladi. Chunki har bir istiloh ostida lingvistik tushunchaning o‘ziga xos xususiyatlari qayd etiladi. Lingvistik bilim, tushuncha va istilohlarni o‘zaro chog‘ishtirish uchun quyidagi jadvalni keltiramiz (Jadval 82-betda joylashgan).

## **2-fasl. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi obyektiv va subyektiv qiyinchiliklar**

So‘z, nutq umumlashtiradi. Grammatik qoidalar ham umumlashtiriladi. Narsaning rangi (oq), shakli (dumaloq), hajmi (katta), fazoviy o‘rni (olis) va boshqa xususiyatlarini belgi so‘zi bilan ifodalaymiz. Belgi tushunchasi zaminida «narsaning belgisini anglatgan so‘zlarga sifat deyiladi» degan qoidani chiqaramiz. Shu qoida sifat so‘z turkumiga

Lingvistik bilim	Lingvistik istiloh	Lingvistik tushuncha
1. Til hodisalarining yozma nutq vositasida shakllangan ifodasi.	1. Lingvistik bilim chegarasini ko'rsatish vositasi.	1. Til hodisalarining ongimizdagi in'ikosi.
2. Ongimizda aks etgan real narsa-hodisalarning o'zgalarga tushunarli bo'lishini ta'minlaydigan vositalar (so'z, gap) ustida abstraktsiyalash, umumlashtirishning hukm shaklidagi natijasi.	2. Tildagi umumiyo so'zlarining bir qismi.	2. Tushunchaning bir ko'rinishi bo'lib, fikrlash shakli hisoblanaadi.
3. Gap shaklida ifodalangan bo'lib, o'ziga muvofiq til dalillarining hammasiga tatbiq etiladi.	3. Lingvistik bilimlar tarkibida ishlatalidi, tilda zuhur etadi.	3. Lingvistik bilimlarining hosilasi sifatida inson ongida shakllanadi.
4. Til hodisalari barqoror belgilaring nutq vositasida ifodalangan analogiyasi (modeli).	4. O'zaro fikr almashuv vositasi bo'lib, til birligidir.	4. Til qonuniyatlariga oid dalillar ustida abstraktsiyalash, umumlashtirish mahsulli.
5. Tarkiban so'z, so'z birikmasi, istiloh, bog'lovchi vositalardan tuziladi.	5. Tarkiban so'z, so'z birikmasidan tuziladi.	5. Til hodisalari asosida belgilarning inson ongidagi majmui.
6. Ma'lum til hodisasiga oid dalillarning hammasi uchun umumiyo bo'lib, tushunchani shakllantiradi.	6. Lingvistik istiloh nutqni, binobarin, tafakkurni o'stiradi.	6. Lingvistik fikrlashni taraqqiy ettiradi.
7. Til hodisalarining nutq orqali konkretlashtirilgan modeli bo'lib, uni o'qiyamiz, yozamiz, eshitamiz.	7. Lingvistik tushunchaning atamasi bo'lib, uni aytamiz, eshitamiz, yoza-miz.	7. Lingvistik tushunchani anglaymiz.

mansub so‘zlarning barchasi uchun mushtarak hisoblanadi. Demak, grammatik qonun-qoidalar umumlashmaning umumlashmasidir. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi qiyinchiliklar, bir tomonidan, tilning o‘z tabiatidan, uni o‘rganishning murakkabligidan kelib chiqsa, ikkinchidan, grammatik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonini noto‘g‘ri tashkil etishdan, lingvistik tushunchalarni o‘zlashtirishning psixologik va didaktik xususiyatlarini hisobga olmaslikdan tug‘iladi.

**Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi obyektiv qiyinchiliklar.** Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi obyektiv qiyinchiliklar tilning o‘z tabiatiga bog‘liq. Til ikki yo‘l bilan o‘rganiladi: tevarak-atrofdagi kishilar bilan fikrlashish, ijtimoiy hayotda faol qatnashish yo‘li bilan o‘rganish; tilni lingvistik o‘rganish. Tilni lingvistik o‘rganish uni tushuncha va tushunchaga oid terminlar vositasida o‘zlashtirish demakdir. Til grammatik o‘rganish, — deb ta’kidlaydi S.F.Juykov, — amaliy o‘rganishga qaraganda o‘quvchidan yuqori darajada abstraksiyalash va umumlashtirishni talab etadi.

Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishdagi dastlabki qiyinchiliklar tilga mansub o‘quv materiallarining nihoyatda murakkabligi, o‘ta abstraktligidan kelib chiqadi. Lingvistik bilimlarni bir qadar konkretlashtirish uchun o‘rganilayotgan mavzuga doir til dalillari tanlanadi. Faktik materiallar lingvistik abstraksiyalash va konkretlashtirishni ta’minlaydi. Lingvistik tushuncha til dalillari ustida abstraksiyalash, konkretlashtirish va umumlashtirish natijasi sifatida shakllanadi. Tilimizdagи shakldosh grammatik shakllar (omoformalar)ning mavjudligi ham ta’lim jarayonida ancha qiyinchiliklar keltirib chiqaradi. Ona tili omoformalarga boydir. Omoformalar ikki turli bo‘ladi: **so‘z omoformalar** — **omonimlar, qo‘srimcha omomorfemalar**. Namuna uchun quyidagi omomorfemalarni keltiramiz. «-chi» affiksi: otlarga qo‘silib kasb (traktorchi), oqim-yo‘nalish (birinchi,

o'qituvchi) ma'nolarni bildiradigan turdosh otlar yasaydi; harakat nomlariga qo'shilib shaxs otlari yasaydi (o'quvchi, yozuvchi); fe'llarga qo'shilib ot yasaydi (tomchi, suyunchi).

— ma affiksi: fe'l negizlariga qo'shilib bo'lishsiz fe'l hosil qiladi (o'qimadi, kelmadi); fe'l negizlarga qo'shilib ot yasaydi (ko'rsatma, bosma, yozma). Otlardagi egalik (-im, -ing, -i, - m, -ng) va fe'llardagi shaxs-son (-m, -im) qo'shimchalari hamda ot yasovchi -m, -im, qo'shimchalari shaklan o'xhash bo'ladi. Qisqacha aytganda, o'zbek tilida omomorfermalar ancha ko'p. Bular ta'lim jarayonida lingvistik tushunchalarni ajratishni qiyinlashtiradi. Chunki bu qo'shimchalar shaklan o'xshasa-da, turlicha ma'nolarni anglatadi. Grammatika mashg'ulotlarida ularni o'zaro chog'ishtirish orqali bolalarning ularni differensiatsiya qila olishlariga erishish mumkin.

O'zbek tilida ko'p ma'noli qo'shimchalar mavjud. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasi -ga zamon (qishga qoldirildi), makon (uyga ketdi), atalganlik (ukamga oldim) ma'nolarini bildiradi; chiqish kelishigi qo'shimchasidan harakat boshlangan joyni (tog'dan), harakat boshlangan paytini (o'n yildan oldin), natijani (ko'p o'qigandan) ifodalash uchun ham ishlataladi; -lar affiksi ko'plikni (kitoblar), tanqid yoki masxaralashni (keldilarmi), hurmat (dadamlar), tur-nav (suvlar, yog'lar) ma'nolarni anglatadi. Bu xil qo'shimchalarning ma'nosini matn orqali bilgan ma'qul.

**Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi subyektiv qiyinchiliklar.** Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi subyektiv qiyinchiliklar o'qituvchilarining ish uslubiga, ularning nazariy va usuliy tayyorgarligiga bog'liq. Grammatik bilimlarni o'zlashtirishni mushkullashtiradigan subyektiv omillar nihoyatda ko'p. Bu yerda ularning ba'zilarini sanab o'tish bilan kifoyalanamiz.

1. O'rganilayotgan qoida, o'zlashtiriladigan tushunchaning mohiyatiga mos ish metodini, ta'lim vositasini

tanlay olmaslik, ko‘p hollarda bir xil ta’lim metodidan foydalanish lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishga salbiy ta’sir etadi. O‘qituvchi o‘qitish metodlaridan qay birini yaxshi bilsa, u ta’lim jarayonida shu metoddan ko‘p foydalanadi. Bu ta’limda bir xillikka olib keladi, bolalarni zeriktiradi.

2. O‘rganiladigan grammatik bilimlar mazmuniga mos faktik material tanlamaslik, grammatik qoidalarga oid dalillarni yetarli to‘plab, ularni atroflicha tahlil qilmaslik natijasida bolalar til hodisalarini yuzaki o‘rganishadi.

3. Grammatik bilimlarning asosiy belgilarini hisobga olmaslik, o‘quvchilar faoliyatida turlantirishga doir variativ topshiriqlardan foydalanmaslik ham ona tili ta’limiga salbiy ta’sir etadi. Metodik va nazariy adabiyotlarni puxta o‘zlashtirish orqali o‘qituvchi yuqoridaagi kamchiliklarni tugata boradi.

### **3-fasl. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishning psixologik va didaktik xususiyatlari**

O‘zlashtirish yangi o‘quv mavzularini birinchi marta o‘rganishdan boshlanadigan va uni o‘quvchining «o‘z» mulkiga aylantirish bilan yakunlanadigan aqliy jarayondir. O‘quv materialini o‘z mulkiga aylantirish uchun o‘quvchi unga turli vaqtda turlichcha munosabatda bo‘ladi: ba’zi mashg‘ulotlarda o‘quv materialini his etish, anglash, tushunish uchun unga murojaat etsa, ba’zi mashg‘ulotlarda o‘rganilgan bilimlarga doir faktik materiallarni to‘plash va tahlil etish uchun foydalilaniladi.

O‘quv materialini o‘rganish jarayonida turli aqliy «operatsiyalar»ni bajarish natijasida, bir tomonidan, o‘quvchining bilim doirasini taraqqiy etsa, ikkinchi tomonidan, bolaning analitik-sintetik faoliyati shakllana boradi. Shu tufayli, olimlar o‘quv materialining mazmuniga o‘quvchining faoliyatini taraqqiy ettirish mazmuni deb qarashadi.

Til qonun-qoidalari lingvistik tushunchalarni o‘zlashtirishda ularning umumlashtiruvchanlik xususiyati nazarda

tutiladi, bunda shakl asosiy o'lchov hisoblanadi. Grammatik shakllar tufayli grammatik tushunchalar his qilinadigan, seziladigan bo'ladi. Chunki grammatik shakllar yoziladi, eshitiladi, aytildi. Misol uchun jo'nalish kelishigining qo'shimchasini olaylik. Bu qo'shimchaning asosiy vazifalaridan biri gap tarkibidagi so'zlarning o'zaro munosabatini ifodalashdir. Tabiat, jamiyatdagi narsahodisalar o'rtasidagi makon (uyga kirdi), zamon (qishga qoldirildi), sabab-natija (o'qiganimga xursandman), atalganlik (ukamga oldim) kabi turli bog'lanishlarni ongda yuzaga chiqarishda bu kelishik qo'shimchasi vosita bo'ladi.

Ko'rinaridiki, grammatik shakllar o'zlar anglatgan ma'nolarga nisbatan oz bo'ladi. Ularning o'ziga xos ma'no xususiyatlari matn tarkibida aniqlanadi. Jo'nalish kelishigi turli ma'nolarni ifodalash uchun o'rin-joy ma'nosini bildiradigan so'z (uy) va fe'l turkumiga oid so'zning (kirmoq) o'zaro munosabatini ko'rsatish orqali makon, payt ma'nosini bildiradigan so'z (qish) va fe'l turkumiga oid so'zning (qoldirmoq) o'zaro munosabatini ko'rsatish orqali zamon ma'nosini bildirmoqda.

Bola mакtabga kelguncha kattalarning ostensiv tushuntirishi («uyga kiramiz» jumlasini aytganda, kiriladigan binoni ko'rsatish, «bu — qalam» gapini aytganda qalamni ko'rsatish ostensiv tushuntirishdir), tevarak-atrofdagi kishilarga taqlid etish yo'li bilan tilni o'zlashtiradi. Maktab ta'limining vazifasi mакtabgacha tildan o'zlashtirilgan «bilimlarni» bolalarning izchil anglashlarini ta'minlashdan iboratdir. Jo'nalish kelishigining yuqoridagi ma'nolari ta'lim jarayonida ochiladi. Bu ma'nolarni ochishda grammatik shakl «-ga» asosiy o'lchov vazifasini o'taydi. Chunki o'quvchi uni turli so'zlar tarkibida ko'radi, eshitadi, aytadi, yozadi va ma'nolarini tahlil qiladi. Shunday qilib, mакtabda til o'qitishning asosiy vazifalaridan biri grammatik shakllar bilan ular anglatgan ma'nolarning o'zaro munosabatini o'quvchilarga muttasil o'rgatishdir.

Ammo grammatik shakllarning hammasi ham grammatik tushuncha hosil qilish uchun o'Ichov vazifasini bajaravermaydi. Masalan, fe'lning o'zlik va majhul nisbatlari to'g'risida tushuncha hosil qilish jarayonini olib ko'raylik. Fe'lning bu ikkala nisbati -n, -in, va -il qo'shimchalari vositasida hosil bo'ladi. Matndan «ishqaldi, berildi» fe'llarini ajratib, ular o'zlik yoki majhul nisbatdagi fe'l deb aytish xatoga olib keladi. Chunki bu so'zlar matnda o'zlik nisbat vazifasida ham, majhul nisbat vazifasida ham kelaveradi. Masalan, Odil o'qishga berildi (o'zlik nisbat). A'lochi o'quvchi Odilga mukofot berildi (majhul nisbat). Fe'lning o'zlik va majhul nisbatlari to'g'risida tushuncha hosil qilish, shu so'zlar ifodalagan harakat, harakat obyekti, harakat subyekti o'rtaсидаги munosabatlarni anglash orqali hosil bo'ladi. Buning uchun yuqoridagiga o'xshagan so'zlar gap tarkibida tahlil qilinadi.

Grammatik shakllar va ularning ma'nolarini bolalarga tushuntirishning asosiy prinsipi o'rganilayotgan til hodisasini nutq tarkibida tahlil qilishdir. Maktab tajribasiga singib ketgan bir holat: otlarni egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlash, fe'llarni shaxs-son va zamon qo'shimchalari bilan tuslash uncha foyda keltirmaydi. Bunday mashqlarda shakl anglatgan ma'nolar atroflicha ochilmaydi. Til hodisalarini nutq tarkibida tahlil qilish yo'li bilan o'quvchilar shakl va mazmun o'rtaсидаги turli bog'lanishlarni ongli his qilishadi.

Lingvistik tushuncha shakl va mazmun o'rtaсидаги mavjud aloqadorlikni anglash orqali o'zlashtiradi.

Lingvistik bilimlarni o'quvchilarga o'rgatish, shu bilimlar asosida tushuncha hosil qilish nihoyatda murakkab ish sanaladi. Lingvistik tushunchalarni shakllantirishda ularning asosiy belgilariga tayaniladi. Masalan, fe'l tushunchasini olaylik: narsaning ish-harakati va holatini anglatish, o'timli va o'timsizlik, bo'lishli va bo'lishsizlik, zamon, nisbat, mayl, tuslanish kabi kategoriyalarning

mavjudligi fe'lni boshqa so'z turkumlaridan ajratadi. Binobarin, shular fe'lning o'ziga xos belgilari hisoblanadi. Masalan, harakat nomlari<sup>11</sup> fe'lning vazifadosh shakllaridan biri bo'lib, ular harakat va holatni sof ma'nosida ifodalaydi. Ular fe'l negiziga -sh, -ish, -uv, -moq qo'shimchalarini qo'shish vositasida yasaladi. Maktabda bu mavzuni o'tishdagi qiyinchiliklar sifat so'z turkumiga oid forma yasovchi -ish qo'shimchasi (ko'kish, sarg'ish, oqish), otlardagi abstrakt ma'noli ot yasovchi -lashtirish qo'shimchasining (avtomatlashtirish), fe'llardagi birgalik nisbat qo'shimchasi -sh (ishlash), harakat nomiga xos xususiyatlarini butunlay yo'qotib ot turkumiga o'tgan so'zlarning (tarmoq, qarmoq) mavjudligi bilan izohlanadi. Harakat nomlarining o'ziga xos xususiyatlarini atroflicha o'zlashtirib olmagan o'quvchi *sarg'ish*, *ko'kish* sifatlarini, *qarmoq*, *barmoq* otlarini ham harakat nomi deb tasnif etaveradi.

Maktabda bu mavzuning o'tilishi kuzatilganda, o'qituvchi shunday ish qildi: oldin ko'chma doskaga yozilgan gaplar tahlil qilindi, harakat nomlari ko'rsatildi (Maqsadimiz tinch yashash, o'qish, ishslash va qurish. Bolalar, Prezidentimizday yashamoqni, o'qimoqni, ishlamoqni o'rganing. Ishla ishlov vaqtি keldi, yotma g'ofil bandalar). Gaplar tahlil qilinayotganda harakat nomlarining zamon, shaxs-sonni ko'rsatmasligi, ularning yasalish yo'llari, yozilishi izohlandi, so'ngra harakat nomlarining ta'rifi aytildi. Harakat nomlarining ta'rifi izohlangach, ularning fe'lllik va otlik xususiyatlari o'rgatildi. Darsda yuqoridagi ishlar bajarilgach, darslikdagi mashqlarni ishslash, mustaqil misollar topish, harakat nomlari ishtirokida gaplar tuzish va ularning sintaktik vazifasini aniqlash kabi qator ishlar qilindi.

---

<sup>11</sup> Ba'zi tadqiqotlarda «harakat nomi» istilohi «otdosh» deb ham yuritiladi. Biz an'anaviy istilohni qo'llashni ma'qul topdik.

Mavzu o‘tilgandan keyin bir hafta o‘tgach, bolalarning bilimi shu mavzu doirasida tekshirildi. Bolalarning bilimini tekshirishga oid so‘zlar kartonga quyidagi tartibda yozib qo‘yilgan edi: kechuv, borimoq, barmoq, o‘qish, asov, tarmoq, kelmoq, to‘qmoq, beto‘xtov, o‘quv, qarmoq, qaramoq, birov, qochmoq, garov, o‘ynamoq. Vazifaga ko‘ra ot, sifat, olmosh, harakat nomiga doir so‘zlar alohida-alohida guruhlarga ajratib yozilishi zarur edi. Tekshiruvda ishtirot etgan o‘quvchilarining aksariyati vazifani bajara olmadi. O‘quvchilarining ko‘plari berilgan so‘zlarni harakat nomi deb tasnif etgan. Bu ta’lim sharoitida harakat nomlarining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olmaslik natijasi, degan xulosaga kelindi.

Harakat nomlari: a) fe'lga o‘xshab obyektni ifodalagan so‘zlarni boshqaradi. Kitob o‘qimoq foydalidir; b) fe’llardek daraja ko‘rsatish xususiyatiga ega-ishlamoq (aniq nisbat), ishlashmoq-(birgalik nisbat), ishlatmoq (orttirma nisbat) va shu kabilar; d) fe’llar kabi zamon, shaxs-sonni ko‘rsatmaydi; e) otlar kabi egalik, kelishik qo‘srimchalar bilan turlanadi; f) gap tarkibida ot bajargan vazifalarni bajara oladi; g) ikkinchi shaxs birlik shaklidagi fe'l harakat nomlarining o‘zagi sanaladi. Harakat nomlarining yuqoridagi belgilardan qay biri asosiy xususiyat sanaladi?

Harakat nomlarining yuqorida sanalgan oltita xususiyati ham asosiy belgi vazifasini bajara olmaydi. Dalillar kelti ramiz: birinchidan, o‘quvchilar sintaksisning to‘liq kursini hali o‘rganmagan, ular ergash bog‘lanish turlarini bilishmaydi. Demak, harakat nomlarining fe’llarga o‘xshab gapda obyektni ifodalagan so‘zni boshqarish xususiyati o‘z-o‘zidan tushib qoladi: ikkinchidan, zamon, shaxs-somma nosi matnda o‘ziga xos qo‘srimchalar orqali ko‘rsatiladi, harakat nomlarda esa bunday qo‘srimchalar mavjud emas; uchinchidan, gap tarkibida otlar (egov, to‘qmoq), sifatlar (asov ot, beo‘xshov gavda), harakat nomlari (ilmoq) hech qanday qo‘srimchasiz qatnashib, formal jihatdan o‘xshash bo‘ladi; to‘rtinchidan, harakat nomlari otlardek

kelishik, egalik qo'shimchalari bilan turlanadi, ular gapda ot bajargan vazifalarda kela oladi. Ko'rindiki, harakat nomlarining yuqorida ta'kidlangan belgilarining birontasi ham asosiy xususiyat bo'la olmaydi. Asosiy belgi — o'rganilayotgan mavzuning o'zigagina xos bo'lган belgidir.

Harakat nomlari bilan shaklan o'xshash so'zlarni ajrata olishni bolalarga o'rgatish, mavzu yuzasidan puxta bilim berish maqsadida ularning asosiy o'lchovi-indikatori sifatida so'roqlari tanlanadi. Darslarda harakat nomlarining so'roqlari to'g'risida hech nima deyilmagan. Qo'shimcha belgi sifatida harakat nomlarining daraja ko'rsatish xususiyati tanlanadi. Asosiy va qo'shimcha indikatorlar vositasida tajriba darsi o'tkaziladi. Quyida tajriba olib boruvchi bilan o'quvchilar o'rtasidagi suhbatning qisqacha tafsiloti keltirildi:

— Gaplarni o'qing, shakldosh so'zlarni toping, ularning qaysi so'z turkumiga oidligini izohlab bering. *Chaqmoq chaqnab, qattiq tovush eshitildi. Gaz chiqqan uyda gugurt chaqmoq xavflidir.*

— Birinchi gapda chaqmoq so'zi nima? so'rog'ini oladi-ot, ikkinchi gapda chaqmoq so'zi nima qilmoq? so'rog'ini oladi- harakat nomi.

*Daryolar irmoqlardan, irmoqlar tarmoqlardan paydo bo'ladi. Tarmoqlanmoq — mayda shaxobchalarga bo'linmoq.* Shu gaplarni yuqoridagiday tahlil qiling.

— Birinchi gapda irmoqlardan so'zi nimalardan? so'rog'ini oladi, irmoqlar va tarmoqlar so'zları ham nimalar? so'rog'ini oladi. Bu so'zlar -ot. Ikkinci gapda tarmoqlanmoq, bo'linmoq so'zları nima qilmoq? so'rog'ini oladi. Bular — harakat nomi.

— Harakat nomlarining nisbatini aniqlang: bo'linmoq, tarmoqlanmoq.

— Bo'linmoq — daryolarning o'zi bo'linadi, tarmoqlanmoq — daryolarning o'zi tarmoqlanadi. Bu so'zlar o'zlik nisbatidagi harakat nomlaridir.

— Ilmoq, qarmoq, barmoq so‘zlarining qaysi so‘z turkumiga mansubligini tushuntirib bering.

— Ilmoq — harakat nomi, nima qilmoq so‘rog‘ini oladi. Qarmoq — nima? ot. Barmoq — qo‘lning barmog‘i. Ot — nima so‘rog‘ini oladi.

— Ilmoq so‘zi narsaning nomini ham bildiradimi?

— Ilmoq, ilmog‘i, qarmoqning ilmog‘i. Nima so‘rog‘ini oladi. Bu so‘z nima so‘rog‘ini olganda narsaning nomini bildiradi.

Suhbatdan ko‘rinadiki, o‘quv materialining o‘ziga xos xususiyati asosiy o‘lchov sifatida qabul qilinsa, mashg‘ulot shu belgi atrofida o‘tkazilsa, bolalar mavzuni atroflicha o‘rganib oladi. Til o‘qituvchisi har bir mavzuning o‘ziga xos asosiy xususiyatlarini topishi, shu belgiga ko‘ra o‘rganilayotgan til hodisasiiga oid dalillarni boshqalaridan ajrata olishni o‘quvchilarga o‘rgatmog‘i zarur.

Lingvistik bilimlar tildagi ma’lum hodisaga oid dalillarning barchasi uchun mushtarak bo‘lib, ular abstraktsiyalash, konkretlashtirish va umumlashtirish natijasidir. Shunday bo‘lgach, u yoki bu grammatik hodisalarни o‘lashtirish ham abstraktsiyalash, aniqlashtirish va umumlashtirish natijasida shakllanadi.

Aqliy faoliyat usullari aniq material asosida yuz beradi. Ona tili mashg‘ulotlarida ana shunday aniq material funksiyasini o‘rganilayotgan mavzuga doir tanlangan so‘z, so‘zning tarkibiy elementlari (o‘zak, negiz, qo‘srimchalari), turli sintaktik qurilmalar bajaradi. Til mashg‘ulotlari uchun tanlangan dalillar o‘ziga xos qo‘zg‘atgich bo‘lib, bolalar shularga ko‘ra abstraktsiyalaydi, aniqlashtiradi, umumlashtiradi. Fiziologik nuqtai nazardan qo‘zg‘atgich aniq til materiallari bo‘lsa, qo‘zg‘atish vositali — o‘quv materialiga muvofiq tanlangan ta’lim metodidir.

Buni «Ega» mavzusi misolida ko‘raylik.

Ega tushunchasining asosiy uchta belgisi bor: **morfologik belgi** — bosh kelishikda turadi; **sintaktik belgi**

— ega, gap tarkibidagi barcha bo'laklarga nisbatan hokim sanaladi; **logik belgi** — hukm ega haqida aytildi. Ega va kesimning shaxs-sonda moslashuvi, eganing turli so'z turkumlari bilan ifodalanishi uning ikkinchi asosiy bo'lman belgisi hisoblanadi. Ega mavzusini o'rgatish jarayonida qilinadigan ishlarning barchasi shu belgilar atrofida tashkil etiladi.

Ega mavzusi bo'yicha tushuncha hosil qilishda uning ta'rifi — grammatik bilim asos bo'ladi. Eganing ta'rifini bolalarga yetkazish uchun taxminan quyidagicha gaplar o'quvchilar ishtirokida tahlil qilinadi.

1. Bunda bulbul kitob o'qiydi.  
Bunda qurtlar ipak to'qiydi.  
Toshkent — O'zbekistonning poytaxti.  
Salima she'rni yodladи.
2. Kechqurunlari jkkovimiz cho'lga qarab ketardik.  
To'rt — beshdan kichik.
3. Biz sharaflı kurash yo'lini bosib o'tdik.  
Siz sahrolarga jon kirdzingiz.
4. Birlashgan daryo bo'lar, tarqalgan irmoq bo'lar.
5. O'qimoq — o'rganmoq.

Tahlil uchun tanlangan yuqoridagi gaplar ega mavzusini o'rganish jarayonida qo'zg'atgich rolini bajaradi. Misollar tarkibidagi egalar topiladi, so'roqlari aniqlanadi, kelishiklari aytildi, egalarning qaysi so'z turkumidan ifodalanganligi uqtiriladi. Gaplarni tahlil qilish orqali, o'quvchilar egani ongli o'zlashtirishga tayyorlanadi, bolalarda ega to'g'risidagi bilimlarni egallash ishtiyoqi tug'iladi. Bular ta'lim jarayonida o'quvchilar faolligini oshiradi.

Shunday qilib, shakl bilan mazmun o'rtasidagi aloqadorlikni hisobga olish, turli formalarning ma'nosini matnda ochish, o'quv materiallarining asosiy belgilariga rioya qilish, lingvistik bilimlarga oid faktik materiallarni muttasil tahlil

qilish natijasida o'quvchilar o'zbek tiliga mansub bilimlarini va ularga oid tushunchalarni puxta o'zlashtirishadi.

#### **4-fasl. Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari**

**Lingvistik bilimlarni o'zlashtirishda abstraksiyalash va konkretlashtirish.** Lingvistik bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilarning aqliy faoliyati bir-birining zidi bo'lgan ikki yo'lidan boradi: a) **til dalillaridan lingvistik kategoriyaga**, b) **lingvistik kategoriyadan til dalillariga, dalillardan kategoriyaga qarab borish abstraksiyalashga** olib keladi. Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish jarayonida abstraksiyalash va konkretlashtirish o'zaro ziddiyatli tomonlar sifatida, sabab va natija kategoriyalari shaklida amal qiladi.

Nutq (masalan, o'rganilgan mavzuni aytib berish paytida) istilohlarni to'g'ri atash, ularni ajrata bilish, umumlashtirish bilan uzviy bog'langan. O'quvchi o'rganilgan bilimni aniq his qilsa, lingvistik tushunchalarni o'ziga muvofiq terminlar bilan atay olsa, u ma'lum mavzu yuzasidan chuqur bilim olgan hisoblanadi. Zotan, tegishli tushunchalarni anglash va ajrata bilish — bu tilning aniqligi va ifodaliligini puxta egallash demakdir.

**Lingvistik bilimlarni o'zlashtirish bosqichlari.** Umumlashtirish — abstraksiyalash va konkretlashtirishning natijasi, o'zlashtirishning oxirgi bosqichidir. Masalan, o'quvchi biror mavzu o'rganilgach, qoidani yoddan aytib bersa-da, dalil keltira olsa-da, ammo qoidani ongli aytib berishda qiynaladi, bolalar ba'zan istilohlarni almashtirishadi. Mavzu yuzasidan yetarli mashq o'tkazilgach, o'quvchi bilimidagi nuqsonlar yo'qoladi. Umumlashtirish ongda tushuncha, nutqda hukm sifatida shakllanadi.

Yuqoridaq abzatsdagi «umumlashtirish-o'zlashtirishning oxirgi bosqichi» degan jumla biroz aniqlikni talab etadi. Zero, o'quv materialini birinchi marta o'rganganda, umumlashtirish ishtirot etmaydimi, degan savol tug'iladi. Bu savolga ruhshunos olima N.A.Menchinskaya shunday

javob beradi: «Biz o‘z tadqiqotlarimizda «umumlashtirish» istilohi bilan ataladigan ikki xil hodisani qat’iy chegaralash fikriga keldik. To‘liq tahlilga asoslanmagan, ajratilmagan, o‘zaro tutash tushunchalarga nisbatan «umumlashtirish» istilohini emas, balki «geniralizatsiya»<sup>12</sup> istilohini ishlatgan ma’qul. Umumlashtirish istilohini to‘liq tahlil natijasi sifatida shakllangan tushunchalarga nisbatan ishlatiladi». Ko‘rinadiki, grammatik bilimlarni o‘zlashtirishning har bir bosqichida umumlashtirish ishtirot etadi. Ammo lingvistik bilimlarni o‘rganish boshlangan paytdagi umumlashtirish oxirgi umumlashtirishga nisbatan to‘liqsiz bo‘ladi.

Psixologik jihatdan bilimlarni o‘zlashtirishning dastlabki darajasini geniralizatsiya, yuqori darajasini umumlashtirish istilohi bilan atash shunday metodik xulosa chiqarishga imkoniyat beradi: lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayoni o‘zaro mantiqan bog‘langan bosqichlardan iborat; o‘quvchi ta’lim jarayonida ajratilmagan, tutash tushunchalardan ajratilgan, asosiy va ikkilamchi belgilar atroficha tahlil qilingan tushunchalarga qarab boradi.

Ta’lim jarayonida lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishda ushbu bosqichlarga rioya qilinadi: grammatik hodisaning umumiyligini xususiyatlari bilan tanishish; grammatik bilimning asosiy belgilarini o‘rganish; o‘rganilayotgan hodisaning nutqdagi rolini egallah; o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha umumiyligini xulosa chiqarish. Bu bosqichlarning qanday tashkil etilishini yuqori sinflarda «fe’l zamonlari» misoldida tahlil qilamiz.

O‘quvchilar fe’l zamonlari bo‘yicha boshlang‘ich bilim olishgan. Ular fe’llarda uchta zamon borligini (hozirgi zamon, o‘tgan zamon, kelasi zamon), fe’l zamonlarining so‘roqlarini (nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi?) o‘rganishgan. Mashg‘ulot o‘rganilgan bilimlar asosida tashkil etiladi.

---

<sup>12</sup> Geniralizatsiya — lotincha «generalis» (bosh, asosiy) so‘zidan olingan bo‘lib, dastlabki umumlashma ma’nosini anglatadi.

Fe'ldan anglashilgan harakat-holat ma'nolarining nutq momentiga munosabati zamon kategoriyasi orqali qayd etiladi. Binobarin, fe'ldan anglashilgan harakat-holat ma'nosining nutq momentiga munosabatini bilish fe'l zamonalari tushunchasining mazmunini egallash demakdir. Bunda quyidagi holatlar hisobga olinadi: **fe'l anglatgan harakat-holat ma'nosining nutq momentiga duch kelishi — hozirgi zamon; fe'ldan anglashilgan harakat-holat ma'nosining nutq momentidan oldin yuz bergenligi — o'tgan zamon; fe'ldan anglashilgan harakat-holat ma'nosining nutq momentidan keyin yuz berishi — kelasi zamon.** Shu uch xil ma'no «fe'l zamonalari» tushunchasining umumiy xususiyatlari hisoblanadi. Zamon kategoriyasi ega va kesimning munosabatini (moslashuv) yuzaga chiqarish vositalardan biri sanaladi. Shu sababli fe'l zamonalriga oid ma'nolar gap tarkibida ochilgani ma'qul.

Fe'l zamonalari tushunchasining umumiy xususiyatlarini o'quvchilarga yetkazish uchun oldin «zamon» istilohinining ma'nolari ochiladi: Bu istiloh vaqt, payt, davr, moment so'zlariga chog'ishtiriladi va grammatik istiloh sifatida «zamon» so'zi olinganligi aytiladi.

Mavzuni tushuntirish uchun oldin gaplar tahlil qilinadi: *Anvar xat yozdi*. Shu misol vositasida fe'llardan anglashilgan harakat ma'nosining nutq momentiga munosabati izohlanadi. So'ngra gaplar tarkibiga fe'l zamoni aniqlashtiradigan so'zlar kiritiladi: *Anvar kecha xat yozdi*. *Anvar hozir xat yozyapti*. *Anvar ertaga xat yozadi*. Birinchi gapda «*yozmoq*» harakatining nutq momentidan oldin — kecha yuz bergenligi, ikkinchi gapda «*yozmoq*» harakatining nutq momenti bilan duch kelganligi, uchinchi gapda yozish harakatining nutq momentidan keyin — ertaga ro'y berishi aytiladi. «*Yozmoq*» fe'lini gap tarkibida leksik-sematik tahlil qilish natijasida o'quvchilar fe'l zamonalari tushunchasining umumiy xususiyatlari bilan tanishishadi.

Zamon kategoriyasining umumiy xususiyatlari bo'yicha o'rganilgan bilimlarni aniqlashtirish uchun quyidagicha topshiriq tashkil etiladi:

**1-topshiriq.** Nutq momentidan oldin yuz beradigan harakatni ifodalaydigan fe'llarni birinchi qatorga, nutq momentiga duch keladigan harakatni anglatadigan fe'llarni ikkinchi qatorga, nutq momentidan keyin yuz beradigan harakatni anglatadigan fe'llarni uchinchi qatorga yozing.

1-qator	2-qator	3-qator
o'qidi	ishlayapti	ishlaydi
.....	.....	.....
.....	.....	.....

So'zlar: o'qidi, ishlayapti, ishlaydi, kulyapti, boshlaydi, kishnadi, o'tirdi, tutadi, qochadi, tishladi, o'ynayapti, uxlayapti, chopti, qichqirdi, kelyapti.

O'quvchilar berilgan so'zlarni leksik-semantik tomondan tahlil qilib, ularni guruhlarga ajratib yozishadi. Bajarilgan ish asosida fe'llarda uch xil zamon mavjud ekanligi tushuntiriladi. Zamon kategoriyasiga oid bilimlar o'rganilgach, uning asosiy belgilarini tahlil qilishga o'tiladi. Fe'l zamonlarining quyidagi belgilari izohlanadi. Har bir zamon o'ziga xos so'roqqa ega: nima qildi? nima qilgan edi? — o'tgan zamon; nima qilyapti? nima qilayotir? — hozirgi zamon; nima qiladi? nima qilmoqchi? — kelasi zamon. Har bir zamon o'ziga xos morfologik ko'rsatkichga ega: o'tgan zamon — o'qidi, o'qigan edi(-di, -gan edi); hozirgi zamon — o'qiyapti, o'qiyotir (-yapti, -yotir); kelasi zamon — o'qiydi, o'qimoqchi ( -ydi, -moqchi).

Maktab o'quvchilari ko'pincha grammatik shakllarga tayanib, fe'l zamonlarini chalkashtiradi. Masalan, Men ertaga Toshkentga ketayotirman. Bu gapda hozirgi zamon shaklidagi «ketayotirman» fe'li kelasi zamon ma'nosini anglatmoqda. Bunday holatlarda o'quvchilar

diqqati gap tarkibidagi ayrim so‘zlarga (yuqoridagi gapda ertaga so‘ziga) tortiladi. Ayrim fe’llar matnda chegarasiz ma’noni anglatadi. Masalan, *Ko’z ko’radi, qulog eshitadi. Oy yoritadi, Quyosh isitadi. Yer o’z o’qi atrofida aylanadi.* Bu gaplarda ko’radi, eshitadi, yoritadi, aylanadi fe’llari har uchala zamonga taalluqlidir. Bunday holatlarda fe’l zamonlarining ma’nosini tabiiy holatga asoslanib tushuntirgan ma’qul (Oyning abadiy yog‘du sochishi, Quyoshning abadiy isitishi, Yerning doimo o’z o’qi atrofida aylanishi).

Yuqoridagi ishlar natijasida o‘quvchilar fe’l zamonlarining asosiy belgilarini, ma’nosini, so‘roqlarini, qo‘sishimchalarini bilib olishadi. Endi mavzu yuzasidan leksik-grammatik topshiriqlar beriladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar o‘rganilayotgan lingvistik tushunchaning asosiy belgilariga tayanib faoliyat ko‘rsatishadi. O‘quvchilarning aqliy faoliyati grammatik kategoriyadan so‘zga qarab boradi.

**2-topshiriq.** O‘qimoq, ishlarmoq fe’llaridan oldin hozirgi zamon, keyin o’tgan zamon, oxirida kelasi zamon fe’llarini hosil qiling.

**3-topshiriq.** Hozirgi zamon fe’li o‘qiyapti so‘zini oldin o’tgan zamonga, keyin kelasi zamonga aylantirib yozing.

«Fe’l zamonlari» tushunchasining asosiy belgilari o‘rganilib, ular ustida mustahkamlashga oid topshiriqlar bajarilgach, ularning nutqdagi ahamiyatini tushunishga o’tiladi. Buning uchun oldin darslikdagi mashqlar, so‘ngra leksik-semantik, leksik-grammatik xarakterdagi quyidagi topshiriqlar bajariladi.

**4-topshiriq.** Nutq momentiga duch kelgan, nutq momentidan oldin bo‘lgan, nutq momentidan keyin bo‘ladigan harakat-holatni ifodalaydigan fe’llarga oltitadan so‘z o‘ylab yozing. Bu so‘zlarning zamonini ko‘rsating.

<b>Fe'l zamonining ma'nosi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Fe'l zamoni</b>
Nutq momentiga duch kelgan harakat		
Nutq momentidan oldin yuz bergen harakat		
Nutq momentidan keyin yuz beradigan harakat		

**5-topshiriq.** Gaplarni o'qib, fe'llarni o'zi bog'langan so'zlar bilan ajratib yozing. Fe'llarning tagini chizib, zamonini ustiga qisqartirib yozing.

1. Bahor keldi, anhorlar to'lib suvlar oqa boshladi. Bog'larda mevali daraxtlar gulladi. 2. Ra'no 5-sinfda o'qiyapti. U bu yil barcha fanlardan «5» baho olyapti. 3. Ma'mura yozgi ta'tilda qishloqqa bormoqchi. Saida esa shahar bolalar oromgohida dam olmoqchi.

To'rtinchı va beshinchi topshiriqlarda ikki xil ish ko'zda tutilgan: birinchi ish leksik-semantik tipdagi vazifa bo'lib, uni bajarishda o'quvchilar faoliyatini fe'lga oid so'zning leksik-semantik ma'nosidan grammatik kategoriylaga-fe'l zamonlariga qarab boradi. Bolalar faoliyat jarayonida nutq momentiga duch kelgan, nutq momentidan oldin bo'lgan, nutq momentidan keyin bo'ladigan harakatni ifodalaydigan fe'llar izlashadi. Navbatdagi ish leksik-grammatik tipdagi vazifa bo'lib, uni bajarishda o'quvchilar faoliyatini grammatik kategoriyalardan fe'l turkumiga oid so'zlarga qarab boradi. Topshiriq «hozirgi zamon», «o'tgan zamon» terminlariga rivoja qilingan holda bajariladi. So'zdan grammatik kategoriyalarga, grammatik kategoriyalardan so'zga qarab borish quyidagi xulosalarni chiqarish imkoniyatini beradi:

- nutq momentidan oldin bo'lgan harakatni anglatadigan fe'llarga o'tgan zamon fe'li deyiladi;
- nutq momentiga duch kelgan harakatni anglatadigan fe'llarga hozirgi zamon fe'li deyiladi;

---

— nutq momentidan keyin bo‘ladigan harakatni ifodalaydigan fe’llarga kelasi zamon fe’li deyiladi.

Shunday qilib, grammatik bilimlarni bosqichlar bo‘yicha o‘rgatish o‘qituvchini har bir bosqich mazmuniga mos keladigan topshiriq tanlashga yetaklaydi. O‘quvchilar o‘quv materialining qurilishi va mazmunini o‘zlashtiradi. Lingvistik bilim to‘liq tahlil natijasi sifatida shakllanadi.

## V BOB

### ONA TILIDAN TA'LIM METODLARI

Ta'larning samaradorligi ma'lumot mazmuniga didaktik ishlov berish, ta'lim prinsiplariga rioya qilishga bog'liq bo'lganidek, ta'lim metodlarini to'g'ri tanlashga ham daxldordir. Xo'p, shunday ekan, ta'lim metodlarini qanday tushunmoq kerak? Ta'lim metodlarini mutaxassislar turlicha talqin etishadi: ba'zi didaktlar ta'lim metodlarini o'quvchilarning bilmaslikdan bilishga borish yo'li, ayrim olimlar esa ularni o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini o'zaro bog'lovchi usullar deb qarashadi. Ta'lim metodlarini o'quv ishlari majmui, shuningdek, ta'lim mazmuni shaklida qarash g'oyasi ham bor. Bu qarashlarning qay biri asosida ta'lim metodlari mohiyati, o'quv-tarbiya jarayonidagi vazifalarini batafsilroq tasavvur etish mumkin?

Hali ham fanda eng munozarali muammolardan biri ta'lim metodlari tasnifi masalasıdır. Ularni ta'lim manbalari, didaktik vazifalar, mantiqiyl fikrlash shakllariga qarab tasnif etish moyilligi mavjud. Ta'lim metodlarini tasnif etishda shu yo'nalishlardan qay biri ma'qul? Yoki ta'lim metodlarini tasnif etishning boshqa mezonlari ham mavjudmi? Adabiyotlarda «o'qitish usullari», «o'qish usullari» kabi terminlar qo'llanadi. Shunday bo'lgach, «ta'lim metodlari» iborasini ishlatishga ehtiyoj bormi? Bu bobda o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri nuqtai nazaridan ta'lim metodlari tasnif etiladi, o'zaro ta'sir jihatdan ta'lim metodlari mohiyati, qurilishi va ulardan foydalanish texnologiyasi tavsiylanadi.

## **1-fasl. Ta’lim metodlari va ularning tarkibi**

**Ta’lim metodlari haqida tushuncha.** Metod (grekcha-metodos so‘zidan olingan bo‘lib, aynan, u yoki bu narsaga, haqiqatga yo‘l demakdir) maqsadga erishish usuli, tartibga solingen faoliyat ma’nolarini anglatadi.

Ta’lim metodlari o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi bo‘lib, ularsiz ta’lim maqsadi, vazifalarini amalga oshirish, o‘quv materiallari mazmunini o‘zlashtirish mumkin emas. Ularga ko‘ra ma’lumot mazmunini o‘zlashtirishga mos faoliyat turlari tanlanadi, ta’lim jarayonida bolalarning o‘quv-biluv faoliyatining amal qilishi tasavvur etiladi, ta’lim subyektlari — o‘qitish va o‘qish faoliyatları o‘zaro muvofiqlashadi.

Ta’lim metodlari ham o‘quv materiali mazmuniga, bino barin, bolalarning ma’lumoti, tarbiyasiga, shuningdek, o‘qitish, o‘qish faoliyatlarining bir-biriga kirishuvi va shu asosda o‘zaro ta’sirning yuzaga chiqishiga yo‘nalgan. Masalan, yangi mavzuni o‘rgatish uchun suhbat metodi tanlanadi, deylik. Unda mashg‘ulotning borishi quyidagi ko‘rinish kasb etadi.

### **O‘qituvchi faoliyati**

dalillarni kuzatishni  
taklif etish;

dalillarni tahlil etishga  
undash; etish;

kuzatilgan va tahlil  
etilgan dalillarga oid  
savollar berish;

qo‘yilgan savollar, qayta-  
rilgan javoblar asosida  
xulosa chiqarishga undash;

### **O‘quvchi(lar) faoliyati**

→ dalillarni kuzatish;  
←

→ dalillarni tahlil  
←

→ savollarga javob  
← izlash va javob  
qaytarish;

→ xulosalar  
← chiqarish;

xulosalarni amaliy	mashq, o'quv topshiriqlari,
faoliyatda sinab	→ misol, hayotiy
ko'rishni taklif etish	← muammolarni hal etishda chiqarilgan xulosadan foydalanish

Ko'rinaridiki, ta'lim metodining amal qilishida, birinchidan, o'quv materialining bo'lishi, ikkinchidan, o'zaro ta'sirning shakllanishi, albatta, shart. O'zaro ta'sir ta'lim mazmuniga ko'ra yuzaga chiqadi. Ta'lim mazmuni o'zaro ta'sir natijasida bir (o'rganilmagan) holatdan ikkinchi (o'rganilgan) holatga o'tadi. Bu jarayon bir-biriga daxldor uch narsadan iborat: maqsadga muvofiq faoliyat yoki mehnatning o'zi — bu o'zaro ta'sir; o'zaro ta'sir predmeti — ta'limga olib kirilgan o'quv materiali; mehnat vositasi — (yuqoridagi misolda) o'qituvchining suhbat metodidan foydalanishga oid bilimi, malakasi, pedagogik mahorati, shuningdek, bolalarning kuzatish, tahlil etish, savolga javob qaytarish, xulosa chiqarish, bilimlarni tatbiq etish sohasidagi aqliy faoliyat usullari.

Ta'lim metodlari vositasida o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'zaro muvofiqlashadi: o'qituvchi dalillarni kuzatishni taklif etsa, bolalar kuzatishadi; tahlil qilishni so'rasha, o'quvchilar tahlil qilishadi; savol bersa, javob qaytarishadi va sh.k. O'qitish va o'qish faoliyatining bir-biriga kirishuvi yo'li bilan bolalar o'quv materiallarini o'zlashtirishadi, bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq qilishadi. Ta'lim metodi — o'qituvchi va o'quvchilarining ma'lumot mazmuniga yo'nalgan faoliyatini tartibga solish yo'lidir.

**Ta'lim metodlari tarkibi.** Ta'lim metodlari tarkiban o'qitish usullari va o'qish usullaridan iborat. O'qituvchi bilimlarni og'zaki bayon etsa, bolalar uni tinglaydi; o'qituvchi mustaqil ish topshirsa, o'quvchilar bajarishadi. Bilimlarni og'zaki bayon etish, mustaqil ishlash kabilalar o'qitish usullari bo'lib, ular vositasida didaktik vazifalar

(o'rgatish, mustahkamlash, takrorlash va sh.k.) hal etiladi. Binobarin, o'qituvchi ijtimoiy tajribani yoshlarga o'rgatish ehtiyojidan kelib chiqib, o'z faoliyatini bolalar faoliyatiga muvofiqlashtiradi. O'qituvchi tushuntirishlarini tinglash, topshiriqlarni bajarish kabilar o'qish usullari bo'lib, ular vositasida nazariy bilimlarni o'rganish, bilimlarni tatbiq etish kabi intellektual, amaliy topshiriqlar yechiladi. Bulardan ko'rinaridiki, o'qitish va o'qish usullari o'zaro muvofiqlashib, ta'lif metodlarining shakllanishiga olib keladi.

O'quv-tarbiya jarayonida ta'lif metodlarining samaradorligini oshirish maqsadida o'qitish va o'qish usullari kompleksidan foydalaniladi. Masalan, ma'ruza metodi tarkiban o'qituvchining o'rganilayotgan mavzuni mantiqiy izchillikda og'zaki bayon qilishi, o'quvchilarining esa o'quv materiallarini izchil tinglashi kabi usullardan iborat. Ma'ruza metodidan shu yo'sinda foydalanish o'qituvchining ham, o'quvchilarining ham faolligi talablariga, binobarin, ta'lifning samaradorligini oshirish ehtiyojlariga mos kelmaydi. Zero, ma'ruzaning yuqoridaagi ko'rinishi faqat o'quvchilar xotirasiga yo'nalgan. Mashg'ulot o'quvchilar xotirasiga ularning tafakkuriga mo'ljallab tashkil etilsa, uning samaradorligi yanada oshadi. Tajribali o'qituvchilar ma'ruza metodining samaradorligini oshirish maqsadida uning turli variantlaridan foydalanishadi.

**1-variant.** Ma'ruzadan oldin o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish. Muammoning bajarilishini muhokama qilish va shu asosda o'quv materiallarini mantiqiy izchillikda bayon etish. Ma'ruzadan oldin qo'yilgan muammo bolalarda bilishga ehtiyojni uyg'otadi. Shu tufayli o'quvchi ta'lif jarayonining faol subyektiga aylanadi. 1-variantda ma'ruza quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

**O‘qitish usullari**

mavzuga oid muammoni tanlash va qo‘yish;	→ muammoni qabul ← qilish va tahlil qilish;
muammoning bajarilishini tahlil qilish;	→ muammoni bajarishga → oid tahlilda faol qatnashish;
muammoning bajarilishi asosida o‘quv materialini izchil bayon etish;	→ o‘qituvchi tushuntirishlarini tinglash; ← rishlarini tinglash;
mavzu bo‘yicha umumiy xulosa chiqarish;	→ chiqarilgan xulosalarni tinglash; ← larni tinglash;
xulosalarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etishga oid ko‘rsatmalar.	→ bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish.

**2-variant.** Ma’ruzadan oldin o‘quvchilar egallagan bilimlarni odatdagи muloqot yo‘li bilan tahlil etish. Bu variantda ma’ruza bolalar faoliyatidan o‘tgan dalillarni, bilimlarni tahlil qilish asosida tashkil etiladi.

**3-variant.** Oldin o‘rganilgan bilimlar bilan yangi o‘quv materiali o‘zaro daxldor bo‘lsa, bilimlarni esga tushirish maqsadida suhbat o‘tkaziladi. Suhbat yo‘li bilan o‘rganilgan va endi o‘rganiladigan bilimlar o‘rtasida tabiiy bog‘lanish hosil qilinadi. Ma’ruza shu bog‘lanishning davomi sifatida o‘tkaziladi.

**4-variant.** Ko‘rgazma qurollarda berilgan dalillarni tahlil qilish asosida ma’ruza tashkil etilganda, quyidagicha ko‘rinishni oladi.

**O‘qituvchi faoliyati**

ko‘rgazma qurolni tahlil ettirish;

**O‘quvchi faoliyati**

→ ko‘rgazma qurolni tahlil  
← etish;

bolalar oldiga muammolar qo'yish;	→ qo'yilgan muammo to'g'risida ← o'ylash;
qo'yilgan muammo asosida bilimlarni izchil bayon etish;	→ o'qituvchi tushuntirishlarini ← tinglash;
xulosalar chiqarish; bilimlarni o'quv sharoitiga tatbiq qilishni tashkil etish.	→ ← xulosalarni esda olib qolish; → bilimlarni o'quv va hayotiy ← sharoitlarga tatbiq qilish.

Yuqoridagilardan ko'rindan, ta'limda hech bir metod so'f holda qo'llanmaydi. Har bir ta'lim metodi tarkiban o'qitish, o'qish metodlaridan iborat. O'qitish va o'qish metodlarining bir-biriga mosligi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvini ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, didaktik ta'sirning — o'qitish va o'qish faoliyatları o'zaro ta'sirining samarali amal qilishiga olib keladi.

## **2-fasl. Ta'lim metodlari tasnifi**

**Ta'lim metodlari tasnifiga oid asosiy qarashlar.** Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishga oid turli-tuman qarashlar mavjud. Ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim mutaxassislar o'qituvchi faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa, o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy. Zero, ta'lim metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlan-tirish bilan ham daxldor kategoriyadir.

S.I.Perovskiy, E.Y.Golant o'qitish metodlarini tasnif etishda ta'lim manbalarini hisobga olishgan. Ular o'qituvchi nutqi, ko'rgazma quroq, darslik hamda qo'shimcha adabiyotlarni ta'lim manbai sifatida qarab, ta'lim metodlarini uch guruhga ajratishgan: bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar.

Didaktikada ta'lim jarayonining turli zvenolarida bajariladigan ishlar mazmunidan kelib chiqib, ta'lim metodlarini tasnif etish g'oyasi ham mavjud. M.A.Danilov, B.P.Yesipov o'zlarining qator asarlarida ta'lim metodlarini quyidagi guruhlarga ajratishgan: bilimlarni o'rganishga oid metodlar; malaka va ko'nikmalarni shakllantirish metodlari; bilim va malakalarni tatbiq etish metodlari; ijodiy ishlash metodlari; bilim va malakalarni mustahkamlash, tekshirish metodlari.

M.N.Skatkin, I.Y.Lerner ta'lim metodlarini tasnif etishda o'quvchilar faoliyatni xususiyatlarini e'tiborga olishgan va ularni quyidagi guruhlarga ajratishgan: izohli ko'rgazmali metodlar; qayta eslashga oid standart metodlar; muammoli bayon metodi; evristik metod; ilmiy izlanish metodlari.

M.I.Maxmutov ta'lim metodlarini tasnif etishda o'qitish usullari bilan o'qish usullarini o'zaro qo'shishni taklif etadi. Uning uqtirishicha, bu usullar o'zaro qo'shilib, quyidagi ta'lim metodlarini hosil qiladi: xabar-umumlashtirish tipidagi metodlar; izohli va eslashga oid metodlar; ko'rsatmali (instruktiv)-amaliy metodlar; izohli rag'batlantiruvchi (faoliyatga undovchi) metodlar; qisman izlanishga oid metodlar; izlanish metodlari.

Ukrain olimlari V.F.Palamarchuk, V.I.Palamarchuk ta'lim metodlarini tasnif etishda uch narsani — ta'lim manbalari, bolalarning faollik va mustaqillik darajasi, o'quv bilishning borishidagi mantiqiy yo'lini hisobga olish zarurligini uqtirishadi. Shuningdek, S.G.Shapovalenko ta'lim

---

metodlarini tasnif etishda ularning mantiqiy-mazmuniy, jarayoniy, tashkiliy-boshqaruvchanlik xususiyatlarini hisobga olishni taklif etadi.

Didaktikada ta'lim metodlarini tasnif etishda ta'lim manbalari va mantiqiylikni (N.M.Verzilin), ta'lim manbalari va o'quvchilarning mustaqillik darajasini (A.N.Aleksyuk, I.D.Zverov) mezon qilib olish moyilligi ham mavjud.

Y.K.Babanskiyning qator ilmiy-pedagogik asarlarida ta'lim metodlari o'qituvchi faoliyati nuqtai nazaridan tasnif etilgan. U ta'lim metodlarini uch guruhga ajratgan: o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish va boshqarish metodlari; o'quv-biluv faoliyatini rag'batlantirish metodlari; o'quv-biluv faoliyati samaradorligini nazorat etish metodlari. Har bir guruh o'z ichida yana kichikroq guruhlarga ajraladi. Masalan, birinchi guruh metodlar jumlasiga quyidagilar kiradi: og'zaki bayon metodlari; ko'rgazmali metodlar; amaliy metodlar; induktiv va deduktiv metodlar; reproduktiv metodlar; muammoli-izlanish metodlari; mustaqil ishslash metodlari. Yuqorida giga o'xshab rag'batlantirish, nazorat qilish metodlari ham o'z ichida guruhlarga ajratilgan. Hozirgi paytda ta'lim metodlariga oid mukammal tizim Y.K.Babanskiy tasnifidir.

Ta'lim metodlarini tasnif etish masalasiga doir qarashlarning ko'pligi, rang-barangligi ularning ko'p qirrali didaktik hodisa ekanligi bilan izohlanadi. Endilikda ta'lim metodlari mohiyatini bayon etishga ko'p tomonlama, yaxlit yondashish zaruriyati kuchayib bormoqda. Bu inson faoliyatiga yaxlit yondashish metodologiyasi asosida ta'lim metodlari to'g'risidagi bilimlarni umumlashtirish va yagona tizimga birlashtirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zaro ta'sir ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni. O'zaro ta'sir integrativ didaktik hodisa bo'lib, bir tomondan, ona tili didaktikasining ham, didaktikaning ham

tadqiqot predmeti, ikkinchi tomondan esa ta'lim metodlarini tasnif etish mezoni sanaladi. U insonning boshqa faoliyatları, masalan, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarish jarayonlarida ishtirok etish, ilmiy kashfiyotlar qilishga o'xshab o'z maqsadi, vositasi, natijasiga ega. O'zaro ta'sirning ma'lum bosqichida erishilgan maqsad keyingi bosqichda vosita sifatida amal qiladi. Binobarin, ta'limning borishida erishilgan maqsad natijasiga, natija esa o'z navbatida keyingi maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

O'zaro ta'sir o'qitish va o'qish usullarining bir-biriga qo'shiluvi natijasida muvofiqlashuvi — hosila faoliyat shaklida amal qiladi. Uning bosqichma-bosqich harakati tashkiliy-boshqaruv, undash-rag'batlantiruv, nazorat-tekshiruvni taqozo etadi. Binobarin, o'zaro ta'sirni ma'lum vosita bilan harakatga tushirish, tartibga solish mumkin. O'zaro ta'sirni o'qitish usullari va o'qish usullarining o'zaro tutashuvidan-ularning o'zaro qo'shilgan joyidan izlash yo'li bilan ta'lim metodlarini yaxlit tizim sifatida tavsiflash mumkin.

Ta'lim metodlarini o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib tasnif etganda quyidagi larga erishiladi: ta'lim metodlarining yaxlit tizimi yaratiladi; ta'lim metodlarini tasnif etish uchun integrativ birlik ajratiladi; ta'lim metodlarining o'qitish va o'qish usullari tutashuvidan shakllanishi e'tirof etiladi; ta'lim metodlari muammosiga kompleks yondashiladi; ta'lim metodlariga mazmuniy va jarayoniy tafsif beriladi.

**Ta'lim metodlari tasnifi.** O'qitish usullari va o'qish usullarining bir-biriga muvofiqlashuvi ta'lim ijtimoiy institutning alohida turi — o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri shaklida amal qilishini ta'minlaydi. O'qitish va o'qish faoliyatları o'zaro ta'sir mohiyatidan kelib chiqib, ta'lim metodlarini ikki guruhg'a ajratamiz: o'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari; o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari!

Ta’lim metodlarining har bir guruhida o‘qitish va o‘qishning o‘zaro ta’siri qatnashadi. O‘zaro ta’sir ishtirok etmaydigan metod ta’lim metodi sanalmaydi. Masalan, o‘qituvchi evristik suhbatni tanladi deylik: bolalar uchun tushunarli, ularni qiziqtiradigan savollarni o‘rtaga tashlay olish o‘qituvchi faoliyatiga bog‘liq. O‘qituvchi o‘zi dars beradigan sinf o‘quvchilarining umumiy tayyorgarligini aniq tasavvur etsa, bolalarning real o‘quv imkoniyatlarini hisobga olsa, ularning yosh va individual xususiyatlariga tayansa, ana o‘shandagina sinf o‘quvchilari ta’limda faol ishtirok etishadi. O‘qituvchi faolligi o‘quvchilar faolligini va o‘z navbatida, o‘quvchilar faolligi o‘qituvchi faolligini ta’minlaydi.

### **3-fasl. O‘zaro ta’sirni tashkil etish va boshqarish metodlari tavsifi**

**Og‘zaki bayon metodlari.** Hikoya, tasvir, suhbat, ma’ruza ta’limning bilimlarni og‘zaki bayon qilish metodlari sanaladi. Bu metodlar, evristik suhbatni hisobga olmaganda, asosan, o‘quvchilarning xotirasiga mo‘ljallab tashkil etiladi. Qurilish jihatdan ularning tarkibi bir xil: o‘qituvchi tushuntiradi, bolalar tinglaydi.

**Hikoya.** Ta’limning turli bo‘g‘inlarida qo‘llaniladigan universal metodlaridan biri hikoyadir. Hikoyaning bir necha xil turi mavjud: kirish hikoyasi — o‘quv materialini o‘rganishga bolalarni tayyorlash maqsadida o‘tkaziladi. Kirish hikoyasi badiiy asarlar bilan tanishtirish, yangi mavzuga oid dalillarni eslash, ularni dastlabki tahlil etish bilan daxldor metoddir; bayon shaklidagi hikoya — yangi o‘quv materialini bevosita idrok etish bilan aloqador ta’lim metodi sanaladi. Bayon shaklidagi hikoyada o‘qituvchi o‘quv materiali mazmunini to‘lig‘icha aytadi, uning asosiy va ikkinchi darajali xususiyatlarini izohlaydi; yakunlovchi hikoya — undan darsning oxirida o‘rganilgan mavzuga yakun yasash maqsadida foydalaniлади.

Hikoyaning barcha turlarida o'zaro ta'sir o'qituvchining o'quv mavzusidagi bayoni va o'quvchilarning tinglashi ko'rinishida amal qiladi.

**Ma'ruza.** Ma'ruza umumiy o'rta ta'lim mакtablarining yuqori sinflarida, litsey va kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida foydalaniladigan ta'lim metodi bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchining bayoni va bolalarning tinglashi, ayrim dalillar, asosiy g'oya va bog'lanishlarni yozib olishlari shaklida amal qiladi. Ma'ruza uchun vaqt bolalarning tayyorgarlik darajasi, o'quv materiali hajmiga ko'ra belgilanadi.

Ma'ruza jarayonida o'quvchilarning faolligi, tashabbuskorligini oshirish maqsadida o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazma quroq, darslikda berilgan dalillar, muammo va topshiriqlar bilan uyg'unlashtiradi. Ma'ruza jarayonida ko'rgazma quroldagi dalillarni tahlil etishga bolalar diqqatini tortish, o'qituvchi aytgan qoida, ta'rif, aniqliklarni darslik materiallariga chog'ishtirish yo'llari bilan bolalar faolligi oshiriladi. Shuningdek, o'quv materialiga oid istilohlarga izoh berish, ayrim o'rnlarda o'quvchilarning o'zlariga xulosa chiqarishni taklif etish talabalarning o'quv-biluv faolligining samaradorligini ta'minlaydi.

**Suhbat.** Suhbat o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri dialog shaklida amal qiladigan ta'lim metodidir. Unda mavzu mazmuniga mos, atroflicha o'yangan, bir-biriga bog'liq savollarni qo'yish va savollarga javob izlash hamda javob qaytarish yo'llari bilan o'qituvchi va o'quvchi(lar) faoliyati o'zaro muvofiqlashadi.

Suhbat mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: **evristik suhbat; noevristik suhbat.** Evristik suhbat o'quvchilarning tafakkuriga mo'ljallangan metod bo'lib, unda o'zaro ta'sir o'qituvchi savollari bolalarning javoblari shaklida amal qiladi. Evristik suhbat juda uzoq tarixga ega bo'lib, undan qadimgi Gretsiyada Sokrat mohirona foydalangan. U

hozirgi ilmiy-didaktik tadqiqotlarda «izlanish suhbatı» ham deb yuritiladi. Evristik suhbatning qator ijobiy tomonlari mavjud: ijodiy yo'l bilan o'quv materialini o'rganish; o'zlashtirishning individual xarakter kasb etishi. Bu metodning salbiy tomonlari ham bor. Masalan, ma'ruza, hikoya, vaqtini tejash nuqtai nazaridan eng samarador metodlar sanalsa, vaqtini ko'p olishi evristik suhbatning kamchiligidir.

Evristik suhbatning o'ziga xos tashkiliy qurilishi mavjud. Buni «Ko'chirma gap» mavzusi misolida oydinlashtiramiz:

— darsning mavzusini, maqsadini e'lon qilish (Bolalar, hozir siz darak, so'roq, buyruq gaplarning ta'rifini aytib berdingiz. Bugun «Ko'chirma gap»ni o'rganamiz. Agar mening savollarimni diqqat bilan tinglab, javob qaytara olsangiz, bugungi mavzuni mustaqil o'rganasiz);

— kuzatish uchun dalillar (O'qituvchi bolalarga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: Bugun qanday gapni o'rganamiz? O'rtog'ingizning men bergen savolga javobini yozing).

Doskaga o'quvchilardan biri «Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz» jumlasini yozadi. O'qituvchi «katta bo'lganda kim bo'lmoqchisiz?» savolini o'rtaqa tashlaydi. «Katta bo'lganda o'qituvchi bo'laman» gapi doskaga yoziladi. Kuzatish uchun nutqdan quyidagi gaplar tanlab olinadi:

— Biz bugun ko'chirma gapni o'rganamiz (dedi Odil).

— Katta bo'lganda o'qituvchi bo'laman (dedi Anvar).

Mustaqil xulosalar chiqarish uchun savollar: Kimlarning gapi o'zgarishsiz ishlatiladi, daftarlarga (doskaga) yoziladi? Qanday gapga ko'chirma gap deyiladi?

- Odil va Anvarning gaplari o'zgarishsiz yozildi. O'zgarishsiz ishlatilgan gaplarga ko'chirma gap deyiladi.

- O'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosani to'ldiradi, ko'chirma va muallif gaplarining farqlarini, ularning

o'rnlari, ishlatiladigan tinish belgilarini izohlaydi. Doskaga yozilgan gaplarni quyidagi shaklga keltiradi:

«Bugun ko'chirma gapni o'rganamiz», — dedi Odil.

«Katta bo'lganda o'qituvchi bo'laman» — dedi Anvar.

Chiqarilgan xulosalarни turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'li bilan bilimlar mustahkamlanadi.

Noevristik suhbat o'quvchilarning xotirasiga, binobarin, qayta esga tushirish faoliyatiga mo'ljallab o'tkaziladi. O'tkazish maqsadiga ko'ra noevristik suhbatning quyidagi turlari mavjud.

**Yakunlash suhbati** — bunday suhbatda mashg'ulotda qilingan ishlar bo'yicha umumiy va yakuniy xulosa chiqariladi.

**Mustahkamlash suhbati** — yangi mavzu tushuntirilgandan keyin o'tkaziladi, so'ngra yangi mavzu bo'yicha intellektual va amaliy topshiriqlar bajariladi.

**Takrorlash suhbati** — ikki yoki undan ortiq mavzu bo'yicha o'tkaziladi. Takrorlash yo'li bilan malakalar takomillashtiriladi.

**Umumlashtiruvchi suhbat** — katta bo'lim o'tilgandan so'ng, o'quv yili boshida, oxirida tashkil etiladi.

**Kirish suhbati** — yangi mavzuni o'rganishdan oldin o'tkaziladi.

**Nazorat suhbati** — bilimlarni sinab ko'rish maqsadida tashkil etiladi.

Bilimlarni og'zaki bayon etish metodlari, evristik suhbatini hisobga olmaganda, asosan, xotiraga, binobarin, o'quvchilarning qayta eslash faoliyatiga mo'ljallab tashkil etiladi. Hikoya, tasvir, ma'ruza, suhbat metodlarining zaif tomoni ham ana shunda. Ularning bu zaif tomonlarini bartaraf etish, o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol subyektiga aylantirish uchun quyidagi rag'batlantiruvchi metodlardan foydalaniadi.

1. Qiziqarli o'quv holatlari yaratish o'quvchilarda turli his-hayajon uyg'otadi.

2. Badiiy, ilmiy-ommabop, tarixiy asarlardan olingan dalillarni keltirish, ularni tahlil etish ham ta'lim jarayonida o'quvchilarning faolligini oshiradi.

3. Ma'ruza, hikoya, tasvir, suhbat jarayonida analogiya metodidan foydalanish.

4. Fan tarixiga sayohat ham bolalarning o'quv-biluv faoliyati samaradorligini oshirish vositasi sanaladi. O'zbek tilidan utyug, karandash kabi so'zlarning rus tiliga o'tganligi, tomosha (tomdan oshib qarash), kengash (katta osh) so'zlarining ma'nosini izohlash o'quvchilar faolligini oshiradi.

5. Kundalik turmushda ishtirok etish yo'li bilan hosil qilingan tajriba va ilmiy bilimlarni o'zaro taqqoslash ham bolalarda o'quv-biluv faoliyatiga havasni oshiradi. Shunday qilib, bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan rag'batlantiruvchi metodlardan parallel foydalanish o'quv tarbiya ishlarining samaradorligini oshiradi.

**Ko'rgazmali metodlar.** Ko'rgazmalilik didaktikada eng asosiy prinsip bo'lib, uning yordamida ko'ruv uquvi va tafakkur o'zaro uyg'unlashtiriladi. Ko'rgazmali metodlarning quyidagi turlari mavjud.

**Ilyustratsiya metodi** — bilimlarni og'zaki bayon qila turib, rasmlar, chizmalar, jadvallar, doskadagi yozuvlarga bolalar diqqatini tortish.

**Demonstratsiya metodi** — kinoapparat, videokamera, video, kompyuter kabi texnik vositalar asosida, shuningdek, televizor eshittirishlaridan foydalanib, turli tasvirlarni namoyish etish.

**Tabiiy ko'rgazmalar** — narsalarning o'zi, predmetlar, turli jonivorlarning mulyajlarini ko'rsatish. Ko'rgazmali metodlar eshitish va ko'rish uquvlarini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi hisoblanadi. Shuftufayli ulardan bilimlarni og'zaki bayon qilish metodlari bilan parallel foydalanish ta'limning samaradorligini oshiradi.

**Muammoli-izlanish tipidagi metodlar o'quvchilarning tafakkuriga, binobarin, ularning ijodiy faoliyatiga yo'nalgan ta'lim usullaridir. Bu metodlar asosida o'quv-tarbiya ishlari tashkil etilganda o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro ta'siri quyidagicha umumiy ko'rinishga ega bo'ladi.**

### O'qituvchi faoliyati

turli topshiriqlar  
asosida muammoli  
holat yaratish;

muammoni hal etishga  
oid farazlarni  
aytishni taklif etish;

farazlardan mosini  
muammoni bajarishga  
tatbiq etishni so'rash;

muammoning bajarilishi-  
dan xulosalar chiqarishga  
ko'maklashish;

chiqarilgan xulosalarni  
amaliyotga tatbiq etish  
yo'llarini ko'rsatish;

### O'quvchi faoliyati

→ muammoli holatda  
← ishtirok etish va muam-  
moni qabul qilish;

→ farazlarni aytish;  
←

→ tanlangan farazni  
→ muammoning bajarili-  
shiga tatbiq etish;

→ xulosalar chiqarish;  
←

→ xulosalarni amaliyotga  
← tatbiq etish;

Muammoli-izlanish metodlari ham maktab tajribasida sof holda qo'llanilmaydi. Muammolarni qo'yish, ularni izohlashda suhbat, hikoyadan ham foydalaniladi. Shuningdek, ma'ruza o'qib turgan paytda turli o'quv topshiriqlari, muammolar ham hal etiladi. Ko'rgazma quollar vositasida bolalarga o'quv topshiriqlari beriladi. Ana shularga ko'ra, muammoli-izlanish metodlarining quyida gi turlari farqlanadi.

**Muammoli hikoya** — o'rganilayotgan mavzu doirasida hikoya boshida, hikoya oxirida bolalar oldiga muammolar qo'yib, ularning mavzuga qiziqishlarini oshirish yo'li.

**Muammoli ma'ruza** — ma'ruzadan oldin o'quvchilarni mavzuga qiziqtirish maqsadida yoki ma'ruza oxirida o'quvchilar oldiga muammolar qo'yish yo'li bilan ta'lim maqsadiga erishishdir. O'quv materialining asosiy (qiyin) qismini ma'ruza vositasida, nisbatan oson qismini topshiriqlarni bajartirish, muammolarni qo'yish yo'li bilan ham o'rgatsa bo'ladi.

**Mustaqil ishlash metodlari.** Mustaqil ishlar ta'limning turli halqalari, turkum (sikl)larida, darsning barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari, rahbarligida bajariladigan intellektual va amaliy topshiriqlardir. Hozirgi paytda mustaqil ishlarning quyidagi turlaridan foydalaniлади.

Darslikdagi qoida va ta'riflar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi qoida va ta'rifni o'qish va ularga oid dalillarni ajratish; o'qituvchi bergen, o'qituvchi topshirig'iga ko'ra to'plangan dalillarni tahlil etish va xulosalar chiqarish; darslikning ayrim betlarini tanlab o'qish va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish yo'llari to'g'risida qisqacha hisobot tayyorlash; qoida, ta'riflarni mantiqiy qismlarga ajratish va istilohlarga izoh yozish; darslik, o'quv qo'llanmalari va qo'shimcha adabiyotlardan o'rganilgan mavzu doirasida dalil toplash; ma'ruza, hikoya, suhbat paytida o'qituvchi chiqargan xulosalarni darslikdagi qoida, ta'rif, aniqliklarga chog'ishtirish.

Darslikdagi amaliy materiallar ustida mustaqil ishlash: darslikdagi mashq, tanlangan o'quv topshiriqlarini variantlar asosida musobaqalashib bajarish; darslikdagi amaliy materiallar asosida turli diagramma, jadval, chizmalar tayyorlash; bayon va insho rejasini tuzish.

Mashg'ulotlarda turli mustaqil ishlarni bajarish bolalarda mustaqillikni tarbiyalaydi. Mustaqillik esa kishining shaxsiy sifati hisoblanadi. Mustaqil ishslash metodlaridan foydalanishda qator qoidalarga rioya qilinadi: o'quvchilarni mustaqil ishslashga tayyorlash; mustaqil ishlarning tushunarli bo'lishi; mustaqil ish paytida bolalarga individual munosabatda bo'lish; mustaqil ish uchun yetarli vaqt ajratish; mustaqil ish natijasini tekshirish.

**Didaktik o'yinlar.** Keyingi yillarda ilg'or o'qituvchilar tajribasida didaktik o'yinlardan ta'lim metodlari sifatida foydalanish odat tusiga kirmoqda. Didaktik o'yinlarning samaradorligi shundaki, ular vositasida o'quv-tarbiya ishlari hayotga yaqinlashtiriladi, shuningdek, ularning har birida bilimlarni og'zaki bayon etish, ko'rgazmali, amaliy metodlarning elementlari qo'llaniladi. Shu xususiyatlariga ko'ra, didaktik o'yinlar sintetik xarakterga ega. Ularning quyidagi turlari mavjud.

**Simulyativ o'yin** — ta'limni hayotda bo'lib o'tgan ijtimoiy voqealarga tenglashtirish, ularga muqoyasa qilib tashkil etish va boshqarish metodidir. Simulyativ o'yinlarning bir ko'rinishi insenirovka (rollarga ajratib o'qitish) metodidir. Boshlang'ich sinflarda badiiy matnlar, yuqori sinflarda badiiy asarlarni rollarga ajratib o'qitish an'anasi maktablarimiz tajribasida uzoq tarixga ega.

**Amaliy metodlar.** Ta'limning amaliy metodlarida o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri bolalar oldiga qo'yiladigan topshiriqlar hamda ularni qabul qilish shaklida amal qiladi. Prof. Y.K.Babanskiyning yozishicha, amaliy metodlarining qo'llanish chegarasi keng bo'lib, ular topshiriqlarni tayinlash, ularni bajarishni rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, zudlik bilan bolalarni rag'batlantirish, natijani tekshirish, tuzatishlar kiritish, baholash kabi usullarni o'ziga qamrab oladi. Amaliy metodlarning quyidagi turlari mavjud.

Amaliy metodlarining eng qadimiy turi **mashqdir**<sup>13</sup>. Mashq — o'rganilgan bilimlarni turli o'quv sharoitlariga tatbiq etish yo'lidir. Mashq vositasida turli malakalar — intellektual va aqliy, xususiy va umumiy malakalar tarkib toptiriladi.

Mashq o'quv topshiriqlari asosida o'tkaziladi. Uni bajarishda quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi.

**1-bosqich:** mashqni bajarishda foydalilaniladigan bilim, faoliyat usullarini esga tushirish. Bilimlarni esga tushirish bu xotiraning oddiygina ishi emas. Bu jarayon topshiriqni bajarishga oid bilimni esga tushirish, uni bilimlar orasidan tanlash, bilimlarni tahlil etish, uni o'quv sharoitiga tatbiq etish kabi aqliy ishlarni taqozo etadi.

**2-bosqich:** ajratilgan bilimni, faoliyat usulini mashqda berilgan holatga tatbiq etish. Bilimni, faoliyat usulini tatbiq etish jarayonida o'rganilgan bilimlar ongda mustahkamlanadi, malakalar takomillashadi.

**3-bosqich:** bu bosqichda topshiriqning bajarilishi tekshiriladi, mashq qilish jarayonidagi yutuq va kamchiliklar baholanadi, mashq qilish asosida xulosalar chiqariladi.

#### **4-fasl. O'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari**

O'zaro ta'sir natijasida bolalar bilim, malakalarni o'zlashtirishadi, ularda ijodiy faoliyat tajribasi, tabiat, jamiyat va tafakkur hodisalariga munosabat shakllanadi. Binobarin, o'zaro ta'sir natijasini nazorat etish deganda to'rt narsani: a) bilimlar tizimini; b) ko'nikma-malakalarni o'zlashtirish darajasini; d) ijodiy faoliyat tajribasi

<sup>13</sup> Eski o'zbek matabida mashq qilish usuliga alohida e'tibor qilingan. Masalan, Ashurali Zohiriyning «Imlo» nomli kitobida imlo qoidalarni quyuq siyoh bilan berish, o'rganilgan imlo qoidasiga ko'ra matnni ko'chirib yozish, bolalarning yozma ishlarni qizil siyoh bilan tekshirish, xatolarni tuzatib yozish usullari berilgan. Qarang: A.Zohiri. Imlo. — T.: 1916. 4-bet.

**taraqqiyotini; g) bolalarda shakllangan munosabatlar tizimini tekshirish anglanadi.**

O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari markazida o'qitish va o'qish faoliyatlarining bir-biriga muvofiqlashuvi yotganidek, nazorat etish metodlari vositasida ham o'qitish va o'qish faoliyatları bir-biriga kirishishadi: o'qituvchi nazorat savolini berganda o'quvchilar javob qaytarishadi; o'qituvchi diktovka qilganda o'quvchilar eshitganlarini yozishadi. Nazorat etish metodlari ham tarkiban ikki xil usuldan iborat: o'qitish usullari (diktovka); o'qish usuli (eshitganlarini yozish).

O'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari tizimi vaqt, o'quvchilar miqdori, nutq shakli, tanlangan ish turi, ijtimoiy tarjiba elementlariga ko'ra tasnif etiladi.

**Vaqtga ko'ra nazorat metodlari.** O'zaro ta'sir natijasini nazorat etish nuqtai nazaridan vaqtga ko'ra, nazorat turlari uch turli bo'ladi.

**Joriy nazorat** — har bir darsda ilgari va yaqinda o'tilgan o'quv materiallarining o'zlashtirilishini tekshirish demakdir. Unda nazorat savollar berish, qoidalar, ta'riflarga oid dalillar keltirish, berilgan dalillarni tahlil etish, mavzularning mazmunini so'zlatish, qisqa muddatli munozaralar tashkil etish, o'quv topshiriqlarini bajartirish kabi usullardan foydalilaniladi. Joriy nazorat qisqa muddatda o'tkazilishi bilan xarakterlanadi.

**Davriy nazorat** — o'quv predmetining bir bo'limi, katta qismi o'tib bo'lganidan keyin tashkil etiladigan tekshirishdir. Unga alohida o'quv soati yoki o'quv soatlari ajratiladi. Davriy nazoratda o'rganilgan bo'lim mazmuniga mos savollar tizimiga javob olinadi, o'quv topshiriqlari tizimi bajartiriladi, uzoq muddatni oladigan munozara o'tkaziladi. O'quv topshiriqlari tizimiga mos savollar, uzoq muddatli munozara, og'zaki yoki yozma hisobot kabilar davriy nazorat metodlari hisoblanadi.

---

**Yakuniy nazorat** — o‘quv predmeti to‘liq o‘rganilgach, chorak oxirida, o‘quv yili so‘nggida tashkil etiladi. Unda o‘quv predmeti mantiqini o‘ziga to‘liq qamrab oladigan metodlardan foydalilaniladi. O‘quv predmeti doirasiga qo‘llangan istiloh va tushunchalarga (og‘zaki yoki yozma) izoh yozish, o‘quv predmetiga oid yetakchi g‘oyalarni hayotga, ishlab chiqarish amaliyotiga tatbiq etish, o‘quv predmetining inson hayotida tutgan o‘rnini baholash, o‘quv predmeti doirasida o‘rganilgan nazariya va g‘oyalarga o‘z munosabatini bildirish kabi metodlar nazoratning samaradorligini oshiradi.

**O‘quvchilar miqdoriga ko‘ra nazorat metodlari.** O‘quvchilar miqdori jihatidan nazoratning uch xil ko‘rinishi farqlanadi: **individual tekshirish** — alohida o‘quvchiga mo‘ljallangan nazoratdir. A’lochi o‘quvchiga mo‘ljallangan o‘quv topshirig‘i o‘rtacha tayyorgarlikka ega bo‘lgan bola uchun qiyin bo‘lganidek, o‘rta o‘zlashtiradigan o‘quvchi uchun tuzilgan o‘quv topshirig‘i a’lochi o‘quvchi uchun juda jo‘n sanaladi. Ko‘rinadiki, **individual nazorat** har bir o‘quvchining bilimi, tayyorgarlik darajasiga qarab tayyorlanadi. Demak, **individual nazorat** metodi sifatida tanlangan suhbat, savol, topshiriq, mustaqil ish, laboratoriya mashg‘uloti va shu kabilarning bajaruvchisi-ijrochisi oldindan belgilanadi.

**Tabaqalashgan nazorat** — sinf jamoasining bilim, malakalarni o‘zlashtirish darajasi, real o‘quv imkoniyatlariiga qarab kichik jamoalarga ajratish va jamoalarning har biriga mos metod, vosita tanlab tekshirishni o‘tkazishdir. Sinf o‘quvchilari ularning individual xususiyatlari asosida kichik jamoalarga ajratiladi. Eng yuqori o‘zlashtiruvchi bolalar o‘ta murakkab, yaxshi o‘qiydigan o‘quvchilar jamoasi nisbatan oson, past o‘zlashtiruvchilar jamoasi esa yanada osonroq topshiriqlarni, mustaqil ishlarni bajarishadi.

**Yalpi nazorat** — sinf jamoasining barchasiga mo‘ljal-langan tekshirishdir. Masalan, diktant shunday metodlar sirasiga kiradi.

**Nutq shakliga ko‘ra nazorat metodlari.** Tanlangan nutq shakliga binoan nazorat ikki turli bo‘ladi: **og‘zaki nazoratda** qo‘yilgan savol, topshiriq, mustaqil ishga og‘zaki javob izlanadi. Shuningdek, o‘rganilgan o‘quv materiali mazmunini og‘zaki bayon etish, so‘zlab berish ham og‘zaki nazoratdir. Og‘zaki nazorat o‘quvchilar miqdoriga ko‘ra, individual, tabaqaqlashgan, yalpi bo‘lishi mumkin; **yozma nazoratda** savol, topshiriq, mustaqil ishlarga yozma javob qaytariladi. Diktant, bayon, insho, muammo va misollarni bajarish, bosma asosli dasturlashtirilgan materiallar, testlar bilan ishslash yozma nazorat metodlaridir. Og‘zaki imtihon, sinov turlari ham mavjud.

Ko‘rinadiki, o‘zaro ta’sir natijasini nazorat etish metodlari nihoyatda rang-barangdir. Hozirgi paytda testlar, dasturlashtirilgan materiallar vositasida nazorat qilish respublikamiz o‘qituvchilari tajribasida keng o‘rin olmoqda.

**Test nima?** Test berilgan alternativ javoblardan to‘g‘risini (eng to‘g‘risini) tanlashga oid nazorat topshirig‘idir. O‘quv predmetlari bo‘yicha tuziladigan nazorat testlari, boshqa o‘quv topshiriqlariga o‘xshab, to‘rt xil elementdan tarkib topadi: **mazmun**, **maqsad**, **vazifa**, **usul**. Boshqacha aytganda, test ma‘lum o‘quv materiali asosida tuziladi, bilimlarni nazorat qilish maqsadiga qaratiladi, faoliyatda bilimlarni tekshirish vazifasini bajaradi, berilgan javoblardan to‘g‘risini ajratish usuli bilan bajariladi. Misol uchun «mashqqa» berilgan ta’riflarning eng to‘g‘risini tanlashga oid test namunasini keltiramiz.

**Test**

**Topshiriq:** javoblarning qay birida mashqning ta’rifi to‘g‘ri va to‘liq berilgan?

1. Mashq — bilim va malakalarni mustahkamlash yo‘li.
2. Mashq — bilim va malakalarni nazorat etish yo‘li.
3. Mashq — bilim va malakalarni takrorlash yo‘li.
4. Mashq — o‘rganilgan bilimlarni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish yo‘li.
5. Mashq — bilim va malakalarni sistemalashtirish yo‘li.

Berilgan ta’riflarning barchasi mantiqan to‘g‘ri. 1, 2, 3, 5-javoblarda mashqning birgina vazifasi ta’riflangan. Haqiqatan ham, mashq qilish yo‘li bilan bilimlar mustahkamlanadi, takrorlanadi, sistemalashtiriladi, nazorat qilinadi. Ammo to‘g‘ri va to‘liq javob to‘rtinchı ta’rifdir. Chunki bilimlarni u yoki bu sharoitga ko‘chirish, tatbiq etish yo‘llari bilan bilim, malakalar mustahkamlanadi, takrorlanadi, sistemalashtiriladi, nazorat qilinadi<sup>14</sup>.

### **5-fasl. Ona tilining o‘ziga xos ta’lim metodlari**

Har bir o‘quv predmetining o‘ziga xos ta’lim metodlari bo‘lganidek, ona tilining ham o‘ziga oid ta’lim metodlari mavjud. Ona tilidan ana shunday ta’lim metodlari sirasiga savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi, imlo o‘rgatish usullari, nutq o‘sirish metodlari kiradi.

**Savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodi.** Bu metod rus pedagogi K.D.Ushinskiyning asarlarida asoslangan edi. Y.A.Abdullayevning yozishicha, savod o‘rgatishning bu metodi o‘zbek maktablariga XIX asr oxiri XX asrning boshlarida kirib kela boshladи. O‘zbekistonda rus-tuzem maktablarining paydo bo‘lishi va juda ko‘p tatar millatiga mansub muallimlarning milliy maktablarda ishlay

<sup>14</sup> Ushbu bobda ta’lim metodlarining umumiy xususiyatlari bayoni berildi. Ona tili o‘qitishning o‘zigagina xos xususiyatlari metodik qo‘llanmalarda batafsil bayon qilingan. Qarang: Qosimova K. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: «O‘qituvchi», 1985. 10-11; 25-38-betlar.

boshlashi savod o'rgatishning analitik-sintetik tovush metodining o'zbek maktablariga tarqalishiga sabab bo'ldi<sup>15</sup>.

Analitik-sintetik tovush metodining o'zbek maktablari tajribasida keng o'rin olishida iste'dodli boshlang'ich sinf o'qituvchisi Oqil Sharafiddinovning xizmatlari katta. Uning M.Mirahmedov bilan hamkorlikda nashr qilingan bir asarida analitik-sintetik tovush metodining mohiyati keng yoritilgan. Mualliflar o'quvchilarni nutq tovushlari bilan tanishtirishning umumiy qurilishini, harf bilan tanishtirish usullarini keng tavsiflashgan. Oqil Sharafiddinov asoslagan analitik-sintetik tovush metodining o'zaro uzviy bog'langan ikki tomoni mavjud: tahlil — nutqdan gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in, bo'g'indan o'rganilayotgan tovushni ajratish, tovushga mos bosma harfnini ko'rsatish; qayta qo'shish — ko'rsatilgan harfga mos nutq tovushini aytish, nutq tovushi ishtirokida bo'g'in, bo'g'in qatnashuvida so'z, so'zni qatnashdirib gap tuzish. Shunday qilib, O.Sharafiddinovning bizga qoldirgan pedagogik merosida savod o'rgatishning analitik-sintetik tovush metodining ikki tomoni maktablar tajribasida tasdiqlandi: nutq tovushi va harf bilan tanishtirish; nutq tovushi va harfnini faoliyatda ishlatalish<sup>16</sup>.

«Savod o'rgatishning analitik-sintetik tovush metodi» iborasi xususida bir necha fikr: nega metodning nomi shunday uzundan uzun yoziladi?

Metod nomining shakllanishidagi dastlabki so'z «savod» — bolalarni o'qish va yozishga o'rgatishga ishora, nutq tahlil qilinib, gap, gapdan so'z, so'zdan bo'g'in, bo'g'indan o'rganilayotgan tovushni ajratib ko'rsatishga oid ishlar

---

<sup>15</sup> Абдуллаев Я.А. Очерки по методике обучения грамоте в узбекской школе. – Т.: «Укитувчи», 1966. 150-160 стр.

<sup>16</sup> Mirahmedov M., Sharafiddinov O. Boshlang'ich mакtab alifbosi uchun metodik qo'llanna. – Т.: «O'quvpeddavnashr», 1938.

amalga oshirilgani uchun «analitik» so‘zi ishlatilgan. «Sintetik» so‘zi esa tahlilning teskarisi — qayta qo‘sishni anglatadi. Bolalar o‘qituvchi rahbarligida harfga mos tovushni ijro etishadi, tovush ishtirokida bo‘g‘in, bo‘g‘inlarni qo‘sib so‘z, so‘z ishtirokida gap (nutq) tuzishadi. Tovush va uning belgisi — harfni jonli nutq tarkibida o‘rgatish hisobga olinib «tovush metodi» iborasi ishlatilgan. Ana shu jihatlarini hisobga olib savod o‘rgatishning analitik sintetik tovush metodini kompleks usullar sifatida qaraymiz.

Savod o‘rgatishning analitik-sintetik tovush metodidan foydalanish tartibi quyidagicha.

#### I. Nutqni tahlil qilish usullari.

1. O‘rganilayotgan nutq tovushi bo‘yicha suhbat. Masalan, Lolaning bahorda ochilishini hisobga olib, bahor mavzusida suhbat o‘tkazish mumkin.

2. Suhbatdan biror gapni ajratib olish. Masalan, Lola lola terdi.

3. Ajratilgan gapni so‘zlariga ko‘ra tahlil qilish. Lola-lola-terdi. Har bir so‘zni alohida-alohida talaffuz qilish.

4. Gapdan so‘zni ajratish: Lola

5. So‘zni bo‘g‘inlarga ajratish: Lo-la

6. Bo‘g‘inlarni tovushlarga ajratish: Illo-la («l» yon sirg‘aluvchi tovushi bo‘lgani uchun uni cho‘zib talaffuz etish imkoniyati bor).

7. Bo‘g‘indan tovushni ajratish:lle.

8. Ajratilgan tovushni jamoada talaffuz qilish.

9. «L» tovushiga oid bosma katta «L» va kichik «l» harflarini ko‘rsatish.

10. «L» tovushidan boshlanadigan so‘zlarga misollar o‘ylab topish: lola, Lola, laylak.

#### II. Tovushni nutqda ishlatish usullari.

1. Ko‘rsatilgan harf (masalan, «L» tovushi belgisi)ni jonlantirish. O‘qituvchi harfni ko‘rsatsa, bolalar unga oid tovushni aytishadi.

2. «L» tovushli so‘zlarga misollar izlab topish.

3. «L» tovushi vositasida bo‘g‘in hosil qilish: lo-, la-, lu-, liq, lo‘- va shu kabi.
4. Bo‘g‘inlardan so‘z hosil qilish: lo-la, lo‘-li, lu-(g‘at).
5. So‘z tanlash va gap tuzish.
6. Harf terish kartonida kesma harflardan gap tuzish: Lola, lola ol.
7. Harf terish kartonidagi gapni jamoada xor bo‘lib o‘qish.
8. Alifbe darsligining tegishli betini o‘qish va sh.k.

**Imlo o‘rgatish metodlari.** O‘zbek maktablari tajribasida imlo o‘rgatishning qator metodlari ishlab chiqilgan.

**Ko‘chirib yozish** — imlo o‘qitishning alohida metodi bo‘lib, uning bir qancha ko‘rinishlari mavjud: **sidirg‘asiga ko‘chirib yozish** — matn qanday bo‘lsa, o‘z holicha, biron narsa qo‘shtirib qoldirmay yozib olish demak; **o‘zgartirib ko‘chirib yozish** — nuqtalar o‘rniga ko‘plik (-lar), egalik (-im, -ing, -i), kelishik (-ning, -ni, -ga, -dan) qo‘shtimchalaridan mosini kiritib, gaplarni yozib olish; **ijodiy vazifali ko‘chirib yozish** — matnga o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha o‘zgartirishlar kiritib yozish. Masalan, «Undalma» mavzusi o‘tilayotgan paytda aytilgan yoki berilgan matnga undalmalar kiritib yozish ijodiy vazifali ko‘chirib yozishdir.

**Izohli yozuv** — imlo o‘rgatishning bu usuli ona tili didaktikasiga o‘tgan XX asrning 60-yillarida lipetsklik o‘qituvchilar tajribasidan kirib kelgan edi. Izohli yozuv — bu mustahkamlanayotgan orfogrammani ovoz chiqarib izohlay turib yozish demak. Masalan, ko‘chirma gaplarda tinish belgilarini mustahkamlash uchun shunday gap berilgan deb tasavvur qiling: Aziz bolalar, Vatan ostonadan boshlanadi, — dedi bobo nevaralariga. O‘quvchilardan birontasi gapni quyidagicha tavsiflab turib yozadi: ko‘chirma gap oldin kelgan. Qo‘shtirnoqni ochib yozaman. «Aziz bolalar», gapda undalma. Undalmadan keyin vergul qo‘yaman, «Vatan» so‘zini bosh harfdan boshlab yozaman. «Vatan ostonadan boshlanadi», ko‘chirma gapning oxirida

qo'shtirnoqni yopaman, undan keyin tire qo'yaman, tiredan keyin muallif gapi boshlanadi. Muallif gapi kichik harfdan boshlab yoziladi va sh.k. Shunday qilib, izohli yozuv — bu o'rganilayotgan orfogrammaga tavsif bera turib yozish degani.

Imlo o'qitishda diktantning turli xillaridan foydalaniladi. O'tkazilish maqsadiga ko'ra diktantlar ikki turli bo'ladi: nazorat diktantlari — o'quvchilarning imlo savodxonligini sinash maqsadida tashkil etiladi; ta'limiy diktant — u yoki bu orfogrammani mustahkamlash maqsadida o'tkaziladi. Ta'limiy diktantlarning turlari nihoyatda ko'p: saylanma diktantda bolalar o'qituvchi diktovkasidan aytilgan orfogrammaga oid so'z, so'z birikmalarinigina yozib olishadi; ko'rsatuv diktantida imlosi mustahkamlanayotgan orfogramma o'quvchilarga ko'rsatiladi.

**Nutq o'stirish metodlari.** Nutq o'stirish metodlarini nutq shakllari — og'zaki va yozma nutqqa ko'ra ikki guruhga ajratamiz: **og'zaki nutqni o'stirish metodlari.** Bunday metodlar sirasiga o'qituvchi aytgan so'roq gaplarga darak gaplar bilan javob qaytarish, aytilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzish, bolalarning o'zları mustaqil o'qigan asarlarini so'zlatish, ko'rgan va eshitganlar to'g'risida og'zaki axborot berish, nazorat savollariga og'zaki javob qaytarish, disput va munozaralarda fikr bildirish, o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun dalillar kelitirish, dialogda qatnashish, I shaxs nutqini II shaxs nutqiga aylantirish va sh.k.; **yozma nutqni o'stirish metodlari.** Yozma nutqni o'stirish metodlarini, o'z navbatida, to'rt guruhga ajratib o'rganish mumkin: 1) **so'z ustida ishlash metodlari** — so'z ma'nolarini izohlash, aytilgan so'zlarning zid ma'nolarini bildirgan so'zarga misollar o'ylab topish, ma'no jihatdan uyadosh so'zarga misollar izlab topish, tayanch so'zlar ishtirokida gap, nutq tuzish va h.k.; 2) **gap ustida ishlash metodlari** — berilgan rasmlar asosida gaplar tuzish, so'roq gaplarga mos darak gaplar tuzib yozish, tayanch so'zlar ishtirokida

mantiqan bog'langan gaplar yozish, aytilgan mavzularda gaplar tuzish, sodda yig'iq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantirib yozish, mazmuni jihatdan yaqin gaplarni o'zaro qo'shib qo'shma gap hosil qilish va sh.k.; 3) **bog'li nutq ustida ishslash metodlari** — bayon yozishga o'rgatish usullari o'qilgan asarning mazmunini reja asosida so'zlash va yozish bilan daxldor metoddir. O'tkazilish maqsadiga ko'ra, bayon ikki turli bo'ladi: **ta'limiy bayon** — u yoki bu badiiy matnning mazmunini to'liq o'zlashtirish, bolalarda nutq faoliyatini takomillashtirishga mo'ljallangan bayon turi; **nazorat bayoni** — o'quvchilarining yozma nutq sohasidagi malakalarini tekshirish, badiiy matnlarni o'zlashtirish darajalarini sinab ko'rishga oid bayon turi. Bayonning barcha turlari o'qilgan asarlar bo'yicha o'tkazilib, ular insho yozishga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi. Insho ham bog'li nutqni o'stirish metodi bo'lib, uning mavzulari rang-barangdir: ko'rgan, kuzatilgan, eshitgan voqealar, o'qilgan asarlar bo'yicha insholar yozish. Bayon va insho yozishga o'rgatishda rejaga rioya qilinadi. Bayonga o'xshab, insholar ham o'tkazilish maqsadiga ko'ra, ikki turli bo'ladi: **ta'limiy insho va nazorat inshosi**; bog'li nutqni o'stirish vositalaridan biri ish qog'ozlaridir. Ona tili mavzulariga bog'langan holda tarjimai hol, ariza, majlis bayonnomasi kabi qator ish qog'ozlarini o'rgatish imkoniyatlari katta; 4) **intonatsiya ustida ishslash** — so'zlarning urg'u tushgan bo'g'inlarini aniqlash, darak, so'roq, buyruq gaplarni o'ziga xos intonatsiya bilan o'qish, baland, past ovozda, shuningdek, ichdan o'qish texnikasi ustida ishslash, logik urg'uni.gapda to'g'ri ishlatish bo'yicha mashq qilish va sh.k.

## VI BOB

### LINGVISTIK MASHQLAR

**Ona tili ta'limida lingvistik mashqlarning o'rni.** Til ta'limini lingvistik mashqlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ulardan ona tili o'qitishning hamma bo'g'inlarida, o'quvtarbiya jarayonining barcha bosqichlarida foydalaniladi. Garchand, lingvistik mashqlarning qo'llanish doirasi keng bo'lsa-da, haligacha ularning hamma e'tirof etgan ta'rifi, tarkibiy qismlari, tiplari va tizimi xususida aniq tasavvurlar mavjud emas.

Lingvistik mashqlar o'quvchilarda irodani tarbiyalashning asosiy omillaridan biridir. Iroda, ruhshunoslarning ta'biri bilan aytganda, ko'zlangan maqsadga erishish uchun o'z faoliyatini ongli tashkil etish, faoliyat jarayonida uchragan qiyinchiliklarni bartaraf etish vositalarini, usullarini izlashni taqozo etadi. O'z mehnatining maqsadini tushunish, unga erishish uchun harakat qilish, intilish bola faoliyatining asosiy tarkibiy qismlari bo'lib, ular mashq qilish natijasida tarkib topadi. Bunga mashqlarni yetarli darajadagi qiyinchilik va murakkablikda o'tkazish yo'li bilan erishiladi. Ammo ona tili metodikasi fanida mashqlarning qiyinligi va murakkabligi masalasi haligacha o'rganilgan emas.

Lingvistik mashqlardan til bilimlarini o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish maqsadlarida foydalaniladi. Shuningdek, ular bolalarda orfoepik, orfografik, uslubiy, punktuatsion va shu kabi malakalar hosil qilishning yetakchi omili sanaladi. Binobarin, lingvistik mashqlarning mohiyatini to'liq anglagan, ularning qurilishi xususida bilimlarga ega bo'lgan, tiplarini ajrata biladigan, ularni tizimga keltirish texnologiyasini egallagan o'qituvchigina mashqlardan unumli foydalanadi.

Maktabda tilning fonetika, leksika hamda grammaticaga oid bilimlar va ular asosida turli-tuman nutq ko'nikmalari ustida ish qilinadiki, bularni grammatick mashqlar deyish an'anaviydir. Biroq ular tilning birgina grammatica sohasiga tegishli bo'lganligi bois cheklangandir. Binobarin, uning istilohi o'rnila «lingvistik mashq» istilohini ishlatish ma'quldir.

### **1-fasl. Lingvistik mashqlar ta'rifi**

Mashq eng qadimi o'qish usuli. U inson faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Y.A.Kamenskiy «Pansofiya maktabi» nomli asarida mashqning ahamiyatini uqtirib, shunday deb yozgan edi: «Mashq insonni mohir, epchil, barcha narsadan xabardor, hamma sohaga qiziquvchan, har qanday ishga yaroqli kishi qilib yetishtiradi. O'quvchilarning barcha sinflarda o'qish va yozish, takrorlash va fikrlashuv, to'g'ri (ona tilidan chet tiliga) va teskari (chet tilidan ona tiliga) tarjima, deklamatsiya (badiiy asarni ta'sirchan o'qish) va disput (ilmiy mubohasa, o'z qarashlarini himoya qilish) amaliyotida mashq qilishni talab qilamiz»

Duradgor teshasiyu arrani ishlatishni, jarroh kesishu tikishni, sportchi suzishu sakrashni, tikuvchi bichishu qirqishni amaliyotda bajarib mashq qilganidek, o'quvchi ham mashq qilish yo'li bilan ijtimoiy hayotda faol ishtirot etish malakalalarini egallab oladi. Ana shularga ko'ra, mashqni umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi deb bilamiz. Zero, yoshlar mashq qilish yo'li bilan ijtimoiy tajribani bekamu ko'st o'rganishadi, o'z faoliyatlarida otabobolar faoliyatini jonlantirishadi, tevarak atrofdagi narsalar, kishilar bilan muomala qilish madaniyatini o'zlashtirishadi.

Lingvistik mashq yoshlarni hayotga tayyorlash jarayonining tarkibiy qismi, til ta'limini amalga oshirishning yetakchi yo'li hisoblanadi. Mashq ma'lum makonda (sinfda

o‘qituvchi rahbarligida) va zamonda (darsda) o‘tkaziladi. U ongli hayotning alohida soniyalari, hayotning o‘zi demakdir.

**Lingvistik mashq va o‘quv topshirig‘i.** Lingvistik mashqlarning mohiyatini aniqlash maqsadida ularni yana bir tushuncha o‘quv topshirig‘i bilan muqoyosa qilamiz. Zero, narsa-hodisalar o‘zaro solishtirilganda, ularning mohiyati aniqlanadi.

**1-topshiriq.** O‘n ikkita so‘z berilgan (in, oz, es, iz, ov, il, esh, og‘, ig‘, ek, et). Ularni qanday qilib uch guruhga ajratib yozish mumkin?

**2-topshiriq.** Sinonimlar qatoridagi so‘zlarga zid ma’no anglatadigan antonimlarni topib yozing.

Katta —  
Ulkan —  
Buyuk —  
Ulug‘ —

**3-topshiriq.** Matnni o‘qib, sifatlarni ajratib yozing. (Katta konsert har bir yurakda sevinchli iz qoldirdi...)

Yuqoridagi keltirilgan namunalarda o‘quv topshirig‘i nima? O‘quv topshirig‘i bo‘yicha o‘tkaziladigan mashqni qanday ajratmoq kerak? O‘quv topshirig‘i mashqmi? Yoki mashq o‘quv topshirig‘imi? Shu xildagi savollarga javob qaytara olsak, lingvistik mashqlarning mohiyatini ham ocha bilamiz, ularga instrumental (ishchi) ta’rif ham bera olamiz.

Fikrlashni «o‘quv topshirig‘i» tushunchasidan boshlaymiz. Yuqoridagi topshiriqlarda fonetika, leksika, grammatikadan o‘rganilgan shakliga olib keltingan. O‘quv materialini qayta qurishda ta’lim ehtiyojlari (o‘qitish va o‘qish ehtiyojlaridan) kelib chiqib u, ya’ni o‘quv materiali, yangi, boshqacha shaklga keltiriladi. O‘quv materialini bir (berilgan) shakldan ikkinchi (istalgan) shaklga olib kelish jarayonini ta’lim mazmuniga «pedagogik ishlov berish»

iborasi bilan qayd etamiz. Pedagogik ishlov berish yo'li bilan turli didaktik loyihalar — dars konspekti, o'zaro bog'langan savollar, o'quv muammolari, mashqlar tizimi shakllantiriladi. Shuningdek, pedagogik ishlov berish jarayonida o'quv materialini oldingi (darslikda berilgan) shakldan ikkinchi (yangi) shaklga, o'quv topshiriqlari tizimi shakliga olib kelinadi. Zero, tuzilgan topshiriq yoki ularning tizimi o'quv materialining yangi ko'rinishidir. Demak, o'quv topshirig'i o'qitish va o'qish ehtiyojiga ko'ra, o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir.

O'quv topshirig'i vositasida bolalarning yakka, tabaqalashgan, umumsinf ishlari tashkil etiladi. Masalan, 3-topshiriqni alohida o'quvchiga tarqatma material shaklida taklif etsak, yakka ish shaklini oladi. 2-topshiriqni bolalarning o'ziga mustaqil ish sifatida taklif etish mumkin. O'qituvchining (darslik muallifining ham) bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalariga ko'ra bajarilgan aqliy-amaliy yumushlar mustaqil ish demakdir.

1-topshiriq asosida bolalarning differensial (tabaqalashgan) ishlarini tashkil etish mumkin. Bunda o'quv topshirig'i bir qancha variantlarda taklif etiladi.

**I variant:** Topshiriq a'llo baholarga o'qiydigan bolalarga o'z shaklida (1-topshiriqqa qarang) bajarish uchun beriladi.

**II variant:** 1-topshiriq yaxshi baholarga o'qiydigan bolalar uchun yangi shaklga olib kelinadi (O'n ikkita so'z berilgan. Oldin «i» unlisi bilan, keyin «o» unlisi bilan, eng oxirida «e» unlisi bilan boshlanadigan bir bo'g'inli so'zlarni yozing).

**III variant:** Bu yerda uch xil topshiriq uch xil ko'rinishda, binobarin, uch xil shaklda o'rta baholarga o'qiydigan bolalarga berilishi mumkin: a) «i» unlisi bilan boshlanib, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarni yozing; b) «o» unlisi bilan boshlangan bir bo'g'inli so'zlarni yozing; c) «e» unlisi bilan boshlangan bir bo'g'inli so'zlarni yozing.

O'quvchilarning umumsinf, yakka, differensial ishlari o'quv topshiriqlari asosida tashkil etiladi. Bunday holatlarda o'quv topshirig'i o'qituvchi uchun vosita, bolalar uchun o'quv materialining o'zgargan shakli, binobarin, ta'lif manbai funksiyasini bajaradi. Endi yuqoridagi holatlarni mashq jihatdan tahlil etaylik.

A. Agar o'quvchi — «i» unlisining boshqa unlilardan farqini anglasa, jarangli undoshlarni jarangsiz undoshlaridan ajrata bilsa, topshiriqni bajara oladi. Bunda o'rganilgan bilim («i» unlisi va jarangli undoshlar to'g'risidagi tasavvur) berilgan o'quv holatiga (12 ta so'z orasidan «i» unlisi bilan boshlanib, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarni ajratish jarayoniga) tatbiq qilinadi. Topshiriq matnida shunday so'zlar to'rtta, uni bajarish yo'li bitta: «i» unlisi, jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zlarni ajratib yozish. Mashq yo'li bilan o'rganilgan bilim berilgan o'quv holatiga tatbiq etiladi.

B. Ikkinchchi o'quv holatida o'rganilgan bilim («o» unlisi va jarangli undoshlar to'g'risidagi tasavvurlar) berilgan so'zlarga tatbiq qilinib, yangi formula «o» unlisi, «jarangli undosh» qolipida ishlanadi. Shu yo'1 bilan topshiriq bajarilib, mashq qilinadi.

D. Navbatdagi holatda mashq qilish «e» unlisi, jarangli undosh» qolipiga to'g'ri keladi.

Berilganlar orasidan shu qolipdagi so'zlarni izlash, ajratish yo'li bilan mashq qilinadi.<sup>17</sup>

<sup>17</sup> «Mashq qilinadi» iborasi bir oz aniqlikni talab etadi: darsliklarda «mashq» emas, topshiriq berilgan. Topshiriq mashq qilish yo'li bilan bajariladi, mashq esa topshiriqni bajarish yo'li bilan qo'llanadi; topshiriq ta'lifning ikkala subyektiga — o'qitish va o'qishga dahldor bo'lib, u o'quv materialining o'zgargan shakli; mashq esa topshiriqni bajarayotgan subyektga — o'quvchiga taalluqli, uning natijasi o'quvchida shakllanadi. Ana shularga ko'ra, ona tili darsliklarida 1-mashq, 10-mashq shaklidagi kursivlarni 1-topshiriq, 10-topshiriq shaklida berish mantiqan to'g'ri hisoblanadi.

Keltirilgan o‘quv holatlarining uchalasi uchun umumiy belgilar tubandagicha: ongda qayd etilgan o‘quv holati (1); o‘rganilgan bilim va malakalar (2); bilimlarni tatbiq etish yo‘li (3); mashq qilishning o‘quvchigagina daxldorligi (4); mashq natijasining subyektiv xarakteri (5).

O‘quv holati psixologik hodisa bo‘lib, uning mazmuni berilgan o‘quv topshirig‘iga bog‘liq. Berilgan o‘quv topshirig‘i to‘g‘risida o‘ylash, zaruriy bilimlarni izlash ongda o‘quv holatini hosil qiladi. Bu o‘quvchilarning ta’limda faol ishtirokini ta’minlaydi.

Bilim, ko‘nikmalarni (faoliyat usullarini) qo’llab mashq qilish jarayonida bilimlar yanada takomillashadi, ko‘nikmalar malaka darajasiga ko‘tarilib, avtomatlashadi.

Bilim, ko‘nikmalarni esga tushirish, ularni tatbiq etish yo‘lini belgilash va amal qilish bola faoliyatini takomillashtiradi. Bilim, ko‘nikmalarni topshiriq holatiga tatbiq etish o‘quvchi faoliyati tempining oshishiga olib keladi.

Mashq qilish uchun topshiriqni o‘qituvchi (darslik muallifi ham) tanlab bola ongida mashq holatini hosil qilsa-da, mashqni o‘quvchining o‘zi qiladi. Berilgan o‘quv topshirig‘i, uning vositasida hosil qilingan o‘quv holati barcha o‘quvchilar uchun umumiy, mashq qilish esa individualdir. Ana shu individuallikka ko‘ra, bolalarning ko‘nikma-malakalarida tafovutlar uchrab turadi.

Mashq — mashq qilayotgan subyektning ishi. Binobarin, mashq qilish subyektiv hodisadir. Uning natijasi mashq qilayotgan subyektda — o‘quvchida mujassamlashadi.

Yuqorida tavsiflangan belgilarning uchtasi (1-3) obyektiv, ikkitasi (4-5) subyektiv hodisalardir. Mashq qilishning obyektiv belgilarini hisobga olib, lingvistik mashqlarga quyidagicha ta’rif beramiz.

Lingvistik mashq — o‘rganilgan bilim va faoliyat usullarini o‘quv holatlariga tatbiq etish yo‘lidir.

## 2-fasl. Lingvistik mashqlarning tarkibi

**Lingvistik mashqlarning invariant tarkibi.** Lingvistik mashqlar boshqa tizimlarga o‘xshab kompleks elementlardan iborat. Har qanday tizimning elementlari mohiyati jihatidan ikki turli bo‘ladi: **doimiy -asosiy**, o‘**zgaruvchan-ikkinchi darajali**. Tizimni, ayni holatda lingvistik mashqlarni barcha elementlariga ko‘ra tahlil etish amri-maholdir. Shu sababli, lingvistik mashqlarning asosiy elementlarini uning tarkibiy qismlari sifatida tahlil qilamiz.

Lingvistik mashqlar, avvalo, ochiq tizimdir. Zero, hozir o‘tkaziladigan mashq oldingi mashqlarning davomi, bundan keyin o‘tkaziladigan mashqlar uchun tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Mashq qilish jarayonida bolalarning o‘qish faoliyati o‘tmishdan hozirga, undan kelajakka tomon harakat qiladi. O‘rganilgan bilimlardan (o‘tmishdan) ularning amaliyotga tatbiq etilishiga (hozirga) qarab borish kelajakdagagi istiqbolli faoliyat uchun zamin tayyorlaydi. Mashq qilish jarayonining mohiyatini anglash maqsadida mashqning turg‘un-asosiy tarkibiy qismlarini uning variantlari sifatida ajratamiz.

**Invariant** — tizimda qancha o‘zgarish yuz bersa-da, o‘zgarmasdan qoladigan turg‘un elementlardir. Lingvistik mashqlar tarkibida shunday turg‘un elementlar to‘rtta: mazmun, maqsad, funksiya — o‘quvchi faoliyatida bajaradigan ish, mashq qilish usuli.

**Lingvistik mashqlarning mazmuni.** Mashq jarayonida ma’lum xatti-harakat takrorlanadi. Xatti-harakatni takrorlash o‘rganilgan bilimlarni esga tushirish vositasida boshqariladi. Mashq qilish jarayonida bilimlarni esga tushirish va ular asosida faoliyatni boshqarish ko‘nikmalarning malakaga aylanishi — avtomatlashuviga sabab bo‘ladi. Berilgan topshiriq yoki topshiriqlar tizimi bo‘yicha mashq qilish jarayonida esga tushiriladigan, takrorlanadigan bilim lingvistik mashqning mazmun-invarianti sanaladi.

Oldin qayd qilinganidek, mashq o‘quv topshirig‘i asosida o‘tkaziladi. O‘quv topshirig‘i shartiga kiritilgan turli istilohlarga riosa qilib, mashq uchun zaruriy bilimlar tanlanadi. Mashq qilish uchun zaruriy bilimlarni esga tushirish, tanlash murakkab psixik hodisa bo‘lib, u bolalarda xotira, tasavvur, fikrlashni tarbiyalaydi.

Masalan:

**1-topshiriq.** Matnni o‘qib (...) otlarni ajratib yozing.

**2-topshiriq.** Matnni o‘qib (...) sifatlarni ajratib yozing.

**3-topshiriq.** Matnni o‘qib (...) fe’llarni ajratib yozing.

**4-topshiriq.** Matnni o‘qib, otlarni birinchi, sifatlarni ikkinchi, fe’llarni uchinchi ustunga ajratib yozing.

Yuqorida o‘quv topshiriqlari asosida mashq qilish jarayonida ishtirok etgan o‘quvchi «Ot» istilohi va «Ot» to‘g‘risidagi o‘z tasavvuri (1-topshiriq), «Sifat» istilohi va «Sifat» to‘g‘risidagi o‘z tasavvuri (2-topshiriq), «Fe’l» istilohi va «Fe’l» haqidagi o‘z tasavvurlari (3-topshiriq)ga riosa qilib mashq qiladi. O‘quv topshiriqlari shartida berilgan istilohlar va ularga oid tasavvurlar (hosil qilingan bilimlar) mashq qilish jarayonida faoliyat ko‘rsatkichlari vazifasini bajaradi. Agar o‘quvchi lingvistik terminlar va ular ostida to‘plangan o‘z tasavvurlari-bilimlarni qancha aniq fahmlab, turli tushunchalarni farqlay olsa, shuncha samarali mashq qilinadi.

Lingvistik mashqlarning mazmun-invarianti bilan ularning soddaligi yoki murakkabligi belgilanadi. Mashqlarning soddaligi va murakkabligi obyektiv hodisa. Soddaлик va murakkablik topshiriqning mazmuniga (bir mavzu doirasida yoki ikkidan ortiq mavzu bo‘yicha tuzilganmi), uning shartida ishlatalgan istilohlar miqdoriga (topshiriq shartida bir yoki undan ortiq istiloh ishlatalganmi) berilgan faktik materiallar — misollar, matnlarga mutlaqo bog‘liq. Binobarin, bir o‘quv materiali doirasida tuzilgan o‘quv topshirig‘i asosida o‘tkazilgan mashq sodda, ikki yoki undan ortiq o‘quv materiallari doirasida tuzilgan

o'quv topshirig'i asosida o'tkaziladigan mashq murakkabdir. Lingvistik mashqlar quyidagi holatlarda murakkab sanaladi.

1. Mashq uchun tuzilgan topshiriqning shartida terminlar qancha ko'p ishlatalgan bo'lsa, u shuncha murakkabdir. 4-topshiriq shartida «ot», «sifat», «fe'l» istilohlari qo'llangan. Binobarin, 4-topshiriq asosida o'tkaziladigan mashq murakkabdir.

2. Agar berilgan o'quv topshirig'ini yanada maydarоq o'quv topshiriqlariga ajratib, mashqni tashkil etish imkoniyati bo'lsa, bunday mashq (4-topshiriq bo'yicha o'tkaziladigan mashq) murakkab hisoblanadi. 4-topshiriqni bir-biriga teng uchta topshiriqqa ajratish mumkin: matnni o'qib, otlarni ajratib yozing (1); matnni o'qib, sifatlarni ajratib yozing (2); matnni o'qib, fe'llarni ajratib yozing (3). Mashq qilish uchun tuzilgan o'quv topshirig'i o'ta murakkab bo'lganda, oldin ularni ixcham topshiriqlarga ajratib, mashq qilish mumkin. Ixcham topshiriqlar bo'yicha mashq o'tkazish va ulardan murakkab mashqqa qarab borish bolalarning til hodisalarini yanada puxtarоq o'zlashtirishlarini ta'minlaydi. Zотан, mashq qilish jarayonida foydalanimadigan axborot hajm jihatdan qancha kichik bo'lsa, ko'nikmaning malakaga aylanishi shuncha jadallahushi fanda allaqachon isbotlangan.

3. Mashq qilish jarayonida aqliy faoliyat usullari qancha ko'p ishtirok etsa, ularning turlaridan ko'plari (tahlil, sintez, taqqoslash, qarama-qarshi qo'yish, abstraksiyalash, induksiya va deduksiya guruhlarga ajratish, tasnif va shu kabilar) qatnashsa, mashq shuncha murakkablik kasb etadi. 4-topshiriqni bajarish yo'li bilan mashq qilishda ot, sifat, fe'l bo'yicha bilimlar, ularning so'roqlari, istilohlar o'zaro taqqoslanadi, dalillar guruhlarga ajratiladi, tahlil qilinadi. Aqliy faoliyat usullari ishtirokiga ko'ra bu mashq murakkabdir.

4. O‘quv topshirig‘i asosida mashq qilish jarayonida oldin o‘rganilgan bilimlar qancha ko‘p ishtirok etsa, o‘tkazilgan mashq shuncha murakkab hisoblanadi. 4-topshiriqni bajarish jarayonida ot, sifat, fe’lga oid bilimlar ularning so‘roqlari, gapdagi vazifalari to‘g‘risidagi tasavvurlar qatnashadi. Demak, 4- topshiriq bo‘yicha murakkab mashq qilinadi.

5. Agar mashq bajarilgandan so‘ng xulosalar chiqarish imkoniyati qancha ko‘p bo‘lsa, u shuncha murakkab hisoblanadi.

Lingvistik mashqlarning «mazmun-invarianti» tushunchasini asoslash, ularning mazmun tomoniga diqqat qilishimizni taqozo etadi. Shu tufayli uni mashqning mazmuniy nuqtai nazari deb qarash maqbuldir.

**Lingvistik mashqning maqsadi.** Lingvistik mashqlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ko‘p maqsadlidir. Ularning quyidagi ko‘rinishlari farqlanadi:

1. To‘g‘ri va qo‘srimcha maqsad. Mashq qilish yo‘li bilan erishiladigan natija uning to‘g‘ri maqsadidir. 1-topshiriqni bajarish yo‘li bilan o‘tkaziladigan mashqda to‘g‘ri maqsad — bu «ot» to‘g‘risidagi tasavvurlarni kengaytirish, malakalarni rivojlantirishdir. Mashq qilish jarayonida to‘g‘ri maqsad bilan birga qo‘srimcha maqsadlarga ham erishiladi. Masalan, berilgan matnni o‘qish, bolalarda yaxshi o‘qish malakasi sifatlari rivojlantirilsa, matnni tahlil etib, otlarni ajratib yozish analitik-sintetik faoliyatini o‘stiradi. Yaxshi o‘qish malakasi sifatlarini rivojlantirish, analitik-sintetik faoliyatni yanada o‘stirish qo‘srimcha maqsadlaridir.. To‘g‘ri va qo‘srimcha maqsadlar bolalarning «o‘qish faoliyati» nuqtai nazaridan ajratiladi.

2. Yaqin va uzoq maqsad. U yoki bu o‘quv topshirig‘i asosida mashq o‘tkazishni ko‘zlab ajratilgan maqsad yaqin maqsaddir. 2-topshiriqning yaqin maqsadi — bolalarning sifat mavzusi bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini mustah-kamlash, ko‘nikmalarini rivojlantirib malakaga aylan-

tirishdir. Yaqin maqsadlarni amalga oshirish yo‘li bilan bolalar hayotga tayyorlanadi. Kelajakka yo‘nalgan istiqbolli maqsad uzoq maqsaddir. Yaqin va uzoq maqsad o‘qituvchining «o‘qitish faoliyati» nuqtai nazaridan ajratiladi.

3. Xususiy va umumiy maqsad. Lingvistik mashqlarni o‘tkazishdan ko‘zlangan xususiy va umumiy maqsadlarni ona tilidan didaktik loyihalar, masalan, ona tili dasturi tayyorlaguvchilari, darslik mualliflari, o‘quv materiallariga didaktik ishlov beruvchi shaxslar oldindan belgilaydi. Ta’lim turli bosqichlardan iborat. Tasavvur qiling: dars davomida o‘quvchi bolalarni yangi mavzuni o‘rganishga tayyorlash uchun o‘quvchilar oldiga muammo qo‘yadi. Buning uchun darslik materiallaridan yoki o‘qituvchi o‘zi tanlagan so‘z, gap, matnlardan foydalanadi. Bunday ishning maqsadi o‘quvchilarni yangi o‘quv mavzusini ongli o‘zlashtirishga tayyorlashdir.

Yuqorida giga o‘xhab ta’lim jarayonining har bir bosqichi o‘ziga xos maqsadga ega. Shu jihatdan qaraganda, ona tili darsliklari kamchiliklardan ham xoli emas. Darslikka kiritilgan mashqlarning ta’lim bosqichlariga mosligi darslikning optimalligini ta’minalash omillaridan biridir. Mashqlarning shunday zaruriy xususiyatini darslik mualliflari hisobga olishmagan.

Lingvistik mashqlarning ta’lim jarayoni bosqichlariga mosligi ularning umumiy maqsadidir. Ta’limda xususiy maqsadlarni amalga oshirishdan umumiy maqsadga qarab boriladi. Lingvistik mashqlarni ta’limiy vazifalar bo‘yicha tahlil etish ularni maqsad jihatidan o‘rganish hisoblanadi.

**Lingvistik mashqlarning vazifalari.** Ishlab chiqarish jarayonlarida mehnat qurollari vositasida turli yumushlar bajarilganidek, lingvistik mashqlar ham bola faoliyatida turli ishlarni bajaradi. Lingvistik mashqlarning o‘quvchilar faoliyatida bajaradigan ishini ularning ta’limda bajaradigan vazifasi deb sanash mumkin.

**Lingvistik mashqlarning o‘quvchi faoliyatida bajaradigan funksiyalarini konkretlashtirish maqsadida, ta’lim jarayonining tubandagi bosqichlarini ko‘rsatish mumkin.**

**Yangi o‘quv materialini o‘rganishga tayyorlash.** Bu jarayonda foydalanilgan mashq bola faoliyatida yangi o‘quv materialini o‘rganishga tayyorlanish vazifasini bajaradi.

**Yangi o‘quv materialini idrok etish.** Bu jarayonda qo‘llanilgan mashq o‘quvchilar uchun bilimlarni faol o‘zlashtirishga xizmat qiladi.

**Yangi o‘quv materialini mustahkamlash.** Bu jarayonda ishlatilgan mashq o‘quvchi faoliyatida o‘rganilgan bilim bilan uni (bilimni) nutq amaliyotida qo‘llash o‘rtasida dastlabki bog‘lanishni hosil qilish vazifasini bajaradi.

**O‘tganlarni takrorlash.** Bu jarayonda foydalanilgan mashq o‘quvchi faoliyatida o‘rganilgan bilim bilan faoliyat usullari o‘rtasida mustahkam aloqadorlikni o‘rnatish uchun xizmat qiladi. Bilim va faoliyat usullari o‘rtasida aloqadorlikni o‘rnatish o‘z navbatida ko‘nikmalarning malaka darajasiga ko‘tarilishiga, o‘quvchi faoliyatining jadallashuviga olib keladi.

**Bilim, malakalarni umumlashtirish.** Ta’lim jarayonining bu bosqichida o‘rganilgan bilimlar tizimga keltirilib, umumiylar xulosa chiqariladi, malakalar yanada yuqori darajaga geniralizatsiya bosqichiga ko‘tariladi. Binobarin, umumlashtirish jarayonida qo‘llanadigan mashqlar o‘quvchi faoliyatida katta mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni umumlashgan xulosalar, malakalarni yanada takomillashgan faoliyat usullari darajasiga olib kelish vazifasini o‘taydi.

An‘anaviy ona tili ta’limi tizimida lingvistik mashqlarning, asosan bir vazifasiga — bilimlarni malakaga aylantirish ishiga ko‘proq e’tibor beriladi. Lingvistik mashqlarning o‘quvchilar faoliyatida bajaradigan barcha vazifalaridan unumli foydalanish bilim, malakalarning yanada takomillashuviga asos bo‘ladi. Lingvistik mashqlarni

faoliyatda bajaradigan ishi jihatidan o'rganish funksional tahlil sanaladi.

**Lingvistik mashq qilish usuli.** Lingvistik mashq mazmuni ta'lif jarayonidagi maqsadlari, o'quvchi faoliyatida bajaradigan vazifalari jihatdan rang-barang bo'lganidek, mashq qilish usuliga ko'ra ham mazmundor hodisadir. Qiyinligi mashq qilishning subyektiv tomonidir. Agar o'quvchi berilgan so'zlarni guruhlarga ajratish yo'llini bilmasa, mashq qilishda qynaladi.

Mashq qilish usullari vositasida o'quvchilar so'zlarni bo'g'in va tovushlarga ajratish, so'zlarni ma'no va tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajratish, til hodisalarini tasnif etish, berilgan ikki imkoniyatdan to'g'risini tanlash, nuqtalar o'rniga harf, bo'g'in, so'zlarni qo'yib yozish, tayanch so'zlar ishtirokida nutq tuzish, mantiqan ajratilgan gap, abzatslarni yaxlit shaklga keltirish, dalillardan xulosalar chiqarish kabi usullarni bajarishadi. Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lif, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ularni nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz.

Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi. Masalan, berilgan so'zlarni ma'nolari yoki tuzilishi jihatdan guruhlarga ajratish jarayonini tahlil etaylik. Bu usulni qo'llash paytida, guruhlarga ajratish jarayonida tahlil va sintez, taqqoslash va konkretlashtirish kabi aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi. Binobarin, lingvistik mashq qilish usullari nutq madaniyatini o'rganish yo'llari va aqliy faoliyat ko'rsatish amallari hosilasi sifatida shakllangan.

**Guruhlarga ajratish.** Lingvistik mashq qilishning bu usulidan boshlang'ich sinflardan tortib, yuqori sinflargacha amal qilinadi. Ona tili ta'liming ilk qadamlaridanoq

guruhlarga ajratish yo‘li bilan mashq o‘tkaziladi. O‘qituvchi doskaga ketmon, ruchka, kitob, belkurak, xaskash, qalam, chizg‘ich so‘zlarini yozib, oldin ish qurollari nomini, keyin o‘quv qurollari nomini yozishni taklif etsa, o‘quvchilar ularni ikki guruhgaga (**ish qurollari**-ketmon, belkurak, xaskash; o‘quv qurollari-ruchka, kitob, qalam, chizg‘ich) ajratishni mashq qiladi. Shu xil ko‘rinishdagi o‘quv topshiriqlari asosida mashq qilish yo‘li bilan o‘quvchilar umumiyligi tushunchalarni ham (o‘quv quroli, ish quroli) o‘zlashtirib olishadi. Yuqori sinflarda guruhlashga oid topshiriqlar yanada murakkablashtiriladi. O‘quvchilar so‘zlarning ma’nolari, so‘roqlari, o‘ziga xos shakkllari — qo‘srimchalariga ko‘ra guruhlarga ajratishni mashq qilishadi.

**Alternativ mashq qilish.** Mashq qilish jarayonida alternativ usuldan foydalanylганда, tafakkurning tanlay olish xususiyati amal qiladi, berilgan ikki imkoniyatdan to‘g‘risi tanlanib topshiriq bajariladi. Shunday topshiriq berilgan bo‘lsin: O‘qing. Nuqtalar o‘rniga «x» va «h» harflaridan mosini qo‘yib yozing (. . . O‘qituvchi bolalar bilan . . . ol-a . . . vol so‘rashgach, darsni boshladi). Alternativ mashq qilish usuli o‘quvchi tafakkurining tanlay olish, topqirlik layoqatini rivojlantiradi.

Alternativ mashq qilish usulidan maktablarda ona tilini o‘zlashtirishning barcha nuqtai nazarlariga bog‘langan holda foydalaniлади. Misol keltiramiz: 1) nuqtalar o‘rniga berilgan jarangli va jarangsiz undoshlarni bildirgan harflardan (-b/p) mosini qo‘yib yozing; 2) nuqtalar o‘rniga jo‘nalish va o‘rin-payt kelishigi qo‘srimchalaridan (-ga/da) mosini qo‘yib yozing; 3) nuqtalar o‘rniga tinish belgilariдан (:/-) mosini qo‘yib, matnni ko‘chiring va shu kabilar. Alternativ mashqlar testning eng sodda ko‘rinishidir.

Yuqorida mashqning mazmuni, maqsadi, funksiyasi, mashq qilish usullari uning invariantlari sifatida **tahlil** etildi.

Lingvistik mashqlarning qurilishini, ularning qanday invariantlardan iborat ekanligini bilish yoshlar ma‘lumoti

va ta’limi bilan mashg‘ul kishilarning barchasi uchun zarur.

Darslik mualliflari lingvistik mashqlar tizimini aniqlashda invariant qismlarga asoslanib, ularning mazmunini aniqlaydi, shu mazmunning o‘quvchilar uchun optimalligini belgilaydi, mashqlarning maqsadini oydinlashtiradi, ularning bolalar faoliyatida bajaradigan ishini oldindan qayd etadi, mashq tizimida o‘quvchi faoliyatini takrorlash miqdorini qayd etadi, u yoki bu axborotni to‘liq o‘zlashtirish me’yorlarini ishlab chiqadi, mashqni bajarish usullarini rejalashtirib darslik tuzadi.

Mashqning invariantlari o‘qituvchilar uchun ham xizmat qiladi: ulardan foydalaniб, aynan olingan mashq qaysi mavzularga oidligi aniqlanadi, u yoki bu mashqi vositasida ta’lim jarayonining qanday didaktik maqsadini amalga oshirishni rejalashtiradi, mashqning ta’lim jarayoni bosqichlari bilan aloqadorligini, uni qanday yo‘l bilan hal etish mumkinligini oldindan loyihalashtiradi.

Mashq invariantlari o‘quvchilar uchun ham ahamiyatga ega: o‘quvchi mashqning mazmunini hisobga olib, uning qaysi mavzu, paragrafga mansubligi to‘g‘risida o‘ylaydi, o‘z faoliyatidan mashq qilishga daxldor bilimni ajratadi, mashq qilishga oid o‘z maqsadini oldindan his qiladi, maqsadga erishish yo‘lini belgilaydi. Binobarin, lingvistik mashqlarning qurilishini o‘rganish metodist olimlar, maktab o‘qituvchilari va o‘quvchilari uchun ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga molik.

### **3-fasl. Lingvistik mashqlarning tiplari**

Lingvistik mashq o‘tkazish uchun tuzilgan o‘quv topshiriqlari shartida qo‘llangan nutq vositalari (darak, so‘roq, buyruq gaplar) topshiriq matnida keltirilgan til dalillari, ularni berish tartibi, mashq qilishda o‘quvchilar faoliyatining ishtiroki, o‘rganilayotgan mavzu, u yoki bu mashqdan darsning qaysi bosqichida foydalananish mumkinligini e’tiborga olib bir mashq ikkinchisidan farqlanadi.

Binobarin, mashqning nutq jihatdan shakllanganligi, o'quvchilar faoliyatining ishtiroki, mashqning mazmuni, dars bosqichlariga bog'liqligi lingvistik mashqlarni tasnif etishning o'lchovlari sanaladi.

**Nutq shakllariga ko'ra lingvistik mashq tiplari.** Mashq o'tkazish uchun tuzilgan o'quv topshiriqlari shartida darak, so'roq, buyruq gaplardan foydalaniladi. Ular vositasida o'quv materiali (ta'rif, qoida, aniqlik) bir shakldan ikkinchi shaklga (o'quv topshirig'i ko'rinishiga) olib kelinadi. Topshiriq shartida qo'llangan nutq vositalari o'ziga xos qo'zg'atgich bo'lib, o'quvchilarni faoliyatga undaydi. Mashq qilish uchun topshiriq shartida qo'llanilgan nutq vositalari, dalillarning berilish tartibiga qarab lingvistik mashqlarning quyidagi tiplari farqlanadi.

*Evristik shakllangan mashqlar* — bunday mashqlar o'quvchilar faoliyatining topqirlik layoqatini ko'zlab tuziladi. Evristik shakllangan mashqlarning shartida darak, so'roq, buyruq gaplardan foydalaniladi. Misol keltiramiz:

**1-topshiriq.** O'qing (odobli, o'quvchi, kitob, bola, a'lochi, chaqqon). Oltita so'z berilgan. Shu so'zlarni qanday belgilarga ko'ra, ikki guruhgaga ajratib yozish mumkin?

Evristik shakllangan mashqlarni bajarishda bolalar oldin so'zlarni guruhlarga ajratish belgilari — ma'nolari, so'roqlarini topishadi, so'ngra o'zları topgan belgilariga rioya qilib, otlarni, sifatlarni alohida guruhlarga ajratishadi.

*Adaptiv shakllangan mashqlar* — bunday mashqlar uchun tuzilgan topshiriqlarning shartida darak, buyruq mazmunidagi gaplardan foydalaniladi, shuningdek, ularda mashq qilish tartibi ham ko'rsatiladi. Bu ko'rinishdagi mashqlar o'quvchilar faoliyatiga moslashtiriladi, mashqni bajarish yo'li ham aytildi. Misol tariqasida birinchi topshiriqni adaptiv shaklga keltiramiz.

**2-topshiriq.** Oltita so'z berilgan (...). Oldin otlarni, so'ngra sifatlarni yozing.

Agar evristik shakllangan topshiriqlar asosida mashq qilishda ijod elementlari, binobarin, tafakkur ham ishtirok etsa, adaptiv topshiriq bo'yicha mashq qilish xotiraga mo'ljallanadi. O'quvchi oldin o'rganilgan bilimlarni ayni holatda «ot», «sifat» haqidagi tasavvurlarni qo'llab mashq qilishadi.

*Noadaptiv shakllangan mashqlar* — bunday mashq qilish uchun tuzilgan o'quv topshiriqlari shartida buyruq gaplar ishlataladi, ular o'quvchilar faoliyatiga moslashtirilmagan, mashq qilish tartibi ham ko'rsatilmaydi. Ular ham asosan, xotiraga mo'ljallab tuziladi, mashq o'rganilgan bilimlarni berilgan o'quv holatiga tatbiq qilish yo'li bilan o'tkaziladi. Ona tili darsliklaridagi aksariyat mashqlar noadaptiv shakllangan topshiriqlar asosida o'tkaziladi. Noadaptiv shakllangan mashqlarga misollar keltiramiz.

**3-topshiriq.** O'qing. Nuqtalar o'rniga mos so'z (bo'g'in, harf) qo'yib ko'chiring.

**4-topshiriq.** Matnni o'qing. Tarkibida sifatdosh qatnashgan gaplarni ajratib yozing.

Alternativ shakllangan mashqlar — bu ko'rinishdagi mashqlar uchun tuzilgan o'quv topshiriqlari matnda berilgan ikki imkoniyatdan to'g'risini tanlash talab etiladi. Shunday mashqlar o'quvchilarda alternativ fikrlashni o'stiradi. Misol keltiramiz.

**5-topshiriq.** Nuqtalar o'rniga «x» va «h» harflarining mosini qo'yib yozing.

M.e. . . (x/h)monlar bir-biri bilan (.ol-a.. (x/h) vol so'rashishdi.


*Test shaklidagi topshiriq* — bu berilgan javoblar orasidan to'g'risini yoki eng to'g'risini tanlash yo'li bilan o'tkaziladigan mashqdir. Test topshirig'ida 4 yoki 5 javob bo'lib, shulardan faqat bittasi to'g'ri bo'ladi. Namuna keltiramiz.

Tarkibida sinonimlar qo'llangan gapni ko'chirib yozing.


- A.Chol-kampir dalaga chiqdi.  
 B. Toshni ottan uzoqqa ot.  
 C. Xalq g'amida tepmagan yurak qalb emas.  
 D. Bolalar katta baliq ushlashdi.  
 E. Saharda yo'lga tushdik.

**Algoritm shaklidagi mashqlar** — bunday mashqlar o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi. Shunday mashq o'tkazishga mo'ljallab tuzilgan topshiriqda fikrlash bosqichlari ham beriladi. Namuna uchun metodist olim N.Shukrullayev tuzgan algoritmlardan bittasi keltirildi:


1. Gapni o'qing. U bir asosdan yoki ikki asosdan iboratmi?



2. Qo'shma gapning bir qismi ikkinchisiga ergashadimi?



3. Qo'shma gap uzvlari teng bog'lovchi yoki intonatsiya vositasida o'zaro bog'langanmi?



**O'quvchilar faoliyatiga ko'ra lingvistik mashq tiplari.** Ta'lif sharoitida bolalarning o'quv-biluv faoliyati o'r ganilgan bilimlarni qayta esga tushirish, ijod qilish shakllarida amal qiladi. O'r ganilgan bilimlarni qayta esga tushirish — u yoki bu mavzuda mashq qilish jarayonida zaruriy bilimlarni takrorlash, faollashtirish demakdir. Ijod qilish yo'li bilan fanda mavjud, ammo o'quvchilar uchun subyektiv yangilik bo'lgan bilimlar, faoliyat usullari o'r ganiladi. O'quvchilar faoliyatiga ko'ra lingvistik mashqlarning quyidagi tiplari farqlanadi.

**O'r ganilgan bilimlarni esga tushirish yo'li bilan o'tkaziladigan mashqlar.** Bu tipdagi mashqlar xotiraga mo'ljallab o'tkaziladi. Bilimlarni qayta esga tushirish yo'li bilan bajariladigan mashqda o'quvchi qator bosqichlarga rioya qiladi: 1) **mashq mavzusini esga tushirish.** O'quvchi mashq qilish mavzusini qancha ongli eslasa, mashq shuncha samarador kechadi; 2) **mashq uchun zaruriy bilimlarni faollashtirish.** Bilimni faollashtirish — bu o'zlashtirilgan bilimlar orasidan aynan u yoki bu mashq uchun kerakli bilimni tanlash demakdir; 3) **faollashtirilgan bilimni berilgan o'quv holatiga tatbiq etish.** Bilimlarni o'quv holatiga tatbiq etish vositasida ko'nikmalar shakllana boshlaydi. Binobarin, bilim o'quv holatlariga qancha ko'p tatbiq qilinsa, ko'nikmalar shuncha rivojlanib, malakaga aylanadi; 4) **mashq natijasini aniqlash.** Mashq natijasini aniqlash — bu erishilgan natijani mashq qilish jarayonidan ajratish imkoniyatini beradi.

**O'r ganilgan bilimlarni qayta eslab qilinadigan mashqlarning o'zi ikki turli bo'ladi:** a) **bilimlarni o'xshash, tanish sharoitlarga tatbiq etish.** Masalan, «ot»ning ta'rifi, so'roqlari o'r ganilgach, quyidagi topshiriqlar asosida mashq o'tkazish mumkin: berilgan so'zlar orasidan otlarni ajratib yozish, otlarga misollar o'ylab topish, berilgan «ot»lar ishtirokida gap tuzish, berilgan so'roqqa (masalan, kim?) mos otlar topib yozish

va shu kabilar. Shu xildagi topshiriqlar asosida o'tkaziladigan mashqlar vositasida o'rganilgan bilim o'xhash sharoitlarga tatbiq etiladi. Bilimlarni o'xhash sharoitlarga tatbiq etish yo'li bilan o'tkaziladigan mashqning mohiyati ruscha «trenirovka» tushunchasiga mos keladi. Trenirovka uchun mo'ljallangan mashqlarda ijod elementlari bo'lmaydi; b) **bilimlarni yangi, noo'x-shash sharoitlarga tatbiq etish.** Masalan, yuqoridagi mavzu o'rganilgach, bolalarga shunday topshiriqlar berildi, deb tasavvur qiling: otlarning ta'rifi, so'roqlaridan foydalanim, biror badiiy matn tarkibidagi otlar barcha so'zlarning necha foizini tashkil etishni aniqlash; bolalarning o'zlar o'qigan oynoma, ro'znomalardan ot so'z turkumiga doir so'zlar izlab topish; ma'lum mavzuga oid berilgan so'zlar (masalan, do'st; o'rtoq, yor-birodar, inoq, suhbатdosh, fikrdosh) ishtirokida bog'li nutq tuzish. Bu xil topshiriqlar asosida o'tkaziladigan mashqlarda ham xotira, ham tafakkur, binobarin, ijod elementlari ishtirok etadi. Zero, bilimlarni yangi-yangi sharoitlarda sinab ko'rish bolalar tafakkuri bilan uzviy bog'langan.

**O'quvchilar tafakkuriga mo'ljallangan mashqlar.** Bu xildagi mashqlarni o'tkazish yo'li bilan bolalar yangi bilimlarni, yangicha faoliyat usullarini ijodiy o'zlash-tirishadi. Ijodiy mashqlarning xususiyatlarini tavsiflash maqsadida «Ot» so'z turkumi mavzusida tuzilgan topshiriqlar tizimini keltiramiz.

**1-topshiriq.** Sinfni kuzating. Kimlarni, nimalarni ko'rayapsiz? Ularning nomini yozing.

**2-topshiriq.** O'zingiz yozgan so'zлarni yana bir bor o'qib chiqing. Shu so'zлarni qanday qilib ikki guruhgaga ajratish mumkin?

**1-topshiriq** asosida mashq qilish yo'li bilan «yon atrofimizni turli-tuman narsalar o'rab olgan. Atrofimizni o'rab olgan narsalarni predmet deb ataymiz» kabi mulohazalardan keyin narsaning nomini bildirgan so'zlar

ot deyiladi» degan ta’rif chiqariladi. Chiqarilgan xulosa otning ta’rifi bo‘lib, u bolalarning o‘quv-biluv faoliyati mahsulidir. Binobarin, o‘quvchilar ijod qilish orqali yangi bilimni ta’lim sharoitida kashf etishadi.

2-topshiriq bo‘yicha mashq qilinganda, kuzatish asosida yozilgan so‘zlar kim? nima? so‘roqlari vositasida ikki guruhga ajratiladi. Otlarni kim? nima? so‘roqlari vositasida ikki guruhga ajratish yangicha faoliyat usulidir. Yangicha faoliyat usulini egallash ham ijod mahsulidir.

**Mazmuniga ko‘ra lingvistik mashqlarning tiplari.** Mazmuniga binoan lingvistik mashqlar rang-barang bo‘lib, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratamiz: tilni nazariy o‘zlashtirish mashqlari; nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga oid mashqlar.

Maktab ta’limida tilning uch tomoni — fonetika, leksika, grammatika bo‘yicha o‘quv dasturlarida ko‘zda tutilgan nazariy bilimlar o‘rganiladi. Shu bilimlar mohiyatidan kelib chiqib, lingvistik mashqlarning uch tipini ajratamiz.

**Fonetik mashqlar.** Nutq tovushlari, unli va undosh, jarangli va jarangsiz undoshlar, bo‘g‘in, bo‘g‘in turlari (ochiq va yopiq bo‘g‘inlar), urg‘u mavzulariga oid mashqlar sirasiga kiradi. Misol keltiramiz.

**1-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga mos tovushlarni qo‘yib, so‘zlarni o‘qing. Darax. . . , sus. . . , g‘ish. . . , qan. . . , kish. . . , pish. . . , balan. . . , do‘s. . . , pas. . . , monan. . . , pisand. . . , mush. . . ,

**Leksik mashqlar.** So‘z ma’nolari, so‘zning o‘z va ko‘chma ma’nolari, ko‘p ma’noli so‘zlar, so‘z va termin hamda ularning o‘xhash va farqli tomonlari, antonim va sinonimlar, omonimlar, lug‘at boyligi, o‘zbek tili leksikasining boyish manbalari kabi nazariy bilimlarni o‘rgatish, mustahkamlash maqsadida leksik mashqlardan foydalilanildi. Misol uchun antonimlar bo‘yicha mashq qilishga mo‘ljallab tuzilgan topshiriqni keltiramiz.

**2-topshiriq.** Ko‘chiring. Antonimlarning tagiga chizing.

Bir shirin so‘z odamga,  
Asal bo‘lib tuyular.  
Bir achchiq so‘z olamga  
Zahar bo‘lib tuyular.

*Po ‘lat Mo ‘min.*

**Grammatik mashqlar.** Grammatik mashqlar dastlab ikki guruhga ajraladi: morfologik mashqlar, sintaktik mashqlar.

Morfologik mashqlardan so‘zning tarkibi, so‘z yasash, qo‘sishchalar, so‘z turkumlari, mustaqil va yordamchi so‘zlar bo‘yicha nazariy bilimlarni mustahkamlash jarayonlarida foydalaniлади. Turli morfologik hodisalarни — mustaqil va yordamchi so‘z turkumlari, turli morfologik kategoriyalari — turlanish va tuslanish kabi hodisalar bo‘yicha intellektual malakalarni shakllantirishda morfologik mashqlar asosiy omil hisoblanadi. Morfologik mashqlarga misol keltiramiz.

**3-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga qavs ichidagi ot yasovchi qo‘sishchalardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Yomonning bir qil. . (-iq,-ik, -ig‘)i ortiq.

Sintaktik bilimlar asosida gap, so‘z birikmasi, gapning ifoda maqsadiga ko‘ra turlari, gap bo‘laklari, sodda va qo‘shma gaplarga oid intellektual malakalarni shakllantirishda sintaktik mashqlardan foydalaniлади. Misollar:

**4-topshiriq.** Nuqtalar o‘rniga to‘ldiruvchilar topib qo‘ying.

Odamning yuzi . . . issiq. Nodon kishi. . . bino qo‘yar.

**5-topshiriq.** Berilgan ko‘chirma gaplarni o‘zlashtirma gaplarga aylantiring.

1. «Xalq g‘ayrat qilsa, umidi tush bo‘lib qolmaydi», — dedi Sayramov ma’nodor kulib.

2. «Bug‘doy noning bo‘lmasin, shirin so‘zing bo‘lsin», — deydi dono xalqimiz.

Tilning fonetika, leksika, grammatikasiga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, o'quvchilarda grafik, orfografik, orfoepik, uslubiy, punktuatsion, prosodik malakalar ham shakllantiriladi.

**Grafik mashqlar** asosan, boshlang'ich sinflarda o'tkaziladi. Bolalar harflar ustidan ruchka yuritish, nuqtalarni birlashtirib harf elementlarini, harflarni yozish, berilgan namunalarga qarab harflarni ko'chirishga oid mashqlar qilishadi.

**Orfografik mashqlar** tilning fonetik, leksik, morfologik, sintaktik hodisalariga bog'liq holda tashkil etiladi. Bunday mashqlar vositasida ham fonetika yoki morfologiyadan o'zlashtirilgan bilimlar mustahkamlanadi, ham orfografik malakalar hosil qilinadi.

**6-topshiriq.** So'zлarni bo'g'inlarga ajratib, chiziqcha bilan yozing.

Murabbo, murabbiya, minnatdor, tashabbuskor, ziddiyat, farzand, zabardast, bahramand, tonggi, tingla, alanga, ingichka, ingramoq, mingoyoq, daryo.

Bu topshiriq asosida mashq qilinganda fonetikadan o'r ganilgan bilimlar mustahkamlanib, orfografik malakalar yanada rivojlantiriladi. Shu tufayli, uni fonetik-orfografik mashq shaklida qaraymiz. Xuddi shunday, leksikadan o'r ganilgan bilimlarni mustahkamlash va orfografik malakalarni shakllantirish xarakteridagi mashqni leksik-orfografik mashq sifatida qayd etiladi. Agar mashqda morfologiyaga oid bilimlarni mustahkamlash va orfografik malakalarni shakllantirish ko'zda tutilgan bo'lsa, u morfologik-orfografik mashq sifatida sharhlanadi.

Sintaktik bilimlarga bog'langan holda orfoepik, orfografik, uslubiy va shu kabi malakalar tarbiyalanadi. Shu bilan birga, punktuatsion malakalarni shakllantirishda sintaktik bilimlar asosiy vosita sanaladi. Agar mashq sintaktik bilimlar asosida punktuatsion malakalarni

rivojlantirishga yo‘nalgan bo‘lsa, uni sintaktik-punktuatsion mashq deb ataladi.

Ona tilidan o‘zlashtiriladigan nazariy bilimlar asosida bolalarda prosodik malakalar ham tarkib toptiriladi. Fonetikaga doir bilimlarni o‘zlashtirshda urg‘u, urg‘uli va urg‘usiz bo‘g‘in, faqat birinchi bo‘g‘iniga urg‘u tushadigan so‘zlar urg‘usi ustida ishslash kabilar prosodik malakalarni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Ammo ona tili darsliklarida prosodik malakalarni rivojlantirishga oid mashqlar nihoyatda oz.

Metodist K.Jo‘rayev tuzgan mashqlarni namuna sifatida keltiramiz. Garchand, bu mashqlar ifodali o‘qish mashg‘ulotlariga mo‘ljallab tuzilgan bo‘lsada, ulardan fonetika mashg‘ulotlarida prosodik malakalarni rivojlantirish maqsadida foydalanish mumkin.

1. «I» unlisi talaffuz qilinganda, og‘iz biroz ochiladi. Tilning uchi pastki tishlarga kelib tegadi. Ichingizda beshgacha sanab, «i» tovushini talaffuz eting. Tinglangchi, «i» tovushi yoqimli eshitilarmikan?

2. «E» unlisi talaffuz qilinganda, og‘iz «i» tovushini aytgandagidan kattaroq ochiladi. Oldin «e» tovushini, keyin «i» tovushini, undan keyin «i» va «e» tovushlarini birgalikda to‘rt martadan talaffuz qiling.

3. «A» unlisini talaffuz etganda, og‘iz «e» tovushini talaffuz etgandagidan kattaroq ochiladi. O‘ng qo‘lingizdag‘i besh barmog‘ingizni bukkuncha sanab «a» unlisini cho‘zib talaffuz qiling. «ae», «ea», «ai», «ia» birikmalarini to‘rt martadan talaffuz qiling.

4. «O» unlisini talaffuz etganda, og‘iz keng ochiladi. «oa», «oi», «io», «oe», «eo», «oa» birikmalarini uch martadan talaffuz qiling.

5. «U» unlisini talaffuz etganda, og‘iz o‘rtacha ochiladi. «uo», «ou», «ua», «au», «ui», «iu», «ue», «eu» birikmalarini bir necha martadan aytинг.

6. «О» unlisi talaffuz qilganda, оғиз «үү» unlisini talaffuz qilgandagiga nisbatan torroq ochiladi. «о'ү», «о'i», «io'», «о'o», «oo'», «о'a», «ao'» birikmalarini uch martadan talaffuz qiling.

Yuqorida keltirilgan mashq namunalaridan darslik materiallariga qo'shimcha sifatida foydalanish ko'p vaqt ni olmaydi. Shuningdek, bu xildagi mashqlarni o'quvchilar qiynalmasdan bajara oladi. Unli tovushlar o'tilganda, bu mashqlardan izchil foydalanish o'quvchilarning fonematik eshitishlarini, talaffuzi (diksiya)ni taraqqiy ettiradi, bolalar juda ko'p so'zlarning imlosini «oldindan» — propedevtik o'zlashtiradi. Shu mulohaza-larga ko'ra tajriba o'tkaziladi.

Ta'lanning samaradorligini aniqlash, bolalarning bilimini taqqoslash uchun tajriba va nazorat sinflari ajratildi, Nazorat sinflarida -aa(mudofaa), -ao(maosh), -oa(itoat), -ai(Saida), -oi(doir), -io(shior), -ua(muallim), -uo(matbuot), -ae(aeroport), -ia(diagramma), -au(pauza) kabi qo'sh unli mavjud bo'lgan arabcha, forscha, ruscha so'zlarning talaffuzi, ma'nosи, yozilishi mashg'ulotlarda har doim tushuntirildi. Tajriba o'tkazilayotgan sinfda esa shunday so'zlarning ma'nosigina izohlandi, ammo u so'zlarning talaffuzi va imlosiga o'quvchilar diqqati tortilmadi. Bu sinflarda yuqorida keltirilgan mashq turlaridan har bir mashg'ulotda foydalanildi. Ikkala sinfda unli tovushlar to'liq o'tilgach, quyidagi so'zlar asosida nazorat diktanti o'tkazildi.

So'zlar: Matbaa, maosh, sanoat, mudofaa, Saida, itoat, bois, jamoat, doir, oila, muallim, shoira, matbuot, muammo, muomala, istiora, shoir, Saodat, Ismoil, teatr, dialog, pauza.

Diktant natijasi shuni ko'rsatdiki, nazorat sinf o'quvchilari ma'nosи tushuntirilgan, imlosi va talaffuzi o'rgatilgan so'zlarni xato yozishgan. Tajriba o'tkazilgan sinf o'quvchilari diktant matnidagi so'zlarning barchasini deyarli to'g'ri yozishgan.

Dalillar shuni tasdiqlaydiki, til mashg‘ulotlari o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga mo‘ljallab o‘tkazilsa, mashg‘ulotlarda bolalarning nutq qobiliyatlarini taraqqiy ettirishga qaratilgan mashqlardan foydalanilsa, ona tili ta’limi yanada unumli bo‘ladi, o‘quvchilarning til sezgirligi beqiyos darajada o‘sadi.

Metodik adabiyotlarda til o‘qitishda ikki narsa: nazariy bilimlar va shu bilimlar doirasida hosil qilinadigan malakalar hisobga olinadi. Ammo bolada kishilar bilan aloqa qilish vositasida yoshligidan shakllana boshlagan, mакtabda taraqqiy ettirilishi lozim bo‘lgan uchinchi narsa — nutq qobiliyati e’tibordan chetda qoladi. Shunday o‘qitish tizimini yaratish kerakki, tildan beriladigan nazariy bilim, hosil qilinadigan malakalar, bir tomonidan, bolalarda mavjud bo‘lgan nutq qobiliyatlariga mos bo‘lsin, ikkinchi tomondan, o‘quvchilarning nutq qobiliyatları taraqqiyotiga samarali ta’sir etsin.

Ona tili mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning kuzatuvchanlik qobiliyatini taraqqiy ettirish uchun fonetika darslarida quyidagi prosodik mashq turlaridan foydalanish mumkin.

1. Bir necha kun ikkita o‘rtog‘ingizning nutqini kuzatib yuring. Ular nutqining o‘xhash va farqli tomonlarini ajrating. O‘rtoqlaringizdan qay biri tez, baland ovoz bilan gapiradi? O‘rtoqlaringizdan qay biri past ovoz bilan sekin, ammo burro-burro gapiradi?

2. O‘rtoqlaringizdan birining nutqiga o‘z o‘rtoqlari bilan suhbatlashayotganda, o‘qituvchining savollariga javob berayotganida e’tibor qiling. Shu o‘rtoqlaringizning nutqida erkin suhbatlashayotganida, o‘qituvchi savollariga javob berayotganida qanday o‘zgarishlar bo‘lishini aytib berishga tayyorlaning.

3. Tanaffus paytida sinf xonasidan turib, hovlida o‘ynayotgan o‘rtoqlaringizning ovozini tinglang. Siz eshitgan ovoz kimning ovozi ‘ekanligini ajratib olishga harakat qiling.

4. Kimlarni ovozidan tanisiz?
5. Sinfda eng yaxshi gapiradigan o‘rtog‘ingiz hamda o‘qituvchining nutqiga taqlid etib gapiring.
6. O‘zbek tilida gaplasha oladigan rus, qozoq, tatar, koreys o‘rtog‘ingiz bormi? Shu o‘rtog‘ingiz nutq tovushlaridan qay birini buzib talaffuz etadi? Unga qanday yordam bersa bo‘ladi?
7. Televizordan bolalar uchun beriladigan ko‘rsatuvlarni kuzatib boring. Personajlarning nutqidagi (bo‘ri, quyon) farqlarini ajratishga harakat qiling.
8. O‘qituvchilarning nutqini kuzating. O‘qituvchi biron mavzuni tushuntirayotganda qanday gapiradi? O‘qituvchingiz so‘rash paytida so‘roq gaplarni qanday ohangda aytadi?

Yuqorida o‘quvchilarning kuzatuvchanligini oshirishga qaratilgan mashq namunalari keltirildi. Bu mashqlarning ba’zilaridan sinfda, ba’zilaridan esa uy topshirig‘i sifatida foydalanish mumkin. Kuzatuvchanlik qobiliyatini o‘stirishga oid mashqlar tilni o‘zlashtirishning barcha tomonlariga bog‘lab tashkil etiladi.

**Ta’lim jarayoni bosqichlariga ko‘ra lingvistik mashq tiplari.** Ona tili ta’limi samaradorligini oshirish shartlaridan biri ta’lim vositalarining, jumladan, lingvistik mashqlarning, o‘quv-tarbiya jarayoni bosqichlariga mosligidir. Bundan lingvistik mashqlarni ta’lim jarayoni bosqichlariga ko‘ra tahlil etish, har bir bosqichga mos keladigan mashq tipini belgilash ehtiyoji tug‘iladi.

Ta’lim jarayoni bosqichlari mohiyatini hisobga olib, lingvistik mashqlarning quyidagi tiplari belgilanadi.

**Tayyorlovchi mashqlar** — bu tipdagи mashqlardan yangi mavzuni o‘rganishga kirish qismini tuzish, oldin o‘rganilgan va bugun o‘rganiladigan mavzular o‘rtasida mantiqiy aloqadorlikni ta’minalash, bolalar nutqidagi shu mavzuga oid dalillarni faollashtirish maqsadida foydalaniladi. Yangi mavzuni tushuntirishdan oldin o‘tkazilgan mashqlar faol

ta’lim uchun psixologik holat yaratadi, ta’limning muammoli tashkil etilishini ta’minlaydi, o’rganilayotgan dalillarning o’quvchilar nutqida faollashishiga olib keladi.

***Hamroh mashqlar*** — yangi o’quv materialini bayon qilish (tushuntirish) paytida, shuningdek, yangi mavzuni o’quvchilarning o’zlari mustaqil o’rganayotganda o’tkaziladigan mashqdir. Bunday mashqning mohiyati yangi mavzuga oid bilimlarni idrok etish jarayoni bilan bog’langanligidir. O’qituvchi «Ot» mavzusiga oid bilimlarni tushuntiryapti deb tasavvur qiling. Bilimlarni tushuntirish paytida o’quvchilarga shunday topshiriqlarni berish mumkin: oldin ish qurollarining, keyin o’quv qurollarining nomini eslab yozing; qarindoshlikni bildiradigan so’zlarni yoddan yozing. Bu xil topshiriqlar asosida o’tkaziladigan mashqlarning mohiyati yangi mavzuga oid bilimlarni tushunish jarayoniga hamohangligidadir.

***Mustahkamlash mashqlari*** — bu tipdagи mashqlar ona tili darsliklarida yetarlicha berilgan, ulardan mакtab o’qituvchilari unumli foydalanishadi. Mustahkamlash mashqlaridan yangi mavzu o’rganilgach, o’sha o’quv soatning o’zida foydalaniladi. Ular vositasida o’quvchilar ongida yangi mavzuga oid bog’lanishlar hosil qilinadi. Ongda hosil bo’lgan dastlabki bog’lanishlar ko’nikmalarining shakllanish nuqtasidir.

***Takrorlash mashqlari*** — bunday mashqlardan yangi mavzu tushuntirilgandan keyin tashkil etiladigan darslarda foydalaniladi. Takrorlash tipdagи mashqlar ko’nikmalarni malaka darajasida shakllantirish vazifasini bajaradi. Mashq vositasida takrorlanadigan axborot qancha kichik hajmda bo’lib, tatbiq qilinadigan holatlar qancha rang-barang bo’lsa, malakalar shuncha takomillashib, odatga aylanadi. Demak, bilimlarning rivojlanib, tarbiya darajasiga ko’tarilishida takrorlash mashqlari alohida ahamiyatga ega.

***Umumlashtirishga oid mashqlar*** — bu tipdagи mashqlardan ona tilidan katta bo’lim, mavzu o’tilgach

foydalaniladi. Ular vositasida bilimlar umumlashtiriladi. Masalan, «Ot» so‘z turkumi o‘rganilgach, quyidagicha mashq o‘tkazish mumkin.

Topshiriq. Gaplarni o‘qing. Otlarni topib, namunada-gidek tahlil qiling.

Namuna: Odam baxtni mehnatdan topadi.

Odam —\_bosh kelishikda, turdosh ot, shaxs bildiradi, birlikda, kim? so‘rog‘iga javob bo‘ladi, sodda, tub ot, gapda ega vazifasida kelgan.

Yuqoridagi topshiriq asosida mashq o‘tkazilganda, bolalar atoqli va turdosh otlar, shaxs, ish qurollari, joy otlari, otning so‘roqlari, egalik qo‘srimchalari, son qo‘srimchasi, kelishik qo‘srimchasi, sodda, qo‘shma, juft otlar, otlarning gapdag‘i vazifalari to‘g‘risidagi tasavvurga tayanib mashqni bajarishadi. Bu bilimlarni umumlashtirish, malakalarni odatlar darajasiga ko‘tarish uchun asos bo‘ladi.

#### 4-fasl. Lingvistik mashqlar tizimi

Ta’lim maqsadi bir yoki bir necha mashq vositasida emas, aksincha, ilmiy asoslangan mashqlar tizimini o‘quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Mashqlar to‘plami ochiq tizim bo‘lib, o‘zidan oldin o‘tkazilgan mashqlarning tabiiy davomi, bundan keyin bajariladigan mashqlarning poydevori sanaladi. Binobarin, o‘tkaziladigan mashqlar o‘rtasida vorislikni ta’minalash lingvistik mashqlar tizimini tuzishda rioya qilinadigan yetakchi prinsip hisoblanadi.

Vorislik prinsipiiga tayanib, mashqlar tizimini shakllanti rishda qator talablar nazarda tutiladi. Mashqlarni tizim shakliga olib kelishda uch xil faoliyat xususiyatlari va ularga oid uch xil jarayon hisobga olinadi: **mashqlarni tizimga keltirish faoliyati** — bu darslik mualliflari yoki o‘qituv-chining mashqlar tizimini tuzishga oid faoliyati. Mashqlarni tizimga keltirish konstruktiv jarayon bo‘lib, uning natijasi — mashqlar tizimining optimalligi darslik muallifi yoki o‘qituvchining mahoratiga bog‘liq; **mashqlarni ta’limga**

**tatbiq etish faoliyati.** Bunday faoliyat o‘qitish jarayoni bo‘lib, unda mashqdan ta’limning qaysi bosqichlarida foydalanish zarurligi o‘z aksini topadi. Ko‘rinadiki, mashqlar tizimini shakllantirishda o‘qitish faoliyati xususiyatlari ham inobatga olinadi; **mashq qilish jarayoni — bu o‘quvchining aqliy va amaliy faoliyati** bo‘lib, uning amal qilishi natijasida bilimlar takomillashadi, ko‘nikma va malakalar rivojlanib, tilga munosabat, ijodiy faoliyat taraqqiy etadi. Tuzilajak didaktik loyihada mashqlar tizimida bolalarning mashq qilish faoliyati xususiyatlari ham hisobga olinadi. Didaktik loyihalash jarayoni va loyihalash faoliyati mashqlarni ta’limga tatbiq etish jarayoni va o‘qituvchi faoliyati, o‘qish jarayoni va o‘quvchi faoliyati xususiyatlari asosida lingvistik mashqlar tizimi yaratiladi. Bu jarayonlar va ularga oid faoliyatlarning mohiyatini bilmasdan turib, lingvistik mashqlar tizimini asoslash mumkin emas. Shu tufayli ularni alohida-alohida **tahlil** etish zarur.

**Didaktik loyihalash jarayoni va loyihalash faoliyati.** Didaktik loyihalash jarayoni o‘rganiladigan o‘quv materiallarini bola larbop qilib qayta qurishdir. Didaktik loyihalash boshqa jarayonlarga o‘xshab uch elementdan iborat: **loyihalashga oid faoliyat, loyihalash vositasi, loyihalash predmeti.** Shu elementlarning o‘zaro ta’siri natijasi o‘laroq, loyihalovchi istagan (ko‘zda tutilgan) didaktik loyiha-mashqlar tizimi shakllanadi.

Didaktik loyihalash, avvalo, inson ongingin antisipirik<sup>18</sup> — oldindan ko‘ra bilish, payqay olish qobiliyati bilan bog‘liq. Shu tufayli loyihada-mashqlar tizimida uch xil belgi ajratamiz: tatqiq qilish, ta’limni amalga oshirish, ta’limni boshqarish. Yanada ommaboproq aytganda, loyiha vositasida ta’lim jarayonining qonuniyatlarini

<sup>18</sup> Antisipirik — lotincha «anticipatio» so‘zidan olingan bo‘lib, oldindan ko‘ra bilish, payqay olish ma’nolarini anglatadi.

o'rganiladi, ta'limning maqsadi amalga oshiriladi, bolalarning faoliyati tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi.

Loyihada — mashqlar tizimida o'quvchi va o'qituvchi faoliyati moddiylashtiriladi. O'qituvchi va o'quvchi faoliyatining tashqi va ichki xususiyatlarini hisobga olish loyihalovchining mahoratiga bog'liq.

Ona tilidan o'quv materiallarini mashqlar tizimi shakliga olib kelishda qator talablarga rioya qilinadi: mashqlar to'plamining o'quv materiallari mazmuniga tengligi-adekvatligi (1); to'plamga kiritilgan mashqlarning bir-birini to'ldirish (2); mashqlarning murakkabligi, qiyinligini oshira borish (3); to'plamda ijodiy va standart mashqlar miqdorining yetarliligi (4); mashqlar to'plamining bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga yaroqliligi (5); mashqlar miqdorining yetarliligi (6).

**Mashqlar to'plami va o'qitish faoliyati.** O'qitish faoliyati nuqtai nazaridan mashqlar tizimi ona tili darsliklarida berilgan o'quv topshiriqlariga muvofiq belgilanadi. Zero, darslikka kiritilgan o'quv topshiriqlari asosida o'qituvchi sinf o'quvchilarining mashq bajarishlarini tashkil etadi.

Darslikka kiritilgan o'quv topshiriqlari vositasida bolalarning mashq qilishini tashkil etishdan oldin o'qituvchi ularning ta'lim jarayoni sikllari, dars tiplari va bosqichlariga mosligini o'rganishi, ulardan izchil foydalanish yo'llarini belgilashi zarur. Shuningdek, bolalar bajaradigan mashqlar o'rtaida vorislik o'rnatmasdan turib, ta'limning samaradorligini oshirib bo'lmaydi. Bajarilgan, bajarilayotgan va bundan keyin bajariladigan mashqlar o'rtaida aloqadorlikni ta'minlash, o'qituvchining mohirligiga bog'liq. Qilinadigan mashq bolalarning real o'quv imkoniyatiga mos bo'lganda, istalgan samarani beradi. Darslikka kiritilgan o'quv topshiriqlari to'plami asosida zarur mashqni tezkorlik bilan tanlay olish, o'qituvchining vaqtini, uning jismoniy va aqliy yumushlarini tejashga olib keladi.

Darslikka kiritilgan o'quv topshiriqlari to'plami asosida mashqlar tizimini o'tkazishda o'qituvchi faoliyatiga quyidagicha talablar qo'yiladi: mashqlarning ta'lim jarayoni zvenolari, dars tipi, dars bosqichlariga mosligi (1); mashqlardan izchil foydalanish (2); mashqlar o'rtasida vorislik o'rnatish (3); mashqlarning bolalar tayyorgarligiga mosligi (4); kerakli mashqni zudlik bilan topish (5); vaqtini tejash (6).

**Mashq qilishda o'quvchi faoliyatiga qo'yiladigan talablar.** Bolalarning mashq qilishi uchun topshiriqlar tizimini tuzuvchi (masalan, darslik muallifi) ham, mashq qilishga oid bolalar faoliyati tashkilotchisi — o'qituvchi ham o'z mehnatini o'quvchilarga mo'ljallab tashkil etadi. Mashq o'tkazishning natijasi bolalarda shakllanadi. O'quvchilar nuqtai nazaridan ham mashq qilish jarayoniga qator talablar qo'yiladi: mashqning o'quv materialini o'zlashtirish logikasiga mosligi (1); o'quv materialini sistem o'zlashtirish (2); bajariladigan mashqlarning o'zaro aloqadorligi (3); mashqlarning bolalar uchun yetarli darajada murakkabligi va qiyinligi (4); qayta eslash va ijodiy faoliyatni bir xil-teng takrorlash (5); bolalar vaqtini tejash (6).

**Mashqlar tizimining optimalligi.** Mashqlar tizimining o'quv materiallari mazmuniga, ta'lim jarayoni bosqichlariga, bolalarning real o'quv imkoniyatlariga mosligi o'tkaziladigan mashqlarning samaradorligini oshirish omillari sanaladi. Ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad bilan mashq qilish orqali erishilgan natija o'rtasidagi tafovut samaradorlik hisoblanadi. Binobarin, qo'yilgan maqsad va natija o'rtasidagi farq qancha oz bo'lsa, mashq qilish jarayoni shuncha samarali kechadi.

Mashqlar tizimini shakllantirishda muallif (mashqlar tizimini tuzuvchi), mashqni ta'limga tatbiq qiluvchi — o'qituvchi, uni bajaruvchi — o'quvchi faoliyatiga qator talablar qo'yiladi. Shunday talablar quyidagi jadvalda keltiriladi. Mashqlar tizimini tuzuvchining ham mashqlarni

ta’limga tatbiq qiluvchining ham diqqat markazida o‘quvchi faoliyati yotadi. Shu tufayli jadvalning markazida o‘quvchi faoliyatiga qo‘yilgan talablar keltirildi.

Muallif faoliyati	O‘quvchi faoliyati	O‘qituvchi faoliyati
1. Mashqlar tizimi-ning o‘quv material-lari mazmuniga adekvatligi.	1. Mashqlarning o‘zlashtirish logikasi mosligi.	1. Mashqlarning ta’lim jarayoni bos-qichlariga muvofiq-ligi.
2. Tizimga kiritilgan mashqlarning bir-birini to‘ldirishi.	2. O‘tkaziladigan mashqlar o‘rtasida vorislik.	2. Mashqlarning o‘zaro bog‘liqligi.
3. Mashqlarning murakkabligi va qiyinligi	3. O‘quvchi faoliyati-ning intensivligi.	3. Murakkab va qiyin mashqlardan yetarli foydalanish.
4. Tizimda ijodiy va standart mashqlar-ning yetarli miqdorda mavjudligi.	4. Ijodiy va qayta eslash faoliyatini rivojlantirish.	4. Ijodiy va qayta eslash faoliyatini tep-pa-teng tashkil etish.
5. Bilim, malaka va ijodiy faoliyat tajri-basini takomillash-tirishga yaroqligi.	5. Dastur talablari darajasida o‘quv ma-teriallarni o‘zlash-tirish.	5. Zarur (ijodiy va noijodiy) mashqlarni zudlik bilan topish.
6. Mashqlar miqdori-ning yetarliligi.	6. Tezkorlik bilan mo‘ljallangan nati-jaga erishish.	6. Vaqt ni tejash.

Jadvalni gorizontal tahlil qilib, mashqlar tizimining optimalligini ta’minlovchi talablarni qayd etish mumkin. Mashq qilish subyektiv hodisa, shuningdek, uning natijasi ham mashq qiluvchi — o‘quvchida shakllanishini hisobga olib, quyidagi qoidalarni me’yoriy talab shaklida yozamiz.

1. Mashqlar tizimining o‘quv materiallari mazmuniga adekvatligi va ta’lim jarayoni bosqichlariga muvofiqligi, mashqning o‘zlashtirish logikasiga mosligini ta’minlaydi.

2. Mashqlarning bir-birini to'ldirishi va bog'liqligi mashqlar o'rtaсидаги ворисликка олиб келди.

3. Mashqlarning murakkabligi, qiyinligi, o'quvchilar faoliyatining intensivligini (aqliga zo'r berib ishlashini) ta'minlaydi.

4. Ijodiy va standart mashqlar vositasida o'quvchilarning ijodiy va qayta eslash faoliyatini bir xil (teppa-teng) tashkil etish o'quvchilarning tafakkuri hamda xotirasini o'stiradi.

5. Mashqlarning ta'lim mazmuni elementlari (bilim, malaka va ijodiy faoliyat tajribasi)ga mosligi va zaruriy mashqni tezkorlik bilan topish imkoniyatining borligi o'quv materiallarini dastur talablari darajasida o'zlashtirishga олиб келди.

6. Mashqlar miqdorining yetarliligi va vaqtni tejash, bolalarning qisqa muddatda ko'zlangan natijaga erishuviga sabab bo'ladi.

**Mashqlar tizimini tuzish bosqichlari.** Ona tilidan u yoki bu mavzuda lingvistik mashqlar tizimi davlat ta'lim standartlari (dastur, ajratilgan o'quv soatlari, mavzu bo'yicha o'rganiladigan bilim, malaka, o'quv materiallarini o'zlashtirish darajalari va shu kabilar) talablari asosida tuziladi. Bunda quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi.

**1-bosqich:** o'quv materiallarini tahlil qilish bosqichi. Bu bosqichda o'quv dasturida berilgan bilimlar yetarlimi, ular darslikda qanday aks etgan, ta'limga yangi axborotlarni олиб kirish zaruriyati bormi, o'quv axborotlarining darslikda berilish tartibi ma'qulmi yoki o'quv axborotlarining tartibini o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladimi kabi qator savollar xususida o'ylab ko'rildi. Shuningdek, bu bosqichda darslikda berilgan mashqlarning o'quv materiallari mazmuniga, ularni o'zlashtirish logikasiga mosligi o'rganiladi.

**2-bosqich:** o'quv materiallari bo'yicha bilim, malakalarini aniqlash. Masalan, «Undalma» mavzusida mashqlar tizimi tuzilganda, undalma haqidagi bilimlar asosida hosil

qilinadigan malakalar hisobga olinadi. «Undalma» mavzusidagi bilimlar beshta o‘quv elementi o‘quv materialining pedagogik jihatdan ishlov berilgan eng kichik birligi bo‘lib, ular «Undalma» mavzusida quyidagi birliliklardan iborat.

1-element — undalmaning ta’rifi (so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildirgan bo‘lak undalma deyiladi).

2-element — sodda va murakkab undalmalar (bir so‘zdan iborat undalma-sodda; ikki yoki undan ortiq so‘zdan iborat undalma murakkab).

3-element — undalmalarning gapdagi o‘rni (gapning boshi, o‘rtasi va oxirida kelgan undalmalar).

4-element — undalmalarda tinish belgilari.

5-element — undalmalarni o‘qish texnikasi.

O‘quv elementlarining ko‘pligi nuqtai nazardan «Undalma» mavzusi murakkab o‘quv materiali sanaladi.

Ona tiliga oid o‘quv materiallari, jumladan, «Undalma» mavzusida ham, o‘rganiladigan bilimlar asosida shakllantiriladigan malakalar ikki turli bo‘ladi: intellektual malakalar — so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildirgan bo‘lakning undalma ekanligini fahmlash (1); sodda va murakkab undalmalarni bir-biridan farqlash (2); undalmalarning gap boshi, o‘rtasi, oxirida kelgan holatlarini ajrata olish (3); muskul harakati malakalari — undalmalarni gap tarkibida topib ko‘rsatish, o‘qish, talaffuz etish (1); sodda va murakkab undalmali matnlar tuzish (2); turli pozitsiyalarda (gapning boshi, o‘rtasi, oxirida) undalmalarda qo‘lla niladigan tinish belgilarini to‘g‘ri ishlatish (3).

**3-bosqich:** undalmalarni o‘zlashtirish darajalarini aniqlash. Undalmalarni o‘zlashtirishning uch darjasini mavjud: 1-daraja — undalmalarni ko‘nikma darajasida o‘zlashtirish. Bunda bolalar o‘quv materialining asosiy xususiyati bilan dastlab tanishadi, bilimlarni mustahkamlaydi; 2-daraja — undalmalarni malaka darajasida

o‘zlashtirish. O‘rganilgan bilimlarni esga tushirish va ularni turli o‘quv sharoitlariga tatbiq etish ko‘nikmalarining malaka darajasiga ko‘tarilishga olib keladi. Malaka — bu avtomatlashgan ko‘nikmadir; 3-daraja — undalmaga oid bilimlarni, faoliyat usullari (berilgan undalmalarni topish, tayanch so‘zlarni undalma vazifasida qatnashтирib nutq tuzish, undalmalarda tinish belgilarni ishlatiш va shu kabilar)ni tushuncha darajasida o‘zlashtirish.

**4-bosqich:** «Undalma» mavzusida bolalarning mashq qilishlarini tashkil etishga oid o‘quv topshiriqlarini aniqlash. Mashq qilish uchun o‘quv topshiriqlari tuzish jarayonida quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

A. Nutq shakllariga ko‘ra evristik, adaptiv, noadaptiv, alternativ ko‘rinishdagi o‘quv topshiriqlari miqdorini aniqlash.

B. Tuziladigan o‘quv topshiriqlari tizimida o‘quvchilarning ijodiy va qayta xotirlash faoliyatini hisobga olish.

D. O‘quv materiali mazmuniga ko‘ra topshiriqlarning turlarini aniqlash. «Undalma» mavzusi yuzasidan quyidagi o‘quv topshiriqlarini tuzish ma’qul: 1) **sintaktik xarakterdagи topshiriqlar**. Bu xildagi topshiriqlar asosida mashq o‘tkazilganda, undalmalarning sintaktik xususiyatlari tahlil qilinadi; 2) **sintaktik-punktuatsion ko‘rinishdagi topshiriq**. Shu xildagi topshiriq asosida mashq o‘tkazish yo‘li bilan undalmalarda tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llash malakalari rivojlantiriladi; 3) **sintaktik-prosodik ko‘rinishdagi topshiriq**. Bunday topshiriqlar ustida mashq qilish orqali o‘quvchilar undalmalarni nutqda to‘g‘ri ijro etishni o‘zlashtirib olishadi.

«Undalma» mavzusi yuzasidan mashq qilishga oid o‘quv topshiriqlari tizimi.

**1-topshiriq.** Namunadan foydalanib berilgan holatlarga mos keladigan undalmali gaplar tuzing. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni aniqlab, undalmaga ta’rif berishga tayyorlaning (Bolalarni tabriklayotgan bobo, cho‘kayotgan odam, qushlarga don sepayotgan bola,

buvisini tabriklayotgan nevara, ust-boshi ho'l bo'lgan kishining yomg'irga murojaati, shamolga yolvora/otgan odamning gapi).

Namuna: Ey xayol, uzoqlarga olib ketma!

**2-topshiriq.** Berilgan holatlarga mos keladigan oltita gap tuzing (Bolalar, bilim manbai kitobni seving. Odamlar, cho'kayapman, qutqaringlar! Hoy qadrdon qushlarim, don yeng. Mehribon buvijon! Sizni tabriklayman. Hoy yomg'ir, yana shiddat bilan yog'. Ey shamol, salomimni do'stimga yetkaz). Shu gaplarni qanday qilib ikki guruhga ajratish mumkin?

**3-topshiriq.** Matnni o'qib undalmali gaplarni ko'chirib yozing.

*Qani ayt, maqsading nimadir sening,  
Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang.  
Nechun kerak bo'ldi senga ko'z yoshim,  
Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am!*  
(A.Oripov)

**4-topshiriq.** Berilgan tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib «Bahor» mavzusida bog'li nutq tuzing.

Bahor, lola, yoqimli shabada, qalb.

**5-topshiriq.** Gaplarni o'qib, ega va undalmalarni toping. Undalmalarning o'rnini aniqlab, qanday o'qilishini tushuntiring. Tinish belgilarni qo'yib ko'chiring.

Oyqizim Ko'kbuloq suvlari bizdan oldin qishloqqa kirib boradi.

Bilim eng qimatbaho boylik, o'g'lim. Vatan mustaqilligi Aziz bolalar sizning qo'lingizda.

**6-topshiriq.** Berilgan gaplarga undalmalar kiritib yozing. Qaynatilmagan suvni ichmang.  
Mo'l hosilingiz muborak bo'lsin  
Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman.

**7-topshiriq.** Berilgan uch holatga mos qisqa nutq tuzing. O'zingiz tuzgan nutq matnlarida undalmalar ishtirok etsin.

1. Mehnat faxriysining bolalarga murojaati.
2. Jamoa xo'jaligi raisining nutqi.
3. Boboning nevaralariga nasihatni.

**8-topshiriq.** Partadosh o'rtog'ingiz bilan undalmalarni qatnashтирib (masalan, kitob) suhbat o'tkazing. O'tkazilgan suhbatning matnini tuzib, undalmalarni o'qish, tinish belgilarini ishlatish qoidalarini so'zlab berishga tayyorlaning.

**9-topshiriq.** Badiiy matnlarni o'qib undalmalardan topib o'qing, ularning ta'rifini eslang, gapdag'i o'rinlarini aniqlang, tinish belgilarni qo'yib ko'chiring.

1. *Ey dil o'zingga ilmu adabni shior tut!*  
*Axloqu ilmsizdan o'zingni kanor tut.*

(*Xurshid*)

2. *Ey Navoiy, boda birla xurram et ko'nglim o'yin,*  
*Ne uchunkim, boda kelgan uyga qayg'u kelmadi.*

(*A. Navoiy*)

3. *Ey Farg'ona, mushkul kunlar bolasini tishida tishlab,*  
*Ey, baxtlarni balog'atga yetkazgan ona!*

(*H. Olimjon*)

4. *Men boy emasmen o'g'illarim.*

(*Ertakdan*)

5. *Umidaxon sanamay sakkiz demang.*

(*A. Qahhor*)

6. *Belga himmat kamarin bog'la Turkiston,*  
*Ma'rifatga yetmoqni chog'la Turkiston.*

(*Hamza*)

7. *Qushlar, qushlar, hoy qushlar*  
*Qanot qoqib uchinglar.*

Har bir matnda nutqning kimga va nimaga qaratilganligini aytib berishga tayyorlaning.

---

**10-topshiriq.** Matnni o‘qib, tinish belgilarini o‘rniga qo‘yib ko‘chiring. Undalmalarning turlarini, o‘rnini aniqlang. She’rni ifodali o‘qishga tayyorlaning.

*O‘rgilay ko‘zingdan erka farzandim,  
Navvotim asalim shakarim qandim.  
Umringni tilayman ko‘ngil xursandim  
Qo‘zichog‘im oppog‘im alla,  
Yonib turgan chirog‘im alla.*

(Amin Umariy)

**11-topshiriq.** She’rni ifodali o‘qing. Shoир nutqining nimalarga qaratilganligini aytib berishga tayyorlaning.

- Onadir, ona!
- Sendan yuksak nima bor, yulduz?
  - Onalar mehri!
  - Sendan keskir nima bor, olmos?
  - Onalar qahri!
  - Qaydan olding otashni Quyosh?
  - Ona qalbidan!
  - Po‘lat, qaydan senda zo‘r bardosh?
  - Ona sabridan!
  - Senmi ko‘klam hayotbaxsh fasl?
  - Yo‘q, Ona izi!
  - Senmi, shirin, shifobaxsh asal?
  - Yo‘q, Ona so‘zi!
  - Dengiz, nedir kenglikda tanho?
  - Ona quchog‘i!
  - Sendan shaffof ne, tonggi ziyo?
  - Ona nigohi!
  - Yaratuvchi senmi, tabiat?
  - Yo‘q, yo‘q, Onalar!
  - Yashnatguyvchi senmisan, hayot?
  - Yo‘q, yo‘q, onalar!

(S. Vohidov)

**12-topshiriq.** «Kuz» mavzusida bog‘li matn tuzing. Unda «oltin kuz, uzum, mehnatkash xalq, qovun, salqin shabada, saxiy dehqon, tun, charaqlagan yulduzlar» so‘zlarini undalma vazifasida ishtirok ettirib, gaplar tuzing.

Keltirilgan o‘quv topshiriqlari vositasida nutq holatlariga mos undalmali gaplar tuzish (1-topshiriq) yo‘li bilan undalmalarning nutq sharoiti uchun zarurligini anglashadi. Undalmalarning shaxsga va turli narsalarga qaratilganligini (2-topshiriq) nazarda tutib, ularni ikki guruhga ajratishni, binobarin, undalmalarning ta’rifini ongli o‘zlashtirishga tayyorlanishadi. Berilgan matnda undalmali gaplarni saylab yozish (3-topshiriq) va tayanch so‘zlarni undalma vazifasida qatnashtirib (4-topshiriq), «Bahor» mavzusida bog‘li nutq tuzish, «Undalma»ga oid bilimlarni mustahkamlashga olib keladi.

Undalma va gapning egasini chog‘ishtirish (5-topshiriq), matnga undalmalar kiritish (6-topshiriq), berilgan uch holatga mos undalmali matn yaratish (7-topshiriq), partadosh o‘rtoq bilan o‘tkazilgan suhbat matnnini yozish (8-topshiriq), bolalarni intervyu olishga, o‘zgalar nutqini e’tibor bilan tinglashga tayyorlaydi. Bu topshiriqlar bo‘yicha mashq qilganda, undalmalarning ta’ifi, turlari, tinish belgilari, intonatsiyasi to‘g‘risidagi bilimlar malaka darajasida o‘zlashtirishadi.

Berilgan badiiy matnlarni tahlil etib, so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni aniqlash (dil, Navoiy, Farg‘ona, o‘g‘illarim, Umidaxon, Turkiston, qushlar), shu matnlardagi undalmalarda tinish belgilari hamda ularning o‘qilishi ustida mashq qilish (9-topshiriq), undalmalarni aniqlash, tinish belgilarini qo‘yish, intonatsiya ustida ishslash (10-topshiriq) va nihoyat undalmalarni ishtirok ettirib matn yaratishga oid mashqlar (11-topshiriq) undalmalar xususidagi bilimlarning tushuncha darajasiga ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi.

## **5-fasl. Lingvistik mashqlar tizimini ta'limga tatbiq etish**

Lingvistik mashqlar tizimini ta'limga tatbiq etish o'qituvchining pedagogik mahoratiga, ta'lim jarayoni sikllariga, tanlangan dars tipi, uning bosqichlariga bog'liq. O'qituvchi ta'lim jarayoni xususiyatlarini, dars tipi, uning bosqichlarini aniq tasavvur etsa, ta'lim jarayoniga, dars tipi va uning bosqichlariga mos mashqlar tizimidan foydalana oladi.

«Undalma» mavzusida qilinadigan ishlarni uch qismga ajratish mumkin: undalmalar bo'yicha axborot to'plash (1); undalma yuzasidan to'plangan axborotlarga ishlov berish (2); undalma yuzasidan o'rganilgan bilimlarni tushuncha darajasiga ko'tarish va ularni nazorat qilish (3).

Yuqoridaq qismlarga ko'ra, «Undalma» mavzusini quyidagicha rejalashtirish mumkin (Jadval 168-betda).

I darsda "Undalma" mavzusiga oid bilimlar o'rganiladi. Bolalar undalmaning mohiyati, ta'rifi, uning turlari — sodda va murakkab undalmalar, undalmaning gapdagi o'rni, intonatsiyasi va unda tinish belgilarining ishlatilishiga doir axborotlarni to'playdilar, to'plangan axborotlarga dastlabki ishlov beradilar.

Dars yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash tipidagi mashg'ulot bo'lib, uning yadrosi yangi bilimlarni o'rganishga tayyorgarlik, ta'rif va qoidalarni o'rganish, o'rganilgan bilimlarni mustahkamlashdan iborat.

Dars mavzusini e'lon qilish uchun ish•quyidagicha boshlanadi: men bir nechta gap aytaman. Men aytgan gaplar (mening nutqim) kimga va nimalarga qaratilganini aytib berishga tayyorlaning.

Bolalar, ona tili darsiga tayyormisiz? Bu gap kimga qaratilgan? (bolalarga). Ona tili, sen mening ona tilimsan! Bu gapchi? (ona tiliga). Ey momaqaldiroq, yanada kuchliroq bo'kir! (Bu gap — momaqaldiroqqa). Men o'z nutqimni

Qism-lar	Undalmaga oid bilimlar	Undalmalar bo'yicha intellektual malakalar	Undalmalar bo'yicha muskul harakati malakalar	Dars tiplari	Dars materiali
I	Undalma-nning ta'risi; sodda va murakkab undalma; gapning boshi, o'rtasi, oxirida kel-gan undalma-lar; undalma-larning intonatsiyasi va tinish belgilari.	-undalmani anglash, uni gap bo'lak-laridan farq etish; -undalma-larni o'ziga xos ohang bilan o'qish, talaflafuz qilish; -nutqda sodda va murakkab undalma-larqi farqlash; -turli pozitsiyalarda kel-gan undalma-larni, ularning ohanglarini anglash.	-undalmali gaplardan matn tuzish; -undalmalarni o'ziga xos ohang bilan o'qish, talafuz qilish; -nutqda sodda va murakkab undalma-larni ishlata bilish; undalmalarda tinish belgilarni to'g'ri ishlatish.	Yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkam-lash darsi	1-4-mashqlar
II	Mavzu bo'yicha o'rganilgan bilimlarga ishlov beriladi	Shu intellektual malakalar ustida ishlash	Shu muskul harakati malakalarini ustida ishlash	O'tganlarni takrorlash va malaka hoslil qilish darsi	5-8-topshiriqlar
III	Undalmaga oid bilimlarga tushunchadaraja-sida ishlov berish.	Malakalarni avtomatlash-tirish	Malakalarni avtomatlash-tirish	Bilim va malakalarni umumlashtirish darsi	9-11-topshiriqlar
IV	Undalma mavzusiga oid bilimlar	Aqliy malakalar	Muskul harakati malakalar	Bilim va malakalarni nazorat qilish darsi	Ta'lim etalonida ko'zda tutilgan testlar tizimi bajariladi

---

bolalarga (1-gap), ona tiliga (2-gap), momaqaldiroqqa (3-gap) qaratdim. Gapisrayotgan paytda so'zlovchi nutqini o'ziga (masalan, Dangasa tur, uxlaganing bo'lar), O'zgalar (Odil, menga ko'maklash), turli narsalarga (maynajon, sayrasangchi) qaratadi. Yana bir misol: ertalab uyqudan uyg'ongach bobomiz, buvimiz, ota-onamizga nima deymiz? Assalomu-alaykum, bobojon (buvijon, otajon, onajon). Salomimiz kimga qaratiladi? (bobomiz va buvimizga, ota-onamizga). Ona tilida so'zlovchining nutqi qaratilgan so'zlar «Undalma» termini bilan o'rganiladi. Undalma vositasida kishi o'ziga, o'zga shaxslarga, turli narsalarga undaydi.

Suhbat asnosida bolalar yangi mavzuga oid termini »Undalma« bilan tanishishadi, bolalarning nutqidagi undalmali sintaktik konstruksiyalar faollashadi, o'quvchilar o'z nutqida qo'llanib kelayotgan hodisa-undalmaning mohiyatini anglashadi. Qisqacha aytganda, sinf jamoasi «Undalma» mavzusini o'rganishga tayyor bo'lishadi. Endi darsning navbatdag'i bosqichi — undalmaga oid bilimlarni o'rganish boshlanadi.

Birinchi topshiriqqa qarang .... Namunada berilgan gapni o'qing. Bu gapda so'zlovchining nutqi nimaga qaratilgan? «Xayol»ga qaratilgan. To'g'ri, xayollarga chulg'anib qolganimizda, o'zimizga shunday gap bilan undaymiz. Undash yo'li bilan biroz payt xayol surishdan to'xtaymiz. Siz bajaradigan topshiriqda oltita nutq holati berilgan. Oltita gap tuzasiz. Nutqingizning kimga va nimalarga qaratilganini aniqlab, aytib berishga tayyorlaning. Topshiriqni bajara olsangiz, undalmaga o'zingiz mustaqil ta'rif bera olasiz.

O'quvchilardan birortasi (yoki oltitasi) topshiriqni doskada bajaradi. Bolalarning ko'z o'ngida quyidagi yozuvlar paydo bo'ladi.

*Bolalar, bilim manbai kitobni seving.*

*Odamlar, cho'kayapman, qutqaringlar.*

*Hoy qanotli do'stlarim, don yenglar.*

*Mehribon buvijon, Sizni tabriklayman.  
Hoy yomg'ir, yana shiddat bilan yog'!  
Ey shamol, salomimni do'stimga yetkaz.*

Doskadagi yozuylar — o'quvchilar ijod etgan gaplar asosida suhbat o'tkazilib, undalmaning ta'rifi chiqariladi. O'qituvchi topshirig'iga ko'ra, bolalar o'zлari chiqargan xulosani darslikda berilgan ta'rifga taqqoslashadi. Bu ta'lim manbalari o'quvchi nutqi va darslikni o'zaro uyg'unlashtirishga olib keladi. Endi undalmalarni nutqda ijro etish texnikasi, tinish belgilari, gapdagi o'rni, sodda va murakkab undalmalarga oid bilimlarni o'rganishga o'tiladi. Buning uchun 2-topshiriq asosida mashq o'tkaziladi. Bolalar berilgan gaplarda undalmaning shaxsga yoki narsaga qaratilganini hisobga olib, ularni ikki guruhg'a ajratishadi. Bu ish undalmani mustahkamlashga oid dastlabki o'quv yumushidir. 2-topshiriq asosida undalma bo'yicha axborot toplash quyidagicha davom ettiriladi.

Doskadagi gaplar qayta kuzatilib sodda (bolalar, odamlar) va murakkab (mehribon buvijon, qanotli qushlar) undalmalarga o'quvchilar diqqati tortiladi, tegishli qoidalar chiqariladi: a) undalma bir so'zdan iborat bo'lsa, sodda undalma deyiladi; b) undalma ikki yoki undan ortiq so'zdan iborat bo'lsa, murakkab undalma deyiladi.

Gaplar yana bir bor kuzatilib, undalmaning o'rni aniqlanadi. Buning uchun ayrim gaplar qayta tuziladi.

*Bilim manbai kitobni seving, bolalar!  
Sizni, mehribon buvijon, tabriklayman.*

Xulosalar chiqariladi: undalma gapning boshida, o'rtaida, oxirida keladi.

Undalmali gaplarda gap bo'laklarini toptirish. O'quvchilar ko'pincha undalmani bosh bo'lak (ega) sanab, egani topa olishmaydi. Doskadagi gaplarga ega kiritib yoziladi:

Bolalar, siz bilim manbai kitobni seving. Boshqa gaplar bo'yicha ham shu taxlitda davom ettirilib, xulosa chiqariladi. Undalmani o'qish texnikasi, tinish belgilarini ishlatish qoidalari tushuntiriladi. Bu ishlar natijasi o'laroq, o'quvchilar ongida undalma to'g'risidagi tasavvurlarning umumiyligini shakllanadi. Endi yangi ta'rif, qoidalarni mustahkamlashga o'tiladi. Buni amalga oshirish uchun quyidagicha ish qilish mumkin:

a) darslikda berilgan ta'rif, qoida, aniqliklarni diqqat bilan o'qib chiqish;

b) 3-topshiriq bo'yicha mashq o'tkazish; bolalar she'riy parchadan undalmali bandlarni (Nega tilkalaysan bag'rimni, ohang, Nechun kerak, rubob, senga shuncha g'am) ajratib yozishadi. Bu bandlarda shoirning nutqi nimalarga qaratilganligi, undalmalarning turi, gapdagi o'rni, tinish belgilari va o'qish texnikasi yana bir bor eslatiladi. Bolalar undalma bo'yicha to'plagan axborotlarga moslashishadi, ko'nikishadi.

d) undalmaga oid bilimlarni esga tushirish davomi sifatida 4-topshiriq bo'yicha mashq qilinadi; Bolalar undalma bo'yicha to'plangan axborotlarni yangi o'quv sharoitiga — tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib bog'li nutq tuzish jarayoniga tatbiq etishadi.

Keltirilgan dars tavsifidan ko'rinadiki, uning qurilishi va borishi bolalar tafakkuriga mo'ljallangan. O'quvchilar berilgan topshiriqlar asosida ijodiy mashq qilishib, mavzuni mustaqil o'rganishadi, ta'rif, qoida, aniqliklarni shakllantirishadi. Bunday darslarni «ijodiy dars» deb ataymiz. Mavzu induktiv yo'l bilan o'zlashtirildi. Dalillarga ko'ra, quyidagi xulosalarga kelindi.

Dars yangi o'quv materialini o'rganish va mustahkamlash tipidagi mashg'ulot bo'lsa, uning quyidagi bosqichlarida lingvistik mashqlardan foydalilaniladi:

a) yangi mavzu bilan bolalarni tanishtirish jarayonida o'tkaziladigan mashq darsga kirish yasash, yangi termin

va unga muvofiq tushuncha bilan tanishtirish funksiyalarini bajaradi;

b) yangi mavzuni o'rganishga tayyorgarlik maqsadida tashkil qilinadigan mashq dalillarni, o'quvchilar tajribasidan ko'p marta o'tgan omillarni faollashtirish vazifasini o'taydi; ish shu yo'sinda tashkil etilganda, bolalarning jonli nutqi tilni mavzuga oid ta'rif, qoida, aniqliklarni o'zlashtirish laboratoriyasiga aylantiradi. Bola nutqi tildan oldinda harakat qilib «Nutqdan tilga qarab borish» tamoyilining amal qilishiga olib keladi.

d) yangi o'quv axborotlarini idrok etish jarayonida tashkil qilinadigan mashqlar yangi ta'rif, qoida, aniqliklarni o'rganish hodisalariga hamkorlik qilib, o'quvchilar tafakkurini, xotirasini kompleks faollashtirish vazifasini bajaradi; chiqarilgan xulosa ijodiy faoliyat mahsuli, o'quvchining o'zi kashf etgan bilim sifatida ongda to'planadi. Hamroh mashqlarni bajarish jarayonida o'quvchi ta'lim jarayoni subyektiga aylanadi.

e) yangi o'quv materiali tushuntirilgach yoki bolalarning o'zları mustaqil o'rgangach, o'tkaziladigan mashq mustahkamlash vazifasini bajaradi; shu yo'l bilan bolalar hozir o'rganilgan bilimlarni berilgan o'quv holatlariiga tatbiq qilishadi. O'quv holatlari yangi, rang-barang bo'lsa, mustahkamlash ham ijodiy jarayonga aylanadi. Shunday qilib, dastlabki dars tipida axborotlarni toplash va ularga dastlabki ishlov berish ketma-ket, bir-biri bilan uзвиy bog'langan holda o'tkazilsa, mashq qilishning samaradorligi oshadi.

«Undalma» mavzusida o'tkaziladigan ikkinchi mashg'ulot «O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish» tipidagi darsdir. Dars 5-8-topshiriqlar bo'yicha mashq o'tkazishga mo'ljallangan bo'lib, uch xil didaktik vazifani — o'qituvchi o'z oldiga qo'ygan maqsadni amalga oshirish bilan yakunlanadi: oldingi darsda o'rganilgan ta'rif, qoida, aniqliklarni ongli esga tushirish, esga tushirilgan bilimlarni

berilgan o'quv holatlariga tatbiq etish, undalma to'g'risidagi bilimlarni yangi axborotlar bilan boyitish. Bilimlarni yangi axborotlar bilan boyitishga kumulyatsiya<sup>19</sup> deb aytildi.

Dars 5-topshiriq asosida mashq o'tkazish va uning natijasini tahlil etish bilan boshlanadi. Bolalar mashq qila turib, undalmaning ta'rifini esga tushirishadi: undalmalarni gaplarning egalariga taqqoslab, ularning farqlarini ajratishadi; undalmaning gapdagi o'rnini aniqlab, ularning o'qish texnikasini xotirlaydilar; tinish belgilarini qo'yib, gaplarni ko'chirishadi. Bular undalma to'g'risidagi bilimlarni faol esga tushirish vazifasini o'taydi. Mashq qila turib, o'rganilgan bilimlarni esga keltirish faol ta'larning asosiy talablaridan biri bo'lib, bilimlarni tezkorlik bilan o'quv holatlariga tatbiq eta olish malakasining poydevori sanaladi.

6-topshiriq asosida ijodiy mashq o'tkaziladi. Uni ijodiy diktant shaklida tashkil etsa ham bo'ladi. Buning uchun o'qituvchi gaplarni diktovka qilib turadi, bolalar esa undalmalarni gaplarning boshi yoki oxiriga kiritib, yozishadi (masalan, Bolalar, qaynatilmagan suvni ichmang!).

7-topshiriq asosida o'tkaziladigan mashq ham ijodiy bo'lib, o'quvchilar berilgan o'quv holatlariga mos undalmali bog'li nutq tuzishadi.

8-topshiriq bo'yicha ham ijodiy mashq qilinadi. Bolalar bir-biridan intervyu olib suhbat matnini yaratishadi. Bu kelajakda o'quvchilarning dialog va monolog ahamiyatini anglashlarini ta'minlaydi. Berilgan topshiriqlar asosida mashq qilish o'quvchilarning undalmaga oid bilimlarini malaka darajasida o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Ikkinchchi dars tipida o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish mashg'ulotida lingvistik mashqlar, asosan, ikki bosqichda o'tkazilishini eslab qolmoq zarur.

<sup>19</sup> Kumulyatsiya — lotincha «cumulatio» so'zidan olingan bo'lib, o'zbekcha «to'planish», «kengayish» so'zlarining ma'nosiga to'g'ri keladi.

1. Bilimlarni ongli esga tushirish maqsadida darsning dastlabki bosqichida mashq o'tkazish. Mashqlardan shu yo'sinda foydalanish bilimlarni yangi o'quv sharoitlariga ijodiy tatbiq etish uchun zamin hozirlaydi.

2. Bilimlarni turli o'quv holatlariiga tatbiq etish bosqichi. Darsning bu bosqichida o'tkaziladigan mashqlar bolalarda malakalarning rivojlanishiga, faoliyatdagi tezkorlikka, topshiriqlarni sifatli bajarishga, ko'nikmalarни malaka darajasiga ko'tarishga olib keladi. Shular bilan birga, o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslarida o'quvchilarining takrorlanayotgan o'quv materiali doirasida bilimlari yanada kengayadi. Bu kumulyatsiya hodisasinining amal qilishi natijasidir. Zero, berilgan topshiriqlar asosida mashq qilish jarayonida bolalar mavzuga oid dalillarning yangi-yangi qirralarini ham, oldin his qilmagan tomonlarini ham anglashadi. Kumulyatsiya hodisasi mashq qilish uchun tanlangan topshiriqlar qancha ijodiy tuzilgan bo'lsa, shuncha samarali amal qiladi.

«Undalma» mavzusida o'tkaziladigan navbatdagi mashg'ulot bilim va malakalarni umumlashtirish tipidagi darsdir. Bu tipdagi darslarda ma'lum mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar tushuncha darajasida umumlashtiriladi, bo'lim bo'yicha yakuniy xulosalar chiqariladi.

Bilim, malakalarni umumlashtirish darslari darsning boshqa tiplaridan chiqariladigan xulosalari kengligi, mazmundorligi jihatdan farq qilishi bilan birga, material tomonidan ham, o'zlashtirish darjasini bilan ham ajralib turadi. Bu dars tipida umumlashgan savollar (Undalmaning ta'rifi, o'ziga xos barcha xususiyatlarini kim misol keltirib isbotlay oladi?), umumlashgan topshiriqlar (O'zingiz undalimali gap tuzib, uni undalmaning ta'rifi, o'ziga xos belgilari jihatdan to'liq tahlil qiling), umumlashgan jadvallardan foydalaniadi.

Bilim, malakalarni umumlashtirish darslari ikki jahbasi jihatidan ahamiyatlidir: **mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha umumlashgan xulosa chiqarish; chiqarilgan umumiyl xulosani o‘quv sharoitiga tatbiq etish.**

Undalma bo‘yicha umumlashgan xulosa chiqarish maqsadida quyidagi topshiriq tuzilib, mashq o‘tkaziladi.

Topshiriq. Keltirilgan parchadan undalmalarini topib, tahlil qiling. Undalmalarning barcha xususiyatlari va ta’rifini tushuntirib berishga tayyorlaning.

— Yig‘lama, oppoq qizim, men senga yordam beraman,  
— debdi sehrgar kampir.

— Rahmat, mehribon buvijon. Men sizni o‘z onamdek ko‘raman, — debdi Zumrad. (Ertakdan)

Undalmalar bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarning umumiyl qurilishi esga tushirilgach, 9-11-topshiriqlar asosida mashq o‘tkaziladi. O‘quvchilar undalmaga oid bilimlarni tatbiq etib, mashq qilishadi. Ishni shu yo‘sinda o‘tkazish tushuncha darajasida o‘zlashtirishga olib keladi. Tushuncha darajasida o‘zlashtirish bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlarning o‘quvchi faoliyati tarkibiga — tezaurusiga aylanishiga sabab bo‘ladi. Endi bilim o‘quvchini emas, aksincha, o‘quvchi bilimni boshqara boshlaydi, u o‘qituvchi istagan matnlardan undalmani topa biladi, undalma ishtirokida nutq tuza oladi, undalmani boshqa lingvistik hodisalardan farqlaydi. O‘rganilgan bilimlar o‘quvchilarning shaxsiy mulkiga aylanadi.

## 6-fasl. Mashq qilish jarayoni

Oldingi fasllarda qayd qilinganidek, mashq o‘quv topshirig‘i asosida o‘tkaziladi. Mashq qilish subyektiv hodisa bo‘lib, uning natijasi o‘quvchida shakllanadi. Mashq qilish jarayonini «o‘quvchi — o‘quv topshirig‘i»ning o‘zarotasi shaklida tasavvur etamiz. Bu tizimda o‘quvchi mashq qilish jarayonining subyekti — mashq qilguvchi, o‘quv topshirig‘i — o‘quvchi faoliyatining predmeti. O‘quvchining

ta'siridan topshiriq bir holatdan — bajarilmagan holatdan, ikkinchi holatga — bajarilgan holatga o'tadi. Topshiriqning ta'siridan o'quvchilarda turli o'zgarishlar yuz beradi: avvalo, mavzu yuzasidan o'rganilgan bilimlar takomillashadi, malakalar rivojlanadi, ijodiy qobiliyatlar taraqqiy etadi. O'quvchiga berilgan topshiriq o'ziga xos muammo bo'lib, uni bartaraf etish, qiyinchiliklarni yengish bola shaxsini tarbiyalash omili sanaladi.

O'quvchi va o'quv topshirig'inining o'zaro ta'sirini ikki nuqtai nazardan tahlil etish mumkin: 1) o'quvchi faoliyati **jihatidan**. Bu yo'l bilan mashq qilish vositalari aniqlanadi; 2) o'quv topshirig'i **jihatidan**. Bu yo'l bilan mashq qilish bosqichlari belgilanadi.

**Mashq qilish vositalari.** Mashq qilishning o'z maqsadi, vositasi, natijasi mavjud. Ma'lum bosqichda erishilgan maqsad keyingi bosqichlarda topshiriqlarni bajarish, binobarin, mashq qilish vositasi sifatida ishtirok etadi. O'zaro ta'sir uch holatga ega.

**Boshlang'ich holat** — bu topshiriq asosida mashq qilish vositalari, usullari xususida o'ylash, ularni tanlashdir. Boshlang'ich holatning samarador kechishi o'qituvchiga (o'quvchining topshiriq asosida mashq qilish holatini bolalar ongida shakllantirishi), o'quvchilarga (topshiriqnı qunt bilan o'qib chiqish, mashq qilish maqsadini mustaqil ajratish, erishilgan natijani mo'ljallash) ko'p jihatdan bog'liq. Dastlabki holatda oldin egallangan bilim, orttirilgan tajriba, o'zlashtirilgan usullar berilgan topshiriq asosida mashq qilish vositasi sifatida ajratiladi. Boshlang'ich holatda oldin bajarilgan topshiriqlar bo'yicha erishilgan maqsad — natija aynan hozir berilgan topshiriq asosida mashq qilishning vositasiga aylanadi. Zero, vosita obyektning (berilgan topshiriqning) maqsad orqali, maqsadning o'zi esa vosita orqali tavsiyanishi (bayon qilinishi)dir.

**Oraliq holat** — bu o'zaro ta'sirning ma'lum o'quv holati (sharoitida) va ma'lum payt mobaynida kechishi. Binobarin,

oraliq holat aqliy (intellektual) va amaliy ish bo'lib, u o'ziga xos o'lchov (uzunligi)ga ega. O'zaro ta'sir qancha davomli bo'lsa, bola o'quv topshirig'idan shuncha ko'p informatsiya-axborotni oladi. Oraliq holatda subyekt — topshiriq asosida mashq qiluvchi va obyekt — mashq qilish yo'li bilan bajariladigan topshiriq shu informatsiyalar evaziga bir-biri bilan bog'lanadi.

**Oxirgi holat** — bu natijaga erishish vaqtি bo'lib, u bundan keyin mashq qilish uchun berilgan topshiriqlarni bajarishda, binobarin, o'zaro ta'sirning bundan keyingi harakatlarida vosita rolini bajaradi. Mashq qilish uchun topshiriqning bajarilishi va uning natijasini tahlil etishning ahamiyati katta. So'nggi tahlil yo'li bilan mashq qilishning natijasi mashq qilish jarayonidan ajratiladi. Natijani jarayondan ajratish o'rganilgan, mustahkamlangan bilimlarni yanada asosli his qilishni ta'minlaydi, bolalarning bundan keyingi faoliyatini yanada murakkabroq tashkil etishga zamin yaratadi.

Mashq qilish yo'li bilan erishilgan natija ham ta'lim subyekti — o'quvchida, ham ta'lim obyekti — o'quv topshiriqlarida yuz bergan o'zgarishlarning hosilasidir. Erishilgan natijaning mohiyatini anglash ana shu o'zgarishlarni tahlil etishni taqozo etadi. Tahlilni shu o'zgarishlarning qay biridan boshlagan ma'qul? Biz o'quvchi ta'siridan o'quv topshirig'ida yuz bergan o'zgarishlarni tahlil qilish yo'li bilan bolalarda yuz bergan o'zgarishlar mohiyatini tushunish, anglash mumkin, deb hisoblaymiz.

O'quvchi ta'siridan o'quv topshirig'ida yuz bergan o'zgarishlar metodik qimmatga molik. Faoliyat predmeti — o'quv topshirig'ida yuz bergan tashqi o'zgarishlar faoliyat subyekti — o'quvchida sodir bo'lgan ichki (ong, tafakkur, fikrlash) o'zgarishlar omilidir. Faoliyat predmetida yuz bergan o'zgarishlar o'quvchi taraqqiyoti, shaxsiy rivoji, intellektning o'sishi uchun shart-sharoit vazifasini o'taydi. O'quv topshirig'ida yuz bergan

o‘zgarishlarni ajratish, his qilish, tasavvur etish, xotirada saqlash o‘quvchining bilimi, malakasi, qobiliyatlari taraqqiyotiga olib keladi.

O‘quvchi shaxsida yuz bergen o‘zgarishlar ta’lim jarayonida ikki xil funksiya bajaradi: faoliyat ko‘rsatish — berilgan topshiriqlar asosida mashq qilish sharti; bundan keyin amalga oshiriladigan maqsadga erishish vositasi. Birinchi holatda o‘quvchi shaxsida yuz bergen o‘zgarishlar-bilim, malaka, qobiliyat, tajribaning taraqqiyoti ta’limni bundan keyin davom ettirish uchun shart hisoblanadi. Bu hodisa barcha o‘quv predmetlari sohasida uchraydi. Chunonchi, trigonometrik bilimlarni o‘rganish — algebra va geometriyadan o‘zlashtirilgan bilimlarni; biologiyadan fotosintez hodisasini o‘rganish — fizika va kimyodan o‘zlashtirilgan bilimlarni; grammatik bilimlarni o‘rganish — fonetika va leksikadan o‘zlashtirilgan bilimlarni taqozo etadi. Bu misollarda oldin erishilgan natija — shaxsning bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi yangi bilim, qonuniyat, tushuncha, dalillarni egallash — o‘zlashtirish instrumentiga aylanishi qayd etilgan.

**O‘rganilgan bilim, malakalarni mashq qilish uchun faollashtirish.** Faollashtirilgan bilimlar berilgan o‘quv topshiriqlari asosida mashq qilish jarayonida vosita funksiyasini bajaradi. **Birinchi holat** — o‘rganilgan bilimlardan yangi bilimlarni o‘zlashtirish maqsadida foydalanish didaktika va metodika fanlarida ancha o‘rganilgan bo‘lsa, **ikkinci holat** — o‘zlashtirilgan bilimlardan yangi topshiriq, muammolarni hal etishda vosita sifatida foydalanish masalasi haligacha atroflicha tahlil etilmagan. Keyingi holatda o‘zlashtirilgan bilimlar topshiriqlar asosida mashq qilish vositasi sifatida amal qiladi. Shu tufayli «o‘quv topshiriqlari bir tizimga kirib, biri ikkinchisini to‘ldirsa, oldin o‘tkazilgan mashq bo‘yicha erishilgan

natija keyingi mashq uchun vositaga aylanadi» degan tezisni isbotlashga harakat qilamiz. Masalan, «Undalma» mavzusi uchun tuzilgan o'quv topshiriqlari bo'yicha mashq qilish jarayonini olaylik.

1-topshiriqqa ko'ra, bolalar berilgan oltita nutq holatiga mos keladigan gaplar tuzishadi, 2-topshiriq bo'yicha esa oldingi topshiriqqa ko'ra tuzilgan gaplar ikki guruhga ajratiladi. Bu topshiriqlarni bajarish yo'li bilan o'tkazilgan ma shqda bolalarning oldin hosil qilgan tajribalari — undalmalarni nutqda ishlatish, gap tuza olish iqtidorlari faoliyat ko'rsatish sharti hisoblanadi. O'quvchilarda shunday tajriba bo'limganda edi, ular berilgan topshiriqlar bo'yicha mashq qila olmasdi. Bu yuqorida tavsiflangan birinchi holatning — oldingi bilim, tajribaning keyingi bilim, tajribani o'zlashtirish sharti ekanligini ko'rsatadi. Oldin orttirilgan tajriba, bilim evaziga o'quvchilar yangi bilimlarni — undalmani, uning ta'rifi, barcha xususiyatlari — sodda va murakkab undalmalarni, ularning gapdagi o'rni, tinish belgilari, o'qish texnikasini o'zlashtirib olishadi. 3-topshiriqqa ko'ra, o'quvchilar berilgan she'riy parchadan undalma va undalmali birikmalarni ajratishadi. Bu tavsif etilgan ikkinchi holatgabilimlarni mashq qilish vositasi sifatida ishlatishga mos keladi. Negaki, o'quvchilar «Undalma» mavzusi bo'yicha o'rganilgan bilimlarni tatbiq etib, mashq qilishadi. Endi o'quvchi yanada murakkabroq topshiriq asosida mashq qila boshlaydi. Ana shu nazarda tutilib, 4-topshiriq tuzilgan. O'quvchilar yangi sharoitda — berilgan tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib, ijodiy ish-gaplar tuzishadi. Bundan ko'rindiki, oldingi topshiriq bo'yicha mashq qilib erishilgan natija, keyingi topshiriq asosida ijodiy mashq qilish vositasiga aylanadi. Binobirin, o'zaro daxldor, bir-biriga bog'liq topshiriqlar asosida mashq qilinganda, oldingi mashqdan erishilgan natija keyingi mashqni o'tkazish vositasiga aylanadi.

**Mashq qilish bosqichlari.** O'zaro ta'sir ma'lum sharoit va paytda amal qiladi. Binobarin, uning o'zi ga xos harakati va bosqichlari mavjud. Bosqichlar o'rtasidagi nuqtalar — nisbiy harakatsizlik (osoyishtalik, sokinlik) bo'lib, undan keyingi o'zaro ta'sir yanada boy, mazmundor bo'ladi. Topshiriq bo'yicha mashq qilishda bir bosqichdan ikkinchisiga o'tish, undan keyingisiga siljish muvaffaqiyatli mashq qilish garoviga aylanadi. Bunday tahlil-o'zaro ta'sirni o'quv topshirig'i jihatdan tahlil etishga, mashq qilish paytiga jarayoniy tavsif berishga olib keladi.

**Mashq qilish** — bu o'zaro ta'sirning bosqichma-bosqich harakati bo'lib, unda faoliyatni amalga oshirish me'yorlariga amal qilinadi. Faoliyatni amalga oshirishda rioya qilinadigan me'yorlar turli ijtimoiy institutlar tarkibida, jumladan, falsafiy, psixologik, didaktik fanlarda, shuningdek, kishilarning xatti-harakatlari madaniyatida, an'analar, fikrlash shakllari va usullari, aloqalashuv vositalari tarkibida saqlanadi.

O'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usullarini o'xshash sharoitlarga tatbiq etish mashq qilish jarayonida rioya qilinadigan me'yorlardan biridir. Bilim, faoliyat usullarini tanish-oldin uchragan sharoitga tatbiq qilish yo'li bilan mashq qilinadi. Mashqning mohiyati takrorlash natijasi bilan aloqa o'rnatish, o'rnatilgan aloqani, shu yo'l bilan mashq natijasini bilishdir. Yanada ommaboproq qilib aytganda, mashq qilish jarayonida qo'llanilayotgan bilim faoliyat usulining amaliyotda oldin ham uchraganini his qilish, his qilingan bilimlarni qo'llab faoliyat ko'rsatish, erishilgan yangi natijani mashq qilish jarayonidan ajratish va anglash demakdir. O'rganilgan bilim va o'zlashtirilgan faoliyat usullarini o'xshash sharoitlarga tatbiq etish me'yeri mohiyatini yanada aniqroq tushunish maqsadida quyidagi topshiriqlar asosida o'tkaziladigan mashqlarni tahlil qilamiz.

5-topshiriq. Gaplarni o'qib, ega va undalmalarni toping. Undalmalarning o'rnini aniqlab, qanday o'qilishini tushuntiring. Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.

1. Oyqizim Ko'kbuloq suvlari bizdan oldin qishloqqa kirib boradi.

2. Bilim — qimmatbaho boylik o'g'lim.

3. Vatan mustaqilligi aziz bolalar Sizning qo'lingizda.

6-topshiriq. Berilgan gaplarga undalmalar kiritib yozing.

1. Qaynatilmagan suvni ichmang.

2. Mo'l hosilingiz muborak bo'lsin.

3. Tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman.

Misol uchun keltirilgan topshiriqlarning ikkalasi ham «Undalma»ga oid bilimlar o'rganilgach, ta'limga tatbiq qilinadi. Binobarin, bu topshiriqlar asosida qilinadigan mashqlar o'rganilgan bilimlarni topshiriqda berilgan o'quv holatiga tatbiq etish bilan xarakterlanadi. Topshiriqlar asosida erishiladigan maqsadlar — matnda undalmalarni tanish (topish), o'qish, tinish belgilarini qo'yib yozish (5-topshiriq) va berilgan matnlarga undalmalarni kiritib yozish (6-topshiriq) ham o'quvchilar uchun yangilik emas. Chunki bunday maqsadlar o'quvchilar faoliyatida oldin ham, 3-topshiriq bo'yicha o'tkazilgan mashqda uchragan edi. Xuddi shunday, bu ikkala topshiriq asosida qilinadigan mashq funksional jihatidan ham o'quvchilar uchun yangilik emas. Chunki o'rganilgan bilimni berilgan o'quv holatiga tatbiq etish (3-topshiriq bo'yicha o'tkazilgan mashq) va shu bilimlarni undalmalar bo'yicha o'rganilganlarni berilgan o'quv holatiga tatbiq etish (5-6-topshiriqlar asosida o'tkaziladigan mashqlar) takroriyidir.

Bundan ko'rindiki, 5-6-topshiriqlar tuzilishi, mazmuni, maqsadiga ko'ra o'quvchilar uchun yangilik emas. Ular asosida o'rganilgan bilimlarni esga tushirish va esga tushirilgan bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq qilish yo'li bilan mashq qilinadi. Mashq qilish jarayonida «bilimlarni

**esga tushirish va berilgan o'quv holatiga tatbiq etish» me'yoriy talabiga rioya qilinadi.** Mashq qilish paytida o'quvchi uch narsani ongli his qilishi zarur: mashq qilish uchun kerakli bilimni o'z tezaurisidan — o'rganilgan bilimlar orasidan ajratish (1); ajratilgan bilimni o'quv holatiga tatbiq qilish (2); bilimni tatbiq etish yo'li bilan erishilgan natijani his qilish, aytib bera olish (3). «Bilimlarni esga tushirish va berilgan o'quv holatiga tatbiq etish» me'yoriy talabi asosida o'tkaziladigan mashqda quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi.

**Dastlabki bosqich, bilimlarni, faoliyat usullarini esga tushirishdir.** Bilimlarni, faoliyat usullarini esga tushirish — bu xotiraning oddiygina ishi emas. Negaki, bola o'zi o'rgangan barcha bilimlar orasidan shu mashqni bajarishga oid bilimni izlaydi, ajratadi. O'quvchining faoliyati topshiriqdan shu topshiriq asosida qilinadigan mashqqa qarab harakat qiladi. O'quvchi ongi esa topshiriqdan o'rganilgan bilimga (orqaga), zaruriy bilimdan mashq qilishga (oldinga) siljiydi. Xuddi shu yo'l bilan bola topshiriqning qaysi mavzuga, qaysi bilimlarga oidligini bilib oladi. Bu mashq qilish uchun zaruriy bilimlarni faollashtirishga olib keladi.

**Ikkinch bosqich — faollashtirilgan bilimlarni berilgan o'quv holatiga tatbiq etish.** Bu bosqichda bolaning aqliy faoliyati bilimlardan uning tatbig'iga qarab boradi. Bunday holat birinchi bosqichdagi holatga-topshiriqdan o'rganilgan bilimga qarab borishga nisbatan teskaridir. Shu yo'l bilan mashq qilish jarayonida teskari aloqa o'rnatiladi. Teskari aloqa — bu o'rganilgan bilimni o'z obyektiga, bizning holatda undalmaga eltib qo'yishdir. Binobarin, bilimlarni o'quv holatiga tatbiq etib, mashq qilish nutqni asl holiga — undalmali gap shakliga keltirishdir.

**So'nggi bosqich — mashq qilish yo'li bilan erishilgan natijani tahlil etish jarayonidir.** Har qanday tahlil, bizning

holatda mashq qilish jarayonida erishilgan natijani ajratish, ongning ishidir. Zero, tahlil ongdagi narsalar bilan daxldordir. Natijani mashq qilish jarayonidan ajratib tahlil etish bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribalarining yanada takomillashuvi, jadallahuviga olib keladi. Maktab o'qituvchisi mashq natijasini tahlil etishga vaqt sarflashdan qo'rmasligi lozim. Negaki, tahlil o'ziga xos ish bo'lib, u mashq ustida qilinadigan mashqdir. Bunday tahlil, avvalo, erishilgan natijani to'liq anglashga olib keladi. U to'rt yo'nalishda — mashqning mazmuni, maqsadi, funksiyasi va mashq qilish usuliga ko'ra olib boriladi.

O'quv topshiriqlari bo'yicha mashq qilishda rioya qilinadigan navbatdagi me'yoriy talab — «bilimlarni kengaytirish» zarurligi to'g'risidagi qarashdir. Bu xildagi mashqlar vositasida o'rganilayotgan obyekt — ayni holatda undalma to'g'risidagi qarashlar yangi axborotlar bilan boyiydi. Mashg'ulotdan mashg'ulotga o'tgan sari o'rganilgan mavzu doirasida bolalarining ongini yangi bilim, yangi dalillar bilan boyitishni mo'ljallab tuzilgan topshiriqlar asosida o'tkaziladigan mashqlar tizimi kumulyativ xarakterda bo'lib, o'quvchilarining uzluksiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Kumulyativ xarakterdagи mashqlarning xususiyatlarini ajratish maqsadida, undalma bo'yicha tuzilgan o'quv topshiriqlarida so'zlovchining nutqi kimga va nimalarga qaratilganligini kuzatib chiqaylik.

«Undalma» mavzusida tuzilgan topshiriqlarning matnida undalmalar 40 marta ishtirok etgan bo'lib, shulardan 20 tasi shaxsga, 20 tasi narsalarga qaratilgan. Topshiriqlar bo'yicha mashq qilgan sari, so'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarga oid so'zlarning o'zgarib borishini quyidagi jadval vositasida kuzatish mumkin.

O'quv top. tar.	Shaxsga qaratilgan undalmalar	Turli narsalarga qaratilgan undalmalar
1-2	Bolalarga, odamlarga, buviga	Qushlarga, yomg'irga, shamolga, xayolga
3.	Onaga, otaga	Ohangga, rubobga
4.		Bahorga, lolaga, shabadaga, qalbga
5.	Oyqizga, o'g'ilga, bola-larga	
6.	Dehqonlarga, boboga, bola-larga	
7.	Bolalarga, jamoa xo'jaligi a'zolariga, nevaralarga	Kitobga
8.	Partadosh o'rtoqlarga, bir-biriga	Dilga, Farg'onaga, Tur-kistonga
9.	Navoiy o'ziga, o'g'illarga, Umidaxonga	
10.	Farzandga	
11.		Yulduzga, olmosga, qu-yoshga, dengizga, tabiatga
12.	Mehnatkash xalqqa, saxiy dehqon	Oltin kuzga, uzumga, qovunga, salqin shabadaga, to'pga, charaqlagan yulduzlarga

Ko'rinaridiki, «Undalma» mavzusi bo'yicha tuzilgan topshiriqlar asosida mashq qilinganda, so'zlovchining nutqi qaratilgan so'zlar o'zgara boradi. Shu o'zgarishlarni o'quvchilarning anglashini ta'minlash maqsadida o'qituvchi «Bu gapda nutq qaysi so'zga qaratilgan» iborasini ishlatib, so'zlovchining nutqi qaratilgan so'zlar doirasini, binobarin, yangi tasavvur, dalillar bilan o'quvchilar onggorini boyita boradi. Demak, to'plamga kiritilgan topshiriqlarning deyarli barchasida ijod elementlari mavjud bo'lib, ular ham o'quvchilar xotirasini, ham tafakkurini o'stiradi.

«Bilimlarni uzlucksiz kengaytirish» me'yoriy talabi asosida tuzilgan o'quv topshiriqlari bo'yicha ijodiy mashq o'tkaziladi. Bu xil mashqni o'tkazishda quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: bilim va faoliyat usullarini faollashtirish (1); bilim va faoliyat usullarini o'quv holatiga tatbiq etish (2); qilinayotgan mashqdagagi yangi bilim, dalilga bolalar diqqatini tortish-kumulyatsiya (3); natijani tahlil etish (4).

«Bilim va faoliyat usullarini yangi, notanish sharoitga tatbiq etish» o'quv topshiriqlarini bajarishda rioya qilinadigan yana bir me'yoriy talabdir. Namuna uchun 7-topshiriq asosida o'tkaziladigan mashqni tahlil etaylik.

7-topshiriq. Berilgan uch holatga mos nutq tuzing. O'zingiz tuzgan nutq matnlarida undalmalar ishtirok etsin.

1. Mehnat faxriysining bolalarga murojaati.
2. Jamoa xo'jaligi rahbari nutqi.
3. Boboning neveralariga nasihatni.

Keltirilgan topshiriq asosida o'tkaziladigan mashq sharoiti o'quvchilar uchun yangi. Negaki, o'quvchilar «Undalma» mavzusida yangi sharoitda berilgan mavzularga mos keladigan nutq (mehnat faxriysi, jamoa rahbari, bobo) matnlarini tuzib, undalmalarni ishlatalishadi. Bunday mashq o'tkazishda ikki xil tahlil ishtirok etadi: mashq qilish uchun zaruriy bilimlarni tanlash (1); bilimlar tatbiq etiladigan yangi o'quv holatini tahlil qilish.

«Bilim, faoliyat usullarini yangi o'quv holatiga tatbiq etish» me'yoriy talabiga ko'ra, o'tkaziladigan mashqlar ijodiy xarakterda bo'lib, quyidagi bosqichlarga rioya qilish zarur: bilim, faoliyat usullarini faollashtirish (1); yangi sharoitni tahlil qilishga o'rgatish (2); bilim, faoliyat usullarini yangi sharoitga tatbiq etish (3); mashq natijasini tahlil etib, xulosalar chiqarish (4).

«Yangi bilim, yangicha faoliyat usulini egallash» mashq qilishda rioya qilinadigan me'yoriy talablardan yana biridir. Yangi bilim, yangicha faoliyat usuli bilishga, ijod

qilishga oid topshiriqlar ustida mashq qilish yo‘li bilan egallanadi. Bu ikki xil topshiriq zamirida o‘quvchilar ijodkorligi yotsa-da, ularning farqlari, chegaralari ham mavjud. Bilishga oid topshiriqlar ustida mashq qilish jarayonida yangi bilimlar o‘zlashtiriladi. O‘quvchi bu tipdagi o‘quv topshirig‘iga duch kelganda, o‘z shaxsiy tajribasi, bilimlari mashq qilish uchun yetarlimi, deb o‘ylay boshladi. O‘z repertuari, bilimlari xususida o‘ylash, yangi bilimga ehtiyojni yuzaga keltiradi. Bu hodisani «Undalma» mavzusida tuzilgan 1-topshiriq namunasida yorqin ko‘zga tashlanadi:

**1-topshiriq.** Namunadan foydalanib berilgan holatlarga mos keladigan gaplar tuzing. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni aniqlab, undalmaga ta’rif berishga tayyorlaning.

Bolalarni tabriklayotgan bobo, cho‘kayotgan odam, qushlarga don sepayotgan bola, buvisini tabriklayotgan nevara, ust-boshi ho‘l bo‘lgan kishining yomg‘irga murojaati, shamolga yolvorayotgan odamning gapi.

**Namuna:** Ey xayol, meni uzoqlarga olib ketma!

Yuqoridaagi o‘quv topshirig‘i asosida mashq qilinganda, o‘quvchilar quyidagi yumushlarni bajarishadi: namunadan foydalanib, berilgan holatlarga mos keladigan gaplar tuzishadi; o‘zları tuzgan gaplarni tahlil etib, undalmalarni ajratishadi; undalmalarning ta’ifi xususida o‘ylashadi; o‘zları o‘rgangan bilimlar orasida (o‘z repertuarida undalmaga oid bilim bor yoki yo‘qligini aniqlaydi). Undalmaga oid bilimlarning yo‘qligini anglash yangi bilimga ehtiyojni tug‘diradi. Endi o‘quvchi yangi bilimni «kashf» etish to‘g‘risida o‘ylay boshlaydi.

Bilishga oid o‘quv topshiriqlari asosida mashq qilishda quyidagi bosqichlarga rioya qilinadi: mavzuga oid dalillarni kuzatish va faollashtirish (1); nutqdan o‘rganilayotgan hodisaga oid dalillarni ajratish (2); o‘z repertuarini tahlil etib, bilimlarga ehtiyoj sezish (3); yangi bilim to‘g‘risida

o‘ylash (4); yangi bilimni moddiylashtirish (xulosa shaklida ta’rif chiqarish) ga urinish (5).

Yangicha faoliyat usullarini egallahsga oid topshiriqlar ustida mashq qilish yo‘li bilan o‘quvchi o‘z tajribasida hali uchramagan o‘qish usulini o‘zlashtiradi. Misol tariqasida «Undalma» mavzusida tuzilgan ikkinchi topshiriqni keltiramiz:

**2-topshiriq.** Berilgan holatlarga mos keladigan oltita gap tuzing (Bolalar, bilim manbai kitobni seving. Odamlar, cho‘kyapman, qutqaringlar! Hoy, qadrdon qushlarim, don yeng. Mehribon buvijon! Sizni tabriklayman. Hoy yomg‘ir, yana shiddat bilan yog‘. Ey shamol, salomimni do‘stimga yetkaz). Shu gaplarni qanday qilib ikki guruhga ajratish mumkin?

Undalmali gaplarni ikki guruhga ajratib yozish o‘quvhilar uchun yangi sharoit sanaladi. Inson yangi sharoitga duch kelganda, yangicha faoliyat ko‘rsatish ehtiyoji tug‘iladi. Bilish jarayonidagi ehtiyojni qondirish uchun o‘quvchi o‘rganilgan faoliyat usullari chegarasidan chiqishga majbur bo‘ladi. U yangicha usulni — undalmalarning shaxsga va narsalarga qaratilganligini hisobga olib, undalmali gaplarni ikki guruhga ajratish usulini egallab oladi.

Ijodiy o‘quv topshiriqlari asosida yangicha faoliyat usullarini egallahsga oid mashq qilishda ushbu bosqichlarga rioya qilinadi: topshiriqni tahlil etish (1); oldin o‘zlashtirilgan tajribalar doirasidan chiqish ehtiyojini anglash (2); to‘sinqni bartaraf etishga oid farazlarni aytish (3); farazlarning ma’qulini berilgan o‘quv holatiga tatbiq etish (4); yangicha faoliyat usuliga oid xulosa chiqarish (5).

## VII BOB

### ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNING O'RNI

Maktabda fan asoslarini egallash, ko'p jihatdan, ona tili ta'limining qo'yilishiga bog'liq. O'quvchilar tilga oid bilimlarni, asosan, dars jarayonida o'rganadilar. Ularga tildan beriladigan bilimlarni mustaqil ishlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Pedagogikada mustaqil ishlar muammosi juda uzoq tarixga ega. O'quvchilarda mustaqillikni shakllantirish K.D.Ushinskiy pedagogik tizimining asosiy muammolaridan biri edi. U tarbiyachi o'z shogirdlarining mustaqil ishlashiga ko'proq imkoniyat yaratib bermog'i, o'quvchini tayyor xulosalar bilan qurollantirishga ko'ra, uning o'ziga xulosalar izlashni o'rgatmog'i kerak, — deb ta'kidlagan edi: «Grammatik qonun-qoidani o'qituvchi rahbarligida o'quvchining o'zi kuzatishini va xulosalashini istardik, o'quvchining umumiy taraqqiyotida grammatikaning asosiy ahamiyati ana shundan iborat».

Ta'limda faollik va mustaqillik muammosi bir-birini to'ldiradigan, o'zaro uzviy bog'langan pedagogik kategoriylar hisoblanadi. Har qanday aktiv faoliyat asosida mustaqil aqliy faoliyat yotadi. Mustaqil ishlarsiz hech qanday faol faoliyat bo'lmaydi. Ammo bu faollik va mustaqillik bir xil tushuncha ekan, degan fikr ga olib kelmasligi kerak. Faollik mustaqillik tushunchasiga nisbatan ancha kengroq sohani o'z ichiga oladi. Faollik to'g'risida gapirganda, o'qituvchi tushuntirishi, ma'ruzani diqqat bilan tinglash, turli xil vositalar: ko'rgazma quroq, mustaqil ish yordamida o'quvchilarning faolligini oshirish, ijtimoiy va ma'naviy hayotda faollik bilan ishtirok etish, moddiy ne'matlarni ishlab chiqarishda ijodkorlik, tashabbuskorlik ko'rsatish kabilar tushuniladi. Demak, faollik tushunchasi

xoh o'quv-tarbiya, xoh ijtimoiy va ma'naviy hayot sohasida bo'lmasin, kishining ongli, aqliy faoliyatini ifodalash uchun ishlataladi. Darslarda o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning faolligini oshirishning asosiy vositalaridan biri sanaladi.

Kishi mustaqil aqliy faoliyat ko'rsatish, mustaqil o'rganish orqaligina fan asoslarini puxta egallaydi. Kitob ustida mustaqil ishlay olish malakalari, dastavval, boshlang'ich sinflarda hosil qilinadi, bu malakalar yuqori sinflarda yanada takomillashtiriladi. Darslarda tashkil etiladigan mustaqil ishlar o'quvchilarda kitob ustida ishlash malakasini shakllantirishning yetakchi omilidir.

Didaktika va xususiy metodikaga oid adabiyotlarda mustaqil ishlar muammosi uch tomondan talqin qilinadi: **fan asoslarini egallahdagi mustaqillik — didaktik prinsip; mustaqil ishlash — o'qitish metodi; mustaqil ishlar — darsda tashkil etiladigan topshiriq — o'quvchi shaxsini shakllantirish vositasi.**

Umumiy ta'lim predmetlaridan biri sanalgan «Ona tili» o'quvchilarda mustaqillikni taraqqiy ettirish uchun juda boy imkoniyatlarga ega. Ona tili materiallari ustida tashkil qilinadigan topshiriqlar o'quvchilarni til hodisalarini kuzatish, tahlil va qayta qo'shish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish kabi malakalarni o'stradi.

O'quvchilarning mustaqil ishlari ona tili darslarining barcha bosqichlarida o'tkaziladigan, o'qituvchining bevosita ishtirokisiz, ammo uning ko'rsatmalari va rabbarligida bajariladigan, o'quvchilarning ongli ravishda faoliyat ko'rsatishini ta'minlaydigan grammatik vazifalardir.

Ilg'or o'qituvchilar darslarni ijodiy uyuştirishda o'quvchilarning mustaqil ishlariga tayanadilar. Kuzatishlar shuni tasdiqlaydiki, aksariyat o'qituvchilar mustaqil ishlarning o'ziga xos xususiyatlariga yetarli ahamiyat bermay, uni nafasni rostlab olish uchungina o'tkazadilar.

Ba’zi maktablarda ona tilidan o’tkaziladigan mustaqil ishlar o’quvchilarning bilimi, hayotiy tajribasi, individual xususiyatlariga to‘g’ri kelmaydi.

## **1-fasl. Ona tilidan o’tkaziladigan mustaqil ishlar tizimi**

Darslarda o’tkaziladigan mustaqil ishlar dars tipiga, dars jarayonining turli bosqichlariga, o’quv materialining mazmuniga bog‘liq bo‘ladi. Ona tilidan o’rganiladigan har bir mavzu, har bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyshtiriladi. Ona tili darslarida o’tkaziladigan mustaqil ishlarga quyidagi talablar qo‘yiladi: a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologik tomondan asoslangan, o’quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga mos bo‘lishi, o’quvchilarga tilni o’zlashtirishga qiziqtirishi lozim; b) o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o’quv materialini faol idrok etishini ta’minlashi zarur; d) mustaqil ish hayotiy bo‘lishi, o’rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo‘lmog‘i kerak.

Ta’lim ilgarilab ketgan sari mustaqil ishlarning hajmi, murakkabligi oshira boriladi. O’quvchilarning ish tempi, mustaqillik darajasi o’sadi. Masalan, uchinchi va beshinchi sinflarda «So‘z tarkibi» mavzusi o‘tiladi. O’quvchilar uchinchi sinfda o‘zak, o‘zakdosh so‘z, so‘z yasovchi qo‘srimchalar, so‘z o‘zgartiruvchi qo‘srimchalar to‘g‘risida dastlabki ma’lumotni oladilar, beshinchi sinfga o‘tgach esa, so‘z tarkibini yanada kengroq o’zlashtiradilar. Bu sinfda o‘zak, o‘zakdosh so‘z, qo‘srimcha, so‘z yasovchi va so‘z o‘zgartiruvchi qo‘srimcha, turlovchi va tuslovchi qo‘srimcha, negiz kabi terminlar vositasida bolalarning so‘z tarkibi haqidagi bilimlari yanada boyitiladi.

Boshlang‘ich sinflarda tashkil qilinadigan mustaqil ishlar hajmi va murakkabligi jihatidan uch guruhga bo‘linadi: tayyorlovchi; yarim mustaqil yoki oraliq; natijasi matnga teng mustaqil ishlar.

**1.Tayyorlovchi mustaqil ishlar.** Pedagogik-psixologiyadan ma'lumki, boshlang'ich sinf o'quvchilari vazifalarni mustaqil bajarishga ancha qiynaladilar. Ular berilgan topshiriqlarni taqlid qilish yo'li bilangina bajara oladi. Ilg'or o'qituvchilar birinchi sinfda dastlabki mustaqil ishlarni quyidagicha tashkil etishadi: avvalo, o'qituvchi o'quv qurollariga muomala qilish, o'quv qurollaridan foydalanish, o'qish va yozish paytida partada o'tirish qoidalarini amaliy ravishda ko'rsatib beradi. O'quvchilar o'qituvchiga ergashib, uning qilgan harakatlarini takrorlaydi. Bu ishlar asta-sekin murakkablashtirib boriladi. O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tovushni bo'g'inga, bo'g'inni so'zga birlashtiradilar. Gapni so'zga, so'zni bo'g'inga, bo'g'inni tovushlarga ajratadilar. O'quvchilarga tahlil qilishni o'rgatish maqsadida ularning diqqati konkret narsalarga tortiladi. O'qituvchi rasmni osa turib, (rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o'rik kabi mevalar ifodalangan) o'quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigan so'zlarni guruhlarga ajrating. O'ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo'ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o'quvchilar chog'ishtirish usulidan foydalananadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun «olma» so'zi ajratildi. Shu so'z bo'g'inlarga bo'linadi. «Olma so'zining ikkinchi bo'g'inidagi «m», «a» tovushlarining artik ulyatsiyasini kuzatish topshirildi (o'quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o'rtoqlarining og'ziga qaraydi). Suhbat paytida o'quvchilar «m» tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, «a» tovushini aytganda og'izning ochilishini o'rganib oладилар. Shunga o'xshash ishlarni bajarish natijasida o'quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o'quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

Tayyorlovchi mustaqil ishlar yuqori sinflarda o'quvchilarni yangi o'quv materialini ongli o'zlashtirishga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Masalan, 5-sinfda sifat haqida ma'lumot berish ko'zda tutilgan. Bolalar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra, ot bilan bog'lanib kelgan sifatlarni (tip-tiniq, muattar, serhosil, ko'm-ko'k), ularning so'roqlarini aniqlaydilar, sifatlarni o'zlari bog'langan otlar bilan ko'chirib yozadilar (tip-tiniq jilg'a, muattar hid, serhosil jylda, ko'm-ko'k daraxt). Bu ish o'quvchilarni sifat mavzusini ongli o'rganishga tayyorlaydi.

**2. Yarim mustaqil yoki oraliq mustaqil ishlar.** Mustaqil ishlarning bu turi yetaklovchi savollar, darslik, bosma asosli tarqatma materiallar, ko'rgazma qurollardan foydalanish asosida bajariladi. Misollar: o'qituvchi doskaga «paxta» so'zini yozib, o'zakdosh so'zlarni topishni buyuradi. O'quvchilar «paxta», «paxtazor», «paxtachilik», «paxtagub», «paxtali» kabi so'zlarni lug'atdan topib yozadi. Bu ishda yetaklovchilik vazifasini paxta so'zi o'yndaydi.

3-sinfda «Gapda so'zlarning bog'lanishi» mavzusi o'tilganda quyidagicha mustaqil ish o'tkaziladi.

1. Gapni so'zlarga ajrating, har bir so'zning so'rog'ini aniqlang.

Qor yog'di.

2. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zni qo'yib, gapni kenggaytirib yozing.

... qor yog'di. (oppoq, qizil, ko'm-ko'k)

Oppoq qor yog'di,

3. Gapni bugun, qalin so'zlari yordamida kengaytirib yozing.

Bugun oppoq, qalin qor yog'di.

**3. Natijasi matnga teng mustaqil ishlar.** Ta'llim ilgarilagan sari o'quvchilar yanada murakkabroq vazifalarni bajara oladilar. Shuni hisobga olib, grammatikadan o'rganiladigan bilimlarga bog'langan holda ijodiy diktant, hikoya, ish qog'ozlari, bayon, insho va boshqa ish turlaridan

mustaqil ish sifatida foydalanish mumkin. Bu ishlar hajmining kattaligi, bajarish uchun ko‘p vaqtni talab qilishi bilan mustaqil ishning oldingi turlaridan farq qiladi. Bunday mustaqil ishlarning oldingi turlaridan farqlash uchun «natijasi matnga teng mustaqil ishlar» terminini ishlatdik. Shunday qilib, ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlar tizimi o‘quv materialining mazmuni, sinf o‘quvchilarining tayyorgarlik darjasи, mustaqil ishni bajarish uchun ketadigan vaqtga ko‘ra aniqlanadi.

**4. Darslik materiallari ustida mustaqil ishlarni tayin etish yo‘llari.** Maktab darsliklarining oldiga qat‘iy ilmiy-izchillik, milliy istiqlol g‘oyasini singdirish kabi qator vazifalar qo‘yilmog‘i zarur. Stabillashgan, tajribada o‘zini oqlay olgan darsliklargina o‘quvchilarga har taraflama yetuk bilim bera oladi, o‘quvchilarni mustaqil ishslashga odatlantira oladi.

«Ona tili» darsliklari materiallari o‘zida grammatik kategoriyalarni, so‘z yasash shakllari va usullari, so‘z o‘zgartirish va gap tuzish yo‘llari, orfoepik va orfografik hamda punktuatsion qoidalarni mujassamlantirgan. Darslikdagi qonun-qoidalalar o‘zining abstraktligi, umumiyligi bilan xarakterlanadi. Demak, o‘quvchining umumiy taraqqiy qilishida ona tili alohida ahamiyatga ega bo‘lib, uning asosiy vazifalaridan biri, bolalarning tafakkurini o‘stirish, ularda kitob ustida ishslash malakalarini takomillashtirishdan iborat.

Maktablarda o‘qituvchilarning ish tajribasini o‘rganish, o‘quvchilarning darslik ustida ishlay olish iqtidorlarini tekshirish shu xulosaga olib keldiki, darslik materiallari o‘qituvchilar tomonidan atroflicha o‘rganilib, murakkabligi jihatidan farqlanmaydi, o‘quvchilarga darslik ustida mustaqil ishlay olish ko‘nikmalari singdirilmaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kitob ustida ishslash malakasini hosil qilmasdan yuqori sinfga ko‘chiriladi. Bu, bir tomondan, o‘quvchining bundan so‘ng o‘z bilimini oshirish ustida qunt bilan ishslashiga to‘sqinlik qilsa, ikkinchi

tomondan, o‘qituvchilarni qiyab qo‘yadi. Qisqasi, o‘quvchilar maktabni bitirgach, o‘zlarini faoliyat ko‘rsatib mustaqil bilim olishga poydevor hosil qilmasdan «hayotga yo‘llanma» oladi.

Kishining o‘z faoliyati evaziga hosil qiladigan shaxsiy sifatlari, bilim olishga bo‘lgan ishtiyobi uning maktab partasida hosil qilgan shaxsiy sifatlarining (bilim olish, tevarak-atrofdagi voqelikka to‘g‘ri munosabatda bo‘lish, irodalilik, mustaqillik, tashabbuskorlik va shu kabilalar) qonuniy davomidir. **Kishining o‘z faoliyati — taraqqiyot asosi. Faoliyatdan tashqarida taraqqiyot bo‘lmaydi.** Bu qonuniyat yosh avlod uchun alohida ahamiyatga ega. O‘quvchi maktabda darslik ustida mustaqil ishlashni qanchalik puxta o‘rgansa, maktabni bitirib chiqqandan so‘ng o‘z bilimini oshirish uchun shunchalik muvaffaqiyatli ishlay oladi.

Maktab o‘qituvchilaridan ba’zilari ko‘pincha, grammatik-orfografik qoidalarni ikki-uch jumla bilan aytib beradi yoki shu qoidalarni bir o‘quvchiga o‘qitish bilan chegaralanadi. Darslarda o‘quvchilar dalillardan xulosalar chiqarishga o‘rgatilmaydi, darslik mashqlarini mustaqil, ongli bajarishga bolalar tayyorlanmaydi. Natijada o‘quvchilar darslikdagi qoidalarni quruq yodlab oладар.

Grammatik qonun-qoida ustida o‘tkaziladigan mashqlar jamoaviy xarakterga ega bo‘lib, o‘qituvchi faqat doskaga chiqarilgan o‘quvchi bilan ishlaydi. Sinf jamoasi esa o‘rtog‘ining doskadagi ishidan nusxa oladi. Ko‘pchilik maktablarda ta’limning asosiy nuqsonlaridan biri, o‘quvchilarga ma’lum chegarada bilimlar e’lon qilinsa-da, ammo ularning umumiyligi aqliy taraqqiyotiga yetarli e’tibor bermaslikda, bolalarga mustaqil ishlash malakalarini singdirmaslikdadir. Bu ahvolni odilona tanqid qilib, Prezident I.A.Karimov yozgan edi: «Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samarasini past bo‘lishi

muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o‘z yo‘liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».<sup>20</sup>

Darslik materiallari ustida o‘quvchilarni mustaqil ishlashga o‘rgatish ikki bosqichda amalga oshiriladi: o‘quvchilarda tashkiliy-texnik malakalarini hosil qilish; o‘quvchilarga darslikdagi grammatik qoidalar va mashqlar ustida ishslash yo‘llarini o‘rgatish.

O‘quvchilarni kitob ustida mustaqil ishslashga o‘rgatishning dastlabki bosqichi bolalarni darslik bilan tanishtirishdir. O‘qituvchi kitob bilan tanishtirayotganda, faqat kitob muqovasi, rasmlarnigina ko‘rsatib qo‘ya qolmay, balki har bir mayda elementini: kitobning nomi, muallifining familiyasi qayerga yozilishi, betlari, mundarijasini ham tushuntirib berishi zarur. Buning uchun kirish suhbatni o‘tkaziladi. Suhbatda, avvalo, o‘quvchilar diqqati darslik muqovasiga tortiladi, o‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida kitob mualliflarini, kitob ona tilini o‘rganish uchun yaratilganligini, uning «O‘qituvchi» nashriyotidan chiqqanligini bilib oladilar. So‘ngra o‘quvchilar diqqati darslik materiallariga tortiladi. Suhbat davomida o‘quvchilar har bir paragrafning grammatik qoida va amaliy mashqlardan iborat ekanligini tushunadilar. Keyin darslik mundarijasidan foydalanish amaliy tushuntiriladi. O‘qituvchi suhbatni yakunlar ekan, bolalarga quyidagi so‘zlar bilan murojaat qiladi:

— Bolalar, kitob — bilimning asosiy manbai. Uni kishilar mehnat qilib yaratgan. Kitobni o‘qiganda, uni kim yozganligini, qachon yozganligini, nima uchun va kim uchun yozganligini bilish nihoyatda zarur. Kitobdan foydalanganda uni oxirigacha varaqlab turmasdan, oldin mundarijasiga qarab, kerakli paragrafni topib olishga o‘rganing.

Boshlang‘ich ta’limning ilk kunlaridan boshlab o‘quvchilarga darslik ustida ishslashning quyidagi qoidalariga yuqori

<sup>20</sup> Barkamol avlod orzusi. – T.: «Sharq», 1999. 16-bet.

sinflarda ham qat'iy rioya qilinadi: **ishda tashkiliylik** (ish paytida o'rtoq'ingga xalaqit berma), **ishda zaruriy temp** (ishni o'rtoqlaring bilan bir paytda boshlab, bir paytda tamom qil, orqada qolma), **ishda irodalilik** (har bir ishni oxiriga yetkazib, a'lo darajada bajar), ishda ozodalilik. Har bir ishni vijdonan bajar (o'rtoq'ingdan ko'chirma).

O'quvchilarda darslik ustida ishslashning tashkiliy-texnik malakalari hosil qilinishi bilan birga, ularga darslik materiallari ustida ishslash yo'llari ham o'rgatiladi.

**I. Grammatik qoidalar ustida ishslash.** Grammatik qoidalar ustida mustaqil ishslashning quyidagi yo'llari o'quvchilarga o'rgatiladi.

**A. Darslikdagi qoidani o'qish va uni misollar orqali tushuntirish.** Masalan, 5-sinfda «Sifat — so'z turkumi» mavzusi yuzasidan o'quvchilarga shunday vazifa berish mumkin:

— Qoidani o'qing, narsaning rangi, mazasi, shaklini bildirgan so'zlarga misollar o'ylab toping. Shu so'zlar qanday so'roqni oladi?

O'quvchilar oq, qora, shirin, nordon, katta, baland, uzun, dumaloq kabi sifatlarni o'ylab topadilar, shu so'zlarning so'roqlarini aniqlaydilar. Bolalar darslikdagi qoidadan misolga qarab boradi. Shu yo'l bilan bolalar deduksiyani o'rganadilar.

**B. Misollardan xulosalar chiqarish va uni darslikdagi qoidalarga taqqoslash.** O'quvchilar avval misollarni kuzatadilar, tahlil qiladilar, so'ngra xulosa chiqaradilar. O'zлari chiqargan qoidani darslikdagi qoidaga taqqoslaydi. Bolalar induktiv yo'l bilan qoidani o'rganadi, mustah-kamlaydi.

**D. Grammatik qoidalarni saylab o'qish.** Agar o'quvchi ma'lum orfogrammaga oid qoidani, grammatik ta'riflarni unutgan bo'lsa, saylab o'qish usulidan foydalilanildi. Masalan, o'quvchilar oxiri «k» undoshi bilan tugagan so'zlarga jo'nalish kelishigi qo'shimchasi qo'shilganda yuz

beradigan fonetik o'zgarishlarni unutib xatoga yo'l qo'ysa, darslikning tegishli betidagi qoidani o'qiydi, darslikdagi misollarga o'xhash misollar o'ylab topadi. Qarmoq, terak, yurak, qulqoq, kurak, boshoq, o'tloq kabi so'zlarga jo'naliш kelishigi qo'shimchasini qo'shadi, gaplar tuzadi.

**E. Grammatik qoidalarni qismlarga ajratish.** Darslikda berilgan qoidalarni mantiqiy qismlarga ajratishni ham bolalarga o'rgatish zarur.

**F. O'r ganilgan qoidalarga oid misollarni o'quvchilar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra darslik, o'qish kitobi, gazeta va jurnallardan izlaydilar.** Bular o'quvchilarda izlanish, o'r ganish havasini uyg'otadi, ularni ijodkorlikka o'rgatadi.

**II. Darslik mashqlari ustida ishslash.** Grammatikadan beriladigan bilimlar darslik mashqlari yordamida mustahkamlanadi. Shunga ko'ra, mashqlarga bo'lgan talab juda ham katta. Grammatik mashqlar ustida mustaqil ishslashni o'quvchilarga o'rgatish uchun quyidagi ish usullaridan foydalilaniladi.

**A. Mashqlarni variantlarga bo'lib ishslash.** Bu usul yordamida ish qilinganda o'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Bajariladigan mashq yuzasidan o'quvchilarga ikki variantda topshiriq beriladi. O'quvchilar topshiriqni bajarib bo'lganlaridan keyin, birinchi variant o'quvchilari ikkinchi variant o'quvchilarining, ikkinchi variant o'quvchilari esa birinchi variant o'quvchilarining ishlarini o'zaro daftarlarni almashtirib tekshirishadi. Variantlar bo'yicha ishslash o'quvchilarning faolligini, qiziqishini, mustaqilligini oshiradi.

**B. Mashqlar asosida jadvallar tuzish.** Bunday ishlar o'quvchilarga umumiy tushunchalarni o'rgatish uchun juda foydali bo'ladi. Bolalar jadvalni to'ldirishda anor, nok, olxo'ri, gilos, behi kabi so'zlarni bir umumiy nom bilan «mevalar» deb aytishni, sabzi, piyoz, karam kabilarni «sabzavot» tushunchasi doirasida umumlashtirishni bilib oladilar. Bu ishlar o'quvchilarning mantiqiy tafakkurini o'stiradi.

**D. Saylab yozish.** Darslikdagi mashqlardan saylab yozish uchun ham foydalanish mumkin. Masalan, tutuq belgisi imlosi bo'yicha berilgan mashqda bolalar o'qituvchi taklifiga ko'ra, mashq matnidan faqat tutuq belgisi bor so'zlarni tanlab yozadilar, ularning tagini chizadilar. Shu yo'l bilan o'quvchilar bu so'zlarining imlosini o'rganishadi.

Ona tili darsligida grammatik qoidalarni o'qish va uni misollar orqali tasdiqlash, misollardan xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosani darslikdagi qoidalarga taqqoslash, saylab o'qish, mashqlarni variantlarga ajratish, jadvallar tuzish, saylab yozuv kabi usullar vositasida o'quvchilar darslik ustida mustaqil ishlash malakalarini egallab olishadi.

**E. Darsning turli bosqichlarida mustaqil ishlarni o'tkazish.** Darsning turli bosqichlarida o'tkaziladigan mustaqil ishlarning har biri ma'lum maqsad uchun xizmat qiladi. Masalan, o'tilgan mavzular yuzasidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash, bilim va malakalardagi zaif tomonlarni aniqlash maqsadida tashkil qilinsa, yangi mavzuni o'rganishdan oldin shu mavzuga oid materiallar asosida uyushtiriladigan ishlar o'quvchilarni yangi o'quv materialini faol idrok etishga tayyorlaydi. Mavzu o'rganilgach, tashkil qilinadigan mustaqil ishlar bilimlarni mustahkamlashga va malaka hosil qilishga xizmat qiladi.

Yangi o'quv materialini o'rganish paytida mashg'u-lotning quyidagi bosqichlarida mustaqil ishlar o'tkaziladi:

1. **Grammatik materialni izohlashda:** a) til dalillarini kuzatish — mavzuga oid dalilik materiallarni o'qib chiqish, taxminiy tahlil qilish; b) grammatik qoidalarga oid misollar tanlash va yozish, doska, ko'rgazma qurorda berilgan misollarga o'xshash misol topish, namunali misollarni yozish; d) mustaqil topilgan misollarni o'qituvchi misollariga chog'ishtirish.

**2. Darslik ustida ishlashda:** a) aytilgan bet, grammatic qoida, mashqni darslikdan topish; b) biron mashq qilishdan oldin darslikdagi qoidani o‘qib chiqish; d) darslikdagi misollarga o‘xhash misollar aytish, misollardan xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosani darslikdagi qoidaga taqqoslash.

**3. O‘rganilgan qoidaning amaliy qo‘llanishi ustida ishlashda:** a) o‘rganilgan qoidaning amaliy qo‘llanishini misollar orqali tushuntirish; b) o‘rganilgan qoidalarga tayanib bog‘li matn tuzish va sh.k.

**4. Takrorlash jarayonida mustaqil ishlarning quyidagi ko‘rinishlaridan foydalaniladi:** a) o‘qituvchi yoki o‘rtoqlari aytgan grammatic-orfografik qoidalarga doir misollar topish va daftarlarga yozish; b) doskaga yozilgan misolning qaysi qoidaga oidligini tushuntirish; d) savollarga yozma javob tayyorlash; e) o‘tilgan qoidani so‘zlab berish rejasini tuzish; f) o‘rganilgan qoidani qo‘llab o‘qituvchining topshirig‘ini bajarish; g) partadosh o‘rtoqlarining ishlarini tekshirish; h) o‘rtoqlarining javoblarini tuzatish va to‘ldirish; h) grammatic tahlil, izohli yozuv kabi ijodiy vazifalarni o‘qituvchi topshirig‘iga ko‘ra bajarish.

## **2-fasl. O‘quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish**

O‘quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish sohasida o‘qituvchi quyidagi qoidalarga rioxasi qilishi kerak.

**1. O‘quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlash.** O‘quvchilarni mustaqil ishlashga tayyorlashda oldin oddiyroq topshiriq beriladi, so‘ngra shu topshiriq asosida yanada murakkabroq vazifa o‘tkaziladi. Masalan, 5-sinfda «Turdosh va atoqli otlar» mavzusi bo‘yicha «Tarjimai hol» yozdirish uchun quyidagicha ish qilinadi: avvalo, bolalarmi ishga tayyorlash uchun quyidagi tarqatmadan foydalanadi. Tarqatmada o‘quvchining ismi, familiyasi, otasining ismi, qayerda, qachon tug‘ilganligi, hozir qaysi maktabda

o‘qiyotganligi kabi savollar beriladi. Bu savollarga javob topish orqali bolalar atoqli otlarning bosh harf bilan yozilishi, tarjimai holning taxminiy mazmuni bilan tanishadilar.

### **Tarqatma namunasi**

1. Ism va familiyangiz ... ... ... ... ...
2. Otangizning ismi, familiyasi ... ... ... ... ...
3. Qayerda, qachon tug‘ilgansiz? ... ... ... ... ...
4. Qaysi mакtabda o‘qiyisz? ... ... ... ... ...
5. Eng yaqin o‘rtog‘ingizning ismi? ... ... ... ... ...
6. Kimlar bilan dars tayyorlaysiz? ... ... ... ... ...

O‘quvchilar ўuqoridagi tarqatma bo‘yicha berilgan topshiriqni bajarganlaridan keyin, qynalmasdan tarjimai hol yozadi. Qo‘yilgan har bir topshiriqning maqsadini, shartini, bajarilish yo‘lini tushuntirish yo‘li bilan o‘quvchilar topshiriqlarni bajarishga tayyorlanadi.

**2. Bajariladigan mustaqil ishlarga quyidagi talab qо‘yiladi:** har bir topshiriq o‘quvchining kuchi yetadigan, o‘quvchilarga tushunarli bo‘lishi, topshiriqlar o‘quvchilarni bilim olishga, o‘rganilgan bilimlarni tajribada qo‘llashga undashi lozim.

**3. Mustaqil ishslash jarayonida o‘quvchilarga individual munosabatda bo‘lish.** Ma’lumki, sinfning barcha o‘quvchilari bir xil tayyorgarlikka ega bo‘lmaydi. Dars jarayonida o‘tkaziladigan mustaqil ish o‘qituvchining bolalarga individual munosabatda bo‘lishini ta’minlashi lozim.. O‘qituvchi mustaqil ishni topshirgandan so‘ng, ulgurmovchi o‘quvchilarga yordam beradi. Shuningdek, ishning murakkabroq turini ilg‘or o‘quvchilarga, yengilroq topshiriqni kam ulguradigan o‘quvchilarga berish yo‘li bilan ta’lim jarayoni individuallashtiriladi.

**4. Mustaqil ishlarni bajarish uchun yetarli vaqt ajratish.** Mustaqil ishlarni bajarish uchun ajratilgan vaqt ikki xil omil bilan belgilanadi: mustaqil ish darsning qaysi bosqichida

uyushtirilishiga ko'ra, topshiriqning hajmi, murakkabligiga ko'ra. Mustaqil ishni bajarishda berilgan vaqtidan unumli foydalanish uchun bolalarni ishni bir paytda boshlab, bir paytda tugatishga o'rgatish kerak.

### **5. Bajarilgan mustaqil ishni tekshirish va baholash.**

Bajarilgan topshiriqlar quyidagi yo'llar bilan tekshiriladi:

— **jamoaviy tekshirish.** Ishning bajarilishini o'quvchilardan biri aytib turadi, bolalar o'z ishlariga qarab xatolarini tuzatadilar;

— **saylab tekshirish,** bunda o'qituvchi o'zi istagan ishlarni uyga olib ketadi, natijasini kelgusi darsda bayon etadi;

— **o'zaro tekshirish.** O'zaro tekshirish quyidagi yo'llar bilan amalga oshiriladi: o'quvchi o'z ishini tayanch manbaga qarab tekshiradi, daftarlarni o'zaro almashtirib tekshirish. Bajarilgan topshiriqlarni o'z vaqtida tekshirish o'quvchilarning mas'uliyatini oshiradi;

— **bilishga undaydigan holat yaratish,** muammoni o'quvchilarga yetkazish, muammoni mustaqil hal qilish orqali ta'limni amalga oshirish yo'li.

Taniqli polyak pedagogi Vinsenti Okon muammoli, dasturlashtirilgan va an'anaviy o'qitishni o'zaro chog'ishtrib, oxirisining quyidagi kamchiliklarini ajratadi:

— ta'lim jarayonida dastur materiallarini to'liq o'tish birinchi o'rinda turadi. O'quvchi va uning bilimlarini egallash jarayonida orttirgan tajribasi, bolalarning bilimlarni egallash usullari ikkinchi o'ringa tushiriladi;

— o'qituvchining diqqat markazida dastur materiallarini o'tib olish turganligi sababli, odatda, ko'proq bilimlarni dogmatik bayon qilish metodlaridan foydalaniladi, bilimlar aksariyat hollarda tayyor holda beriladi;

— har bir o'quvchining bilimlarni o'zlashtirishda o'ziga xos individual tempi mavjud: ba'zi o'quvchilar o'quv materialini sekin qabul qilsa, ba'zi o'quvchilar tez qabul qiladi. O'qituvchi bilimlarni bayon qilish tempini yo ilg'or o'quvchilarga, yo o'rtamiyona bolalarga moslaydi.

Tanlangan temp sinfdagi barcha o'quvchilar uchun bir xil bo'ladi;

— o'qituvchi ta'limni qanchalik samarali tashkil qilsada, uning natijasini — o'quv materialini qay darajada o'zlashtirganligini o'z vaqtida nazorat qila olmaydi.

Hozirgi paytda maktablarda ta'lim jarayonini tashkil etishda ko'pincha o'quvchilar xotirasiga asoslaniladi. Hanuzgacha o'quvchilarning darslarda tayyor bilimlarni o'zlashtirishi bиринчи о'rinda turadi. Bilimlar o'qituvchi tomonidan bayon qilinadi. O'quvchilar tinglaydilar, xotirada saqlaydi, savol-javob paytida eshitgan yoki o'qiganlarini eslab, aytib beradi. Ta'limni shu yo'sinda tashkil etish reproduktiv-qayta eslash faoliyatini rivojlan-tirishga xizmat qiladi.

### **3-fasl. Ona tili ta'limida muammoli darslar**

O'quvchi tevarak-atrofdagi narsalarni, ularning mohiyatini bordaniga emas, balki asta-sekin o'rganadi. O'qish, kundalik faoliyat, kishilar bilan aloqada bo'lish bolalar oldiga yangi-yangi vazifalar qo'yadi. Bolalar grammatik usullar bilan aqliy faoliyat usullarini puxta o'rganib olishsa, ulardan foydalanish yo'llarini aniq his qilishsa, ularning ish unumi oshadi.

Fan asoslarini o'zlashtirishning ikki tomoni mavjud: o'quv narsalariga oid bilimlarini xotirada to'plash: o'rganilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish usullarini egallah. «Ta'lim ratsional tashkil etilganda, — deb yozadi N.A.Menchinskaya, — bu jarayonning ikkala tomoni ham bir xil taraqqiy etadi. Aks holda, bilimlarni to'plash oldin ketib, o'rganilgan bilimlardan amaliyotda foydalanish orqada qolib ketadi». Ma'lum mavzular bo'yicha bilimlarni to'plash va shu bilimlardan amaliyotda foydalanish usullarini egallahda bolalarning o'quv-biluv faoliyati qanday kechadi? Bunday faoliyat qanday komponentlardan tarkib topadi?

Tekshirishlar shuni tasdiqlaydiki, ta'lim jarayonida biror grammatik hodisani o'zlashtirish uchun o'quvchi ko'rsatadigan faoliyat ushbu uzvlardan iborat bo'ladi: o'qituvchi tomonidan qo'yilgan topshiriqlarni anglash uchun ko'rsatiladigan faoliyat; o'quv materialini turli manbalardan idrok etish; idrok etilgan bilimlarni anglash, umumlashtirish; bilimlar bo'yicha dalil to'plash va to'plangan dalillarni tahlil qilish; o'rganilgan nazariy materiallarning amaliy qo'llanilishini egallash. O'qitish jarayonida bu komponentlardan birortasi ishtirok etmasa, ta'limning puxtaligiga putur yetadi. Bolalar o'quv-biluv faoliyatining birinchi uzbiga rioya qilmasa, bilimlarni o'zlashtirish jarayonidagi onglik ta'minlanmaydi: oxirgi uzb e'tibordan chetda qolsa, ta'limda formalizm paydo bo'ladi. O'rganilgan bilimlar bo'yicha yetarli miqdorda dalillar to'plab, tahlil qilinmasa, o'quvchilar o'zlashtirilgan bilimlarni ikkinchi bir vaziyatga tatbiq etishda qiynaladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar faoliyati ma'lum mavzuga oid bilimlarni o'rganish va o'rganilgan bilimlarning nutq faoliyatida qo'llanilishini o'zlashtirish bilan yakunlanadi. Biror mavzuni o'rganish jarayoni tugagach, uning o'zlashtirishini tekshirish qanday natija beradi? Mavzu ustida yetarli mashq o'tkazilgach, uning natijasi qay darajada bo'ladi? Shu savollarga ko'ra «Sifat» mavzusida eksperiment o'tkazildi. Darslikda sifatning ta'rifi, sifatlarning otga bog'lanib kelishiga oid bilimlar berilgan. Mashg'ulot ushbu umumiylar ta'rif asosida o'tkazildi: narsalarning rangini, maza, ta'm bildiruvchi so'zlarga sifat deyiladi.

Mavzu yuqoridaagi ta'rif asosida o'rganilgach, mashq o'tkazilmasdan bolalarga sifatlar o'ylab topish va ular ishtirokida gaplar tuzish topshirildi. Topshiriqning natijasi shuni ko'rsatadiki, sinfdagi eng ilg'or o'quvchilar ham vazifani bajarishda ancha qiynalishgan. Ikkinchi soatda sifatlarning yasalishi va yozilishi o'rgatildi. Uchinchi soatda

sifatlarning ta’rifi, yasalishi, yozilishi ustida mashq qilindi. Sifat mavzusi bo‘yicha yetarli mashq o‘tkazilgach, bolalarga birinchi soatda o‘tkazilgan yozma ishlar qaytarildi. Ularga o‘z ishlarida yo‘l qo‘ygan xatolarni tuzatish, sifatlar ishtirokida gap tuzishni davom ettirish tavsiya etildi. O‘quvchilarning deyarli hammasi birinchi mashg‘ulotda yo‘l qo‘ygan o‘z xatolarini tuzatishgan, sinfdagi past o‘zlash-tiruvchi o‘quvchilar ham sifatlar ishtirokida uch-to‘rttadan gap tuzishgan.

Ko‘rinadiki, ma’lum mavzuga doir bilimlar o‘rganilgach, shu bilimlarga rioya qilib grammatik topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar xatoga yo‘l qo‘yishlari ham mumkin. Bu o‘quvchining bilimlarni yomon o‘rganganining oqibati emas, balki o‘rganilgan bilim bilan uning nutq faoliyatida qo‘llanishi o‘rtasida mustahkam aloqadorlikning hosil qilinmaganligidadir. O‘rganilgan bilimlar bilan uning amaliy qo‘llanishi o‘rtasidagi aloqadorlik mashq qilish yo‘li bilan o‘rgatiladi.

Ma’lum mavzu bo‘yicha bilimlarni o‘rganish va o‘rganilgan bilimning amaliyotda qo‘llanishini egallash jaryonida bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning uch xil shakli mavjud.

An’anaviy dars tiplari o‘quv jarayonini, binobarin, bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning yetakchi shakli sanaladi. An’anaviy dars tiplari o‘quv jarayonining tarkibiy elementlarini va darsning maqsadini tahlil qilish asosida yaratilgan. Bunday dars tiplarida o‘quv materialini o‘rganish va o‘rganilgan bilimlarning amaliyotda qo‘llanishini egallash uzoq muddatni talab etadi.

Bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning ikkinchi shakli o‘quv jarayoni mantiqiy tahlil qilish asosida yaratilgan dars tiplaridir. Bunday dars tiplarida o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash parallel olib boriladi. Unda dars tiplari va har bir dars tipiga mos keladigan topshiriqlar tanlanadi. Har bir dars tipiga mos

---

keladigan topshiriqlarni tanlash o‘quv materialini o‘rganish va o‘rganilgan bilimlarning amaliyotda qo‘llanishini egallash o‘rtasidagi interval qisqaradi. Bu ona tili o‘qitish uchun davlat tomonidan ajratilgan vaqt byudjetini tejash imkoniyatlarini beradi.

**Muammoli darslar o‘quv jarayonini tashkil etishning, bolalar o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning yangi — uchinchi shaklidir.** Bunday darslarda bolalar yangi o‘quv materialini, uning amaliy qo‘llanishini ijodiy yo‘l bilan o‘zlashtiradi. Muammoli darslarda o‘rganilayotgan mavzuga oid dalillarni to‘plash va shu dalillarni tahlil qilish, bilimlarni o‘rganish va mustahkamlash, o‘rganilgan bilimlarning amaliy qo‘llanishini egallash parallel olib boriladi.

Muammoli darslarda o‘quvchi faoliyatining evristik layoqati taraqqiy etadi. O‘quvchilar fan sohasida qo‘llaniladigan metodlarni o‘rganib olishadi. Bunday darslarga ham, an’anaviy dars tiplariga o‘xshab qator vazifalar qo‘yiladi. Shu bilan birga, muammoli darslar o‘ziga xos xususiyatlarga ham ega. «Muammoli o‘qitish, — deb yozadi A.M.Matyushkin, — ta’limning boshqa tizimlari va metodlariga tamoman zid emas. Uning xususiyatlari ...ta’lim jarayonining ma’lum bosqichida — yangi bilimlarni o‘rganish jarayonida — yangicha faoliyat ko‘rsatish shartlari hamda usullarini o‘rganish bilan xarakterlanadi».

Muammoli darslarni, psixolog olimlarning fikricha, quyidagi bosqichlar asosida tashkil etgan ma’qul:

— **darsning boshlanishi.** Bu bosqichda bolalarning o‘quv materialiga qiziqishlarini oshirishga oid ishlar qilinadi. O‘quvchilar oldiga mavzuga doir muammo yoki muammolar qo‘yiladi:

— **mavzu bo‘yicha qo‘yilgan muammolar ustida o‘qituvchi va o‘quvchilarning birgalikda ishlashi.** Bu paytda bolalar o‘qituvchi savollariga asoslanib, mavzuga doir turli

fikrlarni aytishadi, o‘quvchilar aytgan fikrlar jamoa bo‘lib tahlil qilinadi. Shu yo‘l bilan qo‘yilgan muammo yechiladi. Muammoni yechish yo‘li bilan o‘quvchilar nazariy bilimlarni «o‘zlaricha kashf etadilar». Agar zarus bo‘lsa, o‘qituvchi bolalar chiqargan xulosalarni to‘ldiradi:

- o‘rganilgan bilimlarni qo‘llab, topshiriqlarni bajarish;
- mavzu yuzasidan yakunlovchi xulosa chiqarish.

Muammoli darslarni «Son» (3-sinf) mavzusi misolida ko‘zdan kechiraylik: 3-sinfda son bo‘yicha ushbu bilimlar o‘rganiladi: son narsaning sanog‘ini va tartibini bildiradi: narsaning sanog‘ini bildirgan sonlar qancha? nechta? so‘roqlari, narsaning tartibini bildirgan sonlar nechanchi? so‘rog‘ini oladi. Shu bilimlarga ko‘ra muammolar qo‘yiladi.

Muammoli darslarda sinf o‘quvchilarining barchasi faol ishtirok etadi. Mavzu bo‘yicha dalil to‘plash, dalillarni tahlil qilish, tahlil qilingan dalillar asosida xulosa chiqarish, nazariy bilimlarni o‘rganish va ularning amaliy qo‘llanishini egallahash parallel olib boriladi. Bunday darslarda bolalar ijodiy fikr yuritadi. Ammo muammoli darslarning salbiy tomonlari ham bor: ona tili predmetiga oid mavzularning hammasini muammolar qo‘yish yo‘li bilan o‘rgatib bo‘lmaydi: muammoli darslarda o‘quv materialini o‘rgatish va mustahkamlash uchun ko‘p vaqt ketadi. Masalan, yuqoridagi darsda yangi o‘quv materialini o‘rgatish va mustahkamlash uchun 35 daqiqa yaqin vaqt ketdi.

Bolalarning o‘quv-biluv faoliyatini boshqarishning yana bir shakli har bir dars tipiga mos keladigan topshiriqlarni tanlash yo‘li bilan o‘quv materialini o‘rganish va o‘rganilgan bilimlarning amaliy qo‘llanishini egallahni ketma-ket olib borishdir. Quyida 3-sinfda «Son» mavzusini topshiriqlar vositasida o‘qitish namunasini keltirib, muammoli o‘qitish bilan topshiriqlar vositasida o‘qitishni o‘zaro chog‘ishtiramiz.

Ma’lumki, yangi o‘quv materiali ustida ishlash jarayonida uch narsaga alohida e’tibor beriladi: bolalarni

yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash; yangi o'quv materialini o'rgatish; o'rganilgan o'quv materialini dastlabki mustahkamlash. O'qituvchi ana shu bosqichlar o'rtasidagi aloqadorlikni ta'minlash uchun ko'chma doskaga yozilgan matn ustida quyidagi topshiriqlarni tashkil etdi.

### Matn

Biz Alpomish ko'chasidagi o'n ikkinchi uyda yashaymiz. Oilamizda besh kishi bor. Otam shahardagi qirq birinchi mактабда o'qituvchilik qiladi. Ikki ukam bolalar bog'chasiiga qatnaydi. Onam to'rtinchi bolalar kasalxonasida hakim(vrach)lik qiladi.

**1-topshiriq.** Matnni o'qib, oldin narsalarining sanog'ini, keyin tartibini bildirgan so'zlarni o'zi bog'langan ot bilan ko'chiring.

O'quvchilar *besh kishi, ikki ukam, o'n ikkinchi uy, qirq birinchi maktab, to'rtinchi kasalxona* birikmalarini yozishadi.

**2-topshiriq.** O'zingiz yozgan so'z birikmalari tarkibidagi sonlarning so'rog'ini aniqlang.

O'quvchilar o'qituvchi yordamida sanoq sonlarning qancha?, nechta? so'roqlarini, tartib sonlarning nechanchi? so'rog'ini olishini aniqlashadi. Bolalar bajargan ikkala topshiriq yordamida sonning ta'rifi, ma'no jihatdan turlari, ularning so'roqlari tushuntiriladi, sonlarning otga bog'lanishi uqtiriladi. So'ngra son mavzusi bo'yicha o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash va bu bilimlarning amaliyotda qo'llanishini o'rgatish uchun darslik mashqlari oldin og'zaki, keyin esa yozma bajariladi. Shunday qilib, yangi o'quv materialini o'rgatish uchun 15 daqiqa atrofida vaqt ketadi. Berilgan topshiriqlar bolalarni ham yangi mavzuni o'rganishga tayyorlaydi, ham o'quvchilar nutqidagi sonlarni faollashtiradi. Bunday darslarda ham bilimlarni o'rganish va ularning amaliy qo'llanishini egallash parallel olib boriladi. «Son» mavzusida o'tkazilgan bu ikkala

darsni o‘zaro chog‘ishtirganda quyidagi manzara hosil bo‘ladi:

Muammoli darsda o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan muammolarni yechish, natijalarini induktiv yo‘l bilan umumlashtirish bolalarning o‘quv-biluv faoliyatining negizini tashkil etadi. Qo‘lga kiritilgan natija, ya’ni o‘rganilgan bilimlar bola shaxsiy faoliyatining mahsuli sanaladi. O‘quvchi empirik yo‘l bilan mavzuni o‘rganadi. Ikkinchi dars namunasida bolalar o‘quv materialini avval empirik yo‘l bilan, keyin esa nazariy yo‘l bilan o‘rganadi. Topshiriqnì bajarish paytida bolalar o‘quv materialining tarkibi bilan tanishadi, bolalar ongida «Son» tushunchasining umumiy asoslari hosil bo‘ladi. Mavzuni tushuntirish paytida o‘qituvchi bolalar ongida hosil bo‘lgan umumiy bog‘lanishlarni grammatik istilohlar vositasida aniqlashtiradi. Bu paytda empirik yo‘l bilan o‘rganilgan bilimlar «narsaning sanog‘i», «narsaning tartibi», «sanoq son», «tartib son» tushunchalari ostida to‘planadi. Bunday o‘rganiladi. Til hodisalarini tushunchalar vositasida o‘rganishda deduksiya asosiy rol o‘ynaydi. Tushunchalar vositasida o‘qitishga nazariy o‘qitish deyiladi. Nazariy o‘qitishda vaqt kamroq sarf etiladi. Har bir dars tipiga mos keladigan topshiriqlarni tanlash yo‘li bilan ta’lim amalga oshirilganda empirik va nazariy o‘qitish o‘zaro qo‘shiladi.

**Ta’lim — o‘rganilayotgan narsa-hodisalar mohiyatiga o‘quvchilarini rejali, ongli olib kirish yo‘lidir.** O‘rgani- layotgan narsalar o‘quvchining ongidan, tajribasidan qancha ko‘p o‘tsa, u shu narsaning mohiyatiga shunchalik chuqur kirib boradi. Ta’limning obyektiv borishi va uning mantiqi o‘quvchilar oldiga yangi-yangi vazifalar qo‘yadi. Ta’lim jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchlari o‘qituvchi tomonidan qo‘yilgan topshiriq va uni bajarish uchun o‘quvchilar ko‘rsatadigan aqliy hamda jismoniy faoliyat o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

Ta'lism jarayonidagi ziddiyatlar turli paytda, turli shakllarda namoyon bo'ladi. O'quvchi ba'zan o'qituvchi tomonidan tatbiq etilgan topshiriqlarni bajarish uchun, ba'zan esa o'r ganilgan nazariy bilimlar doirasida dalil toplash va ularni tahlil qilish uchun, yana bir holda o'r ganilgan bilimlarning amaliy qo'llanilishini egallash uchun faoliyat ko'rsatadi. Ta'lism jarayonida grammatik topshiriqlarni to'g'ri tashkil etish, ularni ma'lum izchillikda murakkablashtirib borish orqali bu jarayonning dialektik mohiyatiga, binobarin, bolalarning o'quv-biluv faoliyatlarini taraqqiy ettirishga rioya qilinadi.

Ta'lism jarayonida o'quvchilarning bilish yo'li bilan katta kishilarning bilishi o'rtasiga keskin chegara qo'yib bo'lmaydi. Olim bilan o'quvchining bilish faoliyati o'rtasidagi farq faoliyat turida emas, balki faoliyatning taraqqiyot darajasidadir. O'quvchida aqliy faoliyat usullari bilan o'quv-biluv faoliyati usullari to'g'risida bilim, malakalar hosil qilinsa, ularni qo'llay olish yo'llari o'rgatilsa, u fan asoslarini ongli, atroflicha egallaydi. Ta'lism bolalarning o'quv-biluv faoliyatiga mo'ljallab tashkil etilganda, o'quvchilarga o'quv materialini o'r ganish yo'llari o'rgatilganda, katta kishilarning ish metodlari bolalarning o'z ish metodlariga aylanadi. Bu bolalarnnig o'quv-biluv faoliyatlarini boshqarish uchun imkoniyatlar yaratadi.

## VIII BOB

### ONA TILI DARSLARINING TIPOLOGIK TAMOYILLARI VA DARS TIPLARI

Jamiyatimiz yuqori ma'lumotli, fan asoslarini chuqur egallagan, milliy istiqlol ruhida tarbiyalangan, o'z bilimlarini ishlab chiqarishga mohirlik bilan tatbiq qila oladigan kishilarni talab etadi. Bunday kishilarni tarbiyalashda dars muhim rol o'ynaydi. Shu tufayli darsga bo'lgan talab ham o'sib boradi. Darsga qo'yiladigan asosiy talablardan biri ilmiylikdir. Darslarda o'rganiladigan bilimlar mazmuni o'zbek tilshunosligining ilmiy yutuqlarini o'zida aks ettirishi, ta'lim jarayonining maqsadiga hamda bolalarning bilim saviyasiga mos bo'lishi zarur. Ta'limda bularning birontasiga rioya qilinmasa, ona tili mashg'ulotlarining samaradorligiga putur yetadi. O'quvchilarning yoshiga mos kelmaydigan elementar yoki nihoyatda murakkab bilimlar bolalarning til faniga oid qiziqishlariga salbiy ta'sir qiladi. Ona tili darslarida o'qitish metodlari bilan birga, fan sohasida ishlataladigan usullardan foydalanish mashg'ulotlarning samaradorligini oshiradi. Bolalarga tahlil va qayta qo'sha olish, induktiv va deduktiv xulosalar chiqara bilish, til hodisalarini kuzatish, kuzatilgan hodisalarga oid dalillar toplash, to'plangan dalillarni taqqoslash yo'llarini o'rgatish o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Dars — ijodiy jāravon. Darslarda o'quvchilarning ijodiy faoliyati qancha taraqqiy ettirilsa, ular o'z oldiga qo'yilgan aqliy vazifalarni shuncha qiynalmasdan bajaradilar. Bola topshiriqlarni ishlash sirlarini o'rganib borgan sari, unda ijodiy fikr yuritish qobiliyati shakllana boradi. Ijodiy fikr yuritish o'quvchilarda evristik layoqatni o'stiradi. Darslarni ijodiy tashkil etish, vaqtidan ratsional foydalanish, mashg'ulotlarni operativ o'tkazish o'qituvchidan zo'r

mahorat talab etadi. Dars sinf jamoasining mehnat jarayonidir. Bunda mustaqil ishlar katta ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarda tashabbuskorlik, o‘z kuchiga ishonch va dadillikni tarbiyalaydi. Darsning yangi materialni o‘rgatish va mustahkamlash bosqichlari quyidagi reja asosida olib boriladi: darsning maqsadini tushuntirish; yangi mavzuga oid dalilik materiallarni tahlil etish; misollardan xulosalar chiqarish; chiqarilgan xulosalarni darslikdagi qoidalarga chog‘ishtirish; o‘rganilgan qoidanining amaliy qo‘llanishi ustida ishlash. Xo‘p shunday ekan, ona tilidan dars tiplari qanday ajratiladi? Pedagogik amaliyotda qo‘llanayotgan darslar bir-biridan qanday farq qiladi? Ushbu bobda shu masalalar yoritiladi.

### **1-fasl. Ona tiliga oid darslarning tipologik tamoyillari**

Dars inson tafakkuri durdonalarini, fan va texnika, san’at va adabiyot yutuqlarini, Vatanimiz tarixi hamda xalqimizning milliy madaniyatini yoshlarga singdirishning assosiy shaklidir. Dars ta’limning boshqa shakllaridan o‘zining tashqi va ichki xususiyatlari ko‘ra farq qiladi. O‘quvchilarning doimiy guruhi, qat’iy rejim va dars jadvali, mashg‘ulotlarni ma’lum xonada o‘tkazish kabilalar tashqi xususiyatlarga, darsning maqsadi, o‘quvchilarning bilim olishga qiziqishlari, ta’lim materialini his qilish, anglash, tushunish kabilalar ichki xususiyatlarga kiradi. Dars ana shu ikki xil xususiyatning o‘zaro uyg‘unlashuvi zaminida tashkil etiladi.

Keyingi paytlarda dars va uning tashkiliy qurilishida katta o‘zgarishlar yuz berdi. Juda ko‘p olimlar, metodistlar, ilg‘or o‘qituvchilar mahalliy va markaziy matbuot sahifalarida dars qurilishini takomillashtirish, ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faolligini oshirish to‘g‘risida g‘oyat qimmatli fikrlar bildirmoqdalar. Lekin ona tilidan o‘tkaziladigan darslarning tashkiliy qurilishi ba’zi bir

nuqsonlardan ham xoli emas. Darslarda yangi o‘quv materialini o‘rgatish va mustahkamlash jarayoni o‘rtasidagi uzilish, vaqtdan ratsional foydalana olmaslik, dars tiplarini aksariyat o‘qituvchilarning ajrata bilmasligi kabilar ana shunday nuqsonlar sirasiga kiradi.

Dars tipining nomini bildiruvchi so‘z yoki so‘z birikmasi o‘qituvchi uchun signal vazifasini o‘taydi. O‘qituvchi uchun tushuncha hamda signal vazifasini o‘tayotgan dars tipining nomi, masalan, «yangi bilim berish darsi» iborasi xatoliklarga olib kelmoqda (Oliy o‘quv yurtlari uchun pedagogikadan yaratilgan qo‘llanmada darslarning birinchi tipi «yangi bilim berish darsi» deb atalgan). Chunki «yangi bilim berish» degan ibora bilan dars tipini ajratadigan o‘qituvchi mashg‘ulotning asosiy maqsadi qilib yangi bilim berishni belgilaydi-yu, uni mustahkamlashni e’tibordan chetda qoldiradi.

Tajribali o‘qituvchilar yangi mavzuni o‘rgatishni ikki xil yo‘l bilan olib borishadi: o‘rganiladigan material oldingi mavzularning birontasiga bog‘liq bo‘lsa, ishni takrorlashdan boshlaydilar. O‘tilgan mavzu takrorlangach, yangi o‘quv materiali tushuntiriladi. Agar yangi mavzu oldin o‘tilgan fasllarga bog‘lanmagan bo‘lmasa, to‘g‘ridan-to‘g‘ri yangi mavzu tushuntirilaveradi. Ikkala holatda ham yangi o‘quv materiali o‘tilgach, uni mustahkamlash ustida ish olib boriladi. Yangi materialni o‘rgatish darsining asosiy ikkita belgisi bor: **yangi bilimlarni o‘rgatish; o‘rgatilgan bilimlarni dastlabki mustahkamlash**. Shu xususiyatlariga ko‘ra, darsning bu tipini uning boshqa turlaridan farqlaymiz. Demak, yuqorida dars tipini «**yangi materialni o‘rgatish va mustahkamlash darsi**» deb atamoq maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Pedagogika darsliklarida darslarning ikkinchi tipi «**Mustahkamlash darsi**» nomi bilan atalgan. Bunday darslarda o‘quvchi oldin o‘rganilgan materialga ikkinchi marta qaytadi, olgan nazariy bilimlari asosida amaliy

mashqlar bajaradi. Ruhshunoslar «bilimlarni mustahkamlash» iborasi ruhiy jarayonni o‘zida to‘liq aks ettirmaydi deb, «mustahkamlash» terminiga shubha bilan qaramoqdalar. Bunday mustahkamlash mashg‘ulotlarida mashq qilish yo‘li bilan o‘quvchilarda malaka hosil qilinadi. Shuning uchun darsning bu tipini «mustahkamlash darsi» deb emas, balki uni «o‘tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi» deb yuritgan ma’quldir.

Darsning tashkiliy qurilishidagi asosiy kamchiliklardan biri — dars tiplariga berilgan nomlarda bo‘lsa, ikkinchisi — darslarning tipologiyasidadir. Didaktika va xususiy metodikaga oid adabiyotlarda dars tiplari turlicha ajratiladi. Pedagogika darsligida «Mashg‘ulotning asosiy qismini (dars soatining ko‘p qismini) ishg‘ol qilgan dars shakli...» dars tiplarini ajratishning asosiy kriteriyasi sifatida qabul qilinadi. Ba’zi pedagoglar dars tiplarini tasnif etishda o‘qitish metodlarini ko‘zda tutadi. Vaqt taqsimoti, o‘qitish metodi dars tiplarini ajratishning asosiy tamoyili bo‘la olmaydi. 45 daqiqalik vaqt ni taqsimlashda o‘quv materialining hajmi, murakkabligi, sinf o‘quvchilarining tayyoragarlik darajasiga asoslaniladi. Bir metod yordamida o‘rgatilgan mavzuni boshqa metod vositasida ham o‘rgatish mumkin. Buning uchun o‘quv materialining mazmuniga muvofiq, uni o‘rgatishni osonlashtiradigan metodni tanlay bilish lozim.

Ayrim mualliflar, masalan, S.V.Ivanov dars tiplarini o‘quv-tarbiya jarayonining ichki qurilishidan, uning tarkibidan izlashgan. Fikrimizcha, dars tiplarini ta’lim jarayonini akt, halqalariga ko‘ra ajratish mantiqan to‘g‘ri fikr. Ammo ta’lim jarayoni juda ko‘p halqa, aktlardan iborat. Bunday yondashuv dars tiplarining nihoyatda ko‘payib ketishiga sabab bo‘ladi. Shundan bo‘lsa kerak, S.V.Ivanov tasnifida sakkiz xil dars tipi ajratilgan: kirish darsi; yangi bilimlarni o‘zlashtirish darsi; o‘rganilgan bilimni amaliyotda qo’llash darsi; malaka hosil qilish darslari;

**mustahkamlash; takrorlash va umumlashtirish darsi; nazorat dars; aralash dars.**

Maktablar tajribasida yuqorida sanalgan darslarning hammasi ham qo'llanmaydi. O'rganilgan bilimlarni amaliyotda qo'llash o'tganlarni takrorlash darsining murakkab ko'rinishidir. Binobarin, uni alohida dars tipi sifatida talqin etishga ehtiyoj qolmaydi. Mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirish darslarini bir tip ostida birlashtirish prinsip (umda) jihatidan to'g'ri emas. Hozirgi zamон ruhshunosligida o'zlashtirish jarayoni o'quv materialini his etish, anglash, o'rganish, malaka hosil qilish kabi uzvlardan iborat ekanligi isbotlangan. Shunday ekan, yangi bilimlarni o'zlashtirishni alohida dars tipi sifatida ajratish nomaqbul bo'ladi. Chunki o'zlashtirish jarayoni hajm va mazmun jihatidan dars tipiga nisbatan kengroq sohani o'z ichiga oladi. Shularga ko'ra, yuqoridagi tasnif til o'rgatishning mohiyati, maqsadi, vazifalariga mos kelmaydi.

M.A.Danilov va S.G.Shapovalenko dars tiplarini ta'lim jarayoni maqsadiga ko'ra beshga bo'ladi: ta'limdan ko'zlangan barcha vazifalarni amalga oshirish darslari (o'rganish, mustahkamlash, takrorlash, tekshirish, umumlashtirish), yangi materialni idrok etish va dastlabki o'zlashtirish darslari, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, malaka va ko'nikmalar hosil qilish darslari; mustaqil ishlash darslari; bilim va malakalarni umumlashtirish, tizimlash-tirish, tekshirish darslari. Lekin bu tasnidfa ziddiyat ko'zga tashlanadi. Birinchidan, bu tasnidfa ikkinchi, dars tipini «yangi materialni idrok etish va dastlabki o'zlashtirish» deb atalgan. Dars tipini shu shaklda qabul qilsak, unda uchinchi, to'rtinchi, beshinchi dars tiplari o'zlashtirish tushunchasi doirasidan chetda qoladi. Ikkinchidan, mustaqil ish malaka va ko'nikma hosil qilishning, bilimlarni turmushga tatbiq etishning bir vositasidir. Ko'rindiki, mustaqil ishlarni darsning alohida bitta tipi sifatida ajratishga ehtiyoj

qolmaydi. Uchinchidan, bu tasnifda dars tiplari bir tomonlama, ya'ni ta'limning didaktik maqsadiga ko'ra tasnif qilingan. Bunday tasnif o'quv predmetiga oid o'zaro bog'langan darslar tizimini ishlab chiqish uchun ojizlik qiladi. Chunki unda o'quv predmetining xususiyatlari hisobga olinmagan.

A.V.Tekuchev esa dars tiplarini ikki tomondan: ham darsning maqsadiga ko'ra, ham darsning mazmuniga ko'ra tasnif etadi. A.V.Tekuchev tasnifi bo'yicha darslar maqsadiga ko'ra uch xil bo'ladi: yangi bilimni bayon qilish darsi; bilimlarni mustahkamlash darsi; nazorat darslari; mazmuniga ko'ra, darslar to'rt xil bo'ladi: grammatika darslari, orfografiya darslari, punktuatsiya darslari, nutq o'stirish darslari.<sup>21</sup> Dars tiplarini ajratishda Y.Abdullayev ham shu tamoyilga rioya qilgan.<sup>22</sup>

Bizningcha, ona tili darslarini tiplarga ajratishning eng maqbul yo'li yuqoridagi tasnifdir. Ammo bu tasnifning zaif tomoni ham mayjud. Birinchidan, bu tasnifda darslarni tiplarga ajratishning birinchi tamoyili sifatida dars maqsadi olingan. Ta'lim jarayonida qilinadigan har bir ish ma'lum bir maqsad uchun xizmat qiladi. Masalan, o'qituvchi atoqli otlarni tushuntirgandan keyin, ularning imlosini mustahkamlash uchun saylanma diktant o'tkazishi mumkin. Darsning boshlanishida qilingan ishlar atoqli otlarning grammatik xususiyatlarini o'rgatishga oid bo'lsa, darsning keyingi qismida qilingan ishlar orfografiya o'rgatishga doir bo'ladi. Mohiyat jihatidan atoqli otlarning grammatik xususiyatlari va ularning imlosi bo'yicha qilinadigan ishlar bir-biridan farq qiladi. Shunday ekan, yuqoridagi tasnifning birinchi kriteriysi dars tiplarini ajratishda asosiy tamoyil

<sup>21</sup> А. В. Текучев. Методика русского языка в средней школе. — М.: 1970, второе издание, стр. 132.

<sup>22</sup> Y.Abdullayev. Ona tili o'qituvchilarining ish tajribasidan. — T.: 1965, 5-16-bet.

bo'la olmaydi. Ikkinchidan, bu tasnifda maqsadga ko'ra uch xil dars tipi ko'rsatilgan. Ammo asosiy dars tiplaridan biri — umumlashtiruvchi darslar e'tibordan chetda qolgan. Uchinchidan, dars tiplarini ajratish uchun ishlatalilgan istilohlar juda ham qulay emas. Masalan, «yangi bilimlarni bayon qilish» iborasi maqsadga muvofiq emas. Bayon qilish — o'qitish metodining nomi. Binobarin, «bayon qilish» iborasi o'mniga «o'rgatish» istilohini ishlatgan ma'qul.

Biz dars tiplarini ajratishda o'quv jarayoni mantiqiga tayanamiz. O'rtta maktab ta'limi gumanitar, tabiiy va aniq fanlarni o'z ichiga oladi. Bu fanlarning o'zaro bog'liqligi, aloqadorligi ta'lim mantiqini tashkil etadi. Aynan olingan bir o'quv predmeti (masalan, ona tili) ta'lim mantiqining bir elementi sanaladi. Ta'lim predmeti mantiqini shu fan bo'limlari orasidagi bog'lanish, har bir bo'limda beriladigan ilmiy tushunchalarining o'zaro munosabati tashkil etadi. Ona tilidan atroflicha bilim olish uchun o'quvchilar til fonetikasini o'rganishlari, morfologiyani o'zlashtirish uchun so'zning umumiyligini xususiyatlarini, ya'ni leksikani, sintaksisiga oid bilimlarni egallash uchun morfologiyani bilishlari lozim. Morfologiya bo'limi so'z tarkibi va so'z turkumlari qismlaridan iborat. «So'z tarkibi»ning o'zi ham darslikda bir nechta mavzu-paragraflar (o'zak, negiz, qo'shimchalar) ostida berilgan. Bular o'quv materialini tashkil qiladi.

Ta'lim mantiqi va ta'lim predmeti mantiqi barqaror bo'lib, ular fan va texnika sohasida sezilarli kashfiyotlar bo'lgunga qadar, o'z hajmi hamda mazmunini saqlaydi. Fan va texnika, san'at va adabiyot sohasidagi keyingi yutuqlar ta'lim mazmunini qayta ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqardi. Natijada barcha o'quv predmetlari bo'yicha yangi dasturlar va darsliklar yaratildi.

**Ta'lim mantiqi, ta'lim predmeti mantiqi** iboralari vositasida ta'lim mazmunining o'quv-tarbiya ishlari boshlangan davrgacha bo'lgan holatini ifodalaymiz.

Demak, bu iboralar orqali ta'limning statik holati belgilanadi.

Ta'lim jarayoni o'qituvchi rahbarligida boshqariladi. O'quv materialini o'rganish, o'rganilgan bilimlar asosida malaka hosil qilish va ularni umumlashtirish hamda tekshirishga ketgan vaqt o'quv jarayoni hisoblanadi. O'quv jarayoni mantiqini o'quv materiali va uni o'zlashtirish psixologiyasi tashkil etadi. Boshqacha aytganda, o'quv jarayoni mantiqi o'quv materiali mazmuni bilan uni o'zlashtirish psixologiyasining o'zaro bog'lanishidan iborat. Bu haqda M.A. Danilov shunday deb yozadi: «O'quv jarayoni logikasi-obyektiv qonuniyat. U bolalarning o'quv predmeti, uning bo'lim va mavzularini o'rganish boshlangan davrdagi bilim saviyalari, taraqqiyot darajalaridan tortib, to o'quvchilarning bilim va taraqqiyotlariga mos ravishda ta'lim predmeti, uning bo'lim va mavzularini to'liq o'zlashtirgunga qadar bo'lgan izchil harakatini o'z ichiga oladi». Demak, o'quv jarayoni mantiqi deganda, ta'lim mazmunining statikasi emas, aksincha, uning dinamikasi nazarda tutiladi.

O'quv jarayoni mantiqi o'quv jarayoni taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi bo'lib, u o'quvchilar oldiga qo'yilgan vazifalarda, ularni yechish uchun bolalar ko'rsatadigan aqliy, jismoniy, hissiy intilishlarda o'z aksini topadi. O'quv jarayonida bolalar oldiga qo'yilgan har bir topshiriq faoliyatni talab etadi. Faoliyat ko'rsatish orqali har bir topshiriqda ifodalangan mazmun o'zlashtiriladi. O'quv predmeti bo'yicha o'tkaziladigan darslarning, dars doirasida tashkil etiladigan topshiriqlarning o'zaro aloqadorligiga rioya qilish yo'li bilan o'quv jarayonining dialektik mohiyatiga amal qilinadi.

Ta'limning unumdorligi dars tiplarini aniq belgilashga, ularga qat'iy amal qilishga bog'liq. «Dars tipi u yoki bu o'quv soati uchun asossiz qabul qilingan yorliq emas, aksincha, o'rganilayotgan mavzu doirasida o'zida dialektik

taraqqiyotni aks ettiradigan o‘qitish va o‘qish, o‘rgatish va o‘zlashtirish, amalda qo‘llash va nazorat qilish bosqichlarining jonli oriyentidir», — deb yozgan edi S.V.Ivanov.

O‘quv jarayoni mantiqi dars tiplarini, har bir mashg‘ulotda o‘tkaziladigan topshiriqlarni izchil tahlil qilishni talab etadi. Bunda o‘quv predmeti va uni o‘zlashtirish psixologiyasi o‘zaro aloqada tekshiriladi. Dars tiplarini ajratishda o‘quv jarayoni logikasiga tayanish o‘quv predmeti yuzasidan o‘tkaziladigan topshiriqlarni, juz’iy dalillarni umumiyl tushunchalar bilan yaxlit, o‘zaro bog‘langan holda olish imkoniyatini beradi.

## **2-fasl. Ta’lim jarayoni maqsadiga ko‘ra dars tiplari**

Til mashg‘ulotlarini ta’lim jarayoni maqsadiga ko‘ra tahlil qilish — o‘zlashtirish jarayonini falsafiy, didaktik va psixologik nuqtai nazardan yoritish masalasi bilan uzbek bog‘langan. O‘quvchi — ijtimoiy individ. U ta’lim jarayonida kishilik jamiyatni tomonidan to‘plangan bilimlarni o‘zlashtiradi. O‘quv predmetining mantiqiy strukturasi, shu fan sohasida ishlatilgan ilmiy istilohlar, tushunchalar tizimi o‘quvchilar bilish faoliyatining mazmunini tashkil etadi. Ta’lim mazmuni ta’lim maqsadiga ko‘ra belgilanadi.

Fan sohasida qilingan har bir kashfiyot abstraksiyalash va umumlashtirish natijasi bo‘lganidek, ta’lim jarayonida fan asoslarini egallash ham abstraksiyalash va umumlashtirish mahsuli sanaladi. O‘zlashtiriladigan bilimlarning · hajmi, mundarijasi, o‘rgatish usullari, vositalari o‘quv jarayonining tashqi omillaridir. Ta’limning tashqi omillari ichki omillar zaminida (tahlil, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash va hokazo) amal qiladi. Ichki va tashqi omillarning o‘zaro aloqadorligi samarali natijalar beradi.

Didaktika va xususiy metodikaga oid tadqiqotlarda o‘quv jarayonining yaxlitligiga e’tibor berilmaydi. Didaktikaga oid adabiyotlarda, ta’lim jarayonining turli

tomonlari, turli o'qitish usullari atroflicha tahlil qilinsa-da, o'quvchilar ongining ichki o'zgarishi, ularning o'quv predmetiga bo'lgan munosabati, ta'limning ichki harakatlantiruvchi kuchlari yaxlitligicha o'rganilmayotganligini e'tirof etishga to'g'ri keladi.

Har qanday yaxlit tizim bo'laklardan, qismlardan iboratdir. Ammo tartibsiz holda olingan, o'zaro bog'lanmagan bo'laklar yaxlit tizimni tashkil eta olmaydi. Yaxlit tizim bir-biri bilan uyg'unlashgan, muvofiqlashgan bo'laklardan tashkil topadi. Obyektning yaxlitligi uchun xizmat qila oladigan bo'lak yaxlit tizimning tarkibiy uzvi hisoblanadi. Muhokama obyekti taraqqiyotda, rivojlanishda qaralib, tarkibiy uzvlar o'zaro aloqada tekshirilganda, bu jarayonning dialektik mohiyati to'g'ri tushuniladi. O'rganilayotgan obyekt, uning tarkibiy elementlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir turlariga, tashkiliy tamoyillarga va omillarga ko'ra o'z mazmunini o'zgartiradi. Obyektning mazmuni unda amal qiladigan qonuniyatlar bilan o'lchanadi. Qonuniyatlar o'rganilgan sari, shu jarayonni ilmiy tashkil etish imkoniyatlari orta boradi.

Fanning yaxlitlik tamoyili ta'lim mazmuni hamda uning tashkiliy shakli bo'lgan darsning ham asosiy tamoyilidir. O'quv predmeti bo'yicha o'rganiladigan bilimlar, o'zlashtiriladigan tushunchalar o'zaro aloqada o'qitilgandagina ta'limning yaxlitligi saqlanadi. Ammo buning o'zigina yetmaydi. O'quv predmeti bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligiga, darslarda o'rganish, mustahkamlash, umumlashtirish jarayonlari . uzviy bog'liqligiga rioya qilish ona tili ta'limining samaradorligini oshirish omillari hisoblanadi. Dars tiplarini aniqlash, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatish uchun tahlilni o'quv jarayonining maqsadidan boshlaymiz.

Maqsad oldindan anglangan natija bo'lib, unga erishish faoliyatni talab etadi. Oldindan anglangan natijaga erishish uchun ko'rsatiladigan faoliyat — maqsadga muvofiq

faoliyat sanaladi. Maqsadga muvofiq faoliyat moddiy, ma'naviy va ijtimoiy hayotda jamiyatning bundan keyingi taraqqiyotiga mos keladigan yangi mohiyatning paydo bo'lishi, yangilik bilan eskilik o'rtasidagi kurash inson hayotida ma'lum natijaga erishish uchun ko'rsatiladigan faoliyat kabi ko'rinishlarda ro'y beradi. Maqsad va maqsadga muvofiq faoliyat o'zaro uzviy bog'liq bo'ladi.

Ko'zlangan natijaga erishish uchun kishi faoliyat ko'rsatadi. Faoliyat ko'rsatish uchun kishida ma'lum qobiliyatlar shakllangan bo'lmog'i lozim. Maqsad — oldindan anglangan natijaga qarab intilish, faoliyat ko'rsatish, natijaga olib keladigan qobiliyatlarni ishga solish zaminida qo'lga kiritiladi. U kishining xatti-harakatini, uning imkoniyatlarini, qobiliyatini yagona bir maqsadga yetaklaydi.

Inson o'z amaliy faoliyatida obyektiv olamga duch keladi, unga bog'liq bo'ladi, o'z faoliyatini u bilan belgilaydi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar faoliyati tabiat va jamiyat to'g'risidagi bilimlarga duch keladi. Ta'lim mazmuni o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining mazmunini ham belgilaydi. O'quvchilarning bilish faoliyati o'qituvchi tomonidan boshqariladi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi faoliyatining predmeti o'quvchilar bo'lib, u insoniyat tomonidan ochilgan qonuniyatlarini bolalar ongiga singdirish uchun faoliyat ko'rsatsa, o'quvchi faoliyatining predmeti maktab dasturida ko'rsatilgan bilimlar bo'lib, u fan asoslarini egallash, shu bilimlarga oid malaka hosil qilish uchun faoliyat ko'rsatadi. O'qituvchi o'z faoliyatida sinalgan, samarador nazariy bilimlardan foydalanadi, u o'z maqsadini aniq his qiladi. Bu maqsadlar dastur va darsliklarda aniq ko'rsatiladi.

Maktab ta'limining maqsadini fan asoslari bilan o'quvchilarni o'slashtirishga qaratilgan. Barcha o'quv predmetlari yagona maqsadga — barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu ta'limning umumiy maqsadi

hisoblanadi. Ta'lim jarayonining umumiyligi maqsadi nazariy bilin, malaka, o'quvchining aqliy taraqqiyoti, tafakkuri, dun yoqarashi kabi uzvlardan tashkil topadi.

Ta'lim jarayonining umumiyligi maqsadini tashkil etgan uzvlar o'zaro uzviy bog'langan. Nazariy bilimlarni o'rghanmasdan, malakalar hosil qilmasdan o'quvchilarни aqliy jihatdan taraqqiy ettirish mumkin emas. O'quvchilarни aqliy jihatdan taraqqiy ettirmasdan, ularning tafakkurini o'stirmasdan, bolalarda dunyoqarashni shakllantirib bo'lmaydi. Tafakkur — jarayon, xotira uning mahsulidir. Shunday bo'lgach, o'quv jarayonida o'rghaniladigan bilim o'quvchining tafakkuridan qancha ko'p o'tsa, o'rgani-layo tgan mavzu ustida bolalarning aqliy faoliyati qancha ko'proq tashkil etilsa, bu bilim xotirada shuncha ko'p va uzoq muddat saqlanadi.

Ta'lim jarayoni maqsadini tahlil qilishni yana davom ettir sak, xususiy maqsadni, xususiy maqsadni amalga oshi rishda rioya qilinadigan juz'iy maqsadni, juz'iy maqsadning uzvlari yoki yaqin didaktik maqsadni ajratib olish mumkin. Ta'lim jarayonining xususiy maqsadi alohida olingan bir o'quv predmetini o'rgatishdan ko'zlangan maqsaddir. Ta'lim jarayonining juz'iy maqsadi deganda, ma'lum bir o'quv materialini o'rganishdan ko'zlangan maqsadni tushunamiz. Juz'iy maqsad o'quv materialiga ko'ra belgilanadi. Masalan, «Ravishlarning ma'no jihatdan turlari» mavzusini o'tishning maqsadi o'quvchilarga holat, payt, o'rin, daraja-miqdor ravishlarini ajrata olishni, ularning o'zaro farqlari, o'ziga xos xususiyatlarini, ma'molarini singdirishdir. Ta'lim jarayonidagi juz'iy maqsadlarni amalga oshirish yo'li bilan o'quvchilar bo'la kdan butunga qarab boradilar. O'quv predmeti to'liq o'r ganilgach, ularda shu o'quv predmetiga oid ma'lum tushuncha hosil bo'ladi. Demak, ta'lim jarayonining juz'iy maqsadi o'quv predmetining mazmuni, o'quv materialining xususiyatlariga ko'ra belgilanadi.

Ta’lim jarayonining yaqin didaktik maqsadi o‘quv materialini o‘zlashtirish psixologiyasidan kelib chiqadi. Ta’lim mazmuni doimo harakatda bo‘ladi. Bu harakat o‘quvchining bir o‘quv materialiga turli paytda turlicha munosabatda bo‘lishi, turli o‘qitish metodlarini qo‘llash orqali ro‘y beradi. Ba’zi mashg‘ulotlarda o‘quv materiali o‘rgatilsa, ba’zilarida esa o‘rganilgan qoidalar asosida malaka hosil qilinadi, ba’zilarida o‘rganilgan bilim va malakalar tekshiriladi, o‘quv predmetining ma’lum qismi yoki bo‘limi yuzasidan olingan bilimlar umumlashtiriladi. O‘quv materialini o‘rganish, malaka hosil qilish, umumlashtirish, bilim va malakalarni tekshirishi o‘quv jarayonining yaqin didaktik maqsadlari hisoblanadi.

O‘quvchi ta’lim jarayonida yaqin didaktik maqsaddan umumiyl maqsadga qarab boradi. O‘quv jarayonining yaqin didaktik maqsadi metodik-pedagogik kategoriya bo‘lib, ularning har biri o‘quv jarayonining barcha xusu siyatlarini o‘zida aks ettiradi. Ular dars tiplarini ajratishning dastlabki mezoni sanaladi. Yaqin didaktik maqsadlarni belgilash ko‘p jihatdan o‘quv jarayoni strukturasiga bog‘liq bo‘lsa-da, ammo ularga teng bo‘lmaydi.

Ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga intellektual topshiriqlarni qo‘yish, bolalarning bu vazifalarni anglashi, ularda o‘rganish ishtiyoqining tug‘ilishi, o‘quvchilarining yangi o‘quv materialini turli manbalardan idirok etishi, qo‘yilgan muammoni yechish, mustaqil ishlash orqali yangi bilimlarni o‘rganishi, ilmiy tushunchalarni shakkantirish, umumlashtirish, fanga oid qonuniyatlarni egallashi, mashq qilish va boshqa yo‘llar bilan o‘rganilgan bilimlarni mustahkamlash, takomillashtirish, malaka hosil qilishi, bilim va malakalarni amaliyotda qo‘llashi va o‘qituvchining bilim va malakalarni tekshirishi kabi vazifalar hal qilinadi.

Ta’lim jarayonining yaqin didaktik maqsadini tashkil etgan elementlar ta’limdan ko‘zlangan umumiyl maqsad uchun xizmat qilish bilan birga, xususiy vazifalarni ham

bajaradi. Masalan, ta'lim jarayonining bilim va malakalarni tekshirish halqasining xususiy vazifalari shulardan iborat: bilim va malakalarni bolalarning qaydarajada o'zlashtirganini tekshirish; ularning bilim va malakalaridagi zaif tomonlarni aniqlash; o'zlashtirilgan tushuncha, hosil qilingan malakalar ustida bundan keyin qilinadigan ishlarni belgilash.

Yuqorida bayon qilingan mulohazalarga asoslanib, o'quv jarayonining to'rt xil yaqin didaktik maqsadini ko'rsatish mumkin: a) o'quv materialini o'rgatish va o'rgatilgan bilimlarni mustahkamlash; b) ularni takrorlash va malaka hosil qilish; d) ma'lum bo'lim yoki mavzu yuzasidan bilim va hosil qilingan malakalarni umumlashtirish; e) ma'lum mavzu yuzasidan bilim va malakalarni tekshirish. O'quv materialini o'rganish va mustahkamlash ta'lim jarayonining dastlabki yaqin didaktik maqsadidir. Bu uzb o'zida ta'lim jarayonining barcha xususiyatlarini aks ettiradi. Fikrimizni dalillash uchun «Qo'shma otlarning yasalishi» mavzusi bo'yicha o'tkazilgan darsning tafsilotini keltiramiz. Darsni jihozlash uchun quyidagi ko'rgazma quroldan foydalanildi.

### **Qo'shma otlarning yasalishi**

Qo'shma otlar-ning yasalishi	Misollar	
	So'zlar	Gaplar
Ot+ot	Ot+qulqoq qo'l+arra	Otqulqoq — dorivor o'simlik. Qo'arra — mehnat quroli.
Sifat+ot	ko'k+sulton	Bog'chamizdag'i ko'ksultonning
Son+ot	uch+burchak	hosili mo'l bo'ldi.
	ming+oyoq	Uchburchak uchta siniq chiziqdan hosil bo'ladi.
ot+fe'l	o'rinn+bosar	Mingoyoq — zaharli hasharot. O'g'il — otaning o'rinnbosari

Mavzuni bolalarning atroflicha o'rganishini ta'minlash maqsadida, dars quyidagi tartibda tashkil etiladi.

## Dars bosqichlari

I. Mustaqil ish. Gaplarni ko‘chiring, qo‘shma so‘zlarning tagiga chizing. Bu so‘zlarning tarkibini aytib berishga tayyorlaning *Gulzorda itog ‘iz, karnaygul va boshqa gullar ochilgan. Olapo ‘choq, qizilurug’, bo‘rikalla — qovun turlari.*

II. Yangi mavzuni tushuntirish (o‘qituvchi ko‘rgazma quroq asosida qo‘shma otlarning ot bilan otdan: *ot+qulog*, sifat bilan otdan: *ko‘k+sulton*, son bilan otdan: *uch+burchak*, ot bilan fe’ldan: *o‘rin+bosar* yasalishini tushuntiradi). O‘quvchilar ko‘rgazma quroq, o‘qituvchining nutqidan yangi materialni idrok etishadi, ular tilimizga xos qonuniyat — kompozitsiya yo‘li bilan qo‘shma otlarning yasalishini anglab olishadi.

III. Yangi mavzuni mustahkamlash: a) darslikda berilgan qoidalarni o‘qish; b) yoddan qo‘shma otlarga misollar o‘ylab topish; d) saylab yozish (o‘quvchilar mashq paytida qo‘shma otlarni ajratib yozadilar).

IV. Mavzu yuzasidan o‘quvchilar bilimini tekshirish. Mashq bo‘yicha so‘zlar ko‘chiriladi, qo‘shma otlarning qanday tuzilganligi qavs ichida ko‘rsatiladi: *Yangiyo l* (sifat+ot).

V. Uyga vazifa berishni tashkil etish.

VI. Bolalar bilimini baholash.

VII. Darsni yakunlash.


Psixologik nuqtai nazardan biror o‘quv materialini o‘zlashtirishda bolalarning bilish faoliyati to‘rt bosqichni bosib o‘tadi: o‘quv materialini idrok etish; o‘quv materialini, qo‘yilgan muammoni tushunish; o‘rganilgan bilimlarni xotirada saqlash; xotirada qolgan bilimlarni amaliy faoliyatda ishlatish. Yuqorida dars namunasida bolalar yangi bilimlarni ko‘rgazma quroldan, darslikdan, o‘qituvchi nutqidan idrok etadi. O‘quv materialini turli manbalardan (ko‘rgazma quroq, darslik, o‘qituvchining nutqi) idrok etish yo‘li bilan bolalar yangi mavzuga oid bilimlarni tushunib oladilar. O‘quv materialini mustahkamlash

maqsadida yoddan misollar yozdiriladi, mashq ishlataladi, qoida darslikdan o'qitiladi. O'quvchi bu ishlarni bajarishda o'rganilgan qoidalarga tayanadi. Darsda keyingi topshiriqni bajartirishda, bir tomondan, bolalar o'rganilgan qoidalardan amalda foydalanish yo'llarini o'zlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, shu topshiriqni bajara olish o'quvchilarning yangi mavzuni qaydaraja o'zlashtirganliklari to'g'risida ham hukm yuritish imkonini beradi. Shunday qilib, o'quv materialini o'rganish va mustahkamlashning o'zi ta'lif jarayonining barcha xususiyatlarini aks ettiradi.

O'rganilgan o'quv materialini takrorlash va malaka hosil qilish ta'lif jarayonining navbatdagi yaqin didaktik maqsadidir. O'quv jarayonining bu siklida o'rganilgan qoidalarni amaliy qo'llashga qarab boriladi. Mashqlarni bajarish paytida oldin o'rganilgan bilimlar qayta tasavvur qilinadi va shunga ko'ra topshiriqlarni bajarish qoidanining xotirada mustahkam o'rashib qolishi uchun zamin bo'ladi. Mashq qilish natijasida mavzuga oid malaka hosil bo'ladi, o'quvchi nutqi yangi dalillar bilan boyiydi. Bu esa zudlik bilan qoidadan dalillarga, dalillardan qoidalarga qarab borish imkonini beradi.

Qoidalardan dalillarga, dalillardan qoidalarga qarab borish, o'quvchilarda o'rganilgan qoidalardan foydalana olish iqtidorlarini taraqqiy ettiradi. Ta'lif jarayonining keyingi tashkiliy shakllari, ya'ni bilim va malakalarni tekshirish, umumlashtirish jarayonlarida ham ularga xos barcha xususiyatlar takrorlanadi. Shunday qilib, o'quv jarayonining yaqin didaktik maqsadiga ko'ra, dars tiplari to'rt xil bo'ladi.

## O'quv jarayoni maqsadiga ko'ra dars tiplari



### 3-fasl. O'quv predmeti mazmuniga ko'ra dars tiplari

O'quv predmeti mazmuni jihatidan dars tiplarini ajratish ona tili predmetining maqsad va vazifalari, uning tarkibiy qismlarini belgilash bilan bog'liqidir.

Ona tili predmeti bo'yicha o'quvchilarga tegishli bilim berish va bu bilimlarni malakaga aylantirish, o'quvchilarni

aqliy jihatdan taraqqiy ettirish, ularda o‘z nutqiga va o‘zgalar nutqiga munosabatini tarkib toptirish — ona tilini o‘qitishdan ko‘zlangan maqsad hisoblanadi. Ona tili predmeti oldiga quyidagi vazifalar qo‘yilgan: 1) o‘quvchilarni gap tuzishda nutq tovushi, bo‘g‘in, so‘zlardan o‘rinli foydalanish, ularni to‘g‘ri yozishga o‘rgatish; 2) o‘quvchilar nutqini turli so‘z, sintaktik konstruksiyalar bilan boyitish orqali ularni bog‘li nutq tuzishga o‘rgatish; 3) o‘quvchilarni aqliy, estetik, axloqiy tomonidan tarbiyalash va ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish; 4) o‘quvchilarni o‘qishni davom ettirishga tayyorlash. Bu vazifalar tilning fonetik, leksik, grammatick tomonlarini o‘zlashtirish zamirida amalga oshiriladi. Maktabda tilning har bir tomonini o‘zlashtirishda ikki narsa: maktab dasturi chegarasida nazariy bilim berish, o‘rganilgan nazariy bilimlar doirasida nutq malakalarini shakllantirish turadi. Ona tili o‘quv predmetidan amalga oshiriladigan ishlarning barchasi o‘quvchilarda nutq madaniyatini shakllantirishga bo‘ysun-diriladi.

Fonetikani o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish bilan bevosita bog‘langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so‘z tarkibida o‘rgatiladi. Nutq tovushiga ko‘ra, so‘z ma’nolarining o‘zgarishi ustida mashq qilish (Un-en-in-o‘n; il-ich-iz-in-ish), so‘zлarni tovush va bo‘g‘inlarga ko‘ra tahlil qilish, berilgan tovush va bo‘g‘inlar yordamida so‘z, so‘zlar ishtirokida gap tuzish o‘quvchilarda analitik-sintetik faoliyatni tarbiyalaydi.

Nutq tovushlari, ularning o‘zaro farqlari ustida mashq qilish natijasida o‘quvchilarda, bir tomonidan, lingvistik tushuncha shakllansa, ikkinchi tomonidan, fonematik eshitish (nutq tovushini so‘z tarkibida to‘g‘ri anglash, fahmlash, eshitish) taraqqiy etadi. Lingvistik tushunchalar haqida to‘g‘ri tasavvur hosil qilish, fonematik eshitishni taraqqiy ettirish o‘quvchilarning til sezgirligini rivojlantiradi. Shunday qilib, fonetikaga oid nazariy bilimlarni o‘rganish

jarayonida o‘quvchilarda orfoepik, grafik, orfografik malakalar hosil qilinadi.

Ona tili predmetida leksika materiallarini ikki bosqichda o‘rgatish ko‘zda tutilgan: birinchi bosqichda so‘zning ma’nosi, ko‘p ma’noli so‘zlar, omonim, sinonim, antonim so‘zlar, ularning uslubiy imkoniyatlari; ikkinchi bosqichda so‘z va istiloh, tilning lug‘at boyligi, lug‘atning boyish manbalari o‘rgatiladi.

Maktabda tilning leksik tomonini o‘rgatish dasturda ko‘rsatilgan qisqa vaqt bilan chegaralanmaydi. O‘quvchi har bir sinfda yangi-yangi o‘quv predmetlarini o‘rganadi. Fan o‘qituvchilari o‘quv predmetlariga oid terminlarini tushuntirib beradi. Shu tariqa tilning leksik tomonini o‘rganish butun ta’lim jarayonida davom etadi.

Leksik materiallarga bog‘liq holda, o‘quvchilarda har bir so‘zni nutqda to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalari hosil qilinadi. Nutq maqsadiga muvofiq so‘z tanlash, har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish ustida mashq qilish yo‘li bilan o‘quvchilarda uslubiy malakalar hosil qilinadi, bog‘li nutq tuzish yo‘llari o‘rgatiladi. Shunday qilib, leksikaga oid nazariy materiallarni o‘zlashtirish natijasida, o‘quvchilarda nutq malakalari hosil bo‘ladi.


Ona tili predmetining «So‘z yasash» qismi o‘quvchilarini tilning lug‘at tarkibini boyitib boruvchi yangi so‘zlar yasash usullari bilan tanishtiradi.

Maktab morfologiyasi o‘zaro aloqador ikki qismdan iborat: **so‘z tarkibi**; **so‘z turkumlari**. Birinchi bo‘limni o‘rganish natijasida, o‘quvchilarda so‘zning tarkibi haqida tushuncha hosil qilinadi. So‘z tarkibi o‘rgatilgach, so‘z turkumlariga oid materiallar o‘zlashtiriladi. So‘zlarning leksik-grammatik ma’nolarini, sinonimikasini o‘rganish orqali o‘quvchilar shu so‘zlarni aytish va yozishni, grammatik kategoriyalar (kelishik, egalik, ko‘plik, shaxsson)ni o‘rganish orqali gapda so‘zlarning o‘zgarishi va bog‘lanishini bilib oladilar. Shunday qilib, morfologiya

materiallarini o'zlashtirish jarayonida o'quvchilarda orfoepik, orfografik, uslubiy malakalar va bog'li nutq tuzish iqtidorlari shakllanadi.

O'quvchilar boshlang'ich sinfdan boshlab sintaksis elementlari bilan tanishadilar. Yuqori sinflarda esa sintaksisni izchillik asosida o'rGANADILAR. O'quvchilar sodda va qo'shma gap sintaksisiga oid nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bir qatorda, gap tuzish, gapni to'g'ri talaffuz etish, gap tarkibida tinish belgilarini to'g'ri ishlatish qoidalarini egallab oladilar. Mana shu asosda, o'quvchilarda uslubiy, punktuatsion va intonatsion malakalar shakllanadi.

**Ona tilining umumiy qurilishini quyidagi chizmada ko'rish mumkin.**



Ko‘rinadiki, ona tili predmeti nihoyatda murakkab tizimdan iborat bo‘lib, uning asosini grammatik bilimlar tashkil etadi. Bolalarning grammatikani ongli o‘zlash-tirishlarini ta’minlash maqsadida fonetika, leksika va so‘z yasashga doir nazariy bilimlar ham o‘rgatiladi. Bular zaminida tildan o‘zlashtiriladigan bilimlar, hosil qilinadigan malakalarning barchasi o‘quvchilarda nutq madaniyatini taraqqiy ettirishga xizmat qiladi, ularda og‘zaki va yozma nutq malakalarini shakllantiradi.

Tilni o‘zlashtirish jarayonida hosil qilinadigan malakalarni ikki guruhgaga ajratish mumkin. **Birinchisi, jismoniy malaka.** Nutq organlari, qo‘l muskullari harakatiga oid malakalar jismoniy malaka hisoblanadi. Bular, o‘z navbatida, ikki guruhgaga bo‘linadi: **birinchisi, og‘zaki nutqqa doir malakalar:** artikulyatsion malakalar, ovoz kuchi, ton balandligi, nutq tempi, ritmi, ovoz tembriga doir prosodik malakalar; yozma nutqqa doir malakalar. **Ikkinchisi, intellektual malakalar.** Bular, o‘z navbatida, uch guruhgaga bo‘linadi: 1) **tushunishga oid malakalar** — leksik va grammatik ma’nolarni ajrata olish; 2) **farqlay olishga oid malakalar** — til uzvlarining fikr anglatish va hissiy vazifalarini baholay olish; 3) **eslay olishga doir malakalar** — til dalillarini ishlatishning an’anaga aylanib qolgan xususiyatlarini egallash.

Maktab ona tili kursining fonetika, so‘z yasash, morfologiya qismlarida orfografik malakalar hosil qilinsa, leksika, sintaksis bo‘limlarida uslubiy malakalar shakllantiriladi. Shuningdek, sintaktik bilimlar asosida punktuatsion va prosodik malakalar (tovush kuchi, un (ton) balandligi, nutq tempi va ritmi, ovoz tembrini ajratishga oid malakalar) hosil qilinadi. Nutq o‘sirish ishlari ona tili predmetining barcha bo‘limlariga bog‘langan holda olib boriladi. Demak, ona tili predmetining mazmuniga ko‘ra quyidagi dars tiplari ajratiladi: **grammatika darslari; fonetika darslari; so‘z yasash darslari; leksika darslari; orfografiya darslari; punktuatsiya darslari; nutq o‘sirish darslari.**

O‘quv predmeti mazmuniga ko‘ra, dars tiplarining har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Buni boshlang‘ich sinflarda «Gap» mavzusiga bog‘lab o‘tkaziladigan nutq o‘stirish darslari namunasida ko‘raylik. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari sintaksis elementlari bilan ta’limning ilk kunlaridanoq tanisha boshlaydilar. Bolalar dastlab nutq birligi — gap to‘g‘risida, gapning bosh harf bilan boshlanib, uning oxiriga nuqta qo‘yilishi haqida ma’lumot oladilar. Keyinroq esa gapning mazmuniga ko‘ra turlari, ularning intonatsiyasi, gapning bosh va ikkinchi darajali bo‘laklari bilan tanishadilar. Bular gap mazmuni va uning tarkibini mustahkam egallashga qaratiladi. «Gap» mavzusi yuzasidan o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarda o‘quvchilar gapning so‘zlardan tuzilishini, uning kim? yoki nima? haqida aytilganini, gapni tashkil etgan so‘zlarning o‘zaro bog‘langanligi va bu bog‘lanishni so‘roqlar yordamida aniqlash mumkinligini o‘zlashtiradilar. O‘quvchi o‘z fikrini gap vositasida ro‘yobga chiqarish yo‘li bilan tilning grammatik qurilishini amaliy o‘rganadi. U gap tuza olish malakasini o‘rgangan sari bog‘li nutq tuzish sirlarini ham egallay boradi.

Boshlang‘ich sinflarda ham, yuqori sinflarda ham nutq ustida ishlash usullari to‘rt guruhga bo‘linadi: **lug‘at ustida ishlash; gap tuzishga o‘rgatish; bog‘li nutq tuzishga o‘rgatish, intonatsiya ustida ishlash.** Quyi sinflarda gap ustida ishlashni yig‘iq gapdan boshlagan ma’qul. Bunda jonli va jonsiz narsalarga, ularning harakat va holatiga asoslanib ish qilinadi. Yig‘iq gap tuzishni o‘rgatish orqali, o‘quvchilarga bosh kelishik shaklida kelgan fikr subyektini farqlash malakasi singdiriladi.

O‘quvchilar yig‘iq gap tuzish malakasini hosil qilgach, ularga yig‘iq gapni ikkinchi darajali bo‘laklar bilan kengaytirishga o‘rgatish ishlari boshlanadi. Bu yoyiq gaplar ustida ma’lum vaqtgacha ish olib borilmas ekan degan gap emas, o‘quvchilar yoyiq gaplarni ham o‘z nutqlarida

ishlataveradilar. Bu yerda fikr nutq o'stirish darslari, nutq o'stirish darslarida olib boriladigan ishlar tizimi xususida boryapti.

Birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarga gapni tahlil qilish, gap tarkibidagi so'zlarning so'roqlarini aniqlash kabi malakalar shakllantira boriladi. Quyidagi so'roq gaplarga diqqat qilaylik: *Qush qayerga qo'ndi? Sen qachon uyg'onding?* Bu so'roq gaplarga birinchi sinf o'quvchisi shunday darak gaplar bilan javob qaytaradi: *Qush daraxtga qo'ndi. Men ertalab uyg'ondim.* O'quvchilar savollarga javob qaytarish jarayonida fikr qarashli bo'lgan narsa va uning harakati (qush, men — ega) to'g'risidagi bilim bilan chegaralanib qolmasdan, harakat tushgan obyekt (daraxt), harakat yuz bergen payt (ertalab) to'g'risida ham tasavvur hosil qiladilar. Bunday ishning ahamiyati o'quvchilarni gap tuza olishga, gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarini amaliy (istilohsiz) farqlashga, narsa va hodisalar o'rtasidagi makon, zamon hamda sabab bog'lanishlarni anglashga o'rgatishdan va nihoyat, o'quvchilar nutqidagi passiv so'zlarni faollashtirishdan iborat.

Bog'li nutqni o'stirishning ham o'ziga xos usullari mavjud. Bular grammatik vazifali hikoyalar, bayon va insholar yozdirish, ish qog'ozlari ustida ishslash, matnni abzatslarga, abzatslarni gaplarga ajratish, shuningdek, ajratilgan matnlar ustida ishslash (mantiqan bog'langan gaplarni yaxlit holiga keltirib, qo'shma gap tuzish) kabi mashqlardan iborat.

#### **4-fasl. Ona tili darslarining tarkibiy qismlari**

Dars tipi va ularning turli ko'rinishlari o'z ichida mantiqiy qismlarga bo'linadi. Bularga dars bosqichlari deyiladi. Dars bosqichlari o'quv materiali mazmuniga, uni tushuntirish uchun tanlangan o'qitish metodiga, o'quvchilarning aqliy faoliyati nimaga qaratilganligiga ko'ra belgilanadi. Shunday ekan, ona

tili dan bir-biriga aynan o'xshagan ikkita dars o'tkazish mumkin emas.

Metodik adabiyotlarda yangi o'quv materialini o'rghanish, idrok etish, mustahkamlash, takrorlash, uy ishini tekshirish va tayin etish, bolalar bilimini baholash kabilar ona tili darslarining tarkibiy qismlari hisoblanadi. Dars bosqichlarining o'zaro mantiqiy izchilligi dars sifatini oshirishning asosiy omilidir. Dars bosqichlari, o'z navbatida, yana mayda elementlarga bo'linib ketishi mumkin. Buni «dars zvenosi» termini bilan atadik.

**I. Yangi o'quv materialini o'rgatish bosqichi.** Didaktika va metodikaga oid adabiyotlarda darsning bu bosqichi «yangi materialni izohlash», «yangi bilim berish» iboralari bila n yuritiladi. Izohlash, tushuntirish -o'qitish metodlarining nomi. Shuning uchun darsning bu bosqichini «yangi materialni o'rgatish» istilohi bilan atamoq maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu quyidagi halqalarni o'z ichiga oladi:

*O'quvchilarni o'quv materialini tushunishga tayyorlash.*

O'quv materialini o'rganishga quyidagicha tayyorgarlik ko'rildi:

a) dars maqsadini bolalarga yetkazish. Qanday dars tipi bo'lishidan qat'iy nazar, mashg'ulot maqsadini bolalarga yetkazish o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Dars maqsadini tushuntirish o'quvchilarning o'rganilayotgan fanga qiziqishlarini oshiradi, ularda o'rganish havasini uyg'otadi;

b) ijodiy yozma ishlarni o'tkazish. O'rganilayotgan mavzuga oid faktik materiallar asosida ijodiy yozma ishlarni o'tkazish bolalarni, bir qadar, yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlaydi. Masalan, «Ko'shma sifatlarning yasalishi va yozilishi» mavzusini o'tishda guru hlab yozish usulidan foydalanish mumkin. Buning uchun ushbu sifatli birikmalar ko'chma doskaga yoki kartonga yozib qo'yilgan bo'ladi: *oq ro'mol, kul rang ko'yak, sarg'ish palto, ochko'z it, havo rang mato, dag'al*

*material, ichimlik suv.* Bolalar oldin sodda sifatlarni guruhlab yozishadi;

d) mustaqil ishlarni tashkil etish. Mavzuga oid faktik materiallar asosida mustaqil ishlarni tashkil etish ham bolalarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlaydi. Masalan, yuqoridagi mavzu bo'yicha shunday mustaqil ish berish mumkin: Gaplarni o'qing. Sifatlarni topib, sodda sifatlarning tagiga bir marta, qo'shma sifatlarning tagiga ikki marta chizing. (*Bog'imizdagи ertapishar shaftoli gulladī. Odil — yoqimli, mehnatsevar bola. Alpinistlar qorli tog 'ning eng yuqori cho'qqisiga chiqdilar*);

e) grammatik tahlil. *Masalan, Bo'ri kuchli, yertqich va ochko'z hayvondir* gapini grammatik, morfologik tahlil qildirish orqali ham bolalarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash mumkin. Bunda yangi mavzuni tushuntirish gap tarkibidagi «*ochko'z*» so'zini tarkibiga ko'ra tahlil qilishdan boshlanadi;

f) bolalar oldiga muammoli savollar qo'yish. Bunda shunday ish qilinadi:

— Bolalar, siz oldingi darslarda sifat yasovchi qo'shimchalar, ularning yozilishini o'rgangan edingiz. Otdan sifat yasash (andijon+lik, tuz+siz, tarbiya+viy, devor+iy), fe'lidan sifat yasash (maqtan+choq, sez+gir, qaynat+ma, qoch+oq) yo'llarini bilib olgansiz.

Shundan keyin yangi mavzu doskaga yoziladi («Qo'shma sifatlarning yasalishi va yozilishi»). Savollar o'rta ga tashlanadi. Qanday sifatlarga qo'shma sifatlar deyiladi? Qo'shma sifatlar qanday yasaladi? Qo'shma sifatlar qanday yoziladi? Yangi mavzuni tushuntirish shu savollarga javob izlashdan boshlanadi.

**II. O'quv materialini idrok etish.** O'quv materialini idrok etish o'qituvchining tushuntirishi, izohlashi bilan bog'langan. Darsning bu halqasida o'quvchilar o'qituvchi bilan birga yangi bilimlarni «fikran tahlil va sintez qiladilar», dalillarni o'xshash tomonlariga ko'ra qarama-qarshi q o'yadilar,

chog'ishtiradilar. Bular o'quvchilarning yangi mavzuni atroflicha idrok etishlarini, binobarin, o'quv materialini puxta o'zlashtirishlarini ta'minlaydi.

Til mashg'ulotlarida o'quv materiali darslikdan, ko'rgazma quollardan, o'qituvchi nutqidan idrok etiladi. O'quv materialini idrok etish jarayonini faollashtirish uchun o'qituvchi o'z nutqini ko'rgazma quollar, turli didaktik materiallar bilan uyg'unlashtiradi. Shundagina, bolalar o'quv materialini faol idrok etadilar.

O'quv materialini idrok etish jarayonida bilim manbalari o'zaro quyidagi yo'llar bilan uyg'unlashtiriladi.

1. O'quv materialini tushuntirishda bayon qilish metodi tanlanganda, o'qituvchi nutqi asosiy bilim manbai sanaladi, ko'rgazma quroq va darslik esa yordamchi vosita funksiyasini bajaradi. Bunda o'quvchilar bilimlarni tayyor holicha o'rGANADI. Masalan, «Juft sifatlarning yasalishi va yozilishi» mavzusini olaylik. Mavzuni tushuntirish uchun quyidagi ko'rgazma quroldan foydalaniladi.

### **Juft sifatlarning yasalishi va yozilishi**

<b>Juft sifatlarning yasalishi</b>	<b>Misollar</b>	<b>Juft sifatlarning yozilishi</b>
1. Antonim sifatlarning qo'shilishidan	Olisdan baland-past daraxtlar ko'rina boshladi.	Baland-past
2. O'zaro yaqin ma'noli sifatlarning qo'shilishidan	Biz egri-bugri so'qmoqlar orqali toqqa ko'tarildik.	Egri-bugri, ochu yalang'och, yakka-yu yagona
3. Sifatlarning takrorlanishidan	Toshkentda katta-katta parklar, baland-baland binolar ko'p.	baland-balad, katta-katta, pastak-pastak

O'quv materialini bayon qilish metodi asosida tushuntirganda, bolalar bilimlarni, avvalo, o'qituvchi nutqidan idrok etadilar. Idrok etilgan bilimlar ko'rgazma quroq

vositasida yanada konkretlashtiriladi. Bunda o'qituvchi nutqiga katta talab qo'yiladi. U grammatik bilimlarni, shu bilimlarga oid dalillarni ma'lum tartibda aytib beradi. Mavzu quyidagicha tushuntiriladi.

O'zaro qarama-qarshi ma'noli so'zlarga antonimlar deyiladi. *Baland* so'zining ziddi *past*, *katta* so'zining ziddi esa *kichik*. Antonim sifatlarning qo'shilishidan juft sifatlar yasaladi (pauza qilinadi). Bolalar aytilgan fikrlarni ko'rgazma quroldan ko'rishadi.

O'zaro yaqin ma'noli sifatlarning qo'shilishidan ham juft sifatlar yasaladi. Masalan: *yakka va yagona*, *qing 'ir* va *qiysiq* so'zları o'zaro yaqin ma'noli sifatlardir. Demak, sinonim sifatlar bir-biriga qo'shilganda, juft sifatlar hosil bo'ladi: *g'adir-budur*, *ola-bula*, *egri-bugri* so'zları juft sifat (pauza qilinadi). Bolalar aytilgan fikrlarni ko'rgazma quroldan ko'rib olishadi, misollarni o'qishadi. Ba'zan sifatlar takrorlanib keladi: *yosh-yosh yigitlar*, *qari-qari odamlar*, *baland-balando'lar*, *chiroyli-chiroyli qushlar*, *oppoq-oppoq paxtalar*. Demak, sifatlarning takrorlanishidan ham juft sifatlar hosil bo'ladi (ko'rgazma qurolga bolalar diqqati tortiladi). Shundan keyin sifatlarning yozilishini tushuntirishga o'tiladi. Mavzu yuzasidan quyidagi umumiyl xulosa chiqariladi. Juft sifatlar uch xil yo'l bilan yasaladi: antonim sifatlarning qo'shilishidan, sinonim sifatlarning qo'shilishidan, sifatlarning takrorlanishidan. Juft sifatlar ikki xil yoziladi: juft sifatlar chiziqcha bilan yoziladi; juft sifatlar -u, -yu bilan kelsa, yuklamalardan oldin chiziqcha qo'yiladi.

2. O'quv materialini tushuntirishda **suhbat** metodi tanlanganda, ko'rgazma qurol, darslik asosiy bilim manbai bo'lib qoladi. O'qituvchining nutqi, mavzu bo'yicha o'rtaga tashlangan savollar yordamchi vosita rolini bajaradi. «Juft sifatlarning yasalishi va yozilishi» mavzusi bo'yicha quyidagicha savollar o'rtaga tashlanadi.

**Birinchi guruh savollar:** qanday so'zlarga antonimlar deyiladi? Antonim sifatlarga misollar aytинг. Juft sifatlar

qanday yasaladi? Savollar o'rtaga tashlanishi bilan o'quvchilar diqqati ko'rgazma quroldagi yozuvlarga tortiladi. Bolalar ko'rgazma quroldagi misollarga o'xshash so'zlar, gaplar o'ylab topishadi. Savollar yuzasidan juz'iy xulosalar chiqariladi. Qarama-qarshi ma'noli so'zlarga antonimlar deyiladi. *Katta* va *kichik*; *baland* va *past* sifatlari o'zaro qarama-qarshi ma'noli sifatlardir. Xulosalar qo'shiladi: demak, antonim sifatlarning qo'shilishidan juft sifatlar yasaladi.

**Ikkinci guruh savollar:** Sinonimlar deb qanday so'zlarga aytildi? Sinonim sifatlarga misollar o'ylab toping. Juft sifatlar qanday yasaladi? Ko'rgazma quroldagi misollar, gaplarni tahlil qilish yo'li bilan juz'iy xulosalar chiqariladi, birlashtiriladi. Demak, yaqin ma'noli sifatlarning qo'shilishidan juft sifatlar yasaladi.

**Uchinchi guruh savollar:** *katta-katta xonalar*, *baland-balad binolar* birikmalaridagi sifatlarni tarkibiga ko'ra tahlil qiling. Bolalar tahlil qilish yo'li bilan *katta* va *baland* sifatlarning takrorlanib kelayotganini aniqlashadi. Ko'rgazma quroldagi gaplar, misollar o'qiladi. Umumiy xulosa chiqariladi: demak, sifatlarning takrorlanishidan juft sifatlar yasaladi. Juft sifatlarning yozilishi ham shu yo'sinda o'rgatiladi. Ishning oxirida umumiy va yakuniy xulosalar chiqariladi.

3. O'quv materialini tushuntirishda **mustaqil ishlash** metodi tanlanganda, darslik asosiy bilim manbai bo'lib qoladi, o'qituvchining mavzu bo'yicha bergen ko'rsatmalari, ko'rgazma qurol yordamchi manba funksiyasini bajaradi. Yuqoridagi mavzuni mustaqil ishlash metodi yordamida o'rgatganda, bolalarga quyidagicha instruksiya beriladi: oldin antonim va sinonim so'zlarning ta'rifini eslang. Sinonim va antonim sifatlarga misollar o'ylab toping. Darslikning tegishli betidagi qoidalarni o'qing. Juft sifatlarning yasalish yo'llari, ularning yozilishini aniqlang. Har bir qoidaga o'zingiz misollar o'ylab toping.

Darslikdagi qoidalarni ko'rgazma quroldagi dalillarga chog'ishtiring.

4. O'quv materialini faol idrok etishni ta'minlashning samarali yo'li bilim manbalarining (ko'rgazma qurol, o'qituvchi nutqi, darslik) barchasini o'zaro uyg'unlashtirishdir. Bunda ko'rgazma qurol ham, o'qituvchi nutqi ham, darslik ham faol idrok etish vositasiga aylanadi. Masalan, «Juft sifatlarning yasalishi va yozilishi» mavzusini tushuntirishda o'qituvchi quyidagicha ish qiladi: oldin ko'rgazma qurolning birinchi bandidagi yozuvlarga o'quvchilar diqqati tortiladi. Bolalar antonim sifatlarning qo'shilishidan juft sifatning yasalishini, juft sifatlarga doir berilgan misollarni o'qiydilar. Keyin o'qilgan dalillar asosida o'quv materialining shu qismini o'qituvchi tushuntiradi. So'ngra o'qituvchi nutqidan idrok etilgan bilimlar darslikdagi qoidalarga chog'ishtiriladi. Ish o'quv materialining oxirgi bandi o'rganilgunga qadar shu yo'sinda davom ettiriladi. Shunday qilib, o'quv materialini idrok etishning birinchi yo'lida o'qituvchi nutqi bilan ko'rgazma qurol, ikkinchi yo'lida ko'rgazma qurol bilan o'qituvchi savollari, uchinchi yo'lida darslik bilan o'qituvchi instruksiyalari, to'rtinchi yo'lida ko'rgazma qurol, o'qituvchi nutqi, darslik o'zaro bog'lanadi. O'qituvchi sinf o'quvchilarining tayyorgarligini hisobga olib, bu yo'llarning har biridan o'z o'rniда foydalanishi mumkin.

**III. Yangi mavzuni mustahkamlash.** O'rganilgan materialni mustahkamlash o'quv materialini o'rganish, idrok etish jarayonining tabiiy davomi bo'lgandagina, o'zlashtirilgan material o'quvchilar xotirasida mustahkam o'rnashib qoladi. O'quv materialini o'rganish va mustahkamlash jarayonini, parallel olib borish to'g'risida M.A.Danilov shunday deb yozgan edi: «Ilg'or o'qituvchilar oldingi darslardan tubdan farq qiladigan yangi dars qurilishini kashf etdilar. ...Endi bilimlarni o'rganish va

mustahkamlash yaxlit, ajralmas jarayon hisoblanadi». Buni «Ko'makchi haqida ma'lumot» mavzusi misolida ko'raylik.

O'qituvchi bolalar ishtirokida (*Ukamga kitob oldim. Qo'lda ko'tardi*) gaplarni tahlil qiladi. O'quvchilar diqqati *ukamga, qo'lda so'zлari tarkibidagi kelishik qo'shimchalariga tortiladi*. Bu qo'shimchalar *uchun, bilan* ko'makchilari bilan almashtirilib, gaplar qayta tuziladi: *Ukam uchun kitob oldim. Qo'l bilan ko'tardi*. Shundan keyin mavzuning maqsadi o'quvchilarga yetkaziladi.

O'rganilgan o'quv materiali o'quv predmetining tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarni kelgusi mavzularni o'zlash-tirishga tayyorlaydi. Odatda, o'quvchilarda puxta bilim va malaka hosil qilingan darsni samarali o'tkazilgan dars deb ataydilar. Samarador darsning asosiy xususiyati o'quvchi tafakkurini o'stirish uchun qilingan ishlarda, bolalarni ijodi ishlashga o'rgatishda, nazariy va amaliy topshiriqlarni o'quvchilarning mustaqil muhokama qila olishida ko'rindiki, bular dars bosqichlariga, ularning mantiqiy izchilligiga, darsning didaktik va psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganligiga bog'liq.

Darsda o'rganilgan bilimlarning puxtaligi — o'rganish va mustahkamlashning ketma-ketligiga bog'liq. Material o'rganilgan zahotiyoy mustahkamlansa, o'quvchilar uni uzoq muddat esda tutadi. Ba'zi olimlar: «... mustahkamlash darsning doimiy bosqichi emas...»— deb hisoblaydilar. Bu xatodir. O'rganilgan materialni mustahkamlash o'rganish bosqichining qonuniy davomidir. Mustahkamlash jarayonida o'rganilgan bilimlarning amaliy qo'llanishi o'zlash-tiriladi, bilimlar nutq amaliyatiga olib kiriladi. O'rganilgan bilimlar mazmuniga mos misollar topish, ularni tahlil qilish, yozma ishlarni bajarish, darslikdagi qoidalarni o'qish, mashqlarni yechish orqali mustahkamlanadi.

**IV. Takrorlash — til darslarining eng mas'uliyatli bosqichi sanaladi.** Takrorlash ikki yo'l bilan o'tkaziladi: agar

yangi o'quv materiali oldin o'tilgan mavzulardan birontasi bilan mantiqan bog'liq bo'lsa, oldingi mavzu takrorlanib, yangi mavzuni o'rganishga o'tiladi; agar yangi o'quv materiali oldin o'rganilgan mavzu bilan bog'liq bo'lmasa, mashg'ulot yangi o'quv materialini o'rganishdan boshlanadi.

**V. O'quvchilarning bilimi va malakalarini tekshirish bosqichi.** Bilim va malakalar og'zaki yoki yozma yo'l bilan tekshiriladi. Og'zaki tekshirish usulini ba'zi adabiyotlarda «sinov suhbati» deb yuritiladi. Sinov suhbati o'quvchilar bilimini tekshirishda eng ko'p qo'llanadigan ish turidir. Sinov suhbati paytida o'quvchilar o'qituvchi savoliga doir grammatik ta'riflarni, orfografik va punktuatsion qoidalarni yoddan aytadilar, ta'rif va qoidalarni isbotlash uchun dalillar keltiradilar. Sinov suhbati o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatadi, bolalarning nutqini o'stiradi, ularda aqliy teranlikni tarbiyalaydi. Sinov suhbati paytida beriladigan savollar murakkabligiga ko'ra uch xil bo'ladi: **asosiy savollar:** Gap deb nimaga aytildi? **Yordamchi savollar:** Gap nimalardan tuziladi? Bu gapda nechta so'z bor? Gapda nima deyilgan? **Yetaklovchi savollar:** evristik suhbat asosida o'quvchi javob qaytarishga qiyngalganda beriladi.

Sinov suhbati individual yoki frontal o'tkaziladi. Sinov individual o'tkazilganda, savollar yozilgan tarqatmalardan foydalанилди. Bolalar savollar to'g'risida o'ylab olgach, og'zaki so'raladi. Frontal tekshirishda savol o'rtaga tashlanadi. O'quvchilar o'ylab olgach, o'qituvchi o'zi istagan boladan so'raydi. Sinov suhbati paytida juda ko'p mayda narsalar bilan o'quvchilarni chalg'itmaslik lozim. O'qituvchi asosiy va ikkinchi darajali narsalarni ajratishi, birinchi navbatda, o'quvchilarning eng muhim dalillar, xulosalar, qoidalarni bilishini tekshirishi kerak.

Darsni tashkil etish, uy vazifasini tekshirish va o'quvchilar bilimini baholash, darsni yakunlash ham til

o‘rgatishga oid dars bosqichlarini tashkil qiladi. Har bir dars tipi yuqorida sanalgan bosqichlarning turlicha bog‘lanishidan tashkil topadi.

### **5-fasl. Ona tilidan darslar tizimi**

Ona tili predmetining har bir bo‘limi, har bir mavzu tilga oid bilimlar tizimidan iborat bo‘lib, shu bilimlarni o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar ona tili ta’limidan ko‘zlangan maqsadga yaqinlasha boradilar. Dars ona tili ta’limini amalga oshirishning yetakchi shakli sanaladi.

O‘qituvchining asosiy vazifalaridan biri ona tili predmetining barcha bo‘limlarini tahlil qilish, shu tahlilga ko‘ra, o‘zaro bog‘langan darslar tizimini tuzishdan iborat.

Ona tili darslarining natijasi, bir tomondan, didaktik va metodik prinsiplarga to‘g‘ri amal qilishga, mavzular mazmuniga mos keladigan faktik materiallar va turli topshiriqlarni tanlashga, o‘qitish metodlari, bolalarning aqliy ishlarini aniq belgilashga bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi tomondan, darslarni pedagogik, psixologik jihatdan puxta tashkil etishga, mashg‘ulotlarning o‘zaro aloqadorligini qat’iy aniqlashga bog‘liqdir. Ko‘rinadiki, ona tilidan tuziladigan darslar tizimining samaradorligi yangi bilimlarni tushuntirishdan oldin takrorlanadigan bilimlarni hisobga olish, bolalarning faolligi va tashabbuskorligini oshirish, o‘quv predmetlari o‘rtasidagi aloqa turlari, bundan keyin o‘rganiladigan bilimlar uchun zamin tayyorlash, o‘quvchilarning bilish imkoniyatlariga mos keladigan ta’lim mazmunini belgilash; ta’limni barkamol insonni tarbiyalash kabi qator omillarga bog‘lash bilan o‘lchanadi.

Ma’lum bo‘lim, mavzu yuzasidan o‘zaro bog‘langan darslar tizimini yaratishda quyidagi savollarga javob izlanadi: a) bo‘lim yoki mavzuning o‘quv predmeti tarkibidagi o‘rni, bilimlar tizimi, uning g‘oyasi; b) nazariy bilimlarni turmushga bog‘lash yo‘llari; d) o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini taraqqiy ettirishni ko‘zlab, o‘quv

materialiga tavsif berish; e) mavzuning o'quv predmetidagi boshqa bo'limlari va boshqa o'quv predmetlariga munosabati; f) mavzu yuzasidan bilim va malakalarni o'zlashtirishning eng samarador yo'li; g) mavzu bo'yicha o'tkaziladigan ijodiy ishlari; h) mavzu bo'yicha beriladigan uy ishlari va sinfdan tashqari ishlarning mazmuni; i) mavzuni o'rgatishdan ko'zlangan natija (bilim, malaka va bolalarning aqliy taraqqiyoti).

Endi didaktik talablar asosida 5-sinfda «So'z birikmasi» mavzusini o'zlashtirish jarayonini tahlil qilamiz. So'z birikmasini o'rgatish uchun ikki soat vaqt ajratilgan.

Dars tartibi	Dars mavzusi	Dars tipi
1-dars	So'z birikmasi. Tobe va hokim so'z haqida tushuncha berish.	Yangi materialni o'rgatish
2-dars	49-50-mashqlar.	O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi.

**Birinchi mashg'ulot** (yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darsi) so'z birikmasining dastlabki uchta belgisi atrofida tashkil etiladi. Mashg'ulotda sintaksis va punktuatsiya to'g'risida kirish suhbati o'tkazildi, darslik<sup>23</sup>ning 20-betidagi «*Bizning Vatanimizda jasur bolalar hech qanday qiyinchilikdan qo'rqlaydilar*» gapiga o'quvchilar diqqati jalb qilinib, quyidagi so'z birikmalari ajratiladi: *Bizning Vatanimizda; qiyinchilikdan qo'rqlaydi; Vatanimizda qo'rqlaydi*.

O'quvchilar nutqini so'z birikmalariga oid tayanch materiallar bilan boyitish uchun suhbat quyidagicha davom ettirildi (15 daqiqa).

O'qituvchi qog'oz ko'rsatib, bu nima, deb so'radi.

<sup>23</sup> H.Ne'matov, A.G'ułomov, M.Qodirov, M.Abduraimova. Ona tili (5-sinf uchun darslik). — T.: «O'qituvchi», 2002. 20-22-betlar.

---

— *Qog'oz*. Keyin sariq, qizil, ko'k rangdagi qog'ozlar ko'rsatildi: sariq qog'oz, qizil qog'oz, ko'k qog'oz. So'ngra bir qancha qalam ko'rsatildi va ularni bitta so'z bilan atash so'raldi: *qalam*. Keyin har bir qalamni ko'rsatib savol berildi: Bu qanday qalam? — Sariq qalam (doskaga *sariq qalam* birikmasi yoziladi). — Bu-chi? — Qizil qalam. — Bunisi-chi? — Qora qalam. Keyin *sariq qalam, qizil qalam, qora qalam, ko'k qalam, zangori qalam* birikmalari doskaga yozildi. O'qituvchi bitta qalamni o'rtasidan sindirdi. Bu qanday qalam? Bunisi-chi? Uzun qalam, qisqa qalam. Doskada quyidagi yozuvlar paydo bo'ldi.

- Qalam**
- 1) sariq qalam
  - 2) qizil qalam
  - 3) qora qalam
  - 4) ko'k qalam
  - 5) zangori qalam
  - 6) uzun qalam
  - 7) qisqa qalam

Doskadagi yozuvlar atrofida bolalarga quyidagi savollar berildi: Chiziqning chap tomonida nechta so'z yozilgan? Bu qalamni (sariq qalam ko'rsatildi) aniq aytish uchun nechanchi qatordagi yozuv to'g'ri keladi? Bunisi uchun-chi? (ko'k qalam ko'rsatildi) Bunisi uchun-chi? (qisqa qalam ko'rsatildi) Savollarga ushbu javoblar olindi.

— Chiziqning chap tomonida *qalam* deb yozilgan. Bu qalamni aniq aytish uchun 1-qatordagi (sariq qalam) yozuv to'g'ri keladi. Bunisiga 4-qatordagi (ko'k qalam) yozuv to'g'ri keladi. Bunisiga esa 7-qatordagi (qisqa qalam) yozuv to'g'ri keladi.

— Chiziqning chap tomoniga *siyoh* so'zi yozildi. Men nimani yozdim? *Siyoh* so'zini yozdingiz. *Ruchka* so'zini yoza turib, «Yana nima yozdim?» *Ruchka* deb yozdingiz. *Qalam, ruchka, siyoh* yozuvlarini nima deb ataymiz? So'z deb


ataymiz (Ba'zi o'quvchilar o'quv qurollari deb ataymiz degan javob berishdi. O'qituvchi bolalarning xatosini tuzatdi). O'ng tomondagi yozuvlar ko'rsatildi: Har bir qatorda nechtadan so'z bor? Ikkitadan. Bu tomondagi yozuvlarni nima deb ataymiz? So'z birikmasi deb ataymiz (Ba'zi bolalar ikkita so'z deb ataymiz mazmunida javob berishdi. Ularning xatosi tuzatildi). So'ngra chap tomondagi yozuvlar ustiga «so'z», o'ng tomondagi yozuvlar ustiga «so'z birikmasi» deb yozildi.

So'z	So'z birikmasi
qalam	sariq qalam
siyoh	qizil qalam
ruchka	qora qalam

Suhbatdan va doskadagi yozuvlardan foydalanib, birinchi xulosa chiqariladi: **so'z birikmasi so'zlarning qo'shilishidan tuziladi**. Xulosani mustahkamlash uchun quyidagi topshiriq berildi (Topshiriq kartonga yozilgan).

### 1-topshiriq

So'z birikmasi hosil qiling. So'roqlar o'mniga o'zingiz so'z o'ylab yozing.



Bolalar *katta qovun*, *uzun qovun*, *shirin qovun* kabi so'z birikmalarini tuzishdi.

O'quvchilar diqqati darslikdagi 49-mashqqa jalb qilindi. Bolalar *jasur bolalar*, *mohir paxtakor*, *tadbirkor kishi*, *mustaqil O'zbekiston*, *sevimli yozuvchimiz* birikmalarini o'qishdi. So'ngra birikmalar daftariarga yozildi va har bir

birikma tarkibidagi so‘zlarning oldingisi biror so‘roqni oladi( 10 daqiqa).

O‘qituvchi quyidagi birikmalarni doskaga, bolalar daftarlariiga yozishdi(5 daqiqa).

Katta kitob, muqovali kitob, qiziqarli kitob, eski kitob, yangi kitob.


Savollar: Birikmalar tarkibida qaysi so‘z takrorlanib kelgan? Kitobni turli tomondan aniqlash uchun qaysi so‘zlar keltirilgan? Savollarga javob olingach, so‘z birikmasining uchinchi belgisi yuzasidan xulosa chiqariladi: **so‘z birikmasi tobe va hokim so‘zga ajraladi; so‘roq hokim so‘zdan tobe so‘zga beriladi.**

qanday?	qanday?	qanday?
katta kitob	muqovali kitob	qiziqarli kitob

Bu birikmalarda hokim so‘z — *kitob*, tobe so‘zlar — *katta*, *muqovali*, *qiziqarli*. Bu so‘zlar *kitob* so‘zini izohlamoqda. Birikma tarkibidagi ma’nosini izohlanayotgan so‘zga **hokim so‘z** (*kitob*) deyiladi. Bosh so‘zning ma’nosini izohlaydigan so‘zga (*katta*, *qiziqarli*, *muqovali*) tobe so‘z deyiladi. Darsda chiqarilgan xulosalarni mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar bajartirildi (12 daqiqa).

## 2-topshiriq

Chizmalardan foydalanib, so‘z birikmalari tuzing.



Birinchi va ikkinchi chizmadagi so‘roqlar o‘rniga qanday so‘z topib yozdingiz.

### **3-topshiriq**

So‘z birikmalarini ko‘chiring. Hokim va tobe so‘zning qaysi so‘z turkumiga oidligini ustiga yozing.

ot ot

*Namuna: aqlning kaliti, Valining ukasi, Vatanning tuprog‘i, oltin soat.*

### **4-topshiriq**

Ikkala ustundagi yozuvlarni chog‘ishtiring. Ularning farqlarini aytib berishga tayyorlaning.

stol	yozuv stoli
ot	chopqir ot
qo‘g‘irchoq	chiroyli qo‘g‘irchoq

Ikkinchchi topshiriqdagi birinchi chizmani bajarish orqali bolalar *aqli bola, odobli bola, kamtar bola* birikmalarini tuzishdi va so‘roqlar o‘rniga tobe so‘z yozilishini aniqlashdi, ikkinchi chizmani bajarish orqali *katta sigir, targ‘il sigir, govmish sigir* birikmalarini tuzishdi va so‘roq o‘rniga hokim so‘z yozilishini izohlashdi. Bu ish yuqorida chiqarilgan xulosalarni bir qadar aniqlashtirdi. Uchinchi topshiriq o‘quvchilarining so‘z birikmasi bo‘yicha bilimlarini kengaytirishga qaratilgan. O‘quvchilar so‘z birikmasining ot va otdan, sifat va otdan tuzilishini o‘rgandilar. To‘rtinchchi topshiriq orqali so‘z bilan so‘z birikmasining farqlari ajratildi.

*Daraxt* so‘zi ishtirokida ot+ot tipidagi birikma, *go‘zal, serqatnov, bahavo* so‘zlari ishtirokida sifat+ot tipidagi birikmalar tuzish, tobe so‘zga so‘roq berishni chizmada ko‘rsatish uy vazifasi qilib berildi (3 daqiqa).

Ikkinchchi mashg‘ulot (o‘tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi) darslikdagi 50-mashq asosida tashkil etildi. Dars uy vazifasini tekshirishdan boshlandi (5 daqiqa).

1-o‘quvchi: tol daraxti, jiyda daraxti, archa daraxti, terak daraxti.

2-o‘quvchi: go‘zal manzara, serqatnov ko‘cha, bahavo joy.

O‘quvchilar hokim va tobe so‘zlarning qoidasini esladilar, tobe so‘zga so‘roq berishni chizma orqali ko‘rsatdilar (5 daqiqa).

O‘qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida, o‘quvchilar diqqatini 50-mashqqa tortadi.

O‘quvchilar matnni o‘qib, *Qoratog‘ etaklari, ohori to‘kilmagan, arab alifbosida, Samarqandga bordim kabi birikmalar tuzishdi* (5 daqiqa).

Takrorlangan bilimlarni yanada konkretlashtirish uchun quyidagi topshiriq o‘tkazildi (10 daqiqa).

### 1-topshiriq

Quyidagi chizmalarga mos keladigan so‘z birikmalari topib yozing (Chizma ko‘chma doskaga chizilgan. Bir o‘quvchi ishni doskada bajardi).

1.  →
2.  -dan →
3.  -ning →
4.  -haqida →

O‘quvchilar chizmalar asosida *kumush qoshiq, aqlidan ortiq, otaning vasiyati, kitob haqida bahslashmoq* kabi birikmalarni topishdi (8 daqiqa).

So‘z birikmasi va so‘zning farqlarini takrorlash uchun quyidagi mustaqil ish o‘tkazildi (5 daqiqa).

### 2-topshiriq

Ko‘chiring. So‘z birikmasining tagiga bir chiziq, so‘zlarning tagiga ikki chiziq chizing.

*Vatan, baxtli bolalik, katta-katta, tez-tez, kamtarin inson, befoyda so'z.*

Topshiriqni bajarish orqali so'z birikmasi bilan so'zning farqlari takrorlandi. So'z birikmasining ikki so'zdan tuzilganligi, birikmaning narsa va voqealarni to'liq ifodalashi eslatildi. Ba'zi o'quvchilar *katta-katta, tez-tez* so'zlarining tagini xato chizishdi. Ularning xatolari tuzatildi. Buning uchun *befoya (qanday?)* so'z (*nima?*) va *katta-katta (qanday?)* so'z birikmasining so'roqlari taqqoslanadi. Darsning oxirida har bir o'quvchiga o'z «*Tarjimai hol*»ini yozib kelish vazifasi berildi.

Shunday qilib, har bir dars ma'lum maqsad asosida o'tkazildi; grammatik bilimlarni o'zlashtirishda ilmiylik, izchillik, vorislik prinsip (tamoyil)lariga qat'iy amal qilindi. Darslarda o'quvchilarning faolligi va mustaqilligini ta'minlaydigan usullar ko'proq qo'llanadi. Mashg'ulotlarning har birida 35 daqiqadan ortiqroq vaqt turli ijodiy topshiriqlarni bajarish, topshiriqlar bo'yicha mustaqil xulosa chiqarishga sarflandi. Bular bolalarning so'z birikmasi bo'yicha to'g'ri va atroflicha bilim olishlarini ta'minladi. Natijada bolalarda quyidagi intellektual malakalar shakllanadi:

- so'z birikmasini so'z va gapdan farqlay olish;
- so'z birikmasi, tarkibidagi hokim va tobe so'zni ajrata bilish;
- hokim va tobe so'zning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishini tushunish;
- so'roqning hokim so'zdan tobe so'zga berilishini bilish.

## IX BOB

### ONA TILIDAN DARS TIPLARI TAVSIFI

#### 1-fasl. Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari ta'lim jarayonining eng ko'p qismini ishg'ol etadi. Bu dars tipining asosiy vazifasi tilning fonetik, leksik, so'z yasash, grammatik tomonlariga oid qonuniyatlarini, orfoepiya, orfografiya, punktuatsiya, uslubiyatga doir qoidalarni o'quvchilarga o'rgatish va ularni dastlabki mustahkamlashdir.

Bilimlarni o'zlashtirish keng tushunchadir. O'zlashtirish to'g'risida fikr yuritganda, bilimlarni egallashning uch xil darajasini hisobga olmoq kerak: **birinchidan**, bilimlarni idrok etish, ma'nosiga tushunish, xotirada saqlash, **ikkinchidan**, bilimlarni o'xhash sharoitlarda tatbiq eta olish, **uchinchidan**, bilimlarni yangi vaziyatga tatbiq eta olish darajasida o'zlashtirish. Demak, yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari faqat tilning turli tomonlariga oid bilimlarni egallash masalalari bilangina bog'liq bo'lmasdan, bilimlarni qay darajada o'zlashtirish muammosi bilan ham uzviy bog'langan. O'quvchi bu darslarda grammatik bilimlarni o'z so'zлari bilan aytib bera bilish, o'rganilgan bilimlarga doir dalil keltira olish, o'rganilgan bilimlarni oldin egallangan bilimlardan ajrata bilish darajasida o'zlashtirishi lozim.

Yangi bilimlarni o'zlashtirish jarayonida quyidagi vazifalar yechiladi:

— o'rganilayotgan grammatik bilimlarning asosiy g'oyasini, maqsadini anglash, shu bilimlarning nutq faoliyatidagi rolini fahmlash;

— mavzuga oid bilimlarning umumiy qurilishini idrok etish, ularning asosiy xususiyatlarini o'rganish;

— o'rganilgan bilimni qayta xotirlash yo'lini, uni amaliyotda qo'llash usulini egallash.

**Yangi bilimlarni o'rgatishda deduksiya va induksiya.** Tilga oid nazariy materiallar, asosan, ikki xil yo'l bilan o'rgatiladi: yangi bilimlarni deduktiv yo'l bilan o'rgatish; yangi bilimlarni induktiv yo'l bilan o'rgatish. Bularni «Ega va uning ifodalanishi» mavzusi misolida tahlil qilaylik. Mavzuni deduktiv yo'l bilan o'rgatishda, o'quvchilarning gap, gap bo'laklari, gapda so'zlarning bog'lanishi to'g'risidagi bilimlariga tayaniladi. Doskaga biror gap yozib tahlil qilinadi. Masalan, *Botirlar xalq xotirasida hamisha yashaydilar*. Bu gap mazmuniga ko'ra, darak gap ekanligi aytildi. Gapda so'zlarning bog'lanishi aniqlanadi: *botirlar yashaydilar — moslashuv; xalqning xotirasi — moslashuv; xotirasida yashaydi — boshqaruv; hamisha yashaydi — bitishuv*. Gapni tahlil qilish yo'li bilan gap bo'laklari haqidagi bilim takrorlanadi. Gap tarkibidagi bosh bo'laklar ajratiladi: *Botirlar yashaydilar*. So'roqlar vositasida ega topiladi va uning ta'rifi tushuntiriladi. So'ngra eganing bosh kelishikdagi ot, olmosh, otlashgan so'zlar bilan ifodalanishi bayon qilinadi.

Tilga oid bilimlarni yuqoridagi yo'l bilan bayon qilganda, umumiyyidan aniqlikka qarab boriladi. Gap, gapda so'zlarning bog'lanishi, gap bo'laklari, bosh bo'laklar va ikkinchi darajali bo'laklar to'g'risidagi bilimlar ega haqidagi bilimlarga nisbatan umumiy sanaladi. Eganing turli so'z turkumlaridan ifodalanishi bo'yicha berilgan bilimlar ega haqidagi umumiy ta'rifga nisbatan juz'iy bo'ladi. Yangi bilimlarni shu yo'l bilan bayon etganda, deduksiyadan induksiyaga qarab boriladi. Oldin dalillar asosida o'quv materialining umumiy tomonlari izohlanadi. Keyin esa dalillar asosida shu materialning xususiy tomonlari aniqlashtiriladi.

Yangi bilimlarni o'rgatishning ikkinchi yo'li induksiyadir. Bunda oldin o'quv materialining xususiy tomonlari o'rgatiladi, so'ngra uning umumiy tomonlari izohlanadi. Masalan, ega va uning ifodalanishini tushuntirish uchun quyidagi gaplar tahlil qilinadi:

*D a r a x t l a r xuddi choyxonaning sahnidagi gulzorga o'xshar edi. Biz bu quvonchli kunlarga osonlik bilan yetib kelmadik. O'n — beshdan katta. O'qim oq — o'rganmoq. To'g'ri o'zadi, e g r i to'zadi.*

Yuqoridagi gaplar tahlil qilinib, har bir gapning egasi topiladi, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalangani aytildi, so'roqlari ko'rsatiladi. Tahlil qilingan misollar, chiqarilgan juz'iy xulosalar zaminida eganining umumiy ta'rifi o'rganiladi. O'rganish jarayonida o'quv materialining juz'iy xususiyatlaridan umumiy xususiyatiga qarab boriladi.

Izchillik tamoyiliga qat'iy amal qilish yo'li bilan yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslarini ijodiy tashkil etishga erishiladi. Yangi materialni tushuntirishda o'quvchilarning oldin o'rgangan bilimlari, hosil qilgan malakalariga tayanish o'quv materialini puxta o'zlash-tirishga zamin hozirlaydi. O'rganilayotgan mavzuga aloqador bilimlarni takrorlash yangi bilimlarni faol idrok etishning asosiy omili sanaladi.

O'rganilgan bilimlarni qayta esga olish va undan yangi bilimlarni ongli o'zlashtirish vositasi sifatida foydalanish turli yo'llar bilan amalgalash oshiriladi: o'rganilgan bilimlarni o'qituvchining o'zi eslatadi va yangi bilimlarni o'zlashtirilgan mavzuning davomi sifatida tushuntiradi; oldin o'tilgan mavzuni o'quvchilardan birontasi eslab aytib beradi, o'qituvchi o'quvchi fikrlariga bog'lab o'z tushuntirishini boshlaydi; o'tilgan mavzu yuzasidan sind jamoasi bilan suhbat o'tkaziladi, keyin yangi mavzuni tushuntirishga o'tiladi; o'tilgan mavzuga doir mustaqil ish o'tkaziladi, mustaqil ish ustida suhbat o'tkazilgach, yangi mavzuni tushuntiriladi va hokazo.

Yuqorida aytilgan fikrlarning ba'zilarini aniqlashtirish uchun bir ilg'or o'qituvchi tajribasidan yozib olingan ikki soatlik dars fragmentini (darslarning yangi materialni o'rgatish bosqichi keltiriladi) tahlil qilamiz.

**1-dars. Sifat haqida ma'lumot.** Dars mavzusi doskaga yozilib, maqsadi bolalarga yetkazilgach, o'quvchilar ishtirokida quyidagi she'riy parcha tahlil qilindi.

*Oppoq qog'oz — kurash maydoni,  
O'tkir qalam — jangda uchqur ot,  
Ezgu siyoh — botirlar qoni,  
Shu o'y bilan boshlandi ijod.*

(G'. G'ulom)

O'quvchilar o'qituvchi rahbarligida parchaning mazmunini aytib berishdi, she'rni o'qish tempi aniqlandi, so'ngra bir o'quvchi she'rni ifodali o'qib berdi. Keyin bolalar sifatlarni aniqlab, o'zi bog'lanib kelgan ot bilan birga ko'chirib yozishda (oppoq qog'oz, o'tkir qalam, uchqur ot, ezgu siyoh) birikma tarkibidagi ot va sifatlarning so'roqlari aniqlandi.

**2-dars. Sifat darajalari.** Dars ko'chma doskaga yozilgan so'z birikmalarini tahlil qilishdan boshlandi (*qizil qalam, keng yo'l, yassi tosh, ola sigir, shirin qovun, nordon anor, epchil yigit, oq qog'oz, ishchan kishi, sariq soch*). O'quvchilar sifatlarning so'roqlarini aniqlab, ularni quyidagi guruhlarga ajratib yozishdi.

Rang-tus bildiradigan sifatlar	Hajm-shakl bildiradigan sifatlar	Xil-xususiyat bildiradigan sifatlar	Maza-ta'm bildiradigan sifatlar
<i>qizil (qanaqa) qalam, ola (qanday) sigir, oq (qanday) kaptar, sariq (qanday) soch</i>	<i>Keng (qanday) yo'l, yassi (qanday) tosh</i>	<i>Epchil (qanday) yigit, ishchan (qanday) kishi</i>	<i>shirin (qanday) qovun, nordon (qanday) anor</i>

Bajarilgan topshiriq asosida sifatning qoidalari, uning gapdagi vazifasi, ma'nolari takrorlandi, so'ngra yangi mavzuni o'rganishga o'tildi. Yangi mavzuni tushuntirishda sifat darajasi, oddiy daraja, orttirma daraja, qiyosiy daraja terminlari atroflicha izohlandi. Mavzuni tushuntirish uchun tanlangan misollar oddiy daraja shaklida doskaga yozildi (*yaxshi, uzun, kichik*). Avval oddiy darajadagi sifatlar qiyosiy darajaga aylantirildi (*yaxshiroq, uzunroq, kichikroq*), so'ngra orttirma daraja hosil qilindi (*eng yaxshi, eng uzun, eng kichik, juda yaxshi, juda uzun, juda kichik*). Shundan keyin quyidagi jadval bo'yicha sifat darajalari, ularning hosil bo'lishi, o'zaro farqlari, sifat darajalarining nutqda qo'llanishi tushuntirildi.

Oddiy daraja	Qiyosiy daraja	Orttirma daraja
<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <i>Oppoq qordir tog'larning toshi.</i></li> <li>2. <i>Daryo tiniq, Osmon beg'ubor.</i></li> <li>3. <i>Achchiq savol berib, shirin javob kutma.</i></li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <i>Po'lat temirdan qattiqroq metaldir.</i></li> <li>2. <i>Biz kichikroq stulga o'tirdik.</i></li> <li>3. <i>Chaqqonroq bolalar marraga tez yetib kelishdi.</i></li> </ol>	<ol style="list-style-type: none"> <li>1. <i>Toshkent eng go'zal shaharlardan biri.</i></li> <li>2. <i>Samarqand juda katta shahardir.</i></li> <li>3. <i>Maslahatingiz g'oyat o'rinali taklif bo'ldi.</i></li> </ol>

Dars qurilishini belgilash murakkab ish bo'lib, uni konkretlashtirish, ko'p jihatdan o'quv materiali, o'qitish metodi va o'quvchilarning aqliy faoliyati bilan bog'liq. Yuqorida darslarning birinchisi sifat haqida umumiyligi ma'lumot hosil qilish bilan, ikkinchisi sifatlarning o'ziga xos belgisi — sifat darajalari to'g'risida tushuncha hosil qilish bilan yakunlandi. Ikkala dars ham til dalillarini tahlil qilishdan boshlandi. Birinchi darsning kirish qismida tahlil qilingan til dalillari o'quvchilarni yangi bilimni ongli o'zlashtirishga tayyorlagan bo'lsa, ikkinchi darsning kirish qismida tahlil uchun berilgan til dalillari o'quvchilarning oldin o'tilgan mavzu bo'yicha olgan bilimlarini tekshirish,

1-dars	2-dars
<p><b>1. Bolalarni yangi o'quv materialini idrok etish va tushunishga tayyorlash:</b></p> <p>a) darsning mavzusi, maqsadini bolalarga yetkazish;</p> <p>b) mavzuga oid til dalillarini kuzatish va tahlil qilish.</p>	<p><b>1. O'tganlarni takrorlash:</b></p> <p>a) oldingi mavzu yuzasidan berilgan til dalillarini tahlil qilish va sifat haqida chiqarilgan xulosalarni eslash;</p> <p>b) uy vazifasini tekshirish.</p>
<p><b>2. Yangi o'quv materialini bayon qilish: o'qituvchi kuzatilgan va tahlil qilingan dalillar asosida tushuntirish metodidan foydalanib, o'quv materialini bayon qildi.</b></p>	<p><b>2. Yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash:</b></p> <p>a) dars mavzusi va maqsadini bolalarga yetkazish;</p> <p>b) mavzuga oid til dalillarini tahlil qilish.</p>
<p><b>3. Yangi mavzuni mustahkamlash:</b></p> <p>a) darslik qoidalarini o'qish;</p> <p>b) o'qituvchi bergan misollarni tahlil etish va o'xshash misollar topish;</p> <p>v) darslikdagi mashqlarni ishlash.</p>	<p><b>3. Yangi mavzuni bayon qilish (Yangi mavzuni bayon qilishda tushuntirish va mustaqil ishslash metodlaridan foydalanildi):</b></p> <p>a) sifat darajasi: oddiy daraja, qiyosiy daraja, orttirma daraja terminlari doskaga yozib izohlandi, daftarlarga yozdirildi;</p> <p>b) oddiy darajadagi sifatlardan qiyosiy va orttirma darajadagi sifatlar hosil qilish;</p> <p>v) ko'rgazma quroldagi gaplarni tahlil qilish va sifat darajalarini bayon qilish.</p>
<p><b>4. Oldingi va yangi mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish: o'quvchilar <i>ot</i>, <i>yo'l</i>, <i>mashina</i>, <i>bola</i> otlari bilan <i>keng</i>, <i>qora</i>, <i>chiroyli</i>, <i>aqlli</i> sifatlarini qo'shib, so'z birikmasi hosil qillishdi, so'z birikmalari ishtirokida gaplar tuzishdi. Gaplar tarkibidagi ot va sifatlarning so'rog'i, sintaktik vazifalarini aytishdi.</b></p>	<p><b>4. Yangi mavzuni mustahkamlash:</b></p> <p>a) oddiy darajadagi sifatlardan qiyosiy, orttirma darajadagi sifatlar hosil qilish va ular ishtirokida gap tuzish;</p> <p>b) darslikdagi mashqlarni yechish;</p> <p>v) sifat darajalarining og'zaki va yozma nutqda qo'llanishi ustida ishslash.</p>
<p><b>5. Dars yuzasidan yakuniy xulosalar chiqarish: sifatlar narsaning belgisini bildiradigan so'z; gap tarkibida ot bilan bog'lanib keladi; qanaqa? qanday? so'roqlarini oladi; gapda aniqlovchi vazifasida keladi.</b></p>	<p><b>5. Uy vazifasi topshirish va o'quvchilar bilimini baholash.</b></p>
<p><b>6. Uy vazifasi topshirish va o'quvchilar bilimini baholash.</b></p>	<p><b>6. Darsni yakunlash.</b></p>

mustahkamlash maqsadida tashkil etildi. Darslarning ikkalasida ham o'qituvchi deduksiyadan foydalandi; o'quv materialini bayon qilish uchun tushuntirish metodi, o'rganilgan materialni mustahkamlash uchun mustaqil ishlash metodi qo'llanildi. Shularga qaramasdan, darslar turli bosqichlar asosida tashkil etildi. Ikkala darsning tashkiliy qurilishini o'zaro chog'ishtiramiz.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash ko'p jihatdan o'qitish metodlaridan samarali foydalanishga ham bog'liqdir.

O'qitish metodlari ta'lif jarayonini boshqarishning ham tashqi, ham ichki tashkiliy vositasi sanaladi. O'qitish metodi tashqi tomondan o'quv materiali ustida o'qituvchi va o'quvchilarining intellektual faoliyatini o'zaro uyg'unlashtirish vositasi sifatida xizmat qiladi: o'quv materialini o'qituvchi izohlayotgan paytda o'quvchilar tinglaydi; o'qituvchi topshiriq bersa, o'quvchilar bajarishga kirishadi. Mana shu asosda o'quvchilar o'quv materialini o'zlash-tiradilar.

O'qitish metodining ichki tashkiliy qurilishi deganda, aynan olingan o'qitish metodining ichki tarkibi va shu tarkibning o'quv materialiga munosabati anglashiladi. Buning uchun suhbat metodini tahlil qilib ko'raylik.

Yangi o'quv materiali suhbat metodi orqali o'rgatilganda, mavzuga oid til dalillari kuzatiladi (1); kuzatilgan dalillar o'qituvchi topshirig'iga ko'ra chog'ishtiriladi (2); chog'ishtirish orqali o'qituvchi savoliga javob izlanadi (3); o'quvchilarining javoblari tinglanadi (4); juz'iy xulosalar chiqariladi va ular qayta birlashtirilib, umumiy xulosaga kelinadi (5); chiqarilgan umumiy xulosa, zarur bo'lsa, darslikdagi qoidalarga taqqoslanadi (6) va, nihoyat, o'quvchilar chiqargan xulosalar o'qituvchi tomonidan to'ldiriladi, aniqlashtiriladi (7). Demak, o'quv materialini suhbat metodi yordamida o'rgatganda, o'qituvchi va o'quvchi

faoliyati bir qancha bosqichlarni bosib o'tadi, har bir bosqichda o'quvchi ta'lim materialiga turli maqsadda yondashadi. **1-bosqich:** o'qituvchi kuzatish uchun mavzuga oid faktik materialni beradi, o'quvchi berilgan materialni kuzatadi. **2-bosqich:** o'qituvchi bolalar kuzatgan, his qilgan materialni chog'ishtirishni buyuradi, o'quvchi dalillarni chog'ishtiradi. **3-bosqich:** chog'ishtirish orqali savollarga javob izlash aytildi, o'quvchi savolga javob izlaydi. **4-bosqich:** o'qituvchi savollarga javob talab qiladi, o'quvchi javob qaytaradi. **5-bosqich:** o'qituvchi juz'iy xulosalarini sintezlashni buyuradi, bolalar umumiy xulosa chiqaradi. **6-bosqich:** o'qituvchi umumiy xulosani darslikdagi qoidalarga taqqoslashni buyuradi, bolalar taqqoslash orqali o'zlarini chiqargan xulosaning yutuq va kamchiliklarini anglaydilar. **7-bosqich:** o'qituvchi bolalar chiqargan xulosani to'ldiradi, konkretlashtiradi, o'quvchilar o'qituvchi nutqini tinglashadi. **8-bosqich:** o'qituvchi o'rganilgan qoidanining amaliy qo'llanishini o'rganishga undaydi, o'quvchi turli topshiriqlarni bajarish yo'li bilan o'rganilgan qoidani mustahkamlaydi.

Bayon qilish metodi suhbat metodiga nisbatan boshqacha ko'rinishga ega bo'ladi. **1-bosqich:** o'qituvchi kuzatish uchun daliliy material beradi, bolalar materialni kuzatishadi. **2-bosqich:** o'qituvchi kuzatilgan dalillarni tahlil qila turib, qoidalarni tushuntiradi, bolalar o'qituvchining nutqini tinglaydilar. **3-bosqich:** o'qituvchi o'rganilgan materialning qanchalik puxtaligini bilish uchun savollar beradi, o'quvchilar javob qaytaradilar. **4-bosqich:** o'qituvchi mavzu yuzasidan umumiy xulosa chiqaradi, o'quvchilar tinglashadi. **5-bosqich:** o'qituvchi topshiriqlar beradi, bolalar topshiriqlarni bajarish yo'li bilan mavzuni mustahkamlaydi.

Mustaqil ishlash metodining ham o'ziga xos bosqichlari mavjud: o'quvchilarni qo'yilgan masalani o'rganishga tayyorlash, yo'l-yo'riq berish, mustaqil ishlash, bajarilgan ish ustida suhbat o'tkazish, yakuniy xulosa chiqarish, o'rganilgan qoidanining amaliy qo'llanishi ustida ishlash.

Yangi bilimlarni o'rgatish jarayonida, ko'pincha, o'qitish metodlaridan aralash holda foydalaniladi. Ba'zan suhbat metodi bilan mustaqil ishlash metodi, ba'zan esa bayon qilish metodi bilan mustaqil ishlash metodi o'zaro qo'shiladi.

Muammoli dars ta'limni tashkil etishning yangi shakli hisoblanadi. O'quvchilarning mustaqil aqliy faoliyati bunday darslarning psixologik zamini sanaladi. Muammoli darslarga ham an'anaviy dars tiplariga o'xshab qator pedagogik talablar qo'yiladi: ta'limda ilmiylik, izchillik, o'qitishni turmushga bog'lash va hokazo. Shu bilan birga, muammoli dars o'ziga xos xususiyatlarga ham ega. Muammoli o'qitish ta'limning boshqa turlari va metodlariga tamoman zid emas. Uning asosiy xususiyatlari ta'lim jarayonining ma'lum zvenosida — yangi bilimlarni o'rganish jarayonida, yangicha faoliyat ko'rsatish shartlari va usullarini egallash bilan xarakterlanadi.

Muammoli darslarni quyidagicha rejalashtirish mumkin.

Darsning maqsadi: «Ko'chirma gap va muallif gapi» to'g'risida ma'lumot berish.

1. Yangi mavzuni tushuntirishda o'quvchilarning oldingi bilimlariga asoslaniladi. O'quvchilarga quyida-gicha savol va topshiriqlar beriladi: Gapning maqsadiga ko'ra turlarini aytib bering? Darak, so'roq, buyruq gaplarning oxiriga qo'yiladigan tinish belgilarini misollar bilan tushuntiring.

Savollarga javob olingach, yangi mavzuni tushuntirishga o'tiladi.

2. Yangi mavzuni o'rgatish.

a) darsning mavzusi va maqsadini e'lon qilish:

— Bolalar, hozir siz darak gapning oxiriga nuqta, so'roq gapning oxiriga so'roq, buyruq gapning oxiriga undov yoki nuqta qo'yilishini juda to'g'ri aytdingiz. Bugun «Ko'chirma gap»ni o'rganamiz. Agar siz mening savollarimni diqqat bilan tinglab tursangiz, bugungi mavzuni o'zingiz mustaqil o'rganasiz.

3. Kuzatish uchun til dalillari. O‘quvchilarga shunday savol beriladi: Biz bugun qanday gapni o‘rganamiz?

Sinf doskasiga quyidagi til dalillari yoziladi: Biz bugun «Ko‘chirma gap»ni o‘rganamiz (dedi o‘qituvchi), katta bo‘lganingda qanday kasbni egallaysan (deb so‘radi bobo). Dalillar jamoa bo‘lib muhokama qilinadi, tinish belgilari qo‘yiladi. Doskada quyidagi gaplar paydo bo‘ladi.

«Biz bugun «Ko‘chirma gap»ni o‘rganamiz», — dedi o‘qituvchi.

«Katta bo‘lganingda, — deb so‘radi bobo, — qanday kasbni egallaysan?»

Doskaga yozilgan misollar tahlil qilinib, ko‘chirma gap, muallif gaplari ajratiladi. Bolalar mustaqil xulosa chiqarishga tayyorlanadi.

#### 4. Mustaqil xulosalar chiqarish.

5. O‘qituvchi o‘quvchilar chiqargan xulosalarni to‘ldiradi, qo‘srimchalar kiritadi, ko‘chirma gap va muallif gapining farqlarini izohlaydi, o‘rinlarini tushuntiradi.

#### 6. Yangi mavzuni mustahkamlash.

O‘quv materialini mantiqan bog‘langan ulushlarga ajratib o‘qitish imkoniyati bo‘lsa, bunday mavzularni o‘quv elementlari asosida o‘rgatish eng samarali usul hisoblanadi. Zero, o‘rganilayotgan axborotning hajmi qancha kichik bo‘lib, u qancha ko‘p tekshirilsa, ta’lim jarayonini shuncha unumli boshqarilishi fanda allaqachon isbotlangan. Shu hodisani sifatlarning otlashishi hodisasi misolida kuzatamiz.

Sifatlarning otlashishi matn bilan bog‘liq. Otlashgan sifatlar fikrning ixchamligi, ta’sirchanligini ta’minlaydi. Xalq maqollarida, ko‘pincha, otlashgan sifatlar ishlataladi: Yaxshiga yondash, yomondan qoch. Yaxshi oshini yer, yomon boshini. Yaxshi — odamlarning naqshi.

Otlashgan sifatlar quyidagi xususiyatlarga ega:

— otlashgan sifatlarda ham predmetlik, ham belgi ma’nosi mavjud. Predmetlik ma’nosini ifodalagani uchun kim?, nima? so‘roqlarini oladi; otlashgan sifatlardan keyin

gapga ot so‘z turkumiga oid so‘z kiritilsa, u belgi ma’nosini anglatadi: Masalan, aqli kishi qish g‘amini yoz yer, tunlari xo‘ragini oz yer;

— otlashgan sifatlar egalik, kelishik qo‘srimchalar bilan qo‘llanadi, ko‘plik -lar qo‘srimchasini oladi. Misollar, mardni mehnat bukolmas. Ilg‘orlarimizga tenglashing!

— otlashgan sifatlar gapda ega (To‘g‘ri o‘zadi, egri to‘zadi), to‘ldiruvchi (Yomondan qorovul qo‘ysang, yov yetti bo‘lur), aniqlovchi (Molning olasi tashida, odamning olasi ichida) vazifasida keladi, shuningdek, gapda undalma bo‘lib kela oladi (Ilg‘orlar, qoloqlarga ko‘maklashing).

Otlashgan sifatlarning asosiy xususiyatlariga ko‘ra, mantiqan bog‘langan to‘rtta o‘quv elementi ajratiladi: sifatlarning otlashishi (1); otlashgan sifatlarning so‘roqlari (2); otlashgan sifatlarning kelishik, egalik qo‘srimchalari bilan qo‘llanishi (3); otlashgan sifatlarning gapdagisi vazifasi (4).

Darsning mavzusi, maqsadi va uni o‘rganish rejasи berilgach, o‘quv materialining birinchi qismini o‘rgatishga o‘tiladi.

### 1-qism

O‘quv materialining birinchi qismi bo‘yicha quydagicha mustaqil ish beriladi.

#### 1- topshiriq

Maqollarni o‘qib, egalarini toping. Egani gapdan ajratib, morfologik tahlil qiling. Chap va o‘ng tomonagi gaplarning egasi qaysi so‘z turkumi bilan ifodalangan?

*Botir kishi yov kelganda bilinar.*

*Chechan kishi bahslashganda bilinar.*

*Yoki*

*Botir yov kelganda bilinar.*

*Chechan bahslashganda bilinar.*

Bajarilgan ish yuzasidan suhbat o'tkaziladi, o'quv chilarning xatolari tuzatiladi. So'ngra o'quv materialining birinchi qismi quyidagicha tushuntiriladi.

— yuqoridagi maqollar qo'shma gap shaklida berilgan. Birinchi ko'shma gapning egasi ot bilan ifodalangan. O'ng tomondagi maqolda *kishi* so'zi tushib qolgan. Gapning egalari *botir*, *chechan* so'zlaridir. Bu yerda botir, chechan sifatlari kim? so'rog'ini oladi. Sifatlar otlashadi. Otlashgan sifatlar kim? nima? so'roqlariga javob bo'ladi. Sifatlar otlashganda, gap tarkibidagi bog'lanib kelgan ot tushib qoladi. Birinchi qismni mustahkamlash uchun quyidagicha topshiriq beriladi.

### 2-topshiriq

Gaplarni o'qib, egasini toping, ularning qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganini aytинг. Tushib qolgan otni aniqlang?

*Mard mehnatdan qo'rqlmaydi,  
Nomard uyatdan qo'rqlmaydi.*

### 2-qism

O'quv materialining ikkinchi qismi bo'yicha quyidagicha topshiriq beriladi.

### 3-topshiriq

Gaplarni o'qib, otlashgan sifatlarning qanday qo'shimchalar bilan qo'llanganini aniqlang.

*Va'daga vafo — mardning ishi.*

*Ilg'orlarimiz katta muvaffaqiyatlarga erishdilar.*

Bajarilgan topshiriq asosida otlashgan sifatlarning egalik, kelishik, ko'plik qo'shimchalari bilan ishlatalishi tushuntiriladi. Mustahkamlash uchun quyidagi topshiriq o'tkaziladi.

#### **4-topshiriq**

«Yaxshi» so‘ziga ko‘plik (-lar), egalik (-imiz) va kelishik qo‘sishmchalarini qo‘shib, otlashgan sifat hosil qiling. Shu otlashgan sifat ishtirokida gap tuzing.

#### **3-qism**

Quyidagi maqollar asosida otlashgan sifatlarning gapdagi vazifalari tushuntiriladi.

*Mard bir marta o'ladi, qo'rqoq yuz marta.*

*Yaxshida gina bo'lmas, yomondan gina ketmas.*

*Yomonning yaxshisi bo'lguncha, yaxshining yomoni bo'l.*

Otlashgan sifatlarning gapdagi vazifalari tushuntirilgach, mustahkamlash uchun quyidagi mustaqil ish tashkil etiladi.

#### **5-topshiriq**

«Ilg‘or» so‘zini otlashgan sifat o‘rnida ishlatib, 4 ta gap tuzing. Bu so‘z birinchi gapda ega, ikkinchi gapda to‘ldiruvchi, uchinchi gapda aniqlovchi, to‘rtinchi gapda undalma vazifasida kelsin.

Mavzu tushuntirilgach, darslikdagi mashqlar ishlanadi. O‘quv materiali qismlar bo‘yicha o‘rgatilganda, o‘quvchilar uning ichki tuzilishini ongli his etadi. Bunda o‘quv materialini o‘rgatish mustahkamlash va mavzuning qay darajada o‘zlashtirilganligini tekshirish parallel tarzda olib boriladi. Shunday qilib, o‘quv materialini qismlar bo‘yicha o‘rgatganda, o‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarni qayta xotirlash yo‘lini, uni nutqda qo’llash metodini (aniqlanmishni tushirish) puxta egallaydi.

Yangi materialni o‘rgatish jarayoni o‘quv materialining xususiyatlaridan kelib chiqib tashkil etiladi. Nazariy material hajm jihatidan keng bo‘lmasa, uni qismlarga bo‘lmay o‘rgatib, mustahkamlashga o‘tgan ma’qul. Agar o‘quv materiali hajm jihatidan keng bo‘lib, uni o‘zaro bog‘langan qismlarga ajratib o‘rgatish imkoniyati bo‘lsa,

qismlar bo'yicha tushuntirish foydali bo'ladi. O'quv materialini o'zaro mantiqan bog'langan qismlarga ajratib o'qitish, o'zlashtirilgan bilimning tarkibini mumkin qadar ongli his qilishga, bu bilimning oldin o'rganilgan bilimlar bilan aloqadorligini fikran tasavvur etishga olib keladi.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari o'z ichida turli ko'rinishlarga egadir. Fikr yuritilayotgan dars tipining o'zi ikki turli bo'ladi: o'tilganlar takrorlangach, yangi o'quv materialini o'rgatish bosqichi boshlanadigan dars (adabiyotlarda bunday darslar aralash dars deb yuritiladi); yangi o'quv materialini o'rgatishdan boshlanadigan dars.

Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslarini bunday turlarga ajratishning maqsadi, o'qituvchi mavzuni o'tishdan oldin o'rganilgan mavzulardan qay birini takrorlash yoki takrorlamaslikdan uni ogohlantirishdir.

Ta'limda mustaqil ishlardan foydalanish mashg'ulotlarning tashkiliy qurilishiga ham ta'sir etadi. O'quv materialining mazmuni, sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, mustaqil ishlar asosida o'tkaziladigan darslarning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin.

Darslarning birinchi turida o'rganiladigan grammatik-orfografik qoida, ta'rifning mazmunidan kelib chiqib, mustaqil ish o'tkaziladi; topshiriqning natijasi jamoada tekshiriladi, tahlil qilinadi va unga tayanib, o'quv materiali bayon qilinadi. Darsni shu yo'sinda tashkil etish, bir tomonidan, o'zlashtirish paytida o'quvchilarining faolligini oshiradi, ularni yangi o'quv materialini idrok etishga tayyorlaydi, ikkinchi tomondan, o'quvchilar xotirasini nazariy bilimlar bilan boyitish, o'quv materialini esda qoldirish uchun zamin bo'ladi. Bunday darsda o'qituvchining vazifasi bilimlarni bayon qilish, tushuntirish paytida o'quvchilar faoliyatidan o'tgan faktik materiallarga tayanish, o'rgatilgan materialni mustahkamlash uchun

mustaqil ishlarni tashkil etish va ularning mustaqil ishlashlariga rahbarlik qilish bilan, o'quvchining vazifasi o'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarish, tushuntirilgan mavzuni xotirada mustahkam saqlab qolish bilan tavsiflanadi. O'quv materialining mazmuni yaxlit bayon qilishni talab qilganda, o'quvchi uchun notanish va uni o'zlashtirish murakkab bo'lganda, yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslarining bu ko'rinishidan foydalanadi. Mashg'ulotning umumiy qurilishi shunday ko'rinishga ega bo'ladi: o'quvchilarining mavzuga oid bilimlarini (agar mavzu quyi sinfda ham o'rganilgan bo'lsa) esga tushirish; yangi o'quv materialini faol idrok etishni ta'minlash uchun mavzu mazmuniga mos mustaqil ish tashkil etish; bajarilgan topshiriqni jamoada tahlil qilish va shu asosda yangi qoidalarni bayon etish; yangi mavzuni mustahkamlash.

Darslarning ikkinchi turi o'quvchilarining mustaqil faoliyatidan boshlanadi. O'quvchilar bajargan topshiriq va o'rgangan qoidalari ustida suhbat o'tkaziladi. Suhbat paytida o'quvchilar o'zlarining taxminiy xulosalarini aytishadi. Agar zarur bo'lsa, o'qituvchi qo'shimchalar kiritadi va yakuniy xulosa chiqaradi. Keyin mustahkamlashga o'tiladi. Bunday darsning qurilishi quyidagicha bo'ladi: mavzuni mustaqil o'rganish uchun ko'rsatma berish; o'qituvchi topshirig'ini bajarish, nazariy materiallarni o'qib chiqish; bajarilgan topshiriq va o'rgatilgan qoidalari yuzasidan suhbat; qo'shimchalar kiritish, umumiy va yakuniy xulosalar chiqarish, mustahkamlash.

Darslarning uchinchi turida o'quv materialining bir qismini o'qituvchi bayon qiladi, bir qismini o'quvchilarining o'zi mustaqil egallashadi. Darsninng bu ko'rinishi o'quvchilar xotirasini ham tayyor, umumlashgan bilimlar bilan boyitish, ham ularda darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari ustida mustaqil ishlash iqtidorini taraqqiy ettirish mo'ljallab o'tkaziladi. Bunday mashg'ulotlarda tushuntirish va mustaqil ishlash metodlari o'zaro qo'shilgan

holda olib boriladi. Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslarining bu ko'rinishi quyidagicha umumiy qurilishga ega bo'ladi: bolalarni yangi o'quv materialini idrok etishga tayyorlash; misollar vositasida nazariy materialning bir qismini tushuntirish; nazariy materialning qolgan qismini mustaqil o'rganishga ko'rsatma berish; mustaqil o'rganish; umumiy va yakuniy xulosa chiqarish, xulosalarni mustahkamlash.

## **2-fasl. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari**

Ona tilidan o'rganilgan bilimlarning puxtaligi, ko'p jihatdan, o'qituvchining takrorlash darslarini tashkil qilishiga bog'liq. Bunday darslarda o'quvchi oldin o'rganilgan nazariy bilimlarga, grammatik-orfografik qoidalarga takroriy qaytadi. Bu til dalillarini tahlil qilish, ularni chog'ishtirish zaminida bo'ladi. Mashq paytida o'quvchi o'zi o'rgangan qoida asosida faoliyat ko'rsatadi. Takrorlash darslarida oldin idrok etilgan bilimlar qayta tasavvur etiladi. Shu sababli, ko'p metodistlar takrorlash mashg'ulotlarini o'rganilgan qoidalarni qayta esga tushirish va shu qoidalarni nutqiy amaliyotda qo'llash vositasi deb qarashadi.

Takrorlash darslari, bir tomonidan, turli mashqlar yordamida o'quvchilarda o'rganilgan materiallar doirasida malaka hosil qilishga qaratilsa, ikkinchi tomonidan, o'quvchilarining bilimlarini aniqlashtirish, kengaytirishga xizmat qiladi. Bunday darsning ruhiy zamini o'quv materialini to'liq o'zlashtirish va malaka hosil qilish bilan xarakterlanadi. Shunga ko'ra, ona tili o'qitishga doir darslarning bu tipini «o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari» iborasi bilan atash maqsadga muvoifiqdir.

Takrorlash maqsadiga ko'ra olti xil bo'ladi:

— o'quv yili boshidagi takrorlash o'quvchilarining oldingi o'quv yillarida o'rgangan bilimlari asosida tashkil etiladi.

Masalan, 5-sinfda boshlang‘ich sinfda o‘rganilgan bilimlar, 6-sinfda 5-sinfda o‘rganilgan bilimlar takrorlanadi. Bu xil takrorlash orqali, oldingi sinflarda o‘rganilgan bilim va malakalar tizimli esga tushiriladi. Dasturlarda takrorlash uchun maxsus o‘quv soatlari ajratilgan, darsliklarga esa takrorlash uchun maxsus mashqlar kiritilgan;

— o‘quv yili oxiridagi yakuniy takrorlash. Bu xil takrorlash vositasida o‘quvchilarning bilimlari tartibga solinadi, bilimlardagi nuqsonlar tugatiladi, mavzular yuzasidan umumiy va yakuniy xulosalar chiqariladi;

— oldin o‘rganilgan bilimlarni o‘quvchilar esiga tushirish uchun takrorlash. Bu xil takrorlash yangi mavzuni o‘rga nishga tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Masalan, «Ega» mavzusini o‘tish uchun o‘quvchilarning boshlang‘ich sinflarda «Ega» mavzusi bo‘yicha olgan bilimlarini takrorlab, keyin yangi mavzuni bayon qilishga o‘tiladi. Shu yo‘l bilan o‘rgatilgan va o‘rgatilayotgan mavzular o‘rtasida izchillik, mantiqiy aloqa hosil qilinadi. Takrorlashning bu xili yangi materialni o‘rganish va mustahkamlash darslarida o‘tkazilib, yangi mavzuni o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi;

— darsda o‘rgatilgan yangi o‘quv materialini takrorlash. Bu xil takrorlash vaqt nuqtai nazaridan yangi o‘quv materiali o‘rgatilgan zahotiyoy qishqisasi etiladi. O‘quvchilar yangi bilimlarni o‘rganib olgach, shu bilimlarni esga tushirib, til dalillari ustida faoliyat ko‘rsatadilar. Takrorlashning bu turi «mustahkamlash» termini bilan yuritiladi. Bu ona tili o‘qitishga doir birinchi tip bo‘lib, darsning eng asosiy bosqichlaridan biri sanaladi. Mustahkamlash o‘rganilgan yangi mavzuning esda chuqurroq saqlanishi, uy topshiriqlarini puxta bajarish, kelgusi soatda takrorlash darslarini ijodiy tashkil etish uchun zamin bo‘ladi;

— ona tilidan katta mavzu, bo‘lim o‘tilgach, o‘tkaziladigan takrorlash. Bu xil takrorlash o‘quvchilarning bilimlarni tizimlashtirish va umumlashtirish maqsadida

o'tkaziladi. Bu haqda keyingi faslda batafsil fikr yuritiladi;

— ma'lum o'quv materiali o'rganilgach, kelgusi o'quv soatida o'tkaziladigan takrorlash. Bu xil takrorlash o'quv materialini atroficha o'zlashtirish, ma'lum mavzu doirasida tushuncha hosil qilish, o'rganilgan mavzu doirasida malakalarini shakllantirish, o'quvchilarining bilimlarini qat'iyashtirishga qaratiladi. Unga ma'lum o'quv soati ajratiladi. Bu faslda takrorlashning shu turi to'g'risida fikr yuritiladi.

O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari yangi materialni o'rgatish darslaridan tubdan farq qiladi. Takrorlash darsidan keyin o'quv predmetining navbatdagi qismini o'rgatish davri boshlanadi. Mashg'ulotlarning birinchisi o'quvchilar anglab yetmagan, ular uchun mavhum bo'lgan til hodisalari ustida o'tkazilsa, ikkinchisi o'quvchilar anglab olgan, ular ongidan bir marta o'tgan qon uniyatlar, qoidalar ustida tashkil qilinadi. Takrorlash darslarida o'quvchilar o'rganilgan, ammo to'lig'icha o'zlashtirilmagan qonun-qoidalarga tayanadi, o'rganilgan bilimlarga rivoja qilib faoliyat ko'rsatadi. Demak, bu dars tipining eng xarakterli xususiyati o'quvchilarining fan asoslarini to'liq o'zlashtirishga qaratilganligidadir.

Takrorlash va malaka hosil qilish darslarida ko'proq turli-tuman mashqlardan foydalaniladi. O'rganilgan qonun-qoidalarga oid til dalillari ustida o'quvchilarining faoliyati tashkil etiladi. O'rganilgan qoidalarni fikran xayoldan o'tkazib faoliyat ko'rsatish natijasida o'quvchilarcla malaka hosil bo'ladi. Demak, bu dars tipining yana bir belgisi o'quvchilarda malaka hosil qilishdir.

O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari, nazariy bilimlar o'rganilgach tashkil etiladi. Bu dars tipining eng xarakterli xususiyati uning yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darsining davomi, unga bog'lab tashkil etilishidadir. Quyida 5-sinfda «Otlarning kelishi klar bilan

turlanishi» mavzusi bo'yicha ikki soatlik darsi tafsilotini keltiramiz.

**Birinchi dars** — yangi materialni o'rganish va mustah-kamlash. Darsning maqsadi: o'quvchilarning boshlang'ich sinfda otlarning kelishiklar bilan turlanishiga doir o'rgangan bilimlarini yanada kengaytirish. Dastlab, o'quvchilarning boshlang'ich sinflarda kelishiklar mavzusi va otlarning egalik qo'shimchalari bilan turlanishiga oid bilimlarini tekshirish, esga tushirish uchun quyidagicha mustaqil ish tashkil etildi:

*Qishlog'imiz, daftarimning, chaqirig'ini, shahrimizda, o'quvchilarimizdan so'zlari diktovka qilib yozdirildi, so'ngra egalik qo'shimchalarining tagiga bir marta kelishik qo'shimchalarining tagiga ikki marta chizish topshirildi. O'quvchilar ishni bajargach, suhbat o'tkazildi, kelishiklarning soni, so'roqlari aniqlandi. So'z tarkibida oldin egalik, keyin kelishik qo'shimchalarining kelishi ta'kidlandi. Shundan keyin yangi mavzuni tushuntirishga o'tildi. Doskaga quyidagi jadvalni ilib, o'quvchilar diqqati maktab so'zi va unga qo'shilgan qo'shimchalarga tortildi.*

### MAKTAB

Maktab — bilim va tarbiya o'chog'i. Maktabning mulkini ehtiyyot qilib saqla! Maktabni sevsang, maqsadingga yetasan. Maktabga qatnaganidan beri sira dars qoldirganim yo'q. Maktabda o'qiymiz va hunar o'rganamiz. Maktabdan kelgandan so'ng onamga yordam beraman.

Kelishiklar nomi	Qo'shimchasi	So'roqlari
1. Bosh kelishik	-	kim? nima?
2. Qaratqich kelishigi	-ning	kimning? nimaning?
3. Tushum kelishigi	-ni	kimni? nimani?
4. Jo'nalish kelishigi	-ga (ka, ga)	kimga? nimaga?
5. O'rinn-payt kelishigi	-da	kimda? nimada? qayerda?
6. Chiqish kelishigi	-dan	kimdan? nimadan? qayerdan?

Jadvaldag'i har bir gapda *maktab so'zi* qanday qo'shimcha olganligi aytildi, keyin kelishiklar aks ettirilgan jadval bo'yicha har bir kelishikka izoh berildi.

Kelishiklar, ularning qo'shimchalari, so'roqlari, ma'nolari tushuntirilgach, o'rganilgan mavzuni mustahkamlash ustida ish qilindi:

1) berilgan so'zlarni kelishik qo'shimchalari bilan turlash;

2) izohli yozuv: *Tumanimiz paxta rejasini bajardi* gapini bir o'quvchi izohlab yozadi, boshqa o'quvchilar daftarlariiga yozishadi. Tumanimiz so'zida tuman o'zagi, -imiz — egalik qo'shimchasi, birinchi shaxs ko'plikda, bosh kelishikda, gapda ega, *tu-ma-ni-miz* shakliida bo'g'lnlarga ajratiladi: *paxta* — qaratqich kelishigida, lekin kelishik qo'shimchasi tushib qolgan, ikki bo'g'inli so'z, birinchi bo'g'inning oxirida h emas, x yoziladi: *rejasini* — tushum kelishigidagi ot va sh.k.

3) darslik mashqlari ustida ishlash. So'ngra dars yakunlanib o'quvchilar bilimi baholandi.

**Ikkinci dars** — o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi. Bu dars o'quvchilarga mustaqil ishni bajartirish bilan boshlandi. O'quvchilar matnni ko'chirib, *she'r*, *xat*, *kino*, *maktab* so'zlarining qaysi kelishikda ekanligini qavs ichiga yozdilar. So'ngra bir o'quvchi o'zi bajargan ishni o'qib berdi, boshqalar xatolari bo'lsa, unga qarab tuzatdi. Mustaqil ishning bajarilishi tekshirilgach, kelishiklar ustida suhbat o'tkazildi, kelishiklarning ma'nolari so'raldi.

Darslikdagi mashqlarning bir nechtajamoa bo'lib, og'zaki bajarildi. Otlarning ba'zan qaratqich. va tushum kelishiklarida qo'shimchasiz ishlatilishi, tushum kelishigining qo'shimchasi, uning qo'llanishi aytildi. Bu bilimlar darslik mashqlari bo'yicha yana mustahkamlandi. O'quvchilar maqollarni o'qib, otlarning qaysi kelishikda kelganligini aytishdi: *El tinchligini buzgan omon qolmas. Daryo suvini bahor toshirar, odam qadrini mehnat oshirar. El tinchligini, daryo suvini, odam qadrini birikmalarini el tinchligin, daryo*

*suvin, odam qadrin shaklida yozish mumkin ekanligi aniqlandi. Bolalar tushum kelishigida kelgan otlarni qisqargan shaklda qo'llab, maqollarni ko'chirib yozishdi: El tinchligin buzgan omon qolmas. Daryo suvin bahor toshirar, odam qadrin mehnat oshirar.*

*Paxta, dars so'zlarini ikki o'quvchi kelishik qo'shimchalari bilan turlab doskaga, qolgan o'quvchilar o'z daftarlariiga yozdi. Keyin quyidagi gaplar yuzasidan mustaqil ish o'tkazildi. Bolalar gaplar tarkibidagi otlarni aniqlab, ularning qaysi kelishikda ekanligini, gapning qaysi bo'lagi vazifasida kelayotganini aytib berishga tayyorlandi. Odam qo'li cho'lni bo'ston qiladi. Xalqimiz qadimdan bog'dorchilikni sevadi.*

Ikkinci darsda bir paytning o'zida otlarning kelishiklar bilan turlanishiga oid bilimlar ham, mavzu yuzasidan hosil qilingan malakalar ham mustahkamlandi. O'quvchilar o'rganilgan bilimlarga rioya qilib, so'zlarini kelishik qo'shimchalari bilan turlab yozishdi, tayanch so'zlar ishtirokida «Maktab issiqxonasi» mavzusida bog'li matn tuzishdi.

Darsda otlarning kelishiklar bilan turlanishiga oid bilimlarni sakkiz variantda mustahkamlandi: 1) darslikdagi mashqni mustaqil bajarish. Bunda o'rganilgan bilimlarga tayanib *she'r, xat, kino, maktab* so'zlarining qaysi kelishikda kelganligi aniqlandi; 2) kelishiklar, ularning so'roqlari, ma'nolari bo'yicha sinov suhbati. O'rganilgan bilimlarni o'qituvchiga aytib berish maqsadida unga qaytish; 3) uy vazifasini tekshirishda *globus* so'zining qaysi kelishikda ekanligini aytib berish yo'li bilan o'rganilgan bilimlarga takroriy qaytish; 4) darslikdagi mashqlarni yechish yo'li bilan o'rganilgan bilimlarni qayta xotirlash; 5) paxta, dars so'zlarini egalik va kelishik qo'shimchalari bilan turlash, egalik va kelishik kategoriyasini o'zaro taqqoslash maqsadida, o'rganilgan bilimlarga rioya qilish; 6) berilgan gaplar tarkibidagi otlarning qaysi kelishikda ekanligi,

gapdagi vazifalarini aniqlash, mavzu yuzasidan bilimlarni kengaytirish maqsadida unga qaytish; 7) o'rganilgan bilimlarga rioya qilib, bog'li nutq tuzish, o'rganilgan bilimlarning amaliy qo'llanishi ustida ishlash; 8) bajarilgan ish yuzasidan suhbat. O'quvchilar bajarilgan ish bo'yicha hisobot berish yo'li bilan o'rganilgan bilimlarga takroriy qaytadi.

Takrorlash darsida tashkil etilgan ishlar rang-barang edi. Ishning eng og'ir turi darsning oxirida tashkil etildi. Darsda mustaqil ish bajarilib, sinov suhbat o'tkazilgach, uy vazifasi tekshirildi. Bu bolalarning uy vazifasini bajarishda yo'l qo'ygan xatolarini payqab olishlariga ko'maklashdi.

O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari turli-tuman mashqlar asosida tashkil etiladi. O'qituvchi har bir o'quv materiali mazmunini tahlil qilish, mavzu yuzasidan o'tkaziladigan mashq turlarini aniqlab olishi, ulardan zarur o'rinnarda darslik materiallariga qo'shimcha ravishda foydalanishi lozim. Professor G'. Abdurahmonov uyushiq bo'laklarda tinish belgilarining ishlatilishini tahlil qilib, ona tili mashg'ulotlarida quyidagi mashq turlaridan foydalishni tavsiya qiladi.<sup>24</sup>

1. Matndagi gaplarning qaysi bo'laklari uyushib kelganligi va ular orasida nima sababdan vergul qo'yilishi yoki qo'yilmasligini aniqlash.

2. Berilgan gaplardagi uyushiq bo'laklarni aniqlash, gapning qaysi bo'lagi uyushib kelayotganini aytish, kerakli tinish belgilarini qo'yib ko'chirish.

3. Sodda gap tarkibidagi uyushiq bo'lak, umumlashtiruvchi so'z kiritish va tinish belgilarini qo'yib yozish.

4. Berilgan sodda gaplarni birlashtirish yo'li bilan uyushiq bo'lakli gap tuzish, tinish belgilarini qo'yib ko'chirish.

<sup>24</sup> Abdurahmonov G'. Punktuatsiya o'rgatish metodikasi. – T.: «O'qituvchi», 1968. 66-67-betlar.

5. Berilgan gaplar tarkibidagi takrorlanuvchi bog'lovchilarni yakka bog'lovchilar bilan va aksincha, yakka bog'lovchilarni takrorlanuvchi bog'lovchilar bilan almashtirib yozish, tinish belgilarining ishlatilish yoki ishlatilmaslik sabablarini izohlash.

6. Bog'lovchisiz birikkan uyushiq bo'laklarni turli bog'lovchilar bilan biriktirish va aksincha, bog'lovchi yordami bilan aloqaga kirishgan bo'laklarning bog'lovchilarini tushirib, ularni bog'lovchisiz uyushiq bo'laklarga aylantirish.

7. Berilgan gaplardagi aniqlovchilarining qaysi biri uyushgan va qaysi biri uyushmaganligini aniqlash, uyushish va uyushmaslik sabablarini izohlash.

8. Berilgan gaplardagi uyushiq bo'laklar va umumlash-tiruvchi so'zni aniqlash va tinish belgilarining ishlatilish sabablarini izohlash.

Malaka grammatic bilimlar asosida hosil qilinadi. Bunday murakkab ish tizimli mashqlar orqaligina istalgan natijaga erishish mumkin. Grammatic bilimlar bo'yicha malaka hosil qilish jarayonini «Undalmali gaplar» (boshlang'ich sinf) mavzusi misolida ko'raylik.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari undalmaning ta'rifi, uning gapning boshida, o'rtasida, oxirida kelishini o'rganadilar. Undalmalarda ishlatiladigan tinish belgilarini o'zlash-tiradilar.

Undalmalarni o'rganish jarayonida o'quvchilarda ikki xil malaka shakllantiriladi: intellektual malakalar — undalmalarni tushunish va ularni gapning boshqa bo'laklaridan ajrata olishga doir malakalar; muskul harakati malakalari — undalmalarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olishga doir malakalar. Mavzu yuzasidan hosil qilinadigan malakalarni quyidagi jadvalda ko'rsatamiz.

**Undalma mavzusি bo'yicha hosil qilinadigan malakalar**

<b>Intellektual malakalar</b>	<b>Muskul harakati malakalari</b>
<p>1) So'zlovchining nutqi qaratilgan so'z undalma ekanligini anglash;</p> <p>2) Undalmalarning shaxs va boshqa narsalarni bildirishini tushunish.</p>	<p>1) Undalmalarni gap tarkibida to'g'ri o'qish;</p> <p>2) Undalmali gaplarni to'g'ri talaffuz etish va yozish;</p> <p>3) Undalmalarni gap tarkibidagi o'rniga qarab, o'ziga xos ohang bilan o'qish.</p>
<p>1) Gap boshida, o'rtasida, oxirida kelgan undalmalarni ajratish;</p> <p>2) Gap tarkibidagi darak, so'roq, buyruq, his-hayajon bilan aytildigan undalmalarni farqlash.</p>	<p>Gap boshida, o'rtasida, oxirida kelgan undalmalarda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish.</p>
<p>1) Undalmalarni topish, ularni gapning boshqa bo'laklaridan ajrata olish;</p> <p>2) Undalmalarni topish metodini o'zlashtirish;</p> <p>3) Matndan undalmalarni topib ko'rsatish.</p>	<p>1) Gap boshida, o'rtasida, oxirida kelgan undalmalarni to'g'ri o'qish,</p> <p>2) Berilgan so'zlarni undalma vazifasida ishtirot ettirib, gap tuzish;</p> <p>3) Og'zaki va yozma nutqda undalmalarni to'g'ri ishlatish;</p> <p>4) Undamalarni o'ziga xos ohang, temp, ritm bilan o'qish va aytish.</p>
<p>1) Undalma mavzusи bo'yicha o'rganilgan bilimlarni tartib bilan aytib bera olish;</p> <p>2) Undalmalarning nutqdagi rolini baholay bilish.</p>	<p>1) Undalmalar ishtirokida og'zaki va yozma nutq tuzish;</p> <p>2) Berilgan matnga undalmalar kiritish va ularni o'qish metodini kasini aytib berish.</p>

Dars uy vazifasini tekshirish, undalma ustida savol-javob o'tkazishdan boshlanadi.

O'tilganlar takrorlangach, undalmalarni gap tarkibida topish metodi quyidagi misollar vositasida tushuntiriladi: *O'quvchilar, ertaga ekskursiyaga ketamiz. Bolalar, o'quv qurollarini ko'z qorachig'iday asrang! Buvijon, sizni tug'ilgan kuningiz bilan tabriklayman!* Uchta gapda ham undalmalarning bosh kelishikda ekanligi, bu jihatdan undalmaning egaga o'xshashligi ta'kidlanadi. Gaplarning kesimiga qarab, tushirib qoldirilgan ega toptiriladi; birinchi gapning egasi *biz* — birinchi shaxs, ko'plik, kishilik olmoshi; ikkinchi gapning egasi *siz* — ikkinchi shaxs, ko'plik, kishilik olmoshi; uchinchi gapning egasi *men* — birinchi shaxs, birlik, kishilik olmoshi.

Misollardan undalmalarni topish metodiga doir xulosa chiqariladi: undalma gap boshida kelganda, gapning egasi undalmadan keyin keladi; undalma gap o'rtasida, oxirida kelganda, ega undalmadan oldin keladi.

Yuqoridagi xulosa bo'yicha she'riy va nasriy matnlari ko'rib chiqiladi.

### She'r

1. *Bu yulduzni, dada, men,  
Ko'rgan edim o'tgan kun.*
2. *Onam derdi:-Jonginam,  
Budir iqbol yulduzi.*

### Nasr

1. Dada, men bu yulduzni o'tgan kun ko'rgan edim.
2. Onam, jonginam, bu iqbol yulduzidir derdi.

Quyidagi gaplar asosida ijodiy diktant o'tkaziladi: *Qaynatilmagan suvni ichmang. Tug'ilgan kuning bilan tabriklayman. Mo'l hosilingiz muborak bo'lsin.*

O'qituvchi gaplarni og'zaki bayon qiladi. O'quvchilar *singlim, bolalar, paxtakorlar* so'zlarini undalma vazifasida ishtirok ettirib, gaplarni yozishadi.

Shunday qilib, dars quyidagicha tashkil etiladi:

I. «Undalma» mavzusi bo'yicha o'rgatilgan bilimlarni xotirlash: 1) uy vazifasini tekshirish; 2) mavzu bo'yicha savol-javob.

II. Gap tarkibidagi undalmalarni topish ustida mashq: 1) gaplarni tahlil qilish, tushib qolgan egalarni aniqlash, undalmalarni topishga oid xulosalar chiqarish; 2) chiqarilgan xulosa asosida mashq qilish.

III. Undalma bo'yicha o'rganilgan bilimlarga rioya qilib, mashq qilish: 1) undalmalarni aniqlash, tinish belgilarini qo'yib ko'chirish; 2) berilgan so'z birikmalarini undalma vazifasida ishtirok ettirib, gap tuzish; 3) undalmali va undalmasiz gaplarning o'qilishini o'zaro taqqoslash, undalmalarni o'qilishiga oid xulosalar chiqarish; 4) berilgan parchadagi undalmalarning o'qish texnikasini aniqlash.

IV. O'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirish: ijodiy diktant o'tkazish va uning natijasini tekshirish.

V. Uyga vazifa topshirish.

VI. Bolalar bilimini baholash va darsni yakunlash.

Bu ishlar asosida o'quvchilar gapda undalmalarni topish yo'llarini o'rganadilar, matndan undalmalarni topib ko'rsatish, undalmalarni gapning boshqa bo'lakkalidan ajratish malakalarini hosil qiladilar. Undalmalarda tinish belgilarini to'g'ri ishlatish, gapning boshi, o'rtasi, oxirida kelgan undalmalarni o'qishga doir ko'nikmalar hosil qilinadi. Mashg'ulotda har bir topshiriqni bajartirishdan oldin o'rgatilgan qoidalar eslatiladi, bajarilgan topshiriqlar asosida umumiy xulosalar chiqariladi.

Xatolar ustida ishslash mashg'ulotlari ham o'tilganlarni takrorlash va malaka hosil qilish dars tipi doirasiga kiritaladi.

Yozma ishlarni tahlil qilish darslarida o'quvchilarning tipik xatolarini yo'qotish til o'qituvchisining asosiy vazifasi sanaladi. Bunday darslar xilma-xil mashqlar asosida o'tkaziladi, xato yozilgan so'zlarga oid qoidalar mustah-

kamlanadi. Namuna uchun 5-sinfda o'tkazilgan bir soatlik darsning tafsilotini keltiramiz.

5-sinfda tutuq belgi ('si o'rganilgach, nazorat diktanti o'tkazildi. Nazorat diktantida o'quvchilar tutuq belgili (') so'zlarni xato yozishgan, tarkibida iy, yi (*jiyda, yilqi*), st (*stakan, stul*) birikmalari bo'lgan so'zlarda xatoga yo'l qo'yishgan. O'quvchilarning tipik xatolari aniqlangach, xatolar ustida ishslash darsi quyidagi reja bo'yicha o'tkazildi.

**Dars mavzusi:** Xatolar ustida ishslash.

**Darsning maqsadi:** yozma ishni tahlil qilish, tipik orfografik xatolarni yo'qotish, xato yozilgan so'zlarga oid qoidalarni mustahkamlash.

**Darsning borishi:**

1. O'quvchilarning yozma ishlariga tavsif berish.
2. O'quvchilarning baholarini e'lon qilish.
3. Tipik xatolar ustida ishslash:
  - a) *palto, stakan, jiyda so'zlarida yo'l qo'yilgan xatolarni izohlash;*
  - b) shu so'zlarni bo'g'lnlarga ajratib yozish;
  - d) shu so'zlar ishtirokida gaplar tuzish.

4. Xato yozilgan so'zlarga oid qoidalarni darslikdan topib o'qish.

5. Tipik orfografik xatolarni tugatishga oid mustaqil ish.

Buning uchun o'quvchilarga quyidagi tarqatmalar tarqatildi (Tarqatmaning birinchi qismiga mustahkamlanayotgan orfogramma, ikkinchi qismida shu orfogrammaga doir bitta so'z yozib qo'yiladi). Bolalar tarqatmalardagi orfogramma va so'zlarga qarab, o'xshash misollar o'ylab topishadi.

#### 1-tarqatma

1	2	O'xshashlarini topish
st	Stakan	<i>stul, stol, stansiya, stanok</i>

### 2-tarqatma

1	2	O'xshashlarini topish
yi	Yigirma	<i>Yig 'im, yilqi, yigit, yig 'ilish, yiroq, yirik</i>

### 3-tarqatma

1	2	O'xshashlarini topish
‘	Ma'no	<i>Ta 'na, ta 'sir, sur 'at, sa 'va</i>
	Albom	<i>Lager, tabel, fizkultura</i>

O'quvchilar imlo lug'atidan foydalanib, yuqoridagi tarqatmalarini to'ldirib yozishadi. Bolalarga uyda shu ishni davom ettirish tavsiya qilinadi.

Dars qurilishidan ko'rinaliki, mashg'ulot turli-tuman topshiriqlar, mustaqil ishlar asosida o'tkaziladi. Bu topshiriqlarni bajarishda bolalar o'rganilgan qoidalarni eslaydi, shu qoidalarga oid misollar topishadi. Darsda o'quvchilarning barchasi faol ishtirot etadi. Demak, xatolar ustida ishlash darslarini takrorlash va malaka hosil qilish mashg'ulotlari tipida tashkil etish orqali orfografik qoidalarni puxta egallanadi, o'quvchilarda o'rgatilgan qoidalarga oid malakalar shakllanadi.

Grammatik tushunchalarni o'zlashtirishda bir qancha bosqichlarga rioya qilinadi. Oldin grammatik hodisa bilan, uning asosiy belgilari bilan tanishiladi, so'ngra shu hodisaga oid dalillar turli matnlardan izlanadi, keyinchalik esa shu hodisaga oid so'zlar, sintaktik konstruksiyalarni nutqda to'g'ri qo'llash yo'llari o'zlashtiriladi.

Nutq o'stirish mashg'ulotlari o'rganilgan grammatik qonun-qoidalarga bog'lab tashkil etiladi. Shu sababli nutq o'stirish mashg'ulotlarini ham o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari doirasiga kiritamiz. Quyida o'tgan zamon fe'li o'rganilgach, tashkil etilgan o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi tafsilotini keltiramiz.

Nutq o'stirish darsi K.E.Makovskiyning «Momaqaldiroqdan qochayotgan bolalar» («Дети бегущие от грозы») rasm-polotnosi bo'yicha tashkil etildi. Mashg'ulotda jamoa bo'lib, sarlavha tanlandi. O'quvchilar «Momaqaldiroqdan qochayotgan bolalar», «Qora bulut», «Yomg'ir», «Momaqaldiroq» sarlavhalarini aytishdi. Bog'li nutq tuzish uchun «Momaqaldiroq» sarlavhasi tanlandi. Keyin «O'tgan zamon fe'li» mavzusi uchun lug'at belgilandi. Rasm asosida quyidagi o'tgan zamon fe'llari ajratildi: esar edi, ochiq edi, eshitildi, qo'rqib ketishdi, qocha boshlashdi, quchoqlab oldi, yalang oyog' edi, xalaqit berardi, etib kelishdi, turardi, o'tishdi, uzoq edi, yugurardi, to'xtardi, o'xshar edi. Insho uchun tuzilgan reja: 1. Vera bilan Masha o'rnonga ketishdi. 2. Osmonni qora bulut qopladi. 3. Bolalarni qo'rquv bosdi. 4. Xavfli yakka cho'p. 5. Qishloq hali uzoq edi. Tanlangan lug'at va tuzilgan reja bo'yicha sinf o'quvchilari og'zaki gaplar tuzishdi, so'ngra bog'li matnda ishlatilgan o'tgan zamon fe'llarining tagini chizishdi. O'quvchilar ishidan namuna keltiramiz.

### Momaqaldiroq

*Havo ochiq edi. Vera bilan Masha o'rnidan turishganda, g'ir-g'ir shabada esar edi. Hammalari birga choy ichishdi. Ularning ota-onalari bug'doy o'rgani ketishdi.*

*Vera Mashani ko'tarib, o'rnonga qo'zigorin tergani otlandi. Ular o'rnonga borganda, havo ochiq edi. Bolalar qo'zigorin tera boshladilar.*

*. Birdan osmonni qora bulut qoplay boshladidi. Uzoqda yashin chaqnadi. Momoqaldiroqning qo'rqinchli ovozi eshitildi. Bolalar qo'rqib ketishdi.*

*Vera Mashani ko'tarib qocha boshladidi. Masha qo'rqa-nidan opasini mahkam quchoqlab oldi. Vera yalang oyoq edi. Oyog'iga toshlar tegib og'ritdi. Uning ko'ylagiga butalar yopishib, yurishga xalaqit berardi. Ular yakka cho'pga yetib kelishdi. Yakka cho'p juda xavfli ekan. U*

*zo'rg'a ilashib turardi. Veraning ko'zi osmonda. U taxminan oyoq bosib ko'rди. Bolalar cho'pdan o'tishdi.*

*Hali qishloq uzoq edi. Vera dam yugurardi, dam to'xtardi. U qancha tez yugursa, shuncha sekin yurganga o'xshar edi.*

O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari ning qurilishi o'rganilgan bilimlarning umumiyligini qurilishiga ko'ra belgilanadi. O'rganilgan bilimlar mazmuniga mos mashqlarni, turli topshiriqlarni bajarish natijasida bolalarda turli malakalar shakllanadi. Bunday darslarda o'rgatilgan bilimlar oldin o'zlashtirilgan bilimlarga taqqoslanadi. O'quvchilarda turli-tuman nutq ko'nikmalarini hosil qilinadi.

### **3-fasl. Bilim va malakalarni umumlashtirish darslari**

Bilim va malakalarni umumlashtirish darslarida ma'lum mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlar qayta tizimga keltiriladi, mavzu yoki bo'lim yuzasidan yakuniy xulosalar chiqariladi. Bunday darslar o'rganilgan bilim, hosil qilingan malakalarni tizimga keltirish, o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning asosiy shakli hisoblanadi.

Ta'lim jarayonida grammatik bilimlar o'zaro bog'langan ikki xil darajada: empirik va tushuncha darajasida umumlashtiriladi. Empirik umumlashtirishda o'rganilayotgan hodisaning his qilingan xususiyatlari o'zaro taqqoslanadi, ikkilamchi belgilarni hisobga olinmaydi, o'xshash belgilarni umumiyligini xususiyat sifatida qabul qilinadi. Masalan, 5-sinfda «Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishi» mavzusini o'tilayotganda, birlik (*qalam*) va ko'plik (*qalam+lar*) o'zaro taqqoslanadi. -lar qo'shimchasining boshqa belgilari (hurmat, kesatish, tur ma'nolarini bildirishi) hisobga olinmaydi. -lar shaklining umumiyligini xususiyati sifatida ko'plik ma'nosi, ko'plikning ziddi sifatida birlik ma'nosi ajratiladi. Mashg'ulot shu belgilarni (ko'plik va birlik) atrofida tashkil etiladi.

Ruhshunoslikka oid tadqiqotlardan ma'lumki, bola turli hodisalar, narsalar, ularning belgilarini ma'lum tushuncha ostida to'playdi. Ruhshunoslikda bunday bog'lanish «lokal assotsiatsiya» istilohi bilan yuritiladi. Bolaning turmush tajribasi oshgan sari, u narsalarni aniq ajrata boshlaydi. Bola ongida hosil bo'lgan lokal assotsiatsiya asta-sekin o'z xususiyatini yo'qotadi. Ta'lim jarayonida ham xuddi shu hodisani kuzatish mumkin. O'quvchi biror mavzuni o'rganish paytida, shu mavzuga oid bilimlarni boshqa grammatik hodisalardan farqlay olmaydi, mavzuga doir dalil keltirishda qiynaladi. Mavzu bo'yicha yetarli dalil to'plab, ular tahlil qilingach, o'quvchi mavzuga doir bilimlarni o'z so'zлari bilan erkin ayta oladi, shu mavzu bo'yicha berilgan dalillarni ajrata biladi. O'qituvchining vazifasi shu bog'lanishlarga oid dalillarni tahlil qilish, o'quvchilar bilimini tizimlashtirish, lokal assotsiatsiyalarni umumlashtirish bilimlar darajasiga ko'tarishdan iborat. Ko'rinaridiki, empirik umumlashtirish tushuncha darajasida umumlashtirishni taqozo etadi. Demak, bilim va malakalarni tizimlashtirish darslarining ruhiy zamini tushuncha darajasida umumlashtirish hisoblanadi.

Tushuncha darajasida umumlashtirishda ma'lum grammatik hodisaning his qilinayotgan konkret belgilar emas, balki uning umumiyl xususiyatlari nazarda tutiladi. Bunda asos qilib olingan xususiyat o'rganilgan hodisalarning bir qanchasi uchun mushtarak hisoblanadi. Mashg'ulotlarda, yuqori darajada abstraksiyalashni ta'minlaydigan topshiriqlardan foydalananadi.

Aqliy operatsiyalar (tahlil, qayta qo'shish va ularning hosilasi — abstraksiyalash, aniqlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash, tasniflash) inson aqliy taraqqiyoti darajasining ko'rsatkichi bo'lib, ular kishida shakllangan bilimlar tizimi bilan belgilanadi. Tizimga keltirilgan bilimlar fikrlash jarayonidagi izchillikni ta'minlaydi,

o'rganilayotgan hodisalarning mohiyatini chuqurroq anglashga ko'maklashadi. Masalan, aniqlovchi o'rganilgach, umumlashtirish darsi quyidagi savollar atrofida o'tkaziladi:

1. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning o'xshash tomonlari va farqlari nimalardan iborat?

2. Izohlovchi qaysi tomondan sifatlovchi aniqlovchiga o'xshaydi?

3. Aniqlovchining barcha turlari (sifatlovchi aniqlovchi, qaratqich aniqlovchi, izohlovchi) uchun qanday xususiyat umumiyligi hisoblanadi?

Mavzu yuzasidan umumiyligi xulosa chiqarish uchun quyidagi topshiriqlar ustida ish olib boriladi.

### **1-topshiriq**

Gaplarni o'qib, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarni toping. Ularning farqlarini aytib berishga tayyorlaning.

1. *Po'lat pichoq qinsiz qolmas.* 2. *Ishlaganning yuzi yorug' bo'ladi.* 3. *Daraxtlarning ko'm-ko'm shoxlarida och-sariq gullar miltillab ko'rinar edi.*

### **2-topshiriq**

«O'qigan» so'zini sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilar vazifasida keltirib, ikkita gap tuzing. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning umumiyligi xususiyatini aytib berishga tayyorlaning.

### **3-topshiriq**

Gaplarni o'qib, aniqlovchilarning turlarini aytib berishga tayyorlaning. Sifatlovchi, qaratqich, izohlovchi aniqlovchilarning qanday ifodalanganini tushuntiring.

Ayvon pastida Soli sovuq bilan Juman pismiq qo'l qovushtirib turardi. Egrining soyasi ham egri. Bizning qishlog'imiz tog' yon bag'riga tutashgan. Ko'm-ko'k ko'zli latta qo'g'irchoqning yuzi olmadek qip-qizil edi.

#### **4-topshiriq**

Aniqlovchining qaysi so'z turkumlari bilan ifodalanganini aniqlab, gap tarkibidagi o'rnini taqqoslang. Gapning qaysi bo'lagini aniqlayotganini tushuntiring. Aniqlovchilarning uchala turi uchun umumiyl xususiyatini ko'rsating.

*Oltining yarmi — uch. Ko'm-ko'k dalalar ko'rindi. Vatan — ona so'zi naqadar laziz (Uyg'un).*

Yuqoridagi topshiriqlarni bajarish asosida aniqlovchi bo'yicha quyidagi umumiyl xulosalar chiqariladi:

1. Sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning farqlari — sifatlovchi aniqlovchi narsa belgisini anglatib, sifat, son, olmosh, ot, sifatdoshga oid so'zlar bilan ifodalansa, qaratqich aniqlovchi narsaga qarashli bo'lgan belgini bildirib, qaratqich kelishigidagi so'zlar bilan ifodalanadi, sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarning o'xhash tomonlari-ular gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlaydi, gap tarkibida o'zları aniqlagan gap bo'lagidan oldin keladi.

2. Izohlovchi gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlashi bilan sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilarga o'xshaydi. Izohlovchi gap tarkibidagi o'rni jihatidan sifatlovchi va qaratqich aniqlovchilardan farq qiladi: izohlovchi ba'zan izohlanmishdan oldin, ba'zan esa keyin keladi.

3. Aniqlovchilarning barcha turlari gap tarkibidagi biror bo'lakni aniqlaydi. Gap bo'laklarini aniqlash aniqlovchilarning barcha turlari uchun umumiyl xususiyat hisoblanadi. Chiqarilgan umumiyl xulosalar zaminida aniqlovchilarga doir yanada umumiyl, oxirgi va yakuniyl xulosa chiqariladi.

Gapning biror bo'lagini aniqlaydigan, izohlaydigan yoki biror bo'lakning ikkinchi bo'lakka qarashli ekanligini ko'rsatadigan gap bo'lagiga aniqlovchi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rindaniki, bilim va malakalarni umumlashtirish darslari darsning boshqa tiplaridan tubdan farq qiladi. Psixologik jihatdan umumlashtirish darslari tushuncha doirasida bilimlarni tizimga keltirish bilan xarakterlanadi. Bunday darslar uchun alohida mashq

tanlanadi, mashg'ulot o'rganilgan tushunchalar, hosil qilingan malakalarni taqqoslash asosida olib boriladi. Bilim va malakalarni umumlashtirish darslarining miqdori o'rgatilgan bilimlar mundarijasiga ko'ra belgilanadi. Masalan, «Ot-so'z turkumi» bo'yicha quyidagi mavzular yuzasidan umumlashtirish darslari tashkil etiladi: otlarning grammatik xususiyatlari, turdosh va atoqli otlar, otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini umumlashtirish — 1 soat; otlarning turlanishi, egalik, kelishik qo'shimchalarining yozilishi — 1 soat; «Ot» so'z turkumi bo'yicha o'rganilgan barcha bilimlarni tizimga solish uchun — 1 soat.

Umumlashtirish darslarida mavzuni o'rgatish paytida beriladigan savollar murakkablashtirib boriladi. Masalan, egalik va kelishik kategoriyalarini o'rgatishda quyidagi savollardan foydalaniadi: Turlanish deb nimaga aytildi? O'zbek tilida nechta kelishik bor? Qaratqich kelishigining ma'nosi, so'rog'i, qo'shimchasini aytib bering. Qanday qo'shimchalarga egalik qo'shimchasi deyiladi? va hokazo. Shu mavzu yuzasidan bilim va malakalarni umumlashtirish darslarida esa bu savollar yanada murakkablashtiriladi: kelishik va egalik deb nimaga aytildi? Otlarning egalik va kelishik qo'shimchalari bilan o'zgarishidagi farqlarni aying. So'z tarkibida egalik va kelishik qo'shimchalarining o'rnnini tushuntiring. Turli kelishikdagi otlarning gapdagi vazifalarini aiting.

Bilim va malakalarni umumlashtirish darslarida umumlashtiruvchi jadvallardan, turli-tuman chizmalardan foydalaniadi. Buni «Ko'chirma va o'zlashtirma gap» mavzusi bo'yicha o'tkaziladigan mashg'ulot namunasida ko'raylik.

**Dars mavzusi:** «Ko'chirma va o'zlashtirma gap».

**Darsning maqsadi:** 1) ko'chirma va o'zlashtirma gap bo'yicha o'rgatilgan bilimlarni umumlashtirish; 2) ko'chirma va o'zlashtirma gaplarda tinish belgilarining ishlatalishiga doir malakalarni umumlashtirish; 3) ko'chirma va

o'zlashtirma gapli matnlarni o'qish malakalarini mustah-kamlash.

Darsning maqsadini bolalarga yetkazish uchun quyidagi-cha mustaqil ish o'tkaziladi.

Topshiriq: Gaplarni o'qing. Har bir gapga mos keladigan terminlarni o'ylab toping.

«Yer — xazina, suv — gavhar», — dedi jamoa xo'jaligi raisi.

O'qituvchi olti o'quvchining a'lo baho olganini aytdi.

— Gapiring, nega jum bo'lib qoldingiz? — dedi Bo'ston.

— Xayol olib qochdi.

— Qayoqqa?

— Ajoyib shinam boqqa. (S.N.)

Har bir qatordagi gaplarga mos keladigan atamalar (ko'chirma gap, o'zlashtirma gap, dialog) topilgach, darsning maqsadi aytildi.

— Siz oldingi darslarda ko'chirma gap, o'zlashtirma gap va dialog mavzularini o'rganib, ularda ishlatiladigan tinish belgilarini o'zlashtirgan edingiz. Yuqoridagi topshiriqnini bajarish paytida har bir qatorga mos keladigan terminlarni o'ylab topdingiz. Bugungi darsda ko'chirma gap va o'zlashtirma gap mavzulari bo'yicha o'rganilgan bilimlarni tizimga keltiramiz, bunday gaplarni o'qish texnikasi hamda ularda ishlatiladigan tinish belgilari bo'yicha mashq qilamiz.

Darsda o'quvchilarning bilim va malakalarini tizimlash-tirish, mustahkamlash uchun quyidagi topshiriqlar o'tkaziladi.

### 1-topshiriq

Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring. Ko'chirma gap va muallif gapini o'qish yo'llarini aniqlang.

1. *Shu yerlarga irrigator bo'lib bora olmaysizmi dedi xaritani ko'rsatib.*

2. *Qorovul do'q qildi: «Ketinglar».*

3. *Odoblilik, mehnatsevarlik dedi o'qituvchi kishining eng yaxshi fazilati.*

*4. Fayziniso opa mavsumda yigirma tonna paxta terib topshiraman deb so'z berdi.*

Topshiriq bajarilgach, o'quvchilar navbat bilan har bir gapni izohlashadi: tinish belgilarini ishlatish sabablari, gapni o'qish texnikasini aytib berishadi.

**Birinchi o'quvchi:** ko'chirma gap so'roq mazmunida bo'lib, muallif gapidan oldin kelgan. Ko'chirma gap qo'shtirnoqqa olinadi, muallif gapidan oldin tire qo'yiladi. Ko'chirma gapning oxirida ovoz balandlashadi, undan keyin pauza qilinadi. Muallif gapi esa past ovoz bilan o'qiladi.

**Ikkinci o'quvchi:** muallif gapi oldin kelgan. Muallif gapidan keyin ikki nuqta qo'yiladi. Ko'chirma gap buyruqni ifoda qilyapti. Ikki nuqtadan keyin qo'shtirnoq ochiladi, ko'chirma gapning oxiriga undov belgisi qo'yilib, qo'shtirnoq yopiladi. Muallif gapi past ovoz bilan o'qiladi, ko'chirma gap baland ovoz bilan o'qiladi va hokazo.

## **2-topshiriq**

Ushbu chizmalarga mos keladigan bittadan gap tuzing. O'zingiz yozgan gaplarning o'qilishi va ularda ishlatilgan tinish belgilarini izohlashga tayyorlaning.

1. «\_\_\_\_\_?» .....
2. .....: «\_\_\_\_\_!»
3. .....: «\_\_\_\_\_» .. . . . .
4. «\_\_\_\_\_» , — .. . . . .

O'quvchilar berilgan chizmalar asosida gaplar o'ylab topishadi. Qo'yilgan tinish belgilarini izohlab, gaplarni o'qish yo'llarini aytib berishadi.

## **3-topshiriq**

O'quvchilarga ikki variantda topshiriq beriladi. Birinchi variant o'quvchilari ko'chirma gaplarni o'zlashtirma, ikkinchi variant o'quvchilari o'zlashtirma gaplarni ko'chirma gapga aylantirib yozishadi.

## **1- variant uchun misollar**

«*Maktab tajriba uchastkasiga turli mevali daraxtlar ekdik», — dedi o'qituvchi.*

«*Men, — dedi Zulfiya, — a'lo o'qish uchun butun kuchimni sarf qilaman».*

*O'qituvchi so'radi: «Muzeysiga qilingan ekskursiyadan kimda qanday taassurot qoldi?»*

## **2- variant uchun misollar**

*A nor o'g'it g'o'zaning tomir-tomirlariga singishi kerakligini aytdi.*

*O'qituvchi o'z nutqida dunyodagi tinchliksevar xalqlarning tinchlik uchun kurashayotganligini aytdi.*

Mashg'ulot o'zlashtirilgan tushunchalarni («ko'chirma gap», «muallif gapi», «o'zlashtirma gap») taqqoslash asosida tashkil etildi. Topshiriqlarni bajarish yo'li bilan ko'chirma va muallif gapida ishlataladigan tinish belgilariga oid qoidalar mustaqkamlandi. Ko'chirma va muallif gapini o'qish, ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga, o'zlashtirma gapni ko'chirma gapga aylantirish yo'llari to'g'risida umumiy xulosalar chiqarildi.

O'quv yili boshi va oxirida o'tkaziladigan takrorlashning o'ziga xos vazifalari bor. Ammo bu xil takrorlashlarning zaminida ham tushuncha darajasida umumlashtirish yotadi. Shu tufayli o'quv yili boshida va oxirida o'tkaziladigan takrorlash mashg'ulotlarini bilim va malakalarni umumlashtirish darslari doirasiga kiritish mumkin. Umumlashtirish darslarini samarali tashkil etish uchun takrorlanadigan materiiallar mavzusi oldindan aytib qo'yiladi, o'quvchilar uyda maxsus tayyergarlik ko'rib keladilar.

## **4-fasl. Bilim va malakalarni tekshirish darslari**

Bilim va malakalarni tekshirish ona tili ta'limining ajralmas qismi hisoblanadi. Bunday darslarda o'quvchilarning bilim va malakalarni qay darajada egallagan-

liklari aniqlanadi, o‘tilgan mavzular bo‘yicha bundan keyin qilinadigan ishlar belgilanadi, o‘quvchilarga o‘z bilimlari-dagi yetishmovchiliklar ko‘rsatiladi. Bilim va malakalardagi nuqsonlarni fahmlash, bolalarga o‘z mehnatining natijasini to‘g‘ri baholashga imkon beradi.

### **Sinov testlari tizimi**

I. Berilgan javoblar orasidan undalmaga berilgan ta’rifning eng to‘lig‘i va to‘g‘risini belgilang.

---

- A. Undalma gapning boshi, o‘rtasi, oxirida keladi.
  - B. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni ifodalagan so‘zga undalma deyiladi.
  - C. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni ifodalagan so‘zlarga undalma deyiladi.
  - D. Undalma gapning o‘rtasida kelgan bo‘lsa, uning ikki tomoniga vergul qo‘yiladi.
- 

II. Berilgan gaplarning qay birida murakkab va shaxsga qaratilgan undalma ishtirok etgan?

- A. O‘g‘lim, dadangning ishi ko‘payib ketdi.
  - B. Bahor, ketma bizning bog‘lardan.
  - C. Quyosh, nurlaringni to‘ka ber tinmay.
  - D. Ey aziz bolalar, Vatanga munosib posbon bo‘lib yetishing.
- 

III. Keltirilgan qoidalarning qay birida undalmaning o‘rnini to‘liq ko‘rsatilgan?

- A. Undalma gapning boshida keladi.
- B. Undalma gapning boshi, o‘rtasi, oxirida keladi.
- C. Undalma gapning oxirida keladi.
- D. Undalma gapning o‘rtasida keladi.

## X BOB

### ONA TILINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI

#### 1-fasl. «Ta'lif texnologiyasi» tushunchasi

Mustaqillik yillarda maktab hayotida olamshumul o'zgarishlar yuz berdi. Avvalo, maktab «qizil imperiya»ning uzlusiz asorati va tahdididan ozod bo'ldi, yuqoridaan majburan tiqishtiriladigan qoliplardan qutuldi. Maktab erkin nafas olib, mustaqil ijodiy fikrlovchi jamoa maqomiga ega bo'ldi. Yoshlar tarbiyasi va ma'lumoti bilan mashg'ul ijtimoiy institutlar miqdor va sifat jihatidan o'sdi. Kollej, litsey, gimnaziyalar ko'paydi. Ma'lumot va ta'lif mazmunida o'zgarishlar yuz berdi. Yangi dastur, darsliklar chop etila boshlandi.

Maktab hayotiga kirib kelgan, o'qituvchilarning pedagogik fikrlashidan asta-sekin o'rinni ola boshlagan pedagogik texnologiya markazida ta'lifni optimal loyihalash, belgilangan maqsadga erishish, ta'lif natijasini qabul qilingan davlat ta'lif standartlari (DTS) darajasiga ko'tarish g'oyasi yotadi. Ishlab chiqarish, ekspluatatsion, konstruktiv faoliyatlarda belgilangan maqsadga mos keladigan natijaga erishish xrestomatik (hamma tushunadigan, intiladigan) g'oya sanaladi. Bu g'oya pedagogika fanida ham tan olingan bo'lsa-da, oидindan aniqlangan natijaga erishish vositalari, usullari, tashkiliy shakllari davr talablari asosida o'rganilgan emas. Tasviriy bilimlar bilan «o'z xazinasini» boyitgan pedagogika fanlari davr talablariga, binobarin, hozirgi ta'lifni tashkil etish, boshqarish, nazorat etish ehtiyojlariiga yaroqsiz bo'lib qoldi. Pedagogik texnologiya ta'lifni optimal loyihalash, maqsad

va uni amalga oshirish yo'li bilan natijaga to'liq erishish vositalari, usullari, shakllari, shart-sharoitlari bilan shug'ullanadi.

Hozirgi paytda «pedagogik texnologiya» atamasi ikki ma'noda qo'llanadi.

1. Zamonaviy texnika (EHM, komputerlar)ni ta'limga tatbiq etish texnologiyasi. Ta'limni kompyuterlashtirish, o'quv-tarbiya jarayonida audial, audio-vizual asboblardan foydalanish, o'r ganiladigan o'quv axborotlarini EHM xotirasiga joylashtirish, mashinalashtirilgan programmali, shuningdek, kompyuterli ta'lim kabi hodisalarни anglash pedagogik texnologiya tushunchasining birinchi ma'nosiga taalluqlidir.

2. Ta'limni yuqori darajada samarali tashkil etish uchun maqsad, vazifalarni aniq belgilash, ta'lim natijasini oldindan qayd etish, o'quv predmetlarini to'liq o'zlash-tirishga erishish uchun zaruriy ta'lim vositalari, shart-sharoitlarini tayyorlash. Bu ma'noda ta'lim texnologiyasi oldindan qayd etilgan, aniq, kafolatlangan natijaga erishish uchun zaruriy tadbirlar tizimini ishlab chiqish va ta'lim jarayonini unga rioya qilib tashkil etishni anglatadi. Ushbu bobda ta'lim texnologiyasi iborasi ikkinchi ma'nosida qo'llanadi.

Hozirgi o'zbek maktabi tiklanish va yangilanish «jarayonini» kechirmoqda. Qayta tiklanish o'tmishdan hozirga, yangilanish hozirdan kelajakka intilish bo'lib, o'tmish va zamonaviy maktab o'rtasida vorislik o'rnatish yo'li bilan yoshlар ma'lumoti, ta'limi va tarbiyasida yuqori ko'rsatkichlarga erishiladi.

Prezident I.A.Karimov rahnamoligida bozor iqtisodiyotiga o'tishning butun dunyo tan olgan modeli ishlab chiqildi. Ta'lim texnologiyasining ham xuddi shunday o'zbekona modeli yaratilishi zarur. Unda o'zbek maktabining uzoq tarixiy o'tmishda to'plagan tajribasi hozirgi maktab tajribasi bilan chatishib uzviy birlik hosil qilmog'i lozim.

Endi maktab jamiyatga ergashib emas, aksincha, undan oldinda borishini tan olish, unga amal qilish payti keldi. Maktab jamiyatni taraqqiy ettirish namunasi bo‘lgan taqdirdagina, u jamiyatni yanada rivojlantiruvchi omilga aylanadi. Zero, jamiyatning rivoji maktabni tugatayotgan yoshlarning bilim saviyasi, vatanparvarligi, o‘z davlatiga sodiqligiga, ulkan zafarlar tomon dadil qadam tashlashlariga bog‘liq.

O‘zbekistonda pedagogik texnologiya masalalari, asosan, ta’lim doirasida o‘rganilmoqda. «Texnologiya» yunoncha so‘z bo‘lib, «san’at», «mahorat» ma’nolarini anglatadi. Ilmiy-pedagogik izlanishlarning ta’lim matnida o‘tkazilayotgani, maktablarda olib borilayotgan amaliy ishlarning aksariyati ta’lim jarayoni bilan bog‘liq ekanligini hisobga olib, kitobda «ta’lim texnologiyasi» iborasini ishlatamiz.

Ta’lim texnologiyasi deb o‘quv-tarbiya jarayonida o‘quvchi maqomini o‘zgartirish, yangilash yo‘li bilan ma’lumot mazmunini va uni moddiylashtirish darajalari — o‘quv materiali, o‘quv predmetiga pedagogik ishlov berish, o‘rganiladigan mavzuni o‘quvchilarning real o‘quv imkoniyatlariga moslashtirish, ta’lim natijasini qabul qilingan davlat ta’lim standarti darajasiga ko‘tarish va baholashga oid usullar, vositalar, ta’limning tashkiliy shakllarini tushunamiz. Ta’lim texnologiyasi o‘quv-tarbiya jarayonini boshqarishning hozirgi yetakchi tamoyili (subordinatsiya)ni chegaralaydi, unda koordinatsiya o‘qituvchi va o‘quvchi faoliyatini o‘zaro muvo-fiqlashtirishning asosiy tamoyiliga aylanadi. Koordinatsiya ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishning bosh tamoyiliga aylanganda o‘quvchi ta’lim jarayonining o‘qituvchi bilan teng huquqli subyektiga aylanadi, ta’limni o‘qituvchi va o‘quvchi birgalikda amalga oshiradi, o‘qish va o‘rganishning o‘quvchi uchun qimmati oshadi.

G‘arb mamlakatlaridagi pedagogik texnologiyaning bosh g‘oyasi programmalashtirilgan (dasturlashtirilgan) ta’limga borib taqaladi. Programmalashtirilgan ta’lim asoschilaridan biri Berres Frederik Skinnerning ta’kidlashicha, o‘quvchilarning o‘quv materiali va uni o‘zlashtirishga oid xattiharakatlari (o‘quvchi faoliyati) pog‘onalar (ta’lim bosqichlari)ga ajratiladi (1), har bir bosqichda o‘quv materialining ma’lum ulushi to‘liq o‘zlashtiriladi (2), o‘quv materialining o‘zlashtirilgan ulushi tekshirilib (3), keyingi ulushni o‘rganishga o‘tiladi. Binobarin, pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyili ma’lumot mazmunini to‘liq o‘zlashtirishdan iborat bo‘lib, u dastavval programmalashtirilgan ta’lim nazariyasi va amaliyoti qobig‘ida paydo bo‘lgan edi.

## **2-fasl. Ta’lim texnologiyasining pedagogik asosi**

Ta’lim-boshqariladigan jarayon bo‘lib, uning natijasi, ko‘p jihatdan, tayyorlangan didaktik loyiha bog‘liq. Didaktik loyiha esa ta’lim texnologiyasi mahsuli. O‘quvchilarning bilish faoliyatini didaktik loyiha ko‘ra boshqarish ta’lim texnologiyaning pedagogik asosi sanaladi. Har qanday jarayonning boshlanishi va yakuni mavjud bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirishning ham kirish va chiqish nuqtalari bor. Ikki nuqta orasiga juda ko‘p nuqtalarni joylashtirish mumkin bo‘lganidek, didaktik loyihani amalga oshirish ibtidosi bilan intihosigacha bo‘lgan masofada ta’limning samarali usullari, vositalari juda ko‘p. Bu yerda ta’lim texnologiyasi ta’limning samarali shaklini tanlashda o‘qituvchiga yordamga keladi. Ta’lim texnologiyasining an‘anaviy ta’lim tizimidan farqi shundaki, ta’lim natijasi va uning etalon darajasida bo‘lishi doimo o‘qituvchi va o‘quvchining diqqat markazida turadi: o‘qituvchi ta’lim natijasini tez-tez tekshirib, o‘quvchilarni, o‘zlarini erishgan yutuqlardan ogoh qilib turadi; ular esa o‘z yutuq va kamchiliklarni anglab, birinchisini (yutuqni) yana

ko‘paytirishga, ikkinchisini (kamchilikni) bartaraf etishga intiladi. Bu ta’limning subyektiv qimmatini, binobarin, bola uchun shaxsiy ahamiyatini yanada oshiradi. Bolalar o‘qish-o‘rganishning zarurligini ta’lim jarayonining haqiqiy subyektiga aylangan paytda anglashadi. Didaktik loyihaga tuzatish va o‘zgartishlar kiritish asosida ta’lim jarayonini yana takrorlash ta’lim texnologiyasining o‘zigagina xos sifatdir. Ta’lim texnologiyasi kafolatlangan natijaga erishish texnologiyasidir. Uning o‘ziga xos belgilari chizmada berildi.

- ta’lim maqsadlarini aniq belgilash (1)
- ta’limni qo‘yilgan maqsadga yo‘naltirish (2)
- kafolatlangan natijaga intilish (3)
- ta’lim natijasining shaxsiy qiymatini oshirish (4)
- joriy natijalarini baholash (5)
- ta’limning borishiga o‘zgartirishlar kiritish (6)
- ta’limga tuzatishlar kiritish (7)
- ta’limni takrorlash va nazorat qilish (8)
- tuzatish va o‘zgartirish kiritilgan ta’lim natijasini baholash (9)
- etalon darajasida o‘zlashtirish va baholash (10)
- optimallashtirish, ta’limni o‘quvchilarning o‘zlashtirishiga muvofiqlashtirish (11)

### **3-fasl. Ta’lim texnologiyasining amaliy asosi**

Ta’lim texnologiyasi bo‘yicha qilinadigan ishlar ikki qismdan iborat: ta’lim loyihasini tayyorlash; loyihani amalga oshirish. Har bir qism o‘ziga xos amaliy asosga ega.

**1. Ta’lim loyihasini tayyorlash.** Loyerha o‘qituvchi yoki ekspert a’zolari tuza olish (konstruktiv) faoliyatining mahsuli bo‘lib, qator umumiy xususiyatlarga ega. U, dastavval, inson ongingin antisipirik (oldin payqash, ko‘ra bilish) qobiliyati bilan bog‘liq. Loyerha asosida o‘qituvchi va o‘quvchilarning kelajakda birgalikda amalga oshiradigan faoliyati yotadi.

Ta'lim loyihasi ma'lumot mazmunini davlat ta'lim standartlari talablari asosida tahlil etishdan boshlanadi. Tahlil ma'lumot mazmuni elementlari (bilimlar, ko'nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar) dasturlarda qanday berilganligi, darsliklarda qanday aks ettirilganligiga qaratiladi. So'ngira ta'lim mazmuni (sinfda o'qitish va o'qish uchun darsga olib kirilgan o'quv materiallari mazmuni) o'rganiladi, u yoki bu mavzuni o'rganishdan ko'zda tutilgan maqsad, ta'limning yaqin didaktik maqsadi, o'qituvchi va o'quvchilar maqsadi<sup>25</sup>, ularni amalga oshirish va hisobga olish varaqalari, beriladigan uy ishlari miqdori, mavzular bo'yicha o'tkaziladigan test savollari, reyting nazorati bosqichlari, etalon darajasida o'zlashtirish usuli (etalon darajasida o'zlashtirgan o'quvchilar bilan ishslash, shuningdek, etalon darajasidan past o'zlashtirgan o'quvchilar bilan ishslash tizimi) oldindan belgilab qo'yiladi. Bu ishlarning barchasi ongda ta'lim modelini yaratishga olib keladi.

Ta'limning harakatchan modelini ongda yaratish ta'lim texnologiyasining asosiy talablaridan biri bo'lib, bu san'atni egallagan o'qituvchi ta'limning borishiga zudlik bilan o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar krita oladi (1), u ta'limni qurish, yana takroriy qurish, zarur bo'lsa yana bir bor qurishni osonlik bilan amalga oshiradi (2), o'quvchilarni har bir mavzuni to'liq o'zlashtirishga yetaklaydi (3), ta'lim mazmunini etalon darajasida va bu darajadan past o'zlashtirgan o'quvchilarni guruhlarga ajrata oladi (4), har bir guruuhga mos keladigan ish usulini zudlik bilan tanlay biladi (5), o'quvchilarning qobiliyati, ehtiyoji va qiziqishlariga mos keladigan vositalar tizimi, muammolarni ishlab chiqadi (6), sind jamoasini gomogen guruhlarga ajratib, ta'limni individuallashtirish (7),

---

<sup>25</sup> Ta'lim maqsadi, vositasi, natijasi, ko'rinishlari bobning keyingi fasilda tahlil qilinadi.

ulgurmovchi o'quvchilar bilan qo'shimcha mashg'ulot, qo'shimcha topshiriqlarni bajarish uchun shart-sharoit tayyorlaydi(8).

**2. Ta'lif loyihasini amalga oshirish.** Ta'lif loyihasi bevosita ta'lif sharoitida amalga oshiriladi. Bu jarayonda quyidagi ishlarga alohida e'tibor qaratiladi:

— o'rganilayotgan mavzu bo'yicha maqsad, vazifalar bilan o'quvchilarni oldindan tanishtirish, muammo, topshiriqlarni, shuningdek, uy vazifalari, mustaqil bajariladigan ishlar, ularni bajarish tartibi, paytini e'lon qilish, mavzuni to'liq o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish, davlat ta'lif standarti darajasida o'zlashtirish me'yorlarini (bilimlarni o'rganish, tushunish, ko'nikmalarni rivojlantirib malakaga aylantirish, o'zlashtirilgan faoliyat usullarini eslab qolish) aytib berish;

— o'quvchilarni faol, mustaqil faoliyatga rag'batlantirish, bolalar diqqatini bo'lim yoki mavzu mazmuniga tortish, uni qanday o'rganish zarurligini aytib berish, bilishga qiziqish uyg'otish, o'qish-o'rganishga havas, muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish. Emotsiya, tafakkur hodisalari (sezish, idrok etish, tushunish, esda olib qolish), bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish yo'llari orqali mavzu bo'yicha ma'lumotlar toplash, to'plangan ma'lumotlar yuzasidan joriy nazoratni tashkil etish, mavzuni to'liq o'zlashtirishga oid o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlarni belgilash;

— bo'lim yoki mavzu bo'yicha to'plangan bilimlar (axborotlar)ga ishlov berish. Ta'limda kutilgan va kutilmagan, rejallashtirilgan va rejallashtirilmagan, favqulorra va tasodifiy hodisalar ham uchrab turadi. Binobarin, o'rganilgan bilimlarga ishlov berish jarayonida ham joriy nazorat natijalariga asoslanib, loyiha yangi o'zgartirish, qo'shimcha, tuzatishlar kiritiladi, o'quvchilarning davlat ta'lif standartlari darajasiga qanchalik yaqinlashganliklari ham aytib o'tiladi;

— bo‘lim yoki mavzu bo‘yicha umumiy xulosalarni murakkab o‘quv holatlariga tatbiq qilish. Oraliq nazorat natijalariga ko‘ra, mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga ishlov berish jarayonlarida o‘quvchilar erishgan yutuqlarni tahlil qilish, o‘quvchilarning bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlardagi kamchiliklarini ko‘rsatish, sinfning har bir o‘quvchisiga yakuniy nazoratgacha bajariladigan qo‘srimcha topshiriqlarni berish, bolalarni o‘quv materiallarini yanada atroflicha o‘zlashtirishga rag‘batlantirish;

— yakuniy nazoratning asosiy vazifasi bolalarning ma’lumot va ta’lim mazmuni elementlarini davlat ta’lim standartlari darajasida o‘zlashtirishlarini aniqlash, standart darajasidan past o‘zlashtirgan o‘quvchilarni ogohlantirish, qo‘srimcha topshiriqlar berish.

#### **4-fasl. Ta’limning maqsadi, vositasи, natijasi**

**Maqsad** — oldindan anglangan, ammo hali qo‘lga kiritilmagan natija. Maqsad amalga oshgach, natijaga aylanadi. Natija, o‘z navbatida, kelajakda yangi maqsadlar qo‘yish, ularga erishish vositasiga aylanadi. Ular barcha ishlab chiqarish, ekspluatatsion, konstruktiv jarayonlarda bo‘lganidek, ta’lim jarayonida ham har qadamda tez-tez uchraydi.

**Ta’lim** — ko‘p maqsadli jarayon. Bu maqsadlarni o‘quv materiallari, o‘qituvchi va o‘quvchining o‘zaro ta’siri, o‘qituvchi faoliyati, o‘quvchi faoliyati, ta’lim jarayoni va nihoyat, ta’limning o‘zini tahlil qilish yo‘llari orqali aniqlash mumkin. Maqsadni, prinsip jihatdan, bu sanalgan kategoriyalarning har biridan kelib chiqqan holda aniqlash to‘g‘ri yo‘l sanaladi. Zero, didaktik hodisalarni bayon qilish darajasida (yana bir bor ta’kidlaymiz: tasvir darajasida emas, bayon qilish darajasida) o‘tkazilgan pedagogik izlanishlarda ta’lim maqsadini yuqoridagi kategoriylar

mohiyatidan kelib chiqib, aniqlash tajribasi istalgancha topiladi.

Ta'lim texnologiyasi hozirgi mavjud pedagogik izlanishlardan nimasi bilan farq qiladi? Ta'lim texnologiyasi pedagogika fanidagi asosiy qarashlardan maqsadni aniq belgilash taktikasi bilan farq qiladi. Demak, shunday ekan, ta'lim texnologiyasi o'quv-tarbiya jarayoni maqsadini aniqlashda ishni nimadan, maqsadning qaysi xili, qaysi ko'rinishidan boshlashni tavsiya qiladi? Bu o'ta murakkab, aytish mumkinki, metodologik savol. Unga ta'lim jarayonidagi maqsadlarni batafsil o'rganmasdan, tartibga tushirmasdan, ta'lim maqsadlari taksonomiyasini<sup>26</sup> shakllantirmasdan javob qaytarib bo'lmaydi. Negaki, bizning hozirgi — amaldagi pedagogik tajribamizda o'qituvchi faoliyatidan kelib chiqib o'quvchilar maqsadini, ta'lim maqsadi va shu kabilarni aniqlash o'qitish tizimining qon-qoniga singib ketgan. Binobarin, ta'lim texnologiyasi ta'lim maqsadini oydinlashtirish, chegaralash bo'yicha ham ta'lim tizimiga yangicha yondashish prinsipini ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Ta'lim maqsadlari taksonomiyasi iyerarxik tuzilib, unda umumiy maqsaddan konkret maqsadga qarab boriladi. Umumiydan konkret maqsadga qarab borish texnologiyasining boshlang'ich va yakuniy nuqtalari mavjud bo'lib, ularda ikki xil, o'zaro daxldor jarayon aks etadi: umumiydan aniq maqsad tomona harakat — bu ta'limni rejaliashtirish jarayonidir; aniq maqsaddan umumiy maqsad tomon siljish — bu ta'limni bevosa amalga oshirish, uni qurish, boshqarish, nazorat qilish jarayoni demakdir. Tahlilni birinchi yo'nalishdan boshlaymiz.

<sup>26</sup> Taksonomiya yunoncha «taksis» va «nomos» so'zlarining yig'indisi bo'lib, narsalarni, jumladan, maqsadlarni ham konkret(aniq) maqsadga qarab borish yo'li bilan tartibga keltirish demakdir.

**Ta’limning umumiy maqsadi.** Umumiy maqsad jamiyatning mактаб oldiga qo’ygan ijtimoiy talabiga muvofiq aniqlanadi.

Jonajon mamlakatimiz istiqlolga erishgach, O’zbekistonning yetuk fuqarosini barkamol inson darajasida tarbiyalash mактабning bosh vazifasi bo’lib qoldi. Prezident I.A.Karimovning quyidagi so’zi ta’limning umumiy maqsadini belgilashda asosiy o’lchov bo’ladi: «Biz komil inson darajasida tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor sohasi deb e’lon qilganmiz. Komil inson deganda biz, avvalo, ongi yuksak, mustaqil fikrlay oladigan, xulq-atvori bilan o’zgalarga iбrat bo’ladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz»<sup>27</sup>. Har tomonlama yetuk-barkamol inson tarbiyalash xalqimiz, davlatimizning mактаб oldiga qo’ygan umumiy maqsadidir.

Ta’lim texnologiyasining markazida bola shaxsi yotadi. Shaxs tuzilishiga ko’ra murakkab hodisa bo’lib, u faoliyatdagina rivojlanadi. «Barkamol inson» muammozi ham Sharq pedagogikasi oldiga allaqachon qo’yilgan masaladir. Hozirgi paytda bu muammoning ayrim sohalariga oid maxsus izlanishlar ham mavjud. Endigi vazifa ta’lim-tarbiya ishlarini muttasil rivojlantirib, barkamol inson ehtiyojlariga ham moslashtirishdir.

**Ta’limning umumpedagogik maqsadi.** Pedagogik jarayonning maqsadlarini aniqlash, ularni sobitlashtirish emas, aksincha, maqsadlarni yoshlarning ma’lumoti, rivojlanishi, tarbiyasiga muvofiqlashtirish, binobarin, xalq ta’imi sohasidagi ijtimoiy vazifani hal etishga qaratishdir. Maktablarda o’qitiladigan barcha o’quv predmetlari yagona maqsadga — yetuk, barkamol insonni tarbiyalashga xizmat qiladi. Har bir o’quv predmeti o’ziga oid maqsadni amalga oshirishga yo’nalgan. Masalan, tarixning maqsadi — insoniyat, jamiyatning paydo bo’lishi, taraqqiyot

<sup>27</sup> Barkamol avlod orzusi. — T.: «Sharq», 1999. 81-bet.

bosqichlari to‘g‘risidagi bilimlarni o‘rgatish yo‘li bilan haqiqiy vatanparvar fuqarolarni yetishtirib chiqarish bo‘lsa, ona tilining maqsadi bolalarda nutq madaniyatini tarbiyalashdir. Bu yerda nutq madaniyati keng ma’noda — til va nutqqa oid bilimlar, ko‘nikma-malakalar, ijodiy faoliyat tajribasi, tilga munosabatlar majmui ma’nosida qo‘llanmoqda.

Hozirgi paytda ta’limning umumpedagogik maqsadi nuqul bir yo‘l bilan — ijtimoiy-gumanitar, tabiiy tayyor-garlikka oid o‘quv predmetlarini ajratish, chegaralash va ularni o‘quv rejalariga kiritish yo‘li bilan amalga oshirilmoqda. Ta’limning umumpedagogik maqsadlarini ishlab chiqish, konkretlashtirishning ikkinchi usuli ham mavjud: har bir o‘quv predmetini o‘qitishning umumiyligini aniqlash va shu asosda u yoki bu o‘quv predmeti bo‘yicha shakllantiriladigan faoliyat usullarini ajratish va ularni dastur, darsliklarga kiritishdir. Keyingi paytlarda davlat ta’lim standartlarini tayyorlashda, ayrim darslik mualliflari faoliyatida ikkinchi usulga moyillik sezilmoqda.

Ta’limning umumpedagogik maqsadini ikkinchi usul vositasida aniqlash ta’lim texnologiyasi g‘oyasiga mos keladi. Ish shu usul bilan tashkil etilganda, har bir o‘quv predmetining maqsadi alohida-alohida konkretlashtiriladi (1), o‘quv materiallari tarkibida o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan o‘quv elementlari ajratiladi (2), har bir o‘quv elementini o‘zlashtirish maqsadlari aniqlanadi (3).

O‘quv elementi — o‘quv materialining didaktiv ishlov berilgan eng kichik birligi. **O‘quv elementlarining quyidagi xususiyatlari mavjud.**

**Adekvatlik** — o‘quv elementining makondagi xususiyati. Har bir o‘quv materiali tarkibida faqat va faqat unga oid o‘quv elementi ajratiladi.

**Bir-biriga bog‘liqlik** — o‘quv elementining informatik xususiyati. U bir o‘quv elementi to‘liq o‘zlashtirilgach, ikkinchisiga o‘tish zarurligini ko‘rsatadi.

**Bir-birini to‘ldirish** — o‘quv elementining zamondagi xususiyati bo‘lib, u keyingi o‘quv elementini o‘rganish bilan oldingi o‘quv elementini o‘zlashtirish o‘rtasida vaqtli interval ko‘rsatkichidir.

**O‘quv elementining qiyinchiligi** uning vazifasidan kelib chiquvchi xususiyati bo‘lib, u o‘zlashtirish jarayonida bola faoliyati intensivligini — aqlga zo‘r berib ishlashini belgilash o‘lchovidir.

**Optimallik** o‘quv elementining miqdoriy xususiyati bo‘lib, unga ko‘ra o‘rganilayotgan axborotning torligi yoki kengligi (ko‘lami) aniqlanadi.

Ta’limning umumpedagogik maqsadini aniqlashtirishni «Undalma» mavzusida tahlil qilamiz. Bu mavzuni o‘qitishning umumpedagogik maqsadi — o‘quvchilarga undalmalarni nutqda to‘g‘ri qo‘llay olishni o‘rgatishdir. Undalmalarni nutqda qo‘llashga o‘rgatish uchun 10 ta o‘quv elementi ajratiladi. O‘quv elementlariga oid maqsadlar jadvalda keltirildi.

#### Maktabda «Undalma» ni o‘qitishning umumpedagogik maqsadi

«Undalma» mavzusi bo‘yicha o‘quv elementlari	O‘quv elementlarini o‘rganishning umumpedagogik maqsadlari
1. Undalmaning ta’rifi.	1. Undalmaning so‘zlovchi nutqi qaratilgan shaxs yoki narsani bildirgan so‘z ekanligini anglash.
2. Sodda undalma	2. Sodda undalmalarni bilish.
3. Murakkab undalma.	3. Murakkab undalmalarni bilish.
4. Shaxsga qaratilgan undalma.	4. Shaxsga qaratilgan undalmalarni bilish.
5. Narsalarga qaratilgan undalma.	5. Narsalarga qaratilgan undalmalarni anglash.

6. Undalmali gaplarda undalmalarni topish.	6. Gap tarkibidagi undalmalarni aniqlashga o'rgatish.
7. Undalmalarning gapdagi o'rni.	7. Gapning boshi, o'rtasi, oxirida udalmalarni qo'llash.
8. Undalmalarda tinish belgilari.	8. Undalmalarda vergul, undov belgisini to'g'ri ishlatalish.
9. Undalmali gaplarni o'qish.	9. Gapning boshi, o'rtasi, oxirida kelgan undalmalarni o'qish texnikasini egallah.
10.Undalmali gaplarda egani topish.	10. Undalmali gapda gap egasini aniqlash.

**Ta'limning yaqin didaktik maqsadi.** Ta'limning yaqin didaktik maqsadi ta'lim xususiyatlariga ko'ra belgilanadi. Ta'lim ikki subyekt — o'qitish va o'qish faoliyatining o'zaro ta'siri, ularning bir-biriga kirishuvidan shakllangan hosila jarayondir. Binobarin, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati maqsadlarini belgilamasdan turib, ta'limning yaqin didaktik maqsadini belgilash mushkul. Ikkinchidan, yaqin didaktik maqsadlar o'rganiladigan bilimlar mohiyatiga ham bog'liq.

Ta'limning yaqin didaktik maqsadi ikki xil maqsadning — o'qitish va o'qish maqsadlarining bir-biriga to'g'ri kelishidan (mos kelishidan) shakllanadigan birlikdir. Istalgan o'quv materialini, jumladan, «Undalma» mavzusini ham puxta, sifatli, atroflicha, etalon darajasida o'zlash-tirishning to'rt xil yaqin didaktik maqsadi mavjud: o'quv materialini o'rganish va uni dastlabki mustahkamlash; takrorlash va malaka hosil qilish; bilim va malakalarni umumilashtirish; bilim, malakalarni nazorat qilish.

**O'qitish maqsadlari.** O'qitish mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi natijasida o'qituvchi zimmasiga yuklangan vazifadir. Bu faoliyatning o'ziga xos maqsadlari mavjud. O'qitish maqsadlari mohiyati ta'lim jarayonidagi xususiyat-

lari jihatidan ikki guruhga ajratiladi: a) **tashkiliy-boshqaruv maqsadlari**; b) **ta'limni bevosita amalga oshirish maqsadlari**.

a) **tashkiliy-boshqaruv maqsadlariga quyidagilar kiradi.**

1. **Ta'limni tashkil etish maqsadi** — bu o'quvchi bilan o'quv materiali o'rtasidagi bog'lanishni yuzaga chiqarishga qaratilgan maqsaddir. Tashkiliy maqsad ta'limni rejalash-tirish, o'quvchilarning ishlarini tashkil etish, ularni rag'batlantirish yo'llari bilan amalgा oshiriladi.

2. **Ta'limni boshqarish maqsadi** — bu o'quvchining bir faoliyat turidan ikkinchisiga o'tishda va shu asosda o'quv materiallarini o'zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarilishga rahbarlikdir.

3. **Ta'limni nazorat qilish maqsadi** — o'qitish va o'qish faoliyatları orasıdagi teskari aloqani o'rnatishdan ko'zda tutilgan maqsaddir. Teskari aloqaga ko'ra, ta'lim natijasi tahlil etiladi, bolalar faoliyatidagi kemtik joylar aniqlanadi, to'ldiriladi.

a) ta'limni amalgा oshirish maqsadlariga quyida-gilar kiradi; bolalarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash; b) bilimlarni idrok etishni ta'minlash; bilim va malakalarni mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirish; bilim, malakalarning zaif joylarini aniqlash va to'ldirish.

**O'quv maqsadlari.** O'qish mehnatning ijtimoiy taqsim-  
lanishida o'rganuvchilar zimmasiga yuklangan mehnatdir.  
O'qitishga o'xshab o'qish mehnatining ham o'ziga xos  
maqsadlari mavjud. Bolalarning o'quv maqsadlarini  
oydinlashtirish uchun ularni o'qitish maqsadlari bilan  
taqqoslash zarur. Bolalarning yangi o'quv materiallarni  
o'rganishga oid o'qitish maqsadini olaylik. O'qituvchi bu  
maqsadni amalgा oshirish uchun turli usullardan foydala-nadi:  
agar bugungi mavzu oldin o'tilgan bilimlarga bog'liq  
bo'lsa, ularni takrorlaydi (1); dalillarni tahlil qilishni so'raydi  
(2); muammolar qo'yadi (3); topshiriqlarni bajartiradi (4).

Shu yo'llar bilan o'quvchilar yangi mavzuni o'rganishga tayyorlanadi.

«Undalma» mavzusi o'tilganda o'quvchilarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash maqsadida o'qituvchi quyidagi topshiriqdan foydalandi deb tasavvur qiling.

**Topshiriq.** Namunadan foydalanib, berilgan holatlarga mos keladigan undalmali gaplar tuzing. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni aniqlab, undalmaga ta'rif berishga tayyorlaning.

Topshiriq asosida o'qituvchi o'z oldiga yagona maqsad — bolalarni yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorlash maqsadini qo'ysa, o'quvchilar o'z oldiga juda ko'p maqsadlarni qo'yib, ularni amalga oshirishadi. Bu maqsadlarni qayd etamiz: undalmali gaplar tuzish (1), shaxsga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (2), narsalarga qaratilgan undalmalarni aniqlash (3), dalillardan undalmaning ta'rifi chiqarish (4). Bu to'rt xil maqsadning har biri yanada mayda bo'lakchalardan (maqsadchalardan) iborat. Masalan, 1-maqsadning o'zi oltita gap tuzish yo'li bilan amalga oshadi. Ko'rindiki, o'qish maqsadlarini yanada maydaror qismlarga (maqsadchalarga) ajratish juda ko'p takrorlashlarga olib keladi. Shu tufayli ular harakatlar deb belgilandi. O'qitish va o'qish maqsadlarini o'zaro taqqoslash jarayoni quyidagi chizmada ifodalandi.

O'qitish maqsadi	O'quv maqsadlari
Bolalarni «Undalma» mavzusini o'rganishga tayyorlash (1)	Undalmali gaplar tuzish (1)
	Shaxslarga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (2)
	Narsalarga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (3)
	Undalmaga ta'rif berish (4)

Ta'limda o'qituvchi amalga oshiradigan bir maqsadga o'quvchilar bir nechta maqsadlarni amalga oshirish yo'li bilan javob qaytaradi. O'qish maqsadlari o'qitish maqsadlariga to'g'ri kelmog'i kerak. Yuqoridagi to'rt maqsad birgalikda «bolalarni Undalma mavzusini o'rGANISHGA tAYYORLASH» maqsadiga to'g'ri kelmoqda.

Yuqoridagi ta'lim maqsadlarini tasavvur etishning besh xil darajasi ko'rib o'tildi. O'sha aytilganlarga yanada aniqlik kiritish uchun quyidagi chizmaga nazar soling.

<b>Ta'limni tasavvur etish darajalari</b>	<b>Ta'lim maqsadlari</b>	<b>Maqsadning o'chovi</b>
1. Jamiyat	1. Komil inson	1. Ijtimoiy talab
2. Pedagogik amaliyot	2. O'quv predmetlarni to'liq o'zlashtirish.	2. Ma'lumot mazmunini egallash.
3. Ta'lim jarayoni	3. Ta'limning yaqin didaktik maqsadlari	3. Ijtimoiy institut (ta'lim)da ishtiroy etish
4. O'qitish faoliyati	4. Ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish	4. Ta'limning tuzilishi va borishi
5. O'qish faoliyati	5. O'quv materiallari ustida mustaqil ishlash	5. Etalon darajasidagi bilim, malakalar

O'qish faoliyati maqsadlarini o'rGANISH qator xulosa-larga olib keladi: o'qish o'qitishga nisbatan murakkab faoliyat. O'qitish faoliyatining bir maqsadiga o'qish faoliyatining bir qancha maqsadlari tizimi to'g'ri keladi; ta'lim o'qish maqsadlarini amalga oshirishdan boshlanadi; hozirgi pedagogika «bolalarsiz» fan bo'lib, o'qituvchiga qaratilgan.

Bilish faoliyati, ularning ta'lim subyekti sifatida tasavvur etish yo'li bilan yaratilgan pedagogik nazariya markazida o'quvchi shaxsi yotadi.

Ta'limning qaysi maqsadi ta'lim texnologiyasining boshlang'ich nuqtasi bo'la oladi? Ta'lim texnologiyasini asoslash uchun maqsadning shunday ko'rinishini tanlash kerakki, u amalga oshgach, bola uchun eng yuqori (etalon) darajasidagi natijaga, natija esa kelajakda yangi maqsadlar qo'yish va ularni amalga oshirish vositasiga aylansin.

Bunday talabga ta'limda o'quvchilar oldiga qo'yiladigan maqsadlar javob bera oladi. Ta'limda o'quvchilar oldiga qo'yiladigan maqsadlardan o'quv predmeti yoki uning bir qismi — o'quv materialini o'rganish boshlanadi (1), ularni amalga oshirishdan ta'lim sikllari shakllanadi (2), sikllar o'rtasidagi oraliq natijalarini farqlash imkoniyatlari paydo bo'ladi (3), ta'limda o'quvchilar oldiga qo'yilgan barcha maqsadlarga erishish to'liq o'zlashtirishga olib keladi (4). Hozirgi pedagogik nazariya va unga oid pedagogik amaliyotida o'qituvchi maqsadiga binoan o'quvchi maqsadini aniqlash an'anaga aylangan. Ta'lim texnologiyasi o'quvchilar maqsadiga ko'ra, o'qituvchi maqsadini belgilash zarurligi xususidagi g'oyaga tayanadi.

**Ta'lim vositasi.** Ta'lim vositalari xilma-xildir. Vosita keng ma'noda inson o'zi bilan mehnati o'rtasiga qo'yadigan narsalardir. Ta'lim jarayonida ikki xil faoliyat mavjud: o'qitish faoliyati; o'qish faoliyati. Binobarin, ularning har biri o'ziga xos vositaga ega.

O'qitish vositalari — o'quv materialini o'rgatishda o'qituvchi o'zi bilan o'quvchilar orasiga qo'yadigan moddiy va moddiylashgan predmetlardir. Moddiy vositalar qatoriga, masalan, boshlang'ich sinflarda predmet darslari o'tilganda, sinfga olib kiriladigan turli sabzavot va mevalar, yuqori sinflarda esa mexanizmlar, ularning detallari kirsa, moddiylashtirilgan buyumlar sirasiga kartochkalar, rasmlar, jadvallar, chizmalar, bosma asosli tarqatma materiallar, EHM xotirasiga kirilgan dasturlar kiradi. Qizig'i shundaki, o'qituvchi uchun ta'lim vositasi funksiyasini bajaradigan

moddiy va moddiylashgan narsalarning barchasi o‘quvchi uchun ta’lim manbai vazifasini bajaradi.

O‘qish vositalari — bolalarning o‘zida. Bolada shakllangan ijtimoiy tajriba, o‘zlashtirilgan bilimlar, malakalar, ijodiy faoliyat va aqliy mehnat usullari o‘quvchi uchun vosita vazifasini bajaradi. «Ta’lim vositasi — o‘quvchining o‘zida» fikriga oydinlik kiritish uchun «Undalma» mavzusida tuzilgan o‘quv topshiriqlarini tahlil qilamiz.

**1-topshiriq.** Namunadan foydalanib, berilgan nutq holatlariga mos keladigan gaplar tuzing. So‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsalarni aniqlab, undalmaga ta’rif berishga tayyorlaning.

Bolalarni tabriklayotgan bobo, cho‘kayotgan odam, qushlarga don sepayotgan bola, buvisini tabriklayotgan nevara, ust-boshi ho‘l bo‘lgan kishining yomg‘irga murojaati, shamolga yolvorayotgan odamning gapi.

*Namuna:* Ey xayol, uzoqlarga olib ketma!

**2-topshiriq.** Berilgan holatlarga mos keladigan oltita gap tuzdingiz (Bolalar, bilim manbai — kitobni seving. Odamlar, cho‘kayapman, qutqaringlar! Hoy qadrdon qushlarim, don yeng. Mehribon buvijon, Sizni tabriklayman! Hoy, yomg‘ir, yana shiddat bilan yog‘. Ey shamol, salomimni do‘sstimga yetkaz!). Shu gaplarni qanday qilib ikki guruhgaga ajratish mumkin?

**3-topshiriq.** Matnni o‘qib, tinish belgilarini qo‘yib undalmali misralarni ko‘chiring.

*Qani ayt, maqsading nimadir sening,  
Nega tilkalaysan bag‘rimni ohang.  
Nechuk kerak bo‘ldi senga ko‘z yoshim,  
Nechuk kerak rubob senga shuncha g‘am.*

(A.Oripov)

**4-topshiriq.** Berilgan tayanch so‘zlarni undalma vazifasida qatnashtirib, «Bahor» mavzusiga bog‘liq hikoya tuzing.

*Bahor, lola, yoqimli shabada, qalb.*

Keltirilgan topshiriqlarni tahlil qilish yo'li bilan o'qitish maqsadlari, ularga to'g'ri keladigan o'qish maqsadlari, vositalari, natijalarini ajratish mumkin.

*O'qitish maqsadlari* — bolalarni undalmalarni o'rganishga tayyorlash (1-topshiriq), bolalarni undalmalarga mustaqil ta'rif berishga jalb etish (2-topshiriq), shaxs va narsalarga qaratilgan undalmalarni farqlashga o'rgatish (2-topshiriq), undalma bo'yicha o'rganilgan bilimlarni mustahkamlash (3-topshiriq), undalma bo'yicha o'rganilgan bilimlarni yangi o'quv holatiga tatbiq etish (4-topshiriq).

*O'qish maqsadlari* -1-topshiriq bo'yicha: undalmali gaplar tuzish (1), shaxsga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (2), narsalarga qaratilgan undalmali gaplarni aniqlash (3), undalmalarga ta'rif berish (4), 2-topshiriq bo'yicha: tuzilgan gaplarni qayta o'qib chiqish (1), gaplarni ikki guruhga ajratish to'g'risida o'yash (2), gaplarni ikki guruhga ajratib yozish (3), gaplarni ikki guruhga ajratib yozish tartibini aytib berish (4); 3-topshiriq bo'yicha: she'riy parchani o'qish (1), undalmali misralarni aniqlash (2), undalmali misralarni ko'chirish (3); 4-topshiriq bo'yicha: tayanch so'zlarni undalma vazifasida qatnashtirib gaplar tuzish (1), gaplarni mazmunan bir-biriga bog'lash (2), hikoya tuzish (3).

Yuqoridagi o'qish maqsadlariga oid vositalarni ham ajratamiz: bolalar nutqida undalmali gap qurilmasining mavjudligi — 1-topshiriqni bajarish vositasi, 2-4-topshiriqlarni bajarish vositasi — undalmaning ta'rifi, turlari xususidagi bilimlar, bolalarning o'z faoliyati. Ta'lim natijasi o'quv materialini o'zlashtirish darajalari bilan bog'liq hodisadir.

O'quv materiallarini o'zlashtirishda esga olish (xotirlash) va ijodkorlik bir jarayonning (oldindan qayd etilgan natijaga erishish jarayonining) ikki tomonidir. Qayta eslashdan

boshlangan o‘quv faoliyati ijodkorlik bilan, ijodkorlik bilan boshlangan o‘quv faoliyati qayta eslash bilan yakunlanishi lozim. Ijodiy faoliyat, qayta eslash yo‘llari bilan o‘quvchi o‘rganilayotgan obyektga yaqinlashadi.

O‘quvchining o‘rganilayotgan obyektga har bir yaqinlashuvi o‘zlashtirilayotgan o‘quv materialining yangi tomonlarini, yangi belgilarini his qilish, anglashni ta‘minlaydi. Bu ta’lim jarayonidagi kumulyatsiya hodisasiidir. Kumulyatsiya hodisasisiga ko‘ra, o‘quvchi oldin o‘rganilgan o‘quv materialiga takroriy qaytib kelganda, o‘z tushunchasi doirasini yangi bilimlar, dalillar, bog‘lanishlar bilan boyitadi.

Shunday qilib, ta’lim jarayonida o‘quvchi va o‘quv materialining o‘zaro ta’siri orqali yangi bilim va malakalar shakllanadi, oldin o‘rganilgan bilimlar, egallangan malakalar yangi tasavvurlar bilan kengayadi. O‘quvchi faoliyatining mahsuli (natijasi) ta’lim jarayonida o‘quvchi oldiga qo‘yilgan maqsadlarga taqqoslash yo‘li bilan o‘lchanadi. Shuningdek, erishilgan natija qo‘yilgan maqsadga qancha yaqinlashsa, ta’lim shuncha samarador sanaladi. O‘quv materiallarini o‘zlashtirishning uch xil darajasi va unga mos keladigan uch xil natijani ajratib ko‘rsatishimiz mumkin:

**I daraja.** O‘quv materialining umumiyl tuzilishi va uni aytib berish usulini egallah. Bu darajada bolalar o‘rganilgan bilimlarni amaliyotga tatbiq eta olish qobiliyatini egallahlari lozim. O‘quvchi qoidadan amaliyotga o‘tganda va aksincha, amaliyotdan qoidaga qarab borganda mulohaza qilib ish ko‘radi, topshiriqlarni sekinlik bilan bajaradi, o‘ylab, mulohaza qilib faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarning shakllanishiga olib keladi. Bilimlar asosida hosil qilinadigan ko‘nikma ta’lim natijasining dastlabki ko‘rinishidir.

**II daraja.** O‘quv materiallarining umumiyl tuzilishi va uni aytib berish usullarini yanada aniqlashtirish, kengaytirish.

Bu darajada o'rganilgan bilimlar, ularni aytib berish usullari turli o'quv holatlariga tatbiq qilinadi. Tezkorlik bilan qoidadan dalillarga, dalillardan qoidaga o'tish, topshiriqlarni bajarish sur'ati ta'lif jarayoni natijalarini belgilash o'lchovi sanaladi. Faoliyatdagi tezkorlik malakaning sifat belgisidir. Ana shunga ko'ra, o'quv materiallarini o'zlashtirishning bu darajasini malaka darajasida o'zlashtirish deb belgilaymiz. O'zlashtirishning ikkinchi darajasida o'quv materiallarini o'zlashtirish natijasi malakaga mos keladi.

**III daraja.** O'quv materialining tushuncha darajasini o'zlashtirish. Bu darajada o'quvchi fikrlashdagi mustaqillik, uning o'rganilgan bilimlarga munosabati, o'z-o'zini baholash ta'lif jarayoni natijasini belgilash o'lchovlari hisoblanadi.

### 5-fasl. Ta'lif etalonni

Barcha sohalarga o'xshab ta'lif etalonini<sup>28</sup> ham ta'lifni tashkil etish, boshqarish, nazorat etish tarhi, eng yuqori natijaga erishish vositasi sifatida qarash mumkin<sup>29</sup>.

Hozirgi paytda ta'lif etalonini maqsadga tenglashtirish, binobarin, qo'yilgan o'quv maqsadlari asosida ta'lif etalonini belgilash va baholash moyilligi ustunlik qilmoqda. Bizning fikrimizcha, ta'lif etalonini belgilashda uch narsa (maqsad, vosita, natija) hisobga olinishi zarur. Fikrimizni oydinlashtirish uchun amerikalik didakt olim N.Gronlund

<sup>28</sup> «Etalon» fransuzcha so'z bo'lib, namuna, o'lchov birligi, o'lchov asbobi degan ma'nolarni anglatadi. Masalan, og'irlik o'lchovi — kilogramm (kg) xalqaro o'lchov birligidir. U balandligi va diametri 39 mmdan iborat platinadan yasalgan silindirdir.

<sup>29</sup> Ushbu matnda «ta'lif etalonni» atamasi shartli ishlatilmoxda. Ta'lif etalonini ta'lifni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish tarhi ma'nosida tushunamiz. Shu tufayli uni «dars konspekti» bilan yonmaydon muqoyosa qilib o'rganish, ta'lif etalonni va dars konspektini ta'lifni loyihalash vositalari sifatida qarash lozim deb o'ylaymiz.

tuzgan ta'lim etalonini keltiramiz. Buning uchun shunday umumiy o'quv maqsadi belgilanadi: ob-havo xaritasida ramziy belgilarni mustaqil o'rghanish.

Yuqoridagi umumiy maqsadni amalgga oshirish uchun o'quvchi qator maqsadlarni bajaradi, shu maqsadlarga oid topshiriqlarni mustaqil ishlaydi: ob-havo xaritasida qo'llanadigan ramzlarni o'rghanish (shu maqsadga oid topshiriqlarni bajarish — yomg'ir, qor, bulutga oid ramzlarni bilish (1); ob-havò xaritasida qo'llanadigan ramzlarni eslab yozish (2); ob-havo xaritasidagi ramzlarni tanish (3); ramzlardan foydalanib, ob-havo xaritasini o'qish (4); ramzlardan foydalanib, ob-havo xaritasini tuzish (5); berilgan xaritada ramzlardan foydalanib, ob-havo ma'lumotini berish (6).

Etalon sifatida berilgan maqsad — ob-havo xaritasida ramziy belgilarni mustaqil o'rghanish amalgga oshgach, o'quvchilar berilgan xaritada ramzlardan foydalanib, ob-havo ma'lumotini bera olishni — natijani egallab olishadi. Bu natijaga erishish uchun o'quvchilar bir nechta oraliq maqsadlar (1-5) ni amalgga oshirishi, shu maqsadlarga oid topshiriqlarni bajarishlari shart. O'z navbatida topshiriqlar ta'lim vositasi. Shularga ko'ra, ta'lim etalonini quyidagi formula bilan belgilaymiz.

### Ta'lim etaloni + maqsad+vosita (topshiriqlar) +natija

#### Ta'lim etalonini tuzish bosqichlari

**Birinchi bosqich.** O'quv maqsadlarini aniqlash. Quyida o'quv maqsadlari (konglomerati) tartibsiz holatda keltirildi<sup>30</sup>.

<sup>30</sup> «Konglomerat» lotincha so'z bo'lib, tartibsiz to'plab qo'yilgan degan ma'nori anglatadi.

Undalmalarga mustaqil ta’rif berish, undalmali gaplarni o‘qish, undalmali gaplarni ikki guruhgaga ajratish, undalmali gaplar tuzish, sodda undalmalarni tanish, murakkab undalmalarni tanish, undalmalar ishtirokida hikoya tuzish, tayanch so‘zlar ishtirokida undalmali gaplar tuzish, matnda shaxsga qaratilgan undalmalarni tanish, matnda narsalarga qaratilgan undalmalarni tanish, undalmali gaplarda egani topish, berilgan holatlarga mos hikoya tuzish, undalmalarning gapdag‘i o‘rinlarini bilish, gap tarkibida undalmalarni to‘g‘ri o‘qish, undalmalarda tinish belgilarni ishlatish, og‘zaki va yozma nutqda undalmalarni to‘g‘ri ishlatish.

**Ikkinchi bosqich.** O‘quv maqsadlarini murakkabligiga ko‘ra, guruhlarga ajratish. Buning uchun ekspert komissiyasi a’zolari birgalikda munozara qilib, o‘quv faoliyatining bosh maqsadini, bosh maqsadga qaram (ergashadigan) o‘quv maqsadlarini, ergash o‘quv maqsadlariga olib keladigan, bo‘ysunadigan o‘quv maqsadlarini aniqlashadi. Bu uch toifadagi maqsadlarning eng keyingisini amalgalashish ikkinchi toifadagi o‘quv maqsadlariga olib keladi. Ikkala toifadagi maqsadlarni amalgalashish bosh maqsadga yetaklaydi. O‘ylangchi, bosh, ikkilamchi, uchinchi toifadagi maqsadlar qaysilar?


**Uchinchi bosqich.** O‘quv maqsadlarining iyerarxik tizimini (bir-biriga bo‘ysungan) tuzish. Buning uchun bosh o‘quv maqsadini rim raqami, ikkinchi toifaga mansub o‘quv maqsadlarini arab raqamlari, qolgan o‘quv maqsadlarini bosh literlar bilan belgilaymiz. Endi yuqorida berilgan o‘quv maqsadlarini qayta kuzatish orqali ularni raqamlar bilan belgilab chiqamiz.

I. Og‘zaki va yozma nutqda undalmalarni to‘g‘ri ishlatish.

1. Undalmalarga mustaqil ta’rif berish.
2. Sodda undalmalarni tanish.

3. Murakkab undalmalarni tanish.
  4. Matnda shaxsga qaratilgan undalmalarni tanish.
  5. Matnda narsalarga qaratilgan undalmalarni tanish.
  6. Undalmali gaplarda egani topish.
  7. Undalmalarning gapdagi o‘rnini bilish (aniqlash).
  8. Gap tarkibida undalmalarni to‘g‘ri o‘qish.
  9. Undalmalarda tinish belgilarni to‘g‘ri ishlatish.
  10. Undalmalarning uyushib kelishini anglash (masalan, Aziz otajon, munis onajon, kumush to‘yingiz bilan tabriklayman).
- A. Undalmali gaplarni o‘qish.
  - B. Undalmali gaplarni ikki guruhga ajratish.
  - C. Undalmali gaplar tuzish.
  - E. Undalmalar ishtirokida hikoya tuzish.
  - F. Tayanch so‘zlar ishtirokida undalmali gaplar tuzish.
  - G. Berilgan holatlarga mos hikoya tuzish.

**O‘quv maqsadlarning iyerarxik tizimi**



I rim raqami bilan qayd etilgan o‘quv maqsadida «Undalma»ga oid tushuncha, bilim, ko‘nikma, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar aks etgan. Uni umumlashtirib, tushunchaga teng o‘quv maqsadi deb belgilaymiz.

1-10-raqamlarda berilgan o‘quv maqsadlarining har biri bir o‘quv elementiga to‘g‘ri keladi. Ularni o‘quv elementlariga teng o‘quv maqsadlari deb qayd etamiz.

A-E literi bilan berilgan o‘quv maqsadlari faoliyat usullariga to‘g‘ri keladi. Ularning harakatga teng yoki faoliyat usullariga oid maqsadlar deb qaraymiz. Harakatga teng maqsadlar nihoyatda ko‘p-son-sanoqsizdir. Shu yerda bitta tezis — har bir o‘quv elementini to‘liq va to‘g‘ri o‘zlashtirish, binobarin, DTS talablari darajasida o‘rganish uchun A, B, D, E, F, G maqsadlari takrorlanadi. Bir o‘quvchi har bir o‘quv elementini etalon darajasida o‘zlashtirish uchun A, B, D, ikkinchi o‘quvchi A, B, D, E, uchinchi o‘quvchi A, B, D, E, F harakatlarini qilishi mumkin. Hatto A, B, D, E, F, G harakatlari doirasida maqsadga erishadigan o‘quvchilar ham topiladi.

Shunday tasavvur qiling: sinf o‘quvchilaridan 10 tasi, har bir o‘quv elementini A, B, D harakatlari asosida o‘rgandi, 15 kishi A, B, D, E harakatlarini amalga oshirib o‘rgandi, 7 kishi barcha harakatlarni bajarib, maqsadga erishdi. Endi xuddi shu yerda ta’limni optimallashtirish prinsipi ishga tushadi: sinf o‘quvchilarini guruhlarga ajratish, har bir guruuhga mos ish uslubi, vositalarini ishlatish, bolalar o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni tashkil etish, ulgurmovchi o‘quvchilarga qo‘srimcha vaqt ajratib, alohida mashg‘ulot o‘tkazish. Ta’lim texnologiyasi optimallashtirish nazariyasi g‘oyalari asosida boyitilganda to‘liq o‘zlashtirishga olib keladi.

#### To‘rtinchi bosqich.Ta’lim etalonini tuzish.

I. «Undalma»larni o‘rgatishda yetakchi o‘quv maqsadi: og‘zaki va yozma nutqda undalmalarni to‘g‘ri ishlatish.

II. Shart-1) undalmalarga mustaqil ta’rif bera olish; 2) sodda va murakkab undalmalarni ajrata bilish; 3) shaxs va narsalarga qaratilgan undalmalarni farqlay olish; 4) undalmalarda tinish belgilarni to‘g‘ri ishlatish va to‘g‘ri o‘qiy olish; 5) gapda undalmalarning o‘rnini bilish va undalmalardan egani farqlay bilish.

III. Natija-1) undalmaga oid bilimlarni egallash; 2) undalmalarga oid malakalarni berilgan o‘quv holatlarda

qo'llash; 3) undalmalar ishtirokida ijodiy hikoya tuzish; 4) undalmalarni boshqa lingvistik hodisalar, masalan, kirish so'z, gap bo'laklaridan farqlash; 5) berilgan yoki tuzilgan matnda undalmalarning nutqdagi ahamiyatini aytib berish.

IV. Natijani o'lhash me'yori va baholash usuli — 1) berilgan miqdordagi o'quv topshiriqlarini (testni) aytilgan vaqt mobaynida bajara olish; 2) bajarilgan topshiriqlar bo'yicha axborot (og'zaki va yozma) tayyorlash; 3) undalma bo'yicha o'z bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, o'z munosabatini o'zi baholash.

## 6-fasl. Test

Testning<sup>31</sup> eng asosiy, bosh xususiyati uning o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasiga validligidir<sup>32</sup>. Ma'nosidan ko'rinish turibdiki, o'quv materiallarini o'zlashtirishning 1-darajasiga — dastlabki natijaga (ko'nikma darajasida o'zlashtirishga) o'zlashtirishning shu xususiyatini hisobga olib tuzilgan testlarga to'g'ri keladi. Malaka yoki tushuncha darajasida o'zlashtirishga yaroqli testlar o'zlashtirishning aynan shu darajalarini hisobga olib tuziladi. Bulardan ko'rinaliki, test tuzish va ular vositasida o'quvchilarning bilimini tekshirishda qator psixodidaktik talablarga riosa qilinadi.

Testning validligi — testda berilgan topshiriqning mazmuni o'quv materialini o'zlashtirishning I darajasi va birinchi darajadagi faoliyat-ko'nikma darajasidagi xatti-harakatlar, II darajasi va ikkinchi darajadagi faoliyat-malaka darajasidagi xatti-harakatlarga, III darajasi va uchinchi darajadagi faoliyat tushuncha darajasidagi xatti-harakatlarga mos bo'lishi lozim. O'zlashtirishning bu uch darajasi va ularga oid faoliyatlarni aniq chegaralash

<sup>31</sup> «Test» inglizcha so'z bo'lib, sinab ko'rish, tekshirish kabi ma'nolarni anglatadi.

<sup>32</sup> Validlik inglizcha «valid» so'zidan olingan bo'lib, «haqiqiy», «yaroqli» degan ma'nolarni anglatadi.


imkoniyatlari mavjud: 1-daraja va unga oid faoliyat paytida bolalar o'ylab, qoida-ta'riflarni eslab, ayrim hollarda xatolar qilib, tuzatishlar kiritib, sekinlik bilan faoliyat ko'rsatishadi. Shu sabablarga ko'ra, u yoki bu testlarni bajarishga nisbatan ko'proq vaqt sarflanadi; 2-daraja va unga oid faoliyat paytida qoida-ta'riflar zudlik bilan esga tushiriladi, o'quv ishlarida tezkorlik boshlanadi, kamchilik va xatolar kamayadi, bilimlarni o'quv holatlariga tatbiq etish avtomatlasha boshlaydi. Shularga ko'ra, test yoki testlar tizimini bajarishga oldingiga nisbatan kamroq vaqt sarflanadi: 3-daraja va unga oid faoliyatda xatolar bo'lmasligi shart. Ammo bolalarning faoliyatida kamchilik, xatolar uchrashi ham tabiiy. Shuni hisobga olib, past o'zlashtirgan o'quvchilarni guruhlarga ajratish, har bir guruhga yoki alohida o'quvchilarga qo'shimcha topshiriqlar berilib, yana bir bor sinovdan o'tkaziladi. O'zlashtirishning eng oxirgi darajasida erishilgan natija ta'lim etalonini darajasida — ta'lim etalonida ko'zda tutilgan me'yoriy talablar darajasida bo'lishi, to'liq o'zlashtirish talablariga mutlaqo mos kelishi lozim.

O'quv materiallarni o'zlashtirish darajalari, faoliyatning uzlusiz rivojlanib borishini hisobga olib, testlarni ham uch toifaga ajratish mumkin: **1-darajadagi test**. Bu toifadagi test joriy nazoratga mos keladi; **2-darajadagi test**. Bunday test oraliq nazorat uchun vosita bo'la oladi; **3-darajadagi test**. Undan yakuniy nazorat paytida foydalanish mumkin. 1-2-darajadagi testlarning natijasi ballar bilan qayd etiladi. Baho qo'yilmaydi. Zero, ular ta'limni davom ettirish, binobarin, ta'limning borishidan o'quvchilarni ogohlantirish (o'zlarini yetib kelgan nuqtani fahmlash, o'z bilimlari chegarasini anglash), rag'batlantirish (yana o'z ustimda ishlashim zarur) kabi ichki effektlarga ega bo'ladi. 3-darajadagi testlarning natijasi baholanadi.

Testning aniqligi uning yana bir belgisidir. Test uni bajaradigan o'quvchi uchun tushunarli bo'lishi, unda

bolaning bilimi, tayyorgarlik darajasi, real bilish imkoniyati hisobga olinishi zarur. Testning aniqligiga ko'ra, boshlang'ich sinflarda foydalanadigan testlar yuqori sinflarda bajariladigan testlardan farq qiladi.


Testning ishonchlilagini ham uning yana bir xususiyati sifatida ajratsa bo'ladi. Agar testning bir xil qimmatga egaligi uni bajaruvchi shaxs bilan, uning ruhiyati bilan bog'liq bo'lsa, testning ishonchligi uning o'ziga (testga) daxldordir. Bir xil qimmatga, qiyinchilik va murakkablikka ega test vositasida aniqlangan natija shu tipdagi, qimmatdagi, qiyinlikdagi, murakkablikdagi boshqa bir test vositasida xuddi shunday (oldingiday) natija olinsa, ularning ikkalasi ham ishonchli test hisoblanadi.



O'quv materiallarini o'zlashtirishning barcha darajalariga (I daraja+II daraja+III daraja) mos keladigan uch xil testlar to'plami tuzildi deb tasavvur qiling. Uch xil darajaga moslab tuzilgan testlar to'plamini «zinapoya testlar to'plami» deb qaraymiz. Zinapoya shaklidagi testlar quyidagicha tartibda bajarildi, deylik: oldin I darajaga, keyin II darajaga, oxirida III darajaga oid testlar. Shu tartibda bajarilgan test to'plamlarining oldingisi keyingi to'plamni bajarish uchun vosita bo'ladi. Shu sababli, qiyinligi o'zlashtirish darajasiga qarab oshirib borilgan test to'plamlarini bir paytning o'zida ketma-ket bajarishni «test ustida mashq o'tkazish» deb qarash lozim.

Agar o'quv materiali I darajada o'zlashtirilgach, testlar to'plami shu darajani mo'ljallab tuzilgan bo'lsa, to'plam faqat va faqat shu darajadagi natijalarni tekshirish omili bo'la oladi. Joriy nazoratda xuddi shunday testlar

to‘plamidan foydalaniladi. Shunga o‘xshash II darajaga ko‘tarilgan bilimlarga mo‘ljallab tuzilgan testlar to‘plami oraliq nazoratga, III darajaga ko‘tarilgan bilimlarga mo‘ljallab tuzilgan testlar to‘plami yakuniy nazoratga mos keladi. Test nazorati natijalarining barchasi qabul qilingan standartga muqoyasa qilib qayd etiladi. Testlar to‘plamining qachon mashq qilish omili, qachon nazorat qilish vositasi bo‘la olishini quyidagi chizma bo‘yicha tasavvur etish mumkin.



Nazorat testlari rang-barang bo‘lib, ular alternativ, dalillarga mos termin tanlash, javoblardan to‘g‘risini tanlash, nuqtalar o‘rniga mos so‘zlarni qo‘yish kabi ko‘rinishlarga (shakllarga) ega.

Misollar: Alternativ test

Undalmalar 3-shaxsga ham qaratiladimi?

Ha. Yo‘q.

( To‘g‘ri javobning tagiga chizing)

Bunday testlar bir maqsadda tuzilib, bir harakat bilan bajariladi. Ulardagi maqsadga bir topshiriq to‘g‘ri keladi: berilgan ikki alternativdan bittasi tanlanadi.

*Berilgan dalillarga mos istiloh tanlash testi*

Berilgan uchala dalilga mos keladigan istilohlarni yozing.

1. Biz, sinf rahbarimiz aytdi, ertaga sayohatga boramiz.
  2. Shubhasiz, shu yerda katta bino quriladi.
  3. Bolalar, vaqtning qadriga yeting.
- Bunday testlar o'rganilgan mavzularga oid dalillarni tanish, tanilgan dalillarga mos keladigan grammatik istilohlarni tanlash yo'li bilan bajariladi.

*Ta'riflardan to'lig'i va to'g'risini tanlash testi*

Berilgan javoblar orasidan undalmaga berilgan ta'rifning eng to'lig'i va to'g'risini belgilang.

- A. Undalma gapning boshi, o'rtasi, oxirida keladi.
- B. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni ifodalagan so'zga undalma deyiladi.
- C. So'zlovchining nutqi qaratilgan shaxs va narsani ifodalagan so'zlarga undalma deyiladi.
- D. Undalma gapning o'rtasida kelgan bo'lsa, uning ikki tomoniga vergul qo'yiladi.

Ushbu testdan «Undalma»ga oid bilimlarni o'zlash-tirishning I darajasida foydalanish mumkin. Chunki undalmaga oid faoliyat hali yuqori darajaga ko'tarilmagan, ko'nigmalar malaka darajasiga yetib kelmagan. Bunday testlar joriy nazorat uchun ball to'plashda ishlataladi.

O'rganilayotgan bo'lim yoki mavzu bo'yicha bolalarning bilimi yuqoriga ko'tarilgach, testlar ham mazmun va faoliyat jihatdan murakkablashtiriladi. Binobarin, o'quv materiallarini o'zlashtirishning II darajasi yanada murakkab, juda ko'p faoliyat harakatlarini o'ziga qamrab olishi shart. Bunday testlar so'z-etalonni eslab topish va yozish, konstruktiv, u yoki bu tipga mansub masala, mashq, o'quv topshirig'i shakllarida tuziladi.

*So'z-etalonni esga tushirib bajariladigan test*

Undalmalarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llash uchun ularning:

- a) .....
- b) .....
- d) .....
- e) .....

xususiyatlarini bilish zarur.

Yuqoridagi testni bajarish uchun bolalar to'rtta so'z-etalonni: undalmaning kimga va nimaga qaratilganini (1), gapdagi o'rni (2), ularda ishlatiladigan tinish belgilari (3), o'qish va ijro etish texnikasini (4) bilishi zarur. Testni bajarishda o'rganilgan bilimlar bilan birga o'zlashtirilgan juda ko'p faoliyat usullari (undalmalarni shaxsga (1), narsalarga (2) qaratib gap tuza olish, ularni gapning boshi (3), o'rtasi (4), oxirida (5) qatnashadir gap tuza bilish, undash-chaqirish ohangi bilan ijro eta olish (6), gapning boshi (7), o'rtasi (8), oxirida (9) kelgan undalmalarda tinish belgilarini qo'llash) ishtirot etadi. Bulardan ko'rindaniki, so'z-etalonlar bo'yicha tuzilgan testlarda o'quv materiallarini o'zlashtirishning II darajasi hisobga olinib, ular faoliyatga yo'naladi. Bu testning asosiy maqsadi — bosh o'quv maqsadi bolalarning undalmalarni nutqda to'g'ri qo'llashga oid faoliyatlarini (qobiliyatlarini) sinash (tekshirish)dir. Test ko'p maqsadli va ko'p topshiriqli vazifadir. Bu testni bajarishda ikki xil holatni kuzatamiz:  
 a) nuqtalar o'rniga qo'yiladigan so'z — etalonlarning o'rnini almashtirish, masalan, «a» punktiga oid javobni (kimga va nimaga qaratilganini) «d» punktiga doir javob (undalmalarda ishlatiladigan tinish belgilari) bilan almashtirish. Bu xavfli emas. Zero, o'quvchining vazifasi to'rtta so'z-etalonni eslab topishdir; b) ikkinchi holat xavfli. Chunki o'quvchi bilmaganligi, esdan chiqarganligi tufayli bir yoki undan o'tiq so'z — etalonni qo'llay olmaydi. Binobarin, bunday o'quvchining (bolalarning) bilimi, faoliyati taraqqiyoti o'zlashtirishning II darajasi talablariga javob bera olmaydi. Xuddi shu yerda, ta'limning borishiga qo'shimcha, o'zgartirish, tuzatishlar

kiritildi. Ta'limga kiritiladigan tuzatishlar quyidagalardan iborat.

O'zlashtirishning II darajasida bilim va faoliyat usullarini egallab olgan o'quvchilar o'qish-o'rganishning III darajasi — tushuncha darajasida o'zlashtirish bosqichiga ko'chib, ish boshlashadi. Ularga beriladigan topshiriqlar ham qiyinlashtiriladi, ham murakkablashtiriladi.

O'zlashtirishning II darajasiga ko'tarila olmagan o'quvchilar uchun «oldingi ta'lim» qo'shimcha, tuzatishlar bilan yana bir bor takrorlanadi. Ta'lim bolalarning o'zlashtirish darajasiga qarab, uni takrorlash, takroriy qurish ta'lim texnologiyasining o'zigagina xos xususiyat bo'lib, o'quvchilarning barchasi to'liq o'zlashtirishga yetib kelmaguncha ta'lim qayta-qayta takrorlanadi.

Yuqoridaagi ikki abzatsni yana bir bor o'qib, quyidagi tezisni esda olib qolish zarur: ta'limni qayta qurish to'liq o'zlashtirish talabiga bog'liq bo'lib, u differensial ta'limga ehtiyojni yuzaga keltiradi, sind jamoasini o'zlashtirish darajasiga qarab guruhlarga tabaqa lashtirishni taqozo qiladi.

Ta'limda doim bir xil shakldagi testlardan foydalanish o'quvchilarni zeriktiradi. Demak, o'zlashtirish darajasiga qarab, testning tuzilishini ham o'zgartirishga ehtiyoj tug'iladi. Shu maqsadda o'zlashtirishning ikkinchi darajasiga mo'ljallangan konstruktiv testdan ham foydalansa bo'ladi.

#### *O'zlashtirishning II darajasiga mo'ljallangan konstruktiv test*

**Savol:** Undalma deb nimaga aytildi?

**Javob:** Undalma deb so'zlovchining nutqi qaratilgan . . . va . . . ifodalagan so'z, so'z birikmalariga aytildi.

O'zlashtirishning III darajasidagi (tushuncha darajasidagi) testlar qiymati jihatidan etalonga teng bo'ladi. Unda o'quvchining umumiy o'quv maqsadi, oraliq maqsadlar va ularga oid topshiriqlar aks etadi. Shuni hisobga olib, ayrim

mutaxassislar testni etalondan katta, ba'zi birlari esa test va etalonni o'zaro teng deb qarashadi. Aslida esa etalon va testning quyidagi farqlari bor: etalon ta'lidan ko'zlangan maqsadga qarab borish namunasi, test esa erishilgan natijani o'lhash vositasi; test asosida etalon emas, aksincha, tanlangan etalon asosida testlar tuziladi; etalonda o'quv maqsadlarining umumiysidan xususiy ko'rinishlariga qarab borilsa, testda xususiy maqsadlar bo'yicha erishilgan natijalarini tekshirish yo'li bilan umumiy o'quv maqsadlariga erishish natijasi baholanadi. Binobarin, etalon va test bir narsa emas. Bu birinchi. Ikkinchidan, etalon natijaning namunasi, test esa natijani o'lhash omili.

O'zlashtirishning III darajasi uchun tuzilgan testlar mohiyati jihatidan ikki turli bo'ladi: o'quvchilarining qayta eslash (1) va ijodiy faoliyatlariga (2) mo'ljallab tuzilgan testlar. Bu xil testlarning birinchisi bilimlarni sinash, ikkinchisi esa faoliyatning taraqqiyot darajasini sinash vositasi hisoblanadi.

### *O'zlashtirishning III darajasida bilimlarni sinashga oid test*

Berilgan gapda undalmani topib, jadvalni to'ldiring.

Aziz farzandlarim Vatanning har bir qarich yerini kindik qoningiz to'kilgan go'sha deb anglang!

Sodda undalma	Murakkab undalma	Shaxsga qaratilgan undalma	Narsaga qaratilgan undalma	Undalmadan keyin qo'yildigan tinish belgilarning o'zini qayd eting	Undalmaning o'rni		
					Gapning boshibda	O'tasida	Oxirida
							Undahali gapning egasini topib yozing

Test uch xil ishora bilan bajariladi: plyus (+), vergul qo'yish, egani so'z bilan yozish. Uning yordamida

undalmaga oid o‘quv elementidan 7 tasi sinaladi. Topshiriqning bajarilishi quyidagicha ko‘rinishni oladi.

	+	.	+		,	+			Siz
--	---	---	---	--	---	---	--	--	-----

O‘zlashtirishning III darajasida faoliyat taraqqiyotini sinashga oid test

Ona tilidan nashr etilgan darsliklarning birida «undalma»ga shunday ta’rif berilgan: so‘zlovchining nutqi qaratilgan shaxsni bildirgan so‘z undalma deyiladi.

Berilgan gaplarni o‘qib, undalmalarni toping. Undalmalarning shaxs va narsaga (kimga va nimaga) qaratilganligini, ularning so‘z, so‘z birikmasi ekanligini kuzating.

Aziz o‘quvchilar bog‘u rog‘lar, tog‘u toshlar, irmoqlaru daryolar, toshloqu qumloqlar, cho‘llaru sahrolardan iborat shu o‘lka — ona Vatanimiz ekanligini unutmang!

To‘xta Oy bunchalar sen xushchiroy!

Muallifning kamchiligini tuzatib, o‘zingiz chiqargan xulosani berilgan to‘rtburchakka yozing.

Bunday testni o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning III darajasiga ko‘tarilgan, ijodiy faoliyati rivojlangan, tanqidiy fikrlay oladigan o‘quvchilargina bajara oladi.

O‘zlashtirishning III darajasida ham test nazorati natijasiga ko‘ra, ta’limni davom ettirishga to‘g‘ri keladi. O‘qituvchi ta’limga tuzatish, o‘zgartish, qo‘srimchalarni kiritib, uni yana bir bor tashkil etadi. O‘quv materiallarini III darajadan past o‘zlashtirgan o‘quvchilar uchun tuzatilgan, qo‘srimchalar kiritilgan shaklda yana bir bor tashkil etishni bu yerda va bundan keyin «takroriy ta’lim» iborasi bilan yuritamiz. Zero, takroriy ta’limda ham oldin ishlab chiqilgan maqsadlar, ko‘zlangan natijalar, tayyorlangan etalon, testlar saqlanib qoladi. Takroriy ta’limda quyidagi variantlardan birortasi asosida o‘quv-tarbiya ishlari davom ettiriladi.

**1-variant.** O‘quv materiallari, faoliyat usullarini o‘zlashtirishning III darajasida egallab olgan o‘quvchilarga mavzular yuzasidan o‘ta murakkab topshiriqlarni bajartirish, nisbatan past o‘zlashtirgan o‘quvchilar bilan takroriy ta’lim asosida ishlash. Takroriy ta’lim etalon talablariga ko‘ra tashkil etilganini o‘quvchilar sezsin. Aks holda, ayrim o‘quvchilar o‘z shaxsiyatlari «kamsitilayotganday» his qilishlari mumkin. Bu takroriy ta’limning affektiv nuqtai nazari — aspektidir. Shuningdek, takroriy ta’limning DTS (davlat ta’lim standartlari) darajasida bo‘lishi lozimligini ham unutmaslik kerak. Bunda qator yo‘llardan foydalanish mumkin: a) ta’limni jadallashtirgan tempda tashkil etish va tejalgan o‘quv soatlari hisobiga takroriy ta’limni tashkil etish; b) o‘quv predmetiga ajratilgan qo‘srimcha o‘quv soatlari hisobidan ta’limni takrorlash; d) o‘qituvchining o‘z xohishi, xizmat burchiga sadoqatiga ko‘ra, qo‘srimcha vaqt ajratib, takroriy ta’limni o‘tkazish; e) ota-onalar bilan tuzilgan bitim bo‘yicha takroriy ta’limni olib borish.

1-variantda takroriy ta’limni tashkil etishning 4-yo‘li («g» punkt) qator munozaralarga sabab bo‘lishi mumkin: avvalo, past o‘zlashtirish o‘quvchining o‘ziga (diqqat, irodani to‘plab qunt bilan o‘qimaslik), ota-onalarga (bolalarning o‘quv ishlarini doimiy kuzatib turmaslik, mustaqil o‘qish, uy vazifalarini bajarish uchun sharoit yaratib bermaslik), qolaversa, o‘qituvchiga (vijdonan dars o‘tmaslik, o‘quv yilining boshida diagnostik tashxisni bo‘sh o‘tkazish), bolaning shaxsiy hayotida yuz bergen yangilikka (bolalarning befoyda, hatto zararli bo‘lgan ishlar bilan band bo‘lishi, bir-birini sevib qolishlari ham mumkin) bog‘liq. Bolaning o‘zi, ota-onasi o‘zlashtirishda past natijaga erishishga sabab bo‘lishsa, bitim asosida takroriy ta’limni tashkil etish mumkin. Buning ikki xil ahamiyati bor: ijtimoiy qimmat — o‘quvchi, uning ota-onasi bilimlarni DTS doirasida o‘zlashtirish zarurligini anglaydi; iqtisodiy qimmat

— o'qituvchining darsdan tashqari mablag'i yo'q. Bitimga ko'ra, ota-onalar to'lovi o'qituvchi uchun qo'shimcha daromad bo'la oladi.

**2-variant.** O'quv materiali, faoliyat usullarini o'zlash-tirishda III darajaga ko'tarilgan (erishgan) o'quvchilarini vaqtincha (mukofot-rag'barlantirish maqsadida) darsdan ozod qilib, bilimlarni nisbatan past o'zlashtirgan o'quvchilar bilan takroriy ta'limni tashkil etish. Bu variantda ham takroriy ta'lim yakunlangach, o'quvchilar test sinovidan o'tkaziladi.

**3-variant.** O'quv materiallarini to'liq o'zlashtirgan o'quvchilarini nisbatan past o'zlashtirgan bir yoki bir necha o'quvchiga repititor qilib tayinlash. Repititor o'quvchilar o'z o'rtoqlarining o'zlashtirishda III darajaga ko'tarilishlariga ko'maklashadi. Bu o'quvchilar o'rtasida do'stlik, hamkorlikni mustahkamlaydi. Takroriy ta'lim bo'yicha yetarli mashq qilingach, repititor o'quvchilarining taklifiga ko'ra, qayta test sinovi o'tkaziladi.

**4-variant.** Bo'lim yoki o'quv materiallarini III darajadan past o'zlashtirgan o'quvchilarga qo'shimcha uy topshiriqlari berish, uy topshiriqlarining bajarilishini individual tekshirish, so'ngra test sinovidan o'tkazish.

## 7-fasl. Reyting nazorati

Respublikamizning oliy o'quv yurtlari reyting<sup>33</sup> nazorati tizimiga o'tib olganiga ancha bo'ldi. Endigi vazifa talabalarning bilimlarini reyting asosida tekshirishning yutuq va kamchiliklarini tahlil etish, jahon andazalariga mos keladigan reyting tizimini ishlab chiqishdan iborat. O'rta umumta'lim maktablariga reyting nazorati endigina kirib kelmoqda, uning ayrim elementlari ilg'or, ijodkor o'qituvchilar faoliyatida ko'rina boshladi. Bu sohadagi

<sup>33</sup> «Reyting» inglizcha so'z bo'lib, baholash, tartib, tasnif degan ma'nolarni ifodalaydi.

dolzarb muammo adashmasdan, chalkashliklarga yo'l qo'ymasdan, mavjud tajribalarni umumlashtirib, maktab reyting tizimini har tomonlama, tubdan asoslashdir. O'qituvchi shuni unutmasligi kerakki, ilmiy asoslangan reyting nazorati ta'lim texnologiyasi va uning bosh g'oyasi — o'quv predmetlarini to'liq o'zlashtirish taktikasi real amal qilgan paytdagina, o'quvchilar o'zlashtirishining xolisona baholash omili bo'la oladi.

Reyting ta'lim nuqtai nazaridan o'quvchilar o'zlashtirishini baholash shkalalarini aniqlashdan boshlanadi. O'rganilayotgan mavzu yoki bo'lim bo'yicha ajratilgan o'quv elementlarini o'zlashtirishga oid ballar shunday o'lchov vazifasini bajaradi. An'anaviy baholash tajribasida esa shunday o'lchov vazifasini 1,2,3,4,5 raqamlari tizimi o'taydi. Baholash o'lchovlari o'rganilayotgan obyektlar — o'quv elementlari majmuini ularning barchasi uchun umumiylashtirishga (maqsadga) taqsimlash imkoniyatini beradigan usuldir.

Bu ta'rifni «Undalmalarni o'zlashtirish» matnida tahlil qilamiz: undalma bo'yicha o'rganiladigan obyektlar (o'quv elementlari) o'nta; shu o'n o'quv elementi uchun umumiylashtirishga (asosiy o'quv maqsadi) bitta — «undalmalarni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri qo'llashni o'rganish». Demak,

$$\text{Und.o'zl.} = \frac{\text{O'quv elementi}}{\text{Asosiy o'quv maqsadi}} = \frac{10}{1} = 10$$

Formuladan ko'rindaniki, o'quvchilar undalmaga oid o'quv elementlarining barchasini o'rganish orqali to'liq o'zlashtirishga yetib kelishadi. Boshqacha aytganda, har bir o'quv elementi o'quvchi faoliyatida o'rtacha 10 martadan takrorlanganda to'liq o'zlashtirishga erishiladi.

Endi har bir o'quv elementini o'rganish me'yorlarini aniqlashga o'tamiz. Buning uchun «Undalma»larga oid birinchi o'quv elementini keltiramiz —»undalmalarga mustaqil ta'rif berish». Qo'shtirnoqqa olingen maqsad ijodiy faoliyatga oid topshiriq asosida amalga oshiriladigan ish bo'lib, unga erishish undalmalarni to'liq o'zlashtirishga tomon qo'yilgan birinchi qadam, xolos. O'quvchi shunday qadamlardan o'ntasini ongli qo'ya olsa, undalmalarni to'liq o'zlashtirishi mumkin. Har bir o'quv elementini o'zlashtirishning o'ziga xos shartlari mavjud. «Undalmalarga mustaqil ta'rif berish» eng kamida ikki shartga bog'liq: undalmalarning shaxsga (1-shart), narsalarga (2-shart) qaratilishini fahmlash. Shu shartlarga rioya qilingan holda o'quvchilar undalmaga ta'rif bera oladi. O'quvchilar chiqargan xulosa — ta'lim natijasi.

Ta'linda u yoki bu natijaga erishish uchun bolalar oraliq maqsadlar, ularga oid topshiriqlarni bajarishadi. Har bir topshiriqni bajarish paytida o'quvchilar ikki yoki undan ortiq maqsad-harakatlarni ijro etishadi. Masalan, murakkab undalmalarni bilish ularni matn tarkibida kuzatish (1), berilgan (tayanch) so'z birikmasi ishtirokida nutq (gap) tuzish (2), murakkab (so'z birikmasi) shakldagi undalmani bir so'z shaklidagi undalmaga taqqoslash (3), matndan so'z birikmasi bilan ifodalangan undalmali gaplarni tanlab yozish (4) kabi to'rt xil harakat bilan amalga oshirildi deb tasavvur qiling. O'quvchi har bir o'quv elementini o'zlashtirishga o'rtacha to'rttadan harakat sarflasa, undalmalarni to'liq o'zlashtirish quyidagicha ko'rinishni oladi.

$$\text{Und. to'liq o'zl.} = \frac{\text{O'quv elementi} \times \text{harakatlar}}{\text{Asosiy o'quv maqsadi}} = \frac{10 \times 4}{10 \times 4} = 1$$

ENDI

1 bola o'zlashtirishidagi eng yuqori cho'qqi — a'lo o'zlashtirish demakdir.

Shuni unutmaslik kerakki, ta’lim etaloni o’zlashtirishning barcha pillapoyalarida erishilgan natija(lar)ni anglash, o’lchash, taqqoslash, ta’limning borishiga o’zgartirish, tuzatish kiritish, o’quvchilar faoliyatini optimal takrorlashning o’lchov toshidir. Ilmiy-pedagogik asoslangan ta’lim etaloni bo’lmagan joyda ta’lim texnologiyasi to‘g’risida ham, reyting nazorati haqida ham gapirish «aravani quruq olib yurishga» o’xshaydi. Ta’lim etaloni ta’lim texnologiyasini qo‘llab erishilgan natijalarni qo‘yilgan maqsad(lar)ga taqqoslashning o’lchov toshi bo’lsa, reyting ta’limning har bir bosqichida erishilgan natijalarni sinashga oid vositalar, usullar majmuidir. Binobarin, ta’lim etaloni o’zlashtirishning hamma bosqichlarida o’zgarmasdan qoladigan sobit o’lchov vositasi, reyting esa o’zlashtirishning har bir bosqichiga ko‘ra o’zgarib turadigan usullar, vositalardir. Shundan ko‘rinadiki, reyting oldindan puxta o‘ylab tuzilgan ta’lim etaloniga chog‘ishtirilib, umumiy baho chiqariladi. Chiqarilgan umumiy bahoda mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha o’zlashtirilgan bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, o’rganilgan bilimlarga munosabatlar aks etadi. Umumiy o‘quv maqsadini amalga oshirish yo‘li bilan erishilgan natija—undalmalarni og‘zaki va yozma nutqda to‘g’ri qo‘llay olish o‘quvchining faoliyatiga o’tib, shaxsiy sifatlar ansamblidan o‘rin oladi.

Ta’lim etaloni darajasida bilim olish o’zlashtirishning eng yuqori darajasi hisoblanadi. Shu tufayli ta’lim etaloni darajasida o’zlashtirish qator shart-sharoitlarni taqozo etadi.

Ta’lim etaloni darajasida o’qitishning birinchi sharti o’quvchilarning bilim saviyalari, o’qish templari, qobiliyatlariga qarab parallel sinflarga ajratish. Buning uchun, masalan, 4-sinfni tugatgach, o’quv yilining boshida o’quvchilarning bilim, malakalari, real o’quv imkoniyatlarini o’rganish maqsadida diagnostik sinov o’tkaziladi. Test natijasi asosida gomogen<sup>34</sup> sinflar tashkil etiladi. Gomogen

<sup>34</sup> Gomogen — bilim darajalari bir-biriga yaqin, bir xil tempda ishlaydigan o’quvchilar jamoasi.

sinflarda tayyorgarligi bir-biriga nisbatan yaqin bo‘lgan o‘quvchilar jamoasi o‘qiydi.

Bu shartga ko‘ra «5», «4», «3» ga o‘qiydigan o‘quvchilarning gomogen guruhalardan iborat jamoalari-sinflar shakllanadi. Bunday sinflarning o‘quvchilari o‘quv yuklamalari, yumushlarini barobar torta oladi. Ammo bunday gomogen o‘quvchilar guruhalardan iborat sinflarni tashkil etishning qiyinchiliklari ham mavjud. Shunday qiyinchiliklardan biri ota-onalarga daxldor. O‘z bolasining past o‘zlashtiruvchi o‘quvchilar guruhiga birlashtirilganini sezgan oila boshliqlari turli «injinqiliklar» ham qilishlari mumkin. Bunday holatlarda ota-onalar orasida pedagogik tashviqot ishlarini o‘tkazishga, bolalarni gomogen guruhlarga ajratib sinf jamoasini tashkil etish o‘quv predmetlarini to‘liq o‘zlashtirish talabiga ko‘ra amalga oshirilayotganini tushuntirishga ehtiyoj tug‘iladi.

Ta’lim etalonini darajasida o‘qitishni tashkil etishning ikkinchi sharti o‘quvchilar bilan tuzilgan bitimlarga ko‘ra, o‘quv-tarbiya ishlarini tashkil etishdir. Bunday bitimlar har bir o‘quv yilining boshida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasida tuziladi. Sinf o‘quvchilari o‘z xohish-istiklari, real o‘quv imkoniyatlarini har tomonlama o‘ylab, ta’lim etalonini asosida uchga yoki to‘rt va beshga o‘qishga rozilik berishadi. Bunda rioya qilinadigan ikkita shart mavjud: o‘quvchilar kelishilgan bitimga ko‘ra, «3», «4», «5» uchun yetarli ball to‘play olishmasa, har uchala holatda ham «qoniqarsiz» baholanadi; agar bitimga ko‘ra «3» baho bilan o‘qish xohishini bildirgan o‘quvchilar to‘plagan ballar «3»dan yuqori, «4» baho bilan o‘qish xohishini bildirgan o‘quvchilar to‘plagan ballar «4» dan yuqori bo‘lsa, bunday holatlarda ular uchun ta’lim tuzatilgan, to‘ldirilgan shaklda yana bir bor takrorlanadi. Shu yo‘llar bilan o‘quvchilar to‘liq o‘zlashtirishga ko‘tarila boradilar.

O‘tkazilish davri (payti)ga qarab, reyting nazoratining uch ko‘rinishi farqlanadi: **joriy baholash (JB), oraliq**

**baholash (OB), yakuniy baholash (YB).** Nazorat turlari o'zaro uzviy bog'liq, ular bir-birini to'ldiradi. Ularning barchasini birlashtiruvchi narsa—ta'lism etalonidir. Binobarin, nazorat turlarining barchasida erishilgan natijalar o'zlashtirish darajalarini hisobga olgan holda ta'lism etaloniga taqqoslanadi. Bolalar taqqoslash yo'li bilan o'zlarining nimalarni talab darajasida, nimalarni talab darajasidan past o'zlashtirganliklarini ongli his qilishadi, mavzu, bo'lim yuzasidan o'qishni davom ettirish zarurligini payqaydilar. Binobarin, ta'lism texnologiyasida joriy baholash o'quvchini oraliq nazoratga, oraliq nazorat o'z navbatida yakuniy nazoratga yetaklaydi. Amaldagi pedagogik tajribada o'zlashtirish va uning natijasini tekshirish alohida jarayonlar sifatida amal qilsa, ta'lism texnologiyasida reyting nazorati ta'larning o'ziga singib ketadi. Natijada reyting nazoratini tashkil qilmasdan, ta'limi amalga oshirish, o'zlashtirishda olg'a siljish, ta'limi boshqarish mumkin bo'lmay qoladi. O'z-o'zidan reyting ta'lism texnologiyasining tarkibiy qismiga aylanadi.

**Joriy baholash ta'larning obyektiv borishi bilan bog'liq bo'lib, yangi o'quv materiallarini o'rganish va mustah-kamlash, takrorlash va malaka hosil qilish, bilim va malakalarni umumlashtirish jarayonlarida o'tkaziladi.** Shuningdek, uy vazifalari, qo'shimcha topshiriqlar, mustaqil ishlar hamda bolalarning o'z xohish-istiklari bo'yicha qilingan ijodiy ishlar bo'yicha joriy baholash uchun ballar to'planadi. Qanaqa usul hamda vosita bilan ball to'planmasin, u ishlab chiqilgan ta'lism etalonida ko'zda tutilgan me'yorlarga zid bo'lmasligi lozim.

**Joriy baholash uchun to'planadigan ballar teskari aloqaga asoslangan bo'lib, u o'quvchilarni o'rganishga rag'batlantirish, u yoki bu o'quv materialini, bo'limni o'zlashtirishda o'zlarining qayerga kelib qolganliklarini anglash, mavzu yoki bo'lim bo'yicha o'rganishni davom ettirish zarurligini sezish, o'z kuchiga ishonch, mavzu**

yuzasidan biror ta'rif, aniqlik va qoidani e'tiborsiz qoldirmaslik kabi his tuyg'ularga mo'ljallab olib boriladi. Shu tufayli joriy nazoratda ta'limiylik, shakllantiruvchanlik xususiyatlari ustun bo'ladi. Binobarin, joriy baholash natijalari «4» yoki «5» raqamlari bilan emas, aksincha, mavzu va uning bandlari bo'yicha to'plangan ballar asosida hisobga olinadi. Joriy baholash uchun ballar ham ta'lim etaloni asosida to'plangani tufayli mezoniylari xarakterda bo'ladi.

Joriy baholash ballarini ikki yo'l bilan to'plash mumkin: **ballarni o'qituvchining o'zi to'plashi; ballarni o'quvchilarining o'zlariga to'platish**. Ikkinci yo'l biroz munozarali bo'lsa-da, eng samarali sanaladi. Joriy baholash uchun ball to'plashni o'quvchilarining o'ziga yuklash ularda o'ziga ishonchni, har bir ishni vijdanan bajarish, burchni anglash kabi shaxsiy sifatlarni tarbiyalaydi. Joriy baholash uchun ball to'plashni o'quvchilarining o'ziga yuklash o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq. O'qituvchi o'quv predmeti, uning bo'limi yoki mavzulariga pedagogik ishlov bera olsa, har bir mashg'ulot va o'quv topshiriqlar maqsadini o'quvchilarga aniq yetkazsa, ta'limni eng yuqori o'zlashtirishga yo'naltira bilsa, ta'limni motivlar, tafakkur va xotira-hodisalari ansambliga mo'ljallab tashkil etsa, har bir o'quvchining o'z-o'zini nazorat qilishi uchun vositalar tayyorlasa, ana o'shandagina joriy baholashning samaradorligi oshadi.

O'quvchilarining o'z-o'zini nazorat qilishiga oid vositalardan biri **nazorat xaritasidir**. Nazorat xaritalari o'zlashtirilayotgan o'quv materiallari, uning birliklari — o'quv elementlari asosida tuziladi. Unda o'zlashtirilayotgan o'quv elementlari, ularni o'rganishga oid o'quv maqsadlari, testga aylantirilgan maqsad, testning javobi, to'plangan ballarga mo'ljallangan grafalar bo'ladi. Testga aylantirilgan maqsadlarga qo'yiladigan ball miqdori o'quvchilarga oldindan aytildi, testning yechimi (kaliti) o'qituvchida saqlanadi.

Joriy baholash uchun tuzilgan o‘z-o‘zini nazorat qilish xaritasida o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha nechta o‘quv elementi ajratilgan bo‘lsa, shuncha miqdorda o‘quv-chilarning o‘quv maqsadlari, shuncha miqdordagi testga aylantirilgan maqsadlar bo‘lishi shart. Zero, testga aylantirilgan maqsadlarning javobini tahlil qilish yo‘li bilan har bir o‘quvchining qanday natijaga erishganini aniqlash mumkin. O‘qituvchi shuni unutmasligi kerakki, o‘z-o‘zini nazorat xaritasida keltiriladigan testga aylantirilgan maqsad o‘rganilgan hodisani tanish (masalan, undalmalarni matn tarkibida tanish) darajasida bo‘lishi lozim.

#### O‘z-o‘zini nazorat qilish xaritasi

O‘zlashtiriladigan o‘quv elementlari tartibi	O‘quvchining maqsadi	Testga aylantirilgan maqsad	Testning javobi	Qo‘yilgan ball
3. Predmetlarga qaratilgan undalmalar	Nutqda narsalarga qaratilgan undalmalarni to‘g‘ri ishlatish	Narsalarga qaratilgan undalmali gapni ko‘rsating: A. .... V. .... C. .... D. .... E. ....	....	..

Ta’lim texnologiyasining mакtab amaliyotiga kirib kelishi byurokratizmning bir ko‘rinishi bo‘lmish qog‘ozbozlikning ham avj olishiga sabab bo‘lmoqda. O‘zingiz o‘ylab ko‘ring: NTV (nazorat topshirig‘i varaqasi), KBEV (kamchiliklarni bartaraf etish varaqasi), QTV (qo‘srimcha topshiriqlar varaqasi), O‘MQ (o‘quv-metodik qo‘srimchalar), UVV (uy vazifalari varaqasi), TSV (test savollari varaqasi), JBV (joriy baholash varaqasi), OBV (oraliq baholash varaqasi), YABV (yakuniy baholash varaqasi)ga o‘xshagan varaqalar o‘qituvchini asosiy ishdan —

o‘quvchilarni to‘liq o‘zlashtirishga yetaklashdan chalg‘itmaydimi, ijodiy ishlar uchun vaqt ajratish imkoniyatlarini chalg‘itadi, kamaytiradi!

O‘quv-tarbiya jarayoniga ta’lim texnologiyasi bilan kirib kelayotgan qog‘ozbozlikni bartaraf qilishning yo‘llari ham mavjud. Shunday yo‘llardan biri ta’lim xaritasini tuzishdir.

Joriy baholash ta’limning borishi bilan daxldor bo‘lib, mavzu bo‘yicha axborot to‘plash, to‘plangan axborotlarga dastlabki ishlov berish, o‘rganilgan hodisalarni boshqa hodisalardan farqlash, ularni taniy olish darajasida o‘tkaziladi, testga aylantirilgan maqsadlarning murakkabligi, qiyinligi o‘rganilgan bilimlarga oid hodisalarni tanish darajasida bo‘ladi.

Joriy baholash jarayonida testga aylantirilgan maqsadlar bo‘yicha to‘plangan ballar asosida sinf jamoasi gomogen guruhlarga ajratiladi, guruhlar uchun qiyinligi, murakkabligi hisobga olingan topshiriqlar belgilanadi, ta’limning borishiga qo‘srimcha, tuzatishlar kiritiladi. Bular ta’limni yana bir bor takrorlashni osonlashtiradi, o‘zlashtirishning navbatdagi darajasi — malaka darajasida o‘zlashtirishga imkoniyatlar yaratadi.

Joriy baholash o‘zlashtirishning birinchi darjasи (ko‘nikma darjasи)da, oraliq baholash esa malaka darajasida o‘zlashtirilgan bilimlar asosida o‘tkaziladi. Oraliq baholash mohiyati jihatidan o‘rganilgan axborotlarga ishlov berish jarayoniga to‘g‘ri keladi. O‘quvchilar o‘rganilgan bilimlarga rioya qilib faoliyat ko‘rsatishadi, ularni turli o‘quv va hayotiy holatlarga tatbiq qilishadi, o‘rganilayotgan obyekt(lar)ning yangi-yangi xususiyatlarini kashf etishadi, bilimlarni yangi sharoitlarda sinab ko‘rishadi.

**• Oraliq baholash o‘rganilayotgan mavzu yoki bo‘lim bo‘yicha umumiy xulosalar chiqarish, voqeа-hodisalarni tushuncha darajasida o‘zlashtirish jarayonlarida ham o‘tkaziladi.** Shularga ko‘ra, oraliq baholashda testga aylantirilgan maqsadning murakkablik, qiyinlik darajasi

oshiriladi. Testga aylantirilgan maqsadlarni o'zaro taqqoslab ko'rish uchun oldingi sahifada keltirilgan jadvalni yana bir bor takrorlaymiz.

1	2	Testga aylantirilgan maqsad	4	5
3.	...	Matnda narsalarga qaratilgan undalmalarni qanday tanisiz? A. Ma'nosiga ko'ra B. Kim? so'rog'iga ko'ra C. So'roqqa ko'ra D. Nima? so'rog'iga ko'ra E. Gapdag'i o'rniغا ko'ra		

Joriy baholashga o'xshab oraliq baholash ham ta'limning borishi bilan daxldor, shu sababli ular mashg'ulotlarning tarkibida o'tkaziladi, ularga alohida o'quv soatlari ajratilmasligi kerak. Bu ularning o'xhash tomonlaridir. Ammo oraliq baholashning o'zigagina xos xususiyat mavjud. Taqqoslang: joriy baholash to'liq o'zlashtirishning dastlabki bosqichida (mavzu bo'yicha axborotlar toplash jarayonida) o'tkazilsa, oraliq baholash to'plangan axborotlarga ishlov berish — malaka darajasida o'zlashtirish, shuningdek, mavzu yoki bo'lim bo'yicha umumiylar xulosalar chiqarish—tushuncha darajasida o'zlashtirish bosqichlarida o'tkaziladi. «Oraliq baholash» iborasi uning joriy va yakuniy baholash o'rtasida o'tkazilishiga ishora emas, aksincha, bilimlarni yuqori (standart) darajasida o'zlashtirishga yaqinlashganlikka diqqatni qaratishdir.

Hozirgi, endigina shakllanib kelayotgan ta'lim texnologiyasi amaliyotida joriy va oraliq baholashda uy vazifalari, qo'shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlarni tekshirish orqali o'zlashtirish ballarini toplash moyilligi paydo bo'lyapti. Bu ma'qul tendensiya emas. Bizningcha, uy vazifasi, qo'shimcha topshiriqlar, ijodiy ishlar, konstruktiv yumushlarni

ta’limning tashkiliy shakllari sifatida ajratish, maktabda o’tkaziladigan yumushlarga ilova ishlar deb qarash ma’qulga o’xshaydi. Bunday ishlarning natijasi hisobga olinishi zarur. Haqiqiy reyting testga aylantirilgan maqsadlar asosida o’tkazilsa, baholashning samaradorligi yanada oshadi.

Shu yerda yana bir hodisaga tanqidiy munosabat bildirishni joiz deb topdik. Ta’lim texnologiyasi amaliyotida mavzu yoki bo’lim bo’yicha to’planishi lozim bo’lgan ballarning ko’p miqdori joriy va oraliq baholashga, juda oz miqdordagi ballar yakuniy baholashga to’g’ri kelyapti. Bu unchalik to’g’ri emas. Ish shu yo’sinda ketaversa, eskicha protsentomaniya — foizbozlik o’rniga, yangi «ballomaniya» — ballbozlik paydo bo’lmaydimi? Bu birinchi. Ikkinchidan, joriy va oraliq baholash faqat ball to’plash uchun emas, aksincha, o’quvchilarni ogohlantirish, o’zlashtirishda qayerga kelib qolganlarini ularga tushuntirish, ta’limga tuzatishlar kiritish, uni yana bir bor takrorlash kabi tabaqaqlashgan-differensial ta’limning ehtiyojga aylanganini o’quvchilarga anglatish maqsadlarida o’tkaziladi. Binobarin, joriy va oraliq baholashlarda ta’limiylik ustun bo’ladi.

Yakuniy baholash joriy va oraliq baholashdan butunlay farq qiladi: unga alohida o’quv soati ajratiladi; u o’quvchilar bilim darajasi ta’lim standartlari darajasiga ko’tarilgach o’tkaziladi; unda ta’lim natijasi ta’lim jarayonidan ajratiladi. Ko’rinadiki, yakuniy baholash ta’limning borishi bilan emas, nuqul ta’lim natijasi bilan daxldor hodisadir. Yakuniy baholashda bo’lim yoki mavzu bo’yicha ajratilgan o’quv elementlarining barchasini o’zlashtirish amalga oshirilgan maqsadlarga taqqoslab tahlil etiladi, umumlashtigan test yoki testlar tizimi vositasida natija tekshirilib, baholanadi. Shu tufayli uni «nazorat ustiga qurilgan nazorat» deb qarash joizdir.

## **8-fasl. Ta’limning silsilaviy(sikliy)ligi**

Ta’limning silsilaviyligi (sikliyligi) uni qurish, qayta qurish va ehtiyoj tug‘ilganda uni takroriy qurish imkoniyatini beradi. Shu tufayli, ta’lim sikllarini batafsilroq tavsif etishga harakat qilamiz.

Barcha mehnat jarayonlari sikllarga ajratilgan. Sikllari ajratilgan jarayonlarda mehnat ilmiy asosda boshqariladi, ishlab chiqarish uzlucksiz, konveyer shaklida takrorlanadi. Har bir takrorlashning oxirida moddiy ne’matlar qabul qilingan standart (etalon) darajasida ishlab chiqariladi. Ta’lim jarayonida ham, shubhasiz, shunday imkoniyatlar mavjud. Har qanday mehnat, shu jumladan, ta’lim ham ma’lum makon va zamon (payt)da amalga oshadi. Shunday bo’lgach, ta’lim ham o’z sikllariga ega.

Adabiyotlarda ta’lim jarayoni xususida gap ketganda, «akt», «bosqich» kabi tushunchalar qo’llanadi. Bu yerda shunday savol tug‘iladi: ta’lim jarayoni «aktlari», «bosqichlari» tushunchalari bilan yonma-yon yana bir iborani — «ta’lim jarayoni sikllari» iborasini ishlatishga ehtiyoj bormi? Agar bu tushunchani qo’llash zarurati bolsa, unda ta’lim jarayoni sikllarini ta’lim jarayoni aktlari, bosqichlaridan qanday farq etish kerak?

Bu tushunchalar bir-biridan quyidagicha farq qiladi: akt, bosqich umumiyan, ayni holatda ta’lim jarayoni (umumiyan)dan uning elementlari — akt, bosqichlari (xususiy)ga qarab borish yo’lidir; sikllar esa teskari — xususiy (akt, bosqich)dan umumiya qarab borish yo’li. Akt, bosqichlarni sikllarga birlashtirish ta’limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishni ma’lum darajada osonlashtiradi.

Ta’lim o’qitish va o’qish faoliyatlarining o’zaro ta’siri bo’lib, uning vositasida ta’lim subyektlari bir-birini tushu nadi, daxldor o’zgarishlar yuz beradi. Daxldor o’zgarishlar (o’qituvchi ta’sirida bolalarda, bolalar ta’sirida o’qituvchida yuz beradigan o’zgarishlar) o’zaro ta’sirning

natijasi, o'qitish va o'qish faoliyatlarining bundan keyingi harakatlari uchun zamin sanaladi.

Ta'larning borishida bir akt (harakat) o'zidan oldingi aktning oqibati, uning yakunlanishi esa keyingi aktning sababi shaklida amal qiladi. Har bir aktning oxirida ma'lum bir natijaga erishiladi. Bu natija (uni mikronatija deb belgilaymiz) o'quvchida yuz bergen miqdoriy o'zgarishlardir. Ta'linda miqdoriy o'zgarishlardan sifat o'zgarishlariga o'tiladi. Bu ta'larning sikliy harakatidir. Sikl — ta'larning ma'lum aktlari majmui, mikronatijalarining yakunidir. Sikllar o'rtasida vaqtli intervallar **bor**. Bir intervaldan ikkinchisiga harakat — o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siridagi yangi holat, sifat o'zgarishdir. Har bir siklda erishilgan natijani makronatija deb belgilaymiz. Makronatijalar ta'larning borishida o'quvchilar bilimida yuz bergen sifat o'zgarishlaridir.

Ta'larning sikllarini asoslash va ajratish o'Ichovlari uchta: maqsad, vosita, natija .

Maqsad oldindan anglangan, rejalashtirilgan natija bo'lib, unga erishish ongli yo'nalgan faoliyatni talab etadi.

Maqsad va maqsadga muvofiq faoliyat bir jarayonning (oldindan belgilangan natijaga erishish jaray onining) elementlari sanaladi. Amalga oshgan maqsad natijaga, erishilgan natija esa yangi-yangi maqsadlarni amalga oshirish vositasiga aylanadi.

Ta'lim maqsadi haqida gap ketganda uning besh darajasini va shu darajalarga muvofiq besh xil ko'rinishni qayd etishga to'g'ri keladi: jamiyat darajasida — barkamol insonni tarbiyalash; ta'lim darajasida — ta'larning yaqin didaktik maqsadi; o'qituvchi faoliyat darajasida — ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etish maqsadi; o'quvchi faoliyati darajasida — bolalarning umumiy bosh oraliq, harakatga teng o'quv maqsadlari.

An'anaviy pedagogik nazariya va unga oid pedagogik amaliyotda o'qituvchi maqsadidan umumiy maqsadga —

barkamol insonni tarbiyalash maqsadiga qarab boriladi. O'quvchining ta'lif jarayonidagi maqsadi e'tiborsiz qoldiriladi yoki o'qituvchi maqsadidan kelib chiqib, bolalarning o'quv maqsadlarini konkretlashtirishga harakat qilinadi.

Ta'lif texnologiyasida bolalarning o'quv maqsadlaridan o'qituvchining maqsadiga, uni amalga oshirish orqali ta'lifning yaqin didaktik maqsadlariga qarab boriladi. Bolalarning o'quv maqsadlari ta'lifning sikliyligi, sikllarning shakllanishini belgilovchi asosiy o'chovlardir. Ta'lifni amalga oshirishga oid o'quv maqsadlari tizimini chizma tarzida ko'rsatamiz.

### O'quvchilarning o'quv maqsadlari tizimi

O'quvchilarning umumiy (bosh) o'quv maqsadi



Oraliq maqsadlar



Harakatga teng maqsadlar

Chizmadan ko'rindiki, bola uchun o'qish, o'rganish harakatga teng maqsadlarni amalga oshirishdan boshlanadi. Binobarin, ta'lif sikliylining ham, ta'lif texnologiyasining ham boshlang'ich (ilk) nuqtasi harakatga teng maqsadlaridir.

An'anaviy ta'lif nazariyasida ko'rgazma qurollar, tarqatmalar, texnik qurilmalar, kompyuter xotirasiga joylashtirilgan axborot, testlar ta'lif vositasi sifatida sharhlanadi. Bu o'qituvchi nuqtai nazaridan to'g'ri, xolos. Ammo bu narsalarning deyarli barchasi (hatto o'qituv-

ching nutqi ham) o'quvchi uchun ta'lif manbai rolini bajaradi. O'quvchi uchun vositalar uning o'zida. Bu fikrni tushunish uchun rim raqamlari bilan belgilangan quyidagi 3 ta abzatsni diqqat bilan o'qib chiqamiz. Misol tariqasida murakkab undalmani o'zlashtirish maqsadlari, vositalarini keltiramiz.

**I. Harakatga teng maqsadlar va ularga oid vositalar:** matndan murakkab undalmali gapni ajratib yozish — maqsad; ajratib yozish usuli — vosita (a); so'z birikmasi ishtirokida murakkab undalmali gap tuzish — maqsad; gap tuzish harakati — vosita (b); murakkab undalmaning shaxsga yoki narsaga qaratilganini aniqlash — maqsad; kuzatish va tahlil qilish harakatlari — vosita (d); murakkab undalmani gapning boshi, o'rtasi, oxirida ishtirok ettirib gap tuzish — maqsad; uch holatga rioxalish qilib harakat qilish — vosita (e); murakkab undalmalarda tinish belgilarni ishlatalishni bilish — maqsad; tinish belgilarni ishlatalish — vosita (f). Ko'rinaridiki, harakatga teng maqsadlarning har biriga ma'lum bir vosita to'g'ri keladi. Bu vositalar o'quvchilarning o'zida. Shu vositalarni o'quvchi qancha ongli, to'g'ri tanlay olsa, u o'z oldiga qo'yilgan topshiriqlarni shuncha samarali bajaradi. Bundan kelib chiqadigan xulosa shuki, ta'lif texnologiyasi o'quvchilarga bilim berish bilan birga, ularga o'qiy olish (mustaqil bilim olish) usullarini ham o'rgatishni taqozo etadi.


**II. Oraliq maqsadlar va ularga oid vositalar:** murakkab undalmalarga oid bilimlarni o'rganish — maqsad, mustaqil o'qish usuli — vosita (1); murakkab undalmani matnda tanish — maqsad, kuzatish, ajratish usullari — vosita (2); murakkab undalmani sodda undalmadan farqlash — maqsad, murakkab va sodda undalmalarni taqqoslash — vosita (3); murakkab undalmalarni nutq amaliyotiga tatbiq etish — maqsad, murakkab undalmaga oid bilimlarni esga tushirish va o'quv holatlarida qo'llash — vosita (4).

Oraliq maqsadlar va ularga oid vositalar mazmun jihatidan boy bo'lib, topshiriqqa teng bo'ladi. Topshiriqlarni bajarishda esa motivlar, tafakkur, oldin o'rganilgan bilimlar, binobarin, xotira, aqliy faoliyat usullari kompleksi ishtirok etadi.

**III. Umumiy bosh o'quv maqsadi va unga oid vosita:** murakkab undalmalarni nutqda to'g'ri qo'llash — maqsad. Bolalarning o'quv maqsadlarini tahlil etishning bu darajasida vosita izlanmaydi. Zero, bu maqsad erishilgan natijaning o'zidir. Harakatga teng maqsadlar va ularga oid vositalar, oraliq maqsadlar va ularga oid vositalar ta'limdan ko'zlangan natijaga olib keladi.

### O'qituvchining natijaga erishishi

#### Bosh maqsad




O'quvchi bitta oraliq maqsadga erishish uchun qator vositalarni ishlatib, harakatga teng maqsadlarni amalga oshiradi.

Ta'lim texnologiyasida o'quvchilarga o'z maqsadlarini yetkazish, vositalarni oydinlashtirish o'qituvchining asosiy

vazifalaridan biridir. Bunda o‘zaro daxldor ikki hodisani farqlashga to‘g‘ri keladi: o‘quv maqsadlarini qo‘yish — bu jarayon umumiy o‘quv maqsadidan boshlanib, harakatga teng maqsadlarni izohlashni o‘z ichiga oladi. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar o‘z maqsadlarini anglashadi; o‘quv maqsadlarini tushuntirish — bu jarayon harakatga teng maqsadlardan oraliq maqsadlarga, ulardan umumiy bosh o‘quv maqsadiga tomon harakat. Shu yo‘l bilan o‘quvchilar o‘z maqsadlarini tushunishadi. Keyingi holatda o‘quv maqsadlarini bevosita amalga oshirish ham o‘z aksini topadi.

### O‘quv maqsadlarini qo‘yish va tushuntirish tartibi



O‘quv maqsadlarini tushuntirish va real amalga oshirish tartibi bir xil. Ikkalasida ham ish harakatga teng maqsadlardan boshlanadi.


Harakatga teng maqsadlar va ularga oid vositalar yagona ansamblga birlashib, murakkab undalmalarini anglashga olib keladi. Anglash, tushunish uchun qo‘yilgan dastlabki qadamdir. Anglash, tushunish, nutqda qo‘llash yo‘li bilan bolalarda ko‘nikma shakllana boshlaydi. Bu birinchi rang (rang-daraja ma’nosida) natijadir.

Agar yuqoridagilarni diqqat bilan o‘qib chiqqan bo‘lsangiz, o‘quvchilarning «o‘qish faoliyati» modul xarakterini olganini sezasiz. Modul xarakterini olgan faoliyatning natijasini etalon vositasida o‘lchash mumkin. Bunday faoliyat o‘zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko‘tarila oladi, standartlashadi, umumiy qurilishga ega bo‘ladi. Shularga muvofiq uni takroriy tashkil etish, unga tuzatish kiritish, tuzatish va

qo‘shimchalardan keyin yana bir bor takrorlash imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Modul xarakterini olgan o‘quvchi faoliyati o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning har bir darajasida yangi sifatlarga o‘tib, to‘liq o‘zlashtirishga olib keladi. O‘quvchi faoliyatidagi ana shu sifat o‘zgarishlariga qarab, malaka darajasidagi o‘zlashtirishni ko‘nikma darajasidagi yoki tushuncha darajasidagi o‘zlashtirishdan farqlaymiz.

Ta’lim natijasiga qarab, ta’lim texnologiyasi asosida, o‘quv-tarbiya jarayonini amalga oshirishning quyidagi chizmada berilgan bloklarni ajratish imkoniyatlari oshadi.



O‘quv materiallarini o‘zlashtirish darajalari va o‘quv materiallarini turli bloklarda to‘liq o‘zlashtirish quyidagi jadvalda ko‘rsatildi.

### **Ta’lim natijalari**

O‘zlashtirish darajalari	Ta’lim natijalari
III	Tushuncha darajasidagi bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar
II	Malaka darajasidagi bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar
I	Ko‘nikma darajasidagi bilim, malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar

O‘zlashtirishning eng yuqori darajasida erishilgan natija qabul qilingan standartga teng bo‘lib, quyidagi sifatlarga ega.

*Bilish* — ta’rif, qoida, aniqliklarni, termin va dalillarni, asosiy tushunchalar, usullar, prinsiplarni egallash.

*Tushunish* — o‘z fikrlarini dalillar bilan tasdiqlash, turli chizma, jadval, diagramma, formulalar tuza olish.

*Tatbiq etish* — tushuncha, dalillarni yangi o‘quv va hayotiy holatlarda ishlata olish, masalalarni zudlik bilan bajarish, usul va prinsiplardan ongli foydalanish.

*Baholash* — o‘zining va o‘zgalarning faoliyatini baholash, o‘rganilgan, o‘qilgan bilimlarga munosabat bildirish, tanqidiy baholay olish.

Ta’limning maqsadi, vositasi, natijasini hisobga olib, uning to‘rtta sikli ajratiladi.

**Dastlabki sikl.** Bu siklda mavzuning umumiy qurilishi va uni amaliyotga tatbiq etish usullari egallanadi. Unda yangi bilimlarni o‘rganish va dastlabki mustahkamlash ketma-ket o‘tkaziladi. O‘quvchilar oldiga qo‘yiladigan maqsadlar: mavzuning asosiy g‘oyasi va amaliy faoliyat uchun ahamiyatini anglash, tushunish (1); o‘rganilayotgan obyektning asosiy xususiyatlarini ajratish va idrok etish (2); o‘quv materialini aytib berish va uni amaliyotga tatbiq etish usullarini egallah (3). Bu maqsadlarga erishish uchun ta’lim uch xil bosqich ko‘rinishida amal qiladi: bolalarni yangi o‘quv materialini o‘rganishga tayyorlash; yangi bilimlarni idrok etish; idrok etilgan bilimlarni mustahkamlash. Bilimlarni o‘z so‘zлari bilan aytib bera olish, o‘z fikrlarini dalillar bilan isbotlash, tipik topshiriqlarni bajarish ta’lim jarayoni natijasi ko‘rsatkichlari sanaladi.

**Ikkinchи sikl.** Bu o‘quv materialining umumiy qurilishini va uni amaliyotga tatbiq etish usullarini takrorlashni o‘z ichiga oladi. Bilimlarni turli o‘quv holatlarida sinab ko‘rish natijasida o‘rganilgan bilimlar yanada konkretlashadi, malakalar yanada rivojlanadi, bilimlarning ko‘lami kengayadi, ulardan amaliyotda foydalanish imkoniyatlari oshadi.

Ikkinchи siklda o‘quvchilar oldiga o‘rganilgan mavzu doirasida dalil to‘plash, dalillarni tahlil qilish, bilimlarni yangi-yangi o‘quv sharoitlariga tatbiq etish kabi o‘quv maqsadlari qo‘yiladi. Bu xil maqsadlar amalga oshgan sari bilimlar abstraktlikdan konkretlikka ko‘tarila boradi.

**Uchinchi sikl.** Bunda bilim va malakalar tizimga solinadi, mavzu yuzasidan umumlashgan xulosalar chiqariladi.

**Yakunlovchi sikl.** Bunda bolalarning bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi sinovdan o'tkazilib, mavzu yoki bo'limni to'liq o'zlashtirishga oid xulosalar chiqariladi.

Ta'limgarayoni sikllari bir-biridan farq qiladi. Ulardan istalgan o'quv predmetini o'qitishda foydalilanadi. Har bir siklda o'r ganilayotgan bilim, hosil qilinayotgan malakalarning yangi sifatlari ajralib turadi. Bu o'quv materiallari ustida o'qituvchi va o'quvchilarining bajaradigan ishlari mazmunini aniqlash imkoniyatini beradi. Maqsad, vosita, natija oldingi sikldan keyingisiga o'tish, erishilgan natijalarini sinash, ta'limni takroriy qurish uchun o'lchov toshlari vazifasini o'taydi. Sinf jamoasining, shuningdek, har bir o'quvchining sikldan siklga o'tishi o'quv maqsadlarining amalga oshishi erishilgan natijaga ko'ra belgilanadi. O'quvchining bilimi, malakasi, ijodiy faoliyat tajribasi, o'r ganilayotgan bilimlarga munosabati sikldan siklga o'tgan sari rivojlanadi, konkretlashadi. Ta'limgarayoni sikllari spiralga o'xshaydi. Uning har bir aylanasida ta'limning maqsadi, vositasi, natijasi o'z aksini topadi.

Ta'limgarayoni — bu boshlang'ich nuqtaga rivojlangan holda qaytib kelish va yanada rivojlanish uchun undan uzoqlashishidir. Sikliylik ta'limni tasavvur etish, qurish, tuzatish kiritib uni takrorlash, natijalarini sinab ko'rishni osonlash-tiradi.

Ta'limgarayoni texnologiyasi sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan amerikalik olimlar E.Torndayk, B.Skiner, D.Kremning asarlarida ta'limning sikliyligiga rioxal qilib, uni tashkil etishga doir qator qoidalar ishlab chiqilgan: 1) zudlik bilan «ta'limgarayoni» bilish qoidasi-joriy nazorat paytida erishilgan natijani o'quvchilarga tezlik bilan yetkazish, ularni o'zlashtirish darajasi bilan tanishtirish; o'qish o'r ganishda ularning qayerga kelib qolganliklaridan ogohlantirish; 2) «teng qiymatli» amaliyot qoidasi — ta'limgarayoni.

tashkil etilgan shart-sharoitga, o‘quvchi ko‘rsatgan faoliyatga test sinovi paytidagi shart-sharoitning, faoliyatning bab-baravar, bir xil bo‘lishi; 3) bir-biriga monand (o‘xshash), ammo teng bo‘lmagan o‘quv holatlarida mashq qildirish qoidasi — oldingi o‘quv holatida o‘tkazilgan mashqni unga o‘xshagan, ammo teng bo‘lmagan ikkinchi holatda takrorlash; 4) ijobiy rag‘batlantirish qoidasi — o‘qiganingda bilar eding, bajarishga (yechishga) yana bir marta harakat qil; qoida (ta’rif)ni yana bir marta o‘qib chiqsang, masalani o‘zing mustaqil yecha olasan. Bu qoidaga ko‘ra, o‘quvchilarning xatolari tanqid qilinmaydi, aksincha, rag‘batlantiruvchi maslahatlar beriladi.

Yuqoridagi qoidalardan foydalanish, shubhasiz, ta’lim samaradorligining oshishiga olib keladi. Ammo ularda bitta asosiy kamchilik bor: bu qoidalarn noijodiy ta’limga, binobarin, o‘quvchilar xotirasiga mo‘ljallab tuzilgan. Shu tufayli, ular ta’limni ijodiy tashkil etish talablariga javob bera olmaydi. Ta’lim texnologiyasi xususiyatlarini nazarda tutib, yuqoridagi qoidalarni quyidagi talablar bilan to‘ldiramiz: 1) ta’limni o‘quvchilarning ijodiy va qayta xotirlash faoliyatini optimal qo‘shib tashkil etish — ta’lim texnologiyasida xotiradan boshlangan faoliyat ijod bilan, ijod bilan boshlangan faoliyat qayta xotirlash bilan yakunlanishi lozim. Ijodiy va noijodiy ishlarning nisbati 50 : 50% bo‘lishi ta’limning samaradorligini oshiradi; 2) sikllarga mos ta’lim. Ijodiy va noijodiy ishlarning 50 : 50% bo‘lishi ta’lim vositalari va uning tashkiliy shakllari sikllar mohiyatiga qancha mos bo‘lsa, ta’limning samaradorligi va sifati shuncha yaxshilanadi; 3) sikllar, o‘rganilayotgan o‘quv materiallariga mos o‘quv faoliyatini tanlash; 4) o‘zlashtirish darajasiga qarab, o‘quvchilar faoliyatini murakkablashtirib borish; 5) o‘quvchilar faoliyatini tashkil etish, boshqarish, nazorat etishdan ta’lim sikllarini shakllantirish.

## **9-fasl. Ona tilidan ta'lim turlari**

Ta'lim o'ta murakkab jarayon bo'lib, uni o'qitish — o'qituvchi faoliyati, o'qish — o'quvchi faoliyati, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro ta'siri (o'qitish ⇔ o'qish) jihatidan ham tasavvur etish mumkin. Ta'limni ishtirokchilari jihatidan tasavvur etish yo'li bilan unda o'quvchi vaziyatlari ajratiladi.

Ta'limni o'qitish faoliyatiga ko'ra, tasavvur etishda o'qituvchi ta'lim jarayonining subyekti, o'quvchi yoki o'quvchilar jamoasi shu jarayonning predmeti sifatida qaraladi. Ta'limni shu yo'sinda tasavvur qilish va shu tasavvurga ko'ra uni tashkil etish, boshqarish hamda nazorat qilishda o'quvchi maqomi (u ta'lim jarayoni ning faol ishtirokchisi ekanligi) ma'lum darajada inkor etiladi. I.Gerbartning ta'lim nazariyasi va unga asoslangan an'anaviy ta'lim amaliyoti shu qarash asosida yaratilgan. G'arb mamlakatlarida ishlab chiqilgan pedagogik texnologiya zaminida ham I.Gerbart didaktikasi yotadi.

Ta'limni o'qish faoliyatiga ko'ra tasavvur etishda o'quvchi ta'lim jarayonining subyekti, o'rganilayotgan obyekt (o'quv materiali) bola faoliyatining predmeti ekanligi tan olinadi. Ammo bunday talqinda o'qituvchi maqomi ma'lum darajada chegaralanadi: u ta'lim jarayoni maslahatchisi rolini bajaradi. Ta'lim jarayoni xususiyatlarini shu taxlitda tushuntirishga D.Dyui asos solgan edi. Hozirgi muammoli ta'lim asoslari D.Dyui ta'limotiga borib taqaladgi.

Ta'limni o'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro ta'siri asosida tasavvur etish. Bunday qarashda o'qituvchi va o'quvchi ta'lim jarayoni subyektlari, o'rganilayotgan obyekt (o'quv materiali) ularning har ikkalasi uchun ham faoliyat predmeti ekanligi tan olinadi, shuningdek, o'qitish va o'qish faoliyatlarining har biri uchun vositalar (o'qitish vositalari, o'qish vositalari) e'tirof etiladi. Ta'limni shu yo'sinda

tasavvur etish g'oyasini O.Roziqov asoslagan edi. Ta'limni topshiriqlar tizimi shaklida tashkil etish metodikasi o'zaro ta'sir xususiyatlaridan kelib chiqib bayon qilingan.<sup>35</sup>

Ko'rinaridiki, o'quvchi ta'lim jarayonida uch holatda ishtirok etadi: **sust (passiv) vaziyat** — o'qituvchi izohlarini, tushuntirishlarini tinglovchi, ko'rsatmalarini ijro etuvchi, talab va topshiriqlarini bajaruvchi. Ta'lim jarayoni shu ko'rinishda tashkil etilganda, o'quv ishlari bolalar xotirasiga mo'ljallanadi; **faol vaziyat** — bolaning mustaqilligi, faolligi ta'minlangan holat. Bu vaziyatda ta'lim o'quvchi(lar)ning tafakkuriga mo'ljallab tashkil etiladi; **o'quvchi o'qituvchi bilan teng huquqqa ega vaziyat**. Bunday qarashda o'qituvchi va o'quvchi ta'lim subyektlari sanaladi, o'qituvchi o'z o'quvchisi bilan birga ta'limni quradi, boshqaradi. O'qitish va o'qish faoliyatlarining o'zaro muvofiqlashuvi (koordinatsiya) ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat etishning yetakchi prinsipiga aylanadi. Ta'lim ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallab o'tkaziladi.

Ta'lim turlari o'quv materiallariga didaktik ishlov berish, ta'limni xotira yoki tafakkurga mo'ljallab tashkil etish, ta'lim subyektlarining ta'lim jarayonida sust yoki faol ishtiroki natijalariga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Ta'lim turlarining o'xhash va farqli tomonlari quyidagi jadvalda berilgan. Jadvaldagи «+» ishorasi bilan u yoki bu belgining mavjudligi, «-» ishorasi bilan shunday belgining yo'qligi qayd etilgan.

---

<sup>35</sup> Roziqov O. Ta'lim jarayoni va uni tadqiq qilishning ba'zi masalalari. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar. 1971. №11.

## Ta'lim turlari va ularning o'ziga xos belgilari

Ta'lim turlari	Didaktik ishlov berish	Xot'aga mo'jallanganlik	Mantiqiy fikrlash	Dialektik fikrlash	Ta'linda sust qatnashish	Ta'linda faol qatnashish	Tafakkurga mo'jallanxganlik	Natijalarini teşhirish
Izohli-ko'rgazmali ta'lim	-	+	-	-	+	-	-	+
Muammoli ta'lim	+	-	-	+	-	+	+	+
Topshiriqli ta'lim	+	+	+	+	-	+	+	+
Differensial ta'lim	+	+	+	+	-	+	+	+
Algoritmlashtirilgan ta'lim	+	+	+	-	-	+	+	+
Programma(dastur) lashtirilgan ta'lim	+	+	+	-	-	+	-	+
Kompyuterli ta'lim	+	+	+	+	-	+	+	+

Ta'limning ayrim turlariga izoh berishga o'tamiz.

**Izohli-ko'rgazmali ta'lim** bolalar xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. O'qituvchi o'rganilayotgan mavzuga oid bilimlarni o'z so'zları bilan aytib beradi, zarur o'rinnlarda bolalar diqqatini ko'rgazma qurollarga tortadi; o'quvchilar ko'rgazma qurollarni kuzatishib, o'qituvchi tushuntirgan bilimlarni xotirada saqlab qolishadi. Izohli-ko'rgazmali ta'lim «o'qitish o'qishdan katta» qolipi asosida yaratilgan bo'lib, uning bosh prinsipi subordinatsiyadir.

Keyingi yillarda ta'limning bu an'anaviy turini samarali tashkil etish maqsadida, uning tashkiliy tuzilishiga qator o'zgarishlar kiritildi. Bular quyidagilar: mashg'ulotning boshlanishida bolalar oldiga muammo, muammoli savollar qo'yish. Qo'yilgan muammo, savolga javob tariqasida mavzuni bayon etish. Bu ko'rinishda izohli-ko'rgazmali ta'lim muammoli ta'lim bilan o'zaro qo'shiladi (1); o'rganilayotgan mavzu xususiyatlarini hisobga olib, o'quv topshiriqlarini bajartirish. O'quv topshiriqlarining bajarilishini tahlil qilishga bog'lab mavzuni bayon etish. Bu

yerda izohli-ko'rgazmali ta'lim topshiriqlı ta'lim bilan o'zaro qo'shiladi (2); o'quv materialining bir qismini — murakkab ulushini o'qituvchi tushuntiradi, nisbatan osonroq qismini bolalarning o'zları mustaqil o'rganishadi. Bu variantda izohli-ko'rgazmali ta'lim mustaqil ishlar bilan qo'shib o'tkaziladi (3). O'quv topshiriqlari, mashqlarni bajarish, masala va misollarni yechish yo'llari bilan o'rganilgan bilimlar mustahkamlanadi. Test sinovi mustahkamlashdan keyin o'tkaziladi.

**Muammoli ta'lim.** Bunda o'qitish va o'qish faoliyatları quyidagicha amal qiladi: o'qituvchi muammolarni bolalar oldiga qo'yadi, bolalar muammoni qabul qilib, unda berilgan dalillarni idrok etishadi (1); o'quvchilarga muammoni tahlil etish, uni yechishga oid farazlarni aytishni taklif etadi; o'quvchilar turli farazlarni aytishadi(2); o'qituvchi aytilgan farazlardan ma'qulini tanlab, muammoni yechishni so'raydi; bolalar farazlardan birini muammoni hal etishga tatbiq qilishadi (3); o'qituvchi muammoning yechimidan xulosa chiqarishni aytadi; bolalar o'z imkoniyatlari doirasida xulosa chiqarishadi (4); o'qituvchi bolalar chiqargan xulosalarini to'ldiradi, aniqlik kiritadi; bolalar o'qituvchi izohlarini tinglab, o'z xulosalarini boyitishadi (5); o'qituvchi chiqarilgan xulosani turli o'quv holatlariga tatbiq qilishni taklif etadi; bolalar turli topshiriqlarni bajarish yo'li bilan chiqarilgan xulosalarini mustahkamlashadi (6). Ta'limning bu turida ham mustahkamlashdan keyin joriy nazorat o'tkaziladi.

Muammoli ta'lim qator afzalliklarga ega. Ta'limning bolalar tafakkuriga mo'ljallanganligi, ularda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish imkoniyatining ko'pligi muammoli ta'limning o'ziga xos xususiyatlaridir. Ta'limning bu turida qator kamchiliklar ham mavjud: ta'limni muammolarni qo'yish va bajartirish yo'li bilan amalgalashish ko'p vaqtini oladi; muammoni tushungan o'quvchigina ta'limda faol ishtirok etadi; muammoli ta'lim o'quv-

tarbiya jarayonining faqat bir bosqichi — yangi bilimlarni, yangicha faoliyat usullarini egallash bosqichidagina tashkil etiladi.

**Topshiriqli ta'lif muammoli** ta'lifning zaif tomonlarini bartaraf etishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. U ham o'quvchilar tafakkuri, ham xotirasiga mo'ljallab tashkil etiladi. Topshiriqli ta'lifning asosida o'quv topshiriqlari yotadi. O'quv topshirig'i o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir. Masalan, boshlang'ich sinflarda «Ot» mavzusi bo'yicha quyidagi ta'rif o'rganiladi: «Shaxs va narsalarning nomini bildirib, kim? yoki nima? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlarga ot deyiladi». Bu o'quv materialini turli shakllarga kiritish uchun quyidagi o'quv topshiriqlari tizimidan foydalaniлади: sinfni yaxshilab kuzating. Ko'zingizga qanday jonli va qanday jonsiz narsalar tashlanyapti? (1); o'zingiz kuzatgan narsalarning nomini yozing (2); o'zingiz yozgan so'zlardan qay biri «kim?» so'rog'iga, qay biri «nima?» so'rog'iga javob bo'ladi? (3); oldin kim? so'rog'iga, keyin «nima?» so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni ikki guruhga ajratib yozing (4).

Bu o'quv topshiriqlari yuqorida keltirilgan o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir. O'quv topshirig'i vositasida ta'lif subyektlari — o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tushunadi. Bajarilgan topshiriqlardan quyidagi xulosalar chiqariladi: atrofimizni turli-tuman narsalar o'rab olgan; bu narsalarni predmet deymiz; narsalarning nomini bildirgan so'zlarga ot deyiladi; kishilarni bildirgan otlar «kim?» so'rog'iga javob bo'ladi; kishidan boshqa narsalarni bildirgan otlar «nima?» so'rog'iga javob bo'ladi. Chiqarilgan xulosalardan keyin mustahkamlash bosqichi tashkil etiladi, so'ngra test nazorati o'tkaziladi.

**Differensial (tabaqalashgan) ta'lif** o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslab tashkil etiladigan ta'lif turidir. Undan boshlang'ich sinflardan tortib, oliy o'quv yurtlarida ham foydalaniлади. Tajribali o'qituvchilar

boshlang'ich sinflardayoq ilg'or o'quvchilar uchun murakkab o'quv topshiriqlari, nisbatan bo'shroq bolalar uchun soddalashtirilgan o'quv topshiriqlari tanlab, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etishadi. Bu differensial ta'limning eng oddiy ko'rinishidir. Differensial ta'lim ikki turli bo'ladi: **ichki differensiatsiya; tashqi differensiatsiya.**

**Ichki differensiatsiya** bir sinf ichida bolalarni guruhlarga ajratib o'qitishdir. Ichki differensiatsiyada bolalarning bilimi (a'lo, yaxshi, qoniqarli baholarga o'qiydigan o'quvchilar) va ishlash sur'ati (tezkor, o'rtacha, sust) hisobga olinib, ular guruhlarga ajratiladi. Ichki differensial ta'lim sinf jamoasining bir xil dastur, darslik asosida o'qishiga mo'ljallangan bo'lib, guruhlar bajaradigan yumushlar qiyinligi, murakkabligi, oz yoki ko'pligi jihatidan farq qiladi.

**Tashqi differensiatsiya** bolalarning individual xususiyatlari asosida ularni alohida sinflarga va hatto maktablarga to'plab o'qitishdir. Shu yo'l bilan ixtisoslashgan sinflar, maktablar paydo bo'ladi.

Differensial o'qitish ta'lim texnologiyasini amalgalashirishda eng maqbul tur sanaladi. Unga ko'ra, ta'limga o'zgartirish, tuzatishlar kiritilib, o'qitish takroriy tashkil etiladi. Ta'limning boshqa ko'rinishlariga o'xshab, differensial ta'lim natijasi ham test topshiriqlari tizimi vositasida aniqlanadi.

## XI BOB

### ONA TILI TA'LIMINI OPTIMALLASHTIRISH

Ta'limni optimallashtirish — o'quv-tarbiya jarayoniga hozirgi qarashlar — konsepsiyalarning barchasini o'zida mujassamlashtirgan integrativ nazariyadir. Bu nazariya, bir tomondan, maktab joylashgan iqtisodiy, madaniy, geografik muhitni hisobga olishni, ikkinchi tomondan esa ta'lim mazmuni, tamoyillari, metodlari, vositalari, tashkiliy shakllaridan unumli foydalanish yo'llarini izlashni taqozo etadi. Binobarin, ta'limni optimallashtirish nazariyasida ikki narsa — ta'limni aynan olingan muhitga muvofiqlashtirish va uni eng samarador variant asosida o'tkazish g'oyalari o'zaro uyg'unlashgan. Shularga asoslanib, ta'limni optimallashtirish nazariyasini pedagogik fikrlashning yangi tipi deb qaraymiz.

Ko'rindiki, ta'limni optimallashtirish nazariyasining markazida o'quv-tarbiya ishlarini tashkil etish va boshqarishning ma'lum sharoit uchun eng qulay, samarali variantini tanlash yotadi. Optimallashtirish ta'limning samaradorligini oshirish yo'li, samaradorlik esa ta'limni optimallashtirish o'lchovi sanaladi. Demak, o'quv-tarbiya jarayonini o'rganish, uning eng unumdon variantini tanlash, tanlangan variantni amalga oshirishga oid tadbirlarni ishlab chiqish yagona maqsadga — o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### 1-fasl. Ta'limni optimallashtirish tushunchasi

Ta'limni «optimallashtirish» tushunchasi lotincha «optimus» so'zidan olingan bo'lib, «eng yaxshi», «eng unumli», «eng maqbul» degan ma'nolarni anglatadi. Binobarin, ta'limni optimallashtirish keng ma'noda ma'lum

sharoit uchun eng samarali variantni tanlash jarayonini anglatadi.

Ta'limni optimallashtirish tushunchasi olimlar tomonidan o'ylab ixtiro qilingan g'oya emas. U har doim inson tabiat, uning xatti-harakati, intilishlari, qiziqishlari, o'z ijtimoiy burchini anglashi kabi ijtimoiy sifatlari bilan daxldor hodisadir. Bozorga kirib eng sifatlari mahsulotni xarid qilishga intilish, so'z berilganda tinglovchilar tushunadigan so'z va iboralardan foydalanish, u yoki bu ijtimoiy vazifani bajarishga eng muvofiq yo'lni tanlash uchun harakat qilish insonga har doim hamohangdir.

Ta'limni optimallashtirish, prof. Y.K.Babanskiyning yozishicha, o'qituvchi va o'quvchining vaqt byudjetidan unumli foydalanishini ta'minlaydigan, aynan olingan sharoitga eng mos keladigan ta'limning ilmiy asoslangan variantini tanlashdir.

Ta'limni optimallashtirish bir paytning o'zida ta'lim subyektlarining har ikkalasi — o'qituvchi va o'quvchilar uchun daxldor sanaladi. Masalan, o'quv topshiriqlarini ta'limga tatbiq etish (o'qituvchi faoliyati) o'quv topshiriqlarini bajarish yo'llarini bolalarga o'rgatishni taqozo etadi, o'quv muammolaridan o'rinni foydalanish (o'qituvchi), muammoni bajarish yo'llari, bosqichlari xususida bolalarda tasavvurlarni kengaytirishni talab etadi. Ta'lim jarayonidagi sababiyatli bog'lanishlarni izlash, izohlash yo'llari bilan ta'limning optimal variantini shakllantirishga qarab boriladi.

Ta'limning optimal varianti har bir sinfning o'z xususiyatlaridan kelib chiqib belgilanadi. Ikkita parallel (masalan, 6 «a», 6 «b») sinf uchun ta'limning bir varianti har doim optimallik talabiga javob bera olmaydi. Chunki sinf o'quvchilari turli tayyorgarlikka ega, ularda darslik va boshqa o'quv qo'llanmalari ustida mustaqil ishslashga oid ko'nikmalar turlicha taraqqiy etgan. Aynan olingan sinf o'quvchilarining tayyorgarlik darajasi, real o'quv

imkoniyatlari asosida tanlangan variant faqat shu sinf o'quvchilari uchun optimal sanaladi.

Ta'limdi optimallashtirish yo'li bilan uning samaradorligini oshirish berilgan vaqt doirasida erishilgan natijaga ham bog'liq. Ta'lindan ko'zlangan natija aynan berilgan vaqt doirasida optimal sanaladi. Vaqtni ortiqcha sarflash, u yoki bu mavzu ustida ortiqcha ishlash o'qituvchi va o'quvchilarning jismonan zo'riqishiga olib keladi, kelgusi o'quv soatlari samaradorligiga salbiy ta'sir etadi. Binobarin, me'yoriy vaqt doirasida ta'lanning samaradorligini oshirish hamda ko'zlangan natijaga erishish ta'lanning optimalligini ko'rsatuvchi belgilarni sanaladi.

Ta'limdi optimallashtirish u yoki bu ta'lim metodi, vositasiga ortiqcha baho berishni chegaralaydi, barcha sinfda bir xil ishslash va hamma o'quv predmetlarini o'qitishni bir xil qolip asosida tashkil etish tajribasiga barham beradi, o'qituvchi va o'quvchilarning ortiqcha, keraksiz urinishlarining oldini oladi. Ta'limdi optimallashtirish shu jihatlari bilan pedagogik mehnatni ilmiy tashkil etish nazariyasining yetakchi prinsipi sanaladi.

## **2-fasl. Ta'limdi optimallashtirish o'chovlari**

Ta'limdi optimallashtirish o'chovlarini aniqlamasdan turib, o'quv-tarbiya ishlarini optimal tashkil etish xususida gapirish mumkin emas. Optimallashtirish doimo ma'lum maqsadga bo'ysunadi. Ma'lum maqsadni ko'zlab (masalan, ta'lanning samaradorligini oshirish) ta'limdi tashkil etish, ta'lim vositalari, metodlarini tanlash o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligini oshirishga olib keladi.

Y.K.Babanskiy qator asarlariida ta'limdi optimallashtirish o'chovlarini asoslagan. U pedagogik hodisalarini tizimli o'rGANISH yo'li bilan ta'limdi optimallashtirishning quyidagicha o'chovlarini belgilagan edi: ta'lim mazmunini har bir o'quvchining o'z real bilish imkoniyatlari

chegarasida o'zlashtirishi, rivojlanishi va tarbiyalanishi; dars va uy ishlariga ajratilgan vaqt hamda gigiyenik talablarga o'qituvchi va o'quvchilarning riosa qilishi.

Ta'limning optimal variantini tanlash, dastavval, ta'limni optimallashtirish o'lchovini belgilashdan boshlanadi. Shunday qilmay turib, optimallashtirish to'g'risida gapirish mumkin emas. Chunki optimallik o'lchovi ta'limning unumdoorligi ko'rsatkichi, u yoki bu pedagogik vazifani hal etish mezonidir.

Respublikamiz mustaqilligi sharoitida ta'limni optimallashtirishning bosh o'lchovi o'quv-tarbiya jarayoni samaradorligidir. Samaradorlik ta'limning optimal variantini tanlash mezoni sifatida ikki xil ma'no anglatadi: a) ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad va berilgan vositalar doirasida o'quv predmetlarini o'zlashtirish. Samaradorlikning bu ma'nosini ta'lim jarayonining borishi bilan bog'liq; b) ta'lim jarayonida qo'yilgan maqsad bilan o'quvchilarning o'zlashtirishi orasidagi farq. Samaradorlikning bu ma'nosini ta'lim natijalariga daxldordir.

Samaradorlikning yuqoridagi ma'nolariga asoslanib, ta'limni optimallashtirishning ikki xil belgisi ajratiladi: ta'limni optimallashtirishda riosa qilinadigan belgilar; ta'lim natijasi optimalligini ko'rsatuvchi belgilar.

Ta'limni optimallashtirishda riosa qilinadigan belgilar bilan ta'lim natijasi optimalligini ko'rsatuvchi belgilar o'zaro sabab va natija kategoriyalari sifatida bog'langan. Shularga ko'ra, ta'limni optimallashtirishning quyidagi o'lchovlari ajratiladi.

Ta'limni optimallashtirishning dastlabki o'lchovi berilgan imkoniyatlar (vaqt, ta'lim vositalari va sh.k.) doirasida o'quvchilarni yuqori darajada taraqqiy ettirishni ko'zlab, o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishdir. Ta'limni shu nuqtayi nazardan tashkil etish, shubhasiz, o'qitishning sifatini oshiradi. Unda o'qitish va taraqqiy ettirish parallel olib boriladi.

Ta'limning maqsadi bilan uning natijasi o'rtaSIDagi farqni qisqartirish o'quv-tarbiya jarayonini optimallashtirishning navbatdagi o'lchovidir. Hozir ta'limning maqsadi bilan uning natijasi o'rtaSIDida mos kelmaslik hollari uchrab turadi. Buning asosiy sababi o'qituvchilar faoliyatida formalizmning mavjudligi, o'quvchilarning ijodiy faoliyatini tashkil etish usuliyotini barcha o'qituvchilarning puxta egallab olmaganliklaridadir. Shu kamchiliklar qancha tez bartaraf etilsa, ta'limning maqsadi bilan uning haqiqiy natijasi o'rtaSIDagi tafovut shuncha kamayadi.

Ta'limni optimallashtirishning yana bir o'lchovi ta'lim vositalari, metodlarining ta'lim mazmuniga mosligidir. Ta'limning tashkiliy shakllari, metodlari, vositalari ta'lim mazmuniga qancha mos bo'lsa, o'quv-tarbiya ishlari shuncha samarador bo'ladi.

Ta'limni optimallashtirishning yana bir o'lchovi bir paytda ta'lim mazmuni va unga oid faoliyat usullarini egallahdir. Hozirgi maktablarda oldin ma'lum axborotni o'zlashtirish, keyin shu axborotning amalda qo'llanishini egallah odad tusiga kirgan. Bir paytda o'quv materiali mazmunini va undan amaliyotda foydalanish usullarini egallah, shubhasiz, vaqt ni tejashga olib keladi.

### **3-fasl. Ta'limning optimal varianti**

Ta'limning optimal varianti ma'lum sharoit uchun eng samarador variant hisoblanadi. Masalan, o'qituvchi darsni mustaqil ishlash metodi asosida tashkil etdi, deylik. Ta'limda mustaqil ishslash metodidan foydalilaniganda uch nuqtayi nazarga rioya qilinadi: o'quvchilarda mustaqil ishslash mala kasining rivojlanganligi, mavzuning boshqa o'quv materiallariga nisbatan osonligi, mustaqil ishslash uchun vaqtning yetarliligi. Shu shartlardan birontasi, masalan, o'quvchilarda mustaqil ishslash malakalari yetarli darajada rivojlangan bo'lmasa, ular mavzuni mustaqil o'rganishda

qiynalishadi. Demak, tanlangan variant optimallik talabiga javob bera olmaydi.

Ta'limning optimal variantini tanlashda quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi: ta'limning maqsadi, vazifalarini aniqlash; dars tipi, bosqichlarini belgilash; ta'lim vositalari, metodlarining ta'lim maqsadiga mosligini tahlil etish; o'quv topshiriqlarining ta'lim bosqichlariga aloqadorligini o'rganib chiqish; o'quv materialini o'zlashtirish darajasini belgilash. Bu tadbirlar ta'lim boshlangunga qadar hal etiladi. Shularga rioya qilib, o'quv-tarbiya ishlari tashkil etiladi. Demak, optimallashtirish — muhim tadbirlar tizimini ishlab chiqish va uni o'quv-tarbiya jarayoniga tatbiq etishdir. Bu fikrlarni oydinlashtirish uchun «Sifatlarning otlashuvi» mavzusini o'qitish jarayonini tahlil qilamiz.

Mavzu doirasida quyidagi topshiriqlar bajariladi.

1. Maqollarni o'qing. Egani topib, morfologik tahlil qiling. Qaysi maqollarda sifatlar otlashib, *kim?* *nima?* so'roqlarini olgan.

2. O'qing. Otlashgan sifatlarni topib, ularning so'rog'ini aniqlang. Tushib qolgan otni ayting.

3. O'qing. Otlashgan sifatlarni toping. Gapda otlashgan sifatlarning qanday qo'shimchalar bilan qo'llanganligini ayting.

4. «Yaxshi» so'zi ishtirokida uchta gap tuzing. Birinchi gapda «yaxshi» so'zi ko'plik qo'shimchasi, ikkinchi gapda egalik, uchinchi gapda esa kelishik qo'shimchalari bilan qo'llansin.

5. Berilgan gaplarda otlashgan sifatlar gapning qaysi bo'laklari vazifasida ishtirok etayotganligini tushuntiring.

6. «Ilg'or» so'zi ishtirokida 4 ta gap tuzing. Shu gaplarning birinchisida «ilg'or» so'zi ega, ikkinchi gapda aniqlovchi, uchinchi gapda to'ldiruvchi, to'rtinchi gapda izohlovchi vazifasida ishtirok etsin.

Bu topshiriqlar otlashgan sifatlar predmetlikni ifodalab, *kim?* va *nima?* so'roqlaridan biriga javob bo'ladi; otlarga

o‘xshab egalik, kelishik qo‘sishchalari bilan turlanadi; gap tarkibida ega, aniqlovchi, to‘ldiruvchi, undalma vazifalarida ishtirok etadi.

Birinchi belgi asosida 1-va 2-, ikkinchi belgi asosida 3- va 4-, uchinchi belgi asosida 5- va 6-topshiriqlar tuzilgan. O‘quv materialining asosiy belgilari va ularga oid berilgan o‘quv topshiriqlarini hisobga olib, ta’limning quyidagi variantlarini tanlash mumkin.

**1-variant.** Agar o‘quvchilarda mustaqil ishslash ko‘nikmalari shakllangan bo‘lsa, o‘quv materialini mustaqil o‘rganish uchun yetarli vaqt bo‘lsa, u holda o‘qituvchi mavzu mazmunini hisobga olib, uni mustaqil ishslash metodi asosida rejalshtirishi mumkin. Bunda o‘quvchilar 1-topshiriqnini bajarib, otlashgan sifatlarning birinchi belgisi bo‘yicha xulosa chiqarishadi. So‘ngra 2-topshiriqnini bajarishib, chiqarilgan xulosani mustahkamlashadi. 3-topshiriq bajarilib, otlashgan sifatlarning ikkinchi belgisi bo‘yicha xulosa chiqarilgach, 4-topshiriq bajariladi va ikkinchi xulosa mustahkamlanadi. Keyin 5-topshiriq yordamida uchinchi xulosa chiqariladi va u 6-topshiriq vositasida mustahkamlanadi. Shunday qilib, bu variant asosida o‘quv materialini o‘rganish va mustahkamlash ketma-ket olib boriladi. Bu, o‘z navbatida, o‘quvchilarni yuqori darajada taraqqiy ettirishni ko‘zlab ta’limni tashkil etishga, vaqtini tejashga olib keladi.

**2-variant.** Bunda oldin 1-, 3-, 5-topshiriqlar bajariladi.

Ular vositasida sifatlarning otlashishiga oid uchta xulosa chiqariladi. Xulosalarni mustahkamlash uchun 2-, 4-, 6-topshiriqlar yechiladi.

**3-variant.** Bunda, avvalo, o‘qituvchi mavzuni bolalarga tushuntiradi. So‘ngra 1-, 3-, 5-topshiriqlardan o‘quv materialini mustahkamlash, 2-, 4-, 6-topshiriqlardan esa bilim va malakalarni tekshirish maqsadida foydalilaniladi.

**4-variant.** Bunda 1-, 3-, 5-topshiriqlar asosida o‘quvchilarga uch variantda vazifa beriladi. Ish yakunlangach,

har bir variant bo'yicha bajarilgan topshiriq muhokama qilinib, xulosa chiqariladi. Variantlar bo'yicha topshiriqlarni bajarishda bolalar guruh-guruh bo'lib ta'limda ishtirok etishsa, har bir topshiriqning natijasini muhokama qilish va xulosa chiqarishda jamoa bo'lib ishtirok etishadi. Xulosani mustahkamlash uchun 2-, 4-, 6-topshiriqlar variantlar asosida bajarishga beriladi. Demak, bu variantda sinf o'quvchilarining guruh va jamoa o'quv ishlari optimal qo'shib olib boriladi.

Shunday qilib, ta'limning optimal variantini tanlash o'qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantiradi. O'qituvchi ijodkorligi, o'z navbatida, o'quvchilarda ijodkorlikni tarbiyalaydi. Bu borada tajribalar ortgan sari, ta'limning samaradorligi ham osha boradi.

#### **4-fasl. Ta'lim jarayonini optimallashtirish bosqichlari**

Ta'limni optimallashtirish doimo ma'lum maqsadlarga qaratiladi. Ta'limni optimallashtirish o'quv-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qilishi zarur. Samaradorlik ikki xil belgiga ega: samaradorlikning jarayoniyl belgilari — ta'limning maqsadi va uning haqiqiy natijasi o'rtaqidagi tafovutni kamaytirish (1); ta'lim vositalari, metodlari, tashkiliy shakllarining o'quv materiallari mazmuniga mosligi (2); ta'limni o'quvchilarning yuqori darajadagi taraqqiyotini ko'zlab tashkil etish (3); bir paytda ta'lim mazmuni va unga oid faoliyat usullarini egallash (4); samaradorlikning natija belgilari — ta'lim natijasining qo'yilgan maqsadga mosligi (1); normativ xarajatlar doirasida ta'limning natijasini yaxshilash (2); o'quv ishlarining sifatini oshirish (3); vaqtidan ratsional foydalanish (4).

Ta'lim jarayonining qayd etilgan to'rt xil belgisini amalga oshirish ta'lim natijasining to'rt xil sifatini yaxshilashga olib keladi. Binobarin, ta'limni optimal-

lashtirish uchun ajratilgan jarayoniy va natija belgilari o‘zaro sabab va oqibat shaklida bog‘langan. Jarayoniy belgilarga riosa qilib ta’limni tashkil etish, boshqarish rejalarashtirilgan natijalarga olib keladi. Ta’limni uning samaradorligini ko‘zlab o‘tkazishda quyidagi bosqichlarga riosa qilinadi<sup>36</sup>.

**1-bosqich.** Bu bosqichda ta’limni optimallashtirishning bir juft belgisi — ta’lim maqsadi va uning haqiqiy natijasi o‘rtasidagi tafovutni imkoniyat yetguncha kamaytirish (jarayoniy belgi) va ta’lim natijasining qo‘ylgan maqsadga muvofiqligi (ta’limning natija belgisi) alomatlari asos qilib olinadi. Shu alomatlar bo‘yicha ta’limni optimallashtirish uchun quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1) o‘qituvchilarни (talabalarni ham) ta’lim maqsadini konkretlashtirishga o‘rgatish: a) ijtimoiy talab darajasida ta’limning ikki xil maqsadi ajratiladi: umumiy maqsad — yoshlarni barkamol inson qilib tarbiyalash. Barcha o‘quv predmetlari shu yagona maqsadga xizmat qiladi; xususiy maqsad — har bir o‘quv predmetini o‘rganishdan ko‘zlangan maqsad; b) o‘quv materiali darajasida ta’limning uch xil maqsadi farqlanadi: ta’lim berish maqsadi; bolalarni aqliy rivojlantirish maqsadi; tarbiyaviy maqsad.

2) o‘qituvchilarни (talabalarni ham) o‘quv materialini o‘zlashtirish darajalari bilan tanishtirish. Maktab o‘quvchilarini o‘quv materialini uch xil darajada o‘zlashtiradi: a) o‘quv materialini idrok etish, anglash, xotirada saqlash darajasida o‘zlashtirish. Bunda ta’limning natijasi o‘quvchilarning bilimlarini tanish sharoitlarga tatbiq eta olish ko‘nikmalari bilan o‘lchanadi; b) o‘rganilgan bilimlarni konkretlashtirish. Dalillardan xulosalarga va aksincha, xulosalardan dalillarga zudlik bilan o‘ta olish, o‘quv topshiriqlarini yechishning tempi bilimlarni o‘zlashtirish

<sup>36</sup> Bu bosqichlar o‘qituvchilarning ta’limni optimallashtirish metodikasini o‘rganishlarini tashkil etish, ularning optimallashtirish taktikasini o‘zlashtirishlari uchun mashq qilish shaklida berildi.

natijasining ko'rsatkichi hisoblanadi; d) bilimlarni tushuncha darajasida o'zlashtirish. Fikrlashdagi mustaqillik, o'quv materialiga munosabat bildirish, o'itoqlarining fikrlarini tanqidiy baholash ta'lif natijasining ko'rsatkichlari sanaladi.

Ta'lif maqsadini aniqlashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish darajalarini bilish va ularga mos keladigan ta'lif vositalarini tanlash o'qituvchiga bajariladigan ishlarning natijasini oldindan o'ylab olish, o'quv-tarbiya jarayonini optimal tashkil etish imkoniyatini beradi. Bularning barchasi ta'lif maqsadi bilan uning natijasi o'rtasidagi tafovutni ma'lum darajada kamaytirishga sabab bo'ladi.

**2-bosqich.** Bu bosqichda ta'limning optimal variantini tanlash ikki juft belgi asosida amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, oldingi bosqichda o'qituvchilar o'zlashtirib olgan ikkita belgiga yana bir juft belgi qo'shiladi: ta'lif metodlari, vositalari, tashkiliy shakllarining o'quv materialiga mosligi (jarayoni belgi) va berilgan me'yorlar darajasida ta'limning sifatini yaxshilash (ta'lif natijasi belgisi). Bu belgilari bo'yicha quyidagi ishlar amalga oshiriladi.

1. Darsliklarni tahlil etish. Tahlilda ushbu savollarga javob izланади: darslik bolalarga bilim berish, ularни rivojlantirish, tarbiyalash maqsadlariga javob bera oladimi? Darslikdagi qaysi materiallar bolalar uchun qiyin? Qaysi o'quv materiallarini bolalar mustaqil o'rgana oladi? U yoki bu o'quv materialini o'rganishga qaysi metod mos keladi? Darslikda berilgan mashq, misol, topshiriq, muammolar yetarlimi? Qaysi mavzuni o'tishda o'lka materiallaridan foydalanish mumkin? Darslikda ortiqcha, ikkinchi darajali narsalar bormi?

2. O'quv materialining asosiy — bosh g'oyasini ajratish. Bunday ish quyidagi tartibda olib boriladi: a) o'quv materiallarini o'qib chiqish va uning ham nazariy, ham

amaliy ahamiyatini aniqlash; b) o'quv materialini mantiqiy qismlarga ajratish, har bir qismni o'rganishdagi asosiy g'oyani belgilash; d) o'quv materialini tushuntirish (o'rganish) tartibini aniqlash; e) mavzu bo'yicha bilimlar va hosil qilinadigan malakalarni ajratish; f) mavzuni o'tish metodini tanlash; g) mavzuga mos savol hamda topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; i) predmetlararo aloqa turlarini belgilash. Bularni amalga oshirish bir tomondan, ta'limning optimal variantini tanlashni osonlashtiradi, ikkinchi tomondan esa, berilgan me'yorlar doirasida ta'limning sifatini yaxshilashga olib keladi.

**3-bosqich.** Bu bosqichda oldin o'zlashtirilgan ikki juft belgiga yana bir juft belgi qo'shiladi: **ta'limni o'quvchilarining yuqori darajadagi taraqqiyotini mo'ljallab tashkil etish (jarayoniy belgi)** va **o'quvchilar bilimining sifatini oshirish (ta'lim natijasi belgisi).**

Ta'lim jarayonining uchinchi belgisi — o'quv-tarbiya ishlarini o'quvchilarining yuqori darajadagi taraqqiyotini ko'zlab tashkil etish va boshqarish o'qituvchi faoliyatiga qator o'zgartirishlar kiritishni **taqozo etadi**: darslarni muammoli tashkil eta olish; ta'limning ta'limiy, rivojlantiruvchi, tarbiyalovchi funksiyalarini bir paytda amalga oshira olish; mustaqil ishlardan foydalana olish metodikasini egallah; ta'limni differensial tashkil eta olish usullarini o'rganish. O'qituvchi faoliyatida shu xarakterli sifatlar rivojlangan sari, o'quvchi faoliyatining ham samaradorligi, ham ulardagi ijodkorlik o'sadi.

Ta'lim jarayonining uchinchi belgisi o'quvchilar faoliyatiga ham o'zgartirishlar kiritishni talab etadi. Shunday o'zgartirishlar sirasiga quyidagilar kiradi: bolalarni mustaqil ishlarni bajarish tartibi bilan tanishtirish; bolalarni aqliy faoliyat usullari (tahlil, sintez, induktiv va deduktiv xulosalar chiqarish, taqqoslash) bilan qurolantirish, ularning xususiyatlari to'g'risidagi tasavvurlarni kengaytirish.

Demak, o'quvchilarning yuqori darajadagi taraqqiyotini ko'zlab ta'limni tashkil etish o'qituvchi faoliyatini ham, o'quvchilar faoliyatini ham qayta qurishni, ularga o'zgartirishlar kiritishni taqozo etadi. Bu o'zgartirishlar ta'lim natijasining sifatini-bilimlarning puxtaligi, har tomon-lamaligi, to'liqligi, aniqligi, operativligini oshiradi.

**4-bosqich.** Bu bosqichda ta'limning optimal variantini tanlashning oldingi bosqichlarida o'zlashtirilgan belgilarga qo'shimcha ravishda yana ikkita belgi ustida ish olib boriladi: o'quv materiali mazmuni va faoliyat usullarini bir paytda bolalarga o'rgatish (ta'lim jarayoni belgisi), hamda vaqtidan ratsional foydalanish (ta'lim natijasi belgisi), o'quv-tarbiya jarayonida yuqoridagi belgilarni amalga oshirish uchun bolalarga aqliy faoliyat usullari xususiyatlarini o'rgatish davom ettiriladi. Shu bilan birga, bolalarda qilinadigan ishlar bo'yicha reja tuzish, o'z faoliyati mahsulini mustaqil tekshira olish ko'nikmalari taraqqiy ettiriladi. Bularning barchasi o'quvchi faoliyatida operativlikni tarbiyalaydi, narsa-hodisalarini tanqidiy baholay olish iqtidorlarini o'stiradi. Demak, yuqorida bayon etilgan ishlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish ta'limning samara-dorligini oshirishga olib keladi.

## XII BOB

### ONA TILINI TA'LIM ETALONI VOSITASIDA LOYIHALASH

Ta'lrim etaloni to'g'risidagi ilk tasavvurlar birinchi bor ona tili didaktikasida paydo bo'ldi. Bir guruh olimlar yaratgan didaktik qo'llanmaning maxsus bo'limida ta'lrim etaloni xususida xabar berilib, uning pedagogik amaliyotidagi o'rni, o'quv tarbiya jarayonini tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishdagi ahamiyati ma'lum darajada oydinlashtirilgan edi<sup>37</sup>. Mualliflar jamoasi ta'lrim etalonini keng qamrovli didaktik hodisa sifatida tavsif qilishgan. Ayrim mutaxassislar ta'lrim etaloni va u bo'yicha bajariladigan topshiriqlarni nazarda tutib, «test=topshiriq+etalon» shaklida qarashadi. Bizningcha, ta'lrim etaloni test va unga oid topshiriqlardan katta. Chunki bir ta'lrim etaloni bo'yicha bir qancha umumiyligi o'quv maqsadlari, oraliq maqsadlar va ularga muvofiq o'quv topshiriqlari, o'quv materiallarini o'zlashtirishning har bir darajasini sinab ko'rish uchun alohida test to'plamlari qayd etiladi. Ta'limgani ta'lrim etaloni vositasida loyihalash g'oyasi ham bizning Respublikamizda paydo bo'ldi: modul xarakterini o'quvchi olgan faoliyatining natijasini ta'lrim etaloni vositasida o'lchash mumkin. Bunday faoliyat o'zlashtirishning quyi darajasidan yuqori darajasiga ko'tarila oladi, standartlashadi, umumiyligi qurilishga ega bo'ladi. Ta'lrim etalonida bolalarning o'quv maqsadi, shu maqsadga erishish shartlari, maqsadlarni amalgalashishdan erishiladigan natija, natijani baholash me'yorlari ham beriladi. Ta'lrim etaloni va davlat ta'lrim standartlarini o'zaro muqoyosa qilib o'rganish muammosi ham o'zbek didaktikasida shakllandi: «Davlat ta'lrim standartlari ta'lrim etalonining «o'quv faoliyati

<sup>37</sup> Таълим технологияси. — Т.: «Ўқитувчи», 1999.

natijasi» bo‘limi bilan daxldor hodisa bo‘lib, ular etalon tarkibida tahlil qilinadi, etalon vositasida amalga» oshiriladi. Shunday qilib, hozirgi paytda ta’lim etalonini ona tilini loyihalash vositasi sifatida o‘rganish uchun ilmiy asoslar mavjud<sup>38</sup>.

Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, o‘quv-tarbiya jarayonini ta’lim etaloni vositasida loyihalash, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish g‘oyasi ilk bor o‘zbek didaktikasida paydo bo‘ldi. Hozirgi paytda ta’lim etaloni to‘g‘risidagi tasavvurlarni yanada rivojlantirish uchun yetarli darajada ilmiy asosga egamiz. Mavjud ilmiy asosga tayangan holda ta’lim etaloni xususidagi qarashlarni yanada takomillashtirish (1), ta’lim etaloni tarkibini tahlil etish (2), ta’lim etalon turlarini tasniflash (3), ta’lim etaloni asosida o‘quv materialini loyihalash (4), ta’lim davrlarini ta’lim etaloni vositasida loyihalash masalalarini tavsiflash zaruriyatni sezilishi tayin.

### **1-fasl. Ta’lim etaloni va davlat ta’lim standartlari**

Ta’lim etaloni vositasida o‘qituvchi adashmasdan, mavzu doirasidan chiqmasdan dars o‘ta oladi. U o‘quvchiga mavzu ustida o‘z diqqatini to‘plash, aqliga zo‘r berib dalillarni tahlil qilish, dalillardan mustaqil xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosani amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini ham beradi. Bulardan ko‘rinadiki, ta’lim etaloni o‘qitish (o‘qituvchi faoliyati) va o‘qish (o‘quvchi faoliyati) faoliyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi, o‘zaro ta’sirning yuzaga chiqishi, ta’limning ijtimoiy institut sifatida shakllanishga olib keladigan omillardan sanaladi. Ana shularga ko‘ra, «ta’lim etalonini» ta’lim maqsadi, ta’lim standarti kabi hodisalarga nisbatan mazmundor, ko‘p funksiyali metodik hodisa deb qaraymiz. Ta’lim etaloni va ta’lim standarti bir narsami yoki ular o‘zaro daxldor, ammo alohida — alohida hodisalarimi degan savolning tug‘ilishi tabiiy.

<sup>38</sup> Bu to‘g‘rida yana qarang: M.Mahmudov. Ona tili ta’limini etalon vositasida loyihalash// O‘zbek tili va adabiyoti. 2002. 1-son. 51-54-betlar.

Ta'lim etaloni ta'lim jarayonining tarhi bo'lib, unda u yoki bu mavzuni o'qitish jarayoni, uning mazmuni, ta'lim subyektlari — o'qitish faoliyati va o'qish faoliyatining amal qilish aklari, bosqichlari, davrlari, ta'limning maqsad, vosita natijalari aks etadi.

Standart (inglizcha — standart, ruscha — norma, o'zbekcha — qolip) qoida, namuna ma'nolarini anglatadi. Har bir o'quv predmetining o'zigagina xos standartlari mavjud. Masalan, o'zbek tilida «atoqli otlar — kishlarning ismi, familiyasi, joy nomlari, badiiy va ilmiy asar, tog' va adirlarning nomini to'g'ri yozish bitta qoida asosida — atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi» aniqligiga ko'ra boshqariladi. Agar davlat ta'lim standartlari barcha o'quv narsalariga ko'ra alohida-alohida tanlansa, ta'lim etaloni barcha o'quv narsalari uchun umumiy sanaladi. Binobarin, DTSlar o'zida xususiylikni, ta'lim etaloni umumiylilikni aks ettiradi.

Davlat ta'lim standartlari tanlanadi. Ular o'qituvchiga nisbatan mo'ljal (orientir) vazifasini o'taydi, o'quvchiga nisbatan o'r ganish obyekti munosabatida bo'ladi. Shu tufayli DTSlarni «subyekt-obyekt» tizimida qaraymiz. Bu ta'lim standartlarining o'zigagina xos xususiyatdir. Ta'lim etaloni keng tushuncha bo'lib, u ta'limni loyihalash, tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish vositasidir. Binobarin, ta'lim etalonini «inson va mehnat vositasi» tizimida qaramoq maqbuldir.

Mazmun va hajm jihatidan ta'lim etaloni boy hodisa. Binobarin, bir etalon tarkibida ta'lim maqsadlari, vositalari, natijalari bilan bir qatorda, davlat ta'lim standartlari ham beriladi. Standart esa o'ziga va faqat o'ziga xos mazmunga ega. Ta'lim etaloni o'zgaruvchan hodisa. U yoki bu mavzuga boshlang'ich sinflar uchun alohida, yuqori sinflar uchun alohida ta'lim etalonlari tuziladi. O'quvchilar sinfdan sinfga o'tgan sari o'quv dasturlari mazmuniga qarab ta'lim etaloni o'zgarib, rivojlanib boradi. Ta'lim standartlari esa nisbatan turg'un bo'ladi. Ular fanda, fan orqali o'quv narsalarida sezilarli kashfiyotlar bo'lgunga qadar o'z turg'unligini saqlaydi.

Ta’lim etaloni o’zlashtirish jarayoniga taalluqli bo’lib, uning vositasida bolalarning to’liq kafolatlangan natija darajasida o’zlashtirishlari ta’minlanadi. DTSlar esa o’zlashtirish obyektlari, binobarin, o’rganish narsalari bo’lib, o’quvchi o’zlashtirish pog’onalaridan (darajalaridan) yuqoriga ko’tarilgan sari, ta’lim etaloni talablariga mos bilim, ko’nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlariga ega bo’ladi.

Etalon tuziladi, binobarin, u o’ziga xos qurilishga ega. Standart tanlanadi, binobarin, ularni sanash imkoniyati mavjud.

Ta’lim etaloni ta’limning maqsadi, vositasi, natijasini oldindan qayd etish, ta’lim etaloni mazmunini, shu bilan birga ta’lim standartlarini aniqlash, ta’lim subyektlari faoliyati, ta’lim usullari, prinsiplarini moddiylashtirish yo’llari bilan shakllantiriladi. Ana shu jihatlariga ko’ra, ta’lim etaloni didaktik loyihalash vositasi sanaladi. DTS ma’lumot va ta’lim mazmuni, o’quv predmetlari xususiyatlari ko’ra aniqlanadi. Shu xususiyatlari jihatidan DTS bolalar o’zlashtirishining majburiyat bilan daxldor uzvi hisoblanadi. Zero, DTSni yoshlarning to’liq o’zlashtirishidan barcha — ota-on, jamoatchilik, davlat manfaatdordir.

Ta’lim etalonida ta’lim maqsadlari ham ko’zda tutiladi. Ta’lim etalonida ta’lim maqsadlarining quyidagi turlari qayd etiladi.

**O’qitish maqsadlari.** Ta’lim jarayonida o’qituvchi qator tashkiliy-boshqaruv maqsadlarini amalga oshiradi: **ta’limni tashkil etish maqsadi** — bu o’quvchi bilan o’quv materiali o’rtasidagi aloqani yuzaga chiqarishga yo’nalgan maqsaddir. Tashkiliy maqsad ta’limni rejalashtirish, o’quvchilar faoliyatini bevosita tashkil etish, o’quvchilarni o’qish-o’rganishga rag’batlantirish yo’llari bilan amalga oshiriladi; **ta’limni boshqarish** — bu o’quvchining bir faoliyat turidan ikkinchisiga o’tishiga va shu asosda o’quv materiallarini o’zlashtirishning quyi

darajasidan yuqori darajasiga ko'tarilishiga, o'quv-chilarning to'liq o'zlashtirishiga rahbarlikdir; ta'lim natijasini nazorat qilish maqsadi — o'qitish va o'qish maqsadlari o'rtasidagi teskari aloqaga ko'ra, ta'lim natijasi tahlil qilinadi, bolalar faoliyatidagi kemptik joylar aniqlanadi, ta'limning borishi va bolalar o'zlashtirishiga tuzatish, qo'shimcha, aniqliklar kiritiladi.

## 2-fasl. Ta'lim etalonining tiplari

Har qachon fanda yangi muammo paydo bo'lsa, tadqiqot predmeti doirasida o'rganilayotgan hodisalarni tasnif etishga ehtiyoj tug'iladi. Tasnif asosida o'rganilayotgan hodisaning, ayni holatda ta'lim etalonining turli nuqtai nazarlari ajratiladi. G.Klausning qayd etishicha, ilmiy ishda tadqiqot predmetining turli tomonlari tahlil qilinganda, bir asosga ko'ra o'tkazilgan tasnif ziddiyatli bo'ladi<sup>39</sup>. Ana shunga ko'ra, ta'lim etaloni tasnifini ko'p asosga binoan o'tkazish ma'qul.

**1. Ta'limning borishiga ko'ra ta'lim etaloni turlari.** Ta'lim sharoitida o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyati, asosan, ikki yo'l bilan tashkil etiladi: deduktiv yo'l; induktiv yo'l. Ta'limni deduktiv yoki induktiv tashkil etish o'rganiladigan bilimlarning mohiyatiga ham bog'liq.

Maktablarda o'rganiladigan bilimlar mohiyati va shakllanishiga ko'ra uch guruhga ajratiladi: **fenomenologik, analitik-sintetik, aksiomatik bilimlar**.

**Fenomenologik bilimlar** dalillar bilan ishlashni taqozo qiladigan, dalillar asosida xulosalar chiqarish imkoniyatlari katta bo'lgan o'quv predmetlaridir. Ona tili va chet tillar, matematikaning arifmetikaga oid materiallari fenomenologik bilimlar sanaladi. Masalan, qaratqich (-ning) va tushum (-ni) kelishiklari qo'shimchalarini o'zaro taqqoslash,

<sup>39</sup> Клаус Г. Введение в формальную логику. Пер. с немец. Предисловие А.А. Ветрова. — М.: II 1960. стр.184.

ularning ma'nolarini gap tarkibida tahlil qilish, so'roqlarini aniqlash yo'llari bilan o'rganish mumkin.

Maktab ta'limida o'rganilayotgan bilimlarning mohiyati, turi, o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini tashkil etish yo'llarini hisobga olib, ta'lim etalonining quyidagicha turlari farqlandi.

**1. Deduktiv etalonlar.** Hozirgi maktab amaliyotida ta'limni deduktiv o'tkazish an'anaga aylangan. Ta'limni deduktiv yo'l bilan tashkil etish, boshqarishning qator afzalliklari bor: mavzu yuzasidan axborotlar zudlik bilan to'planadi; axborot to'plashga vaqt oz sarflanadi. Bular o'z navbatida, to'plangan axborotlar ustida ishslash uchun ko'proq vaqt ajratishga imkoniyat yaratadi. Ta'limni deduktiv yo'l bilan o'tkazishning qator zaif tomonlari ham mavjud: bolalar o'quv-biluv faoliyatining evristik (topqirlilik) layoqati kam taraqqiy etadi: mustaqillik shaxsiy sifat shaklida to'liq rivojlanmaydi; bilimlarni verbal yo'l bilan egallash ustuvorlik qiladi; ijodiy faoliyat taraqqiyotiga yetarli e'tibor berilmaydi.

**2. Induktiv etalonlar.** Ta'limni induktiv tashkil etish ijodkor, tajribali o'qituvchilar faoliyatida ko'proq uchraydi. Ta'limni induktiv tashkil etishning qator afzalliklari mavjud: o'quvchilar faoliyatining evristik layoqatini o'stirish, bolalarda mustaqillikni tarbiyalash, o'quvchilarni permanent-uzlusiz ta'limga tayyorlash. Qator afzalliklariga qaramasdan, induktiv ta'limning ham bir qancha zaif tomonlari bor: axborotlarni egallashga ko'p vaqt sarflash, o'quv materiali mazmunidagi asosiy bog'lanishlarga yetarli ahamiyat qilmaslik, bilimlarni o'zlashtirishda tizimlilikka e'tibor bermaslik, o'zini qiziqtirgan dalil atrofida uzoq muddat o'ralashib qolish. Ta'lim etaloni asosida bu kamchiliklarni bartaraf etish imkoniyatlari ham mavjud.

Ta'lim etaloni asosida tashkil etiladigan pedagogik amaliyotda o'qituvchi va o'quvchilar faol ishtiroy etishadi,

o‘qituvchi ta’lim jarayonida o‘quvchilar oldiga topshiriqlar qo‘yish, o‘quvchilar esa topshiriqlarni bajarib, xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosalarni darslik materiallariga taqqoslash, bilimlarni yangi sharoitlarga ko‘chirish yo‘llari bilan ishtirot etadi. Mashg‘ulotda bilimlarni o‘rganish, mustahkamlash, nazorat qilish ketma-ket tashkil etiladi, Eng asosiysi, ta’lim etalonini vositasida ham (dars konspektini eslang) pedagogik amaliyot tashkil etiladi, boshqariladi, nazorat qilinadi.

Ta’limning davomiyligi, ta’limning bosqich va davrlari o‘rtasidagi mantiqiy aloqadorlikka binoan, barcha etalonlarni ochiq va yopiq etalonlarga ajratish mumkin.

**Ochiq etalon** — bu oldin foydalanilgan etalonning davomi, endi tuziladigan etalonning boshlanishi bo‘la oladigan ta’lim etalonini demakdir.

**Yopiq etalon** — bir mavzu yoki bo‘lim doirasida foydalaniladigan, boshqa mavzular bo‘yicha tuzilgan etalonlar bilan mantiqiy bog‘lanmagan etalonlarni yopiq etalon sifatida qaraymiz. Namuna uchun «Undalma» mavzusida tuzilgan etalonni keltiramiz.

**I. Etalonning bosh maqsadi** — og‘zaki va yozma nutqda undalmalarni to‘g‘ri ishlatish.

**II. Ta’lim natijalari** — undalmaning ta’rifi (1); sodda va murakkab undalma (2); shaxs va narsalarga qaratilgan undalmalar (3); undalmalarning gapdagisi o‘rni (4); undalmalarni o‘qish (5); undalmalarda tinish belgilari (6); gapda undalmalarning uyushib kelishi (7); undalmali gaplarda egani topish (8).

**III. Natijaga erishish shartlari** — ota-onaning bolalarga, boboning nevaralarga nasihatini eslab, gaplar tuzish (1); matndan shaxsga va narsalarga qaratilgan undalmali gaplarni ajratib yozish (2); yozilgan gaplarda so‘zlovchining nutqi kimga va nimaga qarata aytilganini aniqlash (3), undalmalarga ta’rif berish (4); berilgan ta’rifni darslikdagi aniqlikka chog‘ishtirish (5); berilgan so‘zlarni undalma

vazifasida qatnashtirib gap tuzish (6), darslikdagi mashqlardan oldin sodda undalmali, keyin murakkab undalmali gaplarni ajratib yozish (7); undalmali gaplarni o‘qish ustida mashq qilish (8); bolalarning ota-onalarga ertalabki salomi to‘g‘risida gaplar tuzish (9); tuzilgan gaplarda tinish belgilarini qo‘yishni tahlil qilish (10); «Bobomning nasihatni» mavzusida ijodiy hikoya tuzish (11); darslik va boshqa manbalardan undalmali gaplarga misollar izlab topish (12); izlab topilgan gaplarni undalmalarga ko‘ra to‘liq tahlil qilish (13).

**IV. Natijani o‘lchash me’yori va baholash usuli** — undalmalar bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarni dalillar bilan sharhash (1); ijodiy topshiriqlarni bajarish (2); testlar to‘plamini aytilgan vaqt ichida yechish (3); o‘zi va o‘rtoqlari yozgan matnni undalmalarga ko‘ra, tahlil qila olish (4); undalma bo‘yicha o‘rganilgan bilimlarga o‘z munosabatini bildirish (5).

**Ta’lim turlariga ko‘ra ta’lim etalonlari.** Ta’lim o‘ta murakkab jarayon, uni o‘qitish, o‘qish hamda bu faoliyatning o‘zaro ta’siri jihatidan ham tasavvur etish mumkin. Ta’limni uning ishtirokchilari jihatidan tasavvur etishda o‘qituvchi va o‘quvchi vaziyatlari aniqlanadi. Ta’lim ishtirokchilarining faol yoki sust vaziyatlariga ko‘ra, ta’limning quyidagicha turlari va ularga oid ta’lim etalonlari ishlab chiqiladi.

**Izohli ko‘rsatmali ta’lim etalonleri.** Ta’limning bu turi o‘quvchilar xotirasiga mo‘ljallab tuziladi. Izohli-ko‘rgazmali ta’limda o‘qituvchi o‘rganilayotgan mavzuga oid bilimlarni o‘z so‘zları bilan aytib beradi, zarur o‘rinlarda bolalar diqqatini ko‘rgazma qurollar, mavzuga oid dalillarga tortadi. Ta’limning bu turi bilimlardan, binobarin, davlat ta’lim standartlaridan ular ustida mashq qilishga qarab borish qolipida o‘tkaziladi. Ta’lim xotiraga mo‘ljallanganligi uchun unda o‘qituvchi faol, bolalar sust vaziyatda ishtirok etadi. Masalan, 3-sinfda «O‘zak va o‘zakdosh so‘zlar»

---

mavzusi o'tiladi. Ta'lim dasturiga muvofiq, o'zakning ta'rifi, o'zakdosh so'zlarga berilgan aniqlik, o'zakdosh so'zlar umumiyligini qismlarining bir xil yozilishi o'rganiladi. Ta'lim etalonini shu bilimlar mazmunidan kelib chiqib tuziladi.

**I. Etalonning bosh maqsadi** — o'zak va o'zakdosh so'zlarga oid tushunchalarini o'rgatish.

**II. Ta'lim natijasi** — o'zakning ta'rifi (1); o'zakdosh so'zlar ta'rifi (2); o'zakdagagi so'zlar umumiyligini qismining bir xil yozilishiga oid qoida (3).

**III. Natijaga erishish shartlari** — o'qituvchi aytgan dalillarni kuzatish (1); o'qituvchi tushuntirishlarini diqqat bilan tinglash (2); o'zakdosh so'zlarga misollar o'ylab topish (3); darslikdagi mashqlarni bajarish (4).

**IV. Natijani o'lchash me'yori va baholash usuli** — matndan o'zakdosh so'zlarni saylab yozish (1); berilgan so'zlar orasidan o'zakdosh so'zlarni ajratib yozish (2); o'qituvchi diktovkasi paytida o'zakdosh so'zlarni saylab yozish (3); berilgan so'z ishtirokida o'zakdosh so'zlar tuzish (4).

**Izohli-ko'rsatmali ta'limda oldin ta'lim etalonining 2-qismi bo'yicha mashg'ulot tashkil etiladi**, bilimlar o'rganiladi, so'ngra mustahkamlashga o'tiladi.

**Muammoli ta'lim etalonini.** Muammoli ta'limda o'qitish va o'qish faoliyati quyidagicha amal qiladi: o'qituvchi muammolarni bolalar oldiga qo'yadi; bolalar muammoni qabul qilib, unda berilgan dalillarni idrok qiladi (1); o'quvchilarga muammoni tahlil qilish, uni yechishga oid farazlarni aytishni taklif qiladi; bolalar turli farazlarni aytishadi (2); o'qituvchi aytilgan farazlardan ma'qulini tanlashni aytadi, bolalar muammoni hal qilishga yaroqli farazni tanlashadi (3); o'qituvchi bolalardan tanlagan farazni muammoni hal qilishga tatbiq qilishini so'raydi, bolalar tatbiq qiladi (4); o'qituvchi muammoning yechimidan xulosa chiqarishni so'raydi; bolalar o'z kuchlariga yarasha xulosa chiqarishadi (5); o'qituvchi bolalar o'z kuchlariga

yarasha chiqargan xulosani to'ldiradi, aniqlik kiritadi; bolalar o'qituvchi izohlarini tinglashadi (6); o'qituvchi chiqarilgan xulosani turli o'quv holatlariga tatbiq qilishni taklif qiladi; bolalar mustaqil chiqarilgan xulosani mustahkamlashadi.

Muammoli ta'limda ta'limning har ikkala subyekti ham faol ishtirok etadi. Bilimlarni o'zlashtirish amaliy faoliyatdan xulosaga; xulosadan mustahkamlashga qarab borish qolipi asosida tashkil etiladi.

Topshiriqligi ta'lim faol ta'limning yana bir turi bo'lib, uning asosida o'quv topshiriqlari yotadi. O'quv topshirig'i o'quv materialining o'zgartirilgan shaklidir. Masalan, 3-sinflar uchun tuzilgan ta'lim etalonining 3-qismini keltiramiz.

**Natijaga erishish shartlari** — sinf xonasini diqqat bilan kuzating(1), sinfda qanday jonli-jonsiz narsalarni ko'rdingiz? O'zingiz ko'rgan narsalarning nomini yozing (2), o'zingiz yozgan narsalarning nomini kim? va nima? so'roqlariga ko'ra ikki guruuhga ajratib yozing (3), birinchi guruuhda yozilgan otlar qaysi so'roqqa javob bo'ladi, ikkinchi guruhdagi otlar-chi (4), otlar qanday so'roqlarga javob bo'ladi (5), otga oid so'zlar nimaning nomini bildiradi (6), narsalarning nomini bildirgan so'zlarga nima deb aytiladi (7). Bu o'quv topshiriqlari «Ot» mavzusi bo'yicha o'rganiladigan o'quv materiallarining o'zgartirilgan shaklidir. O'quv topshiriqlari vositasida ta'lim subyektlari — o'qituvchi va o'quvchi bir-birini tushunadi. Ta'lim subyektlarining bir-birini tushunishi maqsadlarni ham o'ziga qamrab oladi, ta'lim vositalarini anglatadi, topshiriqni bajarish orqali natijalar ham his qilinadi. O'qituvchi o'quvchilar chiqargan xulosalarni quyidagicha to'ldiradi: atrofimizni o'rabi olgan narsalarni bir so'z bilan «narsa» deb ataymiz. Shaxs va narsalarning nomini bildirgan so'zlarga ot deyiladi. Kim? so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar kishilarni bildiradi. Kishidan boshqa narsalarni

bildirgan otlar nima? so‘rog‘iga javob bo‘ladi Endi bilimlarni mustahkamlash bosqichiga o‘tiladi.

Ta’lim etalonlarini differensial ta’lim xususiyatlarini hisobga olib gomogen va geterogen guruhlarga moslab, shuningdek, ta’lim tempiga mo‘ljallab retardik (sekin ishlaydigan o‘quvchilar) va akselerativ (jadal sur’at bilan ishlaydigan o‘quvchilar) guruhlarga ajratish hamda tuzish mumkin.

### **3-fasl. O‘quv materialini ta’lim etalonini vositasida loyihalash tizimi**

Didaktik loyihalash o‘qitish faoliyatining eng qadimiy tarkibiy qismidir. O‘qituvchilik kasbi paydo bo‘lgandan buyon u yoki bu haqiqatni o‘quvchilarga qanday tushuntiramani, qanday vosita hamda usullardan foydalanib, mashq‘ulot o‘tkazaman kabi savollar o‘qituvchiga o‘z faoliyatining alohida nuqtayi nazari — didaktik loyihalashni esga tushirib turadi.

O‘qituvchi faoliyatida didaktik loyihalashning juda ko‘p usul hamda vositalari mavjud: konspekt, topshiriq, muammo, mashq, tarqatma materiallar, test va shu kabilar vositasida loyihalash faoliyati amalga oshiriladi. O‘quv tops hiriqlari yordamida o‘quv materiallari darslikda berilgan holatdan o‘quv-biluv faoliyatini amalga oshirish shakliga olib kelinsa, mashqlar to‘plamini tuzish paytida u yoki bu o‘quv materiali mazmunini o‘xhash o‘quv holatlarida takrorlash me’yorlariga rioya qilinadi, O‘quv muarmmolarini tanlashda o‘quvchilarning tafakkuri, ijodiy faoliyati mo‘ljalga olinsa, testlar to‘plamini tayyorlashda esa uning xotirasi, o‘zlashtirish natijalarini hisobga olinadi. Ta’lim etalonini ham ana shunday vositalardan biridir.

Garchi ta’lim etalonini ham didaktik loyihalash vositalidan biri bo‘lsa-da, uning o‘zigagina xos qator xususiyatlari mavjud: an’anaviy loyihalash vositalarida ta’lim subyektlaridan biri o‘qituvchi faoliyatining amal qilish

va harakatlanish shakllari hisobga olinsa, ta'lim etalonida o'qitish va o'qish faoliyatining o'zaro ta'siri, ularni akt, bosqich, davr shaklida tashkil etish, boshqarish, nazorat qilish ham aks etadi. Metodik hodisalarni qamrab olish doirasining kengligi jihatidan, ta'lim etaloni kompleks loyihalash vositasi sanaladi, bu birinchidan. Ikkinchidan, ta'lim etalonida o'quv materialining barcha tarkibiy komponentlari — bilim, ko'nikma-malaka, ijodiy faoliyat tajribasi, munosabatlar hamda ularni o'zlashtirish darajalari ko'zda tutiladi. Uchinchidan, ta'lim etaloni tizimli tahlil qilish yo'li bilan tuziladi. Binobarin, unda o'qitish va o'qish maqsadlari ham, o'qitish va o'qish vositalari ham, shuningdek, ta'limdan ko'zlangan natija ham oldindan qayd etiladi. O'qituvchi ta'lim etaloni vositasida o'quv-tarbiya jarayonini loyihalash mahoratini egallab olgan, deb tasavvur qiling. Etalon vositasida ta'lim jarayonini loyihalashni puxta egallab olgan o'qituvchi o'z faoliyatida yangicha ish qila boshlaydi. Ta'lim etaloni yangicha loyihalash imkoniyatidir. Bu imkoniyatga ega bo'lgan o'qituvchi pedagogik amaliyotda hali uchramagan didaktik loyihalarni tayyorlab, pedagogik jarayonning samaradorligini ham oshira biladi.

Didaktik loyihalash jarayonida o'quv materiali loyihalash predmeti sifatida qaraladi. Loyihalash jarayoni tarkibiy qismlarining o'zaro ta'siridan loyihalash predmeti yangi shaklga — ta'lim etaloni holatiga olib kelinadi. Samarador loyiha tayyorlash loyihalash predmetining «optimal texnologik effektni» ta'minlaydigan xususiyatini ajratishni taqozo qiladi.

Ta'lim maqsadlarini aniqlashning qator ko'rinishlari mavjud: a) ta'lim maqsadini o'rganiladigan o'quv materiali mazmuniga ko'ra aniqlash. Masalan, bugun (yoki hozirgi darsda) «Ot» so'z turkumini o'rganasiz. Ta'lim maqsadini shu yo'sinda izohlash bolalarda bilish, o'rganishga qiziqishni oshirmaydi; b) ta'lim maqsadini o'qituvchi faoliyatiga ko'ra

**aniqlash.** «Bolalarni «Ot» so‘z turkumining ma’nolari, so‘roqlari bilan tanishtirish». Maqsadni aniqlashning bu ko‘rinishida o‘qituvchi bajaradigan ishlar tartibi (oldin otning ma’nolari, keyin so‘roqlari bilan tanishtirish) aniq qayd qilingan bo‘lsa-da, o‘quvchilarning o‘quv maqsadlari mavhumligicha qolaveradi; d) **ta’lim maqsadini o‘quvchilar bajaradigan ishlar, ularni tarbiyalash, rivojlantirish kategoriyalari orqali aniqlash.** «oquvchilarda ifodali o‘qish malakalarini rivojlantirish», «O‘quvchilarda nutqqa munosabatni tarbiyalash» shaklidagi maqsadlar o‘ta umumlashgan bo‘lib, ular maqsadlarning maktab darajasiga, o‘quv predmetlari yoki sikl o‘quv predmetlariga mos bo‘ladi; e) **o‘quv maqsadlarini bolalarning xatti-harakatlariga mos yumushlar orqali aniqlash.** «Ta’rifni o‘qib, misollar izlab topish», «berilgan so‘zlarni kim? va nima? so‘roqlariga ko‘ra, ikki guruhgaga ajratib yozish», «matndan nuqul atoqli otlarni saylab yozish» kabi o‘quv maqsadlari amaliy jihatdan samarali hisoblanadi.

#### **4-fasl. Ta’lim davrlarini loyihalash**

O‘qitish va o‘qish faoliyatlarining o‘zaro ta’siri, bir-biriga kirishuvidan ta’limning akt, bosqich, davrlari shakllanadi. O‘qitish va o‘qish faoliyatlarining o‘zaro ta’sirini hisobga olmasdan, bu ikkala faoliyatning bir-biriga kirishuvini o‘rganmasdan til ta’limi jarayoni xususida fikr yuritish mumkin emas. Zero, ona tili didaktikasi darajasida ta’lim o‘qitish va o‘qishning birligi, o‘zaro ta’siri sifatida qaraladi.

Fikrlashni 6-sinflarda atoqli otlarni o‘rganish mavzusi doirasida davom ettiramiz.

O‘zbek maktabida atoqli otlarni o‘rganish boshlang‘ich sinflardan boshlanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari kishilarning familiyasi va ismining bosh harfdan boshlab yozilishini, joy — shahar, ko‘cha, qishloq nomlarining, shuningdek, hayvonlarga berilgan nomlarning (Ajdar, Targ‘il, Mosh, Do‘nan) bosh harf bilan yozilishini bilib

olishadi, sinfdoshlarning ismlarini alfavit tartibida yozishni mashq qilishadi. Yuqori sinflarda birinchi bor o'quvchilar «atoqli otlar» atamasini o'rganishadi. Atoqli otlarning boshlang'ich sinflardan boshlab o'rganilganligini, mavzuning xususiyatlarini hisobga olib, uni induktiv yo'l bilan o'qitish ma'qul.

Atoqli otlarni o'rgatishning bosh maqsadi ularni «nutqda to'g'ri qo'llashdir». Shu maqsadni amalga oshirish uchun atoqli otlarning ta'rifi, atoqli otlarni yozish qoidasi o'rganiladi.

Atoqli otlar bitta davlat ta'lim standarti bo'lib, tarkibiga ko'ra murakkab, tushunilishiga ko'ra oson materialdir. 6-sinf darsligida atoqli otlarga quyidagicha ta'rif berilgan: yakka shaxs, narsa, joy, mahsulot, tashkilot, muassasa nomlarini ifodalab kelgan otlar atoqli otlar deyiladi,

Keltirilgan ta'rifni to'ldirish maqsadida atoqli otlarning imlosiga oid qoida beriladi: atoqli otlar bosh harfdan boshlab yoziladi. Shu orfografik aniqlikka muvofiq kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi (1), daryo, ko'l va boshqa suv havzalari nomining (2), joy — qishloq, ko'cha, shahar nomlarining (3), sahro, cho'l, pasttekisliklar nomining (4), hayvonlarga atab qo'yilgan otlarning (5), badiiy va ilmiy asar sarlavhalarining (6), oynoma va ro'znama nomlarining (7), davlat nomlari hamda davlat ramzlari — madhiya, gerb, bayroq, qonun nomlarining (8) bosh harfdan boshlab yozilishi ustida mashq qilinadi.

Atoqli otlarning ta'rifi va ularga oid qoidani bolalarning puxta egallashi uchun qator shartlarga rioya qilib, mashg'ulotlar tashkil etiladi.

Mashg'ulotni induktiv yo'l bilan tashkil etish. Bunda quyidagi tartibga rioya qilinadi: bolalar nutqida mavjud atoqli otlarga oid so'zlarni faollashtirish. Buning uchun matnni kuzatish va atoqli otlarni topib ko'rsatish; sinfdoshlarning ism, familiyalarini aytish, kuzatilgan dalillar asosida xulosa chiqarish, shu

xulosani darslikda berilgan ta'rifga chog'ishtirish, yangi ta'rifni berilgan o'quv holatlariga tatbiq qilish kabi usullardan foydalaniadi.

Maktab ta'limida foydalaniladigan o'quv holatlarini besh guruhga ajratib o'rganish mumkin.

— **tahlil qilishga oid o'quv holati.** Berilgan shahar nomlari (Toshkent, Samarqand, Guliston, Navbahor, Shofirkon, Buxoro, Qorako'l, Xiva) orasidan oldin eng qadimiy shaharlar nomini, keyin yangi shaharlar nomini yozish;

— **qayta qo'shishga oid o'quv holati.** Berilgan dalillarni o'qib, bitta umumiy xulosa chiqarish: Tyanshan, Amudaryo, Sirdaryo, Hisor, Oloy, Zarafshon (tog' va daryolarning nomi bosh harf bilan yoziladi);

— **tatbiq etishga oid o'quv holati.** Matndan kichik harf bilan yozilgan atoqli otlarni topib, katta harf bilan yozish;

— **mashq qilishga oid o'quv holati.** Masalan, ikkita bir xil o'quv holati berilgan bo'lsin: sinfdoshlariningizdan beshta o'g'il bolaning ismini yozing; sinfdoshlariningizdan beshta qiz bolaning ismini yozing. Keyingi o'quv holati oldingisiga nisbatan mashq qilish sanaladi;

— **umumlashtirishga oid o'quv holati.** Berilgan dalillaridan umumiy xulosa chiqarish: shahar nomlari — Toshloq, Urganch; qishloq nomlari — Do'rmon, Chelak; daryo nomlari — Surxondaryo, Qashqadaryo. Demak, atoqli otlarning barchasi bosh harfdan boshlab yoziladi;

— **baholashga oid o'quv holati** (sinfdosh o'rtoqlari yozgan matnni atoqli otlar imlosiga ko'ra baholash).

O'quv holatlari ongda shakllanadi Shu tufayli ular ongni o'rganilayotgan mavzu bilan bog'lashning faol shakli sifatida qaraladi. O'quv holatlari bolalarni o'rganishga rag'batlantirishning yetakchi shakli bo'lib, u o'ziga javobni talab qiladi, bilish ehtiyojlarini uyg'otadi. Tasvir qilingan o'quv holatlariga ko'ra, o'quv topshiriqlari tizimi belgilanadi.

Atoqli otlarning ta'rifi va imlosiga oid bilimlarni o'rganishda quyidagicha o'quv topshiriqlari tizimi bajariladi.

1-topshiriq. Matnni (...) o'qib, kishilarning ismi, familiyalarini ajratib yozing.

2-topshiriq. Sinfdosh o'rtoqlaringizning ism, familiyasini alfavit tartibida yozing.

3-topshiriq. Ukangiz yoki eng yaqin qarindoshingizning chaqalog'iga ism qo'yish jarayonini eslab, qo'yilgan ismni yozing.

4-topshiriq. O'zingiz va qo'shnilarining iti, mushugi, oti, sigiriga qo'yilgan nomlarni aniqlab, ular ishtirokida gaplar tuzing.

5-topshiriq. Matndan (...) hayvonlarga atab qo'yilgan nomlarni ajratib, ularga sharh (Masalan, Ajdar itga qo'yilgan nom bo'lib, ajdarday baquvvat) tayyorlang.

6-topshiriq. Tabiiy xarita bo'yicha sayohat o'tkazib, eng yirik daryolar nomini yozing.

7-topshiriq. Berilgan so'zlar orasidan (...) oldin tabiiy, so'ngra sun'iy ko'llarning nomini yozish.

8-topshiriq Orol dengizi to'g'risida «Quriyotgan dengiz» mavzusida atoqli otlarni qatnashtirib hikoya yozish.

9-topshiriq. Qarindoshlar yashaydigan qishloqlarning nomini aniqlab, gaplar tuzish.

10-topshiriq. Suv havzalarining nömini yoddan yozish.

11-topshiriq. Shahar ko'chalariga berilgan nomlarni esga tushirib, sharh yozish.

12-topshiriq. O'zbekiston tog'lariga yozma tavsif tayyorlash.

13-topshiriq. O'zbekiston shaharlari va ularning geografik o'rnini tavsiflash.

14-topshiriq. Berilgan so'zlar (...) orasidan oldin eng qadimiy, so'ngra yangi shaharlar nomini yozish.

15-topshiriq. Respublika shaharlari nomini alfavit tartibida esga tushirib yozish.

16-topshiriq. O'qilgan badiiy asar, yodlangan she'rlar nomini alfavit tartibiga keltirish.

17-topshiriq. Sinf kitob javonidagi kitoblar ro‘yxatini alfavit tartibida yozish.

18-topshiriq. «Biz obuna bo‘lgan ro‘znama, oynomalar» mavzusida matn tuzish.

19-topshiriq. Davlat ramzlari nomini yoddan yozish.

20-topshiriq. Respublika viloyatlari poytaxtlarini xaritadan izlab topish va alfavit tartibidagi ro‘yxatini tayyorlash.

Ta’lim loyihasini tayyorlash paytida o‘quvchilarning yoshi, tayyorgarlik darajasi va real bilish imkoniyatlari hisobga olinib, o‘quv holatlari tasavvur qilinadi. Tasavvur qilingan o‘quv holatlariga ko‘ra mavzu bo‘yicha o‘quv topshiriqlari tizimi belgilanadi. O‘quv topshiriqlarini bajarish paytida bolalarning real o‘quv imkoniyatlariga rioxqa qilib, o‘quv-biluv yumushlari tashkil etiladi, o‘quv-biluv faoliyati boshqariladi. Shunday qilib, loyihalash jarayonida bolalarning o‘quv-biluv faoliyati tasavvur qilinib, loyihalar tayyorlanadi; loyihani amalga oshirishda o‘quvchilarning real bilish imkoniyatlari hisobga olinib, o‘quv ishlari tashkil etiladi, boshqariladi.

Ta’lim loyihasida ta’lim natijasini qayd etish vositalarini oldindan belgilash alohida ahamiyatga ega. «Atoqli otlar» mavzusida quyidagi vositalar orqali ta’lim natijalarini o‘rganish mumkin: o‘qituvchi diktovkasidan atoqli otlarni ajratib, bosh harfdan boshlab yozish; berilgan vaqt doirasida matndan kichik harf bilan yozilgan atoqli otlarni topib, qoidaga ko‘ra tuzatib yozish; atoqli otlarning turlariga (masalan, daryolarning nomi, ko‘llarning nomi) o‘qituvchi aytgan miqdorda misollar topib yozish; tuzilgan matnni atoqli otlar jihatidan tahlil qilish; berilgan vaqt doirasida test to‘plamini bajarish.

Keltirilgan tavsifga ko‘ra, ta’lim aktlari, bosqichlari, davrlariga amal qilinganini kuzatamiz.

Ta’limning harakatidagi eng kichik birligi aktdir. Ta’lim aktining qator xususiyatlari mavjud: uni bundan keyin

mayda bo‘laklarga ajratish mumkin emas. Misol uchun ushbu aktni tahlil qilamiz: matnni o‘qib, kishilarning ismi, familiyalarini ajratib yozish. Ta’lim akti yaxlit holida ma’lum bir natijaga teng bo‘ladi.

Akt, bosqichlardan ta’lim davrlari shakllanishini kuzatish maqsadida ta’lim etalonini keltiramiz.

### Ta’lim etaloni

**I. Etalonning bosh maqsadi** — nutqda atoqli otlarni to‘g‘ri ishlatish.

**II. Ta’lim natijalari** — atoqli otlarning ta’rifi (1); atoqli otlarni yozish qoidasi (2); bosh harfdan boshlab yoziladigan so‘zlar — kishilarning ismi, familiyasi, otasining ismi (3), daryo, ko‘l va boshqa suv havzalarining yozilishi (4); joy nomlari — qishloq, ko‘cha, shahar nomlari (5); tog‘, pasttekisliklar, cho‘l va sahrolar nomining yozilishi (6); badiiy va ilmiy asarlar, oynoma, ro‘znomalarning nomi (7); davlatlar nomining aytilishi, yozilishi, shuningdek, davlat ramzları — madhiya, gerb, bayroq, qonun nomlari (8).

**III. Natijaga erishish shartlari:** matndan kishilarning ism, familiyalarini saylab yozish (1), sinfdoshlarning ism, familiyalarini alfavit tartibida yozish (2), yangi chaqaloqqa nom berish sahnasini jondantirish (3), it, mushuk, sigir va otga nom berish (4), atoqli otlarga ta’rif berish (5), matndan hayvonlarga berilgan nomlarni ajratib yozish (6), geografik xarita bo‘ylab sayohat — daryolarni izlab topish va nomlarini yozish (7), tabiiy va sun’iy ko‘llarning nomini ikki guruhga ajratib yozish (8), atoqli otlarning yozilishiga oid qoidani chiqarish (9), «Quriyotgan dengiz». mavzusida hikoya tuzish (10), qarindoshlar yashaydigan qishloqlar nomini qatnashtirib gaplar tuzish (11), suv havzalarining nomini yoddan yozish (12), shahar ko‘chalariga berilgan nomlarni sharplash (13), O‘zbekiston tog‘lariga yozma tavsif tayyorlash (14), O‘zbekiston shaharlarining nomlarini xaritadan izlab topish va gaplar tuzish (15), berilgan so‘zlar orasidan oldin eng qadimiy shaharlar, keyin yangi shaharlar

nomini ikki guruhga ajratib yozish (16), Respublika shaharlari nomini alfavit tartibiga keltirish (17), sinfdoshlar o‘qigan badiiy asarlar, yodlagan she’rlar ro‘yxatini tuzish (18), sinf kitob javonidagi kitoblar ro‘yxatini alfavit tartibida tuzish (19), sinf o‘quvchilari obuna bo‘lgan ro‘znama, oynomalarni so‘rab bilish va gaplar tuzish (20), davlat ramzlarining nomlarini esga tushirib, «Davlat ramzlari» mavzusida matn tuzish (21), Respublika viloyatlarining markaziy shaharlarini xaritadan izlab topish va «Bizning o‘lka’ mavzusida hikoya yoki insho yozish (22).

**IV. Erishilgan natijani o‘lhash me’yori va baholash usuli:** kafolatlangan natija talabiga ko‘ra a) o‘qituvchi diktovkasida uchragan atoqli otlarni to‘g‘ri yozish; b) berilgan vaqt ichida matnni o‘qib, kichik harf bilan yozilgan atoqli otlarni tuzatib yozish; d) atoqli otlar va ularning turlariga o‘qituvchi talab qilgan miqdorda misollar o‘ylab topish; e) o‘zi, o‘zgalar yozgan matnni atoqli otlarning yozilishiga ko‘ra sharhlash; f) nazorat testlar to‘plamini berilgan vaqt doirasida bajarish. Keltirilgan etalon vositasida ta’lim davrlarining shakllanishini kuzatamiz.

Ta’limning ilk davri — o‘quv materiali obrazini ongda shakllantirish bilan xarakterlanadi. Bu natijaga erishish uchun to‘qqizta ta’lim akti tashkil etiladi: 1-3-aktlar mavzuni o‘rganishga tayyorgarlik bosqichi sanaladi. Bolalar nutqida atoqli otlarga oid dalillar faollashadi. Shu dalillarga ko‘ra, dastlabki xulosa chiqariladi: yakka shaxc, narsa-joy, tashkilot va muassasa nomlarini ifodalab kelgan otlar atoqli ot deyiladi. Dalillar qayta kuzatilib, atoqli otlarni yozish qoidasi aniqlanadi: atoqli otlar bosh harf bilan yoziladi.

Chiqarilgan xulosalar darslikdagi ta’rif, qoidalarga taqqoslanadi. Endi bilimlarni mustahkamlash bosqichi boshlanadi. Buning uchun 4-9-aktlar tashkil etiladi, darslik mashqlari bajariladi. Ta’limning ilk davri aktlarning rivojlanib, ta’lim bosqichiga aylanishi, ongda atoqli otlarning konkret obrazi shakllanishi, dalillardan xulosa chiqarish,

chiqarilgan xulosani mustahkamlash bosqichlari bir-biriga o'tib, ta'limning dastlabki davri shakllanishiga olib keladi. Ta'lim natijasini o'qituvchi ham, o'quvchi ham sezal boshlaydi. Natijani — ongda atoqli otlar obrazini hosil qilish, shu obrazga oid tasavvurlarni sezish, anglash ta'lim davrida yuz beradi.

**Ta'limning navbatdagi davri** ongda shakllangan obrazni berilgan o'quv holatlariga tatbiq etish bilan daxldor. O'quvchilar «Quriyotgan dengiz» mavzusida hikoya tuzish (10-akt), qarindoshlar yashaydigan qishloqlarning nomlarini qatnashтирib gaplar yozish (11-akt), suv havzalarining nomini yoddan aytish (12-akt), shahar ko'chalarining nomini sharplash (13-akt), O'zbekiston tog'lariga yozma tavsif tayyorlash (14-akt), O'zbekiston shaharlarining nomini xaritadan izlab topish (15-akt), O'zbekiston shaharlari nomini qadimiy va yangi shaharlarga ajratib, guruhlarga bo'lish (16-akt) jarayonlarida atoqli otlarning ta'rifi, ularni yozish qoidasi berilgan o'quv holatlariga tatbiq qilinadi. Bilimlarni tatbiq qilish natijasi o'laroq, malakalar tarkib topadi, bola faoliyatida tezkorlik boshlanadi. Binobarin, ta'limning bu davrida o'zaro daxldor ikki hodisani kuzatamiz: Biri, ko'nikmalarning avtomatlashuvi. Bu ko'nikmaning rivojlanib malakaga aylanishi demakdir; Ikkinchisi, ongning yangi dalillar bilan boyishi. Bu kumilyatsiya hodisasi bo'lib, bilimlar rivojlanishi, faoliyatning takomillashuvi bilan xarakterlanadi.

**Ta'limning uchinchi davrida** yanada murakkab, qiyin o'quv holatlari tashkil etiladi: respublika shaharlarining nomini alfavit tartibida yozish (17-akt), sinfdoshlar o'qigan badiiy asar, yodlagan she'rlar ro'yxatini tuzish (18-akt), sinf kitob javonidagi asarlarning alfavit tartibini tayyorlash (19-akt), sinf o'quvchilari obuna bo'lgan ro'znama, oynomalar ro'yxatini tuzish (20-akt), davlat ramzlarining nomlarini yozish (21-akt), respublika viloyatlarining poytaxtlarini xaritadan izlab topib, «Bizning o'lka»

mavzusida insho yozish (22-akt). Bu aktlar 2-davrda amalga oshirilgan aktlarga nisbatan xiyla qiyin bo'lib, bolalarning tushuncha darajasida fikrlashini ta'minlaydi. Tushuncha darajasida o'zlashtirgan o'quvchi uchun bilim shaxsiy mulkka aylanadi.

**Ta'larning so'nggi davrida erishilgan natijalar tekshiriladi.** Bilimlarni tekshirish vositalari etalonda berilgan. Shunday qilib, ta'lim davrlari spiralga o'xshaydi. Spiralning har bir aylanasida ta'lim mazmuni, maqsadi, vositasi takrorlanib, o'quvchilarni etalonda ko'zda tutilgan natijaga olib keladi. Ta'lim natijasi o'quvchi faoliyatida tekshiriladi.

Ta'lim etalonini murakkab metodik hodisa bo'lib, o'ziga xos mohiyat va qurilishga ega. O'ziga xos mohiyat hamda qurilishga ega har qanday pedagogik hodisa alohida tadqiqot o'tkazishni taqozo qiladi. Pedagogik tahlil yo'li bilan ta'lim etalonining ta'limni loyihalash jarayonidagi funksiyalari oydinlashtirildi, ularning mantiqiy va didaktik qurilishi bayon qilindi. Ta'lim etalonini o'ziga xos qurilishga ega bo'lganidek, uning o'zigagina xos tiplari — ko'rinishlar ham mavjud. Induktiv va deduktiv etalonlar, ochiq va yopiq etalonlar, izohli ko'rsatmali va faol ta'limga mo'ljallangan etalonlar, gomogen va geterogen, shuningdek, retardik va akselerativ ta'lim etalonlari mavjud.

**Ta'lim etalonini — didaktikada yangi hodisa.** U keng masshtabda, barcha o'quv predmetlari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazishni taqozo qiladi. Dastlabki erishilgan natijalarga ko'ra, ta'lim etalonini an'anaviy loyihalash vositalaridan farqli o'laroq, ta'lim jarayonini ilmiy asosda yaxlit loyihalash vositasi sifatida baholash mumkin.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. ABDULLAYEV Y. Eski matabdaxat-savod o'rgatish. — T.: 1960.
2. ABDULLAYEVA Q. Birinchi sinfda nutq o'stirish. — T.: «O'qituvchi», 1980.
3. ABDULLAYEVA Q. Savod o'rgatish. — T.: 1983.
4. ABDULLAYEVA Q., RAHMONOVA S. Ona tili darslari (usuliy qo'llanma). — T.: 1999.
5. AZIZOVA A. G. Uchinchi sinfda ona tili darslari. — T.: 1982.
6. AZIZOVA A.G., IKROMOVA R. To'rtinchi sinfda ona tili darslari. — T.: «O'qituvchi», 1984.
7. ASHRAPOVA T., ODILOVA M. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. — T.: 1984.
8. ASHRAPOVA T., HOTAMOV N. Uchinchi sinfda o'qish darslari. — T.: 1983.
9. AHMEDOVA N. Boshlang'ich sinflarda nutq o'stirish usullari. (Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O'zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchisi yig'ilishi tezislari to'plami (1999-yil 29-30 aprel). — T.: «Sharq», 1999.
10. Birinchi sinfda o'qitish. — T.: «O'qituvchi», 1978.
11. Guldasta (Boshlang'ich sinflarda sinfdan tashqari o'qish). Tuzuvchi: Jo'rayeva K. — T.: «O'qituvchi», 1972.
12. JO'RAYEV K. Ifodali o'qish va hikoya qilish. — T.: «O'qituvchi», 1968.
13. JO'RAYEV K. To'rtinchi-yettinchi sinflarda ifodali o'qish metodikasi. — T.: «O'qituvchi», 1970.
14. ЛЬВОВ М., РАМЗАЕВА Т. Методика обучения русскому языку в начальных классах. — М.: «Просвещение», 1987.
15. IKROMOVA R. Grammatika, imlo va nutq o'stirishdan tarqatma materiallar. — T.: «O'qituvchi», 1993.
16. IMOMXO'JAYEV S., ZUNNUNOV A. Ifodali o'qish asoslari. — T.: 1978.
17. MAHMUDOV M.H. Ta'lim etaloni. — Buxoro. 1999.
18. MAHMUDOV M.H. Ta'limni didaktik loyihalash prinsiplari. — T.: A.Qodiriy nomidagi xalq nashriyoti, 2002.

19. MIRZAYEVA I. Boshlang'ich sinflarda xalq og'zaki ijodini o'rghanish. — T.: 1979.
20. MIRZAYEVA A. Boshlang'ich sinflar uchun orfografik so'z mazmuni. — T.: 1985.
21. ORIPOVQ., OBIDOVA M. Ifodali o'qish.— T.: «O'qituvchi», 1982.
22. ПИДКАСИСТИЙ Р.И. Самостоятельная познавательная деятельность школьников в обучении. — М.: 1980.
23. ПОЛЕЙ И.Р. Очерки по методике русского языка. — М.: 1965.
24. РАЗЫКОВ О.Р. Основы применения системы учебных задач в обучении. — Т.: 1981.
25. ROZIQOV O.R. O'zbek tilidan dars tiplari. — T.: 1976.
26. СМИРНОВА З.А. Руководство творческой познавательной деятельности учащихся при закреплении учебного материала. — М.: 1980
27. QOSIMOVA K. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. — T.: 1985.
28. QOSIMOVA K. va boshqalar. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi fani dasturi. — T.: 1996.
29. QOSIMOVA K. Boshlang'ich sinflarda imlosi qiyin so'zlarni o'rgatish. — T.: 1964.
30. QOSIMOVA K. 4-sinfda ona tili darslari. — T.: 1978.
31. QOSIMOVA K., UBAYDULLAYEVA N. 2-sinfda ona tili darslari. — T.: 1987.
32. Ta'lif taraqqiyoti jurnali 7-maxsus son. Umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi (Boshlang'ich ta'lif). — T.: 1999.
33. Ta'lif taraqqiyoti jurnali 1-maxsus son. Umumiy o'rta ta'lifning davlat ta'lif standarti va o'quv dasturi (Ona tili).— T.: 1999.
34. TOSHTEMIROVA M. Ona tili darslarida o'quvchilarning nutq madaniyatini shakllantirish. Ta'lif jarayonida nutq mada-niyatini takomillashtirish masalalari. «O'zbek tili» Doimiy Anjuman ni beshinchi yig'ilish tezislari to'plami (1999-yil 29-30 aprel). — T.: «Sharq», 1999.
35. XUDOYBERGANOVA M. Uchinchi sinfda ona tili darslari. — T.: 1988.
36. XUDOYBERGANOVA M. Ikkinchisi sinfda ona tili darslari. — T.: 1977.
37. XO'JAYEV A. Izohli metodikaning ba'zi masalalari. — T.: 1968.

38. G'ULOMOV A.Q. Ona tili darslarida o'quvchilarning o'quvbiluv faoliyatini aktivlashtirish. — T.: 1987.
39. G'ULOMOV A.Q., SHUKUROV A. Ona tili darslarida o'quvchilarni mustaqil ishlatalish. — T.: 1976.
40. G'ULOMOV A.Q. To'rtinchi sinfda ona tili darslarida o'quvchilarning mustaqil ishlari. — T.: 1980.
41. G'ULOMOV M. Husnixat metodikasi. — T.: 1976.
42. G'ULOMOV N. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish. — T.: 1983.
43. SHOYMATOVA Z. Boshlang'ich sinflarda nutq madaniyatini rivojlantirish. Ta'lim jarayonida nutq madaniyatini takomillashtirish masalalari. «O'zbek tili» Doimiy Anjumani beshinchiyig'ilishi tezislari to'plami.(1999-yil 29-30 aprel). — T.: «Sharq», 1999.
44. SHOJALILOV A., YUSUPOV M. To'rtinchi sinfda o'qish darslari. — T.: 1989.
45. FUZAILOV S., XUDOYBERGANOVA M. Ona tili. Uchinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
46. HAMROYEV A.R. Birinchi sinfda o'qish darslari. — Buxoro. 2002.
47. IKROMOVA R. va boshqalar. Ona tili. To'rtinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
48. UMAROVA M. O'qish kitobi. 3-sinf uchun darslik. — T.: 2001.
49. QOSIMOVA K., FUZAILOVA S., NE'MATOVA A. Ona tili. 2-sinf uchun darslik. — T.: 2001.
50. G'AFFOROVA T., SHODMONOV E., ESHTURDIYEVA G. Alifbe (Savod) Birinchi sinf uchun. — T.: 2001.
51. G'AFFOROVA T., SHODMONOV E., ESHTURDIYEVA G. Ona tili. Birinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
52. G'AFFOROVA G. va boshqalar. Birinchi sinfda savod darslari. — T.: «O'qituvchi», 1996.
53. SHARAFIDDINOV O., ABDULLAYEVA Q. Alifbe (Shodlik). Birinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
54. SHARAFIDDINOV O., ABDULLAYEVA Q. Ona tili (Gulshan). Birinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
55. SHARAFIDDINOV O., ABDULLAYEVA Q. O'qish kitobi. Ikkinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.
56. SHOJALILOV A. va boshqalar. O'qish kitobi. To'rtinchi sinf uchun darslik. — T.: 2001.

## M U N D A R I J A

So‘zboshi .....	3
<b>I BOB      ONA TILI DIDAKTIKASI, UNING TADQIQOT PREDMETI, ASOSIY KATEGORIYALARI TIZIMI</b>	
1-fasl. Ona tili didaktikasining tadqiqot predmeti .....	7
2-fasl. Ona tili didaktikasining maqsad hamda vazifalari .....	9
3-fasl. Maktabda ona tili o‘qitishning umumiy asoslari .....	12
4-fasl. Ona tili didaktikasi va uning asosiy kategoriyalari ..	20
<b>II BOB      MAKTABDA ONA TILI PREDMETI VA UNING MAZMUNINI MODDIYLASHTIRISH DARAJALARI</b>	
1-fasl. Ona tili predmetining mazmuni .....	23
Ona tilidan ma’lumot mazmuni .....	24
Ona tilidan ta’lim mazmuni .....	26
Ona tili predmetining tarkibi .....	29
2-fasl. Ona tilidan ma’lumot mazmunini moddiylashtirish darajalari .....	36
3-fasl. Ona tilidan ta’lim mazmunini moddiylashtirish darajalari .....	43
<b>III BOB      TA’LIM SHAROITIDA ONA TILINI O‘ZLASHTIRISH QONUNIYATLARI VA PRINSIPLARI</b>	
1-fasl. Ta’lim sharoitida ona tilini o‘zlashtirish qonuniyatlar .....	54
2-fasl. Til ta’limi prinsiplari .....	60
<b>IV BOB      MAKTABDA LINGVISTIK BILIM VA TUSHUNCHALARНИ O‘ZLASHTIRISH</b>	
1-fasl. Lingvistik bilim va lingvistik tushuncha .....	77
2-fasl. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi obyektiv va subyektiv qiyingchiliklar .....	81
3-fasl. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirishning psixologik va didaktik xususiyatlari .....	85
4-fasl. Lingvistik bilimlarni o‘zlashtirish bosqichlari .....	93

<b>VBOB</b>	<b>ONA TILDAN TA'LIM METODLARI</b>	
	1-fasl. Ta'lif metodlari va ularning tarkibi .....	101
	2-fasl. Ta'lif metodlari tasnifi .....	105
	3-fasl. O'zaro ta'sirni tashkil etish va boshqarish metodlari tavsifi .....	109
	4-fasl. O'zaro ta'sir natijasini nazorat etish metodlari .....	117
	5-fasl. Ona tilining o'ziga xos ta'lif metodlari .....	121
<b>VIBOB</b>	<b>LINGVISTIK MASHQLAR</b>	
	1-fasl. Lingvistik mashqlar ta'rifi .....	128
	2-fasl. Lingvistik mashqlarning tarkibi .....	133
	3-fasl. Lingvistik mashqlarning tiplari .....	141
	4-fasl. Lingvistik mashqlar tizimi .....	155
	5-fasl. Lingvistik mashqlar tizimini ta'limga tatbiq etish ..	167
	6-fasl. Mashq qilish jarayoni .....	175
<b>VII BOB</b>	<b>ONA TILI DARSLARIDA MUSTAQIL ISHLARNING O'RNI</b>	
	1-fasl. Ona tilidan o'tkaziladigan mustaqil ishlar tizimi ....	190
	2-fasl. O'quvchilarning mustaqil ishlariga rahbarlik qilish .....	199
	3-fasl. Ona tili ta'limida muammoli darslar .....	202
<b>VIII BOB</b>	<b>ONA TILI DARSLARINING TIPOLOGIK TAMOYILLARI VA DARS TIPLARI</b>	
	1-fasl. Ona tiliga oid darslarning tipologik tamoyillari ....	211
	2-fasl. Ta'lif jarayoni maqsadiga ko'ra dars tiplari .....	218
	3-fasl. O'quv predmeti mazmuniga ko'ra dars tiplari .....	226
	4-fasl. Ona tili darslarining tarkibiy qismlari .....	232
	5-fasl. Ona tilidan darslar tizimi .....	241
<b>IX BOB</b>	<b>ONA TILDAN DARS TIPLARI TAVSIFI</b>	
	1-fasl. Yangi materialni o'rgatish va mustahkamlash darslari .....	249
	2-fasl. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari .....	264
	3-fasl. Bilim va malakalarni umumlashtirish darslari .....	278
	4-fasl. Bilim va malakalarni tekshirish darslari .....	285

X BOB	<b>ONA TILINI O'QITISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYASI</b>	
	1-fasl. «Ta'lism texnologiyasi» tushunchasi .....	287
	2-fasl. Ta'lism texnologiyasining pedagogik asosi .....	290
	3-fasl. Ta'lism texnologiyasining amaliy asosi .....	291
	4-fasl. Ta'limming maqsadi, vositasi, natijasi .....	294
	5-fasl. Ta'lism etalonni .....	307
	6-fasl. Test .....	312
	7-fasl. Reyting nazorati .....	322
	8-fasl. Ta'limming silsilaviy(sikliy)ligi .....	333
	9-fasl. Ona tilidan ta'lism turlari .....	343
XI BOB	<b>ONA TILI TA'LIMINI OPTIMALLASHTIRISH</b>	
	1-fasl. Ta'lismni optimallashtirish tushunchasi .....	349
	2-fasl. Ta'lismni optimallashtirish o'chovlari .....	351
	3-fasl. Ta'limming optimal varianti .....	353
	4-fasl. Ta'lism jarayonini optimallashtirish bosqichlari .....	356
XII BOB	<b>ONA TILINI TA'LIM ETALONI VOSITASIDA LOYIHALASH</b>	
	1-fasl. Ta'lism etalonni va davlat ta'lism standartlari .....	362
	2-fasl. Ta'lism etalonining tiplari .....	365
	3-fasl. O'quv materialini ta'lism etalonni vositasida loyihalash tizimi .....	371
	4-fasl. Ta'lism davrlarini loyihalash .....	373
	<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	382

*O'quv-uslubiy nashr*

**OCHIL ROZIQOV, MELS MAHMUDOV  
BAHTIYOR ADIZOV, ALIJON HAMROYEV**

**O N A T I L I  
D I D A K T I K A S I**

**Darslik**

Muharrir Gavhar MIRZAYEVA  
Badiiy muharrir Bahriiddin BOZOROV  
Tex. muharrir Yelena DEMCHENKO  
Musahhih Dilrabo MINGBOYEVA  
Kompyuterda sahifalovchi Nodir RAHIMOV

IB № 4118

Bosishga 16.12.2005 y.da ruxsat etildi. Bichimi 84x108 1/32.  
Bosma tobog'i 12,125. Sharthli bosma tobog'i 21,20.  
Adadi 3000 nusxa. Bahosi kelishgan narxda.  
Buyurtma № 247.

«Yangi asr avlodii» nashriyot-matbaa markazida tayyorlandi.  
«Yoshlar matbuoti» bosmaxonasida bosildi.  
700113 Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.